TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

JALIL MAMMADQULIZODA

YUSUF VAZIR CHAMANZAMINLI

62

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

JALIL MAMMADQULIZODA

YUSUF VAZIR CHAMANZAMINLI

62

1619325
TDYU ...
ARM (SO'NGGI NUSXA)

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)
J 20

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton — hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Muhiddin RAHIM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.


Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.


Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-9-2 **©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022**

JALIL MAMMADQULIZODA





"KO'ZINGIZNI OCHIB, MENGA BOQING!.."

Ozarbayjon yozma adabiyotining qariyb ming yillik tarixi bor. U adabiyotga Xoqoniy, Nizomiy, Nasimiy, Fuzuliy, Xatoiy, Voqif, Mirza Fathali Oxundov, Sobir kabi buyuk mumtoz siymolarni bergan. Ularning safida Jalil Mammadqulizoda ham o'ziga xos o'rin tutadi. Uning ijodiy faoliyati orqali ko'hna tarixli Ozarbayjon adabiyotining, Ozarbayjon realizmining yangi bir davri, yangi va tamoman original bir sahifasi ochildi.

Jalil Mammadqulizoda Ozarbayjon tanqidiy realizmini butunlay yangi maqomga ko'tardi, unga qudratli satirik yo'nalish baxsh etdi; ijtimoiy ma'no e'tibori bilan o'ta jo'shqin hayotning hamma tomonlarini qamrab olgan, ko'pgina janrlarni o'z ichiga oluvchi porloq bir maktab yaratdi.

Jalil Mammadqulizoda XIX asrning oxiri — XX asrning birinchi choragida yashab o'tgan jahon miqyosidagi gumanist va demokrat san'atkorlardan biridir. U o'z ijodining va ijtimoiy faoliyatining mutaraqqiy ma'nosi bilan ham, teran gumanistik mohiyati va yuksak badiiy ruhiyati bilan ham faqat ona xalqigagina emas, butun bashariyatga xizmat qilgan yozuvchi edi.

Jalil Mammadqulizoda 1866-yilda mo'min-musulmon bir oilada dunyoga keldi. XIX asrning o'rtalarida Sharq feodal hayoti va tafakkur tarzini, shafqatsiz chor zulmi va talonchilik ostida qolgan bir o'lkaning iqtisodiy, madaniy hayot darajasini tasavvur etish qiyin emas. Xalq ikkiyoqlama zulm ostida qolgan edi: ijtimoiy va milliy zulm keng xalq ommasini va uning manfaatlarini ifoda etuvchi ilg'or ziyolilarni, ularning yaratuvchilik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yo'l bermas edi. Xalqqa yo'l ko'rsatadigan, uning ko'zini ochib, o'z ahvolidan ogoh etishga qaratilgan har bir narsa beshikligidayoq bo'g'ib o'ldirilardi. Xalqni jaholat va zulmat ichida saqlash, yuz yil, ming yillardan beri qanday yashab kelgan

bo'lsa, bundan keyin ham shunday yashashga majburlash, milliy ong taraqqiyotiga to'sqinlik qilish, eski, chirik, mavhum aqida va e'tiqodlar iskanjasidan chiqib ketishga yo'l qo'ymaslik mahalliy xonlar, boylar va chorizmning mustabidlik manfaatlariga har taraflama mos kelar edi.

Jalil Mammadqulizoda islom dinining asoslarini, turli diniy aqidalarni, islomiy ibodat turi bo'lmish namoz qoidalarini, shariat ahkomlarini, mazhabiy o'zgachaliklarni juda teran o'rgangan bo'lib, bu borada nainki oddiy savodli mulla, balki mujtahid namoyandalar ham unga bas kela olmas edi. Bu tasodifiy emas, chunki uning tarbiyasi, bosib o'tgan hayot yo'li ana shular bilan aloqador edi.

Otasi uni yetti-sakkiz yoshlarida maktabga beradi. Bu yerda u Qur'on va uning juzlaridan saboq oldi. Keyinchalik o'z tug'ma qishlog'i Nehramdan Naxchivon shahriga borib, rus-ozarbayjon maktabida o'qiydi. Lekin u 1883-yilda kirib, 1887-yilda bitirgan Gori seminariyasi uning hayoti va ijodida yangi sahifa ochdi. Bu seminariya bo'lajak yozuvchini nafaqat sharq adabiyoti va sharq manbalari bilan, ayni paytda rus va jahon madaniyati bilan oshno etdi. Ma'lumki, Gori seminariyasi Qofqoz xalqlarining ma'rifatli, taraqqiyparvar madaniyat xodimlarini yetkazib berishda katta rol o'ynagan edi. Bu seminariyaning maqsadi shundan iborat ediki, uni bitirib chiqqanlar yerli xalq orasiga borib, bu joylarda chor hukumatining zulmkor va mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishda hokimiyat idoralariga yordam berishlari lozim edi. Uning dasturlari idealistik, monarxistik va reaksion qarashlar asosida tuzilgan edi.

Hatto Ozarbayjon sho'basida ham, Jalil Mammadqulizodaning o'z ifodasi bilan aytganda, "sallali mudarrislar shariat darslarini ham o'tar edilar". Boshqa sho'balarda ham har bir o'quvchining diniy mansubligiga qarab ilohiyot darslari o'tilar, ibodat soatlari bor edi. Lekin bu sho'balarda diniy ilmlar bilan birgalikda jo'g'rofiya, tabiat, tarix kabi dunyoviy ilmlar ham o'tilishining, turli tillar o'rgatilishining o'zi o'sha davr uchun mutaraqqiy hodisa edi. Bu seminariyada siyosatga, chorizmga sadoqat bilan xizmat qiluvchi muallimlar bilan bir qatorda chorizmdan norozi bo'lgan demokra-

tik fikrli muallimlar ham bor ediki, ular o‘z talabalarining fikrini dunyoning ilg‘or yozuvchilari, faylasuflari, rus realistik adabiyoti, fransuz ma’rifatchilari, Volter, Didro, Pushkin, Lermontov, Gogol, Tolstoy kabi istibdod, zulm va jaholat dushmanlarining asarlari tomon yo‘naltirar edilar.

Jalil Mammadqulizoda ushbu seminariyani tugatgach, Iravon viloyatidagi Uluxonli qishlog‘ida ikki yilcha muallim bo‘lib ishladi. Ayni paytda, muttasil o‘qib-o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘ldi, qishloq ahli bilan yaqin aloqa o‘rnatib, ularning hayotini, orzu-istaklarini o‘rgandi, ularni har qanday zulmga bosh egib chidashga majbur etgan sabablarni izladi.

Hayot va inson haqidagi mushohadalar Jalil Mammadqulizodani yozishga undadi. U qo‘liga qalam tutib, 1889-yilda ilk asari bo‘lmish allegorik ruhdagi “Choy dastgohi” asarini yozdi. She’riy yo‘lda yozilgan bu asarda Fuzuliyning “Mevalar bahsi” dostonidan boshlangan an’analar davom ettirildi.

Uluxonda ikki yil ishlagandan so‘ng u 1890-yilning boshida o‘z tug‘ilgan joyi — Naxchivondagi Nehram qishlog‘iga qaytib kelib, bu yerda yangi ochilgan qishloq maktabida muallimlik faoliyatini davom ettirdi. Garchi dastlabki asari hech yerda chop etilgan bo‘lmasa-da, yozishga bo‘lgan havas uni tinch qo‘ymas edi. 1894-yilda hozirgi kunda ham Ozarbayjon nasrining eng go‘zal asarlari qatorida turadigan “Donobosh qishlog‘i ahvolotlari” nomli ijtimoiy ma’no bilan to‘lib-toshgan, yuksak badiiy ruhdagi qissasini yozib tugatdi.

Kerakli hayot tajribasini to‘plashga ulgurgan, yoshi qirqlarga yaqinlashgan Jalil Mammadqulizoda 1903-yilning oxirlarida yozuvchi va jurnalist sifatida maydonga kirib keldi. Bunga qadar esa u, muallimlikdan so‘ng, 1898-yilda Naxchivondan Iravonga ko‘chib keldi. Biroz nachalnik devonxonasida tarjimon, hatto bir muddat politsiya ma’muri ham bo‘lib ishladi.

Albatta, Jalil Mammadqulizoda xoh Naxchivonda bo‘lsin, xoh Iravonda bo‘lsin, adabiyot muhibi, xalqning og‘ir ahvolini ko‘rib turgan, uning kelajagi haqida qayg‘urgan ziyoli bir zot sifatida yolg‘iz emas edi. Bunday ziyolilar har bir shaharda ham bo‘lib, ular

bir-birlari bilan tezda tanishib olar, bir-birlariga hurmat va mehr ko'rsatar, do'stlashib ketishar, yuraklaridagi eng teran orzular, eng yashirin fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashar edilar. Shunday odamlarning, ana shunday "ziyolilar muhiti"ning mavjudligi borasida u o'zining "Tarjimayi holim"ida bunday deb yozadi: "Men dorilmuallimini tugatganimdan so'ng Naxchivonda o'zimdan ham hushyorroq do'stlarimga rost keldim va ular bilan yaqinlashdim. Mening ovozimga o'z ovozi bilan javob bergan safdoshlarimdan avvalo azizim Eynali Sulton bo'ldi. O'sha paytlarda xotin-qizlarimizning asoratda qolganligi haqidagi suhbatlar yangidan yangi qirralari bilan tilga olinardi va men ilk daf'a xotin-qizlarni himoya qiluvchi so'zlarni Eynali do'stimiz vositasida xotin-qizlar ozodligining mashhur tarafdori Jon Styuart Milning kitobida uchratdim".

1903-yilning dekabrida Jalil Mammadqulizoda xasta xotinini davolatish uchun Iravondan Tiflisga olib keladi. Tiflisdagi oshxonalardan birida u o'sha paytdagi yagona ozarbayjoncha gazetaning bosh muharriri, o'z hamshahari Muhammad og'a Shohtaxtlini uchratib qoladi. Muhammad og'a undan: "Yozuv-chizuvdan gazetada chop etgulik nimang bor?" — deb so'raydi. Jalil Mammadqulizoda "Pochta qutisi" hikoyasini chiqarib unga tutqazadi. Shohtaxtli shu yerning o'zida, dasturxon ustida hikoyani o'qib chiqib, qahqaha otib kulib yuboradi.

O'z davrining yetakchi ziyolilaridan bo'lgan, Sharq va Yevropa madaniyatini yaxshi bilgan Muhammad og'a Shohtaxtli "Pochta qutisi" hikoyasining yuksak ijtimoiy va badiiy qimmatini anglab yetgan, uning muallifi siymosida Ozarbayjon adabiyotiga buyuk bir iste'dod kirib kelganini darhol his etgan edi.

Shu zahotiyoq Shohtaxtli Jalil Mammadqulizodaga Tiflisda qolib, "Sharqi Rus" (Rus Sharqi) gazetasida ishlashni taklif etadi. Jalil Mammadqulizoda rozilik bildirib, Tiflisda qoladi va ana shu kundan uning hayoti va ijodining yangi davri boshlanadi.

"Sharqi Rus" gazetasi Jalil Mammadqulizoda uchun professional yozuvchilik yo'lini belgilab berdi. To'g'ri, Jalil Mammadqulizoda Tiflisdan ko'chib kelib tahririyatda bir yilcha ishlangandan so'ng — 1905-yilning yanvarida "Sharqi Rus" gazetasi

yopib qo'yildi. Lekin uning jurnalist sifatida shakllanishi va o'z hayotini badiiy ijod bilan bog'lashida bu gazetning ahamiyati katta bo'ldi. "Pochta qutisi", "Kishmish o'yini" hikoyalari ilk bor ana shu gazetada chop etildi.

1905-yilgi rus inqilobidan so'ng imperiyaning ezilgan xalqlari ham harakatga keldilar. Chorizm milliy qirg'inlar bilan, har xil fitna-fasodlar bilan xalqlarning ozodlik uchun kurashini bo'g'a olmasligiga ko'zi yetib, ma'lum bir murosaga borishga majbur bo'ldi.

Albatta, ilg'or ziyolilar bu imkoniyatdan foydalanishga harakat qiladilar. Jalil Mammadqulizoda ham ko'pdan beri o'ylab yurgan orzusini amalga oshirdi. U satirik jurnal chop etish uchun ruxsatnoma oldi va jurnalni "Mulla Nasriddin" deb atadi.

1906-yilning 7-aprelida jurnalning birinchi soni chop etildi. "Mulla Nasriddin" jurnali rangli bo'lib, ko'plab suratlar bilan chiqardi, chunki katta qismi savodsiz bo'lgan xalq o'qish-yozishni bilmas, Jalil Mammadqulizoda esa o'z fikr-mulohazalarini, maqsadini har qanday yo'l bilan bo'lsa ham xalqqa yetkazishni istardi. Yozuvchini burjua-mulkdor ziyolilardan, soxta millatparastlardan farqlab turgan narsa uning haqiqatni bor bo'yi bilan xalqning yuziga aytishida edi. 1907-yilda u bunday deb yozadi: "Hali mullalarni u yoqqa qo'ya turaylik, hatto yozuvchilardan ham bir porasi jamoatga tilyog'lamalik qilib shunaqangi shirin so'zlar aytadiki, marsiyaxonlar ham buni eplay olishmaydi. "Ey mening ajoyib millatim! Dardingni olay, hoy mening millatim! To tirik ekanman, senga jon fido qilishga tayyorman, ey mening go'zal millatim! Ey millatlarning podshohi bo'lgan millatim!" Lekin, Xudo haqi, "Mulla Nasriddin" yolg'on so'zlay olmaydi".[1]

Jurnalning faoliyati ba'zi bir uzilishlar bilan 25 yil davom etdi. Jalil Mammadqulizoda jurnal atrofiga XX asrning boshlarida yashab ijod etgan eng ilg'or ziyolilarni to'play oldi. Jurnalda dramaturg A. Haqberdiyev, bastakor Uzeyir Hojibekov, jurnalist Umar Foiq, rassom A. Azimzoda, shoir Mirza Aliakbar Sobir emakdoshlik qilishdi.

[1] "Mulla Nasriddin", 1907-y., 46-son *(muallif izohi)*.

Jurnalda keyinchalik Ozarbayjon adabiyotining "Mulla Nasriddin maktabi" nomi bilan shuhrat topgan butun bir jarayoni o'z aksini topdi. Qisqa muddatda jurnal aholining butun qatlamlari orasida keng tarqaldi. Uning shuhrati Qofqoz hududlaridan ham oshib o'tdi. Hindistondan Marokashga qadar Sharqning ko'pgina o'lkalarida uning faol o'quvchilari, obunachilari, ko'ngilli muxbirlari bor edi. Turkiya, Eron, o'zbek, tatar, turkman, Dog'iston adabiyotlarida demokratik tamoyillarning shakllanishida jurnalning o'ziga xos ta'siri bo'ldi. Ko'tarilgan masalalarning milliy doirada mahdudlashib qolishi jurnal uchun begona edi.

U butun musulmon dunyosining jarohatlarini ochib tashlar, butun islom Sharqiga xos bo'lgan yaramasliklarni tanqid ostiga olar, faqat Sharq bilangina kifoyalanib qolmay, G'arb mustamlakachilik siyosatini ham ayovsiz fosh etardi.

Chor senzurasi jurnalni qattiq tazyiq ostiga olgan edi. "Mulla Nasriddin"ning ko'pgina sahifalari yo bo'm-bo'sh, yoki qizil siyoh bilan chizib tashlangan holda chiqardi. Ijozat berilgan boshqa keskin materiallar yonidagi bu buzilgan, chizib tashlangan sahifalarning ommaga yanada kuchliroq ta'sir qilishi senzorlarning xayoliga ham kelmasdi.

Jalil Mammadqulizoda o'z jurnalida o'quvchining faqat qalbiga, hislarigagina emas, balki fikriga, shuuriga ham murojaat etardi. Mulla Nasriddin bilan johil mullalar o'rtasidagi farqni izoh etar ekan, Jalil Mammadqulizoda bunday deb yozar edi: "Men ham mullaman, siz ham mullasiz. Biroq men musulmon birodarlarimga, ey musulmonlar, ko'zingizni ochib menga boqing, deyman; siz mullalar esa, ey musulmonlar, ko'zingizni yumib menga boqing, deysiz".

1920-yilda muayyan ijtimoiy-siyosiy sabablar tufayli Jalil Mammadqulizoda oilasi bilan Eronga ko'chib bordi. Janubiy Ozarbayjonning markazi bo'lmish Tabrizda joylashib, darhol "Mulla Nasriddin" jurnalining nashrini tashkil etdi. 1991-yil mobaynida jurnalning beshta soni chop etildi.

1921-yilda taqdirning g'alati hukmiga ko'ra ayni bir paytda ikki hukumat — Ozarbayjon Sovet hukumati va Eron shahanshoh hukumati Mirza Jalilga maorif vaziri lavozimini taklif etadi.

Yozuvchining xotini Hamida xonim o'z xotiralarida bunday deb yozadi: "Mirza Jalil (Mammadqulizoda) menga bunday degan edi: "Meni Bokuga maorif vaziri lavozimiga taklif etishyapti, lekin men bunaqangi xizmat iqtidoriga ega emasman.

U yerga borgach, avvalgi kabi yana "Mulla Nasriddin" jurnalini nashr etishimni iltimos qilaman. Mening vazifam kulgili narsalar ustidan kulish, ularni tanqid qilishdir. Menimcha, hozir u yerda haqiqiy matbuot erkinligi bor, meni o'ziga eng ko'p jalb etayotgan narsa ham xuddi ana shudir".

1921-yilning 24-mayida Jalil Mammadqulizoda butun ko'ch-ko'ronini ko'tarib Bokuga yo'l oladi. Bokuda o'qitish uchun o'zi bilan birga tabrizlik o'n nafar bolani ham olib keladi.

Sovet hukumati Jalil Mammadqulizodaning sermahsul faoliyati va "Mulla Nasriddin" jurnalining sifatli chop etilishi uchun barcha sharoitni yaratib berdi. Ozarbayjon Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo'mitasining qarori bilan jurnalga katta miqdorda pul ajratildi.

1922-yilning 2-noyabrida jurnalning ilk sovet nusxasi nashrdan chiqadi. "Mulla Nasriddin" nomli samolyot yasash uchun pul yig'ishga ham qaror qilingan edi.

Jalil Mammadqulizoda Ozarbayjon Markaziy Ijroiya Qo'mitasi a'zoligiga nomzod qilib saylangan edi. U yangi alifbo qo'mitasining ham a'zosi bo'lib, Ozarbayjon hukumat vakillari va hay'ati tarkibida Qrim va Tataristonga, O'rta Osiyo respublikalariga safar qilgan, maqsad — yangi lotin alifbosini targ'ib etish edi.

Bu imkoniyatlarga, bu e'tiborga qaramasdan, umrining so'nggi yillarida Jalil Mammadqulizoda ta'qiblar, anglashilmovchiliklar sharoitda yashab ijod etdi. Uningdek so'z zargarini chalamulla yozuvchilar tilni buzishda ayblar edilar. Uningdek sochidan tirnog'igacha vatanparvar bo'lgan bir san'atkorni kamchiliklarni bo'rtirib ko'rsatishda gunohkor qilar edilar. "Inqilob va madaniyat" jurnalida N. Dubinskiy degan kimsa g'alati bir "fakt"ni qayd etgan edi: "Sovet Ozarbayjonida liberal va erkin "Mulla Nasriddin" jurnali chop etiladi. Jurnal nashri uchun yetarli darajada mablag' ajratiladi. Aslida esa bu jurnal yolg'iz uning redaktorining organidir. Bunga chek qo'yiladi, degan umiddamiz".

1926-yildan boshlab jurnal Jalil Mammadqulizodaning muharrirlik imzosi qo'yilmasdan, "redaksiya hay'ati" imzosi bilan chiqa boshlaydi.

1923-yilda "Mulla Nasriddin" kechasi o'tkaziladi. Hamida xonim ushbu kechani bunday xotirlaydi: "Hammamiz o'sha yerda, lojada, ikkinchi yarusda o'tirar edik. Mirza Jalil hayajonda, qandaydir ishkal chiqqan, nuqul musiqa chalinardi. Kechani tashkil etganlar qaydadir kayf-safo qilishayotgan bo'lib, musiqa ham ular uchun chalinayotgan ekan. Ikkinchi qismdan so'ng parda ko'tarilmadi, jamoat taajjubda qolgan edi. Artistlar o'ynashdan bosh tortibdilar, chunki kecha tashkilotchilari ularga ikkinchi qismdan so'ng pul berishni o'z zimmalariga olishgan ekan, lekin va'dalarining ustidan chiqmabdilar... Bu borib turgan sharmandalik edi. Mirza Jalil qattiq g'azabda edi, "hoziroq chiqib uyga ketamiz", dedi u bizlarga. Biz chiqib ketdik. Mirza Jalil yo'lda: "Bundan keyin hech qachon yubileyimning o'tkazilishiga rozilik bermayman", dedi.

1931-yilda "Mulla Nasriddin"ning nashr etila boshlanganiga 25 yil to'ladi. Hamida xonim, nima sababdan bu yubiley nishonlanmayapti, deb so'raganida, Mirza Jalil unga shunday deb javob beradi:

"25 yillikni nishonlash ertalik qiladi, Xudo xohlasa, 75 yillikni nishonlashadi". Bu bir kinoya edi. U 1923-yildagi "Mulla Nasriddin" kechasida sodir bo'lgan o'sha sharmandalikni unutmagan edi.

1931-yil 7-yanvarda "Mulla Nasriddin" jurnalining so'nggi soni bosilib chiqadi. Jalil Mammadqulizoda shundan so'ng bor-yo'g'i bir yil yashadi. 1932-yilning 4-yanvarida vafot etdi.

Oxirgi yillarda xastaliklar, moddiy qiyinchiliklar, oilaviy muammolar uni og'ir ahvolga solib qo'ygan edi. Yozuvchining sog'ligi juda yomonlashgan edi. "Mulla Nasriddin" jurnalining kotibi Ozarbayjon Xalq Komissarlari Sho'rosining raisiga, Jalil Mammadqulizoda og'ir kasallikka uchragan, kurortda davolanish ehtiyoji bor, lekin buning uchun uning moddiy imkoniyati yo'q, deb yozgan edi. Hukumat Jalil Mammadqulizodaga 200 manat pul va Kislovodskka putyovka ajratadi. Hamida xonim o'z xotiralarida bunday yozadi: "1930-yil dekabrning oxirida Mirza Jalil Kis-

lovodskdan uyga qaytarkan, uni davolagan hakim Mirza Jalilga bir mahkamlangan konvert berib, uni Bokudagi hakimga berib qo'yishni iltimos qiladi. Keyinroq Mirza Jalilning o'zi Bokuga yetguncha chiday olmay, konvertni ochib o'qiganini menga e'tirof etgan edi. Xatda, bemorning kuni bitgan, ikki oydan ortiq yashamaydi, deb yozilgan ekan. 1931-yilning dekabrida u menga, hakim yanglishibdi. U aytgan muddatdan o'n oycha ko'proq yashayman, dedi".

Umrining so'nggi oylarida u tez-tez o'lim haqida o'ylaydigan bo'lib qolgan edi. 1931-yil dekabrining so'nggi kunlarida u Hamida xonimga: "Men qo'qqisdan o'laman va hech kimga azob-aziyat bermayman", — deydi. Uchinchi yanvarda u Hamida xonimga: "Bugun yomon bir dafn marosimini tush ko'rdim. Juda ko'p odam yig'ilgan emish", — deydi. Hamida xonim xotirlaydi:

"...Kechqurun bolalarning hech biri uyda yo'q edi. Mirza Jalil karavotida tinchgina yotar, men oshxonada tikish tikib o'tirar edim. U turib yuz-qo'llarini yuvdi, o'g'lining xonasiga kirib, kamonchani ko'targanicha o'z o'rniga qaytdi va chala boshladi. Shunday ajoyib chalardiki, men tikishimni bir chekkaga qo'yib, unga quloq sola boshladim; u oxirgi akkordni juda ta'sirli tugatdi, yuragim siqilib, ko'zlarimga yosh keldi. U chalib bo'lgach, sekin kamonchani o'z o'rniga eltib qo'ydi. Bu uning so'nggi bor kamoncha chalishi edi".

To'rtinchi yanvarda Jalil Mammadqulizodaning ahvoli qo'qqisdan og'irlashib qoladi. Ukol uradilar, massaj qiladilar, do'xtir chaqiradilar. Jalil Mammadqulizoda bilan birgalikda "Mulla Nasriddin" jurnalini ta'sis etgan Umar Foiq yetib keladi.

Jalil Mammadqulizoda, hakim chaqirib o'tirmanglar, Midhatga telefon qilinglar, tez yetib kelsin, deydi va o'g'lining xizmat telefonini o'zi aytadi. O'g'li yetib kelganida u hushidan ajrab bo'lgan edi. Uning so'nggi so'zlari: "Midhat keldimi?" — deb so'rash bo'ladi. Hamida xonimning "Xotiralar"i quyidagi so'zlar bilan tugaydi: "Birdan yuzidan qon qochdi, ko'ksidan so'nggi nafasi chiqib, abadiy uyquga ketdi. To'rtinchi yanvar, kunduz soat uch edi".

Jalil Mammadqulizoda Ozarbayjon adabiyoti tarixida ajoyib jurnalist va publitsist, iste'dodli yozuvchi bo'lishi bilan birga-

likda buyuk bir dramaturg sifatida ham tanilgan. U yirik hajmli "O'liklar", "Onamning kitobi", "Donobosh qishloq maktabi", "Jinnilar yig'ini" va kichik hajmli "Choy dastgohi", "Kishmish o'yini", "Kamoncha", "Soqov" va "Yig'ilish" nomli dramatik asarlar ham yozib qoldirdi. Jalil Mammadqulizodaning adabiy merosi juda boy va rang-barangdir. Uning realistik-demokratik ijodi o'z mazmuni va g'oyaviy-badiiy yuksakligi bilan xalqiga, vataniga, butun insoniyatga xizmat qilaveradi.

Usmon Qo'chqor,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

DONOBOSH QISHLOG‘I AHVOLOTLARI

Qalbimdan chiqqan ovoz menga ko‘p narsalarni o‘rgatadi. Bu ovoz toza, pokiza vijdonimning ovozidirki, ushbu vijdon hammada bor. Har bir kishi uning buyurganiga astoydil quloq solib, amriga amal qilsa, ko‘p narsalardan ogoh bo‘lib, ko‘p narsalarni bilib oladi.

Suqrot

YENGILGINA BIR MUQADDIMA

Mening otim Xalil, o‘rtog‘imning oti esa Sodiq. Har ikkalamiz ham Donobosh qishlog‘ida tug‘ilganmiz. Men bundan rosa o‘ttiz yil ilgari dunyoga kelganman; ya’ni o‘ttiz yoshdaman. O‘rtog‘im Sodiq ham, taxminimcha, menga tengdosh. Biroq men undan biroz yoshroq ko‘rinaman. Uning bo‘yi baland, men pakana, ammo undan semizman. U qoramag‘iz va ko‘sa, men oqmag‘iz va sersoqolman. Bir tafovutimiz shundaki, men ko‘zoynak taqaman, ko‘zim ancha xira; lekin o‘rtog‘imning ko‘zlari juda o‘tkir. Buning sababi — men savod ahlidanman, yozuv-chizuv ko‘zimni xiralashtirib qo‘ygan.

Qisqasi, har ikkalamiz Donobosh qishlog‘ida yashaymiz. Mening kasbim bazzozlik, ya’ni to‘rt-besh to‘p gazlamani qo‘ltig‘imga qistiraman-da, o‘z qishlog‘imiz yoki qo‘shni qishloqlarga chit-mit sotib, baharnav ro‘zg‘orimni tebrataman. O‘rtog‘imning kasbi baqqollik, ya’ni o‘z do‘konchasida uch-to‘rt pud tuz, bir qop kishmish va to‘rt-besh pachka tamaki sotadi va u ham ana shu tariqa o‘z ro‘zg‘orini tebratadi.

Bor gap shu, har ikkimiz ham Olloh taoloning kambag‘al bandalari bo‘lamiz.

Xullas, jinday bosh og‘rig‘i bo‘lsa ham, baribir, aytib o‘tmog‘im kerak, chunki bilamanki, bu hikoyatni o‘qigan birodarlar, gazetchi Xalil bilan laqqi Sodiq kim bo‘ldi ekan, deb xiyla taajjubga tushishlari aniq. Bu birodarlarni intizor etmaslik uchun, garchi bosh og‘rig‘i bo‘lsa ham, yana ba’zi bir gaplarni arz etib o‘tishim lozim.

Men butun Qofqoziya viloyatida bizning Donobosh qishlog‘i kabi alomat qishloq yo‘q deb dangal ayta olaman. Uni yomon demoqchi emasman, Xudo saqlasin. Men hech qachon haq gapdan qaytmayman. To‘g‘ri, qishlog‘imizdan mening biroz ranjigan joyim bor, lekin bu qishlog‘imizning yomonligiga dalil bo‘lolmaydi-ku! Qishlog‘imizdan men kabi ikki yuzta chuvrindi ranjiganida ham, bu bilan bizning qishloqni yomon qishloq deyish haqdan yiroq bo‘lgan bir narsadir.

Yo‘q, Xudo haqi, bizning qishloq judayam ajoyib qishloq. Inshaalloh, mening arzimni oxirigacha sabr bilan eshitsang, bizning qishloq yomon qishloq emasligiga o‘zing ham amin bo‘lasan. Hozircha uning yaxshi-yu yomonligi bir chetda tura tursin. Gap unda emas; gap shundaki, bizning qishloqda birorta ham ayyomasiz kimsa yo‘q.

Bizlarda ayyoma deydi. Bilmadim, tushundingizmi yoki yo‘q? Ayyoma degani — laqab degani.

Shu o‘rinda endi biroz chetga chiqaylik.

Men laqab so‘zini bulturga qadar bilmasdim; chunki savodim maqtagudek emas. “Jomeyi Abbos”dan[1] boshqa birorta ham kitob o‘qimaganman. Bultur bizning qishloqqa narigi tomondan[2] kelgan bir mulla marsiya o‘qib yurardi. Afsuski, oti esimdan chiqqan. Bir kuni mullaning guzari Sodiqning do‘koniga tushdi. Ayon bo‘ldiki, Sodiqni Sodiq laqqi deyishlarini mulla ilgaridan bilar ekan. Do‘konda mendan boshqa yana bir necha qishloqdoshlar ham bor edi. Mulla Sodiqdan ikki quti tamaki olib, ulardan birini ochdi-da, chubug‘ini[3] to‘ldirib, tutatmoqchi bo‘ldi. Sodiq gugurt chaqdi. Mulla chubug‘ini yondirib, Sodiqqa:

— Olloh otangni rahmat qilsin, — dedi.

So‘ngra chubug‘ini bir necha marta so‘rib-so‘rib tortgach, Sodiqqa yuzlandi:

— Axavizoda[4], bu na illatki, janobingiz ismi shariflariga laqqi laqabini izofa orttiradilar?

---

[1] **Jomeyi Abbos** — Shayx Bahoning shariat kitobi.

[2] **Narigi tomon** — Janubiy Ozarbayjon nazarda tutilmoqda *(tarj.)*.

[3] **Chubug‘** — tamaki chekiladigan trubka, mundshtuk *(tarj.)*.

[4] **Axavizoda** — jiyan *(muall.)*.

Oxundning bu so‘zlarini nainki qishloqdoshlar, hatto mening o‘zim ham tushunolmadim. Vaholanki, men bularning oldida olim maqomida edim. Ammo, gap yo‘q, hammamiz anglab yetdikki, oxund Sodiqning nega laqqi deb atashlarini so‘ramoqda edi. Sodiq biroz sukut saqlagach, laqqi mening ayyomam, deb javob berdi. Oxund ikkinchi bora taajjub bilan so‘radi:

— Sizlar judayam avom-da, o‘lon[1], ayyoma nima degani, axir?

Sodiq buning ma’nosini aytgach, oxund “laqqi” Sodiqning ayyomasi emas, laqabi, deya bizga tushuntira ketdi. Ayyoma deb avomlar aytadi, arabchasiga bu laqab bo‘ladi, dedi u. Oxirida oxund, ayyoma degan so‘zni zinhor tilingizga olmang, laqab deb ayting, deya qattiq tayinladi. Biz hammamiz rozi bo‘ldik va “albatta” deb javob berdik. So‘ngra Sodiq oxundga yuzlanib so‘rab qoldi:

— Oxund, janobingizning arabchadan savodlari juda zo‘r bo‘lsa kerak-a?

Mulla javob berdi:

— Nima deyapsan, nodon? Mulla bo‘lish, marsiya aytish oson ish deb o‘ylaysanmi? Arabchadan savodi bo‘lmagan kishini minbarga qo‘yar ekanlarmi?

Qo‘qqisdan Sodiq:

— Oxund, arabchada nonni nima deydilar? — deya so‘rab qoldi.

Oxund chubug‘ini so‘rib, yerga boqib oldi-da, tomoq qirganicha javob berdi:

— Barodarim[2], Arabistonda non bormidiki, unga nom qo‘ysalar. U yerda guruchdan boshqa narsa yemaydilar.

Sodiq yana oxunddan so‘radi:

— Xo‘sh, unda guruchni arabchada nima deydi?

Oxund chubug‘ini so‘rib yo‘taldi va birozdan so‘ng dedi:

— Sen haqiqatdan ham laqqi ekansan, jiyan. Qishloqilar o‘rnida senga laqqi der ekanlar.

Shunday deya oxund abosini[3] tuzatganicha do‘kondan chiqib ketdi. Biz barchamiz o‘sha kuni oqshomgacha o‘zimizni kul-

---

[1] **O‘lon** — o‘g‘lon, yigit *(muall.)*.

[2] **Barodar** — uka, ini *(muall.)*.

[3] **Abo** — chakmon *(tarj.)*.

gidan tiya olmadik. Masalan, mening asli otim Xalil, lekin hamma meni gazetchi Xalil deb ataydi. Men, Xudo haqi, gazet nimaligini bilmayman. Gazetchi degani qiziq voqeotlar, yaxshi xabarlarni chop etib, u yoq-bu yoqqa tarqatadigan aqlli, komil bir inson. Biroq men qayerdan gazetchi bo'lib qolganimni o'zim ham bilmayman. Inshaalloh, nima uchun meni gazetchi deydilar, mening o'rtog'imni nima sababdan laqqi, ya'ni ezma deb ataydilar — hammasini aytib beraman.

Haliyam bu bizni hurmat qilganlari, bizning laqabimiz unchalik kulgili emas. Bizning Donobosh qishlog'ida shunaqangi laqablar borki, aytsam kulaverib ichaging uziladi. Masalan, Hasan tarasha, Haydar tuya, Sabzali yolg'onchi, Muxtor eshshak, Qosim tovushqon. Bunday ayyomalar bizning Donobosh qishlog'ida tiqilib yotibdi. Agar hammasini bir boshdan aytaversam, butun Rusiyyat[1] korxonalarida qog'oz qolmaydi. Mening o'rtog'im Sodiqni laqqi deb ataydilar. Yaratganning nomiga ont ichaman, bu laqab unga sirayam yopishmaydi. To'g'ri, Sodiq ko'p gapiradi. Qayerda bo'lsa gapiraverdi. Gapiraveradi, gapiraveradi, sirayam charchashni bilmaydi. Ammo na iloj, aniq aytamanki, unday shirinso'z kishi dunyoda yo'q.

Bizning Donobosh qishlog'ida, har qanday ko'p gapirgan kishini laqqi deb atasa bo'ladi, deb o'ylaydilar. Axir, ko'p gapiradigandan ko'p gapiradiganning farqi bor. Men shunday kishilarni ko'rganmanki, ular sahardan oqshomgacha gapirsa ham suhbatlaridan to'ymaganman. Agar har bir ko'p gapiradigan kishini laqqi desak, barcha voizlarni laqqi deyishimiz kerak edi, chunki ular bir minbarga chiqib olsalar, pastga tushishni bilmaydilar.

Yo'q, har qanday ko'p gapirgan kishini laqqi deb bo'lmaydi. Bittasi Olloh taolo borasida gapga tushib ketadi, boshqasi o'zining Karbaloga yoki Makkaga borganidan hikoyat qiladi, nahotki shunday kishilarni laqqi deb bo'lsa? Yo'q, bo'lmaydi; bunday deyish gunoh va haqiqatdan uzoq sanaladi.

Mayli, kim nima desa desin. Mayli, Sodiqni laqqi desinlar; lekin u to o'la-o'lguncha mening do'stim, suhbatdoshim va hamdardim bo'lib qoladi! Birovga issiq yoqadi, birovga sovuq.

[1] **Rusiyyat** — Rossiya *(tarj.)*.

Ehtimol, Sodiq rostdan ham laqqidir. Ammo u gapirayotganda chindan ham men turib borib uning lablaridan o'pib olgim keladi.

Xo'sh, meni nega gazetchi deydilar? Buning sababini ham aytib beraman. Sodiq bilan hamsuhbat bo'lgan kunlarimdanoq meni gazetchi deb atay boshladilar. Haqiqatan ham mening gazetchi deb atashlariga shu o'rtog'im Sodiq sababchi bo'ldi.

Shu o'rinda gapni olisroqdan boshlashga to'g'ri keladi.

Biz, aytish mumkinki, ikki yilcha oldin topishib qoldik. Voqea bunday bo'ldi: kunlarning birida qo'ltig'imga bir necha to'p chit qistirib, Sodiqning do'koniga yo'l oldim. U paytlar hali o'rtamizda do'stlik paydo bo'lmagan edi. Birpas o'tirib qoldim. Sodiq menga bitta chubuq to'ldirib berdi, men chekishga tushdim. Sodiq ham, tabiiyki, suhbatini boshlab yubordi. Faqir yuqorida aytib o'tganim kabi, uning suhbati menga juda yoqib tushardi; bu gal esa men unga shaydo bo'lib qoldim. Bu safar do'stim shunday bir shirin hikoyat boshladiki, yigirma-o'ttiz kishi do'konga kirib, bo'm-bo'sh qaytib chiqdi, desam xato bo'lmas. Har bir kirgan xaridorga, sen so'ragan narsa bu do'konda yo'q, deb javob berardik. U gapira-gapira oxiri bir joyga yetganda to'xtadi. Yuzimga diqqat bilan tikilganicha bir oh tortdi va:

— Xalil do'stim, mening bir orzuyim bor, — deb qoldi.

— Qanaqa orzuying bor, o'rtoq? — deb so'radim men.

— Do'stim, men shunisiga qattiq afsus chekamanki, — dedi u, — biz o'lib ketamiz, shunday ajoyib hikoyatlar unutiladi.

— Hech yuraging siqilmasin, o'rtoq, men bu hikoyatlarni yozib chiqaman va bir kitob qilib, nomini "Donobosh..." deb qo'yaman. Men vasiyat qoldiramanki, o'lgandan keyin meni na Karbaloga eltsinlar, na menga xayr-u ehson bersinlar; chunki men Olloh taoloning saodatli bandalaridan bo'lsam, ehsonsiz ham oxiratda yuzim yorug' bo'ladi, agar gunohkor banda bo'lsam, na xayr-u ehson foyda beradi, na boshqasi. Men vasiyat qilamanki, bor-yo'g'imni sotib pul qilsinlar, yozgan hikoyatlarimni chop etsinlar va bu kitoblarni unga-bunga tekin tarqatsinlar.

Bu so‘zlarni aytib bo‘lganim zahoti Sodiq shart o‘rnidan turib keldi-da, meni qattiq quchoqlab oldi, u yuzim-bu yuzimdan o‘par ekan, yig‘lab yuborganicha:

— Do‘stim, mening orzuyim ham xuddi ana shu edi. Buni sen amalga oshirar bo‘lding, ikki dunyoda kam bo‘lmagin, — dedi.

Xullas, azizlarim, bizning do‘stligimiz ana shunday boshlandi. Shu-shu Sodiqning yodiga bir narsa tushib qolsa, biror qiziq xabar, hikoyat eshitsa yoki boshqa voqeani eslab qolsa, darhol kelib meni topardi. Men daftarni chiqarib, qalamni olgancha yoza boshlardim. Chunki bu daftar hamisha mening qo‘ltiq cho‘ntagimda yurar, kasbim qishloqma-qishloq kezib yurish bo‘lgani uchun ham, har bir qulay vaqtda daftarni chiqarib o‘qishga tushardim.

Buning oxiri juda maza bo‘ldi. Meni qayerda ko‘rib qolsalar, darhol mehmonga chaqirardilar. Yangi hikoyatlardan o‘qib bermog‘im uchun. Avval mening otimni ertakchi deb qo‘ydilar; ammo keyin ko‘rsalar, bu ot menga yopishmayapti. Xullasi kalom, shundan so‘ng mening otim gazetchi bo‘lib qoldi.

Shubha yo‘qki, o‘zingiz ham ko‘rib turganingiz kabi, mening gazetchi deb nom olishimga o‘rtog‘im sababchi bo‘ldi va shubha yo‘qki, ota-onam qo‘ygan otimning yoniga yana bitta ot yopishtirish menga unchalik yoqmaydi; lekin bunga siqilib o‘tirmayman. Mayli, avom nima desa deyaversin. Aksar hollarda avom yaxshini yomon, yomonni yaxshi deydi. Hozir avom bizning ustimizdan kulsa ham, bundan faxr etishimiz kerak. Dunyoda ko‘plab insonlar avomdan norozi bo‘lib o‘tganlar. Biz ham katta qoplar qatoriga o‘z xaltachamizni qo‘yamiz-da endi.

Iravon guberniyasi Donobosh qishlog‘ida
1894-sanada yozildi.

Laqqi Sodiq *va gazetchi Xalil.*

YO‘QOLGAN ESHAK

I

Milodiy tarixning ming sakkiz yuz to‘qson to‘rtinchi yili avgust oyining boshlarida Donobosh qishlog‘ida qiziq bir voqea sodir bo‘ldi. Gap shundaki, Muhammadhasan amakining eshagini o‘g‘irlab ketishdi. Bu voqeadan xabari yo‘q kishi, shubhasiz, mening gapimga ishonmaydi; chunki chindan ham eshakning yo‘qolishi unchalik taajjubli bir narsa emaski, bu voqeaning biror qiziq joyi bo‘lsa. Har bir qishloq, har bir shaharda eshak yo‘qolmaydigan kunning o‘zi yo‘q. Ammo, shoshmang, Muhammadhasan amaki eshagining yo‘qolishi boshqa eshaklarning yo‘qolishiga zig‘ircha ham o‘xshamaydi. Xudo haqi, Muhammadhasan amakining eshagining yo‘qolishi bag‘oyat qiziq bir voqeaki, men aytay, siz eshitib, maza qiling.

Avvalo Muhammadhasan amakining o‘zi kimligini bilib olaylik. Donobosh qishlog‘ini bilgan odam Muhammadhasan amakini ham tanisa kerak; chunki Muhammadhasan amaki qishloqning taniqli shaxslaridan biri. Uning yoshi ellik to‘rt-ellik beshlar atrofida. Shundan katta emas. Garchi soqoliga oq tushgan bo‘lsa ham, o‘zi, agar meni kambag‘allik ezib qo‘ymasaydi, hech kim qirqdan oshgan deb o‘ylamasdi, deb ont ichadi. Muhammadhasan amakining bu gapi yolg‘on emas; chunki u shu yoshga kirgan bo‘lsa-da, ikki yuzidan qon tomadi.

Muhammadhasan amakining boshiga ko‘p savdolar tushgan. Agar hammasini bir boshdan aytadigan bo‘lsak, hikoyamiz cho‘zilib ketadi. Xo‘sh, Muhammadhasan amakining boshiga qanday savdolar tushdi, u nimalarga duch keldi ekan?

Qisqasi, bu kishining uy-ro‘zg‘ordan omadi chopmagan. Otasi Hoji Rizo vafot etganida Muhammadhasan o‘n-o‘n ikki yashar bola edi. Ikki yil o‘tmasdan onasi ham o‘ldi. Yaxshigina davlat

qolgan edi marhum otasidan: anchagina yer, bir necha ot, palos-gilam, kattagina mablag‘. Ammo ming afsus! Hoji Rizo va xotini o‘lishi bilan Muhammadhasan amakiga bosh-qosh bo‘ladigan odam topilmadi. Amakilari bir yilning ichida hamma narsani sovurdilar va oxirida Muhammadhasan amakiga shashmaloq ko‘rsatdilar. Muhammadhasan amaki o‘zini tanib, ko‘zini ochganida shir yalang‘och bo‘lib qolganini ko‘rdi. So‘ngra bir qiz bilan sevishdi, unga uylandi va to‘rt-besh tanga sarmoya qilish uchun bir necha yil Iravon tomonlarda g‘urbatlik dardini chekib yurdi. Lekin ishi yurishmadi, bo‘m-bo‘sh qo‘l bilan qishlog‘iga qaytdi-da, uch-to‘rt-ta eshak olib, chorvadorlikni boshlab yubordi. Ammo bu ishi ham orqa tortsa tortdiki, olg‘a bosmadi. Oxir-oqibat tabla[1]sini ikkiga bo‘lib, ko‘cha tomondan bir eshik ochdi, bu yerga bir-ikki pud un, bug‘doy, tutmayiz, jiyda qo‘yib, savdo-sotiqni boshlab yubordi va hozirgacha shu ish bilan shug‘ullanib kelmoqda edi; tashvishi ham, shubhasiz, tobora ortgandan ortib borardi.

Xullas, Muhammadhasan amaki endilikda bir amallab ro‘zg‘or tebratib turibdi. Ammo u kambag‘al bo‘lsa-da, juda yaxshi odam edi. Chindan ham u faqat o‘zining g‘amini yemasdi. Birov kelib: “Muhammadhasan amaki, menga uch-to‘rt manat[2] kerak bo‘lib qoldi”, desa, agar o‘zida bo‘lsa, darhol chiqarib berar, bo‘lmasa, har qanday yo‘l bilan boshqa birovdan topib berib, bu ishni bitkazish payida bo‘lardi. Chindan ham juda ajoyib kishi edi u. Muhammadhasan amakining dunyo moliga aslo rag‘bati yo‘q, lekin birgina orzusi bor. Uch-to‘rt yildan beri Muhammadhasan amaki Karbalo ziyoratiga borish niyatida yurardi. U o‘ta dindor odam edi. Agar ro‘zg‘ori but bo‘lganida, u allaqachon chahordah ma’sum[3] ziyoratini o‘tagan bo‘lur edi. Lekin na iloj, kambag‘allik hamma ishning beliga tepar ekan.

Qisqasi, Muhammadhasan amaki ko‘pdan beri Karbalo ziyoratini qasd qilib yurardi. Muhammadhasan amakining bunday qutlug‘ fikrni boshidan kechirmagan yili yo‘q edi. Ziyoratchilarning zi-

---

[1] **Tabla** — ot-ulov, eshaklar saqlanadigan joy *(tarj.)*.

[2] **Manat** — pul *(tarj.)*.

[3] **Chahordah ma’sum** — musulmonlar ziyoratga boradigan shaharlar *(muall.)*.

yoratga ketayotgan yoki qaytayotgandagi shovqin-suronini eshitganda Muhammadhasan amakining ko‘z yoshlari chashma kabi oqa boshlardi.

Ammo na iloj, kambag‘allikning uyi kuysin. Kambag‘allik u sho‘rlikning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab olgan, qimir etgani qo‘ymasdi.

Bu uch-to‘rt oy oldingi gap. Muhammadhasan amaki bir tush ko‘rdi, uyqudan uyg‘onib yoniga xotinini chaqirdi va unga, xotin, bu yil, inshoolloh, nima qilib bo‘lsa ham Karbaloga borishim kerak, dedi. Ko‘rgan tushini hozirgacha hech kimga aytib bergani yo‘q. Biroq nuqul, bir xosiyatli tush ko‘rdim, qanday qilib bo‘lsa ham Karbaloga borib, olti go‘shali maqbarani[1] ziyorat qilishim kerak, derdi.

Xullas, uch-to‘rt oydan beri Muhammadhasan amaki safar tadorigida edi... Ziyorat shavqi Muhammadhasan amakini dunyo ishlaridan butunlay sovutgan edi. Bunday fikrga kelgandan beri do‘konini bo‘shatib, jinday arpa yo tariq uni va boshqa ro‘zg‘or uchun zarur bo‘lgan ba’zi bir narsalarni g‘amlab qo‘yib, ziyoratchilarning yo‘lga chiqishini kutmoqda edi.

Avvaliga Muhammadhasan amaki piyoda ketmoqchi bo‘ldi, chunki, ma’lumki, ulovda borgandan ko‘ra piyoda borganning savobi kattaroq. Keyin o‘ylab qarasa, ikki oylik yo‘lga piyoda borib keladigan yoshdan o‘tib qolgan. Nima qilish kerak? Oxiri noiloj undan-bundan picha pul qarz ko‘tarib, o‘zining yig‘ganiga qo‘shib bir eshak oldi. Ulovga gap yo‘q, otdan avlo edi. Avvalo shuning uchunki, eshak otdan arzon edi. Muhammadhasan amakining ot olish uchun o‘ttiz-qirq manat topishi gumon edi. Qolaversa, kimdir ziyoratga eshakda boradi, kimdir otda, albatta, Olloh taolo huzurida eshakda borganning ziyorati tez qabul bo‘ladi.

Xullas, Muhammadhasan amaki bir eshak oldi. Ammo bu eshak eshak emas, kasofatning o‘zginasi ekan.

Kunlardan bir kuni Muhammadhasan amaki tong sahar uyg‘onib, tahorat qildi, namozini o‘qidi, hovliga chiqib birpas aylandi. Tovuq-jo‘jalarini chaqirib, don sepdi, tablaga kirib, eshagining oxuriga bir-ikki hovuch arpa tashladi, so‘ng ko‘chaga chiqib, darvo-

[1] **Olti go‘shali maqbara** — Karbalodagi imom Husayn dafn etilgan maqbara nazarda tutilmoqda *(muall.)*.

zasi oldida cho‘nqayib o‘tirganicha chubug‘i va tamaki xaltasini chiqardi, chubug‘ini tamakiga to‘ldirib, cheka boshladi. Oradan biroz vaqt o‘tgach Muhammadhasan tengi bir necha hamqishlog‘i uning yoniga kelib salomlashdi-da, saf bo‘lib o‘tirgancha chubuqlarini chiqarib, chekishga tushdilar. Bu kishilarning hammasi Muhammadhasan amakining qo‘shnilari edi.

Hamqishloqlar biroz chubuq tortgach, yo‘tala-yo‘tala suhbatni boshlab yubordilar. Suhbat karbaloyilarning yo‘lga chiqishi haqida edi. Chunki o‘tirganlarning barchasi Muhammadhasan amakining ziyoratga borish niyatidan xabardor edilar, shubhasiz, bu suhbatda Muhammadhasan amakining nomi ham tilga olinmoqda edi. Suhbat ancha cho‘zildi. Avval ziyoratga borishning savobidan gap boshladilar, so‘ng ziyorat shartlariga ko‘chdilar. Muhammadhasan amakining so‘l tomonida o‘tirgan kishi bir muammoni o‘rtaga tashladi:

— Mana, kimdir ziyoratga ketdi, deylik, u ziyoratini qilib, o‘z yurtiga qaytib keladi, biz yig‘ilib, to‘p-to‘p bo‘lib uni ko‘rgani boramiz, qo‘lni qo‘lga urib, “Ziyorating qabul bo‘lsin”, deymiz, mana, bizning gapimiz bilan uning ziyorati qabul bo‘ladimi yoki yo‘q? Mana, biz aytgan so‘zlarning u kishiga biror foydasi bormi yoki yo‘q? Masalan, Muhammadhasan amaki, sening ziyorat qilish niyating bor. Olloh salomatlikni bersin, eson-omon borib, eson-omon o‘z xonadoningga qaytib kel. Keyin, shubhasizki, Xudo xohlasa, sen qaytib kelganingdan so‘ng hammamiz seni ko‘rgani boramiz, bizlar senga: “Ziyorating qabul bo‘lsin”, deymiz, bu so‘zning, bu niyatning senga biror xayri tegadimi yoki yo‘q? Men, yo‘q, deyman. Shuning uchunki, sen bundan bir oy, bir yarim oy avval ziyorat qilgansan. Agar sening ziyorating Olloh dargohida qabulga o‘tgan bo‘lsa, tag‘in biz seni duo qilishimizning nima foydasi bor? Yo‘q, agar qabulga o‘tmagan bo‘lsa, tag‘in foydasi yo‘q. Biz aytgan bilan qabul tushmaydi-ku, axir!

Bu kishi so‘zini tugatgach, Muhammadhasan amakining yuziga savol nazari bilan boqdi. Boshqalar ham ko‘zlarini yerga tikkancha chuqur xayolga cho‘mgan edilar; chunki, aslida, bu masala teran bir masala edi. Muhammadhasan amaki yangidan tamaki xaltasini

cho‘ntagidan olib, chubug‘ini to‘ldirish bilan mashg‘ul bo‘ldi, so‘ng so‘l tomondan o‘tirgan qo‘shnisiga javob qila ketdi:

— To‘g‘ri aytasan, Mashadi O‘ruj og‘ayni. Lekin sen aytganchalik bo‘lsa, unda yaxshi ish bo‘lmaydi, o‘rtadan mehr-oqibat ko‘tariladi. Birov ziyoratga borib, uyiga qaytib kelsa-yu, uni ko‘rgani hech kim bormasa, bu musulmonchilikdan emas-da, axir! Masalan, men borib ziyorat qilgach, uyimga qaytib kelsam, qani ayt-chi, sen meni ko‘rgani kelmaysanmi? Keyin men sening yuzingga qaramay qo‘yaman-ku...

Mashadi O‘ruj darhol Muhammadhasan amakiga qo‘lini paxsa qilib, o‘tirgan o‘rnidan biroz tikkayganicha javray ketdi:

— Yo‘q, Xudo haqi, Muhammadhasan amaki, sen mening gapimni tushunmading. Sening bu gaping men aytgan masalaning javobi emas. Men, gap yo‘q, seni ko‘rgani kelaman, albatta. Gap shundaki, mana, mening shu kelishimning senga biror foydasi bormi yoki yo‘q? Men ana shuni so‘rayapman.

Muhammadhasan amaki qayta javob berib aytdiki, har holda, bunday ko‘rishuvning foydasi bor, chunki ana shunday ko‘rishuvlar bo‘lmasa, o‘rtadan mehr-oqibat ko‘tariladi. O‘tirgan hamqishloqlarning hammasi bu xususda Muhammadhasan amakining tarafida edilar; chunki Mashadi O‘rujning masalasi jo‘yali masala bo‘lsa-da, biroq aqlga to‘g‘ri kelmasdi. Birov ziyoratdan qaytib kelsa-yu, qanday qilib uni ko‘rgani bormaysan?!

Bu bahs kamida bir soat davom etdi. Chubuqlar qayta-qayta to‘lib, qayta-qayta bo‘shardi. Har bir kishining oldida durustgina kul tepachasi paydo bo‘ldi.

Suhbat rosa lazzatli joyiga yetganda so‘l tomondan, muyulishdan bir kishi eran-qaran hamqishloqlar oldiga kelib, salom berdi va Muhammadhasan amakiga yuzlanib:

— Muhammadhasan amaki, tez o‘g‘lingga ayt, og‘ildan eshakni olib chiqsin, shaharga minib boraman, nacharnik[1] chaqiribdi, — dedi. Hamqishloqlar shart oyoqqa qalqib salomga javob qaytardilar.

— Bosh ustiga, bosh ustiga, sizga sadqa bo‘lsin bitta eshak. Hozir borib o‘zim olib chiqaman.

[1] **Nacharnik** — ruscha nachalnik (boshliq) so‘zining buzilgan shakli *(tarj.)*.

Muhammadhasan amaki shunday deya darhol o'zini hovliga urdi. Muhammadhasan amaki eshakni olib chiqaversin, endi ko'raylik-chi, bu kelgan odam kim va nima ish qiladi ekan?

Bu kishi mayda odam emasligini bilish qiyin emasdi. Avvalo shuning uchunki, suhbatning shirin bir asnosida buni ko'rgan hamqishloqlar darhol oyoqqa qalqdilar, hatto bosh ham egdilar. Qolaversa, ma'lumki, Muhammadhasan amakining ko'z nuri — faqat shu bitta eshagi; chunki uni Karbaloga minib borish uchun olgan. Yarim yo'lda sudralib qolmasin deya kecha-yu kunduz bu eshakka ko'z-quloq edi. Shundan gumon qilish mumkin ediki, Muhammadhasan amaki eshakni toliqtirib qo'ymasin deya hech kimga bermas edi. Ammo bu kishi so'ragan zahoti Muhammadhasan amaki darhol eshakni olib chiqqani kirib ketdi.

Xo'sh, ko'raylik-chi, bu kishi kim ekan va nima ish qilar ekan?

Ha, kichkina odam emas edi bu eshakni so'ragan kishi. Bu Donobosh qishlog'ining kattasi Xudoyorbek edi. Men Xudoyorbekning o'tmishidan gapirmoqchi emasman; chunki uning o'zi bunga zinhor rozi bo'lmaydi. Hozir dunyoning taomili shunaqaki, birov yuqoridan pastga tushsa, boyligidan ayrilib, kambag'allashib qolsa, suhbatni hamisha o'tmish kunlariga ulaydi; mening otam undoq o'tgan, onam bundoq o'tgan, buncha davlatimiz bor edi, bunaqangi imoratlarimiz bor edi, hurmatimiz mana bundoq edi, deydi. Ammo birov pastdan yuqoriga ko'tarilsa, kambag'allikdan boylikka erishsa, e'tiborsizlikdan hurmat-izzatga sazovor bo'lib qolsa, zinhor ota-bobosidan gap ochilishini xush ko'rmaydi. Masalan, Muhammadhasan amaki yetti kecha-yetti kunduz otasining mol-davlatidan, hurmat-izzatidan gapirsa ham to'ymaydi. Ammo Xudoyor katta hech kimsaga otasining nomini ham aytmaydi. Qachonki bu borada so'z ochilib qolsa, Xudoyor kattaning aytadigan gapi shu bo'ladi: "Og'ayni, ota-ona bilan nima ishing bor. Ular o'lib ketishgan, Olloh rahmat qilsin ularni. Kel, o'zingdan, o'zimdan gaplashaylik". Xullas, Xudoyorbek o'tmishdan gapirishni yoqtirmaydi, men ham uning ko'ngliga tegib ketishni aslo istamayman. Uning o'tmishi bilan mening ham ishim yo'q.

Xudoyorbek nari borsa o'ttiz yetti-o'ttiz sakkiz yoshlarda; bundan kichik bo'lsa kichikdir, ammo katta emas. Bo'yi baland,

judayam novcha. Novchaligi uchun avvallari Xudoyorbekka bir ayyoma taqqan edilar. Biroq men uning o'tmishidan gap ochmaslikka so'z berib qo'ydim. Yolg'onchi bo'lib qolmayin deb qo'rqaman. Ha, bo'yi novcha, soqoli, qoshlari qop-qora. Yuzi ham qora, o'ta qora. Ko'zlari ham qop-qora, zig'ircha oqi yo'q. Ayniqsa, papog'ini qoshigacha bostirib yurganini ko'rsang: papoq qop-qora, ko'zlar qop-qora, yuzlar qop-qora. Papog'ining ostidan ko'zlari shunday yonib turadiki, odam vahimaga tushadi. Go'yo chim ostidan qurbaqa baqrayib turibdi deysan.

Bularning hammasi o'taversin. Xudoyorbekning bir katta qusuri bor. Burni egri, egri bo'lganda ham juda egri. Egridan egrining farqi bor. Men burni egri xushro'ylarni ko'p ko'rganman, ammo Xudoyorbekning burni judayam yomon egri. Burnining tepasida bir suyak tikrayib turadi. Bu suyak to'g'ri, ammo uning quyisidagi et xo'rozning toji kabi so'l tomonga shalpayib tushgan. Bilmadim, onadan tug'ma shunaqami yo keyinchalik bo'lganmi. Xullasi kalom, judayam xunuk bir burun. Ha, Xudoyorbekning andomini xushsurat deb bo'lmaydi.

Mana, ikki yildirki, Xudoyorbek Donoboshda kattalik qiladi. Uning katta bo'lishining ham uzun hikoyati bor. Xudoyorbek boshqa kattalar kabi katta bo'lgani yo'q. Odatda kattani jamoat saylaydi. Lekin Xudoyorbekning kattaligi boshqacha bo'lgan, ya'ni bunga osongina erishgan.

Avval, ya'ni bundan ikki yil burun Xudoyorbek glavaning[1] chovushi[2] edi. Ish shundoq bo'ldiki, glava Xudoyorbekning onasini siyg'a[3] qilib oldi. Tabiiyki, glava o'z odami qolib, begonani katta qilib qo'ymaydi. Bir hafta ichida kattani siqishtirib, xizmatdan chetlashtirdi. Bir necha muddat qishloq kattasiz qoldi. Xullasi kalom, bir kuni jamoat ko'z ochib qarasa, Xudoyorbek qishloqning kattasi bo'libti-turipti-da. Xudoyorbek katta bo'lgandan keyin juda o'zgarib ketdi. Avval ishni libosidan boshladi. Engil-boshini tozalab, qo'liga bir zarang kaltak tutib oldi-da, endi mening otim

[1] **Glava** — boshliq *(tarj.)*.

[2] **Chovush** — navkar *(tarj.)*.

[3] **Siyg'a** — muvaqqat nikoh *(tarj.)*.

Xudoyor emas, Xudoyorbek deb e'lon etdi. Senga beklik qaydan tega qoldi deb so'rashga kimning haddi bor?! Ammo glava onasini siyg'a qilib olgandan keyin Xudoyor Xudoyorbek bo'lib qolganini xalq yaxshi biladi. Yigirma-o'ttiz chog'li kishini Xudoyor katta og'ilxonaga qamatib qo'yganiga ham sabab shuki, ular adashib, Xudoyorbek deyish o'rniga Xudoyor katta deb yuborishgan.

"Xix-xix" deya Muhammadhasan amaki eshakni ko'chaga olib chiqdi. Eshak ko'chaga chiqishi bilan sakkiz yoshlardagi, ishtonsiz, boshyalang, qo'tir, kal bir bola yig'laganicha ko'chaga otilib chiqdi va chinqirib yugurib kelib eshakning dumiga yopishib oldi. Bu bola Muhammadhasan amakining kenja o'g'li edi.

— Eshagimni qayoqqa olib ketishadi? Hecham bermayman, uv-u-v...

Bola ana shunday yig'lab-siqtaganicha eshakning dumiga qattiq yopishib olgan, uni qimir etgani qo'ymasdi.

Darvoqe, Muhammadhasan amaki juda mehribon ota bo'lib, u o'z farzandiga ozor yetishini zinhor xohlamas edi. Shuning uchun ham uning yoniga borib, halimlik bilan unga taskin bera boshladi:

— Jim bo'l, o'g'lim. Eshaging kechqurun yana uyga qaytib keladi. Unga nima ham bo'lardi? Axir, men eshakni sotayotganim yo'q-ku. Xudoyorbek amaking uni shaharga minib boradi, u yerda unga ko'p arpa beradi.

— Yo'q, hecham bermayman... Hech qayoqqa ketmaydi... Sirayam qo'ymayman... Bir martagayam bermayman!..

Shunday deganicha bola eshakning boshini chiviq bilan burib, hovliga hayday boshladi. Shu payt Xudoyor katta bolaning orqa tomonidan kelib, kuragiga boplab...

— Itvachcha! Qayerga opketyapsan eshakni? Ko'zing ko'rmi, mening shu yerda turganimni ko'rmayapsanmi? Teringni shilib olaman hozir!

Bola "voy-dod" deganicha o'zini hovliga urdi. Xudoyorbek eshakni minib shaharga ravona bo'ldi. Qishloqdoshlar ham bir-bir tarqadilar. Muhammadhasan amaki kattani kuzatib qo'yib, ta'bi tirriq bo'lganicha o'g'lining ortidan hovliga kirib ketdi.

II

Peshindan yarim soatlar o'tganda Xudoyorbek shaharga kirib bordi. Xudoyorbek Muhammadhasan amakidan eshakni so'raganida, meni nacharnik chaqirib qoldi, degan edi. Biroq u yolg'on aytgan, uni nacharnik chaqirmagan, boshqa bir maqsadi bor edi. Agar Xudoyor katta nacharnik chaqirgani uchun shaharga tushadigan bo'lsa, ancha erta kelishi lozim edi. Nacharnik devonxonada faqat peshingacha bo'lishini, peshin bo'lishi bilanoq devonxona bekilishini Xudoyorbekning o'zi yaxshi bilardi. Yo'q, uning o'zga maqsadi bor edi.

Xudoyorbek eshakni karvonsaroyga qo'yib, o'zi bozorga yo'l oldi. Yetti girvonka[1]lik kallaqandlardan birini olib, chakmonining ichiga bekitdi va bozordan chiqib, Bo'zxona mahallasiga yo'l oldi. Biroz yurgach, so'l ko'chaga kirdi. Bu ko'chaning boshiga chiqqach, yana so'l tomon burildi. Bir tor ko'chadan yurib borib, ariqchadan hatlab o'tdi-da, choqqina bir darvoza oldida to'xtab, qandni yerga qo'ydi va ust-boshining changini qoqa boshladi. So'l oyog'ini ko'targancha o'ng qo'li bilan, o'ng oyog'ini ko'targancha so'l qo'li bilan sholvorining poychalarini qoqdi, papog'ini boshidan olib, so'l mushtiga kiydirdi va o'ng qo'li bilan u taraf-bu tarafini qoqib, yana boshiga qo'ndirdi. Qandni qo'ltig'iga urib, tomoq qirib olganicha darvozani qoqdi.

Hovli ichidan ayol kishining ovozi eshitildi:

— Kim u?

Xudoyorbek darvozani yana taqillatdi. Birozdan so'ng to'rt-besh yoshlardagi bir qizaloq darvozani ochdi va Xudoyorbekni ko'rgan zahoti darvozani yopib, hovli tomon qochdi. Ichkaridan uning chinqirgan ovozi eshitildi:

— Voy, onajon, darvozada bir katta kishi turibdi!

Xudoyorbek uning bu gaplaridan ishshayib, tashqaridan qizga so'z qotdi:

— Hoy qizaloq, qozi og'a uydami?

Qizcha Xudoyorbekdan shunchalik qo'rqib ketgan ediki, hatto javob bergani ham jur'at etolmadi. Shu payt darvoza ochildi,

[1] **Girvonka** — 404,51 gramga teng og'irlik o'lchovi *(tarj.)*.

bir yoshgina yigit darvozaga suyanganicha taajjub bilan Xudoyorbekning ko‘zlariga tikildi.

— Qozi og‘a uydami?

— Uyda, nima gapingiz bor?

— Qozi og‘ani ko‘rmoqchi edim.

Yigit hech narsa demasdan darvozani yopib g‘oyib bo‘ldi; anchadan so‘ng kelib darvozani ochdi va:

— Kiring, — dedi.

Xudoyorbek boshini egib darvozadan ichkari kirdi, ikki zinapoyadan o‘tib hovliga chiqdi. Qozining xotini hovlida kir yuvayotgan ekan, shekilli; chunki yigitcha darvozani ochishdan avval ovoz berdi:

— Ona, chetga chiqing, kishi keldi.

Hovlining bir chekkasida sopol jomashov turar, uning yonida bir to‘da yuvilgan kirlar uyib qo‘yilgan edi; mag‘zava oqib kelib darvoza oldida ko‘lmak hosil qilgan edi. Xudoyorbek kirgan joy hovliga o‘xshamas, chunki bu yerda to‘rt devordan bo‘lak hech narsa yo‘q edi. Hovlining eni o‘n qadam, uzunligi o‘n besh qadamcha kelardi. So‘l tomondagi devor xom g‘ishtdan edi. Bori shu. Ehtimol, bu qozining tashqi hovlisi bo‘lsa kerak, chunki bu shaharda bog‘chasiz hovli yo‘q edi. Xullas, qozining bog‘-u bog‘chasi shu bo‘ladigan bo‘lsa, Xudoyorbekning bu tashqi hovlida hech narsaga ko‘zi tushmadi.

Yigitcha hovlining o‘ng tomonidagi tor bir yo‘lakka kirib ko‘zdan yo‘qoldi. Oradan picha vaqt o‘tgach, beli bukilgan bir qariya ushbu tor yo‘lakdan chiqib kelib, so‘l qo‘li cho‘ntagida, o‘ng qo‘lini qoshlariga ayvon qilganicha biroz yaqin kelib, Xudoyorbekka yuzlandi:

— Nima gaping bor, inim?

— Amaki, qozi og‘ani ko‘rmoqchi edim, bir ishim bor.

— Sen qayerlik bo‘lasan, azizim?

— Men Donoboshning kattasi Xudoyorbek bo‘laman, qozi og‘ani ko‘rmoqchi edim.

— Chakmoning ichidagi nima ekan, inim?

— Kallaqand, qozi og‘aga olib keldim. Bir xayrli ishimiz bor unda, bu shunchaki og‘iz chuchitish uchun.

Qariya kelgan yo'li bilan qaytib ketdi. Bir necha daqiqadan so'ng haligi yigitcha tor yo'lakdan chiqib kelib, Xudoyorbekka qo'li bilan, yuring, deya ishora qildi, Xudoyorbek tor yo'lakdan yigitchaga eragashib borganicha bir qahvaxonadan chiqdi, oyog'ini yechib, yigitcha ortidan qozi o'tirgan xonaga kirdi.

Xudoyorbek ichkari kirarkan, shu qadar hayajonlandiki, hatto salomni ham unutib qo'ydi. U haligi qariya uyning to'rida yostiqqa yonboshlab yotganini ko'rib rosa taajjubga tushdi. Albatta, darhol anglab yetdiki, bu qariya qozining o'zi bo'ladi. Qozi kelgan bu odam dumbul bir kimsa ekanligini allaqachon his etgan edi. Shuning uchun ham Xudoyorbekning salom bermaganidan nainki ranjidi, balki o'zi o'rnidan turib salom berdi va unga to'rdan joy ko'rsatdi.

Xudoyorbek ham salomlashib, to'rga o'tdi va kallaqandni yerga qo'ydi. Qozining xonasi kattakon, baland va oppoq edi. Bu xonaning o'ttiz yettita tokcha va toqlari bo'lib, hech biri bo'sh emas, ularga ko'plab ko'za va son-sanoqsiz idishlar terib qo'yilgan edi. Tokchalardan bir necha samovar, sandiqcha, qalyon[1], to'rt-beshta rus kallaqandi va boshqa mayda-chuydalar joy olgan. Besh-o'n tokcha bo'xcha va kiyim-kechak bilan liq to'la. Ikki tokcha to'la kitob. Yerga qimmatbaho gilam, paloslar to'shalgan.

Xonaning to'rida uchta yirik temir sandiq qo'yilgan. Sandiqlarning ustiga odam bo'yi qilib gilam, palos, namatlar taxlab tashlangan. Bir tomonda, to'rt-besh joyda baland qilib yonma-yon ko'rpa-to'shak taxlangan va usti choyshab bilan yopib qo'yilgan. Qozi baxmal to'shak ustida bir juft yostiqqa yonboshlab yotardi. Xudoyorbek kallaqandni chiqarib qo'yishi bilanoq qozi kula-kula Xudoyorbekka yuzlanib dedi:

— I-ye, bu qand nimasi, nima keragi bor edi?

Xudoyorbek ham kula-kula javob qaytardi:

— Qozi og'a, bir xayrli ish chiqib qoldi. Bu qandni og'iz chuchitma uchun keltirdim.

— Umring chuchuk bo'lsin, inim. Nikoh o'qitmoqchisan, shekilli?

— Yo'q, qozi og'a, nikoh emas, siyg'a.

[1] **Qalyon** — chilim *(tarj.)*.

— Nima qipti, siyg‘a bo‘lsa, yanada yaxshi... Ma’qul, ma’qul. Olloh muborak qilsin. Sen o‘zingga siyg‘a qilasanmi yoki boshqa birovga?

— Yo‘q, qozi og‘a, o‘zimga qilaman, agar ishlar jo‘nashib ketsa.

Qozi eshik tomon o‘girilib navkarini chaqirdi va unga qandni o‘rtadan olib, qalyon to‘ldirish va choy keltirishni buyurdi. So‘ng yana Xudoyorbekka yuzlanib:

— Nima deding, ishlar jo‘nashib ketsa, dedingmi?

— Ha, qozi og‘a, agar bir amallab ishimizni bitirib bersangiz, o‘lguncha duogo‘yingiz bo‘lamiz.

— Buning nima mushkuloti bor ekan! Siyg‘a bo‘lsa siyg‘a-da, o‘qiyman, tamom-vassalom.

— To‘g‘ri aytasiz, qozi og‘a, lekin ayol tomonidan ham bir vakil bo‘lishi lozim-da.

— Albatta, men vakil bo‘lmasin, demadim-ku. Vakil ham kerak bo‘ladi, guvoh ham. Vakilsiz, guvohsiz siyg‘a o‘qilmaydi-ku.

Xudoyorbek boshini quyi solganicha o‘yga cho‘mdi va nihoyat:

— Ha, shundoq, — deb qo‘ydi.

Qozi tag‘in Xudoyorbekka yuzlanib:

— Xo‘sh, qani sening vakil-u guvohlaring? — deb so‘radi.

— Hozircha na vakil bor, na guvoh. Ko‘raylik-chi, bu yog‘i qandoq bo‘larkin.

Qozi qattiq taajjubga tushdi:

— Iye, sening na vakiling, na guvohing bo‘lmasa, qanday qilib men senga siyg‘a o‘qiyman?

— Ha, shunaqa, qozi og‘a, shunaqa.

— Xudo haqi, men sening gapingga tushunolmay qoldim. Agar sen siyg‘a o‘qitmoqchi ekansan, ayol tomonidan vakil bo‘lishi kerak, ana undan keyin men siyg‘a o‘qiyman. Agar vakil-u guvohlar bu yerda bo‘lmasa, siyg‘ani keyinga qoldiramiz. O‘shalar kelgandan keyin siyg‘a o‘qiyman. Agar bu yerda boshqa bir monelik bo‘lsa, unisini o‘zing bilasan.

Xudoyorbek qozining bu so‘zlaridan so‘ng xiyla xomush tortib qoldi, so‘ng tikkayib o‘tirganicha eshik tomon boqib, baland ovozda dedi:

— Gapning rosti, qozi og‘a, mening bir maqsadim bor. Ollohga ayon bo‘lganidan keyin, nega sizdan yashiray.

— Shundan gapir-da, axir. Albatta, nega mendan yashirar ekansan?!

Eshik ochildi, yigitcha patnisda ikki stakan choy olib kirib, bittasini qozining, ikkinchisini Xudoyorbekning oldiga qo‘ydi. Qozi yigitchaga chiqib ketish ishorasini qildi. Yigitcha chiqib ketgandan so‘ng Xudoyorbek past ohangda gap boshladi:

— Qozi og‘a, gapning rosti shuki, bizning Donobosh qishlog‘ida bir beva ayol bor. Men ko‘pdan beri uni siyg‘a qilish fikridaman; ammo ayol unamayapti. Bilmadim, qo‘rqitadilarmi uni yoki boshqa sababi bormi. O‘lsam o‘laman, lekin tegmayman, deydi. Shuni deb keldim. Sizning xizmatingizga kelishdan maqsadim shuki, arzimni sizga aytsam, siz bunga nima deysiz? Balki biron chorasini toparsiz?

Shu payt haligi qizaloq eshikdan bosh suqib so‘radi:

— Ota, onam shu yerdami?

Qozi bir baqirib bergan edi, qizaloq g‘oyib bo‘ldi. So‘ng yigitcha qozining yonboshiga qalyon keltirib qo‘ydi. Yigitcha shu yerda qolmoqchi bo‘lgan edi, qozi unga chiqib ketishni ishora qildi.

Qozi qalyonni labiga qistirib, mehmonga yuzlandi:

— Xo‘sh, endi nima qilamiz deysan?

— Dardingizni olay, qozi og‘a, qanday qilib bo‘lsa ham shu ishni bitkazib bering.

Qozi qalyonni qattiq bir so‘rib tortdi-da, boshini sarak-sarak qilganicha:

— Iye, o‘zi keltirganing ikki girvonka qand bo‘lsa, shunga zo‘rlab xotinni qo‘yningga solib qo‘yaylikmi? Tur, yo‘qol, he qurumsoq! — dedi.

Xudoyorbek qoziga javob berish uchun biroz tikkaydi va o‘ng qo‘lining shahodat barmog‘ini ko‘kka o‘qtalib:

— Menga qarang, qozi og‘a, — dedi, — Olloh nomiga ont ichamanki, agar siz mening shu ishimni to‘g‘rilab bersangiz, boshimni sizning yo‘lingizga tikmasam, mal’un bo‘layin.

— Birodarim, menga sening boshing kerak emas, boshingni Ollohning o‘zi asrasin. Menga mana bu kerak, qaragin, mana bu.

Qozi bu so‘zlarni aytar ekan, o‘ng qo‘lini yerdan kattakon kallaqand bo‘yi qadar yuqori ko‘tardi. Gapini tugatsa ham qo‘lini tushirmay turar, shu alpozda Xudoyorbekning yuziga tikilib qolgan edi. Xudoyorbek rozilik bildirgandan keyingina qo‘lini tushirdi. Xudoyorbekning javobi esa bunday bo‘ldi:

— Qozi og‘a, nega har xil xayollarga borasiz? Men so‘z berib, va’da qilgandan keyin, uning ustidan chiqmaydigan toifadan emasman. Kishi nega boshiga bo‘rk qo‘yib yuradi? Shuning uchunki, uni erkak deb aytsinlar. Birov sening yuzingga bir gap aytib, ko‘chada boshqa gapni aytsa, unday kishining erkakligi qoladimi?! Siz bir kalla rus qandi so‘rasangiz, men o‘n bir kallasini olib kelaman. Nega siqilasiz? Pulim yo‘qmi mening? Sirayamda, shunchalik mol-davlatim borki, hech qachon siz kabi og‘alarning oldida xijolat bo‘lib qolmayman. Zinhor behuda xayollarga bormang.

Xudoyorbek jim qoldi. Qozi so‘z boshladi:

— O‘zi birligimiz hurmati, Olloh seni hech xijolatga solmasin. Do‘stim, men insonning qanaqaligini basharasidanoq bilib olaman. Men ancha keksa odamman. Yoshim saksondan ham oshib ketgan. O‘zimga yarasha tajriba hosil qilganman. Kishining yuziga boqqan zahoti qanday odamligini bilib olaman. Odamning zohiri — botinining oyinasidir. Men sening yuzingga boqqan zahoti qanday odamligingni bilgandim. Agar sendan badgumon bo‘lsam, noumid bo‘lsam, sen bilan bunchalik suhbatlashib o‘tirmas edim... Lekin, Xudoga shukur, juda layoqatli odam ko‘rinasan. Men ham sening oldingda xijolat bo‘lib qoladigan ish qilmayman. O‘n bitta kallaqandning menga nima keragi bor? Sen menga ikkita kallaqand keltirsang, birini ushatib fuqaroga tarqataman, o‘zing aytganing kabi, og‘iz chuchitish uchun, bitta o‘ris kallaqandi o‘zimga qoladi. Vassalom. Mening sendan boshqa tama’im yo‘q. Mayli, agar qandga qo‘shib bir girvonka choy olib kelsang, yo‘q demayman.

— Bosh ustiga, albatta, bosh ustiga, bosh ustiga...

Bu gaplarni aytar ekan, Xudoyorbek so‘l qo‘lini qayta-qayta boshi ustiga qo‘yardi. Oxiri u so‘zini shunday yakunladi:

— So‘raganingiz atigi shumi, qozi og‘a? Hammasi bosh ustiga. Xo‘sh, endi siz mening ishimni qanday qilib to‘g‘rilaysiz?

1619325

Qozi boshini quyi solgancha bir muddat tasbeh chevirib o'tirdi, so'ng "yo Olloh" deya o'rnidan turdi, borib kitoblarni titkiladi, oxiri bir qora jildli kitobni keltirib ochdi. Ko'zoynagini taqib, past ovozda o'qiy boshladi. Qozining ovozi chiqmas, lablari qimirlar edi, xolos. So'l shahodat barmog'ini kitobning bir nuqtasiga nuqib, Xudoyorbekka yuzlandi:

— Bilasanmi, bek, bu juda mushkul masala. Bunaqa ishlar kamdan kam uchraydi. Shuning uchun ham kitob ko'ryapmanki, qani, shariat bu borada nima buyurar ekan?

Qozi shunday degach, yana kitobga sho'ng'idi, ancha o'qiganidan so'ng sevinganicha kitobni yopib, yoniga qo'ydi.

— Xudo xohlasa, hal etaman bu masalani, hal etaman, juda oson yo'l bilan hal etaman. Bek, ayt-chi, qand bilan choy qachon keladi?

— Qozi og'a, hoziroq, agar ruxsat bersangiz, darhol borib olib kelaman. Menga shu ham ish bo'ptimi?

— Azizim, avval qand bilan choyni bu yerga keltirib qo'y, so'ng borib uch-to'rtta hamqishlog'ingni boshlab kel mening huzurimga. Ammo ularning hammasi do'stlaring bo'lsin. Ulardan biri kelib menga, bu ayol mening onam bo'ladi, u mana bu odamga, ya'ni senga erga tegmoqchi, bu xususda meni vakil qilgan, deydi. Boshqalari bunga guvohlik beradilar. Tamom-vassalom. Men ham siyg'ani o'qiyman, shu bilan ishing tugaydi.

— Qozi og'a, ish shu tariqa bitsa, juda oson ekan. Uch-to'rttasi nima bo'pti, qishlog'imizdan yuz kishini keltirib to'kaman bu yerga. Nimani so'rasangiz so'rang, mening aytganimdan chiqmaydi ular. Mening gapimdan chiqishga kimning haddi bor ekan?

Shunday deya Xudoyorbek o'rnidan turdi.

— Borib axtaray-chi, shaharda hamqishloqlarimdan kimni topa olar ekanman.

Xudoyorbek eshikdan chiqayotgan edi hamki, qozi chaqirib qoldi:

— Bek, bundoq yonimga kel, senga ikkita maslahatim bor. Avvalo shuki, qand-choy uchun, shubhasiz, pul to'laysan. Bu pullarni sen yerdan supurib olmagansan-ku... Albatta, peshana tering bilan topgansan. Modomiki shunday ekan, narsani yaxshisidan olishga harakat qil. Zamona juda buzilib ketdi, kishini kuppa-kundu-

zi laqillatib ketadilar. Karapet og'aga judayam yaxshi yangi qand kelgan, otini Prodskiy deydilar. O'sha qanddan olishga harakat qil. Choyni endi o'zing bilasan, qanaqasidan bo'lsa bo'laversin.

Xudoyorbek:

— Bosh ustiga, — deya chiqib ketmoqchi bo'lgan edi, qozi yana uni ortga qaytardi:

— Azizim, mening ikkita maslahatim bor, degan edim. Bittasini aytdim, ikkinchisini ham aytay, keyin ozodsan.

— Marhamat, qozi og'a.

— Ikkinchi maslahatim shuki, bizning qilayotgan bu ishimiz o'la-o'lguncha ikkimizning o'rtamizda qolsin.

— Iye, qozi og'a, yosh bolamisiz? Meni unchalik nodon deb bilmang.

— Quloq sol, so'zimni tugatay. Xullas, bu ish maxfiy qolishi kerak.

— Nega endi?

— Yashirin qolishi kerak, hech bir kimsa bu ishdan xabar topmasligi lozim. Sening bu yerga boshlab keladigan odamlaring ham shunaqangi do'stlaring bo'lsinki, birovlarga og'zidan gullab qo'ymasin. Shuning uchunki, albatta, bu yerda shariatga kufr bir ish yo'q, lekin bunday ishlar juda oz uchraydi, har bir eshitgan kishi, bu yerda bir xilof amal bor, deb o'ylashi mumkin. Bas, shu bois ham bu ish faqat va faqat sen, men va guvohlarning o'rtasida qolishi kerak. Vassalom. Endi ketishing mumkin.

— Bosh ustiga, qozi og'a, bosh ustiga. Albatta shunday bo'ladi.

Shunday deya Xudoyorbek qozining uyidan chiqib, yo'lga tushdi.

III

Xudoyorbek sevinganicha darhol bozor masjidi yoniga borib, bozor anhorida tahorat oldi, masjidga kirib namozini o'qigach, bozorga kirdi. Chorsudan qozi nishon bergan armanini surishtira-surishtira kattakon bir do'kondan chiqib qoldi. Peshtaxta ortida o'tirgan meshqorin bir armani yozuv-chizuv bilan mashg'ul edi. Xudoyorbek do'konning u yoq-bu yog'iga nazar tashlab, chubug'ini

chiqarib tamaki to'ldira boshladi. Karapet og'a qalamini yerga qo'yib, Xudoyorbekka taajjublanib qaradi. Xudoyorbek chubug'ini to'ldirib Karapet og'aning yoniga bordi va qo'ltiq cho'ntagidan bitta qiviq[1] chiqarib, Karapet og'a tomon cho'zdi:

— Xizmat bo'lmasa, bitta gugurt chaqib yubor, shu qiviqni yondirib olay.

Karapet og'a jahl bilan:

— Senga bu yer qahvaxona emas! Yo'qol jahannamga, befarosat! Yo'qol! — dedi.

Karapet og'a tik turganicha bu so'zlarni aytar ekan, go'yo peshtaxta ustidan sakrab o'tib, Xudoyorbekni uloqtirib yuborguday bir vajohatda edi.

Xudoyorbekning shashti qaytib, ortga chekindi. Armanining bu muomalasidan juda taajjubga tushdi. Xudoyorbek chubug'ini yoqib olishi uchun Karapet og'aning o't tutmasligi uning tushiga kiribdimi? Donobosh qishlog'ida hech kim unga bunaqangi beodoblik qila olmasdi. Xudoyorbek chubug'ini cho'ntagidan chiqargan zahoti qiviq yoqib unga tutmaslikka kimning haddi sig'ar ekan? Lekin na iloj? Donobosh qishlog'i Donobosh qishlog'ida qolgan. Bu yerni shahar deydilar. Shahar Donobosh qishlog'ining o'rnini bosa olmaydi.

Xudoyorbek basharasini burishtirib, qosh-qovog'ini solganicha Karapet og'aga bunday dedi:

— Xozeyin, sen bekorga baqiryapsan. Men sening do'koningni talon-toroj qilish uchun kelganim yo'q. Sen bilan savdo qilgani keldim. Sening menga baqirib berishing ortiqcha. Men sendan qand olgani keldim.

— Ha, sening oladiganing yarim girvonka qand bo'ladi-yu, buning uchun men sening qo'llaringni o'pishim kerak ekan-da!

Xudoyorbek chubug'ining tamakisini tamaki xaltaga bo'shatib, chubug'ini beliga osar ekan, dedi:

— Xozeyin, avval sen mening kimligimni bilib ol, keyin baqir-chaqir qil. Men sen aytgan kishilardan emasmanki, yarim girvonka qand uchun kelib boshingni og'ritsam. Men Donobosh

[1] **Qiviq** — g'arov, ingichka cho'p *(tarj.)*.

qishlog'ining kattasi Xudoyorbek bo'laman. Men yarim girvonka emas, bir bosh kallaqand olaman, katta kallalardan.

Karapet og'a biroz yumshadi:

— Bosh ustiga. Men nima dedim! Men, nega mendan kallaqand olmaysan, deganim yo'q-ku. Men shuni aytmoqchi edimki, yozuv yozib o'tirganimda mening tumshug'imga qivig'ingni o'qtalding. Men yozuvda xato qilib qo'ydim. Ishimga ish orttirding. Endi sen ketgandan keyin yozganlarimni qayta ko'chirib chiqishim kerak.

— Mayli, bo'lganicha bo'pti. O'tgan ishga salavot. Xo'sh, qandni qanchadan berasan menga?

Karapet og'a peshtaxta qopqog'ini ko'tarib tashqari chiqdi, terib qo'yilgan qandlar yoniga kelib, qo'lini kallaqandlardan birining ustiga qo'yganicha:

— Mana qara, bek og'ayni, bu judayam yaxshi qand. Bu qandni senga yetti manat ikki shohiy[1]ga beraman. Bu judayam zo'r qand, — dedi.

— Hoy inson, hazillashyapsanmi? Hamma joyda bunday qandni yetti manatga beradilar. Meni sodda ko'rdingmi?

— Qayerda yettiga berar ekanlar? Bo'lishi mumkin emas, Xudo haqi. Yetti manat ikki shohidan bir tiyin ham kamiga bermaydilar.

Xudoyorbek biroz jimib qolib, yana o'sha chubug'ini olib tamaki to'ldira boshladi. Karapet og'a cho'ntagidan gugurt chiqarib chaqdi, Xudoyorbek chubug'ini yoqib olar ekan, dedi:

— Yaxshi-yaxshi! Sening qimmat ekaningni ko'pdan bilardim. Senga bas kelib bo'lmaydi. Yaxshi-yaxshi! Qani, bitta kallaqand qo'y-chi, qancha kelar ekan.

Karapet og'a kattakon kallaqandlardan birini quchog'ida keltirib taroziga qo'ydi.

— Bu — o'n, bu yana o'n — yigirma. Bu besh, bu uch, bu ikki, bu esa yarim. Mana, rosa o'ttiz yarim girvonka. O'ttiz girvonkasi — o'ttiz abbosiy[2], bu olti manat bo'ladi, to'qqiz shohiysini chiqarib tashlaymiz, qoladi besh manat o'n bir shohiysi.

Karapet og'a kallaqandni tarozidan olib yerga qo'ydi.

---

[1] **Shohiy** — mayda pul birligi *(tarj.)*.

[2] **Abbosiy** — pul birligi *(tarj.)*.

— Karapet og‘a, Xudoga shukur, endi bilib oldingmi mening kim ekanligimni?

— Qanaqasiga bilib oldim?

— Endi bildingmi mening kimligimni, deyapman?

— Xo‘sh, kimsan?

— Men Donobosh qishlog‘ining kattasi Xudoyorbek bo‘laman.

— Men esa ikkinchi gild kupets Karapet og‘a bo‘laman.

— Iloyo, otangni Xudo rahmat qilsin. Bu gaplarni men shuning uchun aytyapmanki, hozir dunyoda qalloblar ko‘payib ketgan. Bittasi kelib nasiyaga savdo qiladi, Ollohni, payg‘ambarni o‘rtaga qo‘yib, uch kun ichida pulini olib kelaman, deb ont ichadi. Uch kun o‘tadi, bir oy o‘tadi, uch yil o‘tadi... Lekin agar men bunday qalloblik qilsam, Xudo ursin. Gapning rosti, bugun shunaqa bo‘lib qoldiki, shaharga pul olib kelmagan ekanman. Hozir men qandni olib ketaman, inshoolloh, ertaga ertalab senga besh manat o‘n bir shohiyni shu yerga yetkazib kelaman.

Karapet og‘a bu so‘zlarni eshitgach, jahd bilan qandni joyiga eltib qo‘ydi, qaytib kelib Xudoyorbekning yelkasiga o‘ng qo‘lini qo‘yganicha so‘l qo‘li bilan eshikni ko‘rsatdi:

— Qani yo‘qol! Tez chiqib ket bu yerdan! Darhol chiqib ket!

Xudoyorbek indamaygina do‘kondan chiqib ketdi. Shom azoniga yarim soatlar qolganida Xudoyorbek eshakni qoldirgan o‘sha karvonsaroyga yetib keldi. Xudoyorbek karvonsaroyning eshigiga yetgan zahoti ichkaridan kalta bo‘z kamzul, bo‘z papoq, oq ishton kiyib olgan bir kishi qosh-qovog‘ini uyganicha chiqib keldi. U Xudoyorbekka yuzlanib:

— Hoy inson, Olloh otangni rahmat qilsin, bu g‘avg‘odan bizni xalos et! Hoy noinsof, qanday baloni keltirib solding bu og‘ilga, jonimizdan to‘yib ketdik-ku! Xudo haqi, hozir eshakni olib chiqaman, olgin-u darhol jo‘nab qol, — dedi.

Shunday deya bu pakana kishi — karvonsaroy xizmatchisi bo‘lsa kerak — karvonsaroyning ichiga yo‘l oldi. Xudoyorbek uni to‘xtatib:

— Og‘ir bo‘l, og‘ayni, qayoqqa ketyapsan? — dedi. — Qanaqa baloni keltirib solibman sening tablangga? Eshak boshqa eshaklar

bilan chiqishmay qolganga o‘xshaydi. Axir, mening eshagim yuvosh edi-ku. Sen nega bunday deyapsan?

Xizmatchi qo‘lini paxsa qilganicha baland ovozda:

— Hoy inson, Xudo haqi, men bilan hazillashma! — dedi. — Hazilni ko‘taradigan holim yo‘q. Eshagingni olib chiqaman, ol-u jo‘na!

Xudoyorbek ham ovozini balandlatib:

— Hoy og‘ayni, mundoq tushuntiribroq ayt-chi, nima bo‘ldi o‘zi? — dedi.

— Tag‘in nima bo‘lsin? Kap-katta kishi! Birovning eshagini o‘g‘irlab kelib, mening karvonsaroyimga qamab qo‘yibsan. Nega? Menda biror qasding bormidi?

— Hoy, jinni bo‘ldingmi? Yoki kayfing bormi? Men nega birovning eshagini o‘g‘irlar ekanman? Xudo haqi, past-baland gaplarni aytaverma, keyin pushaymon bo‘lasan!

— Mayli, baraka topkur, boshqa eshak topa olmagan ekansan, Muhammadhasan amakining eshagini olib kelib, mening boshimni janjalga solasanmi?

— Qanaqa janjalga solibman men seni?

— Qanaqa janjal bo‘lardi? Sen eshakni tablaga qo‘yib ketishing bilanoq, Muhammadhasan amakining kenja o‘g‘li karvonsaroyga o‘qday otilib kirib, eshakni olib ketaman, deb turib oldi. Men unga qanday qilib beraman? Tag‘in nimasini aytay, og‘ayni! Bolakay o‘zini yerdan olib, yerga otadi, yo o‘zimni o‘ldiraman, yo hoziroq eshakni olib ketaman, deydi. Oxiri noiloj qolib, borib bir gorodovoyni chaqirib keldim, u yigitchani ura-ura tashqariga haydab chiqardi.

— Afsus, afsus, afsuski, o‘zim shu yerda bo‘lmabman-da! Xudo haqi, naq o‘ligini qoldirardim bu yerda uning! Uni men qishloqqa sog‘ jo‘natmasdim! Xo‘sh, nega sen menga darhol xabar qilmading?.. Mayli, bo‘lari bo‘pti. Qorong‘i ham tushib qoldi, endi qishloqqa qayta olmayman. O‘zim ham qolishim kerak, eshak ham. Bu kecha sening mehmoningman endi, Karbaloyi Ja’far amaki.

— Mehmon bo‘lsang, bosh ustiga. Albatta, endi ketib bo‘lmaydi. Hamma yoq qop-qorong‘i. Darvoqe, nega bu yerda turibmiz? Ketdik biznikiga.

Oldinda Karbaloyi Ja'far amaki, uning ortida Xudoyor, torgina bir qorong'i hujraga kirib keldilar. Karbaloyi Ja'far amaki kirgan zahoti gugurt chaqib, so'l tomondagi devorga qoqilgan kichkina chiroqni yoqdi va mehmonga joy ko'rsatdi. Hujraga bir palos to'shalgan, to'rda bir ko'rpa-to'shak yig'ib qo'yilgan, burchakda bir ko'za, bir oftoba va bir supurgi bor edi. Qorayib ketgan devorlarning na toqi bor edi, na tokchasi. Xudoyorbek devorga orqa berganicha palosga o'tirib, chubug'ini cho'ntagidan chiqardi-da, tamaki to'ldira boshladi. So'ng Karbaloyi Ja'far amakiga yuzlanib dedi:

— Qani, o'tir-chi, Karbaloyi Ja'far amaki. Malol kelmasa, avval menga bir olov ber. Kel, o'tir, biroz suhbatlashaylik.

Karbaloyi Ja'far amaki ham boshmoqlarini yechib, uning yoniga cho'kdi va gugurt chaqib, Xudoyorbekning chubug'iga o't tutdi. Xudoyorbek chubug'ini tutatib oldi.

— Karbaloyi Ja'far amaki, sen menga bu ahvolotni aytmaganing yaxshi edi. Yuragimga o'q sanchgandek bo'lding. Muhammadhasan amakining padariga la'nat! U meni xalq ichida rasvo qildi. Shu yoshga kirib, bu qadar badnom bo'lmagan edim.

Xudoyorbek shu so'zlarni aytgach, tikkayib chubug'ini Karbaloyi Ja'far amakiga uzatdi. U "yo Olloh" deya chubuqni olib, bir so'rgach dedi:

— To'g'ri aytasan, Xudoyorbek. Lekin Muhammadhasan amaki ham nima qilsin? Uning nima gunohi bor? Sen eshakni olganingni unga aytganingda, bu gaplar bo'lmasdi. U eshakni sen olganingni bilganida, ortingdan o'g'lini ham jo'natmasdi.

— Hoy inson, Xudo haqi, eshakni menga Muhammadhasan amakining o'zi berdi. Eshakni menga u dayusning, u qurumsoqning o'zi berdi, u ablahning o'zi berdi. Hoy inson, nega ishonmaysan?

— Nega ishonmas ekanman? Ishonaman.

— Qur'oni munzal haqi, uning o'zi berdi. Nahotki men, uch yuz xonadonning kattasi, atigi bitta eshak topa olmay, birovlarning eshagini o'g'irlasam?

Karbaloyi Ja'far qomatini tiklab, chubuqni Xudoyorbekka qaytardi. Xudoyorbek bir-ikki so'rib olgach, gapida davom etdi:

— Mana endi ko'rasan, Karbaloyi Ja'far amaki, agar Muhammadhasan amakidan qasdimni olmasam, mana shu soqolimni kesib tashlayman!

Karbaloyi Ja'far amaki jilmayib qo'ydi va cho'nqayib o'tirganicha so'rab qoldi:

— Xo'sh, sen uni nima qila olasan?

— Men uning ko'zini o'yib olaman! Nima qilar edim uni? Men uning kattasi emasmanmi, axir? Uning menga ishi tushmaydigan kuni yo'q. Nima qilardim? Balchiqqa qorib, ustiga chiqib toptab tashlayman.

Shu payt o'n-o'n ikki yoshlardagi bir bola qo'lida bir dekcha osiltirib kirdi, dekchani yerga qo'yib, Karbaloyi Ja'farga yuzlandi:

— Dadajon, bugun onam go'shtni biroz kuydirib yuboribdi, yeya olasizmi yo yo'qmi? Bir ko'ring.

Karbaloyi Ja'far g'azablanib dedi:

— He onangning otasini go'riga... Astag'firulloh! Shaytonga ming la'nat. Shunchalik ham badbaxt bo'lamanmi men? Itning qizi go'shtni kuydirmagan, mushukka oldirmagan kuni yo'q!

Bola boshini quyi solib dedi:

— Yo'q, dadajon, onamning hech gunohi yo'q. U bugun hammomga ketgan edi. Har zamon go'shtga qarab tur deb G'unchaga tayinlagan edi. G'uncha alaxsib ketib, go'shtni kuydirib qo'yibdi.

— He, onangning boshiga hammom qulab tushsin! Kelib-kelib onang bugun boradimi hammomga?

Bola hayron bo'lib so'radi:

— Unda qachon borishi kerak?

Xudoyorbekning ochlikdan sillasi qurib qolgan edi; sahardan beri, qishloqdan chiqqanidan buyon, qozining bir stakan choyini aytmaganda, tuz ham totmagan edi. Bola dekchani ichkari olib kirgan zahoti bo'zboshning[1] hididan Xudoyorbekning boshi aylanib ketdi, ichida Karbaloyi Ja'farning xotinini rosa so'kdi. Xudoyorbek qarasa ota-bolaning hangomasi cho'zilib ketadigan, uning esa ochlikdan ichi quldirab yotibdi; shu bois bu suhbatga chek qo'yish uchun o'rtaga gap soldi. U dekchani chertganicha:

[1] **Bo'zbosh** — no'xatsho'rva *(tarj.)*.

— Karbaloyi Ja'far amaki, nima desang deyaver, aytmoqchimanki, balki bolaning xabari yo'qdir. Go'sht sirayam kuymagan, faqat yaxshi qovrulgan. Qara, go'shtning ajoyib hidi chiqyapti, — dedi.

Karbaloyi Ja'far o'rnidan turib, bir burchakdan yog'och qoshiq topib keldi-da, dekcha yoniga cho'nqaydi. Dekchaning qopqog'ini ochib, sho'rvadan bir qoshiq ichib ko'rdi, og'zini chapillatganicha, qovog'ini uyib Xudoyorbekka yuzlandi:

— Yo'q, bu go'shtni yeb bo'lmaydi.

Xullas, Karbaloyi Ja'far biroz xotinidan shikoyat qildi, uni so'kdi, la'natladi. Oxiri noiloj qolib, o'rtaga dasturxon yozdi, laganga qotgan non to'g'rab, o'ng qo'li bilan dekchani uning ustiga ag'dardi, so'ng go'sht bo'laklarini bir-bir sanab dekchaga qaytarib soldi. Ikki qo'lini panshaxa qilgancha nonni aralashtirgach, Xudoyorbekka manzirat qildi:

— Bismilloh, Xudoyorbek, qani, yaqinroq o'tir-chi. Go'sht kuygan bo'lsa, baxtingdan ko'r, xo-xo-xo...

Xudoyorbek yaqin o'tirib taomga qo'l cho'zdi. Bir necha bo'lak olgach dedi:

— Karbaloyi Ja'far amaki, Xudo haqi, sen juda noinsof odam ekansan. Hoy inson, kim aytadi bu etni kuygan deb? Sirayam kuygan emas. Bundan yaxshi pishgan et bo'lmaydi.

Xudoyorbek yolg'on aytdi. Avvallo shuning uchunki, u juda ochiqqan edi. Och odamga kuygan go'sht ham lazzatli tuyuladi. Ikkinchidan, bu yer shahar edi, har nima bo'lganda ham, shahar bo'zboshi bilan qishloq bo'zboshi bir xil bo'lmaydi. Shahar bo'zboshining kuyib ketgani ham qishloq bo'zboshining eng mazalisidan mazaliroq bo'ladi.

Xullas, Karbaloyi Ja'far va Xudoyorbek tanovul bilan mashg'ul bo'ldilar. Bola biroz o'tirdi-da, so'ng chiqib ketdi. Xudoyorbek so'l oyog'ini oldinga uzatib, o'ng oyog'ini tikka bukib o'tirar, shu oyog'i dasturxonning ustiga chiqib qolgan edi. Karbaloyi Ja'far esa cho'k tushganicha taomning ustiga enkayib olgan, burni laganga tegay-tegay deb turardi.

Ovqatni yeb tugatishdi. Karbaloyi Ja'far dasturxonni, idish-tovoqlarni yig'ishtirib bir chekkaga qo'ydi. Har ikkisi qo'llarini

artishib, orqaga surilib o'tirishdi. Xudoyorbek bir uh tortib, chubug'ini chiqardi, unga tamaki to'ldirib, o't tutashtirdi, bir-ikki so'rib, Karbaloyi Ja'farga uzatdi.

— Karbaloyi Ja'far amaki, menga yetti manat pul kerak bo'lib qoldi. Qanday yo'l bilan bo'lsa ham topib, ishimni bitirib berishing kerak.

Karbaloyi Ja'far o'ylab ham o'tirmasdan javob qildi:

— Xudoyorbek, Xudo haqi, menda pul yo'q. Bo'lsa agar, qaysi qurumsoq sendan ayar edi?

— O'zingda bo'lmasa, boshqadan top. Xullas, men hech narsani bilmayman, qanday yo'l bilan bo'lsa ham topib berishing kerak.

Karbaloyi Ja'far biroz o'ylanib turib, dedi:

— Gaping-ku to'g'ri-ya. Lekin hozir zamon buzilib ketdi. Qani endi, senga qo'lini cho'zadigan bir banda topilsa. Hozir men birovga borib, menga, yetti manat zarur bo'lib qoldi, desam, avval o'n yetti manatlik biror narsangni keltirib zalog[1] qo'y, deydi.

— Hechqisi yo'q, nima qipti? Sen shunday bir odam topki, menga yetti manat bersin, men unga o'n yetti manatlik narsani garovga qo'yaman. Xo'sh, nima deysan?

Karbaloyi Ja'far yana bir muddat o'yga cho'mib, so'radi:

— Hozir yoningda nima narsang borki, zalog qo'ysang?

— U sening ishing emas. Sen pulni top, men garov qo'yamanmi yoki yo'q — o'shanda ko'rasan.

— Axir, sen qanday narsani garovga qo'yishingni men qaydan bilay?! Balki pulning egasi sen qo'yadigan narsani qabul qilmas?

Xudoyorbek boshini quyi soldi. Chubug'ni olib tamaki to'ldira boshladi. So'ng Karbaloyi Ja'farga yuzlanib past ovozda dedi:

— Karbaloyi Ja'far amaki, sen kimdan bo'lsa ham menga yetti manat topib ber, minib kelgan eshagim zalog bo'lsin. Qachon men sening pulingni qaytarib kelsam, sen ham eshakni o'zimga qaytarib berasan.

— Xa-xa-xa! Xa-xa-xa!.. Xudoyorbek, sening katta boyliging bor ekan... xa-xa-xa! Hoy inson, sen hazillashyapsanmi... Xa-xa-xa!

— Nega kulasan, og'ayni? Qaysi ahmoq hazillashadi?!

---

[1] **Zalog** — garov *(rus — tarj.)*.

— Xa-xa-xa!.. Hoy inson, eshak seniki emaski, garovga qo‘ysang! Ertaga eshakni egasi kelib olib ketadi-ku!.. Xa-xa-xa...

— Sekin, hoy og‘ayni, sekinroq kul, men gapimni aytib tugatay. Xudo haqi, men hazil qilayotganim yo‘q. Qani, aytchi, eshakning egasi sendan nima deb eshakni so‘raydi? Xo‘sh, kelib: “Mening eshagim shu yerda, eshakni ber”, deydimi? Sen: “Kimning guvohligida sen mening karvonsaroyimga eshak olib kelgansan?” deysan. Yoki u: “Eshagim nima bo‘ldi”, desa, sen “Eshakni bu yerga kim minib kelgan bo‘lsa, o‘sha kishi olib ketdi”, deysan. Qolganini men bilaman, eshakning egasi biladi. Senga nima daxli bor?..

Xudoyorbek shunday deya chubug‘ini Karbaloyi Ja’farga uzatdi. U ham chubuqni olib chekishga tushdi. Ularning suhbati cho‘zilgandan cho‘zildi. Unisi undoq dedi, bunisi bundoq. Oxiri shunday shartga keldilar: Ja’far Xudoyorbekka yetti manat beradi, eshak esa uning ixtiyorida qoladi. Sotadimi, yashirib qo‘yadimi yo boshqami — nima qilsa, o‘zi biladi. Xudoyorbek qishloqqa qaytgach, eshak karvonsaroydan o‘g‘irlanipti, deb e’lon qiladi. Mobodo Muhammadhasan amaki uchib-qo‘nadigan bo‘lsa, janjal ko‘tarsa, Xudoyorbek, mirovoy sudga ariza berdim, karvonsaroychidan eshakni talab qiladigan bo‘ldi, deb ont ichadi. Agar Muhammadhasan amaki shaharga kelib, Karbaloyi Ja’fardan voqeani surishtiradigan bo‘lsa, Karbaloyi Ja’far, haqiqatan ham eshak o‘g‘irlab ketildi, Xudoyorbekning bu ishda hech bir aybi yo‘q, deb ont ichsin, uni ishontirsin. Ana shu hiyla o‘ylab topilgandan so‘ng Karbaloyi Ja’far tashqari chiqdi, ancha hayallab ketganidan so‘ng, qaytib kelib joyiga o‘tirdi va cho‘ntagidan bitta besh manatlik, ikkita bir manatlik chiqarib, Xudoyorbekning oldiga qo‘ydi. Xudoyorbek pulni olib cho‘ntagiga tiqdi, qaddini kerib, o‘ng qo‘lini Karbaloyi Hasanga uzatdi:

— Qo‘lni ber.

Karbaloyi Ja’far ham Xudoyorbekka o‘ng qo‘lini cho‘zdi.

— Karbaloyi Ja’far amaki, Olloh sening o‘g‘lingni o‘z panohida asrasin, o‘zingga ham sihat-salomatlik ato etsin. O‘z birligimiz haqi, sening ushbu savdongga baraka bersin.

IV

Xudoyorbek, ovqatdan qorni to‘yib, yetti manatni cho‘ntagiga urib, rohatlanganicha bemalol cho‘zilib yotdi. Aftidan, ko‘pdan beri uning uyqusi ushbu kechadagi kabi shirin bo‘lmagan edi.

Biroq dunyoda ba’zan-ba’zan, balki ko‘p hollarda juda taajjubli ishlar uchrab turadi. Masalan, hozir bu yerda Xudoyor katta maza qilib uxlab yotardi. Lekin ayni shu paytda Donobosh qishlog‘ining uch joyida motam, bunga esa Xudoyorbekning o‘zi sababchi edi. Chindan ham bu kulgili va ajoyib bir hol edi. Shuning uchun ham ajoyib bir hol ediki, bundan odam kuladi, kulib yuragi yoziladi. Yo‘qsa, g‘am-g‘ussa tug‘diradigan hikoyatning kimga keragi bor?!

Darvoqe, hozir, ayni daqiqalarda, ushbu kecha tongga qadar Donobosh qishlog‘ining uch xonadonida motam edi. Biri Muhammadhasan amakining xonadonida bo‘lib, buning sababi ma’lum, ikkinchisi Xudoyorbekning o‘z xonadonida va uchinchisi Xudoyorbek uylanmoqchi bo‘lgan ayol, ya’ni Zaynabning xonadonida. Hozircha Xudoyorbek shaharda qola tursin, biz Donobosh qishlog‘iga qaytib, Zaynabning motamidan boshlaylik va boshqalariga ko‘chib o‘taylik.

Zaynab qirq-qirq ikki yoshlardagi to‘lagina qoramag‘iz ayol edi. Bundan ikki yil avval uning eri Karbaloyi Haydar vafot etgan, Zaynab Valiquli degan o‘n yetti yashar bir o‘g‘li, yetti yashar Fizza va to‘rt yashar Zebo degan ikki qizi bilan beva qolgan edi. Zaynab qanaqangi Zaynab edi!

Qani endi avvalgi Zaynab? Uni bundan ikki yil ilgari ko‘rgan kishi endilikda hech taniyolmay qoladi. Uni eri Karbaloyi Haydarning tirikligida ko‘rsangiz edi. Zaynab go‘zallikda Donobosh qishlog‘ining yaktosi edi.

Zaynab bir yetimcha qiz edi. Ammo juda chiroyli bo‘lgani uchun bibisi uni o‘z o‘g‘liga olib berish uchun uyiga olib kelib asradi. Lekin bibisining o‘g‘li vafot etdi, Zaynabning nomi esa shunchalik shuhrat topdiki, sovchi ustiga sovchi yog‘ilib kela boshladi. Bir yilning ichida Zaynabga o‘n to‘rtta xaridor chiqdi, deb ont ichadilar. Hammasi ham es-hushli, tag-tubli joylardan. Oxiri taqdir shu bo‘ldiki, Zaynabni Haydarga nikohlab berdilar va bu juda yax-

shi bo‘ldi. Chunki Haydarning otasi Karbaloyi Ismoyil qishloqning mo‘tabar zotlaridan biri bo‘lib, uning boshqa talabgorlardan na mol-davlatda kamlik joyi bor edi, na izzat-hurmatda.

Zaynab Haydarga tekkanidan uch yil keyin Karbaloyi Ismoyil vafot etdi va u o‘zidan to‘qqiz eshak, to‘rt-beshta bosh qoramol, yettita echki, ikki tanob yer qoldirib ketdi. Albattaki, bu merosning yarmisi Haydarga, qolgan yarmi akasi Rizoga tegdi.

Bir yildan so‘ng Rizo vafot etdi. Haydar otasining mol-davlatining yagona egasi bo‘lib qoldi va ishi kundan kun rivoj topa boshladi. Lekin shu bilan birga xarajati ham oz emasdi, albatta. Avvalo, otasi va akasining xayri Xudoyisi hamda ularning mayitini Karbaloga jo‘natish xarajati; keyin esa o‘zi ham Karbaloga borib keldi va ishi ancha orqa ketdi. Nega ham orqa ketmasin? Uning hisob-kitobiga ko‘ra otasi va akasining mayitlarini Karbaloga jo‘natish va o‘zining Karbaloga borib kelishi uchun naq ikki yuz manat xarj bo‘lgan edi. Ammo Olloh taoloning karami keng ekan. Chunki bu pullarni Karbaloyi Haydar xayrli ishlarga sarflagan edi, oxir-oqibatda Olloh taolo o‘z qudrati ila yana Karbaloyi Haydarning ishni o‘nglab qo‘ydi. Shu qadar o‘ngladiki, u o‘lgandan so‘ng motam xarajatlariga yetmish manat sarflandi, bundan tashqari, xotini Zaynabga ikki yuz ellik manat, o‘g‘liga bir yuz qirq va har bir qiziga yuz manatdan mablag‘ meros qoldi. Qolgan yerlarni xotini va qiziga vasiyat qildi. Hovli esa o‘g‘li Valiquliga qoldi.

Karbaloyi Haydarning o‘limi xotini Zaynab uchun og‘ir musibat bo‘ldi. Erining o‘limiga qattiq qayg‘urdi sho‘rlik ayol. Hozir ham har juma oqshomi erining qabriga borib, kattagina ma’raka qilib keladi. Shunga qaramay, Zaynab zig‘ircha noshukurlik qilmaydi. G‘am-g‘ussa og‘ushida bo‘lsa ham, yetkazgan bir parcha noni uchun, o‘zgalarga muhtoj qilib qo‘ymagani uchun hamisha Ollohga shukrona va hamd-u sanolar aytadi. Voyaga yetgan o‘g‘li va ikki qizi borligiga shukur qiladi... Yana Olloh barakat bersin, bularning hammasiga shukrona aytish kerak-da, axir.

Zaynab o‘g‘lidan mingdan ming rozi. Shuning uchunki, Valiquli otasiga ko‘rsatmagan xoksorlikni onasiga ko‘rsatib kelyapti. Valiquli nainki onasining, balki boshqalarning ham gapini ikki qilmaydigan yigit edi. Onasi o‘l desa o‘lar, tiril desa tirilardi. Ota-

si o'lgan kundan to hozirgacha Valiqulining o'z ishini bir chetga qo'yib, teng-to'shlari bilan daydib yoki kayf-safo qilib yurganini hech kim ko'rgan emas. Insofan aytganda, Valiquli juda yuvosh yigit edi. Hozirga qadar Zaynab Valiqulidan bir bora bo'lsa ham ranjigani yo'q edi. Ammo keyingi paytlarda Valiquli bilan onasining orasidan ola mushuk o'tib qoldi.

Voqea mana bunday bo'ldi.

Hikoyatni boshidan boshlay qolaylik. Marhum Karbaloyi Haydar bilan Xudoyor katta qalin do'st edilar. Yoshlik chog'laridan to Karbaloyi Haydar o'lgan kunga qadar ularning orasidan qil ham o'tmasdi. Biri ikkinchisi uchun jon berib, jon olardi. Kecha-yu kunduz yurish-turishlari bir, yeb-ichishlari bir, borish-kelishlari bir edi. Ularning do'stligi shu darajaga yetdiki, el ulardan badgumon bo'la boshladi. Chunki ularning do'stligini har kim har xil tushunardi. Birovlar hatto, ular yashirincha narigi tomondan kandrobat[1] mol keltirib sotadi, degan gapni ham aytar edilar. Yo'q, bu bekor gap, shunchaki uydirma edi. Shuning uchunki, Xudoyorbekni bilmayman, lekin Haydar mundoq otga minishni ham eplay olmasdi.

Ba'zi kimsalar, ular qalbaki pul yasaydi, der edilar.

Bu juda taajjubli narsa. Donobosh qishlog'i qayda-yu, qalbaki pul yasash qayda?! Darvoqe, Donobosh qishlog'ida haqiqiy pul bilan qalbaki pulning farqiga boradilarmi o'zi? Haqiqiy pul bilan qalbaki pulni ajrata oladigan kimsa topiladimi o'zi? Yo'q, bu bekor gap.

Xullas, har kim o'zicha har narsani gumon qilar edi.

Qisqasi, xalq nima deb gumon qilsa qilaversin, lekin zohiran Karbaloyi Haydar bilan Xudoyorbekning do'stligi mustahkam do'stlikka o'xshardi.

O'tgan kunlardan biri, qish fasli edi. Kecha yarimlab qolgan edi. Har ikki o'rtoq, ya'ni Karbaloyi Haydar bilan Xudoyorbek va ulardan tashqari Karbaloyi Haydarning qo'shnilaridan bir necha kishi Karbaloyi Haydarning tablasida suhbatlashib o'tirar edilar. Ma'lumki, uzun qish kechalarida uxlab tong ottira olmaysan. Shu-

[1] **Kandrobat** — ruscha kontrabanda (davlat chegarasidan o'g'rincha o'tkazilgan mol) so'zining buzilgan shakli *(tarj.)*.

ning uchun Donobosh qishlog‘ida ota-bobolardan qolib kelayotgan bir odat bor edi: har bir mahalla ahli bir tablaga yig‘ilib olib, yarim kechagacha hangoma, suhbat, o‘yin-kulgi bilan mashg‘ul bo‘lardilar, chunki qishda qiladigan tayin bir ish yo‘q edi. Aksariyat hollarda o‘tirganlardan biri qiziqroq bir voqea, hikoyatni so‘zlab berar, boshqalar uni tinglab o‘tirar edi.

Binobarin, Xudoyorbek bir tomonda, Karbaloyi Haydar ikkinchi tomonga o‘tirib olib, bu hikoyatlarga quloq solar edilar.

Donobosh qishlog‘ining mullasi Mulla Pirquli “Baxtiyornoma”[1] kitobidan bir voqeani o‘qib bermoqda edi. Hammaning diqqat-e’tibori mullada edi. Ittifoqo, bu ikki o‘rtoqning xotinlari homilador edi. Ushbu kechada ikkala ayolni ham dard tutib qoldi. Hikoya eng shirin joyiga yetgan ham ediki, tabla eshigi g‘irchillab ochildi. Tablaga ikki o‘g‘il bola, bir qizaloq kirib, mahalla ahliga yaqin kelishdi. Chunki tabla nim qorong‘i bo‘lib, bolalar izlagan kishilarini kirgan zahoti taniy olmadilar. Nihoyat, davra ichidan Karbaloyi Haydarni topib olib, suyunchi so‘ragancha uning boshiga yoprildilar:

— Amaki, suyunchi bering, o‘g‘il ko‘rdingiz. Bering endi suyunchisini.

Karbaloyi Haydar qo‘lini cho‘ntagiga tiqib, jiyda chiqardi-da, bolalarga bir hovuchdan berib jo‘natib yubordi. Mulla Pirquli va boshqalar Karbaloyi Haydarni muborakbod etdilar. Mulla hikoyatni o‘qishda davom etdi. Xudoyorbek ham o‘rtog‘ini qutlab, fikrga cho‘mdi. So‘ng Karbaloyi Haydar tomon yuzlanib, qo‘lini cho‘zganicha uni chaqirib qoldi. Mulla, Xudoyorbek nima der ekan, deb jim bo‘ldi.

— Karbaloyi Haydar og‘ayni, qo‘lingni ber menga.

Karbaloyi Haydar Xudoyorbekka qo‘lini uzatdi. Zero, har ikki o‘rtoq bir-biridan uzoqroq o‘tirishgan edi, shuning uchun ham bir-biriga qo‘l berishayotganda har ikkisi ham enkayibroq o‘rnidan turdi. Qo‘l tashlashlari bilanoq Xudoyorbek gap boshladi:

---

[1] **“Baxtiyornoma”** — pahlaviy tilida yaratilgan qadimiy dostonlardan biri. Ko‘pgina tillarga tarjima qilingan. Yozma adabiyotda bir necha asarning mazmuni “Baxtiyornoma”dan olingan. Bu doston va uning asosida yaratilgan dostonlar Tabrizda bir necha marta toshbosma usulida chop etilgan *(muallif izohi)*.

— Karbaloyi Haydar og'ayni, azizim, nuri diydam! Sen o'g'il ko'rding, o'z birligimiz haqqi, Olloh uni senga ko'p ko'rmasin. Og'ayni, hozir mening xotinim ham og'iroyoq bo'lib turibdi. Buni o'zing ham bilsang kerak. Og'ayni, kel, shu davra oldida ahd qilaylik. Agar hozir mening ham o'g'il ko'rganim haqida xabar kelsa, unda har ikkisi og'a-ini bo'lishiga fotiha o'qiylik. Ular ham ikkimiz kabi og'a-ini bo'lsinlar. Yo agar men qiz ko'rsam, sening o'g'lingga unashtiraylik.

Hammadan avval mulla o'z roziligini izhor etdi va Xudoyorbekning bu taklifini juda alqab dedi:

— Zi har taraf ki shavad gushta sudi islom ast. Juda yaxshi, juda ajoyib. Har tarafdan, ya'ni har qanaqasiga olib qaralsa ham, bu islomga muvofiq keladi. Juda go'zal, juda go'zal.

Mulla Pirquli bilardiki, aytgan fardining mazmunini hech kim tushunmaydi; tushunsalar ham, yaxshi ma'noda tushunadilar. Ya'ni, bu savdoning hamma jihati islomga muvofiq keladi.

Mulla islom deganda o'zini nazarda tutgan edi; chunki u undoq fotiha o'qisa ham, bundoq fotiha o'qisa ham, o'ziga bir shirinkoma tushishini yaxshi bilar edi. Shubhasiz, har qanaqasiga bo'lsa ham, bu oxundning foydasiga edi. Xullas, ahd bog'landi va xuddi shu payt Xudoyorbekning qiz ko'rganligi haqida xabar keldi. Karbaloyi Haydar o'g'lining ismini Valiquli, Xudoyorbek qizining otini Gulsum qo'ydi. Ushbu kecha Mulla Pirquli Valiqulini Gulsumga unashtirish fotihasini o'qidi.

Shu voqeadan so'ng Karbaloyi Haydar bilan Xudoyorbek o'rtasidagi mehribonchilik yanada ortdi. Chunki endilikda ular ham sadoqatli do'st, ham yaqin qarindosh bo'lib qolgan edilar. U buning uyidan, bu uning uyidan chiqmas edi. Ehtimol, tug'ishgan og'a-inilar ham bir-biriga bu ikkalasi kabi mehribon bo'la olmas edi. To Karbaloyi Haydar o'lgan kunga qadar bu ikki o'rtoqning o'zaro muhabbati va do'stligiga zarracha raxna tushmadi.

Bularning bunaqangi do'stligini ko'rgan jamoat Karbaloyi Haydarning vafoti Xudoyorbekka juda qattiq ta'sir qiladi, deb o'ylagan edi. Biroq Xudoyorbek og'aynimiz o'zini shunday tutdiki, xaloyiqning hayratdan og'zi ochilib qoldi. Karbaloyi Haydarning joni og'zidan puf etib chiqqan zahoti Xudoyorbek Zaynabning

oldiga, zinhor-bazinhor boshqa birovga va'da bermasin va boshqa birovga tegishni xayoliga ham keltirmasin, deya odam jo'natdi. Nega? Shuning uchunki, Karbaloyi Haydar unga, ya'ni Xudoyorbekka, Zaynabni uning o'zi olsin, boshqa bir nomardga erga tekkani qo'ymasin, deb vasiyat qilgan emish.

Xullas, bu gap qishloq orasida shuhrat qozondi. Hamma tushunib etdiki, marhum Karbaloyi Haydar bilan Xudoyorbek na qalbaki pul yasar ekanlar, na u tomondan bu tomonga kandrobant mol keltirib sotar ekanlar. Hamma tushunib yetdiki, bu ikki o'rtoqning muhabbati nainki bir-biriga nisbatan, balki bir-birlarining xotinlariga nisbatan ham ekan. Kim bilsin, balki Xudoyorbek o'lganida, Karbaloyi Haydar ham uning xotinini so'rarmidi?

Zaynab Xudoyorbekning sovchisiga, Xudoyorbek hangrab-hangrab o'z tengini topsin, u menïng tengim emas, uni eshigimga qorovul qilib ham olmayman, deb javob berdi. Zaynab Xudoyorbekka shuning uchun ham bunaqangi javob qildiki, avvalo, erining tuprog'i hali sovigani ham yo'q edi. Erining azasi chiqmay turib, er topishga tushish unga ravo keladimi, axir? Ikkinchidan, yana shuning uchun bunaqangi javob qildiki, Karbaloyi Haydar o'lgan zahoti Zaynabga ikki munosib joydan xaridor chiqqan edi. Biri Donobosh qishlog'ining mo'tabar va hurmatli zotlaridan bo'lmish Hoji Hamza, ikkinchisi Charchibo'g'on qishlog'ining glavasi Xoliqberdiboy edi. Ularning har ikkisiga ham Zaynab, erga tegish xohishim yo'q, deb javob berdi. Uchinchidan, Zaynab Xudoyorbekka shuning uchun ham bunaqangi javob qildiki, o'zi qanday kunga tushmasin — kambag'almi yo boy, yoshmi yo keksa, chiroylimi yo xunuk — yuz yil ersiz qolsa qoladiki, lekin Xudoyorbekning odamga o'xshamaydigan basharasiga va shalpayib tushgan burniga yuzini surtmaydi. Xudoyorbekning sovchisiga Zaynab aynan shunday deb javob bergan edi.

Lekin Xudoyorbek Zaynabdan hamon umidini uzmas, balki bora-bora taqdiriga tan berib yumshalar, epaqaga kelib qolar deb o'ylar edi. Va hammadan ko'proq Valiquliga umid bog'lagan edi.

U Valuquli anchadan beri Gulsumning olovida kuyib yurganligini bilar edi; hatto oxirgi vaqtlar u to'y fikriga ham tushib qolgan edi. Modomiki shunday ekan, hali umid bor, ya'ni Xudoyorbekning

umidi shu ediki, Valiquli onasini biror chora, biror tadbir bilan yo'lga soladi. Zaynabning er qilish tashvishi avvallari Valiqulining parvosiga ham kelmasdi. Unga nima daxli bor? Onasi kimga tegsa tegaversin, faqat o'z yori Gulsum omon bo'lsa, bas.

Darvoqe, Valiquli o'z nishonlisiga qattiq oshiq bo'lib qolgan, uni haddan ziyod yaxshi ko'rardi. Ammo ishlar shunaqasiga ketdiki, Zaynab Xudoyorbekka rad javobini bergan zahoti Xudoyorbek, avvalo, endi qizini Valiquliga bermasligini ma'lum qildi, qolaversa, marhum Karbaloyi Haydarning undan, ya'ni Xudoyorbekdan hujjat bilan tasdiqlangan ikki yuz manat qarzi bor, shikoyat-mikoyat qilib yurmasdan shu qarzni zudlik bilan to'lab qo'ysinlar, deb Zaynab bilan Valiquliga o'z talabini qo'ydi. Zaynab Xudoyorbekka, modomiki u qizini Valiquliga bermoqchi emas ekan, u qizga mening ham ko'zim uchib turgani yo'q, deb javob qildi. Va agar Karbaloyi Haydarning undan ikki yuz manat qarzi bo'lsa, qog'ozini devonga eltib topshirsin-da, pulni ham devondan olsin.

Valuqulining bu voqealardan sira xabari yo'q, chunki o'sha kuni Valiquli dalada, yerga urug' sochib yurgan edi. U daladan qaytib, mollarni og'ilga soldi, uyga kirib qarasa, onasi xafa o'tiribdi, u hayron bo'lib, buning sababini so'radi. Zaynab bir burchakda tizzalab o'tirganicha paypoq to'qirdi. Chehrasi juda g'amgin edi. Zaynabning so'l tomonida Fizza qizi yonboshlaganicha onasining yuziga sinchkovlik bilan tikilib turardi. Chekkadagi taqir bir yerda Zebo qizi o'z-o'zicha nimadir o'ynamoqda edi. Valiquli ichkari kirgan zahoti Zaynab o'g'liga bir qarab qo'ydi-da, o'ng qo'li bilan ko'zlarini ro'moliga yashirdi, Valiquli onasi yig'layotganini sezdi. U bir chekkaga kelib o'tirdi-da, oyoqlarini uzatib, horigan kishi kabi devorga suyandi.

— Ona, nima qilib o'tiribsiz, nega yig'layapsiz?

Zaynab bosh ko'tarib o'g'liga qaradi. Ko'z yoshlari tonggi shabnam kabi kipriklarini namlagan edi.

— Yo'q, o'g'lim, yig'lamayapman. Nimasiga yig'layman?

Zaynab o'g'lining yuragini siqmaslik uchun yig'laganini bildirmaslikka zo'r berib urinayotganligi shundoqqina bilinib turardi. Ammo ovozidan uning rosa yig'laganini darhol sezib olish mumkin edi.

Fizza qaddini tiklab o'tirganicha akasiga to'liqib gapira ketdi:

— Akajon, onam yolg'on aytyapti. Onam halidan beri yig'lab o'tiribdi. Hammamiz ham yig'ladik. Hali...

Qizchaning yana nimadir aytadigan gapi bor edi, biroq onasi uning gapini kesdi:

— Bo'ldi, bo'ldi. Bas qil. Yolg'on gapirma. Yo'q, Valiquli, hech gap bo'lgani yo'q. Yolg'izlikdan biroz yuragim siqildi, yig'lagim keldi; hech narsa bo'lgani yo'q.

— Ona, sizning azangiz qiyomatgacha tugamaydiganga o'xshaydi. Nimasiga buncha yig'laysiz? Axir, otamning o'lganiga necha yillar bo'lgan bo'lsa...

— Aka, bir xotin kelib, Gulsumni senga sirayam bermayman, dedi, onam shunga yig'ladi.

Zaynabning jahli chiqib, Fizzaga baqirib berdi:

— Yo'q bo'l jahannamga, yaramas! Tur, yo'qol!

Fizza o'rnidan turib, tag'in o'tirib oldi.

Valiquli hayron bo'lib onasiga yuzlandi:

— Ona, sizda bir gap bor, lekin, bilmayman, nega aytmaysiz. Fizza nimani aytyapti? Bu yerga qanaqa ayol keldi?

— Sakina xola kelgan edi; uni Xudoyorbek jo'natibdi. Uning aytishicha, Xudoyorbek, avvalo qizimni Valiquliga bermayman, ikkinchidan, Karbaloyi Haydarning mendan ikki yuz manat qarzi bor edi, shikoyat-mikoyat qilib yurmasimdan darhol shuni bersinlar, debdi.

Ona va o'g'il o'n daqiqacha jim qoldilar. Fizza ham ilgarigi alpozda yonboshlab yotganicha goh onasiga, goh akasiga jovdirab boqar edi. Zebo bir burchakda o'z-o'zicha qo'shiq aytganicha nimadir o'ynab o'tirardi. Valiquliga Zeboning qo'shig'i juda yomon ta'sir qildi, chunki shundoq ham uning qosh-qovog'idan qor yog'moqda edi. Lekin jahlini oshkor etgani bahona izlardi. Valiquli g'azab bilan Zeboga baqirib qoldi:

— Sen ham qo'shiq aytgani vaqt topdingmi, itvachcha! Biz qanday ahvolda-yu, u qanday ahvolda. Bor, eshikka chiq, daf bo'l jahannamga!

Zebo akasining bu gaplarini eshitib, o'rnidan turdi, onasiga qarab, ikki qo'li bilan ko'zlarini ishqagancha yig'lab yubordi. Bu

yig‘isi bilan u onasidan yordam kutardi. Onasi uning yonini olishini yaxshi bilardi.

— Yig‘lama, qizalog‘im, yig‘lama, kel, o‘zimning yonimga kela qol. Otang o‘lib, chirog‘imiz o‘chdi. Kel, kel, qizalog‘im, kel, o‘tir yonimga.

Valiquli boshini quyi solganicha g‘ing demasdan qo‘lidagi bir cho‘pni o‘ynab o‘tirardi. Fizza ham singlisi Zebo kabi ko‘zini ikki qo‘llab ishqagancha yig‘lashga tushdi. Valiquli onasiga yuzlanib so‘radi:

— Xo‘sh, ona, siz Sakina xolaga nima deb javob berdingiz?

Onasi hech narsa demadi... Qizchalar yig‘idan to‘xtab, onalarining qoshiga kelishdi. Zebo onasining quchog‘iga kirib oldi. Fizza ham o‘ng tomondan onasini quchoqlagancha akasining yuziga tikilib turar edi. Zaynab hech narsa deb javob bermadi; ammo Valiquli ovozini balandlatib qayta so‘radi:

— Axir, men sizdan so‘rayapman. Nima, qulog‘ingiz tom bitib qolganmi, eshitmaysiz?

— Nima ham derdim?! Karbaloyi Haydarning undan qarzi bo‘lsa, qog‘ozini devonga eltib topshirsin, dedim.

Zaynab jim bo‘ldi, Valiquli esa tag‘in so‘rab qoldi:

— Bori shumi?

— Yana nima?

— Sizdan nima so‘rayotganimni bilmayapsizmi, ona?

— Bolam, sen so‘rading, men javob berdim. Yana mendan nima istaysan?

— Gulsum haqida nima javob qildingiz?

— Nima ham deb javob qilardim?! Men Gulsumning vakili emasman-ku! Otasi bermagandan so‘ng men nima deyman? Agar u qizini o‘g‘limga berishni xohlamasa, men ham uni olmayman, dedim. Boshqa nima ham derdim?

Valiqulining g‘azabdan vajohati o‘zgarib ketdi va onasiga:

— Xo‘sh, Gulsumga vakillik qila olmasligingizni bilar ekansiz, menga qanday vakillik qilasiz? — dedi.

Zaynab taajjub bilan javob berdi:

— Axir, sen mening o‘g‘limsan. Gulsum mening qizim emas-ku.

— Bu gapingiz to‘g‘ri, ona. Lekin onaning oldida o‘g‘ilning qadri qiz-kelinnikidan baland turadi. Siz nohaq bu gaplarni aytyapsiz.

Valiquli so‘z nishabini shunday oldiki, Zaynab javob topa olmay qoldi. Valiquli gapida davom etdi:

— Modomiki shunday ekan, men uydan chiqib ketaman. Ko‘rinib turibdiki, siz bilan yo‘limiz rost kelmayapti. Xudo xayringizni bersin. Mening ruxsatimni bering. Boshqa yerdan joy topay.

Zaynab yig‘laganicha Valiquliga yuzlandi:

— O‘g‘lim Valiquli, esingdami, otang o‘lganida sen menga, qo‘y, ona, yig‘lama, sening siqilishingga zinhor yo‘l qo‘ymayman, deb taskin bergan eding. Xo‘sh, nega endi o‘sha so‘zingning ustidan chiqmaysan?

— Axir, siz mening yuragimni siqmasangiz, men ham siznikini siqmayman-da.

— O‘g‘lim, dardingni olay o‘zim, nega sening yuragingni siqar ekanman? Xudoyorbek Gulsumni bermasa, men senga Gulsumdan ham yaxshi qiz topib beraman. Shuning nimasiga siqilasan?

— Xudo haqi, ona, men hech narsani bilmayman; siz uning qarzini bering, men hoziroq unga eltib beraman. Uning gapi to‘g‘ri. Otamning undan qarz olgani mening esimda.

— Esingda ko‘p narsa bor, bolam. Xudoyorbekka bergani qani mening ikki yuz manatim?

Valiquli jahlga minib, o‘ng qo‘lini paxsa qilganicha baqira ketdi:

— Yo‘q, bunaqasi ketmaydi, berishingiz kerak. Hoziroq berishingiz kerak!..

Valiquli shunday der ekan, javobini ham kutmasdan o‘rnidan turdi-da, zarang kaltagini olib, eshik tabaqalarini bir-biriga urganicha chiqdi-ketdi.

Fizza va Zebo basma-basiga yig‘lashga tushdilar; chunki ona yig‘laganda, farzandlar qarab turarmidi. Albatta, Zaynab ham yig‘lardi; faqat o‘g‘li bilan aytishib qolgani uchun emas, o‘tgan kunlari, ajoyib kunlari, baxtiyor kunlari uning yodiga tushib ketgan edi. Darvoqe, Karbaloyi Haydar biror marta ham unga bunaqangi o‘dag‘aylamagan edi. Agar urib-so‘kkan bo‘lsa, o‘rnida urib-so‘kkan edi.

Zaynab mushkul ahvolga tushib qoldi. Uy qop-qorong'i, bolalar och, pishirgan bir kosa ovqati ham qozonda sovib yotibdi. Mollar och, suvsiz qoldi. Valiquli ham hammasini tashlab chiqdi-ketdi. Kim bilsin, ovqatlanish uchun endi qachon qaytadi?!

Insofan aytganda, chindan ham Zaynab juda mushkul ahvolda qolgan edi; chunki bu ishning osonlik bilan tugamasligini bilar edi u. Xudoyor katta u yoqdan amr qilib tursa, Valiquli ham bu yoqdan janjal-nizoni boshlab yuborsa. Zaynab qaydan ham ikki yuz manatni topib beradi? Istasa, topib bera oladi, albatta. Garchi hozir yonida buncha puli bo'lmasa-da, lekin xohlasa bir amallab topib beradi. Go'ri nurga to'lsin Karbaloyi Haydarning, ozmi-ko'pmi yig'ib ketgani bor. Biroq gap shundaki, Zaynabning terisini shilsa ham, Xudoyorbekka sariq chaqa bergisi yo'q; chunki u juda yaxshi taniydi Xudoyorbekni. Yo'q, bermaydi. Bir tiyin ham bermasdan uning ko'zini o'ynatadi.

Zaynab qop-qorong'i xonada o'tirganicha ana shunday xayollarga g'arq bo'lgan edi. Qizlari ham yig'idan biroz tinib, onalarining tizzasiga yuz bosib yotardilar. Rosa ikki soatcha ona va qizlar shu ahvolda o'tirishdi. Nihoyat, eshik ochildi. Zaynab Valiquli keldi deb o'ylab, biroz ko'ngli yorishdi.

Oh, onaizor, naqadar ajoyib zotsan!

Qizlar ham akalari kelganini tusmollab, har ikkalasi ham boshini ko'tarib eshik tomon boqishdi. Ammo uyga kirgan kishining papog'i Valiqulining papog'idan katta ko'rinardi. Zaynab kirib kelgan bu kishi o'g'li emasligini sezdi. Shuning uchun biroz xavotirga tushib so'radi:

— Hoy, kim u?

Uyga kirib kelgan kishi glavaning yasovuli Qosimali edi. Qosimali o'zini tanitib o'tirmay, hayron bo'lib so'radi:

— Bu qanaqasi? Uy nega bundoq qop-qorong'i? Gugurtingiz yo'q, shekilli?

Zaynab yana gap qotdi:

— Hoy inson, uyning qorong'iligi bilan sening nima ishing bor? Gaping bo'lsa aytgin-da, darrov jo'nab qol!

Qosimali bunday javob qildi:

— Xola, glava Xudoyorbekning shikoyatiga ko‘ra o‘g‘ling Valiqulini qamab qo‘ydi. Meni senga xabar bergani jo‘natdi. Siz Xudoyorbekni rozi qilmaguningizcha, o‘g‘lingizni qamoqdan chiqarmas ekan. Bor gap shu.

Qosim gapini aytib tugatganicha yo‘q ediki, Fizza bilan Zebo yig‘lab yuborishdi. Yasovul aytar so‘zini aytib, birpas turdi-da, so‘ng chiqib ketdi.

Bas, endi Zaynab boshini qaysi devorga ursin? Bas, endi Zaynab boshini qaysi toshlarga ursin? Sho‘rlik ayol butun kechani yig‘i bilan o‘tkazdi.

Ertalab Sakina xola Xudoyor katta shaharga, nacharnikka qarzidan shikoyat qilgani ketdi, degan xabarni olib keldi. Bu voqea huv o‘sha kuni, Xudoyorbek tong saharlab Muhammadhasan amakining eshagini olib, shaharga minib ketgan kuni sodir bo‘ldi.

V

Hozir, shubha yo‘qki, tashqaridan kuzatib turgan kishi Xudoyorbekni mazammat qiladi. Ammo buning aslo, mutlaqo mazammat qiladigan joyi yo‘q. Agar insofi bilan aytsak, haqqa xiyonat qilmasak, Xudoyorbekni gunohkor qilmasligimiz kerak.

To‘g‘ri, bu gap-so‘zlarning hammasiga Xudoyorbek sababchi edi; lekin Xudoyorbekning maqsadi el boshiga g‘avg‘o solish emas edi. Xudoyorbekning faqat birgina maqsadi bor edi. Uning maqsadi Zaynabni olish edi; yo‘qsa, bu odam na Zebo bilan Fizzaning yig‘lashiga rozi bo‘lar, na Zaynabning yuragi siqilishini istardi. Xudoyorbek Muhammadhasan amaki Karbalo ziyoratiga bora olmasin deb uning eshagini qasddan sotgani yo‘q. Yo‘g‘-e, bundan Xudo saqlasin. Xudoyorbekning Muhammadhasan amakiga hech qanday dushmanligi yo‘q-ku! Yo‘q-yo‘q, zinhor, bundoq emas! Xudoyorbek eshakni shuning uchun sotdiki, unga besh-olti manat pul zurur bo‘lib qoldi. Pul ham shuning uchun zarur bo‘lib qoldiki, u bitta kallaqand va bir girvonka choy olishi kerak edi. Qand va choyni ham shuning uchun olishi kerak ediki, uni qoziga bermoqchi edi.

Bas, ana shularning hammasidan ma'lum bo'ladiki, Xudoyorbekning faqat bitta maqsadi bor. Uning maqsadi faqat uylanish, ya'ni Zaynabni olish. Shunday ekan, Xudoyorbekning ushbu xatti-harakatlarini zinhor yomon deb bo'lmaydi; chunki bu yerda hech bir ixtilofli amal yo'q. Shariat uylanishga hech qachon mone bo'lmagan.

Xudoyorbekka ham uylanish juda vojibdir. Avvalo, vojibligi shundaki, uylanish savob amallardan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, vojibligi shundaki, Xudoyorbekning xotini shu qadar chirkinki, birov uning qo'lidan suv olib ichishga ham rag'bat qilmaydi. Xudoyorbekning xotini Zaynabning qo'liga suv quyishga ham arzimaydi. Uchinchidan, Xudoyorbekka uylanish va aynan Zaynabni olish shuning uchun vojibki, Xudoyorbek juda kambag'al, qashshoqning qashshog'i. Agar Zaynabni olsa, yetim-yesirning molini yoppatalash qiladi. Shundoq ekan, bunday foydali savdodan qaysi ahmoq chekinadi?

Ana shunaqa.

Hali siz Xudoyorbekni yaxshi tanimaysiz. Xudoyorbek juda aqlli kishi edi.

Xudoyorbek Zaynabni olish uchun o'lib-tirilar, bu fikrga kelgandan beri bir lahza ham oromi yo'q edi. Bu borada ishlatmagan hiylasi qolmadi. Ammo hozirga qadar qancha tadbir qo'llab, qancha hiyla ishlatmasin, hech bir natijaga erisha olmagan edi. Oxirgi hiylasi shu bo'ldiki, Valiqulini yashirib qo'yib, Zaynabga glava Valiqulini qamab qo'ydi, degan xabar jo'natdi; balki sho'rlik ayolning o'z farzandiga rahmi kelib, rozilik javobini berib yuborar.

Valiquli onasi bilan aytishib qolgan o'sha oqshomda uydan chiqib, to'g'ri "qaynatasi" Xudoyorbeknikiga yo'l oldi.

Valiquli ichkari kirib salom berdi va bir chekkada uyning devoriga suyanganicha turaverdi. Valiquli shuning uchun o'tirmadiki, u hamisha bu uyga kirib kelganida darhol qaynata yoki qaynanasi unga o'tirgani joy ko'rsatib, xush kelibsan, der edilar, ammo bu gal bunaqa manzirat bo'lmadi.

Xudoyorbek namoz o'qimoqda edi. Xudoyorbekning ikki o'g'li — olti yasharli Haydarquli va to'qqiz yasharli Murodquli tap-taqir yerda chalqancha yotganlaricha ikki qo'llarini ustma-ust qo'yib,

oyoqlarini yuqoriga ko'tarib olishgan, biri ikkinchisining oyog'iga tepar edi. Gulsum, ya'ni Valiqulining nishonlisi Valiqulini ko'rgan zahoti choyshabga o'ranib, qop-qorong'i bir burchakda paxta bo'xchasi kabi g'ujanak bo'lib oldi. Xudoyorbekning xotini bolalarning so'l tomonida o'ng tizzasiga yuz bosganicha o'tirar edi. Valiquli ichkari kirib kelganida ham ayol shu alpozda bosh ko'tarmay o'tiraverdi. Shubhasiz, bu — iltifotsizlikning ilk nishonasi edi. Faqat Murodquli boshini ko'tarib, qiqir-qiqir kulganicha:

"Voy, amakim keldi", dedi.

Garchand Xudoyorbek namoz o'qiyotganga o'xshasa ham, unga sinchiklab tikilgan har qanday kimsa Xudoyorbek hozir fikr daryosiga, nainki fikr, balki g'am daryosiga g'arq bo'lib o'tirganini darhol payqar edi. U namozini tugatib, Valiquliga yuzlandi, lekin yuzida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmadi.

— Valiquli, bolam, nega tik oyoqda turibsan? Kelib o'tirsang-chi.

Valiquli bir chekkaga cho'nqayib o'tirib, chorig'larini yechishga tutindi. Xudoyorbek joynamoz ustidan tasbehini olib chevira boshladi va bolalariga qarab, odobsizlik qilmanglar, ya'ni, turib o'tiringlar, deb tanbeh berdi. Biroq bolalarga Xudoyorbekning tanbehi zarracha kor qilmadi va Xudoyorbekning tasbeh chevirishi ham bekorga emas edi. Buning o'zi ham bir ish edi, xususan, mo'min-musulmonlar uchun. Xudoyorbek ham, shak-shubhasiz, mo'min-musulmon edi.

Xudoyorbek ushbu daqiqada tizzasining ustiga o'ng qo'lining tirsagini so'l qo'lining kaftiga tirab, o'ng qo'lida tasbeh ushlaganicha boshini ko'kka qadab o'tirar, go'yo og'ziga suv olib, g'arg'ara qilayotganga, ko'zini shiftga qadab, vassajuftlarni sanayotganga o'xshardi. Ammo, tabiiyki, vassajuftlarni sanamas, "qulhuvalloh" deb o'tirardi.

Xudoyorbek tasbehning har bir muhrasiga bir bora "qulhuvalloh" deb zikr aytardi. Besh daqiqacha tasbeh chevirib, past ovozda tezgina ketma-ket "qulhuvalloh, qulhuvalloh, qulhuvalloh" dedi-da, nihoyat, tasbehni yerga qo'yib, Valiquliga yuzlandi:

— Valiquli, bugun biroz kayfiyating yo'qqa o'xshaydi?

Valiquli hech narsa demadi. Xudoyorbek gapida davom etdi:

— Na iloj, yuraging siqilmasin. Dunyoning ishlari shunaqa, goh undoq bo'ladi, goh bundoq. Nega kayfiyating yo'qligini men bilaman. Lekin nima ham qilardik, onangning padariga la'nat! U bizning hammamizni xafa qildi. Evoh, Valiquli! Olloh Karbaloyi Haydarni o'z rahmatiga olsin! Valiquli, otangning qadrini mana endi bilasan. Ona otaning o'rnini bosa oladi deb o'ylaysanmi? Yo'q, hech qachon. Onang bir ayol, otang esa haqiqiy erkak edi. Ayolning piriga la'nat! Ayolning din-u imoni, mazhabi bo'lmaydi. Ayol mazhab nimaligini qayerdan bilsin? Jiyan, mening bu jon kuydirishdan maqsadim shuki, seni va yetim singillaringni bir amallab onangdan qutqarib olmoqchiman. Bilasanmi, Valiquli, men chindan ham vijdonini yo'qotgan nomard odam emasman. Karbaloyi Haydar bilan men og'a-ini edik. Mening gardanimda uning ko'p haqi qolgan... Juda ko'p. Zero, sen o'zing ham bu gap behuda emasligini bilsang kerak. Nega endi men bu yaxshiliklarni unutishim kerak? Ollohning mendan g'azabi keladi-ku, axir. Yo'q-yo'q, Olloh saqlasin, Olloh asrasin! Men etagimni bir chetga tortib, nima bo'lsa bo'lsin deb turadigan nomardlar toifasidan emasman. Yo'q, bunaqasi ketmaydi. Valiquli, jiyan, mana, o'zing ham ko'rib turibsanki, sizning mendan boshqa bir ulug'ingiz, jonkuyaringiz yo'q. Shunday ekan, onangning Xoliqberdiga tegib ketaverishiga men qanday qilib chekkadan qarab tura olaman, axir o'shanday ajoyib otangning, rahmatli otangning, ikki ko'zimning nuri bo'lgan otangning...

Bu so'zlarni Xudoyorbek shunday ohangda aytdiki, go'yo o'rtanib ketayotganga o'xshardi. So'l qo'li bilan yaktagining barini ko'tarib, go'yo ko'z yoshlarini artgandek ham bo'ldi. Ammo jinday hushyor odam bo'lganida edi, Xudoyorbekning ko'ziga bir tomchi ham yosh kelmaganini darhol payqagan bo'lur edi.

— Onang u rahmatlining mol-davlatini eltib firibgarlar bilan yeb tugatsin, xo'sh, yetimlarning holi ne kechadi? Sening ahvoling nima bo'ladi? Ey Xudoyim, o'zing dodimizga yet! Rahming kelsin bizga!

Valiquli qo'llarini cho'ntagiga suqqanicha Xudoyorbekning gaplarini tinglab o'tirardi. Xudoyorbek so'zini tugatib, chubug'ini

to‘ldirish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Valiquli bir yo‘talib olib gap boshladi:

— Xudo haqi, amaki, Yaratganga qasamki, mening onam bilan urishmagan kunim yo‘q. Hozir ham katta bir janjaldan chiqib kelyapman.

Xudoyorbek chubug‘iga o‘t tutashtirib, tutunni puflaganicha dedi:

— Yo‘q, Valiquli, endi men sening gapingga ishonmayman. Hamon sening onang bilan tiling birligidan gumonim bor. Agar sen yigit bo‘lsang, zinhor uni ona demaysan. Sen yigit bo‘lsang, na uning yoniga qaytasan, na u bilan bir uyda yashaysan. Nima, Xudoga shukur, sening yotadigan joying yo‘qmi? Mana, ushbu uy ham sening o‘z uying. Turganingcha tur, ye, ich; o‘la-o‘lguncha mening uyimda qol... Yo‘q, gaplaringning hammasi bekor. Valiquli, men gapni nishabidan darhol payqayman. Sen istasang edi, onang allaqachon rozi bo‘lgan bo‘lardi. To‘g‘rimi?

— Amakijon, axir men tag‘in nima qilay? Siz nima desangiz, hammasiga roziman. Bir o‘zimning qo‘limdan nima ham kelardi?

— Demak, mening aytganimdan chiqmaysan-a? Juda yaxshi, shu yerda qol, onangning qoshiga borma.

— Bosh ustiga. Ketma desangiz, ketmayman. Nima ham derdim?

— Albatta ketmagin-da! Nega ketar ekansan? U-ku seni o‘g‘il o‘rnida ko‘rmas ekan, sen nega endi uni ona deb, yonida turishing kerak? Ketma, shu yerda qol. Men endi u uyga qadam bosmayman, deb xabar jo‘nat. Tamom-vassalom.

— Bosh ustiga, amaki. Nima ham derdim? Men hozir orani ochiq qilib keldim. Uyimga qaytadigan bo‘lsam, bu yerga kelarmidim?

Xudoyorbek Murodquliga qarab dedi:

— Murodquli, hozir darhol Mashadi Ahmad tog‘angga borib ayt, tezda Qosimalini bu yerga jo‘natsin, zarur ish chiqib qoldi.

Murodquli o‘rnidan turib borib, tashqariga chiqish uchun eshikni ochdi, lekin eshikni qars etib qayta yopib o‘z joyiga qaytdi va otasiga qarab:

— Dada, Xudo haqi, men bora olmayman. Tashqari shunday qop-qorong'iki, odam odamni ko'rmaydi, — dedi.

Bu so'zlarni eshitgan Xudoyorbek chubug'ini otib yubordi va sakrab turganicha Murodqulining yoniga borib, uning ikki qulog'idan ushlab olib, o'zining bo'yi barobar yuqori ko'tardi. Shu payt g'alati bir voqea yuz berdi. Xudoyorbekning xotini erining ustiga otilib, ikki qo'li bilan uning soqolini yula boshladi. Murodquli otasining qo'lidan qutulib chiqib, opasi Gulsum o'tirgan burchakka qochib bordi-da, uning ortiga yashirindi. Er-u xotin yumdalasha ketdilar. Murodquli va Haydarqulining qichqirig'i, onalarining chinqirig'i, Xudoyorbekning bo'kirishidan uyda shunaqangi qiyomat qo'pdiki, dunyo qulab tushgudek bo'ldi.

Gulsum jonsiz bir ashyo kabi o'z yerida mixlanib o'tirar edi. Valiquli ham bundoq o'rnidan turib nima qilishini, kimga yordam berishini bilmas edi.

Xudoyorbek xotinining sochlarini o'ng bilagiga o'rab olganicha uyning goh u tomoniga goh bu tomoniga sudrar edi. Shu payt Qosimalini Xudoning o'zi yetkazdi. Qosimali yugurib borib ayolni Xudoyorbekning changalidan xalos etdi va unga, ya'ni ayolga ta'na qila boshladi:

— O'zingni-ku chumchuqcha joning bor, bilib ish qil-da, opa. Axir eringning ishlariga nega aralashasan, boshingga shuncha balo orttirib? Mana endi nasibangni olding, shu kunga qolding!..

Ayol boshini sarak-sarak qilganicha tashqariga qochib chiqdi. Xudoyorbek xotinining ortidan bo'ralatib so'kkanicha o'z o'rniga kelib o'tirdi va Qosimaliga qarab:

— Qosimali o'g'lim, bu janjal sening ustingda bo'ldi. Men Murodquliga seni chaqirib kelishni buyurgan edim, u esa bormadi. Men turib uni urgan edim, shu ma'raka boshlandi, — dedi.

Qosimali Xudoyorbekning shundoq yonginasiga kelib o'tirdi. Bir qo'lida zarang kaltak, ikkinchi qo'lida dumaloqlab olgan noni, Xudoyorbekka dedi:

— Nega bunday qildingiz, amaki, avvalo, mening bu yerga kelishimni o'zingiz ham bilar edingiz. Kunduzi aytmaganmidim sizga, kechqurun boraman, suhbatlashamiz deb? Ikkinchidan, Murodqulining egasi sizmisiz yoki onasimi? Bolani otasi ura-

di, so'kadi. Ota-bolaning o'rtasiga tushishga onaning nima haqqi bor? Yo'q, xotiningiz yaxshi ish qilmabdi. Men uning dardi nima ekanini bilaman-ku, axir (bu so'zni aytar ekan, u Valiquliga bir qarab qo'ydi). Men bilaman uning dardi nima ekanini.

Xudoyorbek yuzi bir necha joydan qonaganini endi bildi. Xotinining tirnoqlari juda o'tkir ekan. Dastro'moli bilan yuzini arta-arta:

— Qosimali, ayni paytida kelding, — dedi. — Hozir Valiqulilarnikiga borib, onasiga, Valiqulini glava qamab qo'ydi, deysan. Balki u nega deb so'rar, balki so'ramas, xullas, yo'lini topib tushuntir, glava Xudoyorbekning shikoyatiga ko'ra Valiqulini qamab qo'ydi, Xudoyorbek rozi bo'lmaguncha uni qo'yib yubormayman deyapti, deb ayt.

Qosimali darhol eshik tomon yurar ekan, yo'l-yo'lakay dedi:

— Bosh ustiga, albatta shundoq. Juda yaxshi, hoziroq borib aytaman.

Qosimali chiqib ketdi, Xudoyorbek chubug'ini qo'liga olib, Valiquliga — u hamon oyoq ustida turardi — o'tirgani izn berdi. Valiquli o'tirdi. Xudoyorbek chubuqqa o't tutashtirib, chekishga tushdi. Eshik sekin ochildi va sho'rlik ayol jimgina kirib kelib, bir chekkaga, qizining yoniga borib o'tirdi. Xudoyorbek unga qarab:

— Qalay bo'ldi, azizim? Yana mening jig'imga tegasanmi? Tag'in haddingdan oshasanmi? — dedi.

Xotini indamadi. Xudoyorbek o'ng qo'lini ko'kka o'qtalib dedi:

— Olloh nomiga qasam ichamanki, sen yana mening ishlarimga aralashadigan bo'lsang, mening gapimga gap qaytarsang, joningdan umidingni uz! Xudo haqi, qovirg'alaringni sindirib tashlayman. Imonsizning qizi, mening uylanishimning senga nima daxli bor?

Ayol miq etmay o'tiraverdi. Xudoyorbek tag'in davom etdi:

— Otangning uyidan mol-davlat olib kelganmiding, mening ustimga tashlanasan? Nima deysan, nima gaping bor? Men agar uylanadigan bo'lsam, sababini o'zim bilaman. Mening fikrim boshqa ekanini hamma biladi. Nima, men ko'nglim xotin tusab qolganligi uchun uylanyapmanmi? Yo'q, aslo! Xo'sh, nega shuncha yildan beri shu fikrda yuribman? Agar uylanmoqchi bo'lsam, hozirgacha

shartta uylanardim-qo'yardim-da! Sendan qo'rqarmidim yo sening qarindosh-urug'laringdan, qirchang'i? Uff, o'z dardim o'zimga yetmaganday, sen ham dardimga dard qo'shasan, mal'undan to'ragan mal'un!

Ayol shunga qadar bir so'z demay, jimgina mute bo'lib quloq solib turar edi. Lekin, ma'lum bo'ldiki, Xudoyorbekning "mal'undan to'ragan" degan gapi unga alam qilib ketdi, o'ng qo'lini oldinga cho'zib barmoqlarining uchini yerga qadab javob qildi:

— Mal'undan to'ragan sen o'zingsan! Itdan to'ragan sen o'zingsan. Itvachcha sening o'zingsan! Qo'shmachidan bo'lgan sen o'zingsan! Nega menga baqirasan?! Og'zingga it yozilib ketibdi. Dahaningni poklab ol! Zo'ring yapaloqqa yetdimi? Uylansang uylanaver, undan nariga! Ammo mening javobimni ber. Shu yoshga yetganimda kundosh dardini tortmayman! Yo'q, mening javobimni ber! Endi senikida bir kun ham turmayman!

— Bosh ustiga, ko'z ustiga, nima ham derdim. Ma'qul gap. Ertagayoq javobingni beraman. Hech yuragingni siqma. Tong otsin, sening javobingni beraman. Bosh ustiga, bosh ustiga.

Xudoyorbek gapini aytib bo'ldi, ammo xotini g'ing deyolmay qoldi, na ha dedi, na yo'q. Ayolning bu jimligidan bilsa bo'lardiki, u aytgan gapiga pushaymon edi. Haqiqatan ham ayol Xudoyorbekka, javobimni ber, deb qo'yganidan qattiq pushaymon bo'ldi; chunki hozirga qadar, ya'ni Xudoyorbek uylanish fikriga tushgandan beri xotini unga, javobimni ber, deb balki yuz bora aytgandir. Lekin hozirgacha Xudoyorbek xotiniga bunaqangi javob qilmagan edi. Hamisha ajralish kalimasi o'rtaga tushganda, Xudoyorbek xotinini nima qilsa qilardi — yo urar, yo so'kar edi — biroq hech qachon, javobingni beraman, demagan edi. Nuqul, "O'lsang ham ajramayman sendan. Javobingni bersam, bolalarning holi nima kechadi?" der edi. Bas, endi Xudoyorbek bunaqangi javob qilib turgan ekan, ayolning yuragiga: "Ey g'ofil banda, balki chindan ham ertaga bu odam mening javobimni berib yuborar, unda boshimga ne kunlar keladi", degan g'ulg'ula tushdi.

Xudoyorbekning xotini erlariga jur'at bilan, "Mening javobimni ber", deb ayta oladigan xushbaxt ayollardan emas edi. Bu gapni yo otasidan umidi bo'lgan, yo onasiga orqa qilgan, yo og'a-inilarini

nazarda tutgan, yoki o'z davlati, boyligiga ishongan ayolgina ayta oladi. Xudoyorbekning xotini bu ne'matlarning barchasidan benasib edi.

Bu xotinning oti Sharaf edi. Sharaf o'rta bo'yli, qoramag'iz, ozg'in ayol bo'lib, chiroyli degulik joyi yo'q edi. Yoshi qirqlardan biroz oshgan, ehtimol, Xudoyorbekdan katta ham bo'lsa kerak. Sharaf Xudoyorbekka tekkan paytlarida otasining Xudoyorbekning otasidan kamlik joyi yo'q edi. Lekin taqdiri shunaqa bo'ldiki, otasi o'ldi, so'ngra onasi o'ldi, ikki akasi o'ldi, ayolning yolg'iz umidi faqat Xudoyorbek bo'lib qoldi. Xudoyorbek ham keyinchalik katta degan mansabga mindi, hurmati ortdi va endilikda u og'a, xotini qorabosh bo'lib qoldi. Shunga qaramasdan, u Xudoyorbekning gapiga indamay ketadigan yoki erining kaltagiga g'ing demay chidaydigan ojiza ayollardan emas edi. Xudoyorbek bir kaltak urganda, Sharaf ham bir kaltak urar, Xudoyorbek ikki musht tushirganda, ayol ham bir musht bilan javob qaytarardi. Biroq, shunga qaramay, baribir Xudoyorbekdan qo'rqar, chunki u har holda erkak kishi edi. Erkak kishi esa, ma'lumki, xotindan kuchli bo'ladi. Va buning ustiga, xotinining javobini berish Xudoyorbek uchun mushkul ish emas edi!

Xudoyorbek hozirga qadar xotinining chirkinligiga, urushqoqligiga shuning uchun ham chidab kelmoqda ediki, kambag'alligi tufayli xarajat qilib boshqa xotin olishga kuchi yetmasdi. Sharaf buni juda yaxshi bilardi. Shuning uchun ham avvallari eri uylanishdan gap ochganda Sharaf zinhor bezovta bo'lib, yig'i-sig'i qilib o'tirmasdi; chunki erining saqich olib chaynagani ham sariq chaqasi yo'qligini u yaxshi bilardi. Lekin endi vaziyat o'zgargan, Xudoyorbek Zaynabga uylanish qasdiga tushgan edi. Agar Zaynab Xudoyorbekka rozilik bersa, unda Xudoyorbekka sep pulining keragi bo'lmasdi. Hozir Zaynabning to'rt-besh sidra yap-yangi libosi bo'xchada tayyor, yana buning ustiga o'ziga yarasha puli, mol-holi bor edi. Sharaf shunisidan cho'chirdiki, agar Zaynab istasa unga, ya'ni Sharafga juda zo'r raqib bo'la olar edi. Shubha yo'qki, Xudoyorbek Zaynabga uylangudek bo'lsa, Zaynab malikaga aylanardi, Sharaf esa uning cho'risiga. Bu Sharaf uchun o'limdan ham battar edi.

Ana shu barcha sabablarga ko'ra ham Xudoyorbek xotiniga, ertaga sening javobingni beraman, dedi. Sharaf ajralishdan gap ochganiga qattiq pushaymon bo'ldi. Shuning uchun ham eriga qarshi botinib biror gap ayta olmadi. Xudoyorbek o'rnidan turdi. Bir kerishib oldi, esnadi va Gulsumga joy to'shashni buyurdi, so'ng Valiqulining yoniga kelib, past ovozda unga nasihat qila boshladi. Valiquli darhol o'rnidan sapchib turdi. Xudoyorbek og'zini uning qulog'iga tutib dedi:

— Quloq sol, Valiquli. Es-hushingni yig'ib ol, men nima desam, shuni qil. Agar meni sendan rozi bo'lsin desang, seni qarindoshlikdan mahrum qilishimni istamasang, men senga nimaiki desam, hammasini birma-bir yodda saqla va hammasiga amal qil. Hozir turib Qosimalinikiga borasan. Bu kecha o'sha yerda yotasan. Ammo hech bir kimsa sening u yerda qolganingni bilmasin. Qosimaliga mening o'zim ham ertaga shipshitib qo'yaman, kimki seni surishtirsa, glava qamatib qo'ydi, desin. Sen hech qayoqqa chiqmay o'sha yerda turib turasan, qachon kerak bo'lib qolsang, o'zim seni chaqirtiraman, gaplashib olamiz. Balki bir amallab anavi yo'ldan ozganni yo'lga solib olarmiz. Qani, endi bora qol.

Valiquli choriqlarni kiyish uchun cho'nqayib o'tirdi. Gulsum ham bir burchakka eski to'shak to'shab, bir-ikkita juldur ko'rpa soldi va eski yostiqlarni keltirib qo'yib, bir chekkaga chekindi. Valiquli choriqlarini kiyib chiqib ketdi. Xudoyorbek yechinib, chiroq yorug'ida bitlarini tera boshladi. Bir-ikkkita bitni tirnoqlari orasida ezib, to'shakka cho'zildi-da, ko'rpani ustiga tortdi. Boshqalar ham chekka-chekkaga uzala tushishdi.

Na Xudoyorbekning uyqusi kelardi, na Sharafning. Xudoyorbek bir soatlarcha ko'z yummay ertangi kunning tadbirini chamalab olib, so'ng uyquga ketdi. Uning o'ylagan tadbiri quyidagicha edi.

Xudoyorbek Zaynabning fe'lini yaxshi bilardi. Bu alpozda ish bitishi gumon edi. U yoqqa ag'darildi, bu yoqqa ag'darildi va oxiri bir qarorga kelib to'xtadi. Xudoyorbekning yodiga bir voqea tushib qoldi. Bu voqea shu yaqin kunlarda sodir bo'lgan edi.

Gap shunda ediki, bundan bir-ikki oy oldin bir kimsa qozining yoniga kelib deydi:

— Qozi og‘a, agar falon ayolni mega nikohlab qo‘ysangiz, sizga ikkita kallaqand keltirib beraman.

Qozi biroz fikrga cho‘mib:

— Axir u ayol birovning nikohida-ku. Qanday qilib birovning nikohidagi ayolni boshqa birovga nikohlab bo‘ladi?!

Haligi kimsa qoziga qarab:

— Qozi og‘a, buni mening o‘zim ham bilaman, — deydi. — Xo‘sh, men sizga nega ikkita kallaqand beraman? Shuning uchunki, nikohdagi ayolni menga olib berishingiz kerak! Yo‘qsa, beva ayolning nikohini mening onaginam ham o‘qiy oladi. Shunisi borki, qozi og‘a, u ayolning eri Karbalo ziyoratiga ketgan. Kim bilsin, qaytib keladimi yoki yo‘qmi. Kelganida ham, yana bir hiyla topish qiyin ish emas.

Bu voqea Xudoyorbekning yodiga tushgan zahoti o‘z-o‘ziga: “Juda yaxshi, u ayol nikohda bo‘la turib, qozi ikkita kallaqand evaziga anavi kimsaning ishini to‘g‘rilab berdi. Zaynab esa, Xudoga shukur, beva ayol. Nikohi ham yo‘q. Shundoq ekan, nega endi men qoziga borib arzimni aytmayman? Ha, boshqacha yo‘l bilan bu ishni bitkazib bo‘lmaydi.

Qozi samimiy, yaxshi odamga o‘xshaydi. Olloh uning otasini rahmat qilsin. Dardimga o‘sha davo topa oladi. Bas, ertagayoq uning oldiga borganim bo‘lsin”, deb o‘yladi.

Ana shunday fikrga kelgan Xudoyor katta yana bir masalada to‘xtalib qolib, o‘yga cho‘mdi. Uning oldida bir g‘ov bor edi. Hozir Xudoyorbekning cho‘ntagida yetti abbosi puli bor edi. Uni ham glavaga soliq sifatida eltib bersin deb hamqishloqlar yig‘ib bergan edilar. Xudoyorbek bu yetti abbosini hozircha shaharga eltib xarjlasa ham unchalik zarari yo‘q; glavaga keyinchalik to‘g‘rilab berishi mumkin edi. Glava nima ham derdi? U o‘zining o‘gay otasi emasmi, axir!

Juda yaxshi, shundoq ham bo‘la qolsin. Ammo yetti abbosi bilan ish bitmaydi. Xullas, u ancha o‘ylagach, buning ham chorasini topdiki, bu bizga yuqoridan ma’lum.

Xudoyorbek saharlab o‘rnidan turdi, bo‘xchadagi liboslarini olib kiyib, yangi bo‘rkini boshiga qo‘ndirib, eshikka yo‘l oldi.

Xudoyorbekning bunaqangi yasanib ketishidan xotin-bolalari uning shaharga otlanganini anglashdi. Gulsum Xudoyorbekning yoniga kelib so'radi:

— Dada, qayoqqa ketyapsiz?

Xudoyorbek qovog'ini uyganicha javob qildi:

— Shaharga, qozining yoniga ketyapman. Onangning javobini bermoqchiman.

Xudoyorbek tashqari chiqqan zahoti ona va bolalar shunaqangi uvvos solib yig'lashga tushdilarki, go'yo Xudoyorbekka motam tutmoqda edilar.

Narigi mahallada benavo Zaynab va bolalarining motami, bu mahallada sho'rlik Sharaf va bolalarining motami. Xudoyorbek Muhammadhasan amakining eshagini olib shaharga minib ketish uchun uning hovlisi tomon yurdi. Bu mahallada ham faqir Muhammadhasan amakining motami boshlanib ketdi.

VI

Muhammadhasan amaki Xudoyorbekni kuzatib qo'yib, uyiga kirdi. Muhammadhasan amakining uyi kattakon qishlik bir uy. Chunki qishda bu uyda tandir yonadi, shuning uchun ham uning to'sinlari is bosib, qorayib ketgan. Devorlarning ham yuqori qismi qoraygan. Uy ancha eski uyga o'xshaydi, chunki to'sinlarning ko'pchiligi mayishib qolgan. Shiftning o'rtasidan to'sinlarni tutib turish uchun ko'ndalangiga bir xari berilgan bo'lib, bu xarini ikki ustun ko'tarib turadi. Har ikki ustunning ostiga ularni mahkam tutib turish uchun kattakon tosh qo'yilgan. Uyning bir tomonidagi tandirning usti to'silgan bo'lib, bir tomonidagi kursi ustiga besh-oltita non turardi.

Nimqorong'i burchaklarda tokchaga o'xshash teshiklar o'yilgan va ularning ichiga sopol idish-tovoq, bir-ikkita mis ko'za terilgan. Kursining ostiga bir qozon to'ntarib qo'yilgan, qipchada qatiq, yonida qop-qora bir chovgum. Uyning bir tomoniga palos to'shalgan bo'lib, ustiga bir-ikki rax ko'rpa-to'shak taxlangan. Bir-ikki tokchada bo'xchalar, eski papoq, bir nechta quti bor. Uyning bor-yo'q jihozi shu bo'lib, Muhammadhasan amakining

uyiga kirib kelgan kishi uning kambag'al bir kimsa ekanligini darhol payqab oladi.

Muhammadhasan amaki uyga kirgan zahoti o'g'li Ahmadning yuztuban holda yig'lay-yig'lay goh u yonga, goh bu yonga dumalab yotganini ko'rdi. Sho'rlik o'g'lini go'yo zaharli ilon chaqib olgandek edi. U dod solib yig'lagancha goh o'zini mushtlar, goh boshini yerlarga urar edi.

Biroz narida qirq besh-ellik yoshlardagi bir ayol kursiga suyanganicha iyagini ikki kaftiga tirab cho'nqayib o'tirar, qoshqovog'idan qor yog'ib, Ahmadning yig'lashini tomosha qilar edi. Uning boshida uniqib ketgan ro'mol, eski oq chit kamzul, eskirib ketgan bo'z tizlik[1] — ayolning bor-yo'q libosi shundan iborat edi. Agarda ayolning oyoqlariḍa hatto boshmog'i ham yo'qligini nazarda tutsak, bu ayol kambag'al bir kimsaning xotini ekanligi ma'lum bo'ladi.

Ha, bu ayol Muhammadhasan amakining xotini Izzat edi.

Ichkari kirib kelgan Muhammadhasan amaki o'g'lini bu ahvolda ko'rib, uning yoniga bordi. Biroz egilib, uni turg'azib ovutish uchun qo'lidan tortdi. Bola battar avj oldi. Muhammadhasan amaki shirin so'zlar bilan o'g'liga harchand taskin berishga urinmasin, o'g'li zinhor ovunadiganga o'xshamasdi.

— Tur, o'g'lim, tur. Yig'lama, axir, nega yig'laysan, jinnivoy? Kechqurun katta eshakni yana qaytarib olib keladi-ku! Eshakni yeb qo'ymaydi-ku, axir! Tur, o'g'lim, tur. Yig'lama.

Muhammadhasan amaki o'g'liga yolvorgan sari u battar avj olardi. Qo'qqisdan Ahmad indamay-netmay eshik tomon yugurib qoldi. Muhammadhasan amaki o'g'lining qayoqqa ketayotganini bilish uchun ortidan chaqirishga tushdi. Bola javob bermadi. Muhammadhasan amaki xotiniga yuzlanib:

— Hoy xotin, bu pastkash qaydan ham shaytonday paydo bo'lib, eshagimizni oldi-yu boshimizni shuncha g'avg'oga qo'ydi?! Shunaqayam dod-voy bo'ladimi? Na bo'lsaki, bu Ahmad ovunsa?! Yo tavba, shunaqasi ham bo'ladimi? — dedi.

Xotini javob qildi:

[1] **Tizlik** — yubka *(tarj.)*.

— Bo‘pti-bo‘pti. Bo‘lgani bo‘ldi. Buni nega mendan so‘raysiz, men nima qilay! Eshakni berishdan avval mendan so‘rasangiz bo‘lmasmidi? Berishga berib qo‘yib, endi menga maslahat solasizmi?

— Hoy xotin, men axir nima qilay? Yuz yuzdan uyaladi. Kelib so‘rab tursa, bermayman deyishga yuzim qandoq chidaydi? Qolaversa, bu bir o‘lib-yitadigan narsa emas-ku. Nari borsa, bir eshakda! Minib boradi, yana o‘zimizga qaytarib olib keladi. Eshakni pishirib yemaydi-ku, axir!

Bu gaplarni aytar ekan, xotinining oldida Muhammadhasan amakining qo‘llari ikki yonga shalvirab tushgan, go‘yo xotiniga emas, devonbegiga javob berayotgandek edi. “Devonbegi” qo‘llarini paxsa qilganicha bor ovozda javray ketdi:

— Hoy inson, Xudo haqi, sizda zig‘ircha ham aql yo‘q ekan. Erta emas, indin kuni zuvvorlar[1] yo‘lga chiqishlarini bilasiz-ku o‘zingiz. Qo‘ying, u sho‘rlik jonivor bir kun tinchgina dam olsin, sizni bu yerdan olti oylik yo‘lga olib borib-olib kelish uchun biroz kuch yig‘sin. Kap-katta odam bo‘la turib, eshakni o‘tgan kuni Uzun Og‘ochga berib yubordingiz, kecha tegirmonga eltib-keltirdingiz, bugun endi shaharga ketdi. Xo‘sh, u jonivor qachon mundoq og‘ilda yotib et yig‘adiki, siz uni ziyoratga minib borsangiz?! He basharangizni yel yesin!

— Xotin, Xudo haqi, mening yoqamni qo‘yib yubor! O‘z aqlim o‘zimga yetadi. Endi nima ilojimiz bor? Xudoyorbek eshakni olib ketganiga yarim soatcha bo‘ldi. Men endi uning ortidan yugurib borib, eshakni tortib olib, uni yarim yo‘lda qoldirib kelolmaymanku! Har nima bo‘lganda ham, oqsoqol degan oti bor. Unga yana odamning ishi tushadi. Bir eshak uchun hokimni ranjitish insofdanmi, axir? Minib ketgan bo‘lsa, kechqurun yana minib qaytib keladi-da!

— Unda men nima qilay? Ana, boring, Ahmadni ovuting, ko‘raylik-chi, qandoq ovutar ekansiz. Endi men o‘rtaga tushib uning yuragini siqaymi? Nima uchun, axir? Xudoyorbek bilan sizning qanaqangi oldi-berdingiz bor? Katta bo‘lsa, o‘ziga! Uning kattaligidan sizga nima foyda?

[1] **Zuvvor** — ziyoratchi *(tarj.)*.

Tashqarida Ahmadning yig'layotganini eshitib, Izzat jim qoldi. Ahmad yig'laganicha ichkari kirdi-da, o'zini taqir yerga otib, battarroq dod-voy sola boshladi:

— Voydod! Mening eshagim! Mening eshagim! Onajon, Xudoyorbek eshagimni shaharga minib boradi, u yerda eshagimni ustiga qayroq ortib, ko'prik qurishga olib ketadilar. Voydod! Voydod! Onajon, mening eshagim!

Bolakay yana biroz dod-voy qilgach, avvalgi kabi sakrab turib eshik tomon yugurib qoldi.

Muhammadhasan amaki o'g'lining qayoqqa yugurib ketayotganini bilish uchun uning ortidan hovliga chiqdi; ammo Ahmad allaqachon g'oyib bo'lgan edi. Muhammadhasan amaki tag'in uyga qaytib kirib, xotiniga o'g'lining g'oyib bo'lganini aytdi. Bu hodisa Izzatning oloviga battar moy quydi:

— Hoy inson, iloyo uyingiz boshingizga qulab tushsin! Axir, ortidan mundoq axtarib boring-chi, bolapaqir qayoqqa ketdi ekan? Siz Ahmadni jinni qilib qo'ydingiz. Yo Xudo, endi men nima qilaman? Borib o'zini bir quduq-puduqqa tashlasa-ya!

— Hoy xotin, men axir boshimni qaysi toshga uray? Uning qayoqqa qochib ketganini men qaydan bilaman?

Izzat oyoqqa turdi-da, boshiga eski ko'k chodirshabini solib uydan chiqar ekan, bunday dedi:

— Padaringga la'nat, Xudoyorbek! Onangning padariga la'nat, Xudoyorbek! Otangning go'ri kuysin, Xudoyorbek. Yetti pushtingga qiron kelsin, Xudoyorbek!

Izzatning ovozi uzoqlasha-uzoqlasha eshitilmay qoldi. Muhammadhasan amaki bir oh chekkanicha kelib palosning ustiga devorga orqa berib o'tirdi. G'azabdan uning peshonasidan chak-chak ter oqardi. Muhammadhasan amaki papog'ini boshidan yerga olib qo'yib, o'z-o'zidan shikoyat qila ketdi:

— Yo Olloh, bergan kuningga shukur! Hech kimning boshiga tushmagan ish mening boshimga tushadimi? Bu shaytondan to'ragan shayton kelib-kelib mening eshagimni oladimi, boshimni shuncha g'avg'oga qo'yib? Qishloqda ikki mingta eshak bor. Ol bittasini, minib ketaver-da! Faqat meni ko'zing ko'radimi? Yo tavba! Xotin ham bekorga aytmaydi! To'g'ri aytadi! Jonivor

mundoq epaqaga kelishi uchun bir kun ham orom olgani yo'q... Evoh, men sariq chaqaga ham arzimaydigan odamman. Chindan ham erkak degulik joyim yo'q. Xotin ham mendan yaxshi. Ha-ha, xotin ham mendan yaxshi. Agar Xudoyorbek Izzatdan eshak so'rasa, Izzat eshakni berarmidi? Holbuki, Izzat bir ayol. Yo tavba, boshi berk ko'chaga kirib qoldim-ku. E Xudoyim, kambag'allik dardini tortaymi, xotin, bola-chaqa dardini tortaymi yoki eshak dardini! Eshakni ham bermasam bo'lmasdi-da. Albatta, qanday qilib bermay bo'ladi? Eshakni bermasang, qishloqda bosh ko'tarib yurib bo'ladimi? Buning ustiga, hokim bo'lsa, katta bo'lsa! Ertagayoq kelib, nohaq yerdan, mana muncha ishtrafing[1] bor, to'lab qo'ygin desa, unda holim nima kechadi? Yo'q, bermasam bo'lmasdi. Hali, Xudo haqi, bilmaymanki, xotin bilan o'g'il qanday gap chiqaradi. Bu kuchuk nega endi o'zini yerdan olib yerga uradi? Axir, mening qavatimga kirib, peshana teri bilan to'rt tanga pul topdilaringmi? Berdim, berib ajab qildim. O'z eshagimni beribman-da! Sizga nima daxli bor? Mundoq olganda, insofan aytganda, ularning ham gunohi yo'q. Ular ham men uchun qayg'uradilar-da. Izzatning gapi ham to'g'ri. Eshak mundoq et olishi uchun bir kun ham og'ilda yotgani yo'q. Yo'q, ularning ham gunohi yo'q.

Muhammadhasan amaki ana shunday xayollarga g'arq bo'lib o'tirgan edi, Izzatning javrashi uning fikrlarini to'zg'itib yubordi:

— Ol, olib ket! Bu ko'ppakning eshagini ham eltib o'ldira qol! Balli senga, Xudoyorbek, eltib o'ldira qol! Xudoyimdan aylanay. Yaxshi bo'ldi, ajab bo'ldi... — shunday deya Izzat uyga o'qdek otilib kirdi va Muhammadhasan amakiga tezlanib, kelgan joyidan davom ettirdi:

— Xo'sh, qalay? Ko'nglingiz joyiga tushdimi endi? Yuragingiz taskin topdimi endi? He, basharangiz buzilsin! Xudoyorbek eshakni qayerga olib ketganini bilasizmi? Shaharga qayroq ortib tashish uchun olib ketibdi. Haydarxon ko'prigini quryaptilar emish. Har qishloqdan bittadan eshak so'ratishibdi. Butun Donobosh qishlog'ida bitta sizning eshagingiz mashhur ekan-da? Sizning eshagingizdan boshqa eshak qurib qolgan ekan-da? Endi ko'nglingiz taskin topdimi?

[1] **Ishtraf** — ruscha shtraf (jarima) so'zining buzilgan shakli *(tarj.)*.

Shunday deya Izzat chodirshabini boshidan kursi ustiga otib urdi va avvalgi o'rniga borib o'tirdi. Muhammadhasan amaki jahd bilan bo'rkini boshiga bostrib, xotinining yoniga keldi.

— Xotin, qanaqasiga eshakni tosh tashishga olib ketishadi? Buni senga kim aytdi?

— Kim aytardi? Xudoyorbekning xotini aytdi. Men o'shanikiga borgan edim. Agar Xudoyorbek hali shaharga ketmagan bo'lsa, eshakni qaytarib olib kelmoqchi edim. Xudoyorbek allaqachon ketib qolgan ekan. Xotinning o'zi shunday dedi. Men hali Xudoyorbek eshakni shaharga nima uchun olib ketganini so'raganimcha ham yo'q edi. Hoy inson, u xotin meni shunaqangi masxara qildiki! Menga, nima, ko'chada qolgan molingiz bormi, deydi. Xudoyorbek shaharga eshakni nima uchun olib ketganini bilmasmidingiz? Haydarxon ko'prigiga qayroq tashish uchun olib ketdi, dedi. Menga u ayol, Ahmadni darhol jo'natinglar, eshakni qaytarib olib kelsin, deb qattiq tayinladi.

Muhammadhasan amaki bu so'zlarni eshitgach eshik sari yurdi.

— Ahmadni hoziroq jo'nataman. Qani, qaray-chi, Ahmadning o'zi qayda ekan?

Shu payt Ahmadning yig'lagan ovozi eshitildi. Birozdan so'ng Ahmad ham, Muhammadhasan amaki ichkari kerib keldilar. Muhammadhasan amaki eshak borasida o'g'liga yana jinday taskin berib, unga Xudoyorbekdan eshakni qaytarib olib kelishni buyurdi. Bola, Xudoyorbek shaharga yetib qolgandir, dedi. Muhammadhasan amaki yana qayta: hechqisi yo'q, shaharga kirgan bo'lsa ham, eshakni olib kel, dedi.

Ahmad yig'idan to'xtab, bir onasiga, bir o'ng-u so'liga qarab oldi-da, shaharga borishga rozi bo'lib, uydan chiqdi.

* * *

Oqshomga yaqin Muhammadhasan amaki qishloqning bir chekkasida, katta yo'l yoqasida g'am-g'ussaga botib o'tirganicha shahar yo'liga ko'z tikkan edi. Bu yo'ldan boshiga oq qalpoq, egniga kaltagina ko'k kamzul, oq ishton kiyib olgan yetti yoshlar chamasidagi oyoqyalang bir bolakay qo'lidagi xivichinini silkitganicha bir to'da qo'y-qo'zi haydab kelmoqda edi. U ushbu suruvni

o‘tlatib qaytayotgan edi. Bolakay Muhammadhasan amakining qarshisiga yetib kelgach, uning yuziga qiziqsinib boqqanicha turib qoldi. So‘ng u tomon bir-ikki odim yurib so‘radi:

— I-ye, Muhammadhasan amaki, bundoq bir mahalda bu yerda nima qilib o‘tiribsiz?

Muhammadhasan amaki bolakayga juda yumshoqlik bilan javob berdi:

— Shahardan keladigan odamim bor edi, bolam, o‘shani kutib o‘tiribman.

Bolakay qarasa, qo‘y-qo‘zilari ancha olislab ketibdi, u boshqa hech narsa demay suruv ortidan yugurdi. Bu bolakay ketgach, yana bir juldur libos kiyib olgan o‘n-o‘n ikki yoshlardagi bola Muhammadhasan amakining oldiga kelib, bu mahalda uning bu yerda nima qilib o‘tirganini so‘radi. Muhammadhasan amaki bunga ham oldingi javobini qildi. Bu bola ham ko‘zdan g‘oyib bo‘lgach, Muhammadhasan amaki ortdan yana bir to‘da qoramol kelayotganini ko‘rdi. Mollar uning yoniga yetib keldi, uning ortidan qora chakmon, oq ishton kiyib olgan o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlardagi oyoq-yalang bir kishi paydo bo‘ldi.

— I-ye, Muhammadhasan amaki, bundoq bir mahalda bu yerda nima qilib o‘tiribsiz?

— Og‘ayni, shahardan keladigan odamim bor edi, o‘shani kutib o‘tiribman. Hali zamon kelib qolsa kerak.

— Ha-a, keladigan bo‘lsa, keladi-da. Aftidan, juda e’tiborli odamga o‘xshaydi.

— Yo‘q, Xudoyorbek bugun eshakni shaharga minib ketgan edi. Eshakni tegirmonga jo‘natmoqchi edim. Shuning uchun o‘g‘limni jo‘natdim. Hozirgacha na eshak qaytdi, na o‘g‘lim.

Muhammadhasan amaki, tabiiyki, bu odamga qisqagina javob qilmoqchi, o‘rtaga eshak mojarosini solib gapni cho‘zmoqchi emas edi. Biroq Muhammadhasan amaki atayin ana shunday javob qildi. Muhammadhasan amaki, qani bu kishi nima der ekan, deb, atayin eshakdan gap ochdi. Qani, Xudoyor katta eshakni ishlatish uchun olib ketganmi yoki yo‘q, bu odam bilarmikan degan xayolda shunday javob berdi. Bu kishining javobi Muhammadhasan amakining ko‘nglidagi javob bo‘ldi. Bu kishi:

— Juda yaxshi. Xudoyor katta eshakni yeb qo'ymaydiki, eshak uchun yana shaharga odam ketsa, — dedi.

Muhammadhasan amaki gapning tub-tubigacha yetish uchun batafsil so'zlay ketdi:

— Rostini aytsam, bugun Xudoyorbek eshakni shaharga minib ketgan edi, keyinchalik eshitsam, bu endi xotinning gapi, hech ishonib ham bo'lmaydi, ya'ni men keyinchalik eshitsam, shaharga olib borib, undan so'ng Haydarxon ko'prigiga qayroq tashitish uchun Donobosh qishlog'idan bitta eshak so'ratibdilar. Shundan biroz xavotirga tushdim. Chunki eshak tegirmonga borishi kerak edi, shu sababli men, eshakni albatta olib kel, deb Ahmadni jo'natdim. Shuni kutib o'tiribman...

Haligi odam bu voqeani juda taajjub bilan eshitib turdi. Muhammadhasan amaki so'zini tugatishi bilanoq u jilmayib dedi:

— Hoy amaki, bu qanday gap? Qanaqasiga Haydarxon ko'prigiga qayroq tashir ekanlar? Xa-xa-xa... Gapingiz to'g'ri, Haydarxon ko'prigini qurayotganlari rost, lekin unga sirayam eshak so'ratganlari yo'q. Haydarxon ko'prigiga Donobosh qishlog'idan yuz manat xarj so'ratganlar. Bu gaplarni sizga kim aytgan bo'lsa ham, yolg'on aytibdi. Jinni ekan u! Turing, ketdik, behudaga bu yerda mahtal bo'lib o'tirmang. Hash-pash demay Xudoyorbek ham keladi, eshagingizni ham olib keladi. Qani, turing, ketdik.

Muhammadhasan amaki yo'lga yana bir bor qarab olib, "yo Olloh" deganicha o'rnidan turdi. Va haligi odam bilan yo'lga tushib, qishloqqa kirib bordilar.

Ko'cha qoramol podasi va qo'y-qo'zi suruviga to'lib ketgan, asta-sekin qosh qoraya boshlagan edi.

— Muhammadhasan amaki, Xudo haqi, sizga haligi gapni kim aytdi o'zi?

— Qo'yaver, bu bekor gap. Mening o'zim ham bilardim uning yolg'onligini. Nima, men ahmoq bo'libmanmi? Bitta eshak bilan ko'prik qurib bo'larkanmi? Bu gapni boshqa birov emas, aynan Xudoyorbekning xotini aytibdi. Yo'q, bu bo'lmagan gap. Mening o'zim ham bilardim yolg'onligini...

— Shunaqa demaysizmi, amaki! Xa-xa-xa... Boyadan beri shu gapni aytmaysizmi, otaginam! Men maqsadni endi tushunib yet-

dim. Gap nimadaligini bilasizmi, Muhammadhasan amaki? Men, axir, o'zingizga ham ma'lumki, Xudoyorbekka qo'shni bo'laman. Xudoyorbekning bugun nega shaharga ketganini men bilaman. U ikki maqsad uchun ketgan. Bilmadim, siz eshitdingizmi yoki yo'q? Xudoyorbek Zaynabni olmoqchi-ku, axir.

— Qaysi Zaynabni?

— Nahotki tanimasangiz? Karbaloyi Haydarning xotinini-da! Ha, o'shani olmoqchi! Siz bilmaysiz, u ko'pdan beri shu harakatda yuribdi! Karbaloyi Haydar o'lgan kundan beri. Shunaqa, Xudoyorbek Zaynabga uylanmoqchi. Ammo bunga na Zaynab rozi, na Xudoyorbekning xotini. Bu kecha baqir-chaqirlari ko'kka yetdi. Shuning uchun Xudoyorbek ertalab turib, borib sendan ajralib kelaman, depti. Endilikda Xudoyorbek yo Zaynabni olish uchun ketgan, yo xotinidan ajralish uchun. Yo'q, gap unda emas... Shuni aytmoqchi edimki, Xudoyorbekning xotini shaytonning o'zginasi. U, Xudoyorbek eshakni Haydarxon ko'prigiga qayroq tashish uchun olib ketdi, deb qasddan aytgan. Sizni eshakni bermasin deb shunday degan. Siz eshakni bermasligingiz uchun achchig'idan shunday degan. Ha, achchig'idan shunday degan. Menimcha, shunday.

Muhammadhasan amaki ikkovlari ko'chaning boshiga yetib keldilar. Sherigi o'ng tomonga burilib ketdi, Muhammadhasan amaki u bilan xayrlashib, ich-ichidan uning otasiga rahmatlar aytib o'z uyiga yo'l oldi...

Muhammadhasan amaki uyga kirmoqchi bo'lib eshikni ochdi. Qarasa, uy qop-qorong'i. Xotinini chaqirdi, lekin hech javob bo'lmadi. Yana chaqirib ko'rdi, yana javob yo'q. Eshikni bekitib, hovliga qaytdi, xotinim balki suhbatlashib, biroz yuragini yozgani birorta qo'shninikiga chiqib ketgandir, deb o'yladi. Muhammadhasan amaki hovlini biroz aylangach, ko'cha eshikning og'ziga chiqdi, tablasining eshigi ko'cha eshigiga yaqin edi. Mundoq quloq solsa, tabladan bir yig'i ovozi kelyapti. Bu yig'i ovozi qayerdan kelyapti ekan deb, tablaning eshigini ochdi. Eshikni ochgan zahoti xotinining ovozini darhol tanidi. Boshini ichkari suqib chaqirdi:

— Izad![1]

[1] **Izad** — izzat so'zining buzilgan shakli *(muallif)*.

Yig‘i ovozi tindi, ammo javob eshtilmadi. Muhammadhasan amaki yana chaqirib ko‘rdi. Yana javob bo‘lmadi. Muhammadhasan amaki tag‘in bir bora chaqirdi. Xotini Izzat achchiqlanganicha javob bedi:

— Ha, nima deysiz? Ko‘zingiz ko‘rmi, ko‘rmayapsizmi, menman?!

— Izzat, yig‘layapsanmi? Mening qulog‘imga yig‘i ovozi eshtilganday bo‘ldi.

Izzat javob bermadi. Avval bir xo‘rsindi-da, so‘ng tabladan tashqariga chiqdi. Er-xotin uy tomon yurdilar. Uyga kirdilar. Izzat chiroqni yoqib burchakdagi tuynuk yoniga keltirib qo‘ydi va o‘zi qop-qorong‘i bir kunjga borib o‘tirdi. Muhammadhasan amaki birpas oyoq ustida turgach, palosga chiqib yostiqqa orqa berganicha o‘tirdi.

— Izzat, chindan ham boya yig‘lagan senmiding?

Ayol javob bermadi.

— Izzat, boya axir men yig‘i ovozini eshitdim, o‘sha senmiding?

Izzat javob bermadi.

— Yig‘lagan sen eding, shekilli. Bekorga yig‘lab, yuragingni siqasan; hali men yo‘l ustiga chiqib o‘tirgan edim. Shahardan qaytayotgan bir odamni ko‘rdim. U, Xudoyorbek eshakni hali zamon olib kelib qoladi, deb ont ichdi. U ont ichib aytdiki, Haydarxon ko‘prigini qurayotganlari rost ekan, biroq unga Donobosh qishlog‘idan bitta eshak emas, yuz manat pul so‘ratibdilar. Menga bularni gapirib bergan odam Xudoyorbek hademay eshakni qaytarib olib kelishini ont ichib aytdi. Uni o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, dedi u. Xudo haqi, rost aytyapman.

— Kelsa go‘rga! Kelsa jahannamga! Sho‘rlik o‘g‘limning oyoqlari qabarib ketgandir. Menga eshak keldi nima-yu, kelmadi nima? Go‘rga ketsin! Jahannamga ketsin! Ahmad tezroq kela qolsaydi. Men Ahmaddan xavotir olyapman, yo‘qsa, eshak go‘rga ketsin, jahannamga ketsin!

— Xotin, Xudo haqi, haligi kishi, ular hademay kelib qoladilar, deb aytdi. Axir, nahotki, u kishi yolg‘on gapirsa? Ko‘rmasa, aytmasdi-da! Ikkalasini, ya’ni Xudoyorbek bilan Ahmadni men o‘zim

bozorda ko'rdim, deb qasam ichdi. Men ketyapman, sizlar qachon qaytasizlar, deb so'rabdi haligi odam. Biz ham hozir qaytamiz, debdi ular. Mana, men keldim, ular ham hademay kelib qolishadi, dedi u.

Ayol hech narsa demadi. O'rnidan turib, bir oh tortdi, chuqur xo'rsindi-da, tizligining etagiga burnini artib, kursi yoniga keldi, bir necha qoq bo'lib qolgan lavashni[1] so'l qo'liga yig'ib, eshik oldiga bordi-da, ularni suvga ivita boshladi.

Muhammadhasan amaki:

— Inshaalloh, hozir kelib qoladilar, — deya o'rnidan turdi-da, boshmoqlarini kiyib, xotinining yoniga bordi.

Izzat nonni ivitib bo'lgan zahoti Muhammadhasan amaki chakmonini olib tashqari chiqdi, birozdan so'ng eshik oldiga kelib, cho'nqayganicha tahorat oldi. Avval qo'llarini yuvdi, so'ngra yuzi va bilaklarini yuvdi. Har gal suv olganida "Bismilloh" deb qo'yardi. Tahorat olib, mash tortib bo'lgach, tokchadan bir joynamoz olib, palos ustiga to'shaganicha namoz o'qiy boshladi.

Izzat yana bir burchakka chekinib, iyagini tizzalariga qo'yib o'tirardi. Muhammadhasan azon va iqomni aytib, hamdga o'tdi, qulhuvallohni zikr etganicha rukuga egilmoqchi ham ediki, qo'q-qisdan eshik ochilib, horg'in va noxush qiyofada Ahmad kirib keldi. Muhammadhasan amaki har ikki qo'lini ko'kka cho'zganicha baland ovozda "Ollohu akbar!" deb yubordi. Izzat sevinganicha o'rnidan sapchib turib, qichqirib yubordi:

— Ahmad!

Ahmad uyga kirgan zahoti kasal odam kabi devorga suyanib, past ovozda:

— Voy, onajon! — dedi.

Muhammadhasan amaki chidab turolmay, ikkinchi sajdada namozini chala qoldirib, Ahmad tomon otildi. Er Ahmadning bir qo'liga, xotin ikkinchi qo'liga yopishganicha biri: "Bolam, nega bunday qilyapsan?" der, ikkinchisi: "Bolajonim, qayering og'riyapti?" — deb so'rardi.

Izzat:

[1] **Lavash** — yupqa non.

— Aylanay bolajonim, Ahmad, nega o‘tirmaysan? — deb so‘rasa, Muhammadhasan:

— Bolam, eshak qani? — der edi.

Muhammadhasan amaki Ahmaddan eshakni so‘ragan zahoti Izzat qichqirganicha uni qarg‘ashga tushdi:

— Voy o‘sha eshak berganning go‘ri kuysin! Voy o‘sha eshak sotganning padariga la’nat! Voy o‘sha eshakni ilon chalsin! Bolajonimning o‘lishiga oz qolibdi-ku, bu turib eshakni o‘rtaga suqadi-ya!

Muhammadhasan amaki hech narsa demadi. Ahmad ham devorga suyanganicha oh-voh qilardi. Oxiri Izzat zo‘r berib, yalinib-yolvorib, u yuzi, bu yuzidan o‘pib, qo‘llaridan sudrab Ahmadni biroz orom olsin deya palos ustiga olib keldi.

Bir qadar tinchlanib qolgan Ahmad, Muhammadhasan amaki va Izzatning yalinib-yolvorishlaridan so‘ng, shaharga qanday borib kelganini hikoya qila boshladi. Avval yo‘lda rosa horib-tolganini, bir necha joyda o‘tirib dam olganini, shaharga qanday borganini va karvonsaroychi bilan qilgan janjallarini aytib berdi. Keyin yana Xudoyorbekni axtarib rosa sarson bo‘lganini, oxiri toliqib-horib, yo‘l ustida o‘n-o‘n besh martacha dam olib, Donobosh qishlog‘iga zo‘rg‘a yetib kelganini so‘zladi.

Ahmad ko‘rgan-kechirganlarini hikoya qilar ekan, har so‘zining orasida bir ont ichardi. Bir og‘iz gapirib, bir “Xudo haqi” der; yana bir so‘z aytib “imom Husayn haqi” der, yana bir og‘iz aytib, “imom Rizo haqi”, “janob amirin Zulfiqor haqi” derdi. Hikoyasini tugatib, Ahmad onasiga yuzlandi:

— Ona, nima pishirdingiz?

— Bolam, uyda hech narsa yo‘q, faqat qotgan non, xolos... Agar istasang, qatiq bor, olib kelaman.

— Hi, hi, hi, men qatiq ichmayman. Biror ovqat pishirsangiz bo‘lmasmidi?

— Qayerdan bilibman, bolam, bu g‘avg‘o boshimizni garang qilib qo‘ydi. Nima qilishimizni ham bilmay qoldik. Na iloj, bugunchalik qatiq ichib tur, ertaga albatta senga biror ovqat pishirib beraman.

Izzat o'g'lining oldiga bir-ikki bo'lak non va qatiq keltirib qo'ydi. Bola ovqatlana boshladi. Er va xotin namozga mashg'ul bo'ldilar. Muhammadhasan amaki namozini xotinidan avvalroq tugatib, o'g'lining yoniga kelib o'tirdi-da, undan hol-ahvol so'ray boshladi. Biroq o'g'li boshini quyi solganicha ovqatlanish bilan mashg'ul edi. Muhammadhasan amaki o'g'lidan hech qanday javob ololmay, takror so'radi:

— O'g'lim, shaharda nima gaplar?

Ahmad nimadir demoqchi bo'ldi, lekin lunji to'la bo'lgani uchun javob bera olmadi. Izzat ham namozini tugatib, eriga yuzlandi va jahl bilan, bolani qiynamasangiz-chi, deya tanbeh bera ketdi.

Muhammadhasan amaki bu tanbehni haq bilib, bir chekkada o'tirganicha tasbeh chevira boshladi. Tasbeh chevira-chevira qandaydir duoni zikr etardi. Izzat o'rnidan turib, chodirshabini sekingina kursi ustiga qo'ydi, o'rtaga bir necha suvda bo'kkan non keltirib qo'yib, erini yaqinroq o'tirib non yeyishga manzirat qildi. Muhammadhasan amaki tag'in xotinining amriga bo'ysunib, dasturxon boshiga yaqin keldi. Ahmad qatiqni ichib, tovoqni yalab qo'ygan edi. Muhammadhasan amaki tovoqni oldiga tortib, qatiqqa non botirmoqchi bo'ldi. Ahmad piqillab kula boshladi. O'g'liga qarab Muhammadhasan amakining o'zi ham kulishga tushdi. Ammo Izzat basharasini burishtirib, erini mazammat qila boshladi.

— Hoy inson, sizda or-nomus bormi o'zi? Men sizning o'rningizda bo'lsam kulish o'rniga yig'lar edim.

— Menga nima deysan, axir. O'g'lingga aytgin-da. Men kulyapmanmi yoki u?

— O'g'limga nima deyman? Indin kuni ziyoratga siz ketyapsizmi yoki o'g'lingiz? O'g'limning nima ishi bor?! Siz o'ylab ko'rishingiz kerak, o'rtoqlaringiz ziyoratga borib karbaloyi bo'lishadi, siz esa uyda o'tiraverasiz xotinga o'xshab.

— Inshaalloh, men ham boraman. Mening ulardan kam joyim yo'qki, ular ketib, men qolsam.

Izzat indamay, boshini quyi solganicha ovqatlana boshladi. Ahmad toliqqani uchun o'tirgan yerida yonboshga cho'zildi, otasi unga, o'rtada taom turganda yotib bo'lmaydi, deb nasihat qildi. Ahmad bunga parvo ham qilmadi.

Muhammadhasan amaki va xotini hamon non yemoqda edilar. Birdan Ahmad yuztuban yotib yig'lay boshladi.

— Bolam, nega yig'layapsan? — deb so'radi otasi.

Ahmad javob ham bermadi, ovunmadi ham. Izzat Ahmadning yoniga surilib, qo'lini o'g'lining yelkasiga qo'yib, uning boshi uzra egildi.

— Ahmad, bolam, nega yig'layapsan?

Ahmad yig'laganicha javob berdi:

— Mening eshagim... Voy-voy-voy!.. Mening eshagim! Mening eshagim! Mening eshagim! Mening eshagim!.. E... e... e... Mening eshagim!..

Izzat yanada pastroq egilib, o'g'liga taskin bera boshladi:

— Yig'lama, bolam, yig'lama, jonim... Eshakning egasining go'ri kuysin! Nega eshakni beradi, haligacha dom-daragi yo'q!

— E... e... e... Mening eshagim, mening eshagim, mening eshagim!

Izzat jahldan bo'g'riqib, Muhammadhasan amakiga qichqira ketdi:

— Tursangiz-chi, axir, boring, qarang, eshakka nima bo'ldi ekan? Eshak kelmasa, bolam uxlay oladimi? Borib, qarasangiz-chi, axir, eshak nima bo'ldi ekan? U padarla'nat eshakni nima qildi ekan?

— Shu topda men qayoqqa boraman?

— Jahannamga boring, go'rga boring! Qayoqqa ham borardingiz? Borib qarang, axir, u ko'ppak kelib balki uyida o'tirgandir? Balki eshakni olib kelgandir? Balki hovlisiga kiritib qo'ygandir? Uni siz xalqning molini olishga olib, yana qo'shqo'llab egasiga qaytarib topshiradiganlar toifasidan deb o'ylaysizmi?

Muhammadhasan amaki "yo Olloh" deb o'rnidan turishi bilanoq Ahmadning yig'isi tindi. Qisqasi, Muhammadhasan amaki eshakni surishtirish uchun Xudoyorbeknikiga bordi. Unga, hali qaytmadi, deb javob berishdi. U yana shahar yo'liga chiqdi, lekin hech narsani ko'rolmadi. Afsus-nadomat bilan uyiga qaytdi, lekin ichkari kirib, hali eshak qaytmapti, degan gapni qay yo'sinda aytishni bilmasdi. Birpas ko'cha eshigi oldida turgach, tablaga kirdi. Tabla qop-qorong'i edi. Qandaydir shitirlash eshi-

tildi. Muhammadhasan amaki sevinib "beh-beh" dedi, go'yo u eshakni chaqirmoqda edi.

Shu paytda Izzat hovliga chiqqan edi; Muhammadhasan amakining "beh-beh" degan ovozini eshitib, eshak kelibdi-da, deb o'yladi; o'g'liga bu xushxabarni yetkazish uchun sevinganicha qichqirdi:

— Ahmad, suyunchi ber, eshak keldi.

Ahmad uydan otilib chiqib, rosa sevinganicha hansiray-hansiray onasining yoniga keldi.

— Ona, qani eshak? Uv-v, mening eshagim, mening eshagim, mening eshagim! Ona, qani eshak?

— Yur, o'g'lim, borib ko'ramiz. Dadang eshakni og'ilga olib kirdi.

Ona va o'g'il shosha-pisha og'il tomon yugurishdi. Izzat, ehtimol, o'tiz yillardan beri bunaqangi tez chopmagan edi. Og'ilning eshigiga yetib borishgach, Ahmad ichkari kirib, avval otasini chaqirdi.

— Dada!

— Nima gap, o'g'lim?

— Mening eshagim! E... e... e... Mening eshagim! Dada, qani mening eshagim?

— Bolam, hali eshak kelmadi. Bilmadim, u itdan tarqagan nega haligacha qaytmadi ekan?

Ahmadga shu so'z kifoya edi. U voy-voylaganicha tabla eshigining oldida o'zini yerga otdi. Izzat qayg'udan, Muhammadhasan amaki esa g'azabdan xuddi Ahmadga o'xshab yig'lashga tushdilar.

To tongga qadar na Ahmad uxladi, na Izzat va na Muhammadhasan amaki.

VII

...50 manat mahr yuzasidan Zaynabni Xudoyorga doimiy xotinlikka berdim. 50 manat mahr yuzasidan Xudoyorga doimiy xotin bo'lishni qabul qildim.

Ollohumma! Allif baynahumo bihaqqi Muhammadin va olihi va bihurmati suratil-"Fotiha"!

Qozi "Fotiha" surasini o'qib, "Olloh muborak qilsin", deb qo'lidagi nikoh qog'ozini oldiga qo'ydi-da, o'tirganlarga yuzlandi.

— Qani, keling, qo'l qo'ying.

O'tirganlardan biri Xudoyorbek edi. U yuqorida tiz cho'kib o'tirar edi. Undan keyin yigirma ikki-yigirma uch yoshlardagi bir yosh yigit joy olgan edi. Bu Donobosh qishlog'i glavasining yasovuli, Xudoyorbekning o'rtog'i Qosimali bo'lib, biz yuqorida u bilan tanishgan edik. Qosimalidan quyida yana ikki kishi joy olgan, biri o'ttiz-o'tiz ikki yoshlarda bo'lib, ikkinchisi nari borsa qirq yoshlarda edi. Bular ham donoboshlik edilar. Birinchisining oti Karbaloyi G'affor, bunisining oti Karbaloyi Sabzali edi. Bularning har ikkalasi ham Xudoyorbekning sadoqatli va eski do'stlaridan edi.

Bu og'alarning nima sababdan hozir bu yerda o'tirganlari bizga ma'lum, albatta. Ularni Xudoyorbek boshlab kelgan bo'lib, Qosimali Zaynab tomonidan vakil, qolganlar esa guvoh vazifasini o'tardilar.

Albatta, biz bularning vakil va guvohliklari soxta ekanligini ham bilamiz. Shu sababli Xudoyorbekning hiylasiga ko'ra bularning uchalasi ham qoziga o'zlarini boshqacha tanishtirib, hatto nomlarini ham o'zgacha aytgan edilar. Qosimali o'zini Zaynabning o'g'li deb taqdim etgan, ismini Valiquli deb aytgan edi. Onam Zaynab meni shu xususda vakil qilib jo'natdi, ya'ni Xudoyorbekka tegish rizoligini bildirdi, dedi u qoziga. Karbaloyi G'affor o'zini Karbaloyi Baxshali deb tanishtirdi. Karbaloyi Sabzali otini Mashadi O'rujali deb qo'ydi. Ularning har ikkisi Qosimalining vakilligiga guvohlik berdilar.

Darvoqe, qozi fotiha surasini o'qib bo'lib, "Olloh muborak etsin", deya qo'lidagi nikoh qog'ozini oldiga qo'ydi-da, sizga tanishtirganim ushbu kimsalarga yuzlanib dedi:

— Qani, keling, qo'l qo'ying.

Qosimali darhol javob qildi:

— Qozi og'a, men qo'l qo'yishni bilmayman.

Qosimali aytgan bu javobni Karbaloyi G'affor va Karbaloyi Sabzali ham takrorlashdi.

Qozi, nega qo'l qo'yishni bilmaysizlar, deb hayron bo'ldi. Uchalasi ham, yozishni bilmaymiz, ya'ni savodimiz yo'q, deb ja-

vob berishdi. Unda sizning o'rningizga qo'l qo'ya oladigan biror kishi topib keling, dedi qozi ularga. Ular, bizning o'rnimizga o'zingiz qo'l qo'ya qoling, deya qoziga yolvora boshladilar. Qozi biroz ikkilangan bo'lsa-da, ammo bunga rozilik bermadi. Qosimali bironta odam topib kelish maqsadida o'rnidan turdi. Eshikka yetganda esiga bir fikr tushib, to'xtab qoldi, so'ng qoziga yuzlanib:

— Qozi og'a, men axir bu musofir shaharda hozir kimni ham topa olaman? Bizning o'rnimizga sizning o'zingiz qo'l qo'ya qoling, — dedi.

Qozi ularning o'rniga qo'l qo'yishga avval rozi bo'lsa ham, bundan keyin zinhor rozi bo'lmasdi. Shuning uchun rozi bo'lmasdiki, ularning gap-so'zlari va Qosimalining oxirgi iltimosidan so'ng, bular hiyla ishlatyaptilar, shekilli, deya badgumon bo'lib qoldi. Qozi tajribali kishi edi.

Shu bois Qosimaliga qat'iy qilib:

— Ortiqcha gap-so'zning foydasi yo'q. Hali ketganingda-ku, allaqachon birovni topib kelarding! — dedi.

Oradan yarim soat o'tar-o'tmas nikoh masalasi hal bo'ldi. Qozi yana bir bora xayri duo qildi. Xudoyorbek, Qosimali va ikkala karbaloyi ketish uchun o'rinlaridan turdilar. Xudoyorbek qoziga yuzlanib:

— Qozi og'a, yana bir masala bor, — deb qoldi. — Shubha yo'qki, endilikda u ayol mening nikohdagi xotinim bo'ldi. Ammo gap shundaki, qozi og'a, u ayolning yomon bir fe'li bor. Ya'ni o'zi unchalik yomon emas, lekin biroz jinniligi bor. Yo'q, unaqangi jinni emas, ammo gohi-gohida esi og'ib turadi, jinniga o'xshab qoladi. Albatta, mana o'zingiz ham ko'rib turibsizki, uning menga tegadigan royishi bor. Valiquli, shunday emasmi? Ha, balli, mana buning o'zi ham onasining biroz jinni ekanligidan, ya'ni gohi-gohida esi og'ib turishidan tonmaydi. Mabodo endi, gap-da bu, biz qishloqqa qaytib borganda u ayolning, ya'ni Zaynabning jinniligi qo'zib qolgan bo'lsa, menga nima maslahat berasiz?

Qozi og'zini ochib nimadir demoqchi edi, Qosimali darhol uning oldini oldi:

— To'g'ri, qozi og'a. Xudo haqi, onamning biroz hushi boshida emas, rahmatlik otam Karbaloyi Haydar o'lgandan beri uning

yig‘lamagan kuni yo‘q. Yig‘lay-yig‘lay oxiri jinni bo‘lib qoldi. Rost, qozi og‘a, onamning bir tutqanog‘i bor. Tutqanog‘i tutib qolsa, Xudo ko‘rsatmasin, hech bas kelib bo‘lmaydi.

Qozi tasbehini chevira-chevira dedi:

— Iye, o‘g‘lon, nima, qishlog‘ingizda oqsoqol yo‘qmi? Qishlog‘ingizda jinnilar, devonalar o‘z boshiga tashlab qo‘yilganmi? Shaharda birov jinni bo‘lib qolsa, darhol uni tutib qamab qo‘yadilar. Shu qadar kaltaklaydilarki, shu qadar och-nahor qoldiradilarki, albatta hushi o‘ziga keladi.

Qozi gapini tugatdi. Xudoyorbek yana qayta so‘rab qoldi:

— Endi bu ham bir gap-da, qozi og‘a, bu ham bir gap-da endi, biz qaytib borganda qo‘qqisdan Zaynabning tutqanog‘i tutib qolsayu, men falonchiga tegmayman deb turib olsa, unda menga nima maslahat berasiz? Chunki u xotin shu qadar jinniki, men hech ham o‘g‘limni vakil qilmaganman, deya o‘z gapidan tonib qolishdan qo‘rqaman.

Karbaloyi G‘affor Xudoyorbekning gapini yanada mustahkamlash uchun bunday dedi:

— Hoy birodar, qaysi jur’at bilan, men o‘g‘limni vakil qilmaganman, deb ayta oladi? Xo‘sh, biz kimmiz, axir? U shundoq bizning ko‘z o‘ngimizda o‘g‘lini vakil qildi-ya. Endi uning gapiga kim ham quloq solardi?

Qozi o‘ng qo‘lini Xudoyorbekning yelkasiga qo‘yib, mehribonlik bilan dedi:

— Azizim, bu yog‘iga parvo qilma. Sen qishloqqa qaytib Zaynabga xabar ber, u lozimondasini yig‘ishtirib kelib, senga xotin bo‘lsin; chunki bunga o‘zi rozi bo‘lgan, o‘g‘lini vakil qilib jo‘natgan. Agar u g‘ing-ping deydigan bo‘lsa, yo‘q, men bormayman, o‘g‘limni ham vakil qilmaganman, deb qolsa, unda sen darhol menga xabar qil, yo‘q, yaxshisi, bir ariza yozdirib kel menga. Men ham nacharnikka, falonchining xotini uyidan qochib ketibdi, eriga itoat etmayapti, deb yozib beraman. Shunda uni itdek kaltaklab, uyingga sudrab eltib tashlaydilar. Bu yog‘idan ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, bemalol ketaveringlar.

Xudoyorbek, Qosimali, Karbaloyi G‘affor va Karbaloyi Sabzali so‘zlasha-so‘zlasha Buzxona mahallasining uzun ko‘chasi bo‘ylab

ko‘cha boshiga yetib keldilar. Hammomga yetgach, Xudoyorbek to‘xtadi, “uf, charchadim” deganicha hammomning supasiga o‘tirib, chubug‘ini to‘ldira boshladi. Hammomdan chiqqan ayollarning ba’zilari kulganlaricha, ba’zilari to‘ng‘illagancha bu qishloqilar yonidan o‘tib ketar edilar. Oxiri qishloqilar bu yer o‘tiradigan joy emasligini tushunib yetdilar. Birinchi bo‘lib Xudoyorbek o‘rnidan turganicha dedi:

— Qani, ketdik bu yerdan. Ayolning kasri uradi, tezroq keta qolaylik.

Og‘alar nari ketib, soy bo‘yidagi bir vayrona devor ustiga borib o‘tirdilar. Xudoyorbek, qo‘lida chubuq, tirsaklarini tizzasiga tiragancha boshini jimgina quyi egib cho‘nqayib o‘tirdi. Qolganlar uning yonidan joy olishdi. Xudoyorbek chubug‘ini bir–ikki bora so‘rib tortdi-da, hech qayoqqa qaramay gap boshladi:

— Xo‘sh, nima deysiz, endi qayoqqa borsak ekan?

Qosimali javob berdi:

— Qayoqqa borardik, qishloqqa ketamiz-da.

Xudoyorbek biroz o‘ylanib turgandan so‘ng bosh ko‘tarmay dedi:

— Bo‘pti, qishloqqa bo‘lsa, qishloqqa-da.

Xudoyorbek o‘rnidan turmoqchi bo‘lib qo‘zg‘algan edi, Qosimali va Karbaloyi Sabzali ham irg‘ib turishdi. Biroq Karbaloyi G‘affor o‘tirgan joyidan Xudoyorbekka yuzlanib dedi:

— Xudoyorbek, men bir gap aytmoqchiman. Og‘ayni, men yosh bo‘lsam ham, ancha-muncha tajribam bor. Ont ichib aytamanki, u ayol hech qachon o‘z royishi bilan kelib senga xotin bo‘lmaydi. Yo‘q, aslo. Men uni yaxshi taniyman, u bunga aslo rozi bo‘lmaydi. Agar uni o‘z holiga qo‘yib qo‘ysang, senikiga sirayam kelmaydi. Balki devonni ishga solish kerakdir. Sen hozir shu yerda ekanligingda bu ishni ortga surmay, darhol, bugunning o‘zida, hoziroq nacharnikka berib, xotinim menga itoat qilmayapti, uyimda turishni istamayapti, deb shikoyat qilishingni maslahat ko‘raman. Mening fikrim shunday. Bilmadim, siz bunga nima deysiz.

Xudoyorbek qayta joyiga o‘tirib, yana avvalgidek boshini quyi soldi. Uning o‘tirganini ko‘rib, Qosimali va Karbaloyi Sabzali ham yerga cho‘kdilar.

Karbaloyi Sabzali bu fikrga rozi bo'lmay, dedi:

— Yo'q, bu yaxshi ish emas, Ollohga xush kelmaydi. Balki hali ayol u-bu deb o'tirmasdan rozi bo'lar. Nega endi sen nohaq nacharnikka kirishing kerak, axir u darrov yozib, ayolni devonxonaga oldirtiradi-ku. Yo'q, sho'rlik ayolga rahming kelsin. Bu Ollohga xush kelmaydi!

Ancha-muncha bahslardan keyin Xudoyorbekning hoziroq borib nacharnikka shikoyat qilishi ma'qul deb topildi.

* * *

Bugun Muhammadhasan amaki ham shaharga keldi. Sho'rlik qariya piyoda va oyoq yalang, boshmoqlarini qo'liga olib, qo'ltig'iga bir-ikkita non solib, shaharga kirib keldi va biz bilgan karvonsaroyga bordi.

Bu paytda Karbaloyi Ja'far darvozaxona supasida non bilan pishloq yeb o'tirardi. Muhammadhasan amaki uning yoniga kelib salom berdi va dedi:

— Baraka topkur Karbaloyi, marhamat qilib eshakni haydab chiq, olib ketayin. Xudo haqi, ertaga zuvvor yo'lga chiqadi, eshakka mahtal qolib turibman. Tur tez, baraka topkur...

Muhammadhasan amaki gapini tugatgach, bu karvonsaroychi kar bo'lsa kerak, quloqlari eshitmasa kerak, deb o'yladi. Ehtimol, Muhammadhasan amakining o'rniga boshqa birov bo'lganida ham shunday xayolga borardi. Chunki Muhammadhasan amaki o'z gapini aytib tugatgan bo'lsa ham, Karbaloyi Ja'far unga nainki javob berdi, balki gapirayotgan kim bo'ldi ekan deb mundoq qayrilib ham boqmadi, pinagini buzmay o'tiraverdi. Hamon lazzatlanganicha non kavshanar edi. Muhammadhasan amaki uni chindan ham kar deb o'yladi va unga yaqin borib, boshiga egilgancha baqirdi:

— Hoy Karbaloyi, baraka topkur, marhamat qilib eshakni olib chiq, minib ketayin. Xudo haqi, ertaga zuvvor yo'lga chiqadi, eshakka mahtal qolib turibman...

Shu payt Karbaloyi Ja'far ham bir baqirib berdiki, Muhammadhasan amaki cho'chib ketdi:

— Mahtal qolsang jahannamga! Mahtal qolsang go'rga! Sen mahtal qolsang men nima qilay? Quloqni tom bitirding-ku! Sen

menga eshak topshirganmiding? Mabodo jinni-pinni emasmisan? Nima balo, yo kayfing bormi?

Muhammadhasan amaki ikki qo'lini Karbaloyi Ja'far amaki tomon cho'zganicha yolvorishga tushdi:

— Jon Karbaloyi, Xudo haqi, mening eshagimni ber, tezroq keta qolay. Xudo haqi, meni ovora qilma.

— Azizim, sen kimning yonida menga eshak topshirgansan o'zi? Avvalo, shuni bir bilki, agar eshaging tablada bo'lsa ham, aslo senga uni bera olmayman. Chunki uni menga sen topshirganing yo'q. Ikkinchidan, eshak bu yerda emas. Uni kim keltirgan bo'lsa, o'sha kishi olib ketdi. Eshaging bu yerda nima qilsin!

— Demak, Xudoyorbek olib ketibdi-da?

— Qaysi bek olib ketganini men qaydan bilay? Qishlog'ingizning kattasi olib ketdi.

— Qayoqqa olib ketganini bilmaysanmi?

— Qaydan bilay. Balki jahannamga olib ketgandir.

— Balki Haydarxon ko'prigiga tosh tashigani olib ketgandir?

Karbaloyi Ja'far hech narsa demadi. Muhammadhasan amakining savollaridan bezor bo'lib o'rnidan turdi va bozor tomon keta boshladi. Muhammadhasan amaki uni to'xtatib, Xudoyorbek eshakni qayerga olib ketganligini qayta-qayta yolvorib so'ray boshladi. Karbaloyi Ja'farning Muhammadhasan amakiga rahmi keldi, shekilli, uning yoniga qaytdi va ancha yumshoqlik bilan, to'g'ri, Xudoyorbek eshakni karvonsaroyga olib kelgan edi, lekin yana qaytarib olib ketdi, deya ont ichdi. Xo'sh, qayoqqa olib ketdi, deya takror so'radi Muhammadhasan amaki. Karbaloyi Ja'far, "jahannamga olib ketdi" deganicha bozor tomon yo'l oldi.

Muhammadhasan amaki juda toliqqan edi. Donobosh qishlog'idan shahargacha ikki yarim yig'och yo'l edi. O'zing bir qariya bo'lsang, tag'in shuncha yo'lni piyoda bosib kelsang, albatta charchaysan-da. Muhammadhasan amaki darvozaxona supasiga, Karbaloyi Ja'far o'tirgan yerga o'tirib, orqasini devorga berganicha tizza quchib xayolga cho'mdi. U g'am daryosiga g'arq bo'lgan edi. Xayol sho'rlik qariyani har tomonlarga sudrab ketdi. Avval o'tgan kunlari, ya'ni bolaligi yodiga tushdi. "Hey attang, attang, bolalik! Qanday ajoyib narsa ekansan! Na qorin tashvishini chekasan, na ki-

yim-kechak tashvishini, na farzand dardini tortasan, na kambag'allik dardini". So'ng bolalikdan o'tib, yoshlik yillarini eslay ketdi. Avval uning mol-dunyosini yeb, uni kambag'allikka duchor etgan amakilaridan gina qildi. Keyin musofirchilikka ketib, ikkala qo'li bo'm-bo'sh qaytganlari esiga tushdi. Yana chuqur bir oh tortib, shu kunga ham yetkazganiga shukur qildi.

Qisqasi, umrining har bir ko'chasiga kirib chiqdi, bu ko'chaning har birida uning peshonasiga faqat qora kun yozilganini ko'rdi. Lekin hammasidan ko'ra ko'proq Muhammadhasan amakining yuragini boshqa bir narsa siqardi. Mayli, o'tgan-ketgan ishlarning hammasi Xudoning taqdiri ekan, Ollohning nazaridan kanorda qoladigan narsaning o'zi yo'q. Uning yuragi shunga siqilardiki, bu eshak dardi qaydan ham kelib chiqdi o'zi, axir, shunisi aniqki, agar eshakka bir balo bo'ladigan bo'lsa, u Karbalo ziyoratidan qolib ketadi-ku. Buni qanday tushunish mumkin? Bu yo'l — muborak yo'l. Bu yo'l — Karbalo yo'li. Bu yo'l — muqaddas yo'l. Kimki shu matlabga tushsa, Karbaloga borishni niyat qilsa, Olloh taolo unga har jihatdan madad berishi lozim-ku. Modomiki endilikda uning eshagini bu yerga olib kelib yo'q qilgan ekanlar, nega endi Xudovandi olam o'z qudrati bilan bu ishlarni o'nglab yubormaydi, nega gunohkorlarga, g'alamislarga o'z jazosini yubormaydi? Aftidan, Muhammadhasan amakining ziyoratga borish-bormasligidan Ollohning hech parvosi yo'q, Olloh taoloning unga, ya'ni Muhammadhasan amakiga hech iltifoti yo'qqa o'xshaydi.

Bu kabi xayollar Muhammadhasan amakining yuragini siqqandan siqar edi. Xayol daryosiga ancha g'arq bo'lib o'tirgandan so'ng, balki Olloh taolo mening ziyoratga borishimdan zinhor rozi emasdir, ehtimol, shu sababli ham boshimga bunday savdolar tushayotgandir, degan fikrga keldi. Bu yerda Muhammadhasan amaki ikki soatlar chamasi ana shunday xayollarga g'arq bo'lib o'tirdi. So'ng yana "shukur" deya o'rnidan turdi. Xudoyorbekni toparmikanman degan o'yda bir soatcha shaharning u boshidan bu boshigacha kezib chiqdi. Oxiri nacharnikning devonxonasi tomon yo'l oldi. Muhammadhasan amaki nacharnik devonxonasiga Xudoyorbekdan yoki karvonsaroychidan shikoyat qilish uchun yo'l olmagan edi. Yo'q, bundan Xudo saqlasin. Muhammadhasan amaki bosiq odam edi.

Yomonliqqa, nizo-janjalga uning tobi yo‘q edi. Yana shunisi borki, hozirgi zamonda shikoyat qilishning o‘zi bir mushkul savdo. Chunki shikoyatchi shikoyatini puxta qila bilmog‘i lozim. Shikoyat esa guvoh bilan puxta bo‘ladi. Biroq Muhammadhasan amakining guvohi yo‘q edi. Shuning uchun guvohi yo‘q ediki, uning puli yo‘q edi. To‘g‘ri, Xudoyorbekning ham puli yo‘q edi. Gap shundaki, Xudoyorbekning qo‘lida yo‘g‘on kaltak bor edi. U bu kaltakni istagan paytida ko‘tarar, istagan paytida tushirar edi.

Donobosh qishlog‘ida bunday yo‘g‘onlikdagi zarang kaltakning mavqeyi pulning mavqeyidan kam emas. Hatto pulda yo‘q inon-ixtiyor ana shu kaltakda bor edi. Barcha ana shu sabablar uchun ham va tag‘in Muhammadhasan amaki faqir bo‘lganligi uchun ham hech qachon Xudoyorbekning ustidan shikoyat qilmasdi.

Muhammadhasan amaki devonxonaga kirib boraversin, nacharnik ham devonxonaning ayvoniga chiqib kelaversin. Nacharnik qo‘li bilan ishora qildi, Muhammadhasan amaki zinapoyadan chiqib nacharnikning oldiga bordi. Ayvonda uch-to‘rt sarboz saf tortgancha qotib turardi. Nacharnik ulardan birini yoniga chaqirib olib, Muhammadhasan amakiga yuzlanganicha ruschalab nimadir dedi. Yaqin kelgan sarboz, og‘a sening bu yerga kelishingning sababini so‘rayapti, deb tarjima qildi. Muhammadhasan amakining tili tanglayiga yopishib qoldi, avval nima deyishini bilmay turdi, so‘ng qizarib-bo‘zarib, tortina-tortina, qaltiray-qaltiray sarbozga yuzlandi:

— Og‘a, rosti, bilmadim, mening eshagimni Haydarxon ko‘prigiga tosh tashigani olib ketganlarmi yoki karvonsaroychi meni aldayaptimi, bu yerda emas, deydi.

Sarboz Muhammadhasan amakining gaplaridan hech narsani tushunmadi. Nacharnik sarbozga baqirib berib, yonidan quvib yubordi va boshqa bir sarbozga ruschalab ichkaridan tilmochni chaqirib chiqishni buyurdi. Shu orada uzun bo‘yli bir yigit ikki qo‘lini ikki yoniga siqqanicha nacharnikning oldiga yugurib keldi. Nacharnik unga ham nimadir dedi va tilmoch Muhammadhasan amakiga qarab:

— Xo‘sh, nima gaping bor? — dedi.

— Xudo haqi, og‘a, mening eshagimni yo Haydarxon ko‘prigiga olib ketganlarmi, yoki karvonsaroychi olib qolganmi? Bilmadim, nima uchun bermayapti. Ertaga zuvvor yo‘lga chiqadi. Men mahtal bo‘lib qoldim.

Bu suhbat juda uzoq cho‘zildi. Muhammadhasan amakining gapini na tilmoch tushuna oldi, na nacharnik. Tilmoch Muhammadhasan amakidan harchand voqeani mundoq ochiq-oydin tushuntirib berishini so‘rasa ham, ammo bundan hech ish chiqmadi. Muhammadhasan amakining nuqul aytgan gapi shu bo‘ldi: “Xudo haqi, og‘a, bilolmay qoldim, eshagimni Haydarxon ko‘prigiga olib ketganlarmi yoki karvonsaroychi olib qo‘yib, bermayaptimi?”

Nacharnik bu kishining xayoli joyida emas, shekilli, deb o‘yladi.

Oxiri noiloj qolib, uni devonxonadan quvib yubordi.

Muhammadhasan amaki o‘zini shu qadar yo‘qotib qo‘ygan ediki, u nacharnikka shikoyat qilib turgan ushbu daqiqalarda o‘zining ortida Xudoyorbek, Qosimali, Karbaloyi Sabzali va Karbaloyi G‘affor turganligini hatto payqamadi ham. Muhammadhasan amaki o‘rtadan chiqqan zahoti Xudoyorbek ilgari yurib, nacharnikka o‘zining Zaynab degan xotini unga itoat etmayotganidan shikoyat qildi. Tilmoch buni tarjima qilgach, nacharnik bunaqangi ishlar mening ixtiyorimda emas, borib qoziga shikoyat qil, deb javob berdi.

Xudoyorbek, Qosimali, har ikkala karbaloyi, ularning ortidan Muhammadhasan amaki tashqari chiqishdi. Muhammadhasan amaki Xudoyorbekka yuzlanib:

— Hoy Xudoyorbek, dardingni olay, axir, eshakni nima qilding? Axir ertaga zuvvor yo‘lga chiqadi-ku. Men mahtal bo‘lib qoldim, — dedi.

Xudoyorbek bunday deb javob qildi:

— Bo‘pti, Muhammadhasan amaki, sen bilan mening hisob-kitobimiz qishloqda bo‘ladi. Men sen bilan qishloqda gaplashaman. Hali qishloqqa boraylik. Mendan shikoyat qilgani kelibsan-da-a?

— Hoy Xudoyorbek, Qur'oni munzal haqi, sening otingni tilga ham olganim yo'q. Mening shikoyat qilish xayolim yo'q edi. Seni uchratib qolarmikanman deb devonxonaga kelgan edim, nacharnik meni ko'rib, chaqirib qoldi. Harchand qilsa ham, sening nomingni tilga olganim yo'q.

Xudoyorbek yana bir-ikki o'dag'aylab, Qosimali va har ikkala karbaloyi bilan qozinikiga yo'l olishdi. Muhammadhasan amaki ularga ergashib bir ikki odim yurdi, so'ng to'xtab, ularning ortidan tikilib qoldi. Ular muyulishdan burilib, ko'zdan yitdilar. Sho'rlik Muhammadhasan amaki yig'lab yubordi. Xudo haqi, yig'lab yubordi. Tag'in qanday yig'ladi deng? Xuddi bola kabi ho'ngrab yig'ladi.

Endilikda Muhammadhasan amakining shaharda qiladigan yumushi qolmagan edi, hamma ishini tugatgan, ko'ksiga sovuq suv sepib bo'lgan edi. Yana nima qilsin? Boshmoqlarini yechib qo'yniga tiqdi-da, "yo Olloh, o'zingga shukur", deya Donobosh qishlog'iga yo'l oldi.

Xudoyorbek hamrohlari bilan qozining huzuriga borib, o'zining Zaynab degan xotini unga itoat qilmayotganini, uning uyida o'tirmasdan chiqib ketib erining uyida o'tirganligidan shikoyat qildi. Hamrohlarini guvoh qilib ko'rsatdi.

Qozi kulganicha dedi:

— Xa-xa-xa... Bek, sening ishing juda qashang ish ekan. Xa... xa...xa.. Hali bu yerdan ketganingizga bir soat bo'lgani yo'g'-u, qanday qilib bunaqangi tez qishloqqa borib qayta qoldingiz? Xotining senga itoat etmayotganligini buncha tez bilib kela qolding? Xa...xa...xa... Juda qashang ekan sening ishlaring! Chindan ham juda o'jar ekan sening xotining. Juda yomon fe'li bor ekan. Xa... xa...xa... Yaxshi, juda yaxshi. Men uni endi shunday yumshatib qo'yayinki, bir gapingga o'n labbay deb tursin.

Shunday deya qozi to'shakchaning ostidan bir parcha qog'oz chiqarib, qalamni olgancha yoza boshladi.

"Ba xizmati glava jamoati Donobosh. Az qoziyi uyezdi "N".

Bino ba shikoyat numudan ahli garyeyi Donobosh Xudoyorbek Najafqulibek o'g'li ba qazovatxonayi "N" ki, zo'vjayi mankuhayi

man Zaynab binti Karbaloyi Zaynal az 16 mohi safar az xonayi man xorij shuda va maro tamkin nadoda; bino ba shikoyati shoki ba xizmati shumo tavaqqo‘ minumoyam ki, zo‘vjayi mazkurro ba ixtiyori mushorileyh doda ki, ba’d azin dar xonayiu mutamakkin shuda, az suxanu tajovuz nanumoyad.

Qoziyi uyezdi “N” hoji Mulla Safar Solib Sultonzoda”[1].

U qog‘ozni buklab paketga soldi va Xudoyorbekka uzatar ekan, dedi:

— Buni o‘z glavangizga eltib berasan. Xatda, falonchining xotini eriga itoat etmayapti va kelib uning uyiga o‘tirmayapti, uni itdek kaltaklab olib keling, deb yozdim.

VIII

Bugun safar oyining yettisi edi. Donobosh qishlog‘ida go‘yo qiyomat qo‘pgan edi. Bugun Donobosh qishlog‘ining zuvvori Karbalo ziyoratiga otlanmoqda edilar.

Erta tongdan chovushning[2] munojoti qishloqni ogoh etib, goh u mahallada yangrar edi, goh bu mahallada. U butun qishloqni aylanib chiqib, har bir ziyoratchining darvozasi oldida munojot o‘qib, ehsonini olib bo‘lgach, Choylox mahallasiga kirib keldi va avval Karbaloyi Zaynalobiddinning darvozasi oldiga borib navbatdagi munojotini boshlab yubordi. Hovlidan o‘n besh-o‘n olti yoshlardagi bir o‘spirin bir qo‘lida bir kosa qandob[3], ikkinchi qo‘lida bir juft paypoq ko‘tarib chiqdi. Chovush qandobni ichib, paypoqni ot ustidagi xurjunga soldi. Zaynalobiddinning darvozasidan yiroqlab,

---

[1] *Tarjimasi:* “Donobosh glavasi huzuriga. “N” uyezdi qozisidan. Donobosh qishlog‘ining ahli Xudoyor bek Najafqulibek o‘g‘li “N” qazovot xonasiga, mening nikohdagi xotinim Zaynab Karbaloyi Zaynal qizi safar oyining 16-sida mening uyimdan chiqib ketdi va menga itoat etmayapti, deb shikoyat qildi; shikoyatchining shikoyatiga asosan nomi yuqorida zikr etilgan shaxsning xotinini uning ixtiyoriga qaytarishingizni, bundan keyin uyida o‘tirishini va uning gapidan chiqmasligini tavaqqu qilaman.

“N” uyezdining qozisi Hoji Mulla Safar Solib Sultonzoda”. *(Muallif tarjimasi.)*

[2] **Chovush** — xabarchi *(tarj.)*.

[3] **Qandob** — shirin suv *(tarj.)*.

Muhammadhasan amakining darvozasi oldiga kelib munojotini boshlab yubordi.

Chovush hali munojotini tugatmagan ham ediki, hovlidan sho'rlik Muhammadhasan amaki ko'z yoshlarini oqizganicha chiqib keldi va ho'ng-ho'ng yig'laganicha o'zini otning oyoqlari ostiga tashladi. Ot ham yuvosh ot ekan, qilt etmay turaverdi. Muhammadhasan amaki birpas otning tuyoqlaridan o'pib turdi-da, so'ng oyoqqa qalqib, o'ng qo'lini qo'ltiq cho'ntagiga tiqdi, u yerdan bir qog'oz chiqarib, chovushga uzatdi. Chovush taajjublanib so'radi:

— Karbaloyi, bu nima?

Bo'g'ziga tiqilib kelgan yig'i Muhammadhasan amakining javob qilishiga imkon bermadi. Shu payt hovlidan Muhammadhasan amakining xotini — boshida chodirshab — va o'g'li Ahmad — har ikkalasi yig'laganicha chovushning yoniga keldilar.

Muhammadhasan amaki qog'ozni chovushga topshirgach, tag'in otning oyoqlarini quchib o'pa ketdi. Chovush qattiq hayratga tushib, Muhammadhasan amakining xotiniga yuzlanib so'radi:

— Opa, nima gap? Karbaloyining ehsoni qani?

Izzat yig'laganicha javob qildi:

— Ukajonim, Muhammadhasan amakining peshonasiga Karbaloyi bo'lish yozilmagan ekan. Iloyo, unga qilgan o'z bolasidan topsin!

Muhammadhasan amaki o'rnidan turib tutila-tutila dedi:

— Olib bor, inim, olib bor... Bu arizani olib bor... Hazrat Abbosga olib bor... Olib bor... Men bora olmadim... Bora olmadim. Qo'ymadilar. Meni qo'ymadilar... Mening eshagimni o'g'irladilar. Yedilar. Sotdilar. Olib bor arizani, olib bor. Men bora olmadim...

Izzat Muhammadhasan amakining so'zini kesib, yig'lay-yig'lay gapira ketdi:

— Chovush, u arizani hazrat Abbosga olib borgin. Mening erimni bu yo'ldan benasib etganga hazrat Abbosning o'zi g'anim bo'lsin. Imomning o'zi unga g'anim bo'lsin...

Chovush qo'ltiq cho'ntagidan bir dasta qog'oz chiqarib, Muhammadhasan amakining arizasini ham ular orasiga qo'shib qo'ydi, otning boshini burar ekan, mehribonlik bilan dedi:

— Amaki, opa, yuragingizni siqmang:

Dar daf'i xadangi sitami gardishi gardun
Behtar zi kifoyati ilohi sipari nist[1].

Hech g'am yemang, na iloj, bu yil bo'lmasa, inshooloh, Olloh salomatlikni bersa, ajaldan omon saqlasa, inshooloh, keyingi yil borasiz. Hech g'ussa chekmang. Albatta, sizni bu muborak yo'ldan, bu savob yo'ldan qoldirganga Olloh taolo o'z g'azabini ko'rsatadi. Ha-ha, ko'rsatadi. G'azab qilmasligi mumkin emas. Nega ham ko'rsatmasin? Bularning hammasi hazilmi, axir? Buni Karbalo yo'li deydilar. Yo'q-yo'q, zinhor yuragingizni siqmang. Inshaalloh, arizangizni ham yetkazaman. Inshaalloh, darajayi qabulga ham erishadi.

Chovush otiga bir qamchi urib, tag'in munojotini boshlab yubordi, Muhammadhasan amaki va xotini birpas turgach, yig'lay-yig'lay hovliga kirib ketishdi.

Peshin payti edi. Karbaloyilarning barchasi "imomzoda"ni ziyorat qilib chiqish uchun qishloq chekkasidagi qabriston yoniga, katta maydonga yig'ilganlaricha, dasta-dasta bo'lib saf tortib turar edilar. Bu yerga juda ko'p kishi to'plangan, ayol erkakka, erkak ayolga qorishib ketgan edi. Kim piyoda, kim ot mingan. Birov yig'lar, birov kular edi. Yig'laganlarning aksariyati ayollar edi, chunki ularning yuragi nozik bo'ladi. Birovning akasi yo ukasi ketayotgan edi, birovning o'g'li, birovning eri.

Otlarning kishnashi, eshaklarning hangrashi, ayol va bola-baqralarning uvvos solib yig'lashi bir-biriga qorishib arshga yuksalar edi.

Karbaloyilar imomzoda ziyoratini yakunlab, maydonga yig'ildilar, qarindosh-urug' bilan quchoqlashib, o'pishib, yig'lashib xayrlashdilar va otlariga minib, safarga tayyor holda turdilar. Chovush maydonga chiqib, yo'lga tushish ma'nosidagi oxirgi munojotini boshladi. Shu payt ikki ayol chovush tomon yura boshladi. Ikkisi ham oyoq yalang, ikkalasi ham chodra yopingan edi. Ular-

[1] *Tarjimasi:* Falakning zulm o'qini daf etmak uchun Ollohning irodasidan yaxshi qalqon (vosita) yo'q. *(Muallif izohi).*

dan biri baland bo'yli, ikkinchisi pakanaroq edi. Har ikkisi ham yig'lamoqda edi. Ular chovushning yoniga yetib borib, har biri o'z chodrasining ostidan bir buklog'liq qog'oz chiqarib, unga uzatishdi. Chovush munojotdan to'xtab, egilib qog'ozlarni oldi. Bu qanaqa qog'oz, so'radi u. Ayollarning har ikkalasi ham, bu hazrat Abbosga ariza, deb javob berishdi.

Chovush qo'ltiq kissasidan bir dasta qog'oz chiqazib, ayollarning arizasini ham ular ichiga qo'shib qo'ydi-da, qog'ozlarni yana qo'ltiq kissasiga solib, munojotini davom ettirdi.

Bu ayollarning ikkalasini ham biz taniymiz. Baland bo'yli ayol Zaynab, narigisi Xudoyorbekning xotini edi. Ya'ni shariat bo'yicha olsak, ikkalasi ham Xudoyorbekning xotini, biri eski xotini edi, ikkinchisi esa yangi xotini.

Karbaloyilar Qiroxdin yo'liga tushdilar, jamoat esa asta-sekin to'p-to'p yoki yakka-yakka bo'lib qishloqqa qayta boshladi.

Zaynab yig'lay-yig'lay uyiga keldi va qizlarini chaqirib, har ikkisini o'z og'ushiga oldi. Chunki o'zi hamon yig'idan tingani yo'q, qizlar ham onalariga boqib yig'lamoqda edilar. Bir yig'lab, bir ko'z yoshlarini artayotgan, onasiga o'qtin-o'qtin qarab qo'yayotgan Fizza oxiri so'rab qoldi:

— Onajon, nega yig'layapsiz, axir?

Zaynab javob bermadi. Faqat chodirshabining uchiga ko'z yoshlarini artib, shaytonga la'nat o'qidi. Fizza yana qayta so'radi, Zaynab ilojsiz qolib, oxiri javob qildi:

— Hech gap yo'q, qizim. Shunchaki, otang yodimga tushib ketdi, shunga yig'ladim.

Fizza Zaynabning gaplariga ishonmay, yana so'radi. Bu gal Zaynab rostini aytdi, yig'lay-yig'lay to'g'risini aytdi:

— Qizim, nega yig'lamay, axir? Meni zo'rlab erga bermoqchi bo'lyaptilar. Ertalab akang meni qanday do'pposlaganini ko'rdingku. U zo'rlik bilan bo'lsa ham Xudoyorbeknikiga borasan, deydi. Men yig'lamay, kim yig'lasin, qizim! Fizza birpas o'ylanib turib dedi:

— Bo'pti-da, onajon, borsangiz nima qipti? Boravering-da! Nega bormoqchi emassiz?! Erga tegish yomon narsami?

— Bolam, men qaysi yuz bilan erga tegaman? Mening yoshimdagi xotinlar erga tegmaydilar. Erga qizlar tegadilar. Men qaysi yuz bilan erga tegaman?

— Unda ayting-chi, ona, Zahro bibim sizdan ham katta xotin edi, u nega erga tegdi?

Zaynab Fizzaning bu savoliga hech bir javob topolmay qoldi. Shu payt uyga olti kishi kirib keldi. Ulardan to'rti bizning tanishlarimiz edi: Qosimali, Sabzali, Karbaloyi G'affor va Valiquli. Ammo qolgan ikkitasini biz tanimaymiz. Ulardan biri qirq besh-ellik yoshlardagi qizil soqolli, qora papoqli kishi edi. Bu Donobosh qishlog'ining glavasi Karbaloyi Ismoil bo'ladi. Ulardan ikkinchisi ham taxminan shu yoshlardagi qora papoq, bo'z kamzul, oq ishton kiyib olgan qora soqolli bir kishi edi. Bu Donobosh qishlog'ining prixod mullasi[1] Mulla Muhammadquli bo'ladi.

Ularni ko'rgan zahoti Zaynab dahol o'zini chetga olib, bir burchakka borib o'tirdi. Qizlar ham borib onalarining og'ushiga suqilgancha mehmonlarga taajjub bilan tikilib turdilar. Mehmonlar saf chekib o'tirishdi. Mulla to'rda, uning o'ng tomonida Karbaloyi Ismoil, so'l tomonida Karbaloyi G'affor. Karbaloyi Sabzali, Valiquli va Qosimali devorga suyangancha tik oyoqda turardilar. Mulla Muhammadquli, Karbaloyi Ismoil va Karbaloyi Sabzali chubuqlarini chiqarib tamaki to'ldira boshladilar. Mulla chubug'iga o't tutashtirib, Zaynab tomon yuzlandi:

— Singlim, bilasanmi nima gap? Bilasanmi bizning nima maqsadda kelganimizni?

Zaynab javob bermadi. Mulla Muhammadquli davom etdi:

— Biz bu yerga senga nasihat qilgani keldik...

Zaynab darhol uning gapini kesdi:

— Otangizga rahmat. Siz agar nasihat qilmoqchi bo'lsangiz, anavi serrayib turganga nasihat qiling, meni ranjitmasin. Bugun meni o'lguday do'pposladi. Hozirgacha qovurg'alarim zirqirab og'riyapti.

Mulla so'zida davom etdi:

— Bo'pti, singlim, axir o'zing nega ishni shu darajaga olib borasanki, o'g'ling senga qo'l ko'tarsin?

[1] **Prixodmulla** — mahalla mullasi *(tarj.)*.

— Nega endi, men nima qilibman?

— Sen shariatdan chiqib ketyapsan.

— Shariatdan chiqqanga Ollohning la'nati yog'ilsin!..

— La'nat, la'nat!

— Men qanaqasiga shariatdan chiqibman?

Mulla javob qildi:

— Sen shu sababdan shariatdan chiqyapsanki, shariatning umuriga[1] mumoniat[2] keltiryapsan. Sharoiti mankuhaga[3] amal qilishni xohlamayapsan. Zaynab javob bermadi, chunki u mulla nima deganini mutlaqo tushunmadi. Mulla davom etdi:

— Sen endi Xudoyorbekning zavjayi halоli ekaningdan mafhum emassan[4], shekilli. Magar bu savdo sening hush-go'shingga tablig' bo'lmadimi?

Zaynab dedi:

— Ya'ni meni Xudoyorbekning xotini, demoqchisiz-da? Xo'sh, men Xudoyorbekka tegish roziligini kimga beribmanki, men uning xotini bo'lsam?

Qosimali jahd bilan ko'kragini mushtlab dedi:

— Mana menga bergansan. Mana shu kishilarning yonida sen meni vakil qilmaganmiding? Vakil qilgan eding. Shunday katta narsadan tonib bo'ladimi?

Zaynab bir oh chekib, dedi:

— Bo'pti, nima ham derdim, siz aytgancha bo'la qolsin.

Mulla so'z oldi:

— Juda yaxshi. Hozir sen mening yonimda Qosimalini o'zingga vakil qilganingga iqror bo'lding. Xo'sh, yana nima gaping bor?! Nima sababdan o'z xohishing bilan borib eringning uyida o'tirmaysan? Seni zo'ravonlik bilan olib borish kerakmi? Badnom qilib olib borish kerakmi? Rasvo qilib olib borish kerakmi?

Glava chubug'ining kulini yerga bo'shatib, qayta tamaki to'ldirar ekan, Zaynabga qarab g'azab bilan o'shqirdi:

---

[1] **Umur** — amrlar *(muall.)*.

[2] **Mumoniat** — monelik *(muall.)*.

[3] **Sharoitimankuha** — nikoh shartlari *(muall.)*.

[4] **Mafhumemassan** — xabardor emassan, bilmaysan *(muall.)*.

— Menga qara, hoy xotin, ko‘zingni ochib mening ko‘zimga qara. Kecha qozi menga qog‘oz yozib jo‘natibdi. Xudoyorbek unga, xotinim Zaynab mening uyimni qo‘yib, o‘z uyida o‘tiribdi, menga itoat etmayapti, deb shikoyat qilibdi. Qozi menga qog‘oz jo‘natibdi. Agar sen o‘z xohishing bilan borib eringning uyida o‘tirmasang, seni itning o‘ligi kabi sudratib eltaman! Shuni yaxshi bil, esingni yig‘ib ol!

Zaynab hech narsa demadi. Ammo qizlarning har ikkisi yig‘lashga tushdi. Navbat mullaga tegdi. Mulla Zaynabga yuzlanib, nasihat qila boshladi:

— Bundoq emas-da, singlim, bu ish Xudoga ham xush kelmaydi. Sen behudaga o‘zingni qiynab o‘tiribsan, bolalaringning ham yuragini siqyapsan. Bunaqa bo‘lmaydi-da endi. Aql-u hushingni yig‘ib olgin-da, jimgina narsalaringni yig‘ishtirib, eringning uyiga borib o‘tir. Endilikda hamma ish hal bo‘lgan. Endilikda sen Xudoyorbekning zavjasisan. Bu borada o‘jarlik qilishga hech bir ixtiyoring yo‘q. Agar shariatga amal qilaman desang, mening aytganimga ko‘n. Agar menga e’tiqoding bo‘lsa, gapimga ishon. E’tiqoding bo‘lmasa, ishonma. O‘zing bilasan. Agar seni sudrab olib borishlarini istasang, shunday qila qolsinlar, mening boshqa gapim yo‘q.

Shunday deya Mulla Muhammadquli chubug‘ini tamakixaltaga tiqib, to‘ldirib chiqardi va Karbaloyi Ismoil tomon bir g‘arov uzatib, uni yondirib oldi-da, chubug‘iga o‘t tutashtirib, nasihatini davom etdi:

— Yo‘q, singlim, es-hushingni yig‘ib ol. O‘zing ham ko‘rib turibsanki, hamma ish bitib bo‘lgan. Sen endi Xudoyorbekning xotinisan. Shariat hech qachon ayol kishi o‘z uyida o‘tirib, eriga itoat etmasligiga izn bermaydi. Mayli, sen bormaydigan bo‘lsang, men ham nacharnikka, falon kishining xotini qarshilik ko‘rsatib, sharoiti zavjiyaga[1] amal qilmayapti, deb yozib yuboraman. Unda nima bo‘lishini bilasanmi? Unda nacharnik xatni pristavga jo‘natadi, seni nacharnikka javob berishing uchun qo‘l-oyog‘ingni bog‘lab shaharga jo‘natadilar. Ishni seni sharmanda qilib shaharga olib

[1] **Sharoiti zavjiya** — uylanish shartlari *(muall.)*.

ketish darajasiga yetkazmagin-da endi, buni do'st ko'rib qayg'ursa, dushman ko'rib xursand bo'ladi.

Gapni glava ilib ketdi:

— Yana nima deysan, bizni mahtal qilma. Boradigan bo'lsang, o'z xohishing bilan bor; bormayman desang, men ham bilganimni qilaman. Xudo haqi, ko'zingni ochib, ko'zimga qara. Keyin pushaymon bo'lib yurma.

Zaynab hech narsa demay, ilgarigidek oyoq ustida turaverdi. Sukut alomati rizo, degan gap bor. O'tirganlar ham shu fikrga borib, ketish uchun o'rinlaridan turishdi.

Avval Karbaloyi Ismoil o'rnidan turib, qamchisini Zaynabga qarata silkitganicha dag'dag'a qildi:

— Menga qara, hoy xotin, biz ketyapmiz. Senga oqshomgacha muhlat beraman. Oqshom sendan yo ha, yo yo'q javobini olish uchun Qosimalini jo'nataman. Yaratgan nomiga ont ichib aytamanki, agar noz-firoq qiladigan bo'lsang, men seni bu qishloqda bosh ko'tarib yurishingga qo'ymayman. Oxiri hech chorasi qolmasa, falon ayol eridan arazlab, yomon yo'lga kirib ketdi, deb nacharnikka yozib yuboraman. Xudo haqi, shunday deb yozaman!

Valiqulidan boshqa hammasi chiqib ketishdi. Valiquli shahodat barmog'ini onasiga o'qtalib dedi:

— Menga qarang, hoy ona, shuni aytib qo'yayki, agar Qosimaliga siz yo'q deb javob bersangiz, men bugunoq bu uydan chiqib ketib, borib qaynatamnikida yashayman. Bir oydan keyin o'z to'yimni o'tkazaman va sizni ona deb og'zimga olmayman. Bor gap shu. Hozircha xayr.

Valiquli ham chiqib ketdi.

Zaynab boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Hammasi bir tomon bo'ldi, Valiqulining achchiq qilib uyga kelmay qo'ygani bir tomon. Sho'rlik ayol endi nima qilsin? Erkaksiz uy uy bo'ladimi? Tag'in shunaqangi bir viloyatda. Xullas, bu musibat juda og'ir musibat edi.

Zaynab uyning burchagida tik turaverib toliqib ketdi. Oyoqlari lo'q-lo'q og'rir edi. Erkaklar chiqib ketgandan so'ng sekin o'tirdi-da, qizlarini o'z og'ushiga oldi. Bechora bolalar yig'layverib

bo‘g‘riqib ketgan edilar. Qizlarning ikkalasi ham Zaynabning og‘ushida shirin uyquga ketishdi. Zaynab anchagacha yig‘lab turdi-da, boshini devorga tirab xayolga cho‘mdi.

Men Zaynabning hozirgi ahvolini, uning o‘y-fikrlarini, g‘am-g‘ussasini, yurak dardlarini sizga bayon etmoq istayman, biroq siz ham yig‘lab yubormasangiz deb qo‘rqaman. Lekin na iloj, men o‘z burchimni bajarishim lozim.

Zaynab hozir go‘yo ikki devor orasida qolgan, u yondan u devor siqib kelardi, bu yondan bu devor. Bu ikki devor orasidan u bir amallab, bir chorasini topib qochib chiqishni istar, ammo buning imkoni yo‘q edi. Bu devorlardan biri Xudoyorbeknikiga borish, biri o‘z uyida qolish edi.

Xudoyorbeknikiga borish fikri Zaynabni shuning uchun ham devor kabi siqardiki, u Xudoyorbekdan qurbaqadan jirkangan kabi jirkanardi. Qurbaqani ushlab olib o‘z qo‘yniga solish kishi uchun naqadar yoqimsiz bo‘lsa, Zaynabga ham Xudoyorbekning shalpang burniga va badbashara turqiga qarash, uni er deb atash shu qadar, balki bundan ming chandon ortiqroq yoqimsiz va jirkanch tuyulardi.

Xudoyorbeknikiga bormasdan o‘z uyida qolish fikri Zaynabni shuning uchun ham devor kabi siqmoqda ediki, Zaynab uchun, gapning rosti, juda katta xatar paydo bo‘lgan edi. Bu taloto‘plarning, bu azob-aziyatning, bu rasvogarchilikning, bu do‘q-dag‘dag‘aning, qozi, nacharnik, mulla, glava, guvohlar, jamoat va Valiqulining qarshisida tob berish, ular bilan shoxlashish uchun katta jasorat kerak edi! Bunday jasorat nainki Zaynabning, balki o‘tgan yetti pushtining ham fe’lida yo‘q edi.

Xo‘sh, insofan aytganda, sho‘rlik Zaynab endi nima qilsin? Bir tomondan, Valiquli uni tashlab ketyapti. Endi ekin-tikin nima bo‘ladi? Mol-hol nima bo‘ladi? Hovli-joy, yer, oldi-sotdi nima bo‘ladi? Ikkinchi tomondan, shaharga borib, sharmanda bo‘lgancha nacharnik oldida javob berish qayg‘usi.

Yo‘q, glava Zaynabni shaharga sirayam jo‘natmasa kerak. Hozircha qozi unga talabnoma jo‘natgan. Endilikda Qosimalining Zaynabni o‘z ortiga solib, Xudoyorbekning uyiga olib borib tashlashga bemalol haqi bor. Glava ham, shubhasiz, shun-

day qiladi. Chunki, avvalo, bu ish uning burchi hisoblanadi. Ikkinchidan, bizga ma'lumki, glava Xudoyorbekning onasini siyg'a qilib olgan. Demak, Xudoyorbek uning o'gay o'g'li bo'ladi. Shuning uchun ham glava bu ishga qattiq kirishgan. Har qanday yo'l bilan bo'lsa ham buni oxiriga yetkazadi. Zaynab unaqangi aqli kalta ayollardan emas, bularning hammasini juda yaxshi anglab turibdi.

Zaynab ikki soatlar chamasi ana shunday xayollar bilan mashg'ul ediki, birdan eshik ochilib, Qosimali kirib keldi.

— Xo'sh, endi nima deysan, opa? Gapingni ayt. Men hozir glavaga borib nima javob beray? Rozimisan yoki yo'q?

Zaynabning hozirgi ahvoli zahar shishasini o'z oldiga qo'yganicha, ichsammikan yoki yo'q, deya ikkilanib turgan kishining ahvoliga o'xshardi. Ichmasa, dard, g'am-g'ussa, alam o'ldiradi uni, ichsa — zahar. "Bas, ichganim yaxshi", — deya oxiri ichib yuboradi.

Zaynabning rozilik berishi zahar ichish bilan teng edi. Qosimali savolini yana bir bor takrorlar ekan, Zaynab bor-yo'q kuchini yig'ib, yuzlarini burishtirib javob berdi:

— Roziman.

XOTIMA

Bu voqeadan so'ng oradan uch yil o'tib, to'rtinchi yil boshlangan edi. Qish fasli bo'lib, kichik chillaning chiqishiga o'n kun qolgan edi. Peshin mahali edi. Havo yoqimli, garchi biroz izg'irin bo'lsa-da, oftobning tafti sezila boshlagan edi. Havolar ancha yumshab qolgani uchun qishloq ahli devorlar tagida tizilib, yonboshlab olgancha suhbatga mashg'ul edilar. Jumladan, Muhammadhasan amakining darvozaxonasidagi devor ostida ham uch-to'rt kishi yig'ilib olib suhbatlashib o'tirardi. Shu payt ko'chadan bir begona qishloqlik kishi oldiga besh-o'nta yuk ortilgan eshakni haydab o'ta boshladi. Eshaklar tobora yaqinlashib, bu o'tirgan suhbatdoshlar yonidan o'ta boshlagan ham ediki, o'tirganlar orasidan bir qariya irg'ib turib, eshak to'dasiga o'zini urdi, bir kulrang eshakning

boshidan tutib, uning u yoq-bu yog'iga sin solib qaray boshladi. Eshaklarning egasi, bu qariya eshak sotib olmoqchi, shekilli, degan o'yda oldinga qarab yugurdi-da, boshqa eshaklarni "xix-xix" degancha qaytarib, yo'l o'rtasiga to'pladi va kulrang eshak yoniga keldi. Qariya hamon bu eshakning goh oldiga, goh orqasiga o'tar, kallasiga, oyoqlariga, dumiga razm solib qarmoqda edi.

Egasi eshakni ta'riflay ketdi:

— Xudo haqi, ont ichib aytamanki, bunaqangi eshak topilmaydi. Bundan zo'r eshak yo'q. Qarang, ustida qancha yuki bor! Yetti pud yuk ortilgan. Agar olar bo'lsangiz, sizga arzonga beraman.

Qariya yana eshakning jag'larini yirib, tishiga rosa sin solgandan so'ng boshini burib, eshak egasiga yuzlandi:

— Og'ayni, sen bu eshakni kimdan olgansan?

— Amaki, kimdan olganim bilan nima ishingiz bor? Agar olmoqchi bo'lsangiz, oling, olmasangiz, meni ovora qilmang, keta qolay.

Qariyaning suhbatdoshlari ham nimanidir sezgandek bo'lib, eshakka yaqin keldilar.

Qariya ulardan biriga qarata dedi:

— Mashadi O'ruj jiyanim, sen ham kelib bu eshakka bir qara. Bu eshak menga biroz shubhali ko'rinyapti.

Eshak egasining o'zi ham nimanidir sezdi, shekilli, qariyaning bu gapini eshitib, eshakni darhol haydab ketish uchun uning ketiga bir-ikki cho'p tushirdi. Ammo qariya eshakni qo'yib yubormadi. Mashadi O'ruj ham xuddi qariya kabi eshakni boshdan oyoq ko'zdan kechirib chiqqach, qariyaga yuzlandi:

— Muhammadhasan amaki, sizning shubhangiz nimadan ekanini sezib turibman. Siz bu eshakni o'z eshagingizga o'xshatyapsiz.

Eshak egasi yana eshakning ketiga bir-ikki cho'p tushirib uni haydab ketmoqchi bo'lgan edi, Muhammadhasan amaki va Mashadi O'ruj bunga yo'l qo'ymadilar. Boshqalar ham eshakni qurshab olib, u tomon-bu tomoniga boqa boshladilar. Muhammadhasan amaki yana eshak egasiga yuzlanib so'radi:

— Og'ayni, o'n ikki imom haqi, rostini ayt, bu eshakni kimdan olgansan?

— Amaki, Xudo haqi, ont ichib aytamanki, men bu eshakni rosa besh yil avval bir qorabog'likdan o'n bir manatga sotib olganman.

Hash-pash demay eshakning boshiga elliktacha odam yig'ildi. Yig'ilganlarning har biri, kimki Muhammadhasan amakining eshagini tanisa, bu eshak aniq Muhammadhasan amakining eshagi ekanini tasdiqladi. Muhammadhasan amaki eshak egasining yoqasidan yopishib, odamlar orasidan chetga olib chiqdi va glavaning huzuriga eltish uchun sudray boshladi. Glava hamon o'sha Karbaloyi Ismoil edi.

Muhammadhasan amaki eshak egasining belbog'idan mahkam tutgancha siltab-siltab torta boshladi. Shu payt Xudoyorbek, boshida mo'yna papoq, egnida movut chakmon, oq ishton, qo'lida zarang kaltak, muyulishda paydo bo'ldi va jamoatni ko'rib, ularning yoniga keldi. Muhammadhasan amaki voqeani tushuntirib, shikoyatini bayon etgach, Xudoyorbek odamlar orasidan o'tib eshakka yaqin bordi, diqqat bilan u yon–bu yonini ko'rib chiqdi va eshakni tanidi.

— Ha, bu Muhammadhasan amakining eshagi, — so'ng eshak egasini so'roqqa tutdi:

— Ayt-chi, sen bu eshakni qayerdan olgansan?

Eshak egasi Xudoyorbekka ham Muhammadhasan amakiga bergan javobini qaytardi. Lekin baraka topkur Xudoyorbek kaltagini bosh uzra ko'tarib qoldi. Na iloj, o'zing pishirgan osh: aylanib ham ichasan, o'rgilib ham ichasan. Eshak egasining boshiga kaltak yog'ila ketdi: bir, ikki, uch... Sho'rlik eshak egasi Xudoyorbekning oyoqlariga yiqilib, eshakni ola qoling, lekin meni urmang, deb yolvorishga tushmaguncha Xudoyorbek uni savalayverdi.

Shunday qilib, eshak topildi.

Xudoyorbek Qosimaliga, eshakning egasini qishloq chegarasidan chiqarib yubor deb, eshakning egasiga esa qat'iy qilib, ikkinchi bu yerlarda qorang ko'rinmasin, deb buyurdi.

Muhammadhasan amaki Xudoyorbekni duo qila-qila eshakni haydab ketib, tablaga eltib soldi. Ammo taajjublisi shundaki,

hozirgacha Muhammadhasan amakining o'g'li Ahmad ko'zga tashlanmaydi. Hozirgacha bu yerda shuncha xaloyiq yig'ilib olib shovqin-suron solayotgan bo'lsa ham, na Ahmad chiqib keldi va na Muhammadhasan amakining xotini, bu qanday to'polon bo'ldi ekan, deya darvozadan bosh chiqarib qaramadi.

Ahmad ham vafot etgan, Muhammadhasan amakining xotini ham. Ahmad bultur bo'g'madan o'ldi. Onasi ikki oy uning g'amida o'rtanib, oxiri bir dardga duchor bo'ldi va shu ko'yda dunyodan o'tdi. Ammo Muhammadhasan amaki hozirgacha, Ahmadni ham, xotinimni ham eshakning dardi o'ldirdi, deb qasam ichadi.

Xullas, eshak topildi.

Eshakni Muhammadhasan amakiga topshirgan Xudoyorbek odamlar orasidan chiqib, tor ko'chadan yurib borib, hashamatli darvozadan kattakon hovliga kirdi. Hovlining so'l tomonida Valiquli, egnida juldur bo'z kamzul, boshida eski bo'z papoq, go'ng kuramoqda edi. Xudoyorbek Valiqulining yonidan to'g'ri o'tib, o'ng tomondagi supa oldida turganicha qichqirdi:

— Hoy qiz, Zebo, oftobani olib kel menga!

Eshik ochildi. Uydan yetti-sakkiz yoshlardagi xushro'ygina qizcha oftoba ko'tarib chiqib, uni Xudoyorbekning yoniga qo'ydi-da, dir-dir titraganicha qaytib ketdi. Xudoyorbek tahorat qila boshladi.

Bu qizni biz taniymiz. Bu qiz Zaynabning qizi Zebo bo'ladi. Zeboning ust-boshiga boqqan zahoti uning yetimligi ayon bo'ladi. Avvalo shuki, kiyim-kechaklari eskirib ketganligidan tashqari, ular birovning eskisiga o'xshaydi. Rangi uniqib ketgan qizil chit tizligi Zeboning tovonigacha tushib turibdi. Agar o'ziniki bo'lganida kaltaroq bo'lishi kerak edi. Eski qora laskird kamzuli ham shalvirab turishiga ko'ra birovning kamzuliga o'xshaydi. Boshida eski qora shol ro'mol, oyoqlarida erkakcha katta boshmoq.

Xudoyorbek tahoratini olib bo'lib, ichkari kirdi.

Xudoyorbek kirgan xona oqlangan torgina bir xona edi. To'rga kursi qo'yilgan. Kursining ustida kattakon bejirim ko'rpa,

ko‘rpaning ustida bejirim so‘zana. Xonaga ikkita kichkina derazadan yorug‘lik tushib turibdi. Derazalar yangiga o‘xshaydi. Qolgan uch devorning har birida ikkitadan tokcha; tokchalarga qutichalar, mis va chinni idish-tovoqlar, bo‘xchalar terib qo‘yilgan. Bir tokchadan qalyon joy olgan. So‘l tomondagi devorga ikki-uchta mis patnis suyab qo‘yilgan. Yerga uch-to‘rtta palos va qishloqcha dag‘al gilam to‘shalgan. Bir kursining ustida talinka, talinkaning ustida samovar. Samovar endigina damga qo‘yilgan. Xullasi kalom, bu uy qishloq sharoitida juda hashamdor hisoblanadi.

Xudoyorbek xonaga kirganda to‘rdagi kursida yoshgina bir ayol o‘tirar edi. Bu nari borsa o‘n to‘rt-o‘n besh yoshlarda, shundan ortiq emas edi. Bu ayolning go‘zalligi va ayni paytda chirkinligiga gap yo‘q edi. Gap shundaki, bu ayol ushbu ko‘rinishida yuziga shu qadar ko‘p upa-elik qo‘ygan, ko‘zlariga shu qadar surma chaplab tashlagan ediki, asl basharasi bu bo‘yoqlar ichida yo‘qolib ketgan edi. Xullas, bu ayol qishloqqa xos bezanib olgan edi.

Xudoyorbek kursining to‘riga o‘tib o‘tirdi. Yosh ayol oldidagi kursiga ikkita stakan qo‘yib, ularni yuvib-artish bilan mashg‘ul edi.

Eshikning poygagida, o‘ng tomonida Zebo tik oyoqda turardi. Uning og‘ushida yo‘rgakka o‘ralgan qiz chaqaloq bor edi. Chaqaloq big‘illab yig‘lamoqda edi. Zebo uni ovutish uchun lo‘k-lo‘k sakrar, o‘z-o‘zicha “hi-hi”, “hi-hi” qilib chaqaloqni ovutmoqchi bo‘lardi.

Yosh ayol bir stakan choy suzib Xudoyorbekning oldiga, bir stakanni o‘z oldiga qo‘ydi; so‘ng Zeboni chaqirib, undan chaqaloqni olib ko‘krak tutdi. Chaqaloq ovundi. Zebo bir chetga borib, qo‘llarini ikki yonga tushirgancha devorga suyandi.

Xudoyorbek stakanni oldiga qo‘yib, orqasini devordagi bolishga suyaganicha Zeboga yuzlandi:

— Hoy qiz, onang tag‘in yig‘layaptimi?

— Ha, onam hadeb yig‘layapti. Yig‘layverib ko‘r bo‘lib qoldi.

Xudoyorbek qattiq qahqaha urib yubordi:

— Xa...xa...xa... Nega yig‘laydi? Eri Karbaloyi Haydar yodiga tushibdimi?

Qiz:

— Yo‘q, dadajonim uchun emas, siz uchun yig‘layapti, — dedi.

— Xa...xa...xa. Meni shunchalik yaxshi ko‘radimi?

— Yo‘q, yaxshi ko‘rganidan yig‘lamayapti. Mening javobimni bersin, deyapti.

Qiz bu gapni aytgan zahoti Xudoyorbekni ilon chaqqandek bo‘ldi. U shaxt bilan o‘rnidan turib, Zebo tomon otildi. Qiz uydan qochib chiqayotganida ostonaga qoqilib ketdi-da, yerga yuztuban yiqildi. Xudoyorbek Zeboga yetib olib, yuz-ko‘zi aralash bir-ikki musht tushirdi; qarasa, qizning burnidan qon oqyapti. Hovlidan Valiqulini chaqirib, singlingni olib ket uyingga, dedi, o‘zi ham hansiraganicha, rang-ro‘yi o‘chib, joyiga kelib o‘tirdi.

Yosh ayol o‘tirgan yerida hammasini tomosha qilib turar edi. Valiquli Zeboning qo‘liga yopishdi. Va har ikkilasi uylari tomon yo‘l olishdi.

Xudoyorbek bu so‘zni eshitib quyushqondan chiqib ketdi; Xudoyorbek ushbu daqiqada shuning uchun ham quyushqondan chiqqan ediki, Zebo unga:

— Onam, mening javobimni bersin, deyapti, — degan edi.

Voqeani batafsil hikoya qilishga to‘g‘ri keladi.

* * *

Zaynab Xudoyorbekning uyida olti yarim oy qolib ketdi. Va bu olti yarim oy ichida Zaynabning ona suti og‘zidan keldi. Zaynabni ranjitishdan Xudoyorbekning faqat bir maqsadi bor edi. Uning maqsadi Zaynabning va sag‘irlarning bor-yo‘g‘iga, puliga, mol-mulkiga ega bo‘lib olib, Zaynabni ko‘chaga haydash edi. Zaynab buni ancha avval anglab yetgan edi. Lekin Xudoyorbek ham uni har qancha ranjitmasin, urib-so‘kib, qoniga tashna etmasin, Zaynab har qanday azob-aziyatga chidab kelar, Xudoyorbekning taklifiga zinhor rozilik bermasdi.

Oxiri ish shunga yetib bordiki, Xudoyorbek Zaynabni yumshab qolarmikan degan niyatda yechintirib, qop-qorong‘i uyga qamab qo‘ydi; unga na suv berdi, na non. Bunchalik qiynasang, balki tosh ham yumshab ketardi. Zaynab ham oxiri yumshadi. Xudoyorbekning nimaiki niyati bo‘lsa, hammasi ushaldi.

Biroq Zaynab ham bu talablarga bir shart bilan rozi bo'ldi. Bu shart shu ediki, Xudoyorbek pullarini olib bo'lgan zahoti Zaynabning javobini berishi kerak edi. Xudoyorbek bunga rozi bo'ldi. Zaynab ko'ngli to'q bo'lishi uchun Xudoyorbekka Qur'on nomi bilan qasam ichirdi. Xudoyorbek qo'liga Qur'onni olib qasam ichdi.

Zaynab pullarining bir qismini yerga ko'mib qo'ygan, bir qismini boshqalarga bergan edi. Ularning hammasi Xudoyorbekning hisobiga o'tdi. Buning ustiga Xudoyorbek yana ancha-muncha narsalarni — oltin, kumush, kiyim-kechak, gilam, mis idish-tovoq va shu kabilarni qo'lga kiritdi.

Xullasi kalom, Zaynab eri Karbaloyi Haydar yig'gan narsalarni chelaklab Xudoyorbekning uyiga keltirib to'kdi. Valiqulining bunga hech parvosi yo'q, u, nima bo'lsa-bo'lsin, faqat mening yorim salomat bo'lsa bas, degan o'yda edi. Valiquli nainki bunga qarshilik ko'rsatar, balki bu borada Xudoyorbekka hatto yordam ham berar edi.

Xudoyorbek Zaynabning, sag'irlarning va Valiqulining mol-davlatiga ega bo'lib olgach, Zaynab oxiri o'z orzusiga yetdi, ya'ni Xudoyorbekning uyidan chiqib, o'z uyiga kelib o'tirdi.

Biroq endi Zaynabning uyida to'rt devordan bo'lak hech narsa qolmagan edi; biroq Zaynab uchun bu maloyikalar uni jahannamdan tortib olib, jannatga solgan kabi edi.

Zaynab Xudoyorbekdan ajragan zahoti xaloyiq, Xudoyorbek Zaynabning javobini beribdi-da, degan xayolga bordi. Nainki xaloyiq, balki Zaynabning o'zi ham, Valiquli ham, xullas, hamma Zaynabni nikohdan chiqdi deb o'ylardi. Ammo Xudoyorbek Zaynabni o'z nikohidan chiqarmagan, zinhor chiqarmoqchi ham emasdi. Buning sababini uch-to'rt satrdan so'ng bayon qilamiz.

Gap shundaki, endilikda Zaynab nihoyatda mushkul ahvolda qolgan edi. Bahor kelishi bilanoq Xudoyorbek yerlarni omoch solib haydatdi. Ekin-tikinni u o'z mulki kabi o'rib, yanchib olar, hosilni o'z ota-bobosidan qolgan moli kabi keltirib o'z uyiga to'kardi. Zaynab egasiz, och-yalang'och qolib ketdi. Bu orada Fizza qizi vafot etdi.

Zaynabning bir dardiga o'n dard qo'shildi. Kim bilsin, balki sho'rlik qiz ochdan o'lgandir?! Oxiri bekning bechora ayolga biroz rahmi keldi. Zaynabga jinday yordam bo'lsin deb, Valiqulini o'ziga qo'shchi, Zeboni xizmatkor qilib oldi. Xudoyorbek Valiquli bilan Zeboga shu miqdorda haq belgiladiki, u Zaynabning ochdan o'lmasligi uchun zo'rg'a yetardi.

Xudoyorbek ikki sababga ko'ra Zaynabni o'z nikohidan chiqarmagan va chiqarmoqchi ham emasdi. Xudoyorbek juda aqlli kishi edi. Avvalo shuning uchun undan ajramagan ediki, ayol Xudoyorbek undan qo'lini tortadigan darajada yoshi o'tinqirab qolmagan edi. Agar Zaynabning Xudoyorbekka zig'ircha muhabbati bo'lganida edi, Xudoyorbek uni uyidan chetlatmas edi. Insof bilan aytganda, bu uydan chiqib ketishiga Zaynabning o'zi sababchi bo'ldi. Shuning uchunki, Xudoyorbekning uyiga kelgandan beri Zaynabning chehrasi bir daqiqa, bir lahza ham ochilmadi. Xudoyorbekning Zaynabdan ajramasligining ikkinchi sababi shu ediki, Xudoyorbek Zaynabga birorta ablah uylanib oladi-da, mendan sag'irlarning mol-mulkini da'vo qila boshlaydi deb qo'rqar edi. Ajralishning ana shu ikkinchi jihati o'rtaga tushganda Xudoyorbekning jinni bo'lishiga oz qolardi. Birov uning oldida ajralishdan gap ochib qolsa, o'lgudek kaltak yeyishi tayin edi.

Ha, Xudoyorbek shu sabab uchun Zeboning ustiga otildi va urib burnini qonatdi.

Zaynab bu uydan chiqib ketgandan so'ng, oradan ikki oy o'tgach, Xudoyorbekning xotini o'ldi va Xudoyorbekka uylanish zarur bo'lib qoldi. Xudoyorbek ko'pdan beri Qosimalining singlisini ko'z ostiga olib yurar edi. Qisqasi, Xudoyorbek o'z qizini Qosimaliga bersagina, Qosimali unga singlisini beradigan bo'ldi. Xudoyorbek bunga bajonidil rozi bo'ldi.

Avvaliga Valiquli uchib-qo'ndi, yig'ladi, siqtadi, ancha qayg'urib yurdi. Ammo Xudoyorbekdan qo'rqqani uchun buni sezdirmadi. Oradan biroz vaqt o'tgach, hammasi unut bo'ldi. Keyinroq Valiqulining o'zi ham hammasidan avval yegani bir parcha non topishi lozimligini anglab yetdi.

Mana, uyning to'rida o'tirgan upa-elikli yosh xotin Qosimalining o'sha singlisi, Xudoyorbekning yangi xotini edi. Bundan uch

oy avval Xudoyorbek bu xotinidan bir qiz ko'rdi. Ismini Xushqadam qo'ydilar. Zeboning quchog'ida yig'lagan chaqaloq ana shu qiz edi.

Valiquli bilan Zebo yig'lay-yig'lay uylariga yetib kelishdi. Zaynab biz avval ko'rgan, endi to'rt devordan bo'lak hech narsasi qolmagan uyda, eski palos ustida tizza quchganicha shiftga tikilib o'tirar, go'yo vassajuftlarni sanamoqda edi. Zaynabning ust-boshi ham ahvoliga mos, ya'ni eski-tuski, yirtiq-yamoq edi. Chehrasi ham biz ko'rgan chehra emas. Bu to'rt yil badalida u juda qarib qolgan edi.

Zebo yig'laganicha ichkari kirdi. Uning ortidan Valiquli kirdi. Zaynab sapchib turib qizi tomon yugurdi va nima bo'lganini so'radi. Valiquli voqeani aytib berdi. Zebo yig'lay-yig'lay onasining og'ushiga kirdi. Uy qorong'i bo'lgani uchun Zeboning burnidagi qon sezilmasdi. Zebo onasining ust-boshini qonga bo'yashi Valiqulining endi yodiga tushdi; u Zaynabga qarab:

— Ona, Zeboning burni qonabdi, ust-boshingizga surtmasin, — dedi.

Zaynab Zeboni o'z quchog'iga olganida qizining ust-boshi nam ekanligini sezgan, ammo buni ko'z yoshi deb o'ylagan edi. Valiquli onasini yana ogoh etdi:

— Ona, axir Zebo sizning ust-boshingizni qonga bo'yadi-ku.

Zaynab javob bermadi. Valiquli tashqari chiqdi. Chunki oqshom tushib qolgan, borib mollarni sug'orishi kerak edi; agar hayallab qolsa, Xudoyorbek to'polon ko'tarar edi.

Zebo onasining quchog'ida biroz yig'lab turdi-da, so'ng uxlab qoldi.

POCHTA QUTISI

Noyabr oyining 12-kuni edi. Havo juda sovuq, ammo hali qordan darak yo'q. Hakim[1] xonning betob xotinini tekshirib ko'rib, bemorning ahvoli yaxshi, bir haftadan so'ng safarga chiqsa bo'ladi, dedi. Xon Iravonga borish uchun shoshilar, chunki u yerda juda

[1] **Hakim** — doktor, vrach.

zarur ishlari bor edi. Lekin u qor yog'ib, havo battarroq sovub ketsa, bemor yo'lga chiqa olmay qolishidan qo'rqardi. Xon qalam olib, iravonlik do'sti Ja'farga quyidagi mazmunda muxtasar bir maktub yozdi:

"Azizim! Bir hafta ichida bola-chaqa bilan Iravonga yetib borish umididaman. Qattiq iltimos qilamanki, bizning uyimizga gilamlarni to'shab, albatta pechlarni yoqib, xonalarning havosini yangilasinlar va isitib qo'ysinlar, toki bemor u yerda aziyat chekib yurmasin. Bu maktubning javobini menga telegraf orqali yetkazishingni so'rayman. Sen mendan so'ragan ishlarning hammasini o'rinlatdim. Valixon. Fi 12-noyabr".

Xon maktubni buklab paketga soldi, ustiga manzilni yozib, marka yopishtirdi, uni pochtaga tashlab kelish uchun navkarini chaqirmoqchi bo'ldi, lekin uni boshqa ishga yuborganligi yodiga tushib qoldi. Shu payt darvoza taqillib qoldi. Xon borib ochsa, o'z hamqishlog'i, Itqopgan qishlog'i ahlidan bo'lmish Navro'zali ekan. Bu kimsa xonnikiga tez-tez kelib turar, har kelganda ugra, asal, yog' kabi yeguliklar olib kelar edi. Bu gal ham Navro'zali quruq kelmagan edi; chunki u xonni ko'rishi bilanoq tayog'ini darvoza burchagiga tayab, darvozaning ikkinchi tavaqasini ham ocha boshladi. Darvozani ochib, bir yuk ortilgan eshakni "xix-xix" deya hovliga haydab kirdi, yuklar orasidan uch-to'rtta tovuq-jo'jani qaqillata-qaqillata yerga qo'ydi, arqonni yechib, qoplarni ham yerga tushirdi va xonga ikki bukilganicha salom berdi.

Xon uning salomiga alik olib dedi:

— Hoy Navro'zali! Nega ovora bo'lib yuribsan?

Navro'zali qoplarning ipini yechish asnosida javob berdi:

— Bu nima deganing, hoy xon. Men o'la-o'lguncha sening qulingman...

Shunday deya u ust-boshining changini qoqa boshladi... Kun peshindan bir soatcha oshib qolgan, pochtadan xatlarni olish muddati o'tib ketishi mumkin edi, yozgan maktubini pochtaga Navro'zali orqali jo'natish xonning esiga tushib qoldi.

Xon mehmonga yuzlanib:

— Navro'zali, pochtaxonani bilasanmi? — deb so'radi.

Navro‘zali javob qildi:

— Xon, men bir qishloqi odam bo‘lsam, pochtaxona qayerdaligini qaydan ham bilayin?

— Unda nacharnik devonxonasini bilasanmi?

— Ha, xon, dardingni olayin, bilaman, nega bilmas ekanman. O‘tgan hafta men nacharnikka shikoyatga kelgandim. Xon, Xudo haqi, katta[1] bizni juda ranjitadi. Aslini olsang, bizning bu kattamiz sal boshqacha toifadan, bizni ko‘rarga ko‘zi yo‘q. O‘tgan hafta mening ikkita buzog‘im yo‘qolib qoldi. Borib...

— Bu voqeani keyin aytib berasan. Gapimga quloq sol: nacharnik devonxonasining yonida kattakon bir bino bor. Darvozasining yonidagi devorga bir quti qoqib qo‘yilgan. Ana shu quti pochta qutisi bo‘ladi. O‘sha qutining kichkinagina uzun qopqog‘i bor. Hoziroq mana bu qog‘ozni olib borib, o‘sha qutining qopqog‘ini ko‘targin-da, ichiga tashla, tag‘in qopqog‘ini bekitgin-u darhol ortingga qayt.

Navro‘zali kaftlarini xon tomon cho‘zib, qo‘rqa-pisa qog‘ozni oldi, bir qog‘ozga boqdi, bir xonning yuziga, so‘ng devor tomon chekinib, qog‘ozni devor ostiga qo‘yish uchun yerga egildi. Xon baland ovozda:

— Yerga qo‘yma! Yerga qo‘yma! Qog‘oz kir bo‘ladi, darhol qutiga tashlab kel! — dedi.

— Xon, dardingni olayin, manavi eshakning boshiga to‘rva osib qo‘yay, jonivor ochiqib qolmasin, yo‘ldan horib keldi.

— Yo‘q-yo‘q... Hechqisi yo‘q. Qog‘ozning fursati o‘tib ketadi. To‘rvani keyin osasan eshakning boshiga.

— Unda oyog‘ini tushovlab qo‘yay, yo‘qsa hovlidagi daraxtlarni g‘ajib tashlaydi.

— Yo‘q-yo‘q... hechqisi yo‘q, yugur, qog‘ozni tashlab kel!

Navro‘zali qog‘ozni ikkilanib qo‘yniga tiqar ekan, tag‘in dedi:

— Xon, dardingni olayin, bu xo‘rozlar shu holicha qolyapti, bularning ham joni bor, ruxsat bersang, oyoqlarini yechib, ularga to‘rtta don sepib ketardim. Mana, don ham olib kelganman.

Navro‘zali don chiqarish uchun qo‘lini cho‘ntagiga suqqan edi, xon baland ovozda:

[1] **Katta** — bu o‘rinda: qishloq oqsoqoli *(tarj.)*.

— Yo‘q-yo‘q... keyin! Yugur, g‘izillab borib qog‘ozni pochtaga tashlab kel! — dedi.

Navro‘zali tayog‘ini olib, bola kabi yugura ketdi. So‘ngra nimadir yodiga tushdi, shekilli, ortiga qaytib, xonga yuzlandi:

— Xon, dardingni olayin, xurjunning ichida tuxum bor edi, ko‘z-quloq bo‘lib tur, tag‘in eshak ag‘anab, tuxumlarni sindirib qo‘ymasin.

Xon baqirib berdi:

— Kalta qil. Tez qog‘ozni tashlab kel; fursati o‘tib ketyapti!

Navro‘zali ketar ekan, xon uning ortidan qichqirdi.

— Navro‘zali, tag‘in qog‘ozni boshqa birovga bera ko‘rma!.. Hech kimga berma, hech kimga ko‘rsatma! Darhol qutiga sol-da, ortingga qayt.

Navro‘zali ham qichqirib javob qaytardi:

— Nima, men yosh bolamanmi, qog‘ozni birovga berib! Meni judayam go‘l deb o‘ylayapsan, shekilli. Bu qog‘ozni qo‘limdan hatto nachamikning o‘zi ham ololmaydi.

Shunday deya Navro‘zali ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi... Xon xonaga kirib, xotiniga mehribonchilik bilan dedi:

— Hozirligingni ko‘raver, jonginam. Xonalarni hozirlab qo‘ysinlar deb Iravonga xat yozib yubordim. Endi borsak ham bo‘laveradi. Xudoga shukur, ahvoling yaxshi. Hakimning aytishicha, senga havo almashtirish judayam zarur ekan.

Xon xotini bilan safar xususida suhbatlashib o‘tirgan edi, navkari kirib kelib, xondan:

— Xon, bu eshak kimniki, bu narsalarni kim olib keldi? — deb so‘radi. Xon:

— Darvoqe, ularni joylashtirib qo‘y. Buni bizga itqopganlik Navro‘zali hadya qilib keltirdi, — dedi.

Navkar jo‘ja va tuxumlarni oshxonaga eltib qo‘ydi, eshakni og‘ilga haydadi, og‘il eshigini yopib, qaytib kelib un qoplaridan birining og‘zini ochdi-da, ichidan bir chimdim un olib, xonning oldiga olib keldi:

— Xon, yaxshi oq un ekan.

Xon unga qarab qo‘ydi-da, navkariga darvozani yopib qo‘yishni va ovqatni suzib keltirishni buyurdi.

Ovqatlanish ikki soatcha davom etdi. Faqat ovqatdan keyin Navro'zalining maktubni pochtaga olib ketganligi xonning esiga tushdi. U navkarini chaqirib bu xususda so'ragan edi, navkar hali uning qaytmaganini aytdi. Xon Navro'zalining bu qadar hayallab qolganiga taajjublandi, so'ng, balki Navro'zali maktubni pochtaga tashlab, ovqatlanib olgani yoki ul-bul xarid qilgani bozorga kirgandir, degan xayolga bordi. Oradan yana bir soat o'tdi hamki, Navro'zalidan hamon darak yo'q edi.

Xon navkarini chaqirib, borib pochtadan xabar ol-chi, Navro'zali qayerlarda bu qadar hayallab qolib ketdi ekan, dedi. Yarim soatlardan so'ng navkar qaytib kelib, Navro'zalini topa olmaganini aytdi. Xon ayvonga chiqib, papiros tutatganicha u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi. Navro'zalining bu qadar hayallab qolishidan uning boshiga bir ish tushganligi xonga ayon edi. Xon shuni o'ylab turar ekan, politsiya yasovuli kirib keldi va xonga qarab:

— Xon, pristav sizning politsiyaga borib, hamqishlog'ingizga kafil bo'lishingizni buyurdi. Yo'qsa pristav uni avaxtaga jo'natmoqchi, — dedi.

Xon bu gapdan shunchalik taajjubga tushdiki, hech so'z topolmay, yasavulning yuziga angrayib qarab qoldi. Nihoyat tilga kirib:

— Bolam, u bir bechora qishloq odami bo'lsa, nima ish qilibdiki, pristav uni qamab qo'ysa? — dedi.

Yasovul:

— Men hech narsani bilmayman. O'zing politsiyaga borsang yaxshi bo'lardi; yo'qsa, u sho'rlikning holiga voy, — deb javob berdi:

Xon tashvishga tushmasin deb bu voqeani xotiniga bildirmadi. Kiyinib politsiya mahkamasiga yo'l oldi. Avval derazadan mahbuslar saqlanayotgan xonaga mo'raladi, ko'rsaki, Navro'zali mahbuslar ichida bir burchakda bola kabi yig'lab, ko'z yoshlarini chakmonining etagiga artib o'tiribdi...

Xon pristavdan Navro'zali bilan bo'lib o'tgan voqealarni eshitgach, uni kafillikka olib, yoniga solganicha uyiga boshlab keldi. Navro'zali hovliga kirgan zahoti tag'in yig'isini boshlab yubor-

di, eshagining boshiga to'rvasini ilib, devor ostiga borganicha cho'nqayib o'tirdi. Xon uyga kirib, bir papiros tutatib ayvonga chiqdi va Navro'zalini yoniga chaqirib dedi:

— Qani, bo'lib o'tgan vaqealarni so'zlab ber-chi, Navro'zali! Sening bu hikoyating juda qiziq hikoyatga o'xshaydi. Buni kitob qilib yozish kerak. Hammasini batafsil, ya'ni bir boshdan aytib ber-chi. Bu yerdan qog'ozni olib ketganingdan to qamoqqa tushganing-gacha...

Navro'zali oyoqqa turib, xonga yaqin keldi, ko'z yoshlarini chakmonining etagiga artib, gap boshladi:

— Dardingni olayin, xon, iloyo, bola-chaqangning boshiga omon bo'l, meni kechir! Mening hech qanday gunohim yo'q. O'zim bir qishloqi odam bo'lsam, qayerdan bilibman — qog'oz nima, quti nima, pochta nima? Dardingni olayin, iloyo, guldek bola-chaqalaringning boshiga omon bo'l, meni kechir. Hechqi-si yo'q, agar o'lmasam, omon qolsam, ne ish bo'lsa qilib, evazi-ni chiqaraman, bir bema'nilik qilib qo'ydim-da, na iloj? Shunaqa bo'lib qoldi-da. Bu hammasi Ollohning amri. Shunday bo'li-shi yozilgan ekan. Meni kechir, xon. O'la-o'lgunimcha sening navkaringman...

Shunday deya Navro'zali xonning oyoqlarini o'pish uchun egildi. Xon o'zini chetga tortib:

— Navro'zali, hech yuraging siqilmasin. Men senga nima ham deyman? Sen menga nima yomonlik qilibsanki, men seni kechirsam? — dedi.

— Qurboning bo'lay sening, bundan ortiq yomonlik bo'ladi-mi? Qog'ozni men berib qo'ydim-ku axir o'sha murtadga, u ham cho'ntagiga solib yo'liga ketaverdi.

— Kim qog'ozni cho'ntagiga solib ketdi?

— Kim bo'lardi, o'sha murtad o'ris-da!

— Qayerga olib ketdi?

— O'sha yerda kattakon bir bino bor-ku, devoriga quti qo-qilgan, o'sha yerga kirib ketdi.

Xon biroz o'ylanib qoldi.

— Nima, sen qog'ozni qutiga solmaganmiding?

— Nega solmas ekanman? Qog‘ozni qutiga solganim zahoti u kofir kelib, bilmayman qanday ochdi, qog‘ozni oldi-yu ketdi.

— Qutida sen solgan qog‘ozdan boshqa qog‘oz yo‘q ekanmi?

— Nega yo‘q bo‘lar ekan? Juda ko‘p qog‘ozlar bor ekan. Ularning hammasini yig‘ishtirib olib ketdi.

Xon qahqaha urib kuldi.

— Yo‘q, Navro‘zali, hammasini bir boshdan gapirib berishing kerak: qog‘ozni qanday olib bording, qutiga qanday solding, o‘ris bilan nega urishib qolding.

Navro‘zali hikoyasini boshladi:

— Xon, dardingni olayin, men qog‘ozni bu yerdan olib, nacharnik devonxonasining yoniga bordim. Sen menga nishon bergan binoni, o‘sha qutini topib, uning qopqog‘ini ko‘tardim. Qog‘ozni qutiga solmoqchi bo‘lib, bir qog‘ozga qaradim, bir qutiga. Rosti, sening jahling chiqib ketadi, deb qo‘rqardim. Rosti, solishimni ham, solmasligimni ham bilmay qoldim; chunki qog‘ozni qutiga solgandan so‘ng quti yonida kutib turaymi yoki uyga qaytaveraymi deb sendan so‘rash yodimdan chiqib qolibdi. O‘yladimki, agar qog‘ozni solgandan so‘ng quti yonida kutib tursam, ne vaqtgacha turishim kerak? Axir, dardingni olayin, xon, o‘zing ko‘rdingki, eshakni och, jo‘jalarning oyog‘ini yechmasdan qo‘yib ketgan edim. Olib kelgan jinday unim ham shu yerda qolgan edi. Xon, dardingni olayin, fursatini o‘tkazmaylik, navkar kelsin, bu qoplarni uyga kiritib qo‘yaylik, yomg‘ir-sochin yog‘ib qolsa, unlar namiqib qoladi.

— Yo‘q, Navro‘zali, bu yog‘iga sening ishing bo‘lmasin... Xo‘sh, xo‘sh, ayt-chi, keyin nima bo‘ldi?

— Qog‘ozni solmadim. Qutining qopqog‘ini bekitib, bir chekkada kuzatib turdim. Bir qaytib kelib sendan so‘ramoqchi ham bo‘ldim, lekin, to‘g‘risi, mendan jahling chiqadi, deb qo‘rqdim. To‘g‘risi, o‘z ko‘nglingda, Navro‘zali odam emas, hayvon ekan, eshshak ekan, degan xayolga borasan deb qo‘rqdim. Xullas, biroz nafasimni rostlab olay deb devor ostiga cho‘nqayib o‘tirdim. Bir payt qarasam, bir armani bolakay, bo‘yi mana bundoq, yoshi o‘n ikki-o‘n uchlar atrofida, to‘g‘ri qutining yoniga keldi, qopqog‘ini

ochib, sen menga bergan qog'ozga o'xshagan bir qog'ozni qutiga soldi-da, qopqog'ini yopib qaytib ketaverdi. U noinsofni orqasidan rosa chaqirdim, qog'ozni qutiga solib endi qayoqqa ketayotganini so'ramoqchi bo'ldim, bilmadim, la'nati tilimni tushunmadimi, hech narsa demadi.

Armani bola ketgandan so'ng bir o'ris ayoli shoshib quti yoniga keldi-da, qandaydir bir qog'ozni solib ketdi. Men ham biroz dadillashdim, Xudo haqi, demak, qutiga solingan qog'ozlar uning ichida qolar ekan-da, deb o'yladim. Men ham shu qadar dadillashdimki, bismilloh deb jur'at bilan quti yoniga bordim, qopqog'ini ochib qog'ozni quti ichiga soldim-da, xizmatingga qaytib kelmoqchi bo'ldim. Qutidan mana shu yerdan huv anavi yergacha uzoqlashgan edim hamki, o'sha o'ris qutining yoniga keldi. Men avvaliga u ham qutiga qog'oz tashlasa kerak, deb o'yladim. Yo'q, mundoq qarasam, ablahning fikri boshqacha, o'ng qo'lini yon tomondan qutining ichiga tiqib qoldi. Men darhol u nokas qog'ozlarni o'g'irlamoqchi ekanini sezdim... Xon, shundoq ham rosa boshingni og'ritdim, meni kechir, navkarni chaqir, meni kuzatib qo'ysin, kech tushib qoldi, qishloqqa yeta olmay qolaman.

— Hoy inson, hali seni ketgani qo'ymayman. Qolganini ham ayt-chi, keyin nima bo'ldi?

— Xo'p bo'ladi, dardingni olayin, xon, mening yetim-yesirlarim sening yo'lingda qurbon bo'lsin! Sensiz ko'rgan kunim kun bo'lmasin. Ha, qarasam, u nokas uyalmay-netmay hamma qog'ozlarni qutidan chiqarib oldi-da, dasta-dasta qilib qo'ltig'iga urdi! Qutining qopqog'ini yopib, bemalol keta boshladi. Men darhol yugurib borib, qochib qolmasin deya o'risning qo'liga yopishdim. Hoy oshna, qog'ozlarni qayoqqa olib ketyapsan? Xaloyiq sen uchun qog'ozlarni bu qutiga solgani yo'q-ku, dedim. Obro'yingni bir pul qilmasimdan qog'ozlarni jimgina qo'y o'z joyiga, dedim! Navro'zali hali o'lgani yo'qki, sen uning og'asining qog'ozini olib qo'ysang! Bu ishing yaxshi emas, odam birovning moliga ko'z tikmaydi. Nima, sizning shariatingizda o'g'irlik gunoh deb yozilmaganmi, dedim. Xon, bola-chaqang haqi, meni kechir, ruxsat ber, keta qolay, qorong'i tushib qolyapti.

— Hali shoshma, borasan-da... Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

— Evoh, qanday kunlarga qoldim... Hoy, qaytar, qaytar, eshak toklarni sindiradi.

Navro'zali eshak tomon yugurmoqchi bo'lgan edi, xon qo'ymadi.

— Navro'zali, shoshma, to'xtab tur. Ayt-chi, keyin nima bo'ldi?

— Yana nima bo'lsin? Xonim meni o'ldiradi deb rosa yalindim-yolvordim, hech bo'lmasa mening xonimning qog'ozini ber, deb qo'llariga yopishdim, u bermayman deb turib oldi. Ko'rdimki, nokasni qo'yib yuborsam, qochib ketadi. Miyamga qon tepdi, kofirning yoqasiga ikki qo'llab chang soldim-da, chalqanchasiga shundoq ko'tarib urdimki, qo'rqqanidan og'zidan qoni keldi. Shu payt nacharnik devonxonasidan soldatlar ustimga yoprilib keldilar-da, ura-ura meni eltib qamab qo'ydilar. Sening qadamlaringga qurbon bo'layin. Agar sen bo'lmaganingda meni allaqachon Sibir qilib yuborar edilar, chunki qamoqxonada mendan ham boshqa mahbuslar bor edi, o'shalar bu o'risni xizmat odami, deb aytishdi. Ha... men nima qilay? Xon, dardingni olayin, gunoh kimdaligini o'zing ko'rib turibsan-ku.

Xon rosa kuldi, qahqahalar otib kuldi.

Atrof qorong'ilashib qolgan edi. Navro'zali bo'sh un qoplarini och eshagining ustiga tashlab, oldiga soldi-da, zarang tayog'i bilan ura-ura qishlog'iga yo'l oldi.

Uch kundan so'ng xon Iravondan "maktubingni oldik, xonalar tayyorlab qo'yildi" degan telegraf oldi. U hozirlanib, Iravonga jo'nab ketdi.

Yarim oydan so'ng Navro'zalini devonga olib kelib, "xizmatchini behurmat qilgani uchun" uch oy avaxta qildilar; biroq Navro'zali gunohini bo'yniga olmadi. Uch oy o'tgach, bu xabar Iravonga — Valixonga yetib bordi. Xon xayol surib qoldi.

12-noyabr, 1903

QURBONALIBEK

Senga Ollohning rahmati yog'ilsin,
Gogol!

Bugun qishloqqa nachalnik[1] kelar ekan degan gap tarqadi, keyin ma'lum bo'lsa, pristavning[2] xotinining tug'ilgan kuni ekan. Qishloqqa g'avg'o tushdi. Shu kuni qishloq ahlidan hech kim dala ishiga chiqmadi. Jamoatning yarmi qishloq chekkasiga chiqib, devor-tepalarga tirmashib, nachalnik yo'liga ko'z tikkan edilar. Jamoatning qolgan yarmi pristav hovlisini qurshab olgan edi. Hatto xabar topgan qo'shni qishloqlardan ham odamlar sekin-asta oqib kelmoqda edi.

Odam dastidan pristavning hovlisiga kirib bo'lmas, faqat katta[3], yasovul[4] va glava[5] mirzalaridan boshqa hech kimga hovliga kirish uchun ruxsat yo'q edi.

Pristavning hovlisida it egasini tanimas, baqir-chaqir, shovqin-surondan quloq qomatga kelardi: bir yonda qo'zilar ma'rar, bir yonda oyog'i bog'lab qo'yilgan tovuq-jo'jalar chag'illar, bir tomonda glavalarning otlari kishnar edi. Bir tomondan pristavning quloqlari uzun tozi itlari goh glavaning ustiga "voff" qilib tashlanar, goh kattaning ustiga "voff" qilib tashlanar edi. Har zamonda pristavning xotini ayvonga chiqib nozik ovozda "tishe", ya'ni "sekinroq" deb qo'yardi-da, tag'in ichkari kirib ketardi.

Pristavning oshpazlari, bellarida oq peshband, ahyonda bir hovliga chiqib glavalardan biriga buyurib qolardi:

— Tezda yarim girvonka za'faron topib kel.

Glava "bosh ustiga" deganicha avval boshini quyi solib qolar, so'ng mirzasiga yuzlanib buyurar edi:

— Hoy, Mirza Hasan, darhol shaharga odam jo'nat, yarim girvonka za'faron olib kelsin.

---

[1] **Nachalnik** — boshliq *(tarj.)*.

[2] **Pristav** — mahalliy politsiya boshlig'i *(tarj.)*.

[3] **Katta** — qishloq oqsoqoli *(tarj.)*.

[4] **Yasovul** — mansabdorlarning qurolli soqchisi *(tarj.)*.

[5] **Glava** — boshliq *(tarj.)*.

Birozdan so‘ng qo‘lida qiymapichoq tutib olgan boshqa bir oshpaz glavalardan biriga yuzlanib buyurardi:

— Glava, to‘rt-besh yuzta tuxum kerak bo‘lib qoldi.

Glava xursand holda hovlidagi savatlarga qo‘li bilan ishora qilib javob berardi:

— Nimalar deyapsan? Bu yerda mingdan ortiq tuxum bor.

Birdan yugur-yugur bo‘lib qoldi; “nachalnik kelayotir” degan ovoza tarqadi. Glavalar darvozaga yugurishdi, xonim ayvonga chiqdi, tozi itlar odamlarning ustiga otilishdi, biroq birozdan so‘ng qurbaqazorga tosh otganday hamma jimib qoldi; chunki bu kelgan nachalnik emas, boshqa bir qishloqning pristavi ekan. Pristav otdan tushib hovliga kirdi, ayvonga chiqib, xonimga ruschalab nimadir so‘z qotib, o‘zi ham kuldi, xonimni ham kuldirdi. So‘ngra ikkalasi ichkari kirib ketishdi.

Yana qiymapichoqlarning taq-tuqi, odamlarning vag‘ir-vug‘uri, otlarning kishnashi, tovuq-jo‘jalarning chag‘illashi, glavalarning baqirib-chaqirishi, tozi itlarning vovullashi bir-biriga qorishib ketdi. Bir tomonda endigina kelgan glava va kattalar semiz xurjunlarini hovliga sudrab kirmoqda edilar. Bir tomonda qishloq ahli yelkalarida qozon-o‘choq, gilam-palos tashimoqda edilar. Bir tomonda qishloqliklar hovli etagida qo‘y-qo‘zi va tovuq jo‘jalarni qator qilgancha bo‘g‘izlab, tozalamoqda edilar.

Tag‘in yugur-yugur bo‘lib qoldi; “nachalnik kelayotir” degan ovoza tarqadi. Glavalar darvoza tomon yugurishdi, xonim va mehmon ayvonga chiqishdi, tozi itlar hovlida yugurib qolishdi; lekin birozdan so‘ng qurbaqazor ko‘lga tosh otgandek bo‘ldi; chunki bu kelgan kishi ham nachalnik emas, kazaklarning boshlig‘i bo‘lmish bir zobit ekan. U ham otdan tushib, chopganicha ayvonga chiqib bordi, xonimning qo‘lini o‘pib, hol-ahvolini so‘ragach, ichkari kirib ketishdi.

Oradan biroz fursat o‘tgach yana yugur-yugur bo‘lib qoldi, tag‘in “nachalnik kelayotir” degan ovoza tarqadi. Ammo bu ham yolg‘on bo‘lib chiqdi. Odamlarni chetga surdilar, bu mehmon ham hovliga kirib keldi. Bu kishi Qapazli qishlog‘ining begi va mulkdori bo‘lmish mashhur Qurbonalibek edi.

Bek hovliga kira soliboq bir o'ngga, bir so'lga nazar soldi. Tozilardan biri yugurib kelib Qurbonalibekning etiklarini yalay boshladi. Bek egilganicha tozining boshini silab:

— Malades sobak, — dedi va boshini ko'targach, ayvondagi xonimga ko'zi tushib:

— Izdrasti! — deb qichqirdi, so'ng o'ng qo'li bilan bo'rkini baland ko'tarib:

— Urra! — deya baqirdi. So'ngra ayvonga chiqib borib, xonim qarshisiga borib bosh egdi. Xonim Qurbonaliga qo'lini uzatdi. Bek xonimning qo'lidan tutganicha ruschalab dedi:

— To tirik ekanman, men sening navkaringman, xonim.

Xonim tabassum qilganicha:

— Spasibo, — deb javob berdi.

Bek bir oh chekkandan so'ng har ikkisi ichkari kirib ketishdi.

Oradan yana biroz fursat o'tgach, viloyat hakimi, sud pristavi, ikki uchitel[1] kelishdi, so'ng bir zobit va boshqa bir hakim xotinlari bilan kirib kelishdi.

Biroz o'tgach yana yugur-yugur boshlanib qoldi; "nachalnik kelayotir" degan ovoza tarqadi. Glavalardan biri ot choptirib kelib o'zini yerga otdi va hovliga suqilib kirib, xonimning yoniga yugurib borganicha baqirdi:

— Nachalnik idyot!

Xonim shoshib ichkari kirdi, yana shoshganicha ayvonga qaytib chiqdi. Mehmonlar ham hovliga tushib, darvoza tomon yugurdilar. Vag'ir-vug'ur, shovqin-suron, taraq-turuq, shoshma, jim bo'l, chetga chiq, beri kel, nari ket... nihoyat bir yo'g'on chinovnik[2] hovliga kirib keldi, xonim tomon yurib, so'l qo'li bilan bo'rkini boshidan oldi, o'ng qo'li bilan xonimning qo'lini tutib o'pdi, mehmonlar bilan birma-bir qo'l berib ko'rishib chiqdi va ayvonga ko'tarilib, ichkari kirdi.

Mehmonlar kattakon zalga yig'ilgan edilar. O'rtaga stollar qo'yilgan, stollarning usti turli-tuman shirin qatlamalar, suxarilar, pahlavalar, holvalar, konfetlar, limon-u apelsinlar, quritilgan meva-chevalar, pista-bodomlar bilan to'lib-toshib ketgan edi. Bir stolning

[1] **Uchitel** — muallim *(tarj.)*.

[2] **Chinovnik** — davlat xizmatchisi *(tarj.)*.

ustiga kattakon samovar qo'yilgan bo'lib, xizmatchilar choy damlab mehmonlar oldiga eltib qo'yar edilar.

Nachalnik yumshoq divanda o'tirar, pristavning xotini uning yonidan joy olgan, mehmonlardan ham bir nechasi shu yerga o'rnashgan bo'lib, nachalnik oldidagi stakanning qandini qorishtirganicha pristavning xotini bilan suhbatlashmoqda edi.

Shu payt hovliga qaragan derazalardan bir ot kishnashi eshitildi. So'ngra boshqa bir ot undan ham o'tkazib kishnay boshladi. Bir necha mehmon derazaga yopirilishdi. Otlar yanada balandroq kishnay boshlashdi. Qurbonalibek boshini derazadan tashqari chiqarib qichqirdi:

— Hoy, Kabla Qosim, hayvondan to'ragan hayvon, otni chetga tort, yo'qsa qo'lingdan chiqib ketadi.

Birozdan so'ng otlar yanada shiddatliroq kishnay boshladi. Qurbonalibek otlardan ham baland ovozda navkariga qichqira ketdi. Endi mehmonlarning hammasi derazalarga yopirilib borishdi.

Tashqarida, tablaning yonida bir strajnik[1] bir oq otning jilovidan ushlaganicha tortar edi. Bu ot nachalnikning oti edi.

Qurbonalibekning navkari bir to'riq otning jiloviga yopishganicha chekkaroqda ushlab turardi. Bir-ikkita qishloq kishilari ham boshqa otlarning jiloviga yopishgan edilar. Pastda yig'ilib olgan qishloqliklar pristavning derazalariga tikilar edilar.

Nachalnikning oti kishnaganicha oldingi oyoqlari bilan yer tepinar, Qurbonalibekning otiga teg'langanicha jahl bilan jilovini chaynar edi. Qurbonalibekning oti ahyonda bir sayha tortib oldingi oyoqlari bilan ko'kka sapchir, go'yo Karbaloyi Qosimni ham uchirib yuborgudek siyog'i bor edi. Karbaloyi Qosim ham jilovga qattiq osilib olganicha qichqirar edi:

— Tek! Tek!

Nachalnik to'riq ot Qurbonalibekning oti ekanligini bilib, unga yuzlangancha, oting necha yoshda, deb so'radi. Qurbonalibek papiros tutatib, nachalnikka, bu yil endi to'rt yoshga qadam qo'yadi, dedi.

Nachalnik yana deraza oldiga borib Qurbonalibekning otini tomosha qila boshladi, so'ng Qurbonalibekka o'girilib:

[1] **Strajnik** — qorovul, qo'riqchi *(tarj.)*.

— Juda ajoyib ot ekan! — dedi.

Rostdan ham Qurbonalibekning oti juda ajoyib ot edi.

Qurbonalik har ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib:

— Sizga hadya, — dedi.

Nachalnik Qurbonalibekka:

— Rahmat, — deya yana otni tomosha qila boshladi va tag'in Qurbonalibekka yuzlanib:

— Chopishi qanday? Yaxshi yuguradimi? — deb so'radi.

Qurbonalibek nachalnikka:

— Hoy nachalnik, agar sening viloyatingda bundoq chopag'on boshqa ot topilsa, men mo'ylovlarimni qirib tashlamasam xotinman, — dedi.

Yarim soatdan so'ng mehmonlar yemakxonaga taklif etildi. Xonaning o'rtasiga uzun tamaddi stoli, stolning usti to'la turli-tuman taom va ichimliklar.

Pristavning xotini stolning to'riga o'tib o'tirdi. Xonimning o'ng tomonidan nachalnik joy oldi, boshqa mehmonlar ham o'rinlariga o'tirdilar.

Nachalnik aroq shishasini olib, avval o'z qadahini, so'ng pristavning xotinining, so'ngra xonimlar va boshqa mehmonlarning qadahlarini to'ldirib o'rnidan turdi, qadahni xonimning qadahi bilan to'qishtirar ekan:

— Xonimning tug'ilgan kuni muborak bo'lsin,— dedi.

Nachalnikdan so'ng xonimlar va janoblar o'rinlaridan turib ushbu so'zlarni takrorladilar. Nachalnik va boshqalar qadahlarini bir ko'tarishda bo'shatdilar.

Pristavning xotini qadahini qo'liga olib, mehmonlarga minnatdorchilik bildirdi, biroq qarasa Qurbonalibek hali arog'ini ichmagan.

Xonim bekdan so'radi:

— Nega ichmayapsiz?

Bek hech narsa demay jilmayganicha boshini quyi soldi.

Nachalnik Qurbonalibekka boqqanicha qahqaha urib dedi:

— Sen ham fanatik musulmonlardan bo'lsang kerak-da, shuning uchun ichmayapsan?

Mehmonlardan ba'zilari kulishdi, ba'zilari uni qistadi:

— Ol, ich!..

Oxiri Qurbonalibek qadahini qo'liga olib:

— Hoy azizlar, bu qanday idish o'zi? Bizda buni angishvona deydilar, ayollar buni barmoqlariga kiyib tikish tikadilar, bizda bunaqangi idishda aroq ichmaydilar, — dedi.

Mehmonlar bu gapdan kulib yuborishdi, pristavning xotini:

— Da, da, to'g'ri gap. Ayb menda. Qurbonalibek rumkada aroq ichmaydi, — dedi.

Shunday deya xonim bir choy ichadigan stakanni uning oldiga qo'ydi-da, uni aroqqa to'lg'azib bekka tutqazdi. Qurbonalibek stakanni olar ekan:

— Mana bu boshqa gap!.. Yo'qsa, mening oldimga bir angishvona qo'yibdilar, shu ham ish bo'ldimi? — dedi.

Mehmonlar tag'in kulishdi. Qurbonalibek aroqni boshiga ko'tarib, stakanni stolga qo'ydi, bir chimdim non ushatib, burnining tagiga etib hidladi.

Janoblar va xonimlar yeb-ichishni boshlab yubordilar, tashqarida nog'ora-surnay sadolari yangradi. Ikki soatlardan so'ng mehmonlar oyoqqa turib, derazalar oldiga tizilgancha atrofni tomosha qila boshladilar.

* * *

Bahorning ikkinchi oyi edi. Gul-chechaklar va o't-o'lanlarning ifori, chashmalarning chuldirashi va qushlarning sayrashi bir-biriga qorishib ketgan edi. Har zamonda bir surnay sadosi yangrab, boshqa tovushlarni bosib ketradi. Surnay tinishi bilanoq odamlarning vag'ir-vug'uri avj olardi. Uyning oldiga, ariq qirg'og'iga, o'tlar ustiga bir necha gilam to'shalgan edi. Bir tomonda uchta kattakon samovar qo'yilgan bo'lib, uning yoniga o'ttiz-qirqta stakan, talinkalar, qand, murabbo, shirinkulcha, limon, po'rtaxol, konfet, yong'oqli pechenye va boshqa choy bilan yoki choysiz yeyiladigan noz-ne'matlar, yog', smetana, qaymoq, chaqiliqlar qator tizib qo'yilgan edi. Gilamlar atrofiga yostig'-u bolishlar yotqizilgan edi. Bir tomonda glavalar qamchi tutganlaricha qish-

loq ahlini yalliga[1] tushish uchun savalay-savalay o'rtaga yig'ar edilar.

Janoblar va xonimlar derazadan ko'ringan zahoti qishloqliklar "ura" deya papoqlarini osmonga otdilar va yalli tusha boshladilar. Pristavning xotini mehmonlarni choyga taklif etdi.

Janoblar va xonimlar pastga, hovliga tushishdi. Qishloqliklar yana "urra" deganlaricha bir-birlariga qorishib ketdilar. So'ng yana yalli tushishni davom ettirdilar.

Qurbonalibekning navkari Karbaloyi Qosim bir chekkada qo'llarini cho'ntagiga suqqanicha davrani tomosha qilib turardi.

U sohibini ko'rgach, ikki bukilib ta'zim qildi. Bek labiga papiros qistirib Karbaloyi Qosimga ishora etdi. Karbolayi Qosim yugurib kelganicha cho'ntagidan gugurt chiqarib chaqdi va og'asiga tutdi. Bek papirosini tutatib olib:

— Hoy tentak, sen nega yalli tushmayapsan? — dedi.

Karbaloyi Qosim boshini quyi egib:

— Og'a, men keksayib qoldim. Yalli tushish endi menga yarashmaydi, — dedi.

Bek papirosini tuflab tashlab Karbaloyi Qosimning yoqasiga yopishdi va uni davraga sudrab borib:

— Qani, o'yna, hayvon, yo'qsa ura-ura o'ldiraman, — dedi.

Karbaloyi Qosim qishloq ahli safiga kirib qo'l ushlashdi va istar-istamas aylana boshladi. Qurbonalibekning o'zi ham safning boshiga o'tib olib, otilib-qo'nganicha raqsga tusha ketdi. Pristavning xotini Qurbonalibekka chapak chala boshladi. Nachalnik ham qahqaha otib kulganicha chapakka jo'r bo'ldi. Boshqa mehmonlar ham kula-kula qarsakka qo'shildilar. Qurbonalibekning o'zi ham boshini baland ko'tarib qahqaha urdi-da, bunday deb qichqirdi:

— Hoy xonim, men sening sog'liging uchun ichmoqchiman. Buyur, menga sharob keltirsinlar. Urra, urra!

Navkarlar butilkalarni tashib keltira boshladilar. Qurbonalibek bir stakan sharob ichib olib, yana gir-gir aylanganicha o'ynay ketdi.

Biroz o'tgach, yana bir stakan ichib olib:

[1] **Yalli** — saf bo'lgancha qo'shiq aytib raqsga tushish *(tarj.)*.

— Xonimning sog‘ligi uchun! — deya qichqirdi va yana davrani aylana ketdi. Nihoyat u toliqib chetga chiqdi va bir stakan sharob to‘ldirib, navkari Karbaloyi Qosimni yoniga chaqirdi:

— Ich buni!

Karbaloyi Qosim yalinib-yolvorishga tushdi:

— Jon og‘a, mening ichmasligimni o‘zing yaxshi bilasan-ku. Rahm qil, meni baloga qo‘yma, icha olmayman.

Bek navkarini ancha qistab turdi, lekin u ichmasligini bilib, sharobning bir qismini Karbaloyi Qosimning ustiga sepdi-da, qolganini ichib yubordi.

Janoblar va xonimlar choy ichishga o‘tdilar. Qurbonalibek ham bir chekkaga borib o‘tirdi va nachalnikka yuzlanib:

— Mening navkarim Karbaloyi Qosim juda bo‘shang odam. Men hozirgacha unga zo‘rlab ham bir tomchi sharob ichira olmaganman. Hoy ahmoq, deyman unga, uzumni yeysan-ku, axir, xo‘sh, bu nima? Uzumning suvi emasmi bu, deyman. Lekin harchand qilsam ham ichmaydi.

Nachalnik Qurbonalibekka, Karbaloyi Qosim tushunmagan, avom bir inson-da, dedi. Qurbonalibek qahqaha urib:

— Nega tushunmas ekan? Baloday tushunadi. Sharob uzumdan qilinishini bilmaydi deysizmi? Juda yaxshi biladi. Faqat g‘ayrati yo‘q, shuning uchun ichmaydi, — dedi.

Janoblar va xonimlar yarim soatlar chamasi choy ichish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Qishloq ahli hamon yalli tushmoqda edi. Xonimlardan biri har zamonda bir qo‘llari bilan qulog‘ini bekitib, “surnayning ovozidan quloqlarim bitib qoldi”, deb shikoyat qilardi.

Pristav bu xonimning ahvolini anglab etdi, cholg‘uchilarga, bas qilinglar, deb qichqirdi. Cholg‘uchilar tinchib qolishdi.

Musiqa tinganini ko‘rib Qurbonalibek cholg‘uchilarga qarab qichqirdi:

— Qani, chaling, nomardlar!

Pristav Qurbonalibekka, xonimlarga yoqmayapti, qo‘y, chalmay qo‘ya qolsinlar, dedi. Qurbonalibek o‘rnidan sakrab turib, pristavga:

— Yo‘q, chalsinlar, men o‘yinga tushmoqchiman, — dedi va pristavning javobini ham kutmasdan:

— Qani, boshlang! “Uzun dara”ni chaling, — dedi.

Cholg‘uchilar chalgani shaylandilar. Biroq shu payt nachalnik o‘rnidan turib, bo‘rkini boshiga kiyarkan, bekka dedi:

— Bek, hali keyin o‘ynaysan. Navkaringni jo‘nat, otingni olib kelsin, men uni bir ko‘ray-chi.

Qurbonalibek o‘ng qo‘lini ko‘zining ustiga qo‘yib:

— Nachalnik, mening o‘sha otim senga qurbon bo‘lsin! — dedi.

So‘ng navkarini chaqirib:

— Karbaloyi Qosim, tez borib otni keltir, nachalnik bir ko‘rib qo‘ysin, — deb buyurdi.

Karbaloyi Qosim yugurib borib otni tabladan tashqariga olib chiqdi. Nachalnik, pristav, Qurbonalibek, yana bir pristav va xonimlardan biri ot tomon yurishdi. Qurbonalibek otning yoniga borib, peshonasini silay boshladi. Nachalnik otning avval ortiga, so‘ng oldiga o‘tib, og‘zini ochib tishlarini ko‘rmoqchi bo‘ldi. Ot boshini tepaga silkib, o‘zini yonga oldi.

Qurbonalibek otga qarab:

— Tek tur, ahmoq! — deya o‘shqirdi.

Nachalnik yana otning ortiga o‘tdi. Qurbonalibek otning jag‘lariga yopishib, og‘zini ochdi va nachalnikka:

— Nachalnik, mana qara. Nega ishonmaysan, o‘zing ko‘rib boq, bu yil to‘rtga qadam qo‘yadi, — dedi.

Nachalnik yaqin kelib egilganicha otning og‘ziga tikildi. Ot tag‘in boshini yuqori silkidi. Qurbonalibekning jahli chiqib, otning jag‘iga musht tushirmoqchi bo‘lgan edi, u oldingi oyoqlari bilan ko‘kka sapchidi. Karbaloyi Qosimning qo‘llaridan jilov chiqib ketishiga bir baxya qoldi.

Karbaloyi Qosim jilovga osilganicha:

— Tek! Tek! — dedi.

So‘ngra nachalnik Karbaloyi Qasimga otni biroz yetaklab aylantirishni buyurdi. Karbaloyi Qosim otni asta-sekin yetaklay boshladi. Jonivor Karbaloyi Qosimga ergashib borar ekan, goh uning kuragiga peshanasini surtar, goh u yoq-bu yoqqa boqib kishnab qo‘yardi.

Nachalnik Qurbonalibekdan yana otning qanday chopishini surishtirdi. Qurbonalibek hech narsa demay nachalnikka qaradi-da, Karbaloyi Qosimni chaqirdi. Karbaloyi Qosim otni uning yoniga olib keldi, Qurbonalibek sakrab otga mindi-da, qorniga niqtadi. Ot turgan yeridan ancha joyga sakrab, yo'l tomon chopa ketdi va hash-pash deguncha ko'zdan yitdi. Birozdan so'ng Qurbonalibek ot choptirgancha qaytib kelib, mehmonlar davrasini surib ketishiga oz qoldi.

Xonimlar qo'rqib ketib o'zlarini bir chetga urdilar. Qurbonalibek otning jilovini qattiq tortib, o'zini pastga otdi va nachalnikning yoniga kelib turdi.

Nachalnik bekka:

— Molodets, — dedi.

Bek unga javoban:

— Nachalnik, bu nima bo'pti! Hali sen mening narigi otimni ko'rmabsan. Uni bir ko'rsang edi! Uning oldida bu ot nima bo'pti, — dedi.

Karbaloyi Qosim otni nari yetaklab ketdi.

* * *

Qorong'i tusha boshlagach pristavning xonalaridagi chiroqlar yoqildi va mehmonlar qarta o'ynashga mashg'ul bo'ldilar. Soat o'n birda mehmonlarni yana ovqatga taklif etdilar va tag'in og'alar va xonimlar ovqatlanadigan xonadagi stollar atrofiga tizilib o'tirib kechki tamaddiga kirishdilar. Nachalnik bir-ikki bo'lak jo'ja go'shti yegandan so'ng sharob butilkasini olib avval o'z stakanini, so'ngra qo'shnilarining stakanlarini to'ldirib o'rnidan turdi, bir stakanni pristavning xotiniga uzatib dedi:

— Bugun bizning bu yerga yig'ilib, vaqtimizni shunday shirin o'tkazishimizga siz sababchi bo'ldingiz. Shuning uchun ham men ushbu qadahni sizning sog'ligingiz uchun ichaman.

Shunday deya u stakanini xonimning stakani bilan to'qishtirib, sharobni ichgach, o'rniga o'tirdi. Yaqinroqda o'tirgan mehmonlar ham stakanlarini xonimning stakan bilan jiringlatib ichdilar. Qurbonalibek ham o'rnidan turib lim-lim to'la stakanini

xonimning stakani bilan to'qishtirib, uning boshi uzra turganicha dedi:

— Men bugun ushbu anjumanda ishtirok etayotganimdan o'zimni baxtli deb hisoblayman. Olloh sening ering Mixail Pavlovichni bizning viloyatga ko'p ko'rmasin. Chunki Mixail Pavlovich hali bizning viloyatga kelmagan paytlarda bizning qishloq ahli ham baxtsiz edi, men ham baxtsiz edim. Shu sababli ham, bilmayman nima uchundir, o'tgan pristavlarni Mixail Pavlovichchalik yoqtirmas edim. Masalan, bundan besh-o'n yil ilgari bu yerning bir pristavi bor edi; juda ayyor yigit edi. Menga bir tozi ham sovg'a qilgandi. Olloh uning ham sog'ligini bersin, sening ham, hammamizning ham sog'ligimizni bersin. Hoy xonim, men sening sog'liging uchun ichaman, urra!

Shunday deya Qurbonalibek sharobni br ko'targanda bo'shatdi, ichib bo'lgach, ichida bir tomchi ham sharob qolmaganini isbotlash uchun stakanni to'ntarib ko'rsatdi va o'z o'rniga borib o'tirdi. Oradan biroz o'tgach pristavning xotini sharob idishini olib, nachalnikning qadahini, o'z qadahini va o'tirgan boshqa mehmonlarning qadahlarini to'ldirib, nachalnikka yuzlandi:

— Shunday uzoq yo'lni bosib kelib meni baxtiyor etganligingiz uchun sizga minnatdorchilik bildirishni o'z burchim deb hisoblayman.

Xonim qadahiga lab tegizib qo'ydi. Mehmonlar ham nachalnikning qadahiga qadah tegizdilar. Qurbonalibek qo'lida to'la qadahi bilan nachalnikning yoniga kelib dedi:

— Janob nachalnik, men bu qadahni sizning sog'ligingiz uchun ko'taraman. Ollohning o'zi shohidki, bizning viloyatda qanchadan qancha nachalnik kelib ketdi, men ularning hech birini unchalik yoqtirmas edim. Nachalnik og'a, sen bizning boshimizning sohibisan. Bizning viloyatda qanchaiki jamoat bo'lsa, hammasi sening yo'lingda o'z boshlaridan kechadilar. Mening o'zim ham sening yo'lingda o'tga kirishga tayyorman. Senga mening jonim qurbon bo'lsin. Toki boshim omon ekan, men sening navkaringman. Men ushbu stakanni nachalnik og'aning sog'ligi uchun ko'taraman. Urra!..

Shunday deya Qurbonalibek stakanni boshiga ko'tardi, ichida bir tomchi ham sharob qolmaganini namoyish etish uchun stakanni to'ntarib ko'rsatdi-da, o'z o'rniga borib o'tirdi.

Mehmonlar tag'in ovqatlanishda davom etdilar.

Oradan biroz fursat o'tgach xonimning eri — pristav sharob idishini olib, avval o'z stakanini, so'ng qo'shnilarining stakanlarini to'ldirdi-da, o'rnidan turib dedi:

— Janoblar va xonimlar! Ma'lumki, agar bizga bironta dushman hujum qiladigan bo'lsa, bizni mudofaa qiladigan qo'shinimiz bo'lishi kerak. Shuning uchun men ushbu qadahni bizning qo'shinlarimizning ofetseri Nikolay Vasilyevich va uning xonimi Anna Ivanovnaning sog'ligi uchun ko'tarman.

Shunday deya pristav stakanlarni bir zobitga va uning yonida o'tirgan ayolga uzatdi. Mehmonlar ham qadahlarni to'qishtirib ichdilar. Qurbonalibek ham o'rnidan turib limmo-lim bir stakanni o'sha zobitga uzatdi va uning xotiniga qarab dedi:

— Hoy afsar[1] janob, hoy xonim, men sizning sog'ligingiz uchun ichaman. Olloh bizning boshimizdan sizning ko'lkangizni kam qilmasin. Olloh dushman qarshisida sizning qilichingizni keskir qilsin. Ya'ni men bu so'zlarni dushmandan qo'rqqanim uchun aytayotganim yo'q. Qaysi dushman jasorat topib mening qarshimga chiqa oladi?! Mana shu xanjar bilan men uning qornini yorib tashlayman. Mening hech qanday dushmandan qo'rqadigan joyim yo'q. Sizning davlatingiz soyasida men hech qanday dushmandan qo'rqmayman. Boshim omon ekan, men xotiningning navkariman. Sog' bo'lsin Anna xonim, urra!..

Bek qadahni bir ko'tarishda bo'shatdi.

Shu zaylda har qaysi janob va xonimning sog'ligi uchun birma-bir ichib chiqdilar. Va har gal Qurbonalibek o'rnidan turib, har bir kishining sha'niga bir nutq aytib, limmo-lim to'la stakanni ichgach, o'rniga borib o'tiraradi. Sekin-asta sharobning havosi bekning boshiga chiqdi va u qattiq mast bo'lib qoldi.

Hamma mehmonlarning sog'ligiga ichib bo'lishgach, Qurbonalibekning sog'ligiga qadah ko'taradigan bo'lishdi. Xonimlar

[1] **Afsar** — ruscha ofitser so'zining buzilgan shakli *(tarj.)*.

stakanlarini birma-bir cho'zib, bekning stakani bilan to'qishtirdilar. Qurbonalibek shodligidan hushdan ketishiga oz qoldi. Mehmonlarning barchasi bekning sog'ligiga ichib bo'lgach, bek stakanini baland ko'tarib dedi:

— Janoblar va xonimlar! Mening sog'ligimga ichganligingiz uchun jonim sizga qurbon bo'lsin. Men o'la-o'lgunimcha bu kunni yoddan chiqarmayman. Lekin, janoblar, mening sizdan bir o'tinchim bor. Xudo haqi, so'zimni yerda qoldirmasligingizni so'rayman. Men sizning hammangizni o'z uyimga mehmonga taklif etaman. Qanday qilib bu xijolatdan chiqishni ham bilmay qoldim. Shuncha xonim mening sog'ligimga ichgani uchun suvdek erib ketyapman. Men kim bo'libmanki, shuncha xonim mening sog'ligim uchun ichsin? Men bu xonimlarning oyog'i ostidagi tuproq ham bo'la olmayman. Xudo haqi, ertaga menikiga mehmon bo'lib kelmasangiz men o'zimni o'ldiraman. Men sizga bir xizmat qilmoqchiman. Men sizning bir navkaringiz bo'lmoqchiman. Ertaga menikiga kelmasangiz, mana shu xanjarim bilan o'z qornimni yorib tashlayman. Janob nachalnik, sendan qattiq iltimos qilaman, hoy xonim, sendan ham iltimos qilaman. Afsar og'adan ham iltimos qilaman. Anna Ivanovna, jonim senga qurbon bo'lsin, sendan ham iltimos qilaman. Janoblar, xonimlar! Hammangizdan iltimos qilaman. Kelmagan nomard. Rahm eting, yo'qsa o'zimni o'ldiraman! Qurbon bo'lsin sizga mening bu jonim. Xonimlar sog' bo'lishsin. Urra!.. Urra!..

Bek stakanni boshiga ko'tardi. Nachalnik labiga bir sigara qistirib, pristavning xotiniga yuzlanganicha dedi:

— Demak, ertaga Qurbonalibeknikiga mehmonga borar ekanmiz-da?

Xonim eriga qarab:

— Men bajonidil borishni xohlayman. Yaxshi bo'lur edi. Bekning xotinini ham ko'rar edim. Qani qanaqangi libos kiyar ekan?

Ofitser ham xotinidan:

— Borasanmi? — deb so'radi.

— Boraman.

Mehmonlardan yana biri:

— Agar bek bizga yaxshi bir musulmoncha palov qilib bersa, men ham boraman, — dedi.

Qurbonalibek palov so'zini eshitib, sapchib o'rnidan turganicha qichqirdi:

— Palov deysizmi? Palovmi? Xudo haqi, sizga shunaqangi bir palov qilib beramanki, umringizda bunday palov yemagansiz. Mening oshpazimdaqa palov pishiradigan oshpaz yo'q! Ishonmasangiz Kabla Qosimdan so'rab ko'ring. Qani Kabla Qosim? Kabla Qosim, hoy Kabla Qosim!

Qurbonalibek go'yo Kabla Qosim shu yerda o'tirgandek baqirib uni chaqira boshladi. Pristavning navkarlaridan biri ichkari kirib, Kabla Qosim bu yerda yo'qligini aytdi. Bek g'azab bilan navkarga o'shqirdi:

— Chaqir u ahmoqni, bu yoqqa kelsin.

Navkar chiqib darvoza tomon ketdi. Pristavning xotini bekka:

— Sen bezovta bo'lma, navkarlar chaqirib kelishadi, — dedi.

Bek palovni ta'riflashda davom etdi:

— Men siz bilan garov o'ynayman. Boshqa bir joyda menikidaqa palov egan bo'lsangiz, tupuring mening yuzimga.

Mehmonlar kulib yuborishdi. Nachalnik ham kula-kula:

— Hoy bek, albatta, uyingdagi maqtovli otingni ham bizga ko'rsatsang kerak? — dedi.

Qurbonalibek nachalnik yoniga kelib, har ikki qo'lini ko'zi ustiga qo'yganicha dedi:

— Ko'z ustiga, qaysi biri yoqsa, senga hadya qilaman. Men dangalini aytaman, chaynalib o'tirishni yoqtirmayman. Qaysi birini xohlasang, o'shanisini senga hadya qilaman.

Navkar qaytib kelib Karbaloyi Qosim uxlab qolganini aytdi. Qurbonalibek avvaliga indamay navkarga baqrayib qarab turdi, so'ng xanjarining dastasiga yopishib:

— Bor, u haromzodaga ayt, hoziroq turib bu yerga kelmasa chavqalab tashlayman, — dedi.

Navkar tag'in chiqib ketdi. Pristavning xotini bekka:

— Sho'rlikni nega bezovta qilasan? Nima keragi bor? — dedi.

Bek:

— Hoy xonim, qurboning bo'lay, bu nima deganing? Bu qadar erta yotishga nima haqi bor? Darhol kelib, mening oshpazim pishiradigan palovni boshqa yana kim pishira olishini aytib bersin! — dedi.

Mehmonlar tag'in kulishdi.

Karbaloyi Qosim shishib ketgan ko'zlarini ishqalaganicha kirib keldi. Og'asi yana qo'lini xanjariga cho'zganicha dedi:

— Kabla Qosim, men seni o'ldiraman! — dedi.

Mehmonlar yana kulib yuborishdi.

Karbaloyi Qosim qo'llarini ko'ksiga qo'yib yumshoqlik bilan:

— Nima uchun, og'aginam? — dedi.

Bek g'azab bilan o'shqirdi:

— Tag'in nima uchun deb so'raydi-ya! Manavi og'alar nimalar deyayotganini o'zing bir ko'r. Men, bizning Ali pishirgan palovni hech kim pishira olmaydi deb qancha aytsam ham, bular ishonishmayapti.

Karbaloyi Qosim yumshoq ohangda:

— Rost, og'a, Ali yaxshi palov qiladi,— dedi.

Qurbonalibek sevinganicha mehmonlarga yuzlanib, baland ovozda:

— Ana, ko'rdingizmi? Ko'rdingizmi, axir? Endi nima deysiz? — dedi.

Mehmonlarning aksar qismi:

— Rost ekan, rost ekan, ishondik, — deyishdi.

Karbaloyi Qosim tashqari chiqib ketdi.

Yarim soatlardan so'ng mehmonlar tarqala boshladilar. Qurbonalibek ham o'z otini, Karbaloyi Qosim qirchang'isini minib yo'lga tushdilar. Bek boshini quyi solintirib mudrab borar, ahyonda bir hushyor tortib, otini to'xtatar va Karbaloyi Qosimga qarab:

— Shu xanjar bilan qorningni yorib tashlayman! — deb qo'yardi.

Karbaloyi Qosim javob bermas, faqat ahyonda:

— Nima uchun, og'aginam? — deb qo'yardi.

— Alidek palov pishiradigan tag'in kim bor?

Ikki soatlardan so'ng og'a va navkari qishloqqa kirib bordilar. Uch-to'rt qishloq itlari Qurbonalibekka hurib qolishdi.

Ot hurkib ketib bir chetga sapchigan edi, bekning qulab tushishiga oz qoldi. Uning bo'rki boshidan uchib ketdi, Karbaloyi Qosim otdan tushib bo'rkni og'asiga olib berdi. Qurbonalibek xanjarini qinidan olib itlar ustiga tashlandi. Itlar qochib qolishdi.

Otlar kattakon bir darvoza oldiga borib to'xtadi. Karbaloyi Qosim yerdan bir tosh olib darvozani qoqa boshladi. Katta papoq kiygan bir kishi darvozani ochib, Qurbonalibek tomon chopib kelib otning jilovidan tutdi. Qurbonalibek otdan tushmay turib xanjarini haligi kishiga o'qtaldi:

— Ali, shu xanjar bilan qorningni yorib tashlayman!

Navkari:

— Ixtiyor senda, og'a, — deb javob berdi.

So'ng bek otdan tushib hovliga kirdi, zinapoyalardan uyga ko'tarildi. Bekning xizmatkori bo'lmish bir keksaroq ayol og'asini qarshi olar ekan:

— Hoy og'a, nega buncha hayallab qolding? Xonim sen uchun juda bezovta bo'ldi, — dedi.

Bek xanjarini ayolga o'qtalib:

— Gulpari, shu xanjar bilan sening qorningni yorib tashlayman, — dedi.

Ayol indamay o'zini chetga oldi. Bek narigi xonaga o'tib, xotini yechinmagan holida uxlab yotganini ko'rdi. U xotinining boshiga borib birpas turdi-da, so'ng xanjarini unga o'qtalib:

— Shu xanjar bilan qorningni yorib tashlayman, — dedi.

Ayol uyg'onmadi. Qurbonalibek boshqa hech narsa demay, xanjarini yerga otdi. So'ng bo'rkini bir chetga uloqtirib, yechina boshladi. Ust-boshi va poyabzalini yechib, har qaysisini g'azab bilan har tomonga otdi, so'ng suv ichib olib, joyiga cho'zildi.

Bek uyquga ketdi.

* * *

Qurbonalibekning xotini sahar uyg'onib qarasa, eri kelib joyiga yotibdi, ayol kiyinib tashqari chiqdi. Xizmatkor supurgi tutib hovlini supurmoqda edi. Karbaloyi Qosim tablaning oldida g'alvir tutganicha otlar uchun arpa tozalab turardi. Oshpaz Ali oshxona eshigi oldida xokandoz tutganicha samovarga ko'mir solmoqda edi.

Hovlining bir chekkasida tovuq-jo'jalar donlamoqda edi, bir gala chumchuq gur etib tushganicha tovuqlarning doniga sherik bo'lar, ammo shitir etgan ovozdan cho'chib ketib, gur etgancha ko'tarilib, tutga borib qo'nardi.

Xizmatkor ayol xonimni ko'rgach, yugurib kelib salom berdi.

Xonim ko'zlarini ishqaganicha bekning qay mahalda kelganini so'radi. Xizmatkor uning yarim kechadan o'tganda kelganini aytdi. Xonim Karbaloyi Qosimni chaqirdi. Karbaloyi Qosim tabladan chiqib, yugurib kelib xonimga bosh egdi.

Xonim undan:

— Nega buncha kech keldingiz? — deb so'radi.

Karbaloyi Qosim:

— Mehmondorchilik juda cho'zilib ketdi, shuning uchun kech qaytdik, — deb javob berdi.

Xonim:

— Pristavning mehmoni ko'p bo'ldimi? — deb so'rdi.

— Ha, xonim, ko'p bo'ldi, — dedi Karbaloyi Qosim.

Xonim:

— Kimlar kelishdi? — deb so'radi.

Qosim:

— E xonim, men qaydan bilay, hammasi katta kishilar edi. Xonimlar ham ko'p edi. Nachalnikning o'zi ham bor edi. Ko'p odam bor edi, — deb javob berdi.

Xonim yana so'radi:

— Kabla Qosim, xonimlar ham erkaklar bilan birga o'tirishdimi yoki boshqa-boshqa o'tirishdimi?

Karbaloyi Qosim:

— Yo'q, hammasi bir-biriga qorishib ketgan edi, — dedi.

Xizmatkor ayol bu so'zni eshitib:

— Yo tavba! — deb yubordi.

Xonim zinapoya ustiga o'tirib olib, Karbaloyi Qosimni yanada yaqinroq chaqirdi-da:

— Kabla Qosim, qani, bir boshdan aytib ber-chi, mehmondorchilik qanday o'tdi, mehmonlarga nima tortishdi, og'ang nima qildi, kim bilan gaplashdi, nima deb gaplashdi? Hamma-hammasini so'zlab ber, — dedi.

Karbaloyi Qosim chakmonining etagini ko‘tarib og‘iz-burunlarini artdi. Tabladagi otlar bir-biriga qarab kishnay boshladi, Karbaloyi Qosim tabla tomonga qarab:

— Tek! Tek! — deb qichqirdi.

Xonim yana Karbaloyi Qosimga yuzlanib:

— Qani bo‘l, Kabla Qosim, ayta qol, — dedi.

Karbaloyi Qosim:

— Yana nima deyman, xonim? Mehmonlar ko‘p edi. Nachalnik ham o‘sha yerda edi, — dedi.

Xonim:

— Kabla Qosim, o‘ris xotinlari erkaklar bilan nimalarni gaplashdilar? — deb so‘radi.

— Nima deb gaplashganlarini men qaydan bilay? Axir, men ularning tilini tushunmayman-ku, — deb javob berdi Karbaloyi Qosim.

Xonim yana savol berdi:

— Kabla Qosim, rostini ayt, og‘ang ham o‘ris xotinlar bilan gaplashdimi?

Karbaloyi Qosim tablaga qarab tag‘in bir qichqirdi-da, xonimga yuzlanib:

— Og‘am o‘ris xotinlari bilan kam gaplashdi, lekin nachalnik bilan ko‘p gaplashdi, — dedi.

Oshpaz Ali zinapoya ustiga samovar keltirib qo‘ydi. Xizmatkor supurgini devorga suyab, zinapoya ustiga chiqib keldi-da, samovarni ichkariga ko‘tarib ketdi. Oshpaz Ali xonimning yoniga kelib:

— Xonim, bugun nima pishiray? — deb so‘radi.

Xonim xizmatkorni chaqirib:

— Qurbonalibek kecha nima pishirish kerakligini aytmadimi? — deb so‘radi.

Xizmatkor qo‘lida quruq choy idishini tutuganicha xonimning yoniga kelib:

— Kecha og‘a shunchalik g‘azabda ediki, meni o‘ldirishiga oz qoldi, — dedi.

Xonim hayron bo‘lib:

— Bo‘pti, bo‘pti! Bunday dema! Jinni bo‘ldingmi! — dedi.

— Xudo haqi, xonim, Xon uyga kirgan zahoti xanjarini chiqarib, "shu xanjar bilan seni o'ldiraman!" dedi.

Xonim birpas jim qoldi, so'ng Karbaloyi Qosimdan:

— Kabla Qosim, og'ang nimadan g'azablandi? — deb so'radi.

Kabla Qosim:

— Og'am hech narsadan g'azablangani yo'q. Faqat qishloqqa kirganda la'nati itlar hurib chiqib otlarimizni hurkitdi, — dedi.

Xonim o'rnidan turib:

— Kabla Qosim, og'ang yana mast bo'lganga o'xshaydi, — dedi.

— Yo'q, mast emas edi, — deb javob berdi Karbaloyi Qosim.

Xonim ichkari kirib oyoq uchida Qurbonalibekka yaqin bordi, u hamon toshdek qotib yotar edi. Xonim tashqari chiqib, oshpaz Aliga o'n olti kapik berar ekan:

— Ali, borib ikki girvonka go'sht keltir, bo'zbosh pishir! — dedi.

— Bosh ustiga, — dedi Ali pullarni olib.

Karbaloyi Qosim va Ali oshxona tomon ketishdi.

* * *

Kun chiqdi, peshin ham bo'ldi. Karbaloyi Qosim hovlidagi tut daraxtining ostida o'tirar, har zamonda bir tosh olganicha tutga otib qushlarni quvar, pishib yerga to'kilgan tutlarni terib yer edi.

Xizmatkor ayol ham uning yoniga kelib tutlarni saralab yeya boshladi. Birozdan so'ng xonim ham ularning yoniga kelib, pishgan tutlarga boqar ekan, Qosimga daraxtga chiqib tut qoqishni buyurdi. Xizmatkor ichkaridan bir choyshab olib chiqdi. Oshpaz Ali ham ularning yoniga kelib:

— Siz choyshab tutib turing, men chiqib tut qoqaman, — dedi.

Ali daraxtga chiqdi. Xonim, xizmatkor ayol va Karbaloyi Qosim choyshab tutib turdilar, Ali daraxtning bir shoxini silkalagan edi, pishgan yirik-yirik, oppoq tutlar choyshabga to'kildi. Ali shoxni bir-ikki tepgandan so'ng yuqoriroq ko'tarildi. Daraxt tepasidan qishloqning atroflari kaftdek ko'rinib turar edi. Bir tomonda tizilib turgan Sapich tog'lari, tog' etagidagi Sapich qishlog'i yaqqol

ko‘zga tashlanib turar edi. Qishloq etagida Ahmadxon ko‘li mavjlanib yotardi. Ko‘l yonidagi Hoji Haydarning tegirmoni va o‘rmoni aniq-tiniq ko‘rinib turardi. Tegirmondan Qapazli qishlog‘iga qadar pol-pol yashil ekinzorlar, beda dalalari, qop-qora shudgorlar yastanib yotardi. Goh u yerda, goh bu yerda omoch surib yurgan qo‘shchilar ko‘zga tashlanardi.

Bu manzarani tomosha qilib turgan Alining ko‘zi yana bir narsaga tushdi: Hoji Haydar tegirmonining yonidan bir dasta otliq qishloq sari kelmoqda edi. Ali avvaliga bunga e’tibor bermay, boshqa bir shoxni tepkilay boshladi. Ammo jiddiyroq e’tibor berib qarasa, ular qishloq odamlariga o‘xshamaydi. Ali pastga qarab:

— Kabla Qosim, qishlog‘imizga bir to‘p otliq kelyapti, lekin qishloq odamlariga o‘xshamaydi, — dedi.

Karbaloyi Qosim, xonim va xizmatkor ayol bir-biriga tikilib qolishdi. Nihoyat, xonim tilga kirib:

— Kabla Qosim, oshxona tomiga chiqib qara-chi, qanaqa otliqlar ekan, — dedi.

Karbaloyi Qosim borib pastak bir devorga, undan oshxona tomiga chiqdi-da, o‘ng qo‘lini ko‘zi ustiga soyabon qilib yo‘lga diqqat bilan tikila boshladi.

Karbaloyi Qosimning avval qishloqqa yaqinlashib qolgan ikki otliqqa ko‘zi tushdi. Ular qattiq ot choptirib kelmoqda edilar. Yo‘lda ulardan boshqa hech zot ko‘rinmasdi. Ammo biroz o‘tgach, Marazaning yonidagi qator tollar ortidan bir to‘p otliq chiqib keldi. Ular ichida nachalnik va pristavlarning pogonlari, xonimlarning shlapalari yaqqol ko‘rinib turardi.

Karbaloyi Qosim shosha-pisha pastga tushib, xonimning yoniga kelib hansiraganicha:

— Xonim, bu kelayotganlar kechagi mehmonlarga o‘xshaydi, — dedi.

Xonim choyshab uchini yerga tashlaganicha Karbaloyi Qosimga yaqin kelib:

— Kechagi mehmonlarning bu yerda nima ishlari bor? — deb so‘radi.

Karbaloyi Qosim qo‘l qovushtirgancha:

— Men qaydan bilay, xonim, — deb javob berdi.

Shu payt ko‘chada qiyomat-qoyim qo‘pdi. Itlarning hurishi, odamlarning yugur-yuguri, otlarning dupur-dupuri. Biroz o‘tgach darvoza taqillab qoldi.

Xonim yugurganicha uyga kirib, derazadan ko‘chaga nazar tashladi; ko‘cha otlarga to‘lib ketgan edi — hammasi rus xizmatchilari, rus xonimlari.

Karbaloyi Qosim darvozaga chiqib qarasa, kechagi pristav uyidagi mehmonlarning hammasi darvoza oldida to‘planib turishibdi.

Xonim tashqariga yugurib chiqib, Alini chaqirganicha dedi:

— Yugur, ayt, og‘a uyda yo‘q de.

Ali darvozaga, xonim ichkariga qarab yugurishdi. Xonim Qurbonalibekni uyg‘otdi. Bek “o...oh” deb narigi yonboshiga ag‘darildi.

Xotini:

— Hoy, tur, biznikiga kechagi mehmonlar kelishibdi, — dedi.

Qurbonalibek yana “o...oh” deb ko‘zlarini ochdi va xotiniga:

— Daf bo‘l! — dedi.

Xotini tag‘in gapini takror qildi. Qurbonalibek ko‘zlarini ochib qomatini ko‘tardi va:

— Nima deyapsan? — deb so‘radi.

Xotini gapini yana takrorladi. Bek sapchib o‘rnidan turdi, nimadir yodiga tushib, xonaning u boshidan bu boshiga yugurib qoldi, so‘ng xotiniga:

— Og‘a uyda yo‘q deb aytsinlar, — dedi.

Xotini yana tashqari qarab yugurdi. Bek choyshabni boshiga paranji qilib solganicha hovliga chiqdi, yugurib tablaga kirdi-da, otning oxuriga yotib oldi.

Navkarlar mehmonlarga:

— Og‘a uyda yo‘q, — deyishdi.

Nachalnik bu javobni eshitib taajjubga tushdi; boshqa mehmonlar ham mot bo‘lib qolishdi. Qishloqliklar mehmonlarning otlari atrofidan aylanib tomosha qila boshladilar. Nachalnik bir papiros chiqarib tutatganicha so‘radi:

— Bek uyda bo‘lmasa, qayoqqa ketgan?

Navkarlar:

— Bilmaymiz, — deb javob berishdi.

Xonimlardan biri bir stakan suv so'radi. Karbaloyi Qosim yugurib uyga kirib ketganicha bir kosa suv ko'tarib chiqdi. Mehmonlar biroz bir-birlariga tikilib turishgach:

— Nega bundoq turibmiz, qayta qolaylik, — deyishdi.

Nachalnik ham bunga rozi bo'ldi, lekin qo'qqisdan Karbaloyi Qosimdan:

— Bekning otlari tabladami? — deb so'radi.

— Ha, — dedi Karbaloyi Qosim.

Shu payt tabladagi otlardan biri kishnay boshladi. Nachalnik hamrohlariga shunday taklif qildi:

— Juda yaxshi. Lekin shuncha yo'lga ovora bo'lib keldik, hech bo'lmasa bekning otlarini ko'raylik-da, keyin ketaylik.

Hamrohlari rozi bo'lishdi. Nachalnik Karbaloyi Qosimdan tablaga kirish uchun izn so'radi. Karbaloyi Qosim:

— Marhamat! — dedi.

Nachalnik, ikki pristav, mol do'xtiri, ikki xonim va kazak zobiti hovliga kirib, tabla tomon yurishdi. Qurbonalibekning xotini hovlidagi mehmonlarni ko'rib, o'zini ichkari urdi. Mehmonlar tablaga kirishdi. Nachalnik oldindagi otni ko'rib:

— Bu o'sha kechagi ot, — dedi.

So'ng mehmonlar ichkariroq kirib, bir to'riq ot yonida to'xtadilar. Nachalnik otning oldiga borib, Karbaloyi Qosimdan:

— Bek ta'rif qilgan ot mana shumi? — deb so'radi.

— Shu, — dedi Karbaloyi Qosim.

Mehmonlar otning u yoq-bu yog'idan o'tib ko'ra boshladilar. Nachalnik otning jag'ini ochib ko'rish uchun oxur tomon o'tdi. Oxur yoniga borganda qo'qqisdan ortiga sakraganicha baqirib yubordi:

— Ax, chyort vozmi!

Nachalnik oxurda go'yo kafanga o'ralgandek bir narsani ko'rib qolgan edi. U yonidagi pristavning qo'liga yopishganicha cho'chinqirab oxurga yaqin bordi. Mundoq sinchiklab qarasa, bu Qurbonalibek ekan.

Buni ko'rgan nachalnik chapak chalganicha qah-qah otib kulib yubordi:

— E...e...e... o'rtoq, sen bu yerda ekansan-ku!!.

Mehmonlar ham birma-bir kelib bekka diqqat bilan tikildilar va bir chetga borib turdilar.

Qurbonalibek miq etmay yotardi.

Mehmonlar ko'chaga chiqib otlariga mindilar-da, ortga qaytdilar.

USTA ZAYNAL

Mug'dusi Akop degan armaniga to'ng'ich o'g'lidan Tiflisdan chiqqanligi haqida telegraf keldi. Bu yigit Maskva dorilfununida to'rt yarim yil saboq olib, tahsilini tugatib, yurtiga qaytayotgan edi; shu to'rt yil mobaynida u faqat bundan uch yil oldin atigi bir marta ota-onalarini ko'rgani kelib ketgan edi.

Bu xabar Mug'dusi Akopni, uning xotini va kenjatoy o'g'lini nihoyatda shod qildi: uch yillik ayriliqdan so'ng universitetni tugatgan farzand bilan ko'rishmoq chindan ham katta baxt edi.

Mug'dusi Akop xotinining qo'lidan tutgancha xonalarni ko'zdan kechira boshladilar; er va xotin maslahatlashib, kichik xonaga karavot qo'yib, aziz mehmon uchun yotoqxona qilib berish; shu xonaga yondosh yana bir kichik xonaga yozuv stoli qo'yib, uni aziz mehmonga darsxona qilib berish; katta xonaga gilam to'shab, uni zal va mehmonxona qilish; to'rtinchi xonani nonushta xonasi qilish; beshinchi xonani o'zlari uchun xobxona qilish va oltinchi xonani kenja o'g'illariga ajratish qaroriga keldilar.

Xonalarning hech bir kamchiligi yo'q, devorlarning gulqog'ozi yangi va toza, pollar yangidan bo'yalgan edi. Lekin bundan bir necha kun avval yog'gan sharros yomg'irdan so'ng zal shiftining chiroq osiladigan ilgagidan derazagacha bo'lgan ganchi to'kilib tushgan edi.

Mug'dusi Akop bilan xotini bir suvoqchi topib, shiftning ko'chgan yerini ta'mirlatishga kelishib oldilar.

Mug'dusi o'g'lining bu qadar tez kelishini kutmagan edi. Chunki o'g'li Maskovdan chiqayotganda Tiflisdagi tog'asinikida ikki haftacha mehmon bo'lishini yozib yuborgan edi.

Shiftning ganch ko‘chgan joyidagi yomg‘ir rutubati hali butunlay qurimagan, shuning uchun Mug‘dusi Akop shiftni yaxshi qurigandan so‘ng ta’mirlamoqchi edi, agar o‘g‘lining bu qadar tez kelishini bilganida, ishni paysalga solmay, allaqachon ta’mirlab qo‘ygan bo‘lur edi.

Tiflisdan bu yergacha uch kunlik yo‘l edi. Akop bilan xotini mumkin qadar tez bir usta chaqirib, ikki kun ichida shiftni ta’mirdan chiqarishga kelishib oldilar.

Mug‘dusi o‘z qo‘shnilari orasida Usta Ja’far degan mahoratli suvoqchi va ajoyib ganchkor usta borligini ko‘pdan beri yaxshi bilardi. Mug‘dusi Usta Ja’farning uyiga borib, eshik qoqqanicha ustani chaqirdi. Oyoq yalang bir ayol eshikka chiqib:

— Usta Ja’far Muhammad Og‘aning uyiga ishlagani ketgan, kechqurun qaytadi, — deb javob berdi.

Mug‘dusining biroz shashti sindi; chunki qo‘li bo‘sh usta topishga endi umidi qolmagan, biroq ertagacha kutib turishni ham istamas, zero, bir kun ichida ham shiftni ta’mirlash, ham xonaning to‘z-tuprog‘ini tozalashga fursat qolmas edi.

Mug‘dusi Akop borib do‘konchi qo‘shnisi Hoji Rasulga dardini yordi, Hoji Rasul Mug‘dusiga yaqindagina Erondan kelgan Usta Zaynalni ta’riflay ketdi.

Odam jo‘natib, Usta Zaynalni oldirdilar. Usta Zaynal har bir kuni uchun ikki manat evaziga shiftni ta’mirlab berishga rozi bo‘ldi. Faqat shu shart bilanki, u bugunoq ishni boshlab, erta kechqurunga qadar tugatib, xonani to‘z-tuproqdan tozalab berishi kerak edi. Usta Zaynal agar bu shartni o‘z muddatida ado etsa, Mug‘dusi ustaga yana olti yarim arshin movut berishni ham va’da qildi.

Bir soat ichida Usta Zaynal shogirdi Qurbon bilan Mug‘dusi Akopnikiga yetib keldi, qo‘lidagi xurjunni ayvonga qo‘yib, xonaga kirdi, shiftni ko‘zdan kechirgach, Mug‘dusiga yuzlandi:

— Xo‘jayin, erta kechqurungacha tugatolmasam kerak deb qo‘rqaman.

— Bu yerda o‘zi qancha ish borki, erta kechqurungacha tugamasa, — deb javob berdi Mug‘dusi Akop. Usta yana diqqat bilan shiftga boqqanicha dedi:

— Bugun kechqurungacha faqat ganch elab tayyorlab qo'yiladi, narvon olib kelinadi, havoza ko'tariladi, idish-asboblar keltiriladi... Bularning hammasi ancha cho'ziladigan ish.

Mug'dusi Akop, bularning hammasi bir soatning ichida bitadigan ish deb ta'kidladi va Usta Zaynaldan jinday g'ayrat qilib, tezroq tugatishni qattiq iltimos qildi.

Mug'dusi Akop Qurbonga pul berib, bir eshak yaxshi ganchdan olib kelish uchun jo'natdi; o'zi, xotini va kenjatoy o'g'li ustaning farmoyishlarini birma-bir bajarishga kirishdilar. Usta Zaynal ayvonga chiqib, chubug'ini oldi-da, cheka boshladi. Mug'dusi Akop kenja o'g'li bilan hovlidan narvonni xonaga olib kirdi, Mug'dusining xotini narigi xonadan bir quti papiros va bitta gugurt olib chiqib, usta Zaynalning oldiga qo'ydi. Mug'dusi o'g'li bilan xonaga hovlidan bir nechta katta-kichik taxta olib kirishdi. Usta Zaynalning talabiga ko'ra Mug'dusi o'g'li bilan borib qo'shnidan yana bir narvon olib keldilar.

Bir soatlardan so'ng hovliga yuk ortilgan bir eshak kirib keldi. Ust-boshi ganch bo'lgan eshakchi, ustaning shogirdi va usta har biri bir tomondan qoplarni quchoqlagancha eshakning ustidan oldilar va eltib yerga bo'shatdilar. Eshakchi qoplarni eshak ustiga otib, jonivorning ketidan bir tepganicha hovlidan haydab chiqdi.

Usta Zaynal chubug'ini chekib bo'lgach, kulini bo'shatib o'rnidan turdi, movutsimon matodan tikilgan eski peshbandini buklab bir chetga qo'ydi va Mug'dusining xotinidan elak so'radi. Ayol elakni olib kelgach, Qurbon xonaning bir burchagiga o'tirganicha ganch elay boshladi. Mug'dusi Akop Usta Zaynalga yordamlashib, narvonlardan birini xonaning bir devoriga, ikkinchisini esa uning qarshisidagi devorga suyab qo'ydilar, usta Zaynal bir uzun va baquvvat taxtani narvonlarning eng tepadagi poyasiga ko'ndalang qo'ydi, ayvonga chiqib bir dona papiros bilan gugurt olib kirdi, papirosini yoqdi-da, Mug'dusi Akopga yuzlandi:

— Xo'jayin, bu imoratni qaysi usta qurgan?

Mug'dusi Akop, qaysi usta qurganini bilmayman, chunki bu imoratni otam qurdirgan, u esa qaysi ustaga qurdirganini bilmayman, deb javob qildi.

Usta Zaynal boshidan bo‘rkini olib, uning ichidan qasmoq bog‘lagan araqchinini chiqarib kal boshiga qo‘ndirdi, bo‘rkini deraza ichiga qo‘yib, yana Mug‘dusi Akopni savolga tutdi:

— Xo‘jayin, Urusatdan[1] kelayotgan o‘g‘ling necha yoshda?

Mug‘dusi Akop, Urusatdan kelayotgan o‘g‘lim yigirma to‘rt yoshda, deb javob berdi va Usta Zaynaldan jinday tezroq ishlashni iltimos qildi.

— Xo‘jayin, hech bezovta bo‘lma, nega yuragingni siqasan? Men o‘lib qolsam ham tushgacha tugataman.

So‘ng usta Zaynal biroz o‘ylanib turib, Qurbonga yuzlandi:

— Qurbon, bir narsa esimga tushib qoldi, darhol o‘rningdan tur. Qani bo‘l tez. Biznikida bir sopol tos, mo‘ndi, sopol cho‘mich bor, o‘shalarni olib kel.

Qurbon “yo Olloh” deya o‘rnidan turdi, etaklarining ganchini qoqib, boshmoqlarini kiydi va eran-qaran keta boshladi. Mug‘dusi Akop Usta Zaynalga:

— Aytgan narsalaringning hammasi shu yerda bor. Nima kerak bekorga ovora bo‘lib, vaqtni yo‘qotib? — dedi.

Usta Zaynal avvaliga nima deb javob qilishini bilmay turdi, so‘ng qo‘lidagi papirosini deraza kesakisiga bosib o‘chirar ekan:

— Hechqisi yo‘q, xo‘jayin, nima qipti? Qurbon darhol borib hammasini olib keladi. Nima qipti? — dedi.

Shunday deya Usta Zaynal derazaga egilib, hovliga diqqat bilan razm solar ekan, Mug‘dusidan so‘radi:

— Xo‘jayin, hovlida oqar suv bormi?

Mug‘dusi Akop:

— Anavi ariqning suvi doim oqib yotadi, — dedi.

Usta Zaynal “juda soz” deya peshbandini ocha boshladi. Mug‘dusi Akop xotinining yoniga chiqib ketdi. Xotini undan:

— Ustalar qalay ishlashyapti? — deb so‘radi.

Mug‘dusi Akop, ustalardan ko‘zim suv ichmay turibdi, juda sekin qimirlashyapti, deb javob berdi.

Yarim soatlardan so‘ng Qurbon mo‘ndi, tos, cho‘mich va bir oftoba ko‘tarib keldi. Usta Zaynal peshbandini ochar ekan, Qur-

[1] **Urusat** — Rossiya *(tarj.)*.

bonga serrayib turmasdan darhol suv keltirib, ganch qorishni buyurdi. Qurbon ayvonga chiqib, mo‘ndini olgancha hovliga yurdi, ariqdan mo‘ndini to‘ldirib keldi-da, tosga suv quydi, so‘ng uning ustidan hovuchlab ganch sola boshladi. Usta Zaynal kamzulini yechib buklaganicha derazaga qo‘ydi, ayvonga chiqib, andava olib keldi va “yo Ali” deganicha narvon poyalaridan taxtaning ustiga chiqdi. Qurbon ganchni qorib bo‘lib, narvonning to‘rtinchi poyasiga chiqdi-da, tosni taxtaning ustiga qo‘yib pastga tushdi. Usta Zaynal “Bismilloh” deya so‘l qo‘li bilan bir hovuch ganchni andava ustiga qo‘yib, shiftni suvay boshladi.

Mug‘dusi Akop ish boshlanib ketganini ko‘rib, ko‘ngli sal taskin topdi. Hatto xotini sevinib ketganidan Usta Zaynalga choy ham taklif qildi. Usta Zaynal choy borasidagi taklifga minnatdorchilik bildirar ekan, xizmat bo‘lmasa, menga bir dona papiros bilan gugurt bersangizlar, dedi, chunki Qurbonning qo‘li ganchga belangan edi. Mug‘dusi Akop Usta Zaynalga papiros va gugurt uzatdi. Usta papirosni labiga qistirib, ishini davom ettirar ekan, so‘radi:

— Xo‘jayin, o‘g‘ling necha yil saboq oldi?

— O‘n to‘rt yil o‘qidi, — deb javob berdi Mug‘dusi.

— Mosholloh, mosholloh. Unda, xo‘jayin, u juda ko‘p kitob o‘qigan bo‘lsa kerak?

— Albatta, ko‘p kitob o‘qigan.

— Mosholloh, mosholloh. Unda, xo‘jayin, xatti ham yaxshi bo‘lsa kerak?

— Qanaqa xatti? — deb so‘radi Mug‘dusi Akop.

— Ya’ni yozuvi, qalami.

— Albatta, yaxshi.

Usta Zaynal andavasini taxtaning ustiga qo‘yib, o‘chib qolgan papirosini qayta yoqdi-da, havoza ustiga cho‘nqayib o‘tirganicha gapga tushib ketdi:

— Xo‘jayin, qanchalik yaxshi bo‘lsa ham, ont ichib ayta olamanki, bizning o‘qiganlarimizning xattiga yeta olmaydi. Har ikkimizni yaratganning nomiga qasamki, vatanda[1] ukamning bir o‘g‘li bor, nari borsa 13–14 yoshlarda. Rosa zo‘r saboq olgan deb

[1] **Vatanda** — yurtimizda, ya’ni Eronda demoqchi *(tarj.)*.

o'ylaysanmi? Yo'q. Hammasi bo'lib yetti-sakkiz yil masjidga qatnagan, "Guliston"ni faqat ikkinchi bobigacha o'qigan, xolos. Ammo xattini ko'r-da tomosha qil! Ollohning o'zi kechirsin, Olloh o'z jaloli haqi, sen sho'rlikka farzand dog'ini ko'rsatmasin.

Usta Zaynal gapini qisqa qilsin va ishini davom ettirsin degan ma'noda Mug'dusi Akop hech narsa demadi.

Qurbon tosdagi ganch qotib qolib, zoye ketganini bildi, narvonga chiqib, tosni pastga olib tushdi, uni qirib tozaladi, so'ng uni yerga bo'shatib, yangidan ganch qordi-da, yana narvonga chiqdi. Usta Zaynal papirosining cho'g'ini jizillatgancha ganchaga bosib o'chirdi va suvoqni davom ettirar ekan, tag'in so'rab qoldi:

— Xo'jayin, nega sizlarning podshohingiz yo'q?

Mug'dusi Akop javob bermay xonadan chiqdi. Yarim soatlardan keyin xonaga qaytib kirib qarasa, Usta Zaynal pastga tushib olibdi. Qurbon cho'mich bilan suv quyib turibdi, usta tosning ichida qo'llarini yuvmoqda. Mug'dusi Usta Zaynaldan nega ishni to'xtatding, deb so'radi. Usta, peshin namozining vaqti bo'lib qoldi, namozni o'qib olib keyin ishni davom ettiramiz, dedi.

Yarim soatlardan so'ng usta Zaynal havozaga chiqdi, Qurbon ganch qorishtira boshladi. Mug'dusi Akop ustalar ishga kirishganini ko'rib, Usta Zaynal suhbatga chalg'imasdan, tezroq ishlasin deya ularning yoniga kirmay, narigi xonada o'tirdi. Mug'dusi gazeta sahifasini ochib qo'yib, temir yo'lning bu tomonga harakatini o'rganar, o'g'li qaysi poyezdga chiqishi mumkinligi-yu qachon vatanga yetib kelishini hisob-kitob qilardi.

Usta Zaynalning:

— Qurbon, ganch qor, — degan ovozi eshtildi.

Mug'dusi, agar poyezd Tiflisdan ertalab soat beshda chiqqan bo'lsa, kechqurun Olmali bekatiga yetib keladi, deb hisob-kitob qilardi.

Usta Zaynalning:

— Qurbon, kimga taqlid qilasan? — degan ovozi eshitildi.

Qurbondan sado chiqmadi. Mug'dusi hamon hisob-kitob qilar edi: ertaga kechqurun poyezd Kurdlar bekatiga yetib keladi. Shu

hisob to‘g‘ri bo‘lsa, ertamas indin kuni ertalab soat to‘qqizlarda poyezd yetib kelsa kerak.

Usta Zaynal bunday suhbatni boshlab yuborgan edi:

— Agar sizning viloyatingizdagi musulmonlar musulmonga bir tukchalik o‘xshasa ham, mening padarimga la’nat! Anavi oriyatsiz og‘a Sodig‘ingga bir qara! O‘tgan hafta o‘shanikida ishladim. Mal’unning mol-davlati oshib-toshib yotibdi. Og‘a Sodiq, og‘ayni, bu mol-dunyoni nima uchun yig‘gansan? Nega bir mundoq Karbalo ziyoratiga bormaysan, deb so‘radim. U benomus, imkon topa olmayapman, deb o‘n ikki imom nomiga ont ichib o‘tiribdi. Nega imkon topa olmas ekansan, la’nati? Bundoq imoratlar qurishga imkon topasan! Ot saqlashga, movut chakmon kiyishga, uchta xotin olishga imkon topasan! Xo‘sh, endi sening armanidan nima farqing qoldi? Xullas, Qurbon, sizning viloyatingizdagi musulmonlar haddan jafo loqayd. Ganchni uzat!..

Qurbon narvon poyalaridan ko‘tarilar ekan, dedi:

— Otangga rahmat, usta. Og‘a Sodiqning hech bir aybi yo‘q. Og‘a Sodiq nima qilsin? Imomning o‘zi odamning ko‘ngliga solishi kerak; agar imom ko‘ngliga solmasa, qanday qilib ziyoratga borib bo‘ladi?

Usta g‘azablangancha baqirib berdi:

— Bekorlarni aytibsan, hoy nodon, bunaqangi ahmoqona gaplarni dubora og‘zingga olma! Agar odamning o‘zida imomga muhabbat bo‘lmasa, imom qanday qilib u mal’unning ko‘ngliga soladi. Og‘a Sodiq kabi ahmoqlar uning ziyoratiga boradimi, yo‘qmi, imomga nima lozim!

Qurbon ganch solingan tosni poyama-poya yuqoriga ko‘tarar ekan, dedi:

— Usta, nima desang deyaver, lekin imom odamning ko‘ngliga solmaguncha ziyoratga borib bo‘lmaydi.

Usta Zaynal Qurbonga achchiqlanib qaradi, havoza ustiga cho‘nqayib o‘tirganicha papirosini yoqdi-da, qo‘lini paxsa qilib gapira ketdi:

— Mana, meni olib ko‘r, o‘zim bir kambag‘al suvoqchiman. Bir andava va bir xurjundan bo‘lak hech qanaqa mol-davlatim yo‘q; chunki avvaldan men dunyo moliga mehr qo‘ygan emasman.

Chunki dunyo moli dunyoda qoladi. Olloh taoloning o'zi Qur'oni majidida: "Jahon, ey barodar, namonad ba kas..."[1] deb marhamat etgan. Olloh sening ham o'tganlaringni rahmat etsin, rahmatlik otam zanganlik Hoji Haydar Zanganda mo'tabar kishilardan biri edi, o'ziga yarasha yaxshigina mol-davlati ham bor edi. Otam vafot etganida men o'n ikki yoshda edim. Meni uylantirmoqchi bo'lishdi. Ayniqsa, amakim G'ulomali shu fikrda qattiq turib oldi, chunki qizini menga mo'ljallagan edi. Qizi esa biroz kichik edi... Kel, tosni ol, ganch qor... Qizi nari borsa olti-yetti yoshlarda edi; agar meni dorga ossangiz ham, chahordah ma'sumni ziyorat qilmaguncha uylanmayman, dedim men; chunki qiz ham hali biroz kichkina edi. To'g'ri, mening ziyoratga borishimga amakimning hech qarshiligi yo'q edi, lekin men amakim avval meni uylantirib, so'ng ziyoratga yuborish niyatida ekanini bilib turardim. Vallohi, billohi, istasangiz meni o'ldiring, istasangiz och qo'ying, lekin baribir ketaman, deb turib oldim men.

Mug'dusi ichkari kirib ko'rsa, Usta Zaynal taxtaning ustida cho'nqayib olgancha suhbatlashib o'tiribdi. Mug'dusi qovog'ini uygancha boshini yuqori ko'tarib, har ikki qo'lini Usta Zaynalga cho'zgancha dedi:

— Hoy usta Zaynal, Xudo haqi, ishingni qilsang-chi, erta kechurunga qadar tugatishing kerak, axir, ertaga tugata olmasang, ish chala qolib ketadi, chunki indin ertalab mehmonlar yetib keladi.

Usta Zaynal o'rnidan turib andavani oldi, qo'li bilan qotib qolgan ganchni bosib ko'rib Qurbonga:

— Qurbon, ganch qor, — dedi.

So'ngra Mug'dusi Akopga yuzlanib:

— Hoy xo'jayin, axir men boshimni qaysi toshga urayin? Mana bunaqangi ahmoqlar kishini dali-devona qiladi. Odamni mundoq jimgina ishlagani ham qo'ymaydi, — dedi.

Mug'usi Akop qosh-qovog'idan qor yog'ib Usta Zaynalga:

— Hoy baraka topkurlar, axir siz bu yerga ishlagani kelganmisiz yoki janjallashgani? Axir, siz janjallashsangiz, ishni kim qiladi, — dedi.

[1] *Tarjimasi*: ey birodar, dunyo hech bir kimsaga qolmaydi *(muallif)*.

Usta Zaynal Mug'dusi tomon o'girilib, qo'lidagi andavani ko'kragiga ikki bora urib:

— Ishni men qilaman, men! — dedi. — Yuragingni nega siqasan, xo'jayin? Joning sog' bo'lsin. Bu ishni o'zi nima bo'libdiki, ertaga tugatmasam? O'libmanmi ishingni chala qoldirib? Agar shu ishni ertaga tugatmasam, sendan sariq chaqa ham olmayman.

— Yaxshi, Usta Zaynal, masalan, sen mendan sariq chaqa ham olmading deylik; lekin ish chala qolib ketsa, mehmonlar kelib uyni mana bu ahvolda ko'rsa, bundan menga nima foyda?

— Ko'nglingni keng qil, xo'jayin. Olloh karimdir. Yer-u ko'kni yo'q yerdan bunyod etgan yolg'iz Ollohdan umid qil. Agar Olloh madadkor bo'lsa, bitta bu ish emas, o'ntasi bo'lsa ham bir daqiqada tugatib tashlayman; agar Ollohdan imdod bo'lmasa, unda menda nima gunoh?.. Qurbon, ganch ber.

Oqshomga bir soatcha qolganda ustalar qo'llarini yuvib, ishdan chiqdilar. Shiftning olti hissadan faqat bir hissasi bitgan edi, xolos. Ustalar ketayotganda Mug'dusi Akop ulardan vaqtliroq kelishni qattiq iltimos qildi. Usta Zaynalning Mug'dusi bergan javobi faqat shu bo'ldi:

— Ko'nglingni keng qil, xo'jayin, Olloh karimdir.

Erta tong payti Usta Zaynal va Qurbon Mug'dusi Akopning uyi tomon yo'l olishar ekan, usta Zaynal o'z shogirdiga bunday der edi:

— Qurbon, men seni atayin vaqtli chaqirdim. Og'ayni, tezroq borib u kishining ishini tugata qolaylik; mabodo tugata olmasak, xijolat bo'lib qolamiz. Chunki, avvalo, uning o'g'li kelyapti ekan, albatta, mehmon-pehmonlar yig'iladi; ikkinchidan, biz so'z berib qo'ydik, va'dasiga amal qilgan kishi mard kishi hisoblanadi. Yana bir jihati, Hoji Rasul ham uyalib qoladi, axir uning viloyatda o'ziga yarasha hurmati bor.

Qurbon ancha jim ketgach qo'qqisdan so'rab qoldi:

— Ma'qul, usta, sen bu ishni pudratga olganing uchun ham bugun kechqurungacha tugatmoqchisan. Endi, aytaylikki, tugata olmay qolding, unda nima bo'ladi? Pul masalasida armani bizni ranjitmaydimi?

— Hoy inson, hazrat Abbos haqi, behuda gaplarni gapirma! Shunaqangi gaplarni aytasanki, qovrilgan tovuqning kulgisi qistay-

di. Nega tugatmas ekanman? O'zi qancha ish bo'libdiki, chala qoldirsam?

— Hoy usta, men tugata olmaysan demayapman, axir, shunchaki, mabodo tugatmasang nima bo'ladi, demoqchiman.

— Hoy inson. Imom Husayn haqi, unaqangi bema'ni gapni gapirma.

Ustalar Mug'dusi Akopning uyiga yetib borishdi va Usta Zaynal havoza ustiga chiqdi. Qurbon ganch qorganicha suhbatni davom etirdi:

— Usta, bizning xo'jayin yaxshi odamga o'xshaydi.

Usta Zaynal tosdan o'ng qo'li bilan ganch olar ekan:

— Yaxshilikka-ku yaxshi odam, ammo bundan nima foyda, ayt-aytki, Olloh dinga solsin.

— Usta, men bir narsaga mot qolaman. Nega armanilar shu qadar ochiq-oshkor narsani ko'rmaydilar? Bular nega yoppasiga kelib musulmon bo'lmaydilar?

Usta Zaynal shiftga andava surtganicha dedi:

— Qurbon, bu ishlarning hammasi sir hisoblanadi. Bularni hech tushunib bo'lmaydi. Bularning hammasi Olloh huzuridagi sir; chunki, mana faraz qil, armanilarning hammasi yoprilib musulmon bo'ldi, deylik, unda Olloh jahannamni kim uchun yaratgan, u yerga kimni jo'natadi? Bu ishlarning hammasida bir sabab bor. Yo'qsa armanilarning o'zlari ham bizning mazhabimiz ularnikidan avlo ekanligini yaxshi biladilar. Xudoyi azza va jalla...[1]

— Usta, gapingni bo'laman, mayli, aytaylikki, musulmon bo'lmay qo'ya qolsinlar. Lekin bir narsani hech tushuna olmayman-ki, bular nega to'ng'iz etidan jirkanmaydilar?

Usta Zaynal andavani taxta ustiga qo'ydi; chubug'ini olib to'ldira boshlar ekan, baland ovozda dedi:

— Mening javobim shuki, armanilarning o'zlari ham to'ng'iz etida hech bir lazzat yo'qligini yaxshi biladilar; lekin cheklariga shu tushgan, undan hech qo'l torta olmaydilar... Nima ham qilsin sho'rliklar? Insonning insoniy xo'ragi bo'ladi, hayvonning hayvoniy xo'ragi. Bularning hammasi Ollohdandir... kel, tosni ol, ganch qor.

[1] **Xudoyi azza va jalla** — Xudo aziz va jaloldir *(muallif)*.

Qurbon narvonga chiqa turib dedi:

— Ha, hali hamma tomosha qil ko'prikdan o'tayotganda!..

Usta Zaynalga chubug'ini tutganicha dedi:

— Qurbon, bilasanmi gap nimada? Hamma gap haq yo'lni tanib olishlikda; insonlar borki, haq yo'lni topib oladi, insonlar borki, Xudoyi taoloning...

Shu payt Mug'dusi Akop kirib kelib, hech narsa demay usta Zaynalga tikildi. Usta Zaynal o'girilib unga savol berdi:

— Hoy xo'jayin, Injil haqi ont ichaman, qani ayt-chi, men bir ko'ray, o'sha zahrimorning nima lazzati borki, tap tortmay yeganingiz-yegan?

Mug'dusi Akop g'azablanib, ikki qo'lini yuqori cho'zganicha dedi:

— Hoy inson, menga ayt-chi, sen bu yerga mullalik qilgani kelganmisan?

— Xo'jayin, baraka topkur, nega jahling chiqadi? Gap kelganda bir so'rab qo'ydim-da. Qurbon, ganch qor!

Mug'dusi indamadi. Usta Zaynal chubug'ini havoza ustiga qo'yib, andavani olganicha ishga tushdi.

Mug'dusi avval ishni shu yerda to'xtatib, ustalar bilan hisob-kitob qilib, ularning javobini berib yubormoqchi ham bo'ldi, lekin xotini bunga rozi bo'lmay, dedi:

— Endi hozir qayerdan ham boshqa usta topib, ishni kechqurungacha tugata olamiz? Endi ishni to'xtatib bo'lmaydi. Avvalo bu ishni boshlamaslik kerak edi, endi boshlanibdimi, oxiriga yetkazish kerak.

Er-xotin maslahatlashib bir to'xtamga keldilarki, Mug'dusi Akop hozir borib Hoji Rasulga vaziyatni aytib bersin, usta Zaynalning yoniga yo Hoji Rasulning o'zi kelib, yoki birovni jo'natib aytsinki, mayli, Usta Zaynal kelishilganidan bir manat ortiq olsin, lekin ishni albatta kechqurungacha tugatib bersin.

Mug'dusi Akop Hoji Rasulning yoniga borib, dardi dilini unga aytib berdi. Hoji Rasul zohiran Usta Zaynalning bu ishidan nihoyatda norozi bo'lib, o'g'liga, darhol borib falon qolgurga aytki, "Agar bugun kechqurungacha ishni tugatmasa, u na bir chaqa pul oladi, na boshqa birovga tavsiya etiladi", dedi. Hojining o'g'li

yarim soatlardan so‘ng ustaning javobini olib keldi. Usta Zaynal otasining arvohiga qasam ichib aytibdiki, Hoji og‘a ko‘nglini keng qilsin; agar Ollohning marhamati bo‘lsa, u bugun kechqurungacha shiftni ta’mirlab tugatar, agar tugata olmasa, sariq chaqa ham olmas emish.

Bu so‘zlarni eshitgan Mug‘dusi akop hech narsa demadi, boshini solintirib do‘kondan chiqa boshlagan edi hamki, Hoji Rasul Mug‘dusi to‘xtatib dedi:

— Qayoqqa ketasan, Mug‘dusi kirva[1]. Kel, o‘tgan-ketgandan biroz suhbatlashaylik. Urush-qirg‘in haqida nimalar deyishyapti?

Mug‘dusi do‘kon eshigida turganicha hech narsa demadi, soatini chiqarib bir qaradi-da, yana cho‘ntagiga solib dedi:

— Hoji, bozorga borishim kerak, jinday ishim bor. Tezroq uyga ham borib ko‘ray-chi, ustalar nima qilyaptilar ekan?

— Hoy inson, Xudo haqi, hammasini qo‘yaver. Mug‘dusi kirva, nima, mening so‘zlarimni hazil deb o‘ylayapsan, shekilli? Menki usta Zaynalga buyurtma bergan ekanman, u ham menga va’da qilgan ekan, va’dasining ustidan chiqmasligi mumkin emas. Bundan ko‘ngling to‘q bo‘lsin, o‘tir, biroz suhbatlashaylik.

— Rostini aytsam, Hoji, mening ustalardan ko‘zim suv ichmayapti, ishni chala qoldirmasalar deb qo‘rqaman.

— Hoy Mug‘dusi, dining haqi, bekorchi gaplarni aytma, kel, birpas o‘tir.

Hoji Rasulning o‘g‘li Mug‘dusi Akopni bir kursiga taklif etdi. Mug‘dusi o‘tirdi. Hoji Rasul tag‘in Mug‘dusini ishontirib aytdiki, Usta Zaynal so‘ziga qattiq amal qiladigan odam. Usta Zaynalni men ko‘pdan beri bilaman, u Ollohning mo‘min bir bandasi, g‘ayrat-shijoatli, sadoqatli, tadbirkor, ziyrak, fahm-farosatli, nihoyatda vafodor kishi; haligacha namozini bir marta ham qazo qilgani yo‘q.

Ushbu lahzalarda Usta Zaynal Qurbon bilan shu tariqada suhbatlashmoqda edi:

— Qurbon, ko‘rdingmi bu armani millatini? Istasang yuz ming marta imom, payg‘ambar nomiga qasam ichaver, lekin u sirayam

[1] **Kirva** — hazil tariqasida qilinadigan murojaat *(tarj.)*.

sening gapingga ishonmaydi. Aytsangki, hoy kofirdan tarqagan kofirvachcha, bu yerda o'zi qancha ish borki, sen mening so'zimga ishonmay, Hoji Rasulni o'rtaga dalolat qilasan? Kel, tosni ol, ganch qor.

Qurbon narvonga chiqa turib dedi:

— Usta, birovki Ollohdan tonib, mazhabdan chiqdi, hech narsaga e'tiqodi qolmadi, uni ishontirish juda qiyin.

Qurbon mo'ndini ko'tarib, ganch qorish uchun tosga suv solmoqchi bo'lgan edi, qarasa, mo'ndida suv yo'q. Mundoq zehn solsa, suv yerga oqib ketibdi. Mo'ndini u yoq-bu yog'ini aylantirib qarasa, uning bir tomonidan darz ketgan. Qurbon ustaga yuzlanib so'radi:

— Usta, mo'ndingizning ilgaridan darzi bor edimi yoki endi chatnabdimi?

— Yo'q, bizning mo'ndi yoriq emas, yoki sen yorib qo'ydingmi? — dedi Usta Zaynal.

Usta Zaynal pastga tushib, mo'ndini qo'lida tutganicha Qurbonga dedi:

— Qurbon, bu bizning mo'ndi emas, bizniki biroz eskiroq va bundan kattaroq edi.

Qurbon biroz o'ylanib turdi-da, ayvonga chiqib, qo'lida bir mo'ndi ko'tarib kirdi. Usta Zaynal ushbu mo'ndini Qurbonning qo'lidan olib, baqrayganicha unga tikilib qoldi, so'ng chuqur bir oh chekib dedi:

— Senga Ollohning la'nati bo'lsin, Qurbon!

Shunday deya usta Zaynal yana Qurbonga baqrayib tikildi. Qurbon ham Ustaga xuddi shu zaylda tikilib qolgan edi. Usta Zaynal yana bir oh chekdi:

— Senga Ollohning la'nati bo'lsin, Qurbon! Armanining mo'ndisida suv keltirib, ganch qorib, jumla jahonni murdor qilding. Senga Ollohning la'nati bo'lsin!

Qurbon g'ing demay Usta Zaynalga barqrayganicha tikilib qolgan edi. Usta Zaynal basharasini burishtirib, ikki marta yerga, bir marta Qurbonning betiga tupurdi-da, hovliga chiqib ketdi. Ariq labiga cho'nqayib qo'llarini yuvishga tushdi. So'ng xonaga qaytib, Qurbonga, narsalarni yig'ishtir, ketamiz, dedi. Deraza tokchasidan

kiyimlarini olib, Qurbonning yuziga yana bir marta tupurdi-da, chiqib keta boshladi. Qurbon ham ko'r-pushaymon bo'lib, boshini quyi solganicha xurjunini ko'tarib ustaning ortidan ergashdi. Mug'dusining xotini ustalar tushlik qilgani ketishyapti, shekilli, deb o'yladi.

Ushbu lahzalarda Hoji Rasul o'z do'konida Mug'dusi bilan suhbatlashib o'tirar, u Mug'dusini ishontirib aytardiki, Usta Zaynalni men ko'pdan beri bilaman, u Ollohning mo'min bir bandasi, g'ayrat-shijoatli, sadoqatli, tadbirkor, ziyrak, fahm-farosatli, nihoyatda vafodor kishi; haligacha namozini bir marta ham qazo qilgani yo'q.

* * *

Shu kuni oqshomga qadar Mug'dusi Akop, xotini va kenjatoy o'g'li xonadan narvonlarni, taxtalarni va ganchni tashqariga tashib chiqib, xonani tozalash bilan mashg'ul bo'ldilar. Mug'dusi har zamon chala qolgan shiftga boqib, Usta Zaynalni eslab qo'yardi.

Shu kuni oqshomga qadar Usta Zaynalning xotini erining engil-boshlarini yuvib-quritish bilan mashg'ul bo'ldi. Usta Zaynal kiyim-boshlari qurigandan so'ng hammomga borib poklanish uchun uyida qip yalang'och o'tirar edi.

Ertalab soat to'qqizda Mug'dusi Akopning o'g'li poyezdda vataniga yetib keldi.

Iyul, 1905-yil, Tiflis

ERONDA HURRIYAT

Bizning masjid orqasida, eshik oldidagi supachada ellik-ellik besh yoshlardagi bir kishi kosiblik qilib o'tiradi; uning kasbi savodsiz musulmonlarga va ko'pincha Eron musofirlariga xat yozib berishdan iborat. Bu kishining nomi Mashadi Mulla Hasan bo'ladi.

Mashadini bu yerda yozda ham ko'rish mumkin, qishda ham, kuzda ham, bahorda ham.

Ba'zan yoz paytlari ko'chadan o'tib borayotganingda Mashadi Mulla Hasan boshini eshik kesakisiga qo'yganicha mudrab

o‘tirganini ko‘rasan, boshqa bir mahal ko‘chadan o‘tib borayotganingda u taraflik[1] bir kimsa Mashadining yonboshida cho‘kkalab o‘tirganini, Mashadi esa ko‘zoynagini burni ustiga qo‘ndirib, so‘l tizzasi ustiga yarim varoq kirlangan qog‘oz qo‘yganicha, boshini yuqori ko‘tarib, ko‘zoynak ostidan qog‘ozga tikilganicha forscha o‘qib o‘tirgan holda ko‘rasan: “Va soniyan, agar viloyatimizning ahvolini bilmoqchi bo‘lsangiz, lillohulhamd, sog‘ va sizning duoyi joningizni qilib yuribmiz, sizning ayrilig‘ingizdan boshqa kamchiligimiz yo‘q; Xudovandi olam bir sabab bo‘lib, sizni bir ko‘rsam edi...”.

Qish faslida masjid oldidan o‘tib qolsang, Mashadi Mulla Hasan chakmoniga burkanib olib, oldiga bir manqal yoqib qo‘yganini, bu manqalning ustiga uni quchoqlagudek bo‘lib egilib olganini ko‘rasan.

Boshqa bir paytda esa bir musofir Mashadining oldiga cho‘k tushganicha qo‘llari bilan sekin-asta manqalning olovini kavlab o‘tirganini, Mashadi Mulla Hasan esa so‘l qo‘lida bir bitikli qog‘oz tutib, o‘ng qo‘lini qo‘ltig‘iga tiqib olganicha ushbu qog‘ozni o‘qib turgan holda ko‘rasan:

“Mendan duo yetkazgaysiz jiyanim Karbaloyi Qosimga, to-g‘avachcham Ja’farga, bibimga, Sakina xonimga, Gulsum jiyanimga. Mendan duo yetkazgaysiz Haydarga, Karbaloyi Aliga. Mendan duo yetkazgaysiz Mashadi Xalilga, Mashadi Iskandarga va Husaynga va G‘ulomaliga va Mashadi Zulfiqorga va usta Zaynalga. Mendan ko‘pdan ko‘p duo yetkazgaysiz Mashadi Rustam amakimga va Najafaliga va Bayramga, O‘rujaliga va Sabzaliga va Karbaloyi Ismoilga va Muhammadga. Muhammadga, akang Murtazoquli sog‘-salomat ekan, Iravonda Hoji Hamidning bog‘ida bog‘bonlik qilib yurgan ekan, bir xotin ham olibdi, farzand ham ko‘ribdi, senga ko‘pdan ko‘p duolar aytib yuboribdi, bolasining ko‘zi og‘rir ekan, lekin, Xudoga shukurki, o‘zi sog‘-salomat ekan, senga ko‘pdan ko‘p duolar aytib yuboribdi, deng...”.

Mashadi Mulla Hasan asli eron ahlidan bo‘lib, bundan o‘n-o‘n ikki yil avval Iravonda yetti-sakkizta musulmon bolalarini

[1] **Utaraflik** — Ozarbayjonning Eron tomondagi qismi nazarda tutilmoqda *(tarj.)*.

to‘plab, mudarrislik qilardi. Biroq bolalar birin-ketin tarqab keta boshladilar; chunki bolalardan biri saboqni bilmay qolsa, Mashadi Mulla Hasan uning yuziga tupurar edi. Bolalar bir necha bor otalariga borib shikoyat qilishdi, bolalarning otalari ham bir necha bor kelib Mullaning yuziga tupurib ketishdi. Lekin bolalar tarqab ketmaganida, bularning hammasi o‘tkinchi gaplar edi.

Xullas, bolalar tarqab ketishdi.

Avvallari Mashadi Mulla Hasan bir muddat kitob sotib yurdi. Hozir ham uning supachasida bir nechta eski jildli kitoblar bor: ikki dona “Guliston”, to‘rt jild “Jomei Abbos”, bir jild Qur’on, ikki jild juda eskirib ketgan “Nisob”, bir dona jildi yirtilgan “Tarassul” va bir dona yap-yangi “Abvob”. Ammo bir yil mobaynida Mashadi Mulla Hasan yetti-sakkiz jilddan ortiq kitob sota olmasdi.

Shuning uchun ham Mashadining tirikchiligi maktub yozib berish bilan o‘tadi. Uch-to‘rtta musofir yoki qishloqliklarning kelib Mashadi Mulla Hasanga xat yozdirmaydigan kuni yo‘q. Har bir maktub uchun Mashadi ikki kapik[1], uch kapik, omadi kelganda bir shohi oladi. Maktub yozdiradigan kishi juda qashshoq bo‘lsa, u bir kapikka ham yozib beradi. Faqat shu shart bilanki, qog‘ozni maktub yozdiradigan kishining o‘zi olib keladi.

Olloh barakasini bersin, bu ham durustgina bir hunar. Musulmon olamida hech bir hunar o‘zgalarga maktub yozish darajasida rivoj topmagan. Onado‘li masjidlarining oldidan o‘tish imkoni yo‘q; ko‘chaning u boshidan bu boshigacha musulmonlar maktub yozdirish uchun bir yoki ikki mullaning boshiga yopirilib kelishadi. Hammasi Tehron, Tabriz, Iravon, Tiflis, Boku yoki boshqa joyning odamlari. Ganja masjidlaridagi eshikning har bir supasida bittadan Mashadi Mulla Hasanga o‘xshagan kimsa o‘tirib olgan. Hamisha maktub yozdirish uchun yigirma-o‘ttiztacha kishi ularni qurshab olgan bo‘ladi. Masjidga kirib-chiqishning ham imkoni yo‘q.

Olloh barakasini bersin.

Biroq shunisi yaxshi emaski, maktub yozdiradiganlarning hammasi kambag‘al kishilar bo‘ladi. Bir qarasang, faqir bir ishchining kelib:

---

[1] **Kapik, shohi** — mayda pul birliklari *(tarj.)*.

— Mashadi amaki, menga bir xat yozib ber! — deb turganini ko‘rasan.

Mashadi Mulla Hasan buni eshitgan zahoti o‘ng qo‘lini ishchiga cho‘zib:

— Qani chiqar-chi, cho‘ntagingda nimang bor ekan? — deb so‘raydi.

Ishchi qo‘lini cho‘ntagiga suqib, ikki kapik chiqaradi.

Mashadi:

— Bu ozlik qiladi, — deydi.

Ishchi:

— Shundan boshqa pulim yo‘q, — deb ont ichadi.

Mashadi esa:

— Yozmayman, — deb ont ichadi.

Oxiri ishchi borib yana bir kapik topib kelishga rozi bo‘ladi. Shundan so‘nggina Mashadi Mulla Hasan avval ko‘zoynagini taqadi, so‘ng qalamdonini ochib, uning ichidagi davotga bir tomchi suv tomizadi, qamish qalamining uchini so‘l qo‘lining shahodat barmog‘i uchiga bosib ko‘radi, so‘ngra kitob ichidan bir varaq kirchil qog‘oz olib, uni ikkiga bo‘ladi, yarmini viqor bilan qayta kitob ichiga solib, yarmini so‘l tizi ustiga qo‘yadi-da, qalamni siyohga botirib olib, o‘z-o‘zicha maktub bitishga tushadi: “Sohibi qiblagohimga! Avvalan va soniyan...”. Xullas, xayr-u duoni va duodan so‘ng “omin yo rabbil- olamin”ni yozib tugatgach, maktub yozdirayotgan kimsaga yuzlanib:

— Endi muddaoyingni ayt, yozib berayin, — deydi.

Maktub egasi dardini yozdirib bo‘lgandan so‘ng Mashadi mullaga kapiklarni berib, qog‘ozni qo‘ltiq cho‘ntagiga soladi-da, uni jo‘natish uchun vatanga qaytadigan biron-bir kimsani izlab ketadi.

Milodiy ming to‘qqiz yuz oltinchi yil 13-sentabrda Mashadi Mulla Hasan ikki kishiga maktub yozib berdi: ulardan biri Eronning Arablar qishlog‘idan bo‘lmish Karbaloyi Mammadali, ikkinchisi tabrizlik Usta Ja’far edi.

Oh, sho‘rlik maktublar! Siz dunyoni alg‘ov-dalg‘ov qilib yubordingiz!

Sizni yozib el boshiga bu qadar kulfatlar solgandan ko'ra, sizni bitgan kimsaning barmoqlari akashak bo'lib qolgani yaxshi edi!

Xullas, maqsadga o'taylik.

Karbaloyi Mammadali ozmi-ko'pmi non puli topib, ahl-u ayolini boqish uchun ikki yarim yildan beri musofirchilikda yurar edi. Ahl-u ayoli esa yolg'iz onasi, bir xotini va yetti-sakkiz yoshlardagi bir o'g'lidan iborat edi.

Avvallari Karbaloyi Mammadali ishchi bo'lib ishlar, har ikki-uch oyda bir marta uyiga xarj uchun uch-to'rt manat pul va olti-yetti arshin chit jo'natar edi. O'tgan yili armani-musulmon urushi sodir bo'lganida Karbaloyi Mammadali o'z vataniga qaytib ketgan, o'zi bilan besh-o'n manat pul ham olib borgan edi. Ammo, mana, uydan chiqib kelganiga sakkiz oy bo'libdiki, Arablarda yashaydigan onasiga faqatgina bir marta sarf-xarajat uchun atigi ikki manat jo'nata oldi, xolos. Onasi va xotini ro'zg'or og'ir ahvolda qolganini bildirib, ikki marta Karbaloyi Mammadalidan biroz pul so'rab maktub jo'natishdi. Bu buyurtma maktublarga javoban Karbaloyi Mammadali bir daf'a maktub jo'natib, bu yerlarda ham ahvol tang ekanligi, biron-bir ish topish qiyinligini, biroz sabr qilib turishlarini, nizolar biroz tinchigach, inshoolloh, uyga sarf-xarajat uchun mablag' jo'natajagini bildirdi.

Bu viloyatda ahvol tang ekanligini Karbaloyi Mammadali to'g'ri yozgandi, chunki chindan ham bu yerda ahvol ancha tang edi. Biroq ish topishning qiyinligi haqidagi gapi yolg'on edi, zero, Karbaloyi Mammadalining ishchilik orqasidan to'rt abbosi, bir manat topmaydigan kuni yo'q edi; Karbaloyi Mammadali ahl-u ayolini yoqtirmaydi deb ham bo'lmasdi. U pul jo'natish uchun jon-jahdi bilan harakat qilar, lekin jo'nata olmasdi. U pul jo'natishni juda-juda istasa ham, birdan cho'ntagiga qo'l suqib qarasa, sariq chaqa ham qolmagan bo'lardi.

Oradan bir necha kun o'tgach u o'z-o'ziga: "Inshaalloh, bugun vatanga qaytadigan biror kimsani topib, uyga hech bo'lmasa ikki manat jo'nataman", — deb ahd qilardi. Lekin yana baribir jo'nata olmasdi. Shuning uchun jo'nata olmasdiki, uning xarji katta edi, xarji shuning uchun ham katta ediki, Karbaloyi Mammadali Olloh-

ning izni, payg'ambarning shariatiga ko'ra bu yerda bir beva ayolni o'ziga siyg'a[1] qilib olgan edi.

Bu ayol Karbaloyi Mammadalining bir ishchi do'stining opasi edi.

Avvallari bu ayol Karbaloyi Mammadalining ust-boshlarini yuvib yurardi.

Bir gal ushbu do'sti Karbaloyi Mammadalini o'z uyiga mehmonga chaqirdi. Nimadir bo'lib Karbaloyi Mammadali bu ayolning oyoqlarini ko'rib yoqtirib qoldi va oxirida unga uylandi. Ilgarilari Karbaloyi Mammadali Aslon karvonsaroyining bir hujrasida yotib yurar, yangi xotiniga har oyda bir manat xarj puli berishga kelishib olgan edi.

Biroq keyinroq xotini uni yoqtirib qolib, o'z uyiga ko'chirib keldi. Ayolning ismi Pariniso edi.

* * *

Kunlarning birida Karbaloyi Mammadali yugurganicha uyga kelib, yangi xotiniga:

— Hoy xotin, Pariniso, suyunchi ber! — deb qoldi.

Pariniso taajjubga tushib:

— Nima gap? — deb so'radi.

Karbaloyi Mammadali:

— Suyunchi ber! — deya takrorladi.

Pariniso tag'in:

— Nima gap? — deb so'radi.

Karbaloyi Mammadali:

— Suyunchisini bermasang, aytmayman, — dedi.

Pariniso Karbaloyi Mammadalining yoniga kelib, uning qo'llariga yopishgancha so'radi:

— Xudo haqi, ayta qol, axir, nima gap o'zi?

Karbaloyi Mammadali tag'in:

— Xudo haqi, suyunchisini bermasang, aytmayman, — dedi.

— Bo'pti, suyunchisiga men qarzman, ayta qol, nima gap o'zi?

— Bizning Eronga hurriyat berilibdi.

[1] **Siyg'a** — muvaqqat nikoh *(tarj.)*.

Pariniso biroz sukutdan so‘ng so‘radi:

— Nima berilibdi?

— Hoy xotin, hurriyat deyapman!.. Nahotki, hozirgacha shuni ham bilmasang?

Pariniso yana biroz o‘ylanib turib, hayron bo‘lganicha so‘radi:

— Hurriyat degani nima?

Karbaloyi Mammadali xotinining qo‘larini o‘zidan nari itarar ekan, boshini so‘lga burib, biroz norozi ohangda javob berdi:

— Hoy baraka topkur, endi men senga nima desam, qanday tushuntirsam ekan? Eronga hurriyat berilganligini endilikda butun dunyo biladi. Eronga hurriyat berilganligini hatto ko‘chadagi bolalar ham biladi. Bugun hamshaharlarning hammasini konsur[1] masjidga chaqirdi, Eronga hurriyat berganligi uchun podshohni duo qilishdi. Men ham masjidga borgan edim. Tumonat odam yig‘ilganki, igna tashlasang yerga tushmaydi.

Karbaloyi Hasanquli ham o‘sha yerda edi. Hamshaharlarning sevinishini bir ko‘rsang! Chindan ham hozirga qadar biz sho‘rlik hamshaharlar ne-ne qora kunlarni boshimizdan kechirmadik. Ishchilik qilaverib o‘lar holga tushdik. Chindan ham, mundoq qarasang, Urusatda[2] hech bir mardikor yo‘q, mardikorlarning hammasi bizning sho‘rlik hamshaharlarimiz. Pariniso, Xudo xohlasa, bundan so‘ng pulimiz ko‘p bo‘ladi. Sen nuqul menga, o‘ris baxmalidan bitta kamzullik olib ber, der eding. Xudo xohlasa, ana endi olib beraman! Axir, o‘zingga ayonki, qo‘lim hech pul ko‘rmasdi, lekin, Xudo xohlasa, endi pulim ko‘p bo‘ladi. Kabla Imomali, Kabla Navro‘z, Qosimali, O‘ruj, Mashadi Bayramali sevinchdan terilariga sig‘masdilar. Konsur, deydi ular, ertaga hamshaharlarning hammasi yig‘ib, hurriyat puli tarqatar emish. Jon, jon-ey, jon, jon-ey!.. omon bo‘lsin bizning podshohimiz, jon, jon-ey!..

Ushbu so‘zlarni aytish asnosida Karbaloyi Mammadali barmoq chertib o‘yinga tushmoqda edi. Pariniso sevinganicha yana borib erining qo‘llariga yopishdi.

---

[1] **Konsur** — konsul demoqchi *(tarj.)*.

[2] **Urusat** — Rossiya; bu o‘rinda Rossiya tarkibidagi Shimoliy Ozarbayjon nazarda tutilib, u Eron tarkibidagi Janubiy Ozarbayjon bilan qiyoslanmoqda *(tarj.)*.

Erta ham bo'ldi. Kechqurun Karbaloyi Mammadali uyga qaytib kelgan zahoti Parinisoga dedi:

— Pariniso, jonginam, konsur bizga hech narsa bermadi, sizning hurriyat pulingizni Eronda, o'z vataningizda berishadi dedi.

Buni eshitib Parinisoning qosh-qovog'i solinib ketdi, ancha jim qolgach, nihoyat, eriga:

— Yolg'on aytyapsan, — dedi.

— Yolg'on aytsam, Xudo ursin. Konsur bizga hech narsa bermadi.

— Yolg'on aytyapsan.

— Chin so'zim, hech narsa bermadi.

— Albatta bermaydi-da. Qachon mening baxtim chopibdiki, senga bir narsa berishsin. Eronda, vataningizda berish uchun, anavi alvasti xotining olishi uchun ham bu yerda berishmagan-da. Mening qachon baxtim chopibdiki, bu yerda berishsin.

Pariniso o'z baxtidan ancha-muncha shikoyat qilib olgach, eriga jahl bilan dedi:

— Menga qara, Kabla Mammadali, men uni-buni bilmayman, toki men sening xotining ekanman, joningni berib bo'lsa ham menga qarashing kerak. Ikki oydan beri men sendan bir baxmal kamzulcha so'rayman. Kambag'alman, pulim yo'q deb olib bermaysan. Endi esa konsur mening ulushimni bermadi, vatanda berishar ekan degan gapni o'ylab topding. Mening ulushimni anavi alvasti xotining olib ketishiga hech chiday olmayman. Yo bugunoq borib bir maktub yozdir, sening ulushingni o'sha alvastiga bermay, sening o'zingga jo'natsinlar, yo bo'lmasa nima qilishimni o'zim bilaman.

Bu so'zlarga javoban Karbaloyi Mammadali dedi:

— Hoy xotin, sen bunaqangi bo'lmag'ur gaplarni gapiraverma. Vatanda qancha ulush bo'lsa, hammasini onamga berishadi. Onam mening ulushimni o'zimga jo'natmay qo'ymaydi. U meni juda yaxshi ko'radi, albatta jo'natadi. Hech yuragingni siqma, yaxshisi, tur, bir parcha non keltir, yeb olaylik.

Pariniso erining oldiga non keltirib qo'ydi, biroq o'zi bir burchakka borib o'tirdi.

Oxiri Karbaloyi Mammadali ertagayoq o'z ulushini bu yoqqa, uning o'ziga jo'natishlarini so'rab vatanga bir maktub yozdirib yuborishi haqida ont ichdi. Shundan keyingina Pariniso biroz xotirjam tortdi.

Ertalab Karbaloyi Mammadali ko'chaga chiqdi, biroq nima qilishini bilmasdi. Bir tomondan, Parinisodan juda qo'rqar, ammo nima uchun qo'rqishini o'zi ham bilmasdi. Ikkinchi tomondan esa vatanidagi xotini Tukazbondan ham qo'rqar edi, undan shuning uchun qo'rqar ediki, agar u maktub yozdirib jo'natsa, vatanda Tukazbon eri o'z ulushini yangi xotini uchun so'rattirayotganini sezib qolar edi. Karbaloyi Mammadali bu yerdan uylanganini qattiq sir tutib kelmoqda edi. Chunki u vatandan bu yoqqa kelayotganida Tukazbonning akalari, agar musofirchilikda uylangudek bo'lsang, borib boshingning qatig'ini chiqaramiz deb qo'rqitishgan edi. Tukazbon ham eriga, agar o'sha yoqlardan uylangudek bo'lsang, bosh ochiq, oyoq yalang borib yangi xotiningning sochini bitta-bitta yulaman, degan edi.

Karbaloyi Mammadali ana shularni bir-bir xayolidan o'tkazganicha masjid eshigidan chiqib qoldi. Bu paytda Mashadi Mulla Hasan tabrizlik usta Ja'farning maktubini endigina yozib tugatgan edi. Usta Ja'farning maktubi quyidagi mazmunda edi: "Avvalan... salom-duo... va soniyan... Omin yo rabbilolamin. Mening mehribon onaginam, musofirchilikda qanchadan beri ishlayotgan bo'lsam, seni aslo yodimdan chiqarganim yo'q. Lekin, onaginam, senga xarj puli jo'nata olmayotganim uchun mendan ranjima. Harchandki jo'natmoqchi bo'laman, lekin bu yerlarda juda qimmatchilik bo'lib ketgan. O'zingga ayonki, avvallari men yolg'iz bosh edim, sarf-xarajatim ham kam edi, har zamonda senga bir-ikki manat jo'natib turar edim. Lekin, shubhasiz, Ollohning o'zi musulmon bandalarining yolg'iz qolishi yaxshi emas, deb buyurgan va Ollohning bu amriga ko'ra, masalan, mullalar har safar va'z qilishganda bizga musulmonchilikda yolg'iz qolish yaxshi emas, deb aytishadi, shuning uchun ham, masalan, aybga buyurmagaysan, Ollohning izni va payg'ambarning shariati bilan bu yerdan, aybga buyurmagaysan, bir ayolni siyg'a qilib, oldim. Nima bo'lganda ham — ayol, o'ziga yarasha sarf-xarajati bo'la-

di. Ne qilayki, topgan-tutganim ro‘zg‘or xarjiga zo‘rg‘a yetadi, senga jo‘natgani biron narsa orttira olmayman va yana mening nomimdan o‘g‘ilchamning yuzini o‘pib qo‘y va yana jamiyki qarindosh-urug‘larga duo yetkaz”.

* * *

Mashadi Mulla Hasan bu maktubni endigina yozib bo‘lgan ham ediki, Karbaloyi Mammadali unga yaqin kelib salom berdi va mullaga yuzlanib:

— Mulla amaki, menga bir maktub yozib bersang! — dedi.

Mashadi Mulla Hasan Karbaloyi Mammadaliga:

— Bosh ustiga, — dedi va Usta Ja’farga qarab: — Endi qalamni olib maktubga qo‘l qo‘y, — dedi.

Usta Ja’far mullaga:

— Hozircha siyohi qurib tursin, men borib paket olib kelay, keyin qo‘l qo‘yaman, — dedi.

Usta Ja’far turib ketdi. Karbaloyi Mammadali mullaning oldiga cho‘kka tushdi; Mashadi Mulla Hasan Usta Ja’farga yozgan maktubini oftobga qo‘yib, kitob orasidan bir kirlangan pochta qog‘ozini oldi va o‘ng qo‘lini Karbaloyi Mammadaliga cho‘zganicha:

— Qani chiqar-chi, nima berar ekansan, — dedi.

Karbaloyi Mammadali o‘ng qo‘lini sekin cho‘ntagiga suqib, uch dona bir kapiklik chiqarib mullaning oldiga qo‘ydi.

Mashadi Mulla Hasan pullarni olib, avval oftobga tutib ko‘rdida, so‘ng cho‘ntagiga tiqdi, so‘l tizzasini baland ko‘tarib, qog‘ozni so‘l qo‘li bilan tutganicha tizzasi ustiga qo‘ydi. Qalamni siyohga botirib olib, yoza ketdi: “Avvalan... salom va duo... va soniyan... Omin yo rabbilolamin...” Bularni yozib bo‘lgach, Karbaloyi Mammadaliga yuzlanib:

— Qani, muddaoyingni ayt, — dedi.

Karbaloyi Mammadali bir yo‘talib olib so‘z boshladi:

— Mulla amaki, bu gap oramizda qolsin, masalan... — Mashadi Mulla Hasan bu so‘zlarni yozmoqchi bo‘lgan edi, Karbaloyi Mammadali darhol uning qalamiga yopishib:

— Yo‘q, yo‘q, yozma. Avval quloq sol! — dedi.

Mashadi Mulla Hasan qalamni qo'yib, unga quloq tutdi. Karbaloyi Mammadali:

— Masalan, yozginki, onajon, Eronga hurriyat berilibdi, deb eshitdim.

Mashadi Mulla Hasan yozishga tushdi: "Onajon, Eronga hurriyat berilibdi".

Karbaloyi Mammadali gapida davom etdi:

— Bunday deb yoz: kecha konsurning bizga xabar berishicha, bizning ulushimizni vatanda bermoqchi emishlar. — Mashadi Mulla Hasan bu so'zlarni ham yozdi. Karbaloyi Mammadali davom etdi: — Yozginki, onajon, menga hech narsaning keragi yo'q. Lekin, aybga buyurmagaysan... bu yog'ini qanday yozsak ekan? Mulla amaki, sen ham aybga buyurmagaysan, bizning ayolimiz, aybga buyurmagaysan...

Mashadi Mulla Hasan yozmoqchi bo'ldi, biroq Karbaloyi Mammadali darhol qalamga yopishib, baqirib yubordi:

— Yo'q, yo'q, nima qilyapsan o'zi?! Bu gaplarni yozma, zinhor yoza ko'rma. Bilmay turib mening hamma gapimni yozmoqchi bo'lasan-a! Yo'q, yo'q, qurboning bo'lay, mulla amaki, bunaqada naq mening uyimni kuydirasan-ku...

Mashadi Mulla Hasan qalamni qog'ozdan uzib, tag'in uni eshita boshladi. Karbaloyi Mammadali davom etdi:

— Yozginki, mening ulushimga nimaiki tushsa, hammasini o'zimga jo'nat...

Mashadi Mulla Hasan ham shunday deb yozdi. Karbaloyi Mammadali davom qildi:

— Menga qancha ulush tushishini bilmayman. Lekin agar ozgina tushsa ham o'zimga jo'nat. Chunki, chindan ham, hoy mulla, men bu so'zlarni zinhor og'zimga ham olmas edim, biroq bu xotinlarni eplab bo'larkanmi?..

Mashadi Mulla Hasan shunday deb yozmoqchi bo'lgan edi, Karbaloyi Mammadali tag'in qalamga yopishagnicha baqirib yubordi:

— Yo'q, yo'q, Xudo haqi, buni yozma. Xotin degan so'zni yozma. Qo'qqisdan xotin olganimni yozib qo'ysang bormi... Faqat shuni yozki, ulushimni jo'natsinlar. Vassalom.

Mashadi Mulla Hasan shunday deb yozdi. Karbaloyi Mammadali davom etdi:

— Vassalom. Yana shuni yozginki, mening nomimdan o'g'ilchamning yuzidan o'pib qo'ysinlar va aybga buyurmasinlar, bizning ayolimizning hol-ahvoli qanday va barcha qarindosh-urug'larga duo yo'llayman. Vassalom. Mana shularni yozsang bo'lgani, vassalom.

Mashadi Mulla Hasan bu gaplarni ham yozib bo'ldi.

Oxirida Karbaloyi Mammadali Mulladan yozganlarini yana bir bora o'qib berishni o'tinib so'radi. Mulla yozganlarini o'qishga tushdi: "Avvalan salom-duo... va soniyan... Yo rabbilolamin... Onajon, Eronga hurriyat berilibdi. Kecha konsurning bizga xabar berishicha, bizning ulushimizni vatanda bermoqchi emishlar. Onajon, mening ulushimga nimaiki tushsa, o'zimga jo'nat va mening nomimdan o'g'ilchamning yuzidan o'pib qo'y va aybga buyurmagaysan, bizning ayolimizning hol-ahvoli qanday va barcha qarindosh-urug'larga duo yo'llayman. Vassalom".

Mashadi Mulla Hasan maktubni o'qib tugatgach, bu qog'ozni ham Usta Ja'farga bitilgan maktub yoniga, oftobga qo'yib qo'ydi. Shu payt Usta Ja'far bir kirchil paket ko'tarib kelib qoldi. Mashadi Mulla Hasan Usta Ja'farga qog'ozini uzatib, qo'l qo'ygani qalam tutqazdi. Usta Ja'farning ko'zi Karbaloyi Mammadaliga yozilgan maktubga tushdi, u egilganicha bu maktubga diqqat bilan nazar solib:

— Hoy Mashadi Mulla amaki, o'z oramizdagi gap, lekin bu kishining maktubini menikidan yaxshiroq yozibsan. Mana qara, mening maktubimning xati uncha chiroyli emas, ammo narigi maktubning xatiga bir boq, — dedi...

Shunday deya Usta Ja'far Karbaloyi Mammadalining maktubini qo'liga olib, ikkalasini yonma-yon qo'yib solishtira boshladi. Karbaloyi Mammadali ham bo'ynini cho'zib avval o'z maktubiga, so'ngra Usta Ja'farning maktubiga ko'z tashladi, biroq hech narsa demadi. Mashadi Mulla Hasan bu maktublarni qo'liga olib, har ikkisiga ko'zoynak ostidan diqqat bilan razm solar ekan:

— Oh-oh-oh... Ofarin bunaqangi xatga, biri biridan chiroyli, — dedi.

Mashadi Mulla Hasan oh-ohlaganicha xatlarni chalkashtirib yuborib, Karbaloyi Mammadaliga yozgan maktubini Usta Ja'farga berdi, Usta Ja'farga yozib bergan maktubini tag'in oftobga qo'yib qo'ydi. Usta Ja'far ham farqiga bermasdan Karbaloyi Mammadalining xatini mulladan olib, qalam tutganicha qog'ozni so'l tizining ustiga qo'ydi va o'n daqiqacha vaqt mobaynida ingranib-singranib, yo'tala-yo'tala bir ammallab o'z nomini yozdi, so'ngra imzo ustiga bir chimdim tuproq sepib, paketni qo'ltig'iga soldi-da, o'rnidan turib xayrlashib ketdi.

Usta Ja'far ketgandan so'ng Mashadi Mulla Hasan Karbaloyi Mammadaliga ham bir paket olib kelishni buyurdi. Karbaloyi Mammadali maktubni avval Pariniso eltib ko'rsatib, so'ng paketga solish fikrida edi. Mashadi Mulla Hasan Usta Ja'far uchun bitgan maktubini to'rt buklab Karbaloyi Mammadaliga uzatar ekan:

— Keyin qachon paket olib kelsang, ustiga yozib beraman, — dedi. Karbaloyi Mammadali maktubni qo'liga olib, qalam tutganicha ingrana-singrana aji-buji bir qora tortdi: "Mammad alad". Bu go'yo uning "Mammadali" deb yozgani edi. So'ng uni to'rt buklab qo'ltiq cho'ntagiga soldi-da, turib jo'nadi.

Karbaloyi Mammadali uyiga yetib kelgach, qo'ltiq cho'ntagidan maktubni chiqarib xotiniga uzatar ekan:

— Mana, Pariniso, borib maktub yozdirib keldim, endi buni onamga jo'nataman. Mening hurriyat pulimni o'zimga jo'natinglar, deb yozdirdim. Ishonsang ishon, ishonmasang eltib xohlagan kishingga o'qitib ko'r, gapim to'g'rimi yoki yo'qligini shunda bilasan, — dedi.

Pariniso qog'ozni qo'liga olib, u yog'ini aylantirib ko'rdi, bu yog'ini aylantirib ko'rdi, so'ng buklab tokchaga qo'ydi. Kechqurun u maktubni qo'yniga solib, ukasi Karbaloyi Rizonikiga bordi.

Maktubni akasiga chiqarib berar ekan:

— Ukajon, sen bu maktubni biror kishiga o'qitib ko'r-chi, nimalar deb yozilgan ekan? — dedi.

Karbaloyi Rizo avval maktub voqeasini opasidan so‘rab bilib oldi, so‘ng biroz o‘ylanib turgach:

— Hoy qiz, Pariniso, sening esing yo‘q ekan, — dedi.

— Nega, ukajon? — deb so‘radi Pariniso.

Ukasi:

— Hoy tentak, o‘zing bir o‘ylab ko‘r, Erondan ham bu yerga hurriyat kelar ekanmi? — dedi.

Pariniso:

— Voy, ukajon, nega bunaqa deyapsan? Eron shunchalik uzoq yo‘l ekanmi, kelmasin? Arablar qishlog‘i haligi... Orazning shundoq bo‘yida. Buning nimsi uzoq ekan? Bu yerdan nari borsa uch-to‘rt kunlik yo‘l, — dedi.

— Gaping to‘g‘ri, Pariniso, Arablar ko‘p uzoq joy emas. Lekin, axir, Erondan bu yerga hurriyat kelar ekanmi?

Pariniso biroz jahli chiqqan bo‘lib:

— Hoy ukajon, nega bunaqa deyapsan? Eron qanchalik yo‘l bo‘libdiki, kelmasin. Sen mening har bir gapimni tentakka chiqarasan. O‘qitmaydigan bo‘lsang, ber menga maktubni, o‘zim o‘qitib olaman, — dedi.

Karbaloyi Rizo maktubni bermasdan, kula-kula dedi:

— Bo‘pti, Pariniso, men ertaga maktubni o‘qittirib kelaman. Mayli, Karbaloyi uni jo‘nata qolsin, lekin baribir oxirida men aytgan gap bo‘ladi; chunki u tomondan bu tomonga hurriyat kelganini kim ham eshitibdi, axir. U tomondan bu yoqqa xino keladi, mayiz keladi, bodom mag‘zi keladi, tamaki, choy, qoradori... shunga o‘xshash narsalar keladi; lekin hali umrim umr bo‘lib hurriyat kelishini sirayam eshitganim yo‘q. Bu tomonlarda ham hurriyat ustida savdo-sotiq qilishganini hech eshitmaganman.

Pariniso biroz o‘ylanib turgach, yana ukasidan baribir maktubni biror kishiga o‘qittirib ko‘rishni iltimos qiladi. Ukasi ertaga uni o‘qittirib kelishiga va’da berdi.

Ertasi kuni Karbaloyi Rizo avval maktubni Mulla O‘rujaliga olib bordi. Mulla O‘rujali ikki yildan beri bu yerda bir maktab ochib, besh-o‘n bolani o‘qitib yurar edi.

Mulla O‘rujali maktubni olib, unga diqqat bilan razm solib chiqqandan so‘ng:

— Bu maktub tarassul[1] xatida yozilgan ekan. Judayam chalkash bitilibdi. Men bu xat bilan oshno emasman. Bu xat bilan oshno bo'lgan biror kishiga eltib o'qit, — dedi.

Karbaloyi Rizo maktubni olib, rus-musulmon maktabining muallimi Mirza Hasanga eltib ko'rsatdi va undan o'qib berishini so'radi. Mirza Hasan ushbu maktubda musulmonchilikdan dars berar, o'zi esa "seminariya" deb ataladigan muallimlar kursida tahsil olgan edi. Mirza Hasan maktubni sinchiklab ko'zdan kechirar ekan:

— Bu maktubni yozgan kishining qo'li sinsin! Shunchalik mayda, kichkina yozibdiki, o'qib bo'lmaydi, — dedi.

Karbaloyi Rizo Mirza Hasandan maktubni qaytarib oldi, biroq endi kimning huzuriga borib, kimga o'qitishni bilmas edi. Birdan Karbaloyi Rizoning yodiga attor Mashadi Husayn tushib qoldi; u juda ko'p dars ko'rgan bo'lishi kerak, deb o'yladi Karbaloyi Rizo, chunki ko'pgina o'tirishlarda Mashadi Husaynning shariatdan, haqiqatdan, xilqatdan va hidoyatdan bahslar qilganini Karbaloyi Rizo bir necha daf'a guvohi bo'lgan edi.

Hamisha Mashadi Husayn so'zga tushib ketar ekan, Karbaloyi Rizo o'z ko'nglida, "Mashadi Husayn olim bo'lsa kerak", deb o'ylar edi. Karbaloyi Rizo Mashadi Husaynning do'koniga yo'l oldi, qarasa, Mashadi tarozining bir pallasiga bir bo'lak novvot qo'yib tortar ekan, xaridorga bunday der edi:

— Olloh o'tganlarni rahmat qilsin, rahmatlik bobom meni har gal o'z og'ushiga olganida otamga, menga qara, o'g'lim Karbaloyi Ismoil, bu boladan ehtiyot bo'l, uning ko'zlaridan ilm yog'ib turibdi, bu bola ertami-kechmi olim bo'ladi, der ekan. Endi o'ylab qarasam, rahmatlik bobom mening oxirda kim bo'lishimni bilgan ekan. Ammo shubha yo'qki, ilm degani o'z-o'zidan kelib odamning boshiga kiradigan bir narsa emas. Ilmni egallash uchun tahsil olish kerak, jon kuydirish kerak; yo'qsa ilm degani o'z-o'zicha kelib odamning boshiga kiradigan narsa emas. To ilmni eggallaguncha odamning onadan emgan suti burnidan chiqadi. Mening boshimga tushgan savdolardan, oyoqlarimga tekkan xivichlardan, yelkamga tushgan kaltaklardan sening xabaring yo'q. Oxiri ko'z nurimni

[1] **Tarassul** — arabcha xat turi *(muallif)*.

to‘ka-to‘ka olimlar davrasiga qo‘shildim. Yo‘qsa, azizim, bu narsa hazil emas, buning uchun insonda qobiliyat bo‘lishi kerak, zakovat bo‘lishi kerak. Har qanday o‘qigan kishi olim bo‘lavermaydi.

Karbaloyi Rizo Mashadi Husaynning yoniga borib, unga maktubni ko‘rsatar ekan:

— Mashadi amaki, Olloh otangni rahmat qilsin, bir qara-chi, bu qog‘ozda nima yozilgan ekan, — dedi.

Mashadi Husayn xaridorga novvotni berib bo‘lgach, Karbaloyi Rizodan maktubni olib sinchiklab boqa boshladi.

Oradan ancha o‘tgach:

— Bu maktubni kim yozgan? — deb so‘radi.

Karbaloyi Rizo:

— Kim yozganini bilmayman. Masjid oldida maktub bitib beradigan mulla yozgan bo‘lsa kerak, — dedi.

Mashadi Husayn maktubni o‘qishga tushdi: “Avvalan: umdeyi matlab salomatiyi vujudi zijudi shumost. Va soniyan, agar ahvoloti in janibra xosta boshid, alhamdulilloh, sahih va salomat hastim va nigoroni nadorim sivai duri az shumo. Xudvandi olam sababi sozad va vasileyi xeyr angizod ki, didori sharifi shumoro baxeyru xubi didor numoyim. Omin, yo rabbilolamin!.. va ba’d...”[1]

Mashadi Husayin maktubning shu joyiga kelganda to‘xtab qoldi va maktubga rosa tikilib, zo‘rg‘a “G‘urbat viloyat” degan so‘zlarni o‘qidi. So‘ng yana to‘xtab qoldi, qog‘ozni yorug‘likka tutib, u tomon-bu tomonini aylantrib ko‘rdi va yana maktubga rosa tikilib, hijjalay-hijjalay “chunki” degan so‘zni o‘qidi.

Mashadi Husayn bir-ikki marta “chunki”, “chunki” dedi-da, yana to‘xtalib qoldi; maktubni tarozi pallasiga qo‘yib, Karbaloyi Rizoga yuzlanganicha dedi:

— Bolam, bu maktubni yozgan kishini men taniyman. Buni Mashadi Mulla Hasan yozgan. Bachchag‘arning yozgan xatini hech

---

[1] *Tarjimasi:* avvalan umda matlab sizning qimmatli vujudingizning salomatligidir. So‘ngra, agar bu taraflarning ahvolini bilmoqchi bo‘lsangiz, alhamdulilloh, sog‘ va salomat yuribmiz va sizdan ayri tushganligimizdan boshqa tashvishimiz yo‘q. Xudovandi olam shunday bir sabab topsa, shunday bir xayrxohlik ko‘rsatsaki, sizning yoqimli chehrangizni yaxshilik va go‘zallikda ko‘rsak. Omin, yo rabbilolamin... va keyin... *(muallif tarjimasi).*

kim o'qiy olmaydi; chunki Mashadi Mulla Hasan chindan ham katta mulla. Ayta olamanki, Tabrizda ham bunday bilimdon odam kam topiladi, Mashadi Mulla Hasan yozgan maktubni kamdan kam kishi o'qiy oladi. Bu maktubni yozganga ofarin! Xudo haqi, unga ilohiydan tekkan. Bir bu xatga qara, bu xatni bir tomosha qil! Bir tomosha qil!

Shunday deya Mashadi Husayn yana qog'ozni qo'liga olib, tomosha qila boshladi.

Karbaloyi Rizo qog'ozni olib cho'ntagiga soldi-da, uyiga qarab yo'l oldi. Masjidning yonidan o'tayotganida masjid eshigi oldidagi supachada o'tirib olib, qishloqlik bir kimsaga maktub yozib berayotgan ko'zoynakli mullaga ko'zi tushdi va Karbaloyi Rizo o'z maktubini ham ana shu mulla yozib bergan bo'lsa kerak, deb o'yladi.

U Mashadi Mulla Hasanning yoniga kelib:

— Assalamu alaykum, Mulla amaki! Mulla amaki, marhamat qilib menga ayt-chi, kecha Karbaloyi Mammadaliga sen maktub yozib berganmiding? — deb so'radi.

Mashadi Mulla Hasan ko'zoynagi ostidan Karbaloyi Rizoga sinchiklab razm solar ekan:

— Qaysi Karbaloyi Mammadaliga? — deb so'radi.

Karabaloyi Rizo:

— Hurriyat pulini o'ziga jo'natishlarini so'rab maktub yozdirgan kishi, — dedi.

Mashadi Mulla Hasan javob berdi:

— Ha, ha, men yozganman. Kecha yozib bergan edim. Yaxshilab yozganman, ko'ngling to'q bo'lsin, jo'natsalar kerak; chunki yaxshilab yozganman. Kecha sening o'zing kelib yozdirgan eding, shekilli?

— Yo'q, men emas, mening yeznam[1] yozdirgan.

— Balli, balli, inshoolloh, jo'natadilar. Ko'ngling to'q bo'lsin!

— Olloh otangni rahmat qilsin, xayr!

Karbaloyi Rizoning ko'ngli taskin topib, uyiga keldi va maktubni Parinisoga qaytarar ekan, bu maktubni yozgan mulladan ham-

[1] **Yezna** — pochcha *(tarj.)*.

masini bilib keldim, Karbaloyi Mammadali qanday aytgan bo'lsa, xuddi shunday yozibdi, deya ont ichdi.

Kechqurun Pariniso Karbaloyi Mammadaliga maktubni vatanga jo'natish uchun qaytarib berdi. Karbaloyi Mammadali maktubni olib mokulik Hoji Ali degan savdogarning do'koniga bordi va agar Mokuga ketadigan birorta kimsa bo'lsa, bu maktubni o'shanga berishni, u kimsa esa maktubni Shohtaxtidagi choyfurush Mashadi Iskandarga eltib berishi kerakligini, Mashadi Iskandar esa uni Arablarga, Karbaloyi Mammadalining onasiga jo'natishi lozimligini iltimos qildi.

* * *

Oradan bir oy o'tdi. Har kuni kechqurun Karbaloyi Mammadali ishdan uyga qaytganda Pariniso:

— Hoy inson, maktubdan bir xabar bormi? — deb so'rar, Karbaloyi Mammadali esa:

— Hech qanday xabar yo'q, — deb javob berar edi.

Dastlabki kunlarda Karbaloyi Mammadali shunday deb javob qaytarganida xotini:

— Yolg'on aytyapsan, — der edi. Karbaloyi Mammadali:

— O'n ikki imom haqi, rost aytyapman, — deb ont ichardi.

Xotini tag'in:

— Yolg'on aytyapsan, — der edi.

Karbaloyii Mammadali:

— Agar yolg'on aytsam, mening padarimga ming la'nat! — der edi.

Xotini:

— Balki xatni jo'natmagandirsan? — der edi.

Karbaloyi Mammadali:

— Unda ukang Karbaloyi Rizo borib mokulik Hoji Alidan jo'natgan-jo'natmaganligimni so'rab ko'rsin, — deb javob berardi.

Keyingi paytlarda Karbaloyi Mammadali "maktubdan hech bir xabar yo'q" deganda Pariniso "maktubdan xabar bo'lishi kerak, ammo sen buni mendan yashiryapsan" deya eri bilan mojaro chiqaradigan bo'ldi. Bunday paytlarda Karbaloyi Mammadalining ont ichishdan boshqa chorasi yo'q edi.

Bir kuni ertalab Pariniso uyqudan uyg'oniboq erini tepkilab uyg'otishga tushdi. Karbaloyi Mammadali uyg'onib, ko'zlarini ishqalay boshladi. Xotin eridan:

— Karbaloyi Mammadali, bugun maktub haqida yaxshi xabar kelsa, menga nima berasan? — deb so'radi.

Karbaloyi Mammadali:

— Nima so'rasang, shuni beraman, — deb javob qildi.

— Bugun yaxshi xabar keladiganga o'xshaydi.

Eri:

— Qaydan bilding? — deb so'radi.

Xotini:

— Tush ko'rdim, — dedi.

Karbaloyi Mammadali:

— Qanaqa tush ko'rding? — deb so'radi.

— Qanaqa tush ko'rganligim bilan nima ishing bor? Lekin bugun bir yaxshi xabar kelishini ko'nglim sezib turibdi.

Karbaloyi Mammadali:

— Xudo xayringni bersin, ayt, axir, qanday tush ko'rding, — deya yolborib so'radi.

— Tushimni aytmayman, aytsam to'g'ri chiqmaydi.

Karbaloyi Mammadali kiyinib ishiga ketdi va peshindan ikki soatlar o'tgach uyiga qaytdi.

Pariniso undan:

— Nima gap? — deb so'radi.

— Hech gap yo'q.

Pariniso erining oldiga pishloq, non olib kelib, o'zi ham uning yoniga o'tirdi. Karbaloyi Mammadali og'ziga bir tishlam non solib:

— Hoy xotin, xo'sh, sening tushing nima bo'ldi? Bugun yaxshi xabar keladi degan eding, — deb so'radi.

Pariniso bunday deb javob qildi:

— Karbaloyi Mammadali, men senga yana takror aytamanki, yaxshi bir xabar keladi. Chunki men tushimda tarvuz ko'rganda hamisha xursand bo'laman. O'tgan hafta Sora opam ham tushida tarvuz ko'rgan ekan, uning eri Mashadi Haqberdi mullaning huzuriga borib Sora opamning tushini aytib beribdi. Mulla, tarvuz — xursandchilik debdi. Men ham hamisha tushimda tar-

vuz ko'rganda xursand bo'laman. Oxiri baxayr bo'lsin, tushimda rahmatlik Shahribonu xolam eshak minib biznikiga mehmonga kelgan emish. Go'rida tinch yotsin. Rahmatlik meni juda yaxshi ko'rardi. Ha... eshakning ustiga katta-katta qanorlar yuklangan emish; shunaqangi katta qanorlarki, mana shu uyday kelar emish...

Karbaloyi Mammadali qah-qahlab kulib yubordi:

— Hoy xotin, uyday katta qanor ham bo'larkanmi? Xa-xa-xa...

Pariniso ont ichishga tushdi:

— Yolg'on aytsam til tortmay o'lay! Xudo haqi, rost aytyapman. Har biri mana shu uyday kelardi. Ha... men rahmatliga peshvoz chiqib so'radim — iloyo o'ngimda peshvoz chiqib so'ramay — ha, so'radim: hoy xola, hazrat Abbos haqi, sen nega meni bunaqangi xijolatga qo'yasan? Rahmatlik kelib meni quchoqlab oldi — iloyo o'ngimda quchoqlab olmasin. — U yuzimdan bir o'pdi, bu yuzimdan bir o'pdi-da, kattakon bir tarvuzni menga keltirib berdi. Iloyo, Xudo rahmat qilsin, joyi jannatda bo'lsin, meni juda yaxshi ko'rardi, iloyo o'ngimda yaxshi ko'rmasin.

* * *

Pariniso ko'rgan tushini shunaqangi hikoya qilib turar ekan, Mammadalining qulog'iga "xix, jonivor, xix..." degan bir tovush eshitildi. Er-xotin hovli tomon o'girildilar, qarasalar, hovliga bir eshak kirib kelyapti, eshakning ustida bir ayol, yonida bir erkak.

Pariniso va Karbaloyi Mammadali avvaliga ularning kimligini bilishmadi; hatto Karbaloyi Mammadali xotiniga:

— Hoy xotin, tushing rost chiqdi. Ana, Shahribonu xolang senga tarvuz keltiryapti, — deya bir nav hazil ham qildi.

Pariniso hovliga kirib kelganlarga jiddiy razm solib, o'rnidan turdi. Karbaloyi Mammadali ham ularga birpas angrayib qarab turgach, qo'qqisdan "voy!" deganicha yashirinish uchun uyning bir burchiga o'zini urdi. Nima qilishni bilmay qolgan Pariniso ham hovliqqanicha eri tomon qochib qoldi. Karbaloyi Mammadali derazani sindirib, ko'chaga urib ketish uchun o'zini deraza tomon otdi. So'ng yana bir hovliga qarab olib, eshik tomon yugurdi, ko'zlarini pirpiratganicha hovliga chiqib zir yugura boshladi.

Eshak minib kelgan xotin har qo'liga bir tosh olib qarg'anganicha Karbaloyi Mammadalini quvlay ketdi:

— Itvachcha, xotin olganing yetmaganiday, hali menga xat yozib suyunchi ham so'raysanmi?!

Ayol bilan kelgan erkak ham Karbaloyi Mammadaliga hujum qila ketdi. Ayol qo'lidagi toshlardan birini Karbaloyi Mammadaliga qarab otdi. Tosh tovuqlardan biriga borib tegdi. Erkak qo'lidagi kaltakni Karbaloyi Mammadaliga qarab irg'itdi. Kaltak borib devorga tegdi. Karbaloyi Mammadali hovlining pastak devoridan sakrab o'tib, narigi hovli tomon qochdi.

Pariniso uyning ichida "voydod", "voydod" deya chinqirishga tushdi. Hovlidagi ayol va erkak Karbaloyi Mammadalini shunaqangi so'kar edilarki, ko'chada o'n yetti-o'n sakkiz yoshdagi musulmon bolalari oshiq o'ynagandagina bir-birlarini shunaqa deb so'kishi mumkin.

Karbaloyi Mammadalini quvlagan ayol uning Arablardagi xotini, uning yonidagi erkak esa u ayolning akasi edi.

Bu mojaroning qanday tugaganini men ham bilmadim.

23-noyabr, 1906, Tiflis

MUZ

Men o'shanda o'n yoshlarda yoki sal kattaroq bo'lsam kerak. Xolam og'rib qolgan edi. Uni ko'rib, muolaja qilsin deya hoji Mirza Sattor hakimni chaqirgan edilar. Demak, xolamning kasali unaqangi og'ir kasal emas edi, shuning uchun bunday deyapmanki, o'sha paytlar, ya'ni bundan qirq yilcha avval bizning shaharda ikkita musulmon hakimi bo'lib, biri Mirza Sattor va ikkinchisi Mashadi Nurmammad edi.

Ularni musulmon bo'lgani uchun musulmon hakimi demasdilar. Bu ikkisini shuning uchun ham musulmon hakimi der edilarki, ular hakimlik tahsillarini musulmon mamlakatlarida olgan edilar. Hoji Mirza Sattor Tabrizda o'qib kelgan edi; hoji Nurmammad esa bizning o'z shahrimizda qo'lyozma kitoblarning mutolaasi va taj-

riba orqali hakimlikni o‘rgangan edi. Bularning muolajasi biroz tomirni tutib turgandan so‘ng cho‘ntaklaridan bemorga xino yoki hab dori chiqarib berishdan iborat edi.

Bu musulmon hakimlaridan tashqari shahrimizda rus hakimlari ham bor edi. Ularni shuning uchun ham rus hakimlari deb atashardiki, ular Rusiya yoki Ovrupoda tahsil olishgan edi. Va bizning jamoatimiz orasida “rus hakimlari” musulmon hakimlaridan ko‘ra ko‘proq tahsil ko‘rib, katta tajriba to‘plagan, degan bir e’tiqod bo‘lib, shuning uchun ham bemor og‘irroq bo‘lsa hamisha hoziq[1] degan fikrda rus hakimlarini chaqirish taomili bor edi; kambag‘al-qashshoqlardan tashqari, albatta. Kambag‘allar ikki abbosi fayton pulidan, bir manat rus hakimining xizmat haqidan va yarim manat dori-darmon xarjidan qochish evaziga hoji Mirza Sattorga yoki Mashadi Nurmammadga qanoat qilib, besh-olti shohi evaziga hakimning xizmat haqini ham, dori-darmon xarajatini ham uzib yuborar edilar.

Demak, musulmon hakimini chaqirishsa, bemorning og‘ir emasligi ma’lum bo‘lardi. Biroq “rus hakim”ini chaqirishsa ma’lum bo‘lardiki, bemorning ahvoli ancha qo‘rqqulik.

Hoji Mirza Sattor xolamni ko‘rib ketgandan so‘ng oradan bir soatlar o‘tgach, xolamning eri Mashadi Zulfiqor eski bir faytonda bir ruscha papoq kiygan kishi bilan kelib tushganini ko‘rdim. Bu ruscha papoq kiygan kimsa rus hakimi ekan. Shundan men angladimki, xolamning ahvoli chatoq. Men ham bir chekkada bu hakimning xolamni qanday tekshirishini tomosha qilib turdim.

Xullas, u tekshirishni tugatib, bilmadim nima dedi, nima demadi, faytonga chiqishi bilanoq xolamning eri darhol menga pul berib:

— Bolam, tez yugur, qani, g‘izillab borib bir kapiklik muz keltir, ichkariga ber... hakim aytdi... — dedi.

Xolamning eri bu gaplarini yana bir bor ta’kidlab takror etgach, onamga yashirincha nimadir dedi. So‘ng uydan bir dona bo‘sh dori shishasini olib chiqib, faytonga, hakimning yoniga o‘tirdi va faytonni jadal haydab ketishdi. Fayton uzoqlashib ketgach, otam uyimizga qarab qichqirdi:

[1] **Hoziq** — bilimli, mahoratli *(tarj.)*.

— Hoy bola, muzni yoddan chiqarma!

Ular ketib bo'lgach, onam hakim kelganda boshiga solib olgan choyshabni yerga otib urib, xolamning yoniga cho'kdi va u ham menga qarab, so'ppayib turmasdan tez bozordan muz olib kel, dedi; chunki ma'lum bo'lishicha, hakim xolamning yuragi ustiga muz bosishni va to yuragi bir maromga tushmaguncha muzni olmaslikni topshirib ketibdi.

Men bozor sari yo'l oldim. To'g'ri baqqol chorsusiga boraman-u darhol muzni olib qaytaman degan fikr xayolimdan kechdi. Chunki shaharda u yerdan bo'lak qayerda muz sotishlarini bilmas edim.

Uyimizdan uzoqlashganda ham unchalik shoshmas, lekin xolamning yolvorishlari yodimga tushganda sal tezlashar edim; chunki sho'rlik xolam ich-ichiga cho'kib ketgan ko'zlarini zo'rg'a menga tikib yolvorib qolgan edi:

— Xolang senga qurbon bo'lsin, yuragim yonib ketyapti, tezroq muz olib kela qol.

Hoji Bayramning darvozasi oldidan o'tayotganimda hovli ichidagi itlari hurib qoldi. Men qo'limga ehtiyot shart ikkita tosh olganimcha darvozadan kechib o'tdim. It tashqari chiqmadi, faqat hovlidan uning "vov, vov" degan yo'g'on ovozi eshitilardi. Bu it ancha qari it bo'lib, o'tgan-ketganlar bilan deyarli ishi, hafsalasi yo'q edi. Hoji Bayramning o'g'li, mening ko'cha o'rtog'im Sherali har gal ularning darvozasidan o'tganimda ana shu qari itini ko'chaga chaqirib chiqib menga olkishlar, o'zi ham, iti ham meni ancha joygacha quvib borar, ammo menga hech eta olmasdilar, chunki it shu qadar qarib qolgan ediki, meni biroz quvlagandan so'ng darhol charchab to'xtab qolar, holsiz va ilojsiz turgan yerida "vov, vov" degancha qo'rqitmoqchi bo'lardi. Menga eng yoqadigan joyi shu ediki, itining bu fe'lidan Sheralining rosa achchig'i chiqar, meni qo'yib sho'rlik qari itni ura ketardi.

Bu menga yanada ko'proq xush yoqardi. Shunday paytlarda Sherali itining alamini mendan olmoqchi bo'lar, bir-birimiz bilan so'kisha boshlar, ko'pincha bu dahanaki so'kishlar mushtlashishga ham aylanib ketardiki, bizni yo'lovchilar zo'rg'a ajratib qo'yishardi.

Bu gal darvozada Sherali ko'rinmadi, men ham itning hurishiga parvo qilmay, xolamni o'ylagancha, ya'ni unga rahmim kelib to'xtamasdan o'tib ketdim.

Baqqol chorsusiga yetib borib muz sotuvchiga bir kapikni uzatdim. U bir chuqur yerga qo'l tiqib, yaproq va somonlar orasidan kattakon bir muz bo'lagini chiqardi, bir mening kapigimga, bir muzga qarab turdi-da, muzni ikkiga bo'lib, katta bo'lagini bir karam bargiga o'raganicha menga tutqazdi.

Muzning og'irligi besh girvonkalar kelar edi. Muzni qo'limda tutib salqingina baqqol rastasidan kunning ko'ziga chiqdim. Havo juda issiq edi. Yozning chillasi bo'lib, ayni tush paytining quyoshi biror mo'jiza bilan yerga qulab tushgudek bo'lsa, aynan mening boshim ustiga tushgudek edi.

Men qattiq terga botib ketgandim; bir tomondan peshanamdan sharillab ter oqar, ikkinchi tomondan muz suv bo'lib oqmoqda edi. Erdan bir toza tosh topib olib, uni muzning ustiga bosib ezar, bir parcha muzni og'zimga solar, bir parchasini manglayimga surtar edim.

Shu tariqa hoji Bayramning darvozasiga yetib keldim. Itning ovozi chiqmas, Sherali ham ko'rinmas edi. Hoji Bayramning darvozasiga shundoq yetishim bilanoq, o'zim ham bilmayman, nega to'xtab qoldim. Itning ovozi chiqmas, na darvozada, na ko'chada biror kimsa ko'rinmas edi; aftidan, issiqning zo'ridan hamma o'zini bir ko'lkaga urib ketgan edi.

O'rgangan odat yomon ekan; mening odatim shu ediki, bu darvoza oldidan o'tganimda yo it, yoki Sherali darvozaga chiqmagan biron-bir kun yo'q edi. Va tabiiyki, ular chiqib qolsa, yo itga tosh otmasdan, yo Sherali bilan so'kishmasdan, ba'zida esa mushtlashmasdan o'tib keta olmasdim.

Endi nima qilsamikin? Topgan bir choram shu bo'ldiki, yerdan ikkita dumaloq tosh olib, biror voqea ro'y bersa menga hech kim yeta olmasin deya uyimiz tomon ancha o'tib olgach, orqaga o'girilib toshlardan birini hoji Bayramning darvozasiga uloqtirdim-da, yanada nariroq borib turdim.

Ichkaridan it vovulladi. Qari it istar-istamas tashqari chiqib, istar-istamas o'z vazifasini ado etardi.

Qo'limdagi ikkinchi toshni ham uloqtirdim. Tosh itning ustidan uchib o'tib, hoji Bayramning darvozasiga chaqillab urildi. Bundan itning jahli chiqdi, shekilli, menga tomon hurib kela boshladi. Men qo'rqib biroz nari qochdim, so'ng ortimga o'girilib qarasam, itning ortidan Sherali ham bostirib kelmoqda.

Siz tag'in meni ulardan cho'chir ekan deb o'ylamang, zarracha cho'chiydigan joyim yo'q edi. Chunki itning na meni tishlaydigan tishi qolgan edi, na menga kuchi yetardi. Sheralining ham har holda uddasidan chiqa olardim.

Muzni yerga qo'ydim, u o'tdek qizib yotgan tuproqqa tekkach, jizillab bug' bo'lib ketishiga bir baxya qoldi. Suvi erib oqib ketayotgan muzni darhol yerdan olib devorning soyasiga otdim va atrofda sochilib yotgan toshlar tomon yugurib, ularni olib Sherali tomon uloqtira boshladim. U ham to'xtab qolib, turgan yeridan meni toshbo'ronga tutdi. Men otayotgan toshlar itga ham tegar, u o'zini himoya qilmoqchi bo'lar, shuning uchun ham egasiga hech qanday yordam bera olmasdi. Biz nuqul bir-birimizga tosh otar, bir-birimizni bo'ralatib so'kar edik. So'kishlarimiz ushbu qabilda edi: "He sening onangni... falon-falon", "He sening singlingni... falon-falon", "He itdan to'ragan itvachcha", lekin bundoq so'kishlarning ta'siri kamroq edi, chunki bizning bu to'qnashuvimiz oddiy to'qnashuvlardan emas ediki, oddiy so'kishlarning ta'siri bo'lsa. Hatto men g'azabimdan unga shunaqangi bir so'kish yo'lladimki, Sherali alamidan yig'lab yubordi va yig'laganicha shu so'kishni mening o'zimga qaytardi. Shu payt Sheralining otasi hoji Bayram, bu so'kishni eshitdimi yoki yo'qmi, har holda qarasam, hovlidan to'g'ri chiqib kelib o'g'lining qulog'iga yopishdi va sudrab hovlisiga olib kirib ketdi, so'ng yana tashqariga qaytib chiqib, menga o'shqirib berdi:

— Hoy valaduzzino, to'g'ri yo'lingdan keta olmaysanmi?

Men indamay devorning tagiga o'tirib oldim. Yuragim shunchalik yonar ediki, yerdagi muzni og'zimga tiqishimga oz qolardi. Muz hamon erib oqmoqda edi. Baribir o'zimni tuta olmay qo'limdagi tosh bilan muzning bir tomonidan ushatib og'zimga soldim. Atigi olmaday bo'lib qolgan muzni yerga qo'ymoqchi bo'lgan edim, xolam yodimga tushib, darhol muzni bemorga yetkazish

lozimligini tushunib qoldim. Shu payt qarasam, Sherali darvozasining oldidan menga tikilib turibdi. Men indamasdan uyimiz tomon keta boshladim. Shu payt Sheralidan shundoq bir so'z eshitdimki, to'xtab unga javob bermaslikning iloji yo'q edi.

Sherali uzoqdan menga qichqirar edi:

— Ha, itday qo'rqib qochib qoldingmi?!

Tamom-vassalom. Axir bu yaxshi so'z emas edi-da. Sherali menga boshqa nima desa desin edi, men hammasini qulog'imning orqasidan o'tkazib yuborib, uyga ketgan bo'lardim; chunki xolamning eridan ham, onamdan ham qo'rqardim. Lekin Xudoning o'zi shohidki, Sherali menga nohaq gapni aytdi; axir, men uning nimasidan qo'rqaman!.. Endi uyga ketib bo'pman.

Men to'xtab o'girildim va Sheraliga shunday javob qildim:

— Vey, itvachcha, men sening nimangdan qo'rqaman?

— O'zing itvachcha, o'zing kuchukvachcha!

Biz bir-birimizga yaqinlasha boshaldik. Ehtiyot shart muz bo'lagini yana devor tagiga qo'ydim, biz bir-birimizga yuzma-yuz kelib, avval so'kishdik, so'ng turtishdik, so'ngra mushtlashdik va oxirida yoqama-yoqa bo'lib ketdik.

Anchagina yoqalashib, do'pposlashganimizdan keyin, bir payt qarasam, bir katta kishining quchog'ida turibman. Bir choyshabli ayol va bir-ikkita bola Sheralini sudray-sudray hovlisiga olib ketishdi. Men bu katta kishining quchog'idan otilib chiqmoqchi va unga hujum qilmoqchi bo'ldim, lekin birdan damim ichimga tushib ketdi. Qo'qqisdan kuragimga tushgan musht zarbidan boshim osilib qoldi.

Bu musht sohibi xolamning eri edi. Bir zarba bilan uning hirsi qonmay, meni urish uchun yana qo'l ko'targan edi, men uy tomon qochib qoldim.

Xolamning eri ortimdan quvmadi, menimcha, u bozor tomon ketdi. Keyin bilsam, u uyga kelib, mening bozordan qaytmaganimni ko'rgach, muz olib kelish uchun o'zi bozorga yo'l olgan ekan.

Uyalganimdan bemorning oldiga bora olmadim; biroq onam meni olisdan ko'rib, faqat shunday dedi:

— Hoy bola, sho'rlik bemorning jigarini yondirib qo'yding, iloyo, sening ham jigaring yonsin!

Xolam meni juda yaxshi ko'rardi: keyinchalik men eshitsam onam meni bunday deb qarg'aganda xolam unga:

— Hoy Sora, hazrat Abbos haqi, bolani bunday deb qarg'ama! — degan ekan.

Bir necha kundan so'ng xolam vafot etdi. Men o'sha kuni na yig'ladim, na qayg'urdim, chunki menga o'xshagan barcha bolalar ham xolalarining o'limiga na yig'laydilar, na qayg'uradilar.

Ayni paytda faqat bir narsa sirayam yodimdan chiqmaydi va hozirgacha goh-gohida meni bezovta qilib turadi.

Xo'sh, u nima, dersiz? Uning nomi "muz".

Xususan yoz faslida, boz ustiga bizning issiq iqlimda yozning jazirama issig'idan nainki bemorlar, hatto sog'lom kishilarning ham ba'zan ichi yonib ketadi.

Va yoz faslida aravalarda tashib yuriladigan oppoq, top-toza, tip-tiniq muz bo'laklarini ko'rganimda xolam yodimga tushib ketadi va o'z-o'zimcha deyman: kimningki ichi yonib yotgan bo'lsa, taskin topsin uchun unga mana shu muzdan eltib bersalar, o'sha odam — baxtiyor odam.

Va yana ko'pdan ko'p baxtiyor kishilar borki, bu muzlar ularning lazzatli yemaklari va muzqaymoqlariga sarflanadi. Ammo mening xolam baland isitma og'ushida ichi yona-yona ikki kun ichida o'lib ketdi.

Kimning aybi uchun? Menikimi yo yo'q? Gunoh kimda? Itlar bilan talashib xolamning muzini o'tdek tuproqda eritib yuborganim uchun gunohkor men emasmanmi? Yo balki toshdek qattiq muzni issiqning zo'ridan suv qilib oqizgan tabiat aybdordir? Balki hech birimizda gunoh yo'qdir? Chunki mendek tarbiya ko'rmagan o'n yoshli bir bolakayning ko'rsatgan qiliqlari tabiiy-ku, axir, xuddi muzning kun issig'ida erishi tabiiy bo'lgani kabi.

Maqsad bunaqangi savollarga javob topmoq, qanaqadir ilmiy muammolarni yechmoq emas. Bu yerda maqsadning o'zi yo'q.

Biroq har gal yoz fasli ko'chalardagi aravalarda muz bo'laklarini ko'rganda, bir tomondan, bu muzlarni shampanskiy va lazzatli

muzqaymoqlarga ishlatadigan baxtiyor kimsalar ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ladi va ayni zamonda xolamning “jigari yonganlari” yodimga tushib ketadi.

Har holda, ilgari bola edim, yodimga tushmasdi; ulg‘ayib, aqlimni tanigandan so‘ng bu voqeaning har bir tafsiloti bir dardimga o‘n dard qo‘shadi. Ikkinchi tomondan esa o‘n yoshlarda bo‘lgan bir paytimda o‘lim to‘shagida yotgan xolamni bir kapiklik muzga hasrat qoldirganim yodimga tushib ketadi.

QO‘ZI

Muhammadhusaynning tutingan o‘g‘li Qurtbosar qishlog‘idan unga bir qo‘zi sovg‘a qilib jo‘natgan edi. Kabla Muhammadhusayn bu qo‘zini so‘ymoqchi bo‘ldi, ammo jonivorning bellarini qo‘li bilan g‘ijimlab ko‘rib, pichoqni yerga otib urdi va xotiniga:

— To‘rtta suyak bilan teridan boshqa hech narsasi yo‘q, — dedi.

Xotini qo‘zi bir necha kun bog‘chada o‘tlab, jinday et olishini maslahat berdi. Eri ham bunga rozi bo‘lib, qo‘zini itara-itara hovlining bir chetidagi bog‘chaga eltib soldi. Jonivorning oldida ko‘m-ko‘k o‘tlar o‘sib yotgan bo‘lsa-da, undan chimchib ham ko‘rmadi.

Ushbu paytda qo‘shnilari Aziz xonning hovlisida erkaklarning qo‘shiq aytgan ovozi yangrar, ayniqsa Aziz xonning ovozi baralla eshitilar edi:

Zap turibsan tog‘ boshida qor kabi,
Mammalaring bosh beribdi nor kabi, nor kabi...

* * *

Kabla Muhammadhusayn qo‘zini uyga yetaklab kirdi, boshiga jun mato tashlab, chakmonini kiydi, tamakixaltasini cho‘ntagiga solib, chubug‘ini beliga taqdi va xotiniga:

— Qo‘zini olib ketyapman, — dedi.

— Qayoqqa eltib sotasan uni, bu qo‘zini bir manatga ham olmaydilar-ku, — dedi.

— Yo‘q, sotishga emas, xonlikka olib boraman. Balki biror narsa undirib kelarman.

Shunday deya Kabla Muhammadhusayn hovliga chiqdi, qo‘zini qo‘ltig‘iga oldi-da, ko‘chaga chiqib, Aziz xonning hovlisi tomon yurdi.

Chapak va qo‘shiq tobora balandlab borardi.

Zap turibsan tog‘ boshida...
Mammalaring nor kabi...

Xullas, xonlik darvozasining oldida bir-ikki qishloqliklar turar, hovlida ham bir to‘p qishloqliklar baqirib suhbatlashmoqda edilar. Bog‘chadagi kattakon tut daraxtlarining tagida besh-oltita qo‘zi o‘tlab yurardi. Hovlining bir burchagida, chordoq ostida bir yaydoq oq ot bog‘langan edi. Oshxonada idish-tovoqlarning taqa-tuq, jarang-juring sadolari eshitilardi. Bir necha xonlik xizmatchisi oshxonadan uyga har xil taom, uydan oshxonaga bo‘shagan idish-tovoqlarni tashimoqda edi. Kabla Muhammadhusayn to‘g‘ri kelib zinapoyalardan old xonaga ko‘tarildi va navkarlardan biriga:

— Sodiq og‘ayni, xonga borib, Muhammadhusayn qo‘zi keltirbdi, deb ayt, — dedi.

Birozdan so‘ng kayfi baland Aziz xon sochiqqa lablarini artganicha chiqib keldi, Muhammadhusaynning qo‘ltig‘idagi qo‘ziga ko‘zi tushib, uning yoniga keldi va qo‘zini silab-siypay boshladi:

— Qo‘zi, qo‘zi, muncha yaxshi qo‘zi, muncha chiroyli qo‘zi. Qo‘zi, qo‘zi, qo‘zi! — deya mehri toshib ketib, jonivorning ko‘zlaridan o‘pishga tushdi.

Kabla Muhammadhusayn ham qo‘zini ta’riflay ketdi:

— Xon, moshoolloh, juda zotli qo‘zi. Bir qishloqi sotgani olib ketayotgan ekan, uch manat berib zo‘rg‘a oldim. Mehmoningiz borligini bilganim uchun, balki kerak bo‘lib qolar, palov ostiga bostirarsiz, deb o‘yladim. Judayam yeyishli qo‘zi.

Ichkari xonada chapak sadolari yangradi. O‘ris mehmonlardan biri eshikni ochib, Aziz xonni chaqirib qoldi. Azizxon o‘girilib mehmonlar tomon shoshildi, lekin yana Muhammadhusaynning yoniga qaytdi, qo‘lini cho‘ntagiga suqib, bitta uch manatlik

chiqardi. Pulni bir qaytib cho'ntagiga tiqmoqchi bo'ldi, bir Muhammadhusaynga bermoqchi bo'ldi, yana bir bor cho'ntagiga tiqmoqchi bo'ldi, oxiri uni Muhammadhusaynga otib, o'zi ichkariga qarab chopdi. Kabla Muhammadhusayn pulni cho'ntagiga solib, qo'zisini o'tlab yurgan qo'zilarga qo'shib qo'yish uchun hovliga tushdi.

Qishloqliklar hamon hovlida ariq borasida baqira-baqira bahslashishar, navkarlar ham u yoqdan bu yoqqa yugurib yurishar, Muhammadhusaynga qiyo qarab qo'yadigan kimsa yo'q edi. U ham qo'ltig'idagi qo'zining boshini chakmonga o'rab darvoza tomon yurdi va uyiga chiqib ketdi.

Va shu kuni qo'zini so'yib yedi... Ammo chindan ham qo'zi juda oriq ekan.

•

Ikkinchi daf'a

Oradan bir hafta o'tgan ham ediki, Kabla Mammadhusayn aylana-aylana Aziz xonning darvozasidan chiqib qoldi. Xonning navkarlaridan biri hovlida palosning changini qoqayotgan ekan, u Mammadhusayni ko'rib palosni yerga qo'ydi-da, darvozaga chiqdi. Ikkalasi undan-bundan suhbatlasha ketishdi. Hovlida ikkita qo'zi ko'zga tashlanardi, Mammadhusayn, darvozani ochiq qoldirmanglar, yo'qsa qo'zilar ko'chaga chiqsa, bola-baqralar tutib olib ketishi mumkin, deya nasihat qildi. Navkar:

— Ko'ngling to'q bo'lsin, hech bir itvachcha jur'at etib xonning qo'zisini olib ketolmaydi! — dedi.

Suhbat boshqa mavzuga ko'chdi. Mammadhusayn xonning hol-ahvolini so'rashga tushdi, xayolida esa xonning tag'in qachon mehmon chaqirishini bilib olish edi. Navkar suhbat orasida:

— Ertamas, indin kuni xonnikiga mirovoy posrednik[1] va o'ris hakimining xotini, ulardan tashqari Temirtepa pristavi, G'ulom xon, Safo xonlar mehmon bo'lib kelishadi, — dedi.

---

[1] **Mirovoyposrednik** — o'tmishda mulkdorlar bilan qishloq ahli orasidagi yer nizolarini hal etadigan mahalliy hukumat vakili *(muallif)*.

Ikki kundan so‘ng Aziz xonning hovlisida yana baqir-chaqir boshlandi. Bu daf’a maxsus xonanda-yu sozandalar ham chaqirilgan edi. Darvozaning oldi ko‘cha bolalari bilan to‘lib ketgan edi. Kabla Mammadhusayn bolalar orasidan o‘tib borib darvozani qoqdi, garchi darvoza ochiq bo‘lsa ham, u daf’atan ichkariga kirib bormoqchi emas edi.

Xonada kuy-qo‘shiqlar, mehmonlarning chapagi, hovlidagi kishilarning baqir-chaqiri bir-biriga qorishib ketgan edi.

— Valiquli jiyan, Valiquli jiyan, bu yoqqa bir qarab yubor!

Xonning Valiquli nomli navkari qo‘lidagi nonni tezda o‘z joyiga qo‘ydi-da, darvoza tomon yugurdi. Kabla Mammadhusayn unga salom berib, hol-ahvolini so‘ragandan so‘ng dedi:

— Valiquli jiyan! Axir, bu insofdan emas-da, men bir kambag‘al kishi bo‘lsam, xonga bir amallab tushuntir, marhamat qilib qo‘zining uch manatini bersin. Juda muhtoj bo‘lib qoldim. Ikki haftadan oshib qoldi, nuqul kelib-ketaman. Menda ham uyat bor-ku, axir.

Valiquli:

— Bo‘pti, aytib ko‘raman. Lekin hozir xonning qulog‘ida bu gaplar kirmaydi, ertaga aytaman, — dedi.

Shunday deya Valiquli qaytib ketmoqchi bo‘ldi, biroq Mammadhusayn uni etagidan yopishib olib, yelkasiga qo‘l soldi:

— Yo‘q, yo‘q, Xudo haqi, hozir borib ayt. Hoziroq borib ayt!

— Hoy bandayi besabr, hozir men qanday qilib bu gapni xonga aytaman? Ko‘rmayapsanmi, mehmonlar boshini gangitib qo‘ydi-ku uning?

Mammadhusaynning jahli chiqdi:

— Astag‘furulloh! Shu bo‘ldimi menga aytgan gaping? Men o‘z pulimni so‘rayapman, boshqasi bilan ishim yo‘q. Jiyan, hazrat Abbos haqi, sen hoziroq borib mening pulimni keltirib ber.

“Valiquli! Valiquli!” — deya uni oshxonaga chaqirib qolishdi, Valiquli Mammadhusaynga, mayli, bir amallarman, deya oshxonaga yugurdi, palov suzilgan laganni ikki qo‘llab ko‘targanicha mehmonxona tomon shoshildi.

Yosh xonlardan biri cholg‘uchilar oldiga tushib o‘ynamoqda edi. Mehmonlar qarsak chalardilar. Bu yosh xon o‘ynay-o‘ynay

hakimning xotini qarshisiga borib, boshi bilan uni ham turib o'ynashga da'vat etdi. Xonim, men o'ynay olmayman deb noz-istig'no qila boshladi. Mehmonlar uni davraga olib, o'ynagani unday boshladilar. Oxiri xonim o'rnidan turib, cholg'uchilarga "Tripaga" kuyini chalishni aytib, o'yinga tusha ketdi. Mehmonlar chapakka zo'r berdilar. Aziz xon qadahini to'ldirib oldinga chiqdi, "xonimning sog'ligi uchun", deya sharobni ichib yuborgach, cho'ntagidan bitta uch manatlik chiqarib torzanning[1] papog'iga qistirdi-da, o'zi ham chapak chala boshladi.

Kabla Mammadhusayn Valiqulining hayallab ketganiga sabri chidamay, old xonaga kirib, bu yerdan o'ynayotganlarni tomosha qila boshladi. Aziz xon yana bitta uch manatlik chiqarib kamonchining papog'iga qistirdi. Valiquli bo'shagan idish-tovoqlarni ustma-ust qilib ko'targanicha oshxona tomon shoshildi. Mammadhusayn uning oldini to'sdi va idish-tovoqlarni o'z og'ushiga olib:

— Qani, hoziroq qayt, anavi uchtaliklardan bittasini menga keltirib ber! — dedi.

Valiquli nima deyishini bilmay qoldi.

— Bu bezbet Husu degan jonim senga qurbon, so'zimni yerda qoldirma!

Valiquli idishlarni tokchaga qo'yib, mehmonxonaga qaytib kirdi va kamoli odob bilan Aziz xonning qulog'iga borib pichirladi:

— Xon, anavi sho'rlik Kabla Mammadhusaynning bolasi og'rib qolibdi. Hakim chaqirmoqchi ekan, qo'zining pulini so'rab kelibdi.

Aziz xon chapak chalganicha kuylar edi:

— Zap turibsan tog' boshida qor kabi... — va shundoq kuylaganicha old xonaga chiqib keldi:

— Ha, nega kelding, Mammadhusayn?

— Xon, qo'zining puliga keldim.

— Ha, yana qo'zi olib keldingmi?

— Yo'q, xon, o'tgan mehmondorchilikda olib kelgan edim, berishga mayda pul topmagan edingiz.

Aziz xon cho'ntagiga qo'l tiqdi, bir mehmonlar tomon yurdi, bir Mammadhusayn tomon yurib aljiray boshladi:

[1] **Torzan** — tor chaluvchi sozanda *(tarj.)*.

— Haliyam puli berilmadimi? Nega berilmadi? Nega haligacha berilmadi? Yaxshi, beraman, bor, boraver! Qanaqa qo'zi? Qaysi qo'zi? Hozircha mayda pulim yo'q. Valiquliga aytaman, berib qo'yadi... Zap turibsan tog' boshida... — u shu tariqa kuylay-kulay mehmonlar tomon shoshdi, cho'ntagidan bir dasta qog'oz pul chiqarib, bitta uch manatlikni doira chalayotgan cholg'uchining boshiga qistirdi, bitta uch manatlikni Mammadhusaynga bersin deya Valiquli tomon otdi.

Kabla Mammadhusayn uch manatni olib hovliga chiqdi. Yarim kechaga yaqinlashib qolganda mehmonlar tarqay boshladilar. Aziz xonning allaqachon kayfi oshib, uxlab qolgan edi.

Uchinchi daf'a

Bu voqeadan so'ng oradan bir necha oy o'tib ketgan edi. Bir kuni Kabla Mammadhusayn Aziz xonning hovlisi oldidan o'tib borar ekan, xonlikda yana mehmondorchilik bo'layotganini ko'rib qoldi. Darvoza oldida ikkita fayton turar edi. Yana bir faytonda ikki nafar rus chinovnigi kelib tushib, hovliga kirishdi. Kabla Mammadhusayn darvoza oldida biroz turib qoldi, kelgan-ketganlarni tomosha qildi, so'ng devor tagiga borib cho'nqayib o'tirdi-da, chubug'ini olib cheka boshladi.

Yarim soatdan so'ng oyoqqa turdi, sekingina kelib darvozadan hovlini tomosha qila boshladi. So'ngra qandaydir bir fikrga keldi, shekilli, o'girilib sekin-asta bozor tomon yurib ketdi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Kabla Mammadhusayn xiyobondagi o'rindiqda o'tirar edi. Peshin mahali edi. Aziz xon va unga ergashgan bir necha qishloq ahli notarius idorasining oldidan o'tib bormoqda edilar. Mammadhusayn o'rnidan turdi. Orqadan xonga yetib olib salom berdi.

Aziz xon o'girilib unga qarar ekan, u darhol ikki qo'lini ko'ksiga qovushtirib, odob bilan arz qildi:

— Xon, aytishga ham uyalaman, qo'zining puli haliyam qolib kelyapti.

Aziz xon hayron bo'lib so'radi:

— Qaysi qo'zi? Axir men sening pulingni bermabmidim?

— Xon, to'g'ri, menga bermoqchi bo'lib cho'ntagingizdan bitta uchtalik chiqardingiz, lekin uni kamonchiga berib yubordingiz, menga berganingiz yo'q. Kamonchi Azim o'lgani yo'q-ku. Istasangiz, chaqiring, o'zidan so'rang. Yo'qsa hadya bo'lsin sizga o'sha uch manat, shuyam pul bo'ptimi, men sizga yolg'on aytsam? Sizga hadya bo'la qolsin...

Xon g'azablanib Mammadhusaynning gapini kesdi:

— Nega axir puling haligacha qolib kelyapti? Men qayerdan bilay, qanaqa pul edi, qaysi do'zaxi itning qo'zisi edi?! Ko'chaning o'rtasida qo'zi undoq edi, kamonchi bundoq edi deb boshlaysan. Uyat emasmi? Qaysi qo'zi, qaysi ahmoqniki, qaysi kamonchi it-vachcha, qaysi ahmoqdan to'raganni ko'chada turib qator qilasan. Nuqul qo'zi deysan, men qo'zini qayerdan bilay? Mingta ishim bor, boshim qotib qolgan; sen ko'chaning boshida turib olib allaqanday qo'zini pesh qilasan, jonimni halqumga keltirding-ku!

Xon bu gaplarni aytib bo'lgach ketishga shaylandi. Kabla Mammadhusayn jur'at bilan bosh ko'tarib dedi:

— Xon, o'sha uch manat bilan men na boy bo'laman, na kambag'al. Qurbon bo'lsin senga o'sha uch manat. Nega yuragingni siqasan?

Aziz xon besh-olti qadam yurgach, to'xtadi-da, cho'ntagidan uch manat chiqarib Kabla Mammadhusaynni chaqirdi:

— Ol qo'zining pulini.

Kabla Mammadhusayn pulni olib cho'ntagiga solar ekan, shunday dedi:

— Olloh xonning umrini uzoq qilsin.

Iyun, 1914, Tiflis

PIRVERDINING XO'ROZI

Qosim amakining xotini Halima xola non yopmoqchi bo'ldi. Halima xola har gal non yopganida ikki-uch qo'shni ayolni yordamga chaqirar, goh-gohida esa Tozakanddagi singlisi Zubaydaga kelib ko'maklashsin deya xabar jo'natardi.

Bu gal o'n pud undan non yopiladigan bo'lib, Zubaydaning yordamiga kelishi albatta lozim bo'lib qoldi. Halima xola eriga yuzlanib:

— Tez bo'ling, eshakka mining-da, darhol Zubaydani olib keling, — dedi. Ma'lumki, non yopiladigan kunlar bolalar va itlar uchun bayramga aylanadi. Itlar uchun buning sababi ayon, bolalarga kelsak, ulardan maktabga boradiganlari ikki-uch kun uyda qolib, go'yo chaqaloqqa qaraydilar. Qiz bolalar ham yordamga chiqqan qo'shni ayollarning bolalari bilan hakalak, beshtosh o'ynaydilar.

Qosim amaki belbog'iga bir necha non o'rab beliga bog'ladi-da, eshakka minmoqchi bo'lgan edi, o'n uch yashar o'g'li Pirverdi eshakning dumiga yopishganicha dedi:

— Ketishingizga qo'ymayman!

Qosim amaki o'g'liga e'tibor bermay eshakka mindi, qarasa, eshak yurmaydi, u o'g'li tomon o'girilib so'radi:

— Bolam, nega ketgani qo'ymaysan?

Pirverdi javob qildi:

— Agar Zubayda xolamga aytsangiz, menga bitta xo'roz keltirsa, keyin qo'yib yuboraman, bo'lmasa qo'ymayman.

Qosim amaki "bo'pti" deya har ikki poshnasi bilan eshakning qorniga nuqtasa ham jonivor miq etmay turaverdi, chunki Pirverdi eshakning dumidan qattiq osilib olgan edi. Qosim amaki yana o'g'li tomon o'girilib ont ichdi:

— O'g'lim, Xudo haqi, xolangga borib aytaman, senga yaxshi bir charxi xo'roz olib keladi. Endi qo'yib yubor, keta qolay.

Pirverdi eshakning dumini qo'yib yubordi.

Ikki soat yo'l bosgan Qosimali amaki Tozakandga yetib borib, bojasi Karbaloyi Muhammadning uyiga yaqinlashib qolgan ham ediki, eski do'sti, Tozakandning prixod mullasi[1] Oxund Mulla Ja'farni uchratib qolib, eshakdan tushdi. Mulla bilan ko'rishib, bu yerga nima uchun kelganini aytgach, eshakni yetovga olmoqchi bo'lgan edi, Mulla Ja'far qo'lidagi cho'p bilan eshakning boshini o'z uyi tomon qaytarib, biznikiga kirib mehmon bo'lmay ketmaysan, deb turib oldi.

[1] **Prixodmullasi** — qishloq mullasi *(tarj.)*.

Darvoqe, Qosim amaki juda xushxulq, birovning gapini ikki qilmaydigan kishi edi; do‘stining taklifini qabul qilib, Mulla Ja’farnikiga yo‘l oldi. Mulla Ja’far Qosim amakini uyiga olib kirib, quymoq bilan mehmon qildi. Dasturxon yig‘ishtirib olingach, mulla mehmonga qarab so‘z boshladi:

— Qosim og‘ayni, men sening ishlaringga juda hayron qolaman. Hoy inson, shundoq bir jaziramada xotinning gapiga kirib to‘rt yig‘och yo‘l bosib kelibsan, nima emish — xotinim non yopar ekan. Mana bu — mening qishlog‘im, u — sening qishlog‘ing, endi sen bir chekkadan tushib, xotiningning qancha qarindosh-urug‘i, onasi, opasi, xolasi, bibisi, nevarasi bo‘lsa, hammasini Donobosh qishlog‘iga yig‘ib borasanmi? Nima, sen shaytonning malayimisan?

Qosim amaki boshini quyi solib, barmoqlari bilan gilamning popuklarini u tomon-bu tomonga silaganicha Mulla Ja’farga bunday deb javob qildi:

— Oxund Mulla Ja’far, aytgan hamma gaplaring ma’qul, lekin, Xudo haqi, xotinga bas kela olmayman. Hoy battol, alvasti, o‘n pud undan non yopishning nima qiyin joyi borki, singlingni yordamga chaqirsang, deyman. Qancha gapirsam ham, hech unamaydi. Hoy joning chiqqur, bir kun ortiqcha ishla, deyman, lekin hech quloq solmaydi.

— Evoh, ko‘rgan kuningga voy, Qosim og‘ayni, — dedi Mulla Ja’far.

Oradan biroz o‘tgach, Mulla Ja’far o‘rnidan qo‘zg‘alib, tizzalab o‘tirdi-da, o‘ng qo‘lini Qosim amakiga cho‘zib, baland ovozda:

— Qosim og‘ayni, qo‘lni tashla, — dedi.

Qosim amaki boshini mulla tomon burdi, lekin hech narsani tushunmadi.

— Qosim og‘ayni, qo‘lni tashla.

Qosim amaki sekingina, go‘yo nimadandir cho‘chigandek Mulla Ja’far tomon qo‘l cho‘zdi.

— Qosim og‘ayni, men seni uylantirib qo‘yaman.

Qosim amaki boshini sarak-sarak qilsa-da, hech narsa demadi.

— Qosim og'ayni, Parinisoni senga siyg'a qilaman. Bo'yin tovlab o'tirma. Xotinimga bas kela olmayapman, deyapsan. Xotinga mana shundoq qilib bas keladilar. Xudo haqi, Parinisoni senga olib beraman. Yoshi biroz kattaroq bo'lsa ham, to'piqlari shamdan yo'g'on.

Avvaliga Qosim amaki o'zini u yoq-bu yoqqa tashladi, lekin oxiri rozi bo'ldi. Mulla Ja'far kichkina qizini jo'natib Parinisoni oldirdi, siyg'a o'qidi va Qosim amakiga bugunoq yangi xotinini eshagiga mindirib o'z uyiga olib ketishni buyurdi. Qosim amaki tag'in biroz o'zini u yoq-bu yoqqa tashlab turgach, bunga ham rozi bo'ldi. Qosim amaki eshagiga minib, Parinisoni ortiga mingashtirib, yo'lga tushdi va oqshom payti qishlog'iga yaqinlashib qoldi.

Uning o'g'li Pirverdi qishloq chekkasiga o'tirib olib, xolasi unga charxi xo'roz olib kelishini kutganicha yo'lga ko'z tikib turar edi. Uzoqdan otasini ko'rishi bilanoq sevinganicha o'sha tomon yugurdi va otasining ortidagi ayolni xolasi Zubayda xayol qilib, dikonglay-dikonglay ayolga yaqin borib, chodirshabidan tortganicha so'radi:

— Zubayda xola, menga xo'roz olib keldingizmi?

Pariniso hayron bo'lib bolakay tomon yuz o'girdi. Xolasining o'rniga boshqa ayolni ko'rib, Pirverdining ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi, ayolga biroz angrayib qarab turdi-da, so'ngra dod solganicha o'zini yerga otdi.

Bu hikoyani tugatib qolayozgan edim, lekin o'rtog'im Mo'zolon kelib, tur o'rningdan, borib Qosim amakining xotinlarining yumma talashlarini tomosha qilamiz, dedi. Shuning uchun hikoyamni tugata olmay, shu yerda to'xtab qoldim.

BAQQOL MASHADI RAHIM

Tabrizda yashagan paytlarimda mahallamizdagi "Usta-shogird" bozorida bir baqqol bilan oshno tutingan va hatto keyingi vaqtlarda do'stlashib ham olgan edik. Men Bokuga ko'chib kelganimdan so'ng oradan yarim yillar o'tgach o'sha Mashadi Rahim "Mulla

Nasriddin" idorasiga kirib keldi. Ma'lum bo'lishicha, Mashadi Rahim Tabrizdagi baqqollik do'konini yig'ishtirib, Bokuga kelibdi va daryo qirg'og'idan yangi bir baqqollik do'koni ochibdi.

Oradan ancha o'tib, Mashadi Rahim yodimdan chiqib ham ketgan edi. Bir kuni xiyobondan o'tayotgan edim, bir hashamatli baqqollik do'konida do'stim Mashadi Rahimning egilib olib savdo-sotiq qilayotganini ko'rib qoldim. Ichkari kirib bordim. Mashadi Rahim oyoqqa turib, kelib meni quchoqlab oldi, ostimga kursi qo'yib berdi. U menga mehri balandligidan bola kabi yig'lab yuborgudek bir ahvolda edi. Meni o'tqazib qo'yib, darhol g'izillab borib do'kon ne'matlaridan bir hovuch yong'oqli parvarda olib kelib oldimga to'kdi. Men "hojati yo'q" desam ham Mashadi Rahim aylanib-o'grilib bu parvardalardan uch donasini menga yegizdi. So'ng yana chopib borib, hovuchini bir necha olmaga to'ldirib kelib qarshimga qo'ydi-da:

— Bir qara, bu olmalar — anton olmalari. Uyingga jinday jo'natib yuboraman, bola-chaqalaring yeydi, — dedi.

Shunday deya Mashadi Rahim bu olmalardan kattakon qog'oz xaltaga to'ldirib taroziga qo'ydi. Olmadan so'ng Mashadi Rahim do'konga razm solib, yugurib borganicha kaftida ikki dona xurmo olib keldi-da, tumshug'imga tutib:

— Qaragin, bu xurmo Bag'dod xurmosi. Palovning zirvagiga bosib yesang, xuddi ma'jun yegandek bo'lasan, — dedi va xurmoga to'ldirish uchun yana bir qog'oz xalta oldi.

Albatta, shuni hisobga olish kerakki, men bu yerga bozor-o'char qilish uchun kelmagan edim, bu narsalarni olishga na maylim bor edi, na cho'ntagimda bunga yetadigan pulim. Mashadi Rahim esa shu qadar hafsala bilan ishga tushib ketgan ediki, go'yo hozir do'konidagi hamma narsani taroziga qo'yib menga sotgudek edi. Men dedim:

— Mashadi Rahim, sen bekorga ovora bo'lma. Bu narsalardan hech birining menga keragi yo'q, palovning ostiga xurmo bosib yeyishni-ku allaqachon unutib yuborganman. Qolaversa, sen qatorlashtirib qo'ygan bu narsalarni olgani mening cho'ntagimda hemiri ham yo'q.

Mashadi Rahim ko‘zlarini ko‘zimga qadadi; shunday tikildiki, mening gaplarim unga yoqdimi, yo achchig‘i chiqdimi, bunisini bilolmadim. Biroz shu zayilda tikilib turgach, dedi:

— Mulla amaki, sen menga bunday dema, xafa bo‘laman. Olloh shohidki, sen bilan men necha yildan beri og‘a-inidekmiz. Men sendan pul so‘rayotganim yo‘q-ku. Men senga bu narsalarni berdimmi, sen indamay uyingga olib ketaver. Nima qipti, bugun bo‘lmasa, ertaga kerak bo‘lib qoladi. Uy bo‘lgandan keyin uning keldi-kettisi ham bo‘ladi-da. Bu ne’matlar doim ham topilavermaydi. Qara, bir-ikki girvonka mana bu pistadan soldim, yaqindagina Mozandarondan kelgan. Juda arzon. Bu yil pista yili bo‘ldi. Uch-to‘rt girvonka mana bu pishloqdan solaman, Ganjaning pishlog‘i, juda yemishli-da, naq yog‘ yegandek bo‘lasan. Mana bu shobolutdan o‘n girvonka tortdim, nuxalik o‘rtog‘im Mashadi Sodiq yaqinda olib keldi. Mana bu sadri guruchdan xohlasang bir pud, xohlasang yarim pud olib ket. Rashtdan tug‘ishgan akam Mashadi Karim saralab jo‘natgan. Lekin uydagilarga aytib qo‘yginki, pishirishdan bir kun avval suvga bo‘ktirib qo‘ysinlar. Ammo guruchga gap yo‘q.

Mashadi Rahim gapira-gapira bir qog‘oz xaltaga anton olmasidan solib tortdi, bir qog‘oz xaltaga xurmo tortdi, pista tortdi, pishloq tortdi, shobolut tortdi, ikki katta qog‘oz xaltaga guruch solib tortdi va yana qo‘lini qog‘oz xaltaga cho‘zayotgan edi, men uni to‘xtatdim:

— Mashadi Rahim, sen hazillashyapsanmi yoki mana shu narsalarning hammasini menga bermoqchimisan?

Do‘stim yana ko‘zimga tik boqqancha dedi:

— Menga qara, Mulla amaki, do‘stligimiz haqi, agar uyingizda qand bo‘lsa, yaxshi, agar bo‘lmasa, besh-o‘n girvonka yarmarka qandidan olib ket. Ikki pachka qo‘yaman, har biri besh girvonkalik, ikkitasi o‘n girvonka chiqadi...

Mashadi Rahim bu narsalarning hammasini bir savatga solib, qo‘chadan bir hammol chaqirdi, cho‘ntagidan ikki shohi chiqarib berar ekan, unga shunday dedi:

— Alihusayn, bu narsalarni mulla amakingning uyiga eltib ber. Narsalarni bo‘shatib, savatni do‘konga qaytarib olib kel.

Men hayron bo‘lganimcha:

— Mashadi Rahim, bu nima qilganing, axir, men hech tushunmay qoldim-ku, — dedim.

Men bu narsalarni do'konda qoldirib chiqib ketsam ham bo'lardi; ammo bunday qila olmadim. Chunki Mashadi Rahim yolvorib turib oldi, shu qadar yolvordiki, sho'rlikka rahmim kelib ketdi.

Hammol savatni yelkasiga olib mening yo'l boshlashimni kutib turardi; men uning yolg'iz o'zini jo'natib yubormoqchi bo'ldim, lekin u bizning uyni bilmas ekan. Noiloj qoldim.

Uyga yaqinlashganimizda qo'shnilarimizdan bo'lmish tanish bir rus ayoli ortimdagi hammolning yelkasidagi bu yuklarni ko'rib, jilmaygancha "zdrasti" deb o'tdi. U ikki narsani gumon qilgan bo'lishi mumkin: yo bizning uydagilardan birining tug'ilgan kuni deb o'ylagan, yoki bu kishining topar-tutari zo'r ekan deb o'ylagan bo'lsa kerak. Holbuki, bu gumonlarning har ikkisi ham yolg'on edi.

Uyga yetib qoldik. Hammol tilga kirib dedi:

— Mulla amaki, Xudo haqi, juda zo'r noz-ne'matlar olibsan. Mehmondorchiliging bor, shekilli?

Men shu o'rinda hammoldan juda uyalib ketdim, shuning uchun ham uyaldimki, men, ko'hna bir turk yozuvchisi ushbu vaziyatda, ushbu daqiqalarda ro'zg'ordor bir kimsaga, qorin qulida yurgan avomga o'xshab qolgan edim.

Keyinroq Mashadi Rahimga jinday pul topib jo'natdim. Qolgan qarzini ham yaqinginada uzdim.

SIBIZG'A

Yoshlik yillarimda men Iravonda nachalnik devonxonasida xizmat qilardim. Xizmatim tilmochlik bo'lib, shikoyatga kelgan qishloq odamlarining gapini nachalnikka ruschaga, nachalnikning gapini esa qishloqliklarga turkchaga[1] tarjima qilib berardim. Shikoyatchilar bo'lmagan vaqtlarda esa nachalnik nomidan pristav, yuzboshilarga buyruq va boshqa xatlar bitib, o'z qo'lim bilan

[1] Ozarbayjonchaga demoqchi *(tarj.)*.

yozgan bu xatlarni nachalnikka berardim, u imzo chekkach, bu qog'ozlarni kerakli joylarga jo'natar edik.

Bir kuni devonxonada xat bitib o'tirar edim. Hamkasblarimning ko'pchiligi ruslar bo'lib, ular orasida bir-ikkita musulmon mirzalari ham bor edi. Hammamiz o'z ishimiz bilan mashg'ul edik. Tush payti edi. Shunda g'alati bir voqea yuz berdi; o'tirgan joyimdan derazaga qarasam, devonxona hovlisida juda ko'p qishloq ahli yig'ilgan. Uyezd nachalnigi devonxonasiga qishloq ahlining yopirilib kelishi tabiiy hol edi. Ammo meni taajjublantirgani ikki narsa bo'ldi: birinchidan, qishloq ahli haddan tashqari ko'p kelmoqda edi; ikkinchidan esa, ularning qo'lida g'alati bir narsa bor edi. Uzoqdan bu narsa chubuq dastasiga o'xshab ketardi, lekin men derazaga yaqin borib, sinchiklab qarasam, ularning qo'lidagi bu narsa sibizg'a ekan.

Vo ajabo! Nahotki bu kimsalarning hammasi cho'pon bo'lsa? Mabodo cho'pon bo'lganlarida ham, nega sibizg'a ko'tarib yuribdilar, nima munosabat bilan bu yerga yig'ilibdilar, ularni kim chaqiribdi ekan?..

Men nachalnik tilmochi sifatida hovliga chiqishni, bu voqeadan xabardor bo'lishni o'z burchim deb bildim. Hovliga chiqqanim zahoti jamoat ustimga yoprilib kelib, shikoyat qila boshladi:

— Hoy og'a, nachalnikning bizga rahim kelsin. Biz Karmachatoq qishlog'idan bo'lamiz. Sibizg'a so'ratgan ekansiz, besh-o'n dona topib keldik. Xudo haqi, bu ham anqoning urug'i bo'lib qoldi. Cho'ponlarning ko'pchiligi tog'-toshda yuribdi. Hammasi o'z sibizg'asini olib ketgan. Sarvonlar qishlog'iga ham odam jo'natdik; o'sha yerda ustasi bor ekan, u yasab bersa, olib kelishadi. Iravonni ag'dar-to'ntar qilib atigi to'rt-besh dona topdik.

Men bir narsaga tushunolmay qoldim: chunki harchand o'ylasam-da, nachalnik devonxonasining Karmachatoq qishlog'idan sibizg'a so'ragani va buni nima uchun so'rattirgani yodimda kelmasdi. Men bu fikrimni jamoatga bildirganimda oldinroqda turgan kishilar aytishdiki, go'yo nachalnik devonxonasidan Karmachatoq qishlog'i yuzboshisiga bugun, ya'ni iyun oyining ikkinchisida aholidan Iravandagi kazak qo'shini uchun ellik to'rtta sibizg'a yig'ib keltirish haqida buyruq jo'natilgan emish.

Men battarroq taajjubga tushib, xo'sh, nachalnikning o'sha buyrug'i qani, yuzboshining o'zi qayerda, deb so'radim.

Shu payt bir kazak boshlig'i, yonida bir necha kazak, uning ortidan Karmachatoq yuzboshisi Abdul Karim, qo'lida bir qamchi, uning ortidan Abdul Karimning yasavuli Haydarali, ularning yonida bir necha Karmachatoq oqsoqollari, devonaxonaga yopirilib kirishdi. Kazaklarning boshlig'i g'azab bilan baqirganicha nachalnikni so'radi, javob bo'lmagach, nachalnikning kabinetiga bostirib kirdi, yonidagilar ham unga ergashdi.

Shu o'rinda meni hayron qoldirgan narsa shu bo'ldiki, hozir kelgan kazaklardan birining qo'lida to'rtta "fleyta", ya'ni sibizg'a bor edi. Bular cho'ponlar chaladigan jo'n sibizg'a emas edi, chunki "fleyta" degani tugmachali, uzun va kahrabodek qora bir sibizg'akim, harbiy musiqa dastasida uning o'ziga xos o'rni bo'ladi.

Juda g'alati! Bir tomondan qishloq ahli, ikkinchi tomondan kazaklar bugun bu yerga sibizg'a yig'ib kelmoqda edilar.

Men hushimni yig'a olmay, haryon bo'lib turardim. Shu payt nachalnikning jahl bilan qattiq baqirgani eshtildi:

— Mirza Abbos! (Meni chaqirmoqda edi.)

Nachalnikning kabinetiga otilib kirdim, qarasam, kazaklarning boshlig'i nachalnikning yonida o'tiribdi, qolganlar chekkaroqda saf tortib turishibdi. Nachalnik menga yeb qo'ygudek tikildi. G'azabdan uning ko'zlari qizarib ketgan edi. Menga birpas o'qrayib qarab turgach, qo'lini stolga ishora qilib so'radi:

— Bu nima?

Men sarxush kimsa kabi avval stol ustida hech narsani ko'rmadim; u yerda boya kazaklarning qo'lidagi to'rtta fleyta (ya'ni sibizg'a)dan bo'lak hech narsa yo'q edi.

Nachalnik yana qaytib so'radi:

— Bu nima?

Men, bular fleyta, ya'ni sibizg'a deb javob qildim. Nachalnik ta'na-dashnomini boshlab yubordi:

— Sen ichkilikka odatlangan ekansan, unda nega mening idoramga xizmatga kirding?

Men:

— Janob nachalnik, bizning shariatimizda ichkilik ichish man etilgan, siz janoblarining huzuringizda men bunday gunoh qilmayman va qila ham olmayman, — deb javob berdim.

Shu gap og'zimdan chiqishi bilanoq nachalnik o'rnidan sapchib turdi-da, stol ustidagi bir xatni oldi va men tomon egilib, haligi xatni og'zimga tiqib yuborgudek bo'lib o'shqirdi:

— O'qi buni!

Hozir u xatni qanday o'qiganim yodimda yo'q, chunki ko'z oldimni tuman qoplab olgan edi. Lekin xatning mazmuni quyidagicha edi:

"Buyruq. Karmachatoq yuzboshisiga, Iravon uyezd nachalnigi tomonidan. Qat'iy qilib buyuramanki, iyun oyining ikkinchisida Iravon shahariga, Ja'farobod mahallasidagi kazak qo'shinining katta ofitseri polkovnik Afanasevning huzuri shariflariga aholidan ellik to'rt dona sibizg'a (fleyta) yig'ib jo'natilsin; chunki ushbu qo'shinlar mazkur sanada ushbu sibizg'alarni minib Kanokir qishlog'ining yayloviga chiqishadi; agar bu ish paysalga solingudek bo'lsa, mas'uliyat senga yuklanadi. Tamom.

Iravon nachalnigi Petrov".

Demak, ushbu buyruq bizning devonxona tomonidan yozilgan, bu buyruqqa bizning nachalnigimiz Petrov imzo chekkan. Lekin bu buyruqni o'z dastxati bilan kim yozgan? Uni men badbaxt, men sho'rlik, men balokash — Mirza Abbos Farzaliyev, ya'ni Iravon nachalnigining tilmochi yozgan edim.

* * *

Ha, sekin-asta hushimni yig'ib oldim, endi tush bilan haqiqatni farqlay olaman. Endilikda kim aybdor, kim aybsiz ekanligini yaxshi bilaman. Va endilikda gap nima haqida ekanligini, bu fitnaning sababchisi kim ekanligini anglab yetganman.

Xudo haqi, agar nachalnikning o'rnida men bo'lganimda edi, bu la'nati tilmoch Mirza Abbosning (ya'ni o'zimni aytyapman) kekirdagiga chang solib, shunaqangi qattiq siqardimki, u bo'g'ilib o'lganidan so'ng aqlini tanib olardi.

Har bir kishi bu mojaroning asli sababi nima ekanligini bilgisi keladi, shundoq ekan, u kishi quyidagi bir necha satrni erinmay o'qib chiqsin. Voqea bundoq bo'lgan edi.

* * *

Bundan ikki oy avval nachalnikdan ruxsat olib, qishlog'imizga onamni ziyorat qilish uchun ketgan edim. U yerda bir hafta qolib ketdim. Qolganda ham qandoq! Jiyanim Pirverdining sharofati bilan. Qishlog'imiz jannatiy bir go'sha edi. Pirverdi shunaqangi bir mahorat bilan sibizg'a chalardiki, men uni eshitganda yeb-ichishni ham unutib qo'yardim.

Jiyanimning kasbi qo'ychilik bo'lib, o'z qo'ylarini boqish uchun kurd cho'ponlariga berib qo'ygan edi. Lekin o'zi ham doimo qo'ylari yonida bo'lib, boshqa cho'ponlar kabi u ham sibizg'a chalishni odat qilib olgan edi. Lekin Pirverdining sibizg'a chalishi boshqacha bir chalish edi, ko'pincha uning sibizg'a chalishini eshitgani qo'shni qishloqlardan ham kelishardi; mening esa bu cholg'uga havasim shu qadar katta ediki, eshitib hech to'ymasdim. Oxiri shu ahvolga tushdimki, o'zim bir sibizg'a topib, asta-sekin unda mashq qilish va, Xudo xohlasa, Pirverdi kabi mahoratga erishish fikr-u yodimni qamrab oldi. Mening bu orzuyimni payqagan jiyanim o'z sibizg'asini menga hadya qildi. Mening bir haftalik ta'tilim tugagandan so'ng sibizg'ani yo'lda aravaning laq-luqiga sinmasin deya ehtiyotkorlik bilan paxtaga o'rab, bir qutichaning ichiga soldim va Iravonga yetib keldim. Uyga kirishim bilanoq ust-boshimning changini qoqmasdan, yo'l hordig'ini chiqarmasdan darhol qutichadan sibizg'ani olib chalishga tutindim.

Afsus, ming afsus; qanchalik puflasam ham sibizg'adan sado chiqmasdi. Goh uni labimda undoq tutaman, goh bundoq tutaman, goh og'zimga ko'proq tiqib, goh kamroq tiqib puflayman, sibizg'a temirchining dami kabi pishillaydi-yu, lekin hech bir sado bermaydi.

Qattiq charchab, ma'yus tortib qoldim. Sibizg'ani stol ustiga qo'yib, devonxonaga ketdim. Xizmatni tugatib uyga qaytdim, choy-nondan ilgari tag'in chalish uchun sibizg'ani qo'lga oldim. Yo'q, yana hech narsa chiqmadi.

Balki sibizg'a yo'lda buzilib qolgandir degan o'yda u yon-bu yonini aylantirib ko'rdim. Yo'q, bus-butun, lekin chalinmaydi. Tamom-vassalom. Yana charchab qoldim va uni bir chetga qo'ydim. Choy-nonimni yeb–ichib, aylanib kelgani chiqib ketdim.

Qaytib kelgach, yana bir bor sinab ko'rdim. Yo'q, baribir chalinmaydi. Yo Parvardigor, bu ne ko'rgulik?! Nega sen har bir cho'ponga ato etgan shundoq ne'matdan meni mahrum etgansan? Mening gunohim nima?

Lekin Ollohga bunaqangi munojot ham hech foyda bermadi, chunki bu xayr-duodan keyin ham qanchalik urinmay, sibizg'amdan sado chiqmadi.

Pirverdining chilishlarini eslay boshladim: sibizg'ani mana bunday ushlardi, o'ng qo'lini mana bu yerga, so'l qo'lini mana bu yerga qo'yardi, barmoqlarini mana bu yerga bosardi, lablarini mana bundoq qilib yumardi. U qanday qilgan bo'lsa, men ham xuddi shundoq qilardim, lekin uning qo'lida chalingan bu shog'arib sibizg'a mening qo'limda chalinmasdi...

* * *

Bir kuni ertalab turib, kiyindim, devonxona xizmatiga tezroq borish uchun apil-tapil bir stakan choy ichdim va har ehtimol uchun yana sibizg'ani olib lablarimga bosdim. Aha!.. Qurboning bo'lay sibizg'a chalinib ketdi; ya'ni undan bir sado chiqdi. Bu sado qishlog'imizda Pirverdining sibizg'a chalishlarini yodga solib yuborardi.

Oh, qaydasan, jiyanim, shu yerda bo'lganingda quchoqlab olar, bag'rimga bosar, to'yib-to'yib o'par edim!..

Soatga qaradim: xizmat vaqtimdan yarim soat kechikayotgan edim. Sibizg'ani bir necha marta o'pib, ehtiyotkorlik bilan qutichaga soldim-da, ko'chaga qarab yugurdim.

Voy-dod, dunyo naqadar go'zal! Jazirama kun, chang-to'zonli ko'cha, odamlarning yaxshi-yomon harakatlari, tog'-tosh, o't-o'lan, dov-daraxt — hamma-hammasi meni muborakbod etsin, chunki bugun mening sibizg'amdan sado chiqdi.

Devonxonaga borib, hamkasblarimning barchasi bilan salomlashib chiqdim, bir-ikkitasining qulog'iga bugun sibizg'aning

chalingani haqida pichirlab ham qo'ydim. O'rnimga o'tirib, qog'oz-pog'ozlarni chiqargancha yozishga tutindim. Lekin har qancha yozsam-da, nima yozayotganimni, kim bilan gaplashsam-da, nima haqida gaplashayotganimni bilmas, chunki fikr-u yodim sibizg'ada edi. Soatni stol ustiga chiqarib qo'yib, qachon uning millari 3 raqamining ustiga etib keladiki, men uyga qarab yugursam, deya kuta boshladim.

Shu payt meni nachalnik chaqirib qolib, bunday dedi:

— Darhol Karmachatoq yuzboshisiga bitta buyruq tayyorla, u iyun oyining ikkinchisida gap-so'zsiz Ja'farobod mahallasidagi kazak qo'shinining katta ofitseri polkovnik Afanasevning huzuri shariflariga aholidan ellik to'rtta arava yig'ib jo'natsin; chunki qo'shinlar ushbu sanada ushbu aravalarga minib Kanokir qishlog'ining yayloviga chiqadilar, bu ishni paysalga solgudek bo'lsa, mas'uliyat yuzboshiga tushadi. Tamom.

Men nachalnikka "bosh ustiga" deya o'rnimga qaytdim. Buyruqni yozib, nachalnik oldiga qo'ydim. U ham buyruqning boshidan bir-ikki qator, oxiridan bir-ikki qatorni o'qdi-da, ruchkani olib imzo chekkach, menga qaytarib berdi, faqat "darhol, hozirning o'zidayoq jo'nat" deya ta'kidlab qo'ydi.

Buyruqni shu zahotiyoq ro'yxatga olib, paketga solishdi va jo'natib yuborishdi.

Ammo arava degani nima, boshqasi nima? O'sha kuni mening qulog'imga hech bir gap kirmas, fikr-u xayolim faqat sibizg'ada, go'yo men uchun dunyoda sibizg'adan boshqa narsa yo'q va bo'lishi ham mumkin emas edi. O'sha kuni sibizg'aga bo'lgan ishq vujudimni shu qadar qamrab olgan ekanki, nachalnikning buyrug'idagi "arava" degan so'zni "sibizg'a" deb yozib yuboribman.

Buyruq Karmachatoq yuzboshisiga yetib borgach, u buyruqni mirzasiga o'qitib ko'rib, nachalnik aholidan ellik to'rt dona sibizg'a, ya'ni fleyta so'rayapti deya jamoatga jar solibdi. Hamma hayron bo'lib qolibdi, yo tavba, bunchalik sibizg'ani qanday qilib yig'ish mumkin, yo tavba, qo'shinga bunchalik sibizg'aning nima keragi bor ekan; chunki sibizg'ani minib bo'lmaydi-ku, axir! Bu ot bo'lmasa, eshak bo'lmasa. Oxiri yuzboshi va qishloq mirzasi, ya'ni

jamoatning eng bilimdon kishilari aholiga, ehtimol, harbiy musiqiy dasta cholg'ularining xarjini hukumat qishloq ahli zimmasiga yuklagan bo'lsa kerak, deb tushuntiribdilar.

Anchagina kengash va maslahatdan so'ng, jamoat orasidan uchta vakil tanlab olib, ularni shaharga jo'natish, bozorda qancha sibizg'a bo'lsa, hammasini sotib olish, cho'ponlarda ham qancha sibizg'a bo'lsa, barchasini to'plab kelish qaroriga kelishibdi. Shuningdek, gubernatga bundan so'ng harbiy musiqiy dasta xarajatini jamoat ustiga yuklamaslik, chunki Karmachatoq qishlog'ining aholisi juda qashshoq ekanligi haqida bir xat yozib yuborishga ham kelishib olibdilar.

* * *

Iravonda Ja'farobod mahallasidagi kazak qo'shinlari iyun oyining ikkinchisida Kanokir tog'ining yayloviga chiqishi kerak bo'lib, Iravon nachalnigidan shu kunga ellik to'rtta arava so'rashgan edi; nachalnikdan kazaklar boshlig'iga, buyruq jo'natildi, aytilgan muddatda ellik to'rtta arava tayyor bo'ladi, degan mazmunda javob kelgan edi.

Iyun oyining o'sha ikkinchi kuni aravalar kutilayotgan bir paytda kazaklar boshlig'i Afanasevga Karmachatoq yuzboshisi to'rt dona fleyta keltirgani haqida xabar qiladilar. Polkovnik taajjubga tushib, fleytalarni qabul qilmay, aravalarni surishtiradi. Yuzboshining esa aravadan xabari yo'q edi. U nachalnikning buyrug'ini ko'rsatadi. Buyruqqa esa arava emas, sibizg'a deb yozilgan bo'ladi.

Polkovnik bir necha marta yer tepinib, yuzboshining ota-onasini boplab so'kkandan so'ng, yuzboshining o'zini ham, uning yasovulini ham, ular keltirgan sibizg'alari ham olib, ortidan bir necha kazak askarini ergashtirganicha nachalnik devonxonasiga yo'l oladilar: ko'rib qo'y, bu nima qilganing?

Tamom-vassalom.

Lekin nachalnik va mening boshimga shuncha mojarolar solgan sibizg'adan ham oxir-oqibat hech narsa chiqmadi; oxirida ayon bo'ldiki, jiyanim kabi mahorat bilan sibizg'a chalishni, eshitganlarni mahliyo qilib qo'yishni Xudoyi taolo menga nasib etmagan ekan.

Oradan ancha o'tgach, mening musiqaga bo'lgan havasim shu qadar so'nib qoldiki, bu kasofat sibizg'ani umuman ko'zdan yo'q qildim.

KISHMISH O'YINI

Qish fasli edi. Havo qattiq sovuq edi. Biz — Eron ahlidan bo'lmish ikki nafar said — Oraz daryosidan Rusiya tuprog'iga o'tib, kechqurun Zurnali qishlog'iga kirib bordik. Vatanda kunimiz mashaqqat va muhtojlikda o'tar edi. Rus mamlakatiga safar qilishdan maqsadimiz, bu yerning musulmon aholisidan hamisha mehribonlik ko'rib kelganimiz uchun, ahli ayolimizga u-bu narsa orttirib, vatanimizga qaytib ketish edi. Olloh yarlaqasin bu viloyatning musulmonlarini, oyda bir marta bu yerga mehmon bo'lib ketardik.

Qishloqqa kirgach xabar topdikki, bu yerning jamoati kechalari qishloqning mo'tabar og'asi va oqsoqoli Bolo Sultonning tablasiga jam bo'lib olib, uzun qish kechalarini suhbat bilan kechirar ekanlar. Biz ham Bolo Sultonning tablasiga kirib bordik.

Tablaning bir tomoni mol-hol bilan to'la va ancha qorong'i, ikkinchi tomoni xiyla baland va yorug' bo'lib, ana shu yerga o'tirib olgan kishilar suhbat bilan mashg'ul edilar. Yig'ilganlar bizni ko'rib jim bo'lib qolishdi va hammalari birvarakayiga oyoqqa turib bizga kamoli ehtirom bilan to'rdan joy ko'rsatishdi. Biz o'tirdik. Ular bizdan hol-ahvol so'ray ketishdi. Biz ham ulardan juda xursand bo'ldik. Xullasi kalom, qishloq ahli bizga shu qadar mehribonchilik ko'rsatishdiki, go'yo ular yo'limizga oylab muntazir edilar. Qishloqliklarning bunday muomalasi bizni nihoyatda shod qildi.

Chunki, avvalo, biz och edik. Havoning bundoq bir sovuq paytida uzoq yo'l bosib, toliqib qolgan bo'lib, jinday rohatlanish uchun issiqqina joy, mehmondo'st bir go'sha axtarib kelgandik. Ikkinchidan, ahli baytdan ayri tushib, musofir bir viloyatda safar qilishdan maqsadimiz uch-to'rt tanga non puli ishlab, tezda vatanga qaytib ketish edi.

Zurnali qishlog'idagi bunday mehribonlikni ko'rib, biz xayol qilgan mablag'imizni ushbu kecha mana shu tablaga jam bo'lgan Olloh bandalaridan yig'ib, bu sovuqda boshqa joylarda darbadar yurmay, darhol uyimizga qaytamiz-da, xotin va bola-chaqamizni xursand qilamiz degan fikrga bordik; shuning uchun ham benihoya shod edik.

Qishloq ahli bilan shiringina suhbat boshladik. Ular bizdan Eronda ro'y berayotgan voqealarni so'rab-surishtira boshladilar, biz ham ularning ahvolini so'rab-surishtirdik. Suhbatdan ma'lum bo'ldiki, bu yil ushbu viloyatning paxtasi va arpa-bug'doyi juda yaxshi bo'libdi.

Bizning qarshimizda yana bir iravonli kimsa ham o'tirar edi. U teri sotib olish maqsadida bu qishloqqa kelgan ekan. Shu tariqa suhbat ikki soatcha davom etdi, vujudimiz issiqdan ancha rohatlangan, endi taom kelishini kutmoqda edik; chunki biz tablaga kirib o'tirishimiz bilanoq xonadon sohibi Bolo Sulton o'z navkarini bir xo'roz so'yib, biz uchun sadr guruchidan ajoyib bir palov pishirib keltirish uchun jo'natgan edi.

Tabla eshigi ochildi va bizning xayolimizga birinchi kelgan narsa palov bo'ldi. Go'yo uzoq yo'l bosib kelgandek hansiraganicha baland bo'yli bir yigit kirib keldi.

U qishloq ahlidan birining yoniga borib o'tirdi-da, uning qulog'iga nimadir deb pichirlay boshladi. Birozdan so'ng u tashqari chiqib ketdi.

Bu yigit tashqari chiqishi bilanoq qishloq ahli bir-birlari bilan pichir-xisir qilishga tushib ketishdi. Bolo Sulton hamqishloqlarining bu xatti-harakatini yoqtirmay, so'z qotdi:

— Bizning shundoq aziz mehmonlarimiz oldida pichir-xisir qilish uyat emasmi sizga? Men sizdan bunaqangi odobsizlikni kutmagan edim. Nima gapingiz bo'lsa, ochiq-oydin ayting, biz ham eshitaylik. Bizdan bekitadigan qanaqangi yashirin ishingiz borligini men tushunmay qoldim.

Qishloq ahlidan biri javob qildi:

— Yo'q, Sulton og'a, unaqangi bekitadigan ishimiz yo'q. Bo'lsa ham, senga hech qanday daxli yo'q.

Uning bu gapi Sultonga xush kelmadi va u ovozini biroz balandlatib:

— Hoy, esingni yeb qo'ygansanmi?! Nega menga daxli bo'lmas ekan?! Sizning qanday ishingiz borki, menga daxli bo'lmasin? — dedi.

Haligi kishi:

— Yo'q, Sulton og'a, Xudo haqi, aytarli hech gap yo'q, — dedi.

Qishloqliklar yana o'zaro pichirlasha boshladilar. Bolo Sulton bu gal battarroq g'azablanib o'shqirdi:

— Kishiga gapni bir marta aytadilar! Ahmoqdan to'ragan ahmoqlar! Axir mundoq ochiqroq qilib ayting-chi, nimalar deb pichirlashyapsiz, xo'sh, nima bo'ldi o'zi?

Dastlab javob bergan kishi tag'in:

— Sulton og'a, bizning oqsoqolimiz bo'lasan, sendan yashiradigan hech qanday sirimiz ham yo'q, lekin, rostini aytsam, ruxsat bermaysan deb qo'rqyapmiz! — dedi.

Bolo Sulton g'azab bilan:

— Nimani yashiryapsiz?! Nimaga ruxsat bermasligimdan qo'rqyapsiz? Nimaga izn so'rayapsiz? — dedi.

Haligi kishi:

— Yo'q, Sulton og'a, behudaga boshingni og'ritma! Unaqangi yashirin bir ishimiz yo'q. Bo'lsa ham, aytib o'tirishning hojati yo'q. Shundoq ham ruxsat bermasligingni bilamiz, shundoq ekan, gapirishdan foyda yo'q! — dedi.

Bolo Sulton shu qadar g'azablandiki, shart qaddini rostlab, haligi kishiga jahl bilan o'shqirdi:

— Ollohning la'nati yog'ilsin sizga! Yuzingiz qora bo'lsin! Sizni tug'ib-o'stirganning padariga la'nat! Gapni ham shuncha cho'zadilarmi? Ayting, axir, nima gapingiz bor?! Odamni jinni qildingiz-ku!

Boshqa bir qishloqlik Bolo Sultonga yuzlanib:

— Sulton og'a, Ollohdan yashiradigan sirimiz bo'lmagandan keyin, sendan nega yashiraylik? Lekin gapning dangali shuki, bizning borishimizga ruxsat bermaysan deb qo'rqyapmiz.

Bolo Sulton past ovozda:

— Qayoqqa bormoqchisiz? — deb so'radi.

Qishloq ahlidan g'ing degan sado chiqmadi. Sulton savolini yana takrorladi. Yana javob yo'q. Sulton g'azabdan baqirib yubordi:

— Qayoqqa bormoqchisiz, axir?!

Qishloqliklardan biri bunday deb javob qildi:

— Sulton og'a, gapning rosti, biz hammamiz cho'chib turibmiz, sen ruxsat bermaysan deb qo'rqyapmiz. Ammo men gapning rostini aytaman. Meni o'ldirishingni bilaman, lekin baribir rostini aytaman. Gapning dangali shuki, hozir, ayni shu daqiqalarda bir tuya karvoni pochta yo'li bilan Iravonga 18 qop kishmish olib ketyapti ekan. O'ziyam juda yemishli kishmish ekan!.. Hozirgina Karbaloyi Haydarali shu xabarni olib keldi. Uning aytishicha, qoplardan biri yirtilib, yo'lga ancha-muncha kishmish to'kilib qolibdi. Karbaloyi Haydarali yetti pushtiga qasam ichib aytyaptiki, haligacha Tabrizdan bu tomonlarga bunaqangi kishmish kelmagan ekan. Sulton og'a, Olloh taolo otang Husayn Sultonning ruhini shod qilsin, biz bechoralarga rahm qil.

Bolo Sulton taajjublanib so'radi:

— Unda men qilay? Sizga qanaqa rahm qilishim kerak?

Haligi kishi egilib turganicha dedi:

— Xudo haqi, Sulton og'a, aytishga ham qo'rqaman; lekin baribir aytishim kerak. Agar bizga marhamat qilib ruxsat bersang, hozir otlarga minib, qurollanib, karvonning qarshisini kesib chiqamiz, o'sha kishmishdan besh-o'n qopini bu yerga olib kelib, uni yeya-yeya suhbatlashib o'tiramiz; masalan, o'n toy kishmish olib kelsak, hammamizga butun qish bo'yi kifoya qiladi. Rahm qil, Sulton og'a, bunaqangi fursat boshqa qaytib kelmaydi! Sulton og'a, bir shoir: "Fursatin boy bermas oqil gar u nodon bo'lmasa!" deb behudaga aytganmi? Shafqat qil, Sulton og'a, bizga rahming kelsin!

Bolo Sulton qattiq taajjubga tushib dedi:

— Hoy yigit, nima deyapsan o'zi? Nima, jinni bo'lganmisiz? Kishmish toylarini cho'lga to'kib qo'ymagan-ku, axir, siz borib yig'ib kelsangiz! Karvonning kuzatuvchilari, tuyakashlari yo'q deb o'ylaysizmi? Hammaning ko'z o'ngida birovning molini talatib qo'yar ekanmi ular?!

Qishloqliklardan biri Sulton og'aga bunday javob qildi:

— Nega qo'ymas ekanlar, Sulton og'a?! Tuyakashning qo'lidan nima ham kelardi?! Biz atigi ikki-uch kishi bo'lib quruq qo'l bilan piyoda bormaymiz-ku, axir. Karvonda nari borsa ikki-uch nafar qurolsiz tuyakash bo'lsa kerak. Biz yigirma-yigirma besh kishi bo'lib, qurollanib, otlanib boramiz-da! Ikki-uchta choriq sudrab yurgan tuyakash bizga bas kela olarmidi? Ko'z ochirgani qo'ymaymiz. Sulton og'a, bizni u qadar ahmoq, lattachaynar deb o'ylama.

— Hoy nodon, Ollohni desangiz, bu fikrdan qayting! Xudo haqi, sizdan qon hidi kelmoqda. Bolam, men shundoq oppoq soqolim bilan qanday qilib sizning borib qaroqchilik qilishingizga ruxsat bera olaman? Birodarlar, Xudo haqi, bu gaplarning foydasi yo'q, uni xayolingizdan chiqarib tashlang! Borib johillik bilan siz bir gap aytsangiz, ular bir gap qaytarsa, so'zingiz chap tushadi, ko'zingiz qonga to'lib turibdi, bir falokat kelib chiqadi. Ana undan keyin bor — polisaga[1] javob ber!

Qishloqliklardan biri dedi:

— Sulton og'a, to'g'ri aytyapsan, bunday ishda falokat ham bo'lishi, qon ham to'kilishi mumkin; chunki chorig' sudrab yurgan tuyakashlardan biri bizdek yigitlarga teg'lanib biror narsa deyishga jur'at eta olsa, uning ovozini miltiq bilan o'chirishga to'g'ri keladi. Lekin sen polisadan behudaga xavotir olyapsan. Biz tagimizga suv keladigan joyda yotmaymiz. Agar biror-bir falokat ro'y bersa ham, biz shunday qilamizki, hech bir begona kimsa xabar topmay qoladi. Sulton og'a, o'zing ham yaxshi bilasanki, bunaqangi ishlarda pishib ketganmiz. Bizni g'o'r deb hisoblama. Bunday ishlarga birinchi marta borishimiz emaski, polisa xabar topib, bizni qiynoq-qistovga olsa. Ont ichib aytamanki, Sulton og'a, bu ishimizni hech kimsa payqamay ham qoladi.

Bolo Sulton biroz fikrga cho'mgandan so'ng bunday dedi:

— Bu gapingiz to'g'ri, g'o'r emasligingizni men ham bilman; ammo, to'g'risini aytsam, baribir qo'rqyapman. Devorning ham qulog'i bor, dunyo shayton bilan to'lib yotibdi. Yigitlar, faqat ehtiyot bo'ling!

[1] **Polisa** — ruscha politsiya so'zining buzilgan shakli *(tarj.)*.

O‘n-o‘n besh chog‘li qishloq yigiti sevinib o‘rinlaridan turishdi va “Olloh umringni uzoq qilsin, Sulton og‘a!” — deya tashqari chiqishdi.

Qishloqliklarning bir nechasi tashqari chiqishdi, bir nechasi biz o‘tirgan tabladagi otlardan anchasini egarlab bir chetga olib chiqishdi. Birozdan so‘ng tashqariga chiqqan yigitlarga yana bir necha yigitlar qo‘shilib tablaga kirib kelishdi: hammasi qurollanib olgan: kimningdir belida xanjar, kimningdir qo‘lida miltiq — hammasi jangovar libos kiyib olishgan...

Yigirma-yigirma besh nafar yigitning har biri bittadan otni tashqariga yetaklab chiqishdi va ularga sapchib minib darhol ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi.

Biz ikkimiz juda xafa bo‘ldik. Avvalo, ayon bo‘ldiki, biz xom xayolga borgan ekanmiz; chunki ko‘rinib turardiki, bunday musulmonlardan hech qanday iona va xayr-ehson kutib bo‘lmasdi. Ikkinchidan, qishloqliklarning qaroqchilikka ketishlaridan biz iztirobga tusha boshladik: kim bilsin, ularning bunaqangi xatti-harakatlaridan bizning boshimizga qanday kulfat va baxtsizliklar tushishi mumkin.

Ana shunday xayollarga cho‘mib o‘tirgan edim, Bolo Sulton kayfiyatim o‘zgarganligini ko‘rib, menga yuzlangancha dedi:

— Og‘alar, Xudo haqi, zamona xarob bo‘ldi! Kattalarning, oqsoqollarning gapini sariq chaqaga ham oladigan kishi qolmadi. “Bolam, joyingda tinchgina o‘tir, bu ishlardan qon hidi keladi, bunday ishlarga qo‘l urgan kimsa Ollohning huzurida gunohkor va bandasining oldida xijolat bo‘ladi”, deb harchand aytsang ham, foydasi yo‘q, o‘zing aytib, o‘zing eshitib qolaverasan.

Hamrohim Bolo Sultonga javoban dedi:

— Sulton og‘a, janoblari behudaga zamonadan shikoyat qilyaptilar. Mening fahmimcha, agar sizdan izn bo‘lmasa edi, u johillar kishmish ketidan tushmasdilar.

Bizning ikkimizdan va Bolo Sultondan tashqari tablada yana bir qariya bor edi. Hamrohim o‘z gapini tugatishi bilanoq shu qariya bir yo‘talib olib, chubug‘ini yerga bo‘shatdi-da, hech birimizga qaramasdan, boshini sarak-sarak qilganicha go‘yo o‘z-o‘ziga gapirayotgandek dedi:

— Yo‘q, og‘alar, bunaqa emas! Bizning johillar siz aytgan johillardan emas. Bularga Ollohning la’nati bo‘lsin. Bular kabi quturgan va besharm qavm butun yer yuzida topilmaydi. Ular otalarining gapini ham bir pulga olishmaydi. Sizlar bekorga, agar Sulton og‘a izn bermaganida edi, ular qaroqchilikka ketmas edi, deb xayol qilasizlar. Sulton og‘a izn bermaganida ham ular baribir ketishar edi. Ollohning la’nati yog‘ilsin ularga, gapga kiradiganlar xilidan emas ular.

Shu payt olisdan bir miltiq ovozi eshtildi. Biz har ikkimiz sapchib tushdik va qo‘rqib ketdik. Bolo Sulton ham zohiran bezovta bo‘lib, boshini yuqori ko‘targanicha quloq sola boshladi. Biroq haligi qariya pinagini buzmay, chubug‘ini tamakiga to‘ldirib, o‘t tutashtirdi. Men uning qulog‘i .eshitmasa kerak, degan xayolga bordim. Lekin xato qilgan ekanman. U yerga tikilganicha boshini sarak-sarak qilib go‘yo o‘z-o‘ziga der edi:

— Olloh joningizni olsin sizning, naslingizga qiron solsin! Bitta qo‘rg‘oshin bilan kim bilsin qaysi bechoraning bola-chaqasini yetim qilib qo‘ydilar?!

Oradan biroz o‘tgach, birvarakayiga ikkita miltiq otildi. Men qo‘rquvdan dir-dir titray boshladim. Hamrohim men tomon egilib qo‘rqa-pisa pichirladi:

— Said Husayn, endi nima qilamiz? Qanday kunga tushib qoldik?

Men u sho‘rlikning yuziga qaray olmay, lol-gung bo‘lib turaverdim.

Birozdan so‘ng olisdan otlar dupuri eshtildi. Yana biroz o‘tgach, uzoqdan bir miltiq otildi. Shundan so‘ng tag‘in ketma-ket besh-olti marta miltiq ovozi yangradi. Jinday fursat o‘tgach, dupur-dupur ot tuyoqlari shiddat bilan yaqinlasha boshladi. Tablaning eshigi ochilib, qaroqchilar hansiray-hansiray otlarni tablaga olib kirishdi va kishmish qoplarini sudragancha bir burchakka yig‘ib qo‘yishdi. Bolo Sulton o‘rnidan turib yigitlarga:

— Ofarin, ofarin, bolalarim! Olloh biringizga mingni bersin! Sizsiz ko‘rgan kunim kun bo‘lmasin! — dedi.

Yigitlardan hech bir javob bo‘lmadi. Bolo Sulton yigitlardan biriga yuzlanib so‘radi:

— Ja'farali, nega indamaysan? Ancha g'amgin ko'rinasan?! Yo bir falokat ro'y berdimi?

Ja'fardan hech sado chiqmadi. Shu payt yana ot dupuri eshitilib qoldi. Tablaning eshigi ochilib, bir necha yigit ichkariga nimanidir sudrab olib kirishdi. Biz avvaliga bu ham kishmish qopi bo'lsa kerak, deb o'yladik; ammo xato qilgan ekanmiz. Yigitlar ichkariga olib kirgan narsa qonga belangan odam jasadi edi.

Bolo Sulton ilgari borib, jasadning kiyim-boshiga va yuziga diqqat bilan tikilib turgandan so'ng, parishonhol bo'lib dedi:

— Iloyo, uyingiz kuysin! Bu faqir tuyakashning gunohi ne ediki, o'zini o'ldirib, ahli ayolining ko'zini yo'lga to'rt qilib qo'ydingiz?!

Hech kimdan sado chiqmadi. Bolo Sulton jasad tepasida turganicha ikki qo'lini tizzasiga urib dedi:

— Voy-voy-voy! Ollohning la'nati yog'ilsin sizga! So'ppayib turmang endi, tez bo'ling! Bel-ketmonni oling. Darhol tablaning bir burchagidan chuqur qazing, jasadni chuqurga tashlab, ustini go'ng, xas-xashak bilan ko'mib qo'yaylik. Qani, tez! Bo'la qoling! Kutishga vaqt yo'q! Voy-voy!

Yigitlar Bolo Sultonga hech narsa demay, kimdir jasadga, kimdir yerga boqqanicha qotib turardi.

Bolo Sulton yana takror qildi:

— Nega qaqqayib turibsiz? Nimani o'ylayapsiz? Endi o'ylashdan foyda yo'q. Kutib turadigan payt emas. Tezda chuqur qazing!

Yigitlar hech narsa demay qotib turaverdilar. Bolo Sulton ularga g'azab bilan baqirib berdi:

— Quloqlaring tom bitib qolganmi? Necha marta aytish kerak? Men boshdayoq sizga bunaqangi nojo'ya ishga bormang, boshga dardisar bo'ladi, dedim. Gapimni ikki pulga olmay ketdingiz-bordingiz; uch-to'rt toy kishmish uchun qotillik qildingiz. Endi bo'lganicha bo'ldi, o'z axlatingizni o'zingiz tozalab qo'ying!

Yigitlardan biri har ikki qo'lini xanjarining dastagiga qo'yib, gavdasini biroz ortga tashladi-da, ko'z yoshlarini to'kkanicha Sultonga qarab dedi:

— Sulton og'a, jasadni tablaning bir burchagiga gumdon qilish qiyin emas: ketmonni olib hash-pash deguncha bir chuqur

qazaman-da, jasadni ko'mib tashlayman. Ammo shu bilan jonimiz omon qolmaydi-da. Jasadni eng chuqur joyga ko'msak ham, baribir topib oladilar va hammamizni katorgaga jo'natadilar.

U o'z gapini tugatgan zahoti boshqalar ham bir ovozdan uni tasdiqlashdi:

— To'g'ri aytyapti, Karbaloyi Muhammad to'g'ri aytyapti. Bizning hammamizni Sibir qilishadi.

Bolo Sulton hayron bo'lib,

— Yo'g'-e, yoki sizni birov ko'rib qoldimi? — deb so'radi.

Karbaloyi Muhammad javob qildi:

— Ko'ngling to'q bo'lsin, Sulton og'a, bizni hech bir kimsa ko'rgani yo'q. Karvonda atigi uchta tuyakash bor ekan. Ikkisini o'sha yerdayoq gum qildik. Bu sho'rlik esa kishmish toylarini bizdan tortib olish uchun qishloqqacha ortimizdan ot qo'yib keldi; buni ham saranjom qilib, qishloqdan tashqarida nishona qoldirmaslik uchun jasadni bu yerga olib keldik.

Bolo Sulton:

— Unda nimadan qo'rqasiz? Sizni ko'rgan, tanigan kimsa bo'lmasa, yana nega cho'chib turibsiz? — deb so'radi.

Karbaloyi Muhammad:

— Sulton og'a, hech qachon umrimizda bu qadar ehtiyotsizlik qilmagan edik. Ertaga qo'l-oyog'imizni bog'lab olib ketib, avaxta qilsalar kerak, — dedi.

Yigitlar shovqin solib:

— Xuddi shundoq!.. To'g'ri!.. Olib ketsalar kerak! — deyishdi.

Bolo Sulton taajjubga tushib, baland ovozda:

— Og'aynilar, nega olib ketishar ekan, axir? Kim borib sizni sotadi? Oramizda begona yo'q-ku, — dedi.

Karbaloyi Muhammad boshini sarak-sarak qilganicha Bolo Sultonga dedi:

— Sulton og'a, kechir, ammo nima deyayotganingni o'zing ham bilmayapsan! Xudo haqi, Sulton og'a, uyimiz kuydi. Endi buning hech bir chorasi yo'q!

Endilikda kunday ravshan bo'ldiki, qishloqliklar biz ikkimiz bu yerdan chiqib ketganimizdan so'ng biror yerda ularning qaroqchiligi haqida aytib qo'yishimizdan yoki devonga xabar qilishimizdan

gumondor bo'lyaptilar. Hamrohim ularga taskin berish uchun haqirona bir ohangda dedi:

— Hoy birodarlar, Parvardigorga shukurlar bo'lsinki, bu yerda yig'ilib turgan kishilarning hammasi musulmon, begonasi yo'q. Siz ham musulmonsiz, biz ham musulmonmiz, payg'ambar avlodimiz. Bizning endi hech qanday ilojimiz yo'q, ota-bobomizning arvohi haqi, kitobi majidni o'pib, sizga chin qalbdan va'da beramizki, umrimizning oxirigacha sizning bu ishingiz haqida hech qayerda, hech kimga zinhor g'ing deb og'iz ochmaymiz, agar va'damizda turmasak, Olloh taolo yetti pushtimizga la'nat yog'dirsin, har ikki dunyoda yuzimiz qora bo'lsin.

Hamrohim o'z so'zini tugatishi bilanoq Bolo Sulton gap boshladi:

— Yo'q, yo'q, og'alar! Bekorga bizdan badgumon bo'lyapsiz. Hech bezovta bo'lmang, bo'lmag'ur narsalarni xayolingizga ham keltirmang. Siz bizga xiyonat qiladigan kimsalar toifasidan emasligingizni yaxshi bilamiz.

Bolo Sulton gapini tugatdi, yigitlar hech narsa deyishmadi. Oradan ancha o'tgach qishloq ahlidan biri bizga yuzlanib:

— Og'alar, biz sizni yaxshi taniymiz. Sizning nasl-nasabingizni hurmat qilamiz. Said bo'lasizmi, boshqami, odamzodga ishonib bo'lmaydi. Bundan uch yil ilgari ikkita said podshohlik yo'lida bir armanini o'ldirib, cho'ntagidan ikki yarim manatni olib qo'ygan ekan. Naxchivonda bu ikki o'rtoqning gapi ters tushib, ulardan biri nachalnikka borib armanini o'ldirganlarini aytib qo'yadi. Bizning ham jonimiz shirin, siz kabi saidlarga ishonib, o'z umrimizga zomin bo'lishini istamaymiz. Bizni Sibir qilib yuborsalar, bola-chaqamizni siz kelib boqasizmi?

Boshqalar ham uning gapini quvvatlab shovqin sola ketdilar:

— Yo'q, yo'q! Aslo ishonib bo'lmaydi! Sirayam ishonmaymiz!

Bolo Sulton bizni himoya qilish maqsadida qishloq ahliga uqtira ketdi:

— Hoy birodarlar, bunaqangi ahmoqona gaplarni gapirmang, bular siz aytgan odamlardan emas, nega bekorchi gaplarga yopishib oldingiz?

Yigitlar bir-biridan baland kelib qichqira boshladilar:

— Xudo haqi, Sulton og‘a, bunaqasi ketmaydi! Dunyoda hech kimga ishonib bo‘lmaydi. Eronning bu betayin saidlari qayda-yu, biz qayda?! Sulton og‘a, bunaqasi ketmaydi!

Biz yalinib-yolvorishga tushdik:

— Hoy mo‘min-musulmonlar! Biz bu yerga kelib bir ahmoqlik qildik. Xudo haqi, ruxsat bering, tinchgina o‘z yo‘limizga ketaylik. Payg‘ambar nasabi haqi, ont ichamiz, hech qayerda, hech kimga g‘ing deb og‘iz ochmaymiz.

Yigitlar yanada qattiqroq qichqira boshladilar:

— Yo‘q, bo‘lmaydi!.. Bunaqasi ketmaydi! O‘rningizdan qimirlamang, yo‘qsa otib tashlaymiz!

Shundan so‘ng nima bo‘ldi, nima kechdi — yodimda yo‘q. Faqat shunisi esimdaki, yigitlardan bir nechtasi bir-birining qulog‘iga nimalarnidir pichirlashganicha biz tomon yaqinlashib kela boshladilar, hamrohim derazaga bir kalla qo‘yib, uning ko‘zini chil-chil qildi-da, bir amallab o‘zini tashqariga otdi. Uning ortidan men ham otildim va uning ustiga o‘mbaloq oshib tushdim. Qishloq ahli:

— Qochgani qo‘ymang u nomardlarni! — deb qichqirishdi.

Men tashqariga otilib chiqqan zahoti qochishga tushdim, lekin sho‘rlik hamrohim o‘rnidan turib bir-ikki qadam yurdi-da, tag‘in yerga qulab tushdi; so‘ng yana o‘rnidan zo‘rg‘a ko‘tarilib, oqsay-oqsay menga yopishib oldi; biz ming mashaqqat bilan, ko‘cha itlaridan qo‘ringancha qishloq tashqarisiga chiqib oldik.

Oxiri surina-surina bir amallab o‘lar holatda bir armani qishlog‘iga yetib oldik, shu kecha bir tablada yotib, sahari mardonlab och-nahor yo‘lga tushdik va qosh qorayganda Nurchaman qishlog‘iga yetib bordik. Biz juda sekin yurardik, chunki hamrohimning o‘ng oyog‘i qattiq lat yegan bo‘lib, sho‘rlikka juda yomon azob berardi. Shu qadar qo‘rqib ketgan edikki, xayolimizda vatanga yetib olishdan boshqa o‘y yo‘q edi...

Oradan ikki kun o‘tgach, Oraz daryosidan o‘tib, Eronga tuprog‘iga qadam qo‘ydik va ming pushaymon yegancha qishlog‘imizga bo‘m-bo‘sh qo‘l bilan kirib bordik; qo‘rqqanimizdan boshimizga tushgan mojarolar haqida hech kimga lom-mim demadik.

Shu voqeadan so‘ng oradan bir yil o‘tgach yana yo‘limiz Rusiya tuprog‘iga tushdi. Maqsadimiz Iravonga borish edi. Zurnali qishlog‘ining yonidan o‘tib, Uloqli qishlog‘ida tunab qoldik. Bu qishloq bilan Zurnalining orasi yarim yig‘ochlik[1] yo‘l edi. O‘tgan yili kishmish karvonining talon-toroj qilinishi, tuyakashlarning o‘ldirilishi borasida biror narsa bilib olish niyatida Zurnali qishlog‘idan, Bolo Sultondan va shu kabi boshqa narsalardan gap solib ko‘rdik. Lekin hech bir kimsaning bu voqealardan xabari yo‘qligini ko‘rib juda taajjubga tushdik. Shunda qishloq ahlidan biri bizdan so‘rab qoldi:

— Og‘alar, tag‘in zurnaliklar siz bilan kishmish o‘yini o‘ynagan bo‘lmasinlar?..

Shundagina biz anglab yetdikki, zurnaliklar na kishmishni talon-toroj etganlar, na tuyakashni o‘ldirganlar: ular faqat biz bilan “kishmish o‘yini” o‘ynashgan ekan, xolos. Va faqat endi tushunib yetdikki, zurnaliklarning bizning boshimizga “kishmish o‘yini” solishdan maqsadlari bizni qishloqdan chiqarib yuborish ekan, xolos; chunki biz derazadan tushib qochayotganimizda ular bizni miltiq bilan otib tashlashlari ham, tutib olib o‘ldirishlari ham mumkin edi...

XONNING TASBEHI

Boku bilan Tiflis oralig‘idagi temir yo‘lning Evlox bekatidan Bardaga, undan Og‘domga, u yerdan esa Shusha shahriga qarab bir shosse yo‘l ketadi. Og‘domdan so‘l tarafga ketgan shosse yo‘l Qorabuloq shahriga, u yerdan Jabroyilga va nihoyat Oraz qirg‘og‘iga chiqib boradi.

Mashhur Xudofarin ko‘prigi xuddi ana shu yerdadir.

Bundan bir necha yil ilgari men ushbu ko‘prikni kechib o‘tib, Eron tog‘lariga ko‘tarildim. Qorabog‘ viloyati ana shu yerdan boshlanib, Tabrizga borib taqaladi. So‘l tarafda Shohsevan yurti, o‘ng tomonda esa Rusiya tuprog‘ining Avar sarhadi joylashgan.

[1] **Yig‘och** — o‘n ikki ming qari (bir qari taxminan bir metrga barobar — *tarj.).*

Yozning dastlabki oyi bo'lib, Orazning bu tomoni jazirama issiq edi. Ko'prikni kechib o'tib, daryoning narigi tomonidagi bir tog' etagida tunab qoldik. Sahar turib Lorjon qishlog'iga yetib bordik va Qulixonning mehmoni bo'ldik. Bu yerda uch kun turgandan so'ng, tag'in yuqorilab, yanada salqin, yanada so'lim Eron tog'lariga ko'tarildik.

Ikki kun yo'l bosib, mashhur Kaleybar yurtiga yetib bordik. Bu yerda ham ikki kun qolgandan so'ng Ahar shahriga bormoqchi, undan Tabriz sari yo'l olmoqchi bo'ldik; lekin ushbu viloyatning mashhur xonlaridan bo'lmish Nazarali xon Ikromuddavla istiqbolimizga uch nafar otliq jo'natib, o'z qishlog'iga mehmonga taklif qilib qoldi. Biz ham bormasak bo'lmasdi va unikiga mehmonga ketdik.

Og'oyi Ikromuddavla Karmachatoq qishlog'ida turar, ushbu qishloq va atrofdagi boshqa qishloqlarning barchasi xonning amloki hisoblanar edi. Karmachatoq qishlog'i Kaleybardan ham balandroq bo'lgan tog' etagida, Marzanli qoyasining so'l tomonida joylashgan xushmanzara, chog'roq bir yaylov edi.

Qishloq aholisi taxminan ikki yuz kishidan iborat edi. Toza sarin suvlar, ajoyib o'tloqlar... Ammo ming afsuski, xonlar o'rtasida har necha yilda bir ro'y beradigan to'qnashuv natijasida qishloq aholisi o'z turmushini mundoq yo'lga qo'yib, shunday go'zal joyda rohat-farog'atda hayot kechirish uchun majol topa olmasdi. Ikkinchi tomondan, bundan bir necha yil ilgari tarqagan terlama kasalligi oqibatida aholining yarmisi va balki undan ham ko'prog'i qirilib ketgan edi. Shu sababli juda ko'p yerlar bo'sh yotar, egasiz xonadonlar, eshik-darazasiz binolar ko'zga tashlanib turardi.

Gapning indallosiga o'taylik.

Biz Ikromuddavladan juda ko'p mehr-navozishlar ko'rdik. Darvoqe, menimcha, boshqa hech bir yerda Eronnikidaqa mehmonnavozlikni uchrata olmaysiz.

Xonning amri bilan Karmachatoq qishlog'ida bizga bir maxsus xonani bo'shatib berdilar va buning ustiga ushbu uyning tomiga ikkita olachiq ham o'rnatdilar; biz istasak ushbu olachiqlarda, istasak bizga ajratib berilgan xonada yotib-turardik.

Nazarali xon Ikromuddavla Qoratog‘ xonlarining eng insonparvar, eng odobli xonlaridan hisoblanar, xonning raiyati bilan suhbatlashganda ham undan ranjib gapiradigan biron-bir kishini topib bo‘lmasdi.

Ayni paytda xonning o‘z raiyatiga munosabati biz kabilarga juda g‘alati tuyulardi. Bir tomondan qaraganda bu muomala boshdan oxir zulm va sitamdan iborat ekanligi ayon bo‘lardi. Ikkinchi tomondan qaraganda esa na bir zulm, na sitam ko‘zga tashlanardi. Go‘yo bu yerning xalqi osuda, rohat-farog‘atda hayot kechirar ekan, degan xayolga ham borish mumkin edi.

Mamlakatda muayyan bir qonun ko‘zga tashlanmasdi. Bu yerda hukumatga o‘xshagan bir idora yo‘q edi. Xalq mazkur Ikromuddavladan boshqa hech bir hukumatni tanimasdi. Tabriz va Tehrondan hech bir xabar, hech bir aloqa yo‘q, Nazarali xon istagan kishisini osib-chopib o‘ldirishi ham, istagan kishisini afv etib, u bandaga umr baxsh etishi ham mumkin edi.

Mahkama ham, qozi-yu quzzot ham, shariat ham uning o‘zi edi.

Har bir qishloqning kadxudosi shu qishloqni idora etar, barcha kadxudolarni esa Ikromuddavla idora etar edi.

Va ushbu Nazarali xonning vazirlari bir to‘p nozirdan iborat bo‘lib, qo‘llarida qamchi tutgancha ko‘cha-ko‘yni kezib yurib, xonning amrini raiyatga yetkazar edilar.

Lekin Nazarali xonning Mirza Sodiq Munshiy janoblari degan yakka-yu yagona bosh vaziri bo‘lib, qishloq ahli orasida Mulla Sodiq nomi bilan mashhur edi.

Nazarali xonning ham, ushbu Mirza Sodiq Munshiyning ham yoshlari oltmish, nari borsa oltmish beshlar atrofida edi.

Xonning o‘zi juda xushmuomala kishiga o‘xshardiki, men raiyat bilan uning o‘rtasida biron-bir soxtalik, bemazagarchilik ko‘rmadim. Ammo mulozimlariga kelganda mutlaqo bunday deb bo‘lmasdi. U yerda ko‘rgan narsalarimdan yodimda qolgani shuki, Qoratog‘da xon mulozimlarining raiyatga muomalasi faqat zulm qilish, ranj yetkazishdan iborat edi.

Ertalab uyqudan uyg‘ongan zahoti xonadonlarning biridan qiy-chuv ovozini eshitib qolardik. Ma’lum bo‘lishicha, nozir Ali Ja’far xonning xonadoni uchun Karbaloyi Musodan ikki girvon-

ka yog‘ talab qilayotgan ekan. Xonadon sohibi uyda yo‘q. Ayol, uyda yog‘ yo‘q, deya tavallo qilib ont ichadi. Nozir Ali Ja’far ayolni so‘kib-haqoratlab qaytib ketadi va birozdan so‘ng xonning tasbehini ko‘tarib keladi. Endi boshqa chora yo‘q, Karbaloyi Musoning xotini yer tagidan bo‘lsa ham yog‘ni topib berib, mulozimni kuzatib qo‘yadi.

Chunki xonning tasbehi bo‘sh qaytmasligi kerak.

Tasbeh haqida bir necha so‘z

Biror joyga buyurtma jo‘natganda biron-bir nishona ham berib yuborish qadimiy odatlardan biridir. Agar buyurtma jo‘natgan yoki buyurtma oldadigan kimsa savodsiz bo‘lsa, ana shunda nishona berib yuborilgan. Kimdir o‘z uyiga birovni jo‘natib, nimanidir istab qolsa, pichog‘ini, yana birov kalitini nishona qilib berib yuborgan.

Nazarali xon Ikromuddavla ham shunday bir qoida joriy etgan edi: avval mulozim kelib raiyatdan biror narsa talab qilardi. Raiyat uni bersa berdi, bermasa mulozim u kishiga bir-ikki shapaloq tushirib, xonning huzuriga qaytib ketar, ikkinchi gal esa xonning tasbehini ko‘tarib kelar edi. Bu gal agar u kimsa hukmga bo‘ysunsa bo‘ysungani, bo‘ysunmasa, endi ixtiyor mulozimda qolardi, ya’ni u shu qadarlik ixtiyor sohibi ediki, agar u xanjarini chiqarib “yo‘q” degan kimsaning kallasini uzib olsa ham, bilmadim, nima bo‘lardi, menimcha, hech narsa bo‘lmasdi.

Men bir gal ushbu tasbehni ko‘rdim. Mulozim tag‘in bir qishloqlikdan xonning xonadoni uchun bir qo‘y talab qilib turar edi. Qo‘y esa yo‘q edi. Mulozim borib xonning tasbehini olib keldi. Sho‘rlik qishloqlik darhol eshagini qo‘shnisiga berib, undan bir echki va bir qo‘y oldi, qo‘yni Nazarali xonga jo‘natib, echkini o‘tlagani qo‘yib yubordi.

Ushbu tasbeh qora, muhralari mayda, qizil ipak ipga o‘tkazilgan bir tasbeh bo‘lib, faqat uning Nazarali xonniki ekanligini aytmasa, boshqa bir fazilati yo‘q edi.

Biz turgan hovli Karbaloyi Qurbondan yetimlariga qolgan hovli edi. Xonadon sohibi Pari nomli ayol ushbu yetimlarning

onasi edi. Biz vaqtimizni goh ayvonda, goh tom ustida o'tkazar edik. Pari esa uch-to'rtta yetimi va bir-ikkita mol-holi bilan ichkari hovlida turar edi; uning mol-holi bir eshak, bir sigir va bir-ikkita qo'y-echkidan iborat edi. Ertalab Pari bolalari uchun sut sog'ib pishirganda ba'zan men uning yoniga borar edim. Pari yuziga yashmoq tortib olganicha qishloqning turish-turmushidan hikoya qilib berardi. Uning yoshi ellik-ellik beshlar atrofida bo'lib, to'ladan kelgan, qoramag'iz, sog'lom bir ayol edi. Aytgulik bir husni jamoli bo'lmasa ham, istarasi issiqqina edi.

Men Mirza Sodiq Munshiyning ertalabdan Parining o'chog'i boshida o'tirib olib, chubug'ini chekkancha u bilan suhbat qurib o'tirganini bir daf'a ko'rib qolgan edim. Ikkinchi daf'a ham qarasam Mirza Sodiq Munshiy o'sha o'choq boshida chubuq chekib o'tiribdi; ammo bu gal u meni ko'rib qolib, imo bilan o'z yoniga chaqirdi. Men ham uning yoniga bordim, Pari mening ostimga bolalarning eski bir ko'rpachasini soldi. Mirza Sodiq meni o'tirgani taklif qildi. O'tirdim.

Mirza Sodiq menga yuzlanib:

— Janob Mulla Nasriddin, men seni bir Ollohning mo'min bandasi deb bilib bu o'tirishga taklif etdim, sen mening bu haq so'zlarimga guvoh bo'lasan, — dedi. — Men hozirgina, sen kelishingdan sal avval qoidaga muvofiq, Olloh taolo ko'rsatgan yo'l bilan Parining menga siyg'a bo'lishini taklif etdim.

Mirza Sodiqning og'zidan hali bu so'z chiqib ham ulgurmagan ediki, Pari cho'g'ni bosib olgandek o'zini ortga tashladi.

— Mulla Sodiq Munshiy, Mulla Sodiq Munshiy, bu gapni aytma. Bu gapni aytma, bu gapni aytma!..

Darvoqe, Pari bu so'zlarni shunaqangi qo'l siltay-siltay aytdiki, men sakrab turib qochib qolmoqchi bo'ldim. Lekin qochmadim, o'rnimdan turdim-da, sekingina chiqib ketdim. Mening ortimdan Mirza Sodiq ham g'ing demay to'g'ri hovlidan chiqib ketdi.

Biroq birozdan so'ng mazkur Mirza Sodiq, uning yonida Ali Ja'far, Parining darvozasi oldida paydo bo'lishdi. Mulozim Parini chaqirdi. Ayol darvoza og'ziga chiqdi, mulozim xonning tasbehini baland tutganicha bor ovozi bilan gapira ketdi:

— Pari, Pari, Pari! Oxund Sodiq Munshiyning shikoyatiga ko'ra xon ushbu tasbehni nishona qilib jo'natdi. Yaxshiroq qara bu tasbehga. Bu ikki yil avval xonning farmoyishiga bo'ysunmagan tegirmonchi Mahdini qoyadan jarga uloqtirgan o'sha tasbeh bo'ladi; bolalari u sho'rlikning jasadini ham topa olmagan edilar. Bu O'rujalining uyini vayron qilgan, bola-chaqasini darbadar etgan o'sha tasbeh bo'ladi. Ko'zingni ochib yaxshiroq qara, ko'rib qo'y, o'sha tasbehmi yoki yo'q...

Pari ostonada yashmog'ini lablariga qimtib, jimgina quloq solib turardi... Qo'shnilar ham eshitib turishardi.

Ayol ham hech narsa demadi, Mirza Sodiq ham, mulozim ham boshqa gap aytmadi, hamma tarqadi.

Shundan so'ng men bir necha marta Munshiy Oxund Mirza Sodiqning Parini hovlisiga kirib kelganini, ularning o'choq boshida suhbatlashib o'tirganlarini ko'rdim.

Lekin men endi u yerga bormasdim, meni hech kim chaqirmasdi ham.

Shundan so'ng ham bir yarim oy Karmachatoqda qoldim, so'ngra Ahar shahri tomon yo'l oldim.

G'ALCHA

Peshindan uch yarim soatlar o'tgan bo'lib, uyga qaytayotgan edim. Qattiq charchagan va ochiqqan edim. Uyga yetishimga ozgina qolganda ko'cha o'rtsida bir kishi menga yaqinlashib salom berdi va o'ng qo'limga yopishib oldi:

— Mulla amaki, meni tanimading, shekilli?

Chindan ham tanimadim va nima deyishimni bilmay uning yuziga tikilib turaverdim.

— Voy, buni qaranglar, nega tanimas ekansan? Men sening hamshaharing bo'laman-ku! Nahotki, hoji Navro'z og'ani tanimasang? Men hoji Navro'z og'aning akasining o'g'li bo'laman-da! O'z hamshaharingni tanimaysanmi?

Men:

— Kechir, tanimas ekanman, — dedim. U ovozini baland qo'yganicha gapira ketdi:

— Nahotki? Qal'a mahallasidagi hoji Navro'z og'ani tanimaysanmi? Axir, sen bolaligimizda necha martalab biznikiga kelgan eding, biz bir mahallaning bolalari bo'lamiz-ku!

Men:

— Xudo haqi, azizim, meni kechir, tanimas ekanman; modomiki, aytganingdek, bir mahallaning bolalari ekanmiz, juda yaxshi, xush ko'rdik, yur, marhamat qilib bizning mehmonimiz bo'l! — dedim.

Yangi hamshaharim narigi qo'limni ham tutganicha dedi:

— Yo'q, og'ayni, men siznikiga bormayman, avval sen biznikiga borishing kerak, keyin men siznikiga boraman; yo'qsa sirayam bormayman. Yur, uyim shu yaqinda.

Shunday deya qo'llarimga yopishib olib sudray boshladi. Men:

— Rahmat, iltifoting uchun juda minnatdorman, lekin hozir bora olmayman, chunki juda charchaganman. Xudo xohlasa, boshqa bir vaqt o'tarman, — dedim.

Hamshaharim bu so'zlarni eshitib jo'shib ketdi:

— Xudo haqi, qo'yib yubormayman. Yur, biznikiga boraylik. Hozir samovarni damga qo'yib kelganman. Nima bo'lganda ham borishing kerak. Qosim og'a ham biznikida. Mirza Abbos ham biznikida. Ularni uyga o'tqazib qo'yib, seni olib ketish uchun keldim. Ular juda-juda seni ko'rish orzusidalar. Menga, Mullani olmay uyga qaytma, dedilar.

Men bilmadimki, Qosim og'a kim, qaysi Mirza Abbos? Agar ularning kim ekanligini so'ragudek bo'lsam, do'stim ularning ota-bobolaridan, amaki-tog'alaridan kattakon bir tarix ochishi ayon edi. Erishganim shu bo'ldiki, bir amallab uning changalidan qo'llarimni tortib oldim-da, o'zimni darvozadan ichkariga urdim va ortimga o'girilib yana bir bor uzr so'radim. Zinapoyalardan yuqori ko'tarilar ekanman, ko'chada do'stimning jarangdor ovozi hamon yangrab turardi; lekin nima deyayotganini tushunmas edim...

Uyga kirib, bir parcha non yeyishga tutindim. Kichkina qizalog'imiz idishlarni stol ustiga qo'yar ekan, bir kishi sizni

mehmonga chaqirib keldi, dedi. Men indamadim (og'zim to'la non edi). Qizim tuzni stol ustiga qo'yar ekan:

— Kelgan odamning aytishicha, oti Qurbonqulibek ekan. Navro'z og'aning akasining o'g'li ekan. Mulla Nasriddin bizning hamshaharimiz bo'ladi, dedi. Sizni ko'chada kutib turishini aytdi. Ana qarang, haliyam ko'chaning u yog'idan bu yog'iga borib kelyapti.

Kechqurun choy ichib o'tirganimda kimdir ko'chadan meni chaqirib qoldi. Boshimni chiqarib qarasam, Qurbonqulibek qo'llarini beliga tirab, boshini biroz yuqori ko'targanicha bizning derazaga tikilib turibdi. Men javob bermadim.

— Mulla amaki, salomalaykum. Yur biznikiga, choy ichamiz.

Men:

— Bek, bizning choy stol ustida tayyor turibdi. Avval o'zing biznikiga marhamat qil, — dedim va ko'cha eshigini ochish uchun bolamni jo'natdim.

— Mulla amaki, Xudo haqi, chiqmayman; avval sen biznikiga tashrif qilmasang, men siznikiga kirmayman.

Men haligi taklifimni yana takrorladim. Ammo do'stimning holatidan uning zinhor biznikiga kirmasligini angladim. Papog'imni boshimga qo'yib ko'chaga chiqdim, hamshaharim har qancha qistasa ham, unikiga bora bilmasligimni aytib, uzr so'radim. Ammo shu suhbatimiz mobaynida do'stim meni xiyla toliqtirib qo'ydi; chunki besh daqiqa ichida bir yarim mingdan ko'proq so'z tizib tashladi-yov. Avvaliga gapni o'sha oldingi muqaddimasidan boshladi; o'zi Navro'z og'aning akasining o'g'li ekan, amakisini otliqlarning sultoni qilibdilar, o'zini gubernat[1] o'z huzuriga kotib qilib olibdi, katta akasi Xalil og'a telegraf nachalnigi[2] bo'libdi, kichik akasi Mammadhusayn bek ofitser bo'libdi, Iravondan Mashadi Ja'far kelibdi, u Moskvaga ketayotgan emish, Mashadi Qurbonali Tiflisga o'ziga tish yasatgani kelibdi, Sarvonlardan juda ko'p ziyoratchi kelib, Xurosonga yo'l olishibdi, hoji Hasan og'aning o'g'li Muhsin og'rib qolibdi, uni hakimga olib boribdilar.

---

[1] **Gubernat** — gubernator *(tarj.)*.

[2] **Nachalnik** — boshliq *(tarj.)*.

Rus bilan Usmonlining Kars borasida muzokaralari bo‘lar emish, ularning munosabatlari sovuqlashibdi, Pirverdi bosqinchini 8 yilga Sibir qilibdilar, Naxchivonda pandirning narxi biroz ko‘tarilibdi; xullas, u ana shunaqangi xabarlarni barmoq bukib sanagancha birma-bir bayon etmoqda edi. Men xayrlashib, undan uzoqlashmoqchi bo‘ldim. Qurbonqulibek meni to‘xtatmoqchi bo‘lib qo‘limga yopishdi. Qo‘limni tortib olib, uning changalidan xalos bo‘ldim. U ortimdan hamon nimalardir deb vaysar, ammo men undan uzoqlashib borardim.

Shu kechasi sahargacha tushimda nuqul shu so‘zlar qulog‘imga chalinib chiqdi: “Amakim Navro‘z og‘ani otliqlar sultoni qilishdi, akam telegraf nachalnigi bo‘ldi, Mashadi Qurbonali tish yasatgani keldi...”.

Ko‘zlarimni ochganimda tong otib kelmoqda edi. Biroz u yonbu yonga qarab turdim, quloq solsam, kimdir ko‘chada vaysab yotibdi. Shu zahotiyoq do‘stim Qurbonqulibekning ovozini tanib, taajjubga tushdim; ko‘ylakchan turib deraza oldiga bordim. Qarasam, Qurbonqulibek tag‘in qo‘llarini beliga tirab, ko‘chaning o‘rtasida men kabi shoshib turgan Ollohning bir bandasi bilan yuzma-yuz turib olganicha shang‘illar edi:

— Rus bilan Usmonlining orasiga sovuqchilik tushdi. Pirverdi bosqinchini 8 yilga Sibir qilishdi. Hoji Hasan og‘aning o‘g‘li Muhsinni hakimga olib ketishdi...

Bolalarga sekingina, derazaga yaqin bormanglar, meni bittayarimta so‘rab qolgudek bo‘lsa, idoraga ketdi deb aytinglar, deya tayinlab qo‘ydim. Bir stakan choy ichib, bir parcha non yeb, uydan chiqishga hozirlana boshladim. Ammo qanday chiqaman? Qay yo‘sinda chiqayki, bu la’nati meni ko‘rmay qolsin? Boshqa yo‘l ham yo‘q edi.

Ollohning o‘zi ishimni o‘ngladi, nimadir bo‘lib, hamshaharim g‘oyib bo‘lgan edi. Ko‘chaga chiqib, ehtiyotkorlik bilan yura ketdim.

Oradan bir kun o‘tdi. Hamshaharimni yana ko‘chada ko‘rmadim; boshqa narsa bilan ovvora bo‘lib qolganmi, shahardan ko‘chib ketganmi — bunisi noma’lum edi.

Ikkinchi kuni peshindan 3–4 soatlar o'tganda och va horg'in uyga qaytayotgan edim. Qandaydir fikr bilan band edim, lekin qanday fikr ekanligi hozir yodimda yo'q.

Ko'chamizga yetib borganim zahoti yuragim shuv etib ketdi; Qur-bonqulibek yana qo'llarini beliga tirab olganicha ko'chaning u tomonidan bu tomoniga borib kelar, yo'ldan o'tib ketayotgan bir rus bilan nimanidir uzoqdan uzoq gaplashmoqda edi. Men yashirincha uyga kirib olmoqchi bo'ldim; lekin bo'lmadi: padarla'nati ov tozisi kabi sezgir ekan. Uzoqdan meni ko'rishi bilanoq qichqirib qoldi:

— Salomalaykum, Mulla amaki! Amaki, ko'pdan beri ko'rinmaysan? Bizga iltifot ham qilmaysan? Viloyatimizdan kim kelyapti, kim ketyapti deb so'ramaysan ham. Amakim Navro'z og'ani otliqlarning sultoni qilishibdi, o'zim ham hozir gubernat huzurida bosh kotibman. Xalil og'a telegraf nachalnigi bo'ldi. Iravondan Mashadi Ja'far kelgan, Moskvaga ketyapti. Mashadi Qurbonali Tiflisdan o'ziga tish yasatirish uchun kelgan. Sarvonlardan juda ko'p ziyoratchi kelgan. Hoji Hasanning o'g'li Muhsin og'rib qoldi, hakimga olib ketishdi. Rus bilan Usmonlining orasi buzildi. Pirverdi bosqinchini 8 yilga Sibir qilishdi...

Men chindan ham och qolgan, qattiq charchagan edim va inson qanday qiyinchilikka tushsa ham, unga chidamog'i kerakligini, inson nima qilsa ham odob va tavozeni qo'ldan boy bermasligi lozimligini yaxshi bilardim.

Shularni bila turib, bu gal chiday olmadim va g'ing demay o'zimni dahlizga urdim, uyimizga chiqib, choy-non keltirishlarini buyurdim.

Insof va vijdonimni o'rtaga qo'yib aytamanki, gapimning yolg'oni yo'q, taxminan yarim soatcha ovqatlandim, tag'in yarim soatcha choy ichib, bola-chaqa bilan suhbatlashib o'tirdim. Ushbu bir soat mobaynida do'stim Qurbonqulibek hamon ko'chaning o'rtasida qo'llarini beliga tirab olganicha, har zamonda shoshib turgan yo'lovchilarning oldini to'sib olib, biriga amakim Navro'zalini otliqlar sultoni qilishdi der, ikkinchisiga Mashadi Qurbonali o'ziga tish yasattirish uchun Tiflisga kelibdi der, yana

boshqa biriga akam Muhammadhusayn qo‘shin boshlig‘i bo‘ldi, der edi.

Kecha men idorada boshqa bir hamshaharimni uchratib qoldim va haligi voqea lop etib yodimga tushdi.

Unga:

— Ko‘zing oydin, bizning go‘zal viloyatimizdan bu yerga yana bir hamshaharimiz kelibdi, — dedim.

— Kimni aytyapsan? — deb so‘radi u.

— Navro‘z og‘aning akasining o‘g‘li Qurbonqulibekni.

Mening bu gapimga javoban ushbu hamshaharim Qurbonqulibek borasida faqatgina bitta so‘z aytdi; bu qanday tilsim ekanligini bilmayman-u, o‘sha so‘z hech mening yodimdan chiqmaydi.

Bu hamshaharim mendan:

— Hoy Mulla amaki, u g‘alcha seni qanday topib kelibdi? — deb so‘radi.

— G‘alcha deganing nimasi?

— G‘alcha deganim shunday odamki, uning ismi Qurbonqulibek, Navro‘z og‘aning akasining o‘g‘li bo‘ladi, bizning go‘zal vatanimizda yetilgan mevalardan biri, — dedi u.

— Yana bir takrorla, — dedim men.

— G‘alcha!

Bu so‘z hech yodimdan chiqmaydi.

MULLA FAZLALI

Minbarning ostida bir musofir mulla o‘tirar edi. Marsiya tugab, odamlar tarqay boshlagach, men ham jamoat bilan masjiddan ko‘chaga chiqdim, qarasam, haligi mulla ortimdan kelyapti. Men unga qayrilib boqqanimda u odob-tavoze bilan:

— Oxund Mulla Nasriddin, men bu kecha sizning mehmoningizman, — dedi.

— Mehmon — atoyi Xudo, — dedim men va birgalikda biznikiga yo‘l oldik.

Mullaning ismi Oxund Mulla Fazlali ekan. Yoshi qirq besh-elliklar atrofida edi. Bo‘yi baland va biroz oriq. Yo‘ldagi suhbatimiz asnosida shuni bilib oldimki, Oxund Fazlalining kasbi marsiyaxonlik bo‘lib, bir necha kun oldin Erondan bizning viloyatga kelgan, muharramlikda biron-bir masjidda marsiya aytib, jinday mablag‘ ishlagandan so‘ng vataniga qaytib ketish niyatida ekan.

U suhbat mobaynida bu borada mening unga yordam berishimni qistirib o‘tdi. Men, qo‘limdan kelganicha harakat qilaman, dedim va bizning shahrimizda necha kun yursa, bemalol mening mehmonim bo‘lib turaverishini ta’kidlab qo‘ydim.

* * *

Oqshom payti edi. Xotinim non-choy qildi. Yeb-ichib bo‘lgach, biroz suhbatlashib o‘tirdik. Oxund ancha fayziyob bo‘ldi va hatto qo‘shiq ham aytdi. Butun umrini marsiyaxonlik bilan o‘tkazgani uchun uning ovozi baland, jarangdor edi.

Oxundga narigi xonada joy qilib berdik, yotgani ketdi.

Tunning qaysi mahali ekanligini bilmayman, mundoq qarasam, bolalarimizning onasi nimadir deb to‘ng‘illayapti. Tinglab turib, hech narsani tushunmadim. Birozdan so‘ng yana xotinim ming‘irlab qoldi:

— Bunaqa mulla bo‘lmay yer yutsin seni!

Men hayron bo‘ldim. Mundoq quloq solsam, Oxund Mulla Fazlali o‘z-o‘zicha past ovozda “jonam-jonam” deb qo‘shiq aytyapti. Xotinim ham shuning uchun to‘ng‘illagan ekan. Birozdan so‘ng men tag‘in uxlab qoldim.

* * *

Ertalab vaqtli turdik, nonushta qilib bo‘lgach, mehmonimiz bilan suhbatlasha-suhbatlasha avval bozorga, so‘ng masjidga bordik. Men o‘sha kuniyoq qozi bilan gaplashdim va Mulla Fazlali muharramning o‘ninchi kuniga qadar Pirjavon masjidida marsiya o‘qishini kelishib oldik.

Kechqurun uyga qaytdik. Men xotinimga, mehmonimizning ishi hal bo‘lib, tashvishdan qutuldi, endi kechalari bizni bezovta

qilmay, tinchgina yotsa kerak, dedim. Bu kecha ham mullani risoladagidek mehmon qilib, o'rin solib berdik va o'zimiz ham chiroqni o'chirib yotdik. Tunning allamahalida qarasam xotin meni turtyapti. Uyg'onib ketdim.

— Nima gap, xotin?

Xotinim to'ng'illagancha javob berdi:

— O'lgur mehmoningiz nima qilayotganini qarang!

Oy yorug' edi. Derazadan tut shoxlarining silkinayotganini ko'rib qoldim. Avvaliga shamol esayotgan bo'lsa kerak deb o'yladim; lekin havo sokin edi. Deraza oldiga borib, bosh chiqarib qarasam, mehmonimiz o'zi yotgan uyning derazasidan qo'l cho'zib, tutning bir shoxini o'zi tomon egib olganicha oppoq tutlarni bitta-bitta terib yer ekan, "jonam-jonam" deb qo'shiq aytar va orada:

— G'urbatda[1] mohtob kechalari[2] yolg'iz yotgan voy bechora jonim! — deb qo'yar edi.

Buni ko'rib o'rnimga qaytdim va xotinimga dedim:

— Hoy xotin, hammaning dunyoda bir dardi bor. Mulla Fazlali ham ana shunday dardli insonlardan biriga o'xshaydi. Xudo haqi, ko'rpangni boshingga tortib yotaver. Mening ham shirin uyqumni harom qilma!..

* * *

Ertalab negadir har kungidan vaqtliroq uyg'ondim. Hovlidagi o'sha tutning ostiga gilam soldirib, samovar qo'ydirdim va mehmon bilan birgalikda choy icha boshladik. Pishgan oq tutlardan biri oldimdagi istakon yoniga tushdi va tungi manzara shundoq ko'z oldimga namoyon bo'ldi.

Mehmonga dedim:

— Oxund Mulla Fazlali, sizdek muhtaram zotga mehmonnavozlik shartlarini ko'ngildagidek ado eta olmayapman, shekilli. Bu tutning pishgan-pishganlarini qoqib, bir laganini sizga manzirat qilish, bizning viloyatning ne'matlaridan totib ko'rib, uning Eron tutlaridan farqi borasidagi mulohazangizni eshitishni kecha xayo-

[1] **G'urbat** — musofirchilik *(tarj.)*.

[2] **Mohtobkechalar** — oyli kechalar *(tarj.)*.

limdan o‘tkazgan edim. Meni ma’zur tutgaysiz va bundan so‘ng maylingiz tilagan paytda buyuravering, sizga har kuni tut qoqib beradilar; bundan keyin kechalari uyqungizni harom qilib, daraxtdan tut terib yurmang.

Buni eshitib Mulla Fazlali oldidagi choyga qandni aralashtirganicha shunday dedi:

— Oxund Mulla Nasriddin, Ollohga ming bor shukurlar bo‘lsinkim, bu musofir viloyatda sizdek bir zotga duch keldim, mehmoningiz bo‘lib turibman; lekin men dunyoning biron-bir ne’matiga ko‘ngil qo‘ygan inson emasman. Tut masalasiga kelsak, albatta, garchi bu meva jamiki mevalarning eng shirini, eng ajoyibi bo‘lsa ham, men nainki tutga, balki boshqa mevalarga ham unchalik havasmand emasman. Olloh uyingizga baraka bersin, agar maylim bo‘lganida edi, kechami, bugunmi, o‘zim so‘ratar edim. Kechalarni bedor o‘tkazishimning illati bu tut emas zinhor. Siz, Xudoga shukur, jamiki sirlardan ogoh kishisiz, inson o‘z ahli baytidan olis tushsa, albatta uning bir qadar oromi buzilishini yaxshi bilasiz.

Xususan, men kabi bir bandayi mo‘min umrim bo‘yi xoh musofirchilikda bo‘lsin, xoh o‘z viloyatimizda bo‘lsin, ahli xonamdan biror marta ham begona qolmaganman, umrimda hech bir kechani yakka-yolg‘iz o‘tkazmaganman. Eh, Xudovandi olam sizning martabangizni yanada ortiq qilsin. Na iloj, har kechaning bir kunduzi, har qishning bir bahori bo‘ladi. Inshaalloh, bizning ham yorug‘ kunlarimiz kelar hali. Har narsaning insonga taqdir qiladigan o‘z vaqti-soati bor. Ha, Xudo poshsho, siz omon bo‘lsangiz bo‘ldi. Xudovandi olam sizdek zotdan o‘z lutf-u marhamatini darig‘ tutmasin.

Mana, maqsad ham kundek ravshan bo‘ldi.

Shu kuni bir bahona topib Oxundni masjidga yolg‘iz jo‘natdim, o‘zim uyda qolib, xotinni yonimga chaqirdim-da, sekin tushuntira boshladim:

— Xotin, bilamanki, sen ham kechalari tinchgina yotishni istaysan, men ham. Yarim kechasi uyg‘onib ketib yorni chorlashning, daraxt shoxini egib olib tut terib yeyishning menga keragi

yo‘q, bilamanki, buning senga ham keragi yo‘q. Lekin shuni bilib qo‘yki, mehmonimizning ishi hal bo‘lmasa, bizni tinchgina yotgani qo‘ymaydi.

Xotinim, xo‘sh, mehmon tinchgina yotishi uchun biz nima qilishimiz kerak, deb so‘radi. Men ochiqchasiga, mehmonimizni uylantirib qo‘yishimiz kerak, dedim.

So‘zning qisqasi yaxshi. Xotinimning tog‘asining bir Xayriniso degan qizi bor edi; qirq-qirq besh yoshlardagi beva ayol edi. Bir sidra ust-bosh va o‘n ikki manat pul bilan Oxund Mulla Fazlali va Xayrinisoning siyg‘asini men o‘zim o‘qidim, o‘sha kuniyoq bekorchi qo‘ni-qo‘shni ayollar yordamida, ularning xayri duosi bilan Xayrinisoni yangi eri Mulla Fazlalining xonasiga tushirib keldik.

Hammasi joyiga tushdi. Garchi Xayrinisoning bir ko‘zi jinday aybli bo‘lsa-da, na iloj, qismat shunday ekan.

Ollohga ming bora shukur! Hammasi tinchigandan so‘ng uxlagani yotdik. Men xotinimga:

— Hoy xotin, Ollohga ming bora shukur, ham mehmonimizning orzusi ushaldi, ham biz tinchgina yotadigan bo‘ldik, — dedim.

Avval mehmonlarimizga choy-non kiritib, keyin joyimizga bemalol cho‘zildik.

Ol Xudo! Shaytonga ming la’nat! Hoy inson, bilmayman kechaning qaysi mahali edi, uyquda qulog‘imga tiqillagan bir tovush eshtildi. Hech narsaga tushunmay ko‘zimni ochdim. Jinday quloq solib tursam, kimdir sekin derazani chertmoqda. O‘rnimdan turib, ko‘zlarimni ishqalagancha yaqin borib qarasam, boshiga salla o‘ragan, yelkasiga chakmon tashlagan bir kimsa hovlida turib olganicha derazani chertmoqda. Razm solib qarasam, mehmonimiz Mulla Fazlali!

Rosa taajjubga tushib:

— Tinchilikmi, mulla? — deb so‘radim.

Mehmonim go‘yo bir sirni ochib qo‘yishdan cho‘chiyotgan kabi:

— Hammomga, — dedi pichirlab.

Men:

— Bosh ustiga,— deya kiyinib hovliga chiqdim va oxund bilan birgalikda hoji Ja'far hammomiga yo'l oldik.

Har holda, qazo-yu qadardan qochib bo'lmas, keyin nima bo'lishini Xudovandi olamdan boshqasi bilmas ekan. Men Mulla Fazlalining har qanday xohishini bekam-u ko'st ado etdim, endilikda qolgan besh-o'n kun u ham xonadonimda tinchgina yotadi, men ham o'z ahli ayolim bilan bemalol orom olaman deb o'ylagan edim.

Ammo xato qilgan ekanman. Ikkinchi kecha ham Oxund Mulla Fazlali meni shirin uyqudan uyg'otib, qo'yarda-qo'ymay hammomga olib ketdi.

Assabru miftohulfaraj.[1] Hechqisi yo'q. Dunyoda har narsaning bir oxiri bo'lgani kabi bu ishlarning ham bir oxiri bo'lar, axir.

Uchinchi kecha ham uyquda ekanman, qulog'imga bir tiq-tiq eshitildi. Uyg'onib ketib qarasam, yana Mulla Fazlali deraza oldida turibdi-da!

— Oxund, hammomga!..

Mening bor sabr-u toqatim tugab bo'ldi. Boshimni derazadan chiqarib unga shunday dedim:

— Oxund Mulla Fazlali, meni kechir, sendan ming bora uzr so'rayman. Payg'ambar haqi ont ichamanki, mening gunohimdan o't. Men qariyb oltmishga kirib qoldim, mening senga hamrohlik qiladigan ishtiyoqim qolmagan. Har kecha hammomga borgulik toqatim yo'q. Xudoga shukur, hammomning yo'lini bilib olding, bu gal mensiz ketaver.

Shunday deya ortga chekindim. Yotib, ko'rpani boshimga tortdim...

Oxund Mulla Fazlali hammomga yolg'iz ketdi, lekin shu kuniyoq ko'ch-ko'ronini yig'ishtirib Xayrinisonikiga ko'chib ketdi; uning mendan ranjigani ma'lum edi, chunki ketayotganida men bilan xayr-ma'zur ham qilmadi.

Bir haftadan keyin eshitsam, u Xayrinisoning talog'ini berib, vatani Eronga jo'nab ketibdi.

---

[1] Sabr muvaffaqiyatning kalitidir *(muallif)*.

O‘G‘RI SIGIR

Otni otning yoniga bog‘lasang,
yo qilig‘ini oladi, yo fe’lini.
Maqol

Qoraqilchiq qishlog‘ida bizning yaqin qarindoshlarimiz yashaydi. Shuning uchun ham mening u yerga mehmon bo‘lib bormaydigan yilim yo‘q.

Shahar ichida qora-qurani ko‘raverib kishining hafsalasi pir bo‘ladi; shu bois katta shahardan bir necha kunga bo‘lsa-da chiqib ketish uchun bahona axtaradi. Qolaversa, qishloq olamida shunaqangi bir zavq va safo borki, uni ulkan va sershovqin shahardan hech qachon topa olmaysan.

Shaharda oylab yozuv-chizuvdan miyang rosa toliqqanidan so‘ng, birdan qarasang, dalaning qoq o‘rtasida, toza va yoqimli havo og‘ushida, qushlar va jonivorlar orasida turibsan-da! Ekintikinlar, zilol suvlar, dov-daraxtlar, shitir-shitir yaproqlar... Naqadar ajoyib! Qayda qoldi odam dastidan yurib bo‘lmaydigan katta shaharning diqqinafas ko‘chalari, tor-u tang yo‘laklari...

Ana shunaqa.

* * *

Qoraqilchiq qishlog‘ida hamon paxta terimi davom etardi. Havo juda yaxshi. Sahari mardonda turib, miltiqlarni olardik-da, tovushqon oviga chiqar edik. Tovushqon ovi deyishdan maqsad uni otib olib, go‘shtini yeyish emas edi; bizning musulmonlar orasida tovushqonni me’yorida pishirib, dasturxonga tortishni eplaydigan kimsaning o‘zi yo‘q. Biroq ovning biror-bir jonivorni jonidan judo etib, uyga ko‘tarib kelishdan iborat alohida bir lazzati borki, shunda bola-chaqang “manavi ovchilarning ahvoliga bir qaranglar!” deb sening ustingdan kulmaydi.

* * *

Men Qoraqilchiq qishlog‘ida o‘n uch kun turdim va bu o‘n uch kunning bir haftasini tovushqon ovlab kelish, uning etini itlarga bo‘lib berish bilan o‘tkazdim. Qolgan kunlarda qarindosh-

larimizning "o'g'ri sigir" deb nom olgan bir sigiri bilan mashg'ul bo'ldim.

Voqea mana bunday bo'ldi.

Qishloqda bir necha kun turishim mobaynida shuni kuzatdimki, ertalab daryo bo'yiga kattakon idishda qaynagan sut olib kelishganda, "o'g'ri sigirning suti" degan gap-so'z bo'lardi.

Men bu gap-so'zlarning tagini surishtira boshladim. "O'g'ri" so'zini insonlarga va ba'zi bir hayvonlarga ham nisbat berilishini eshitgan edik; masalan: o'g'ri it. Qushlardan ham zag'izg'on va boshqa ba'zilari o'g'irlik qilishi mumkin. Ammo sigir qanday qilib o'g'ri bo'lishi va u nimani o'g'irlay olishini hech eshitmagan edim.

Bir kun ertalab nonushta qilib bo'lganimizdan so'ng jiyanim bilan hovliga chiqdik, u meṇing xohshimga ko'ra o'sha sigirni ko'rsatish va u haqda gapirib berish uchun boshlab ketdi. Hovlining chekkasida, bog' eshigining yonida bir targ'il sigir ko'zga tashlanardi. Jiyanim "o'g'ri sigir" deganimiz ana o'sha sigir bo'ladi, dedi.

Asta-sekin unga yaqin bordik. Sigir juda keksa bo'lib, bir shoxi tagidan, ikkinchisi qoq o'rtasidan sinib tushgan edi. Bir ko'zi puchmaloq bo'lib qolgan, aftidan, kimdir uni urib chiqargan edi. Jiyanim sigirning narigi tomoniga o'tib, jonivorning sonidagi chandiqni ko'rsatdi, qachonlardir qaysidir noinsof unga yo bog' qaychisi, yo pichoq tiqib olgan ekan.

* * *

Bularning hammasi o'z yo'liga. Lekin men nega sigir kunduz kuni dalaga o'tlagani bormasdan uyda qolganini bilmoqchi edim. Bog'da ham jonivorning qorni to'ygulik biror narsa yo'q edi; odatda bunday paytlarda jonivorlar dalaga chiqib, o'rib olingan g'allazorlarda, hosili yig'ib olingan paxtazorlarda u-bu narsa yeb qorin to'ygizguchi edi.

Jiyanim, sigirning qorni to'q, shuning uchun ham boshqa sigirlarga qo'shilib dalaga chiqmagan, deb javob berdi.

— Nega qorni to'q bo'lar ekan, nima yeb qornini to'yg'azgan? — deb so'radim.

Jiyanim hikoya qila ketdi:

— Bu o‘g‘ri sigir kechalari yashirincha borib kishilarning paxtazoriga kiradi, rosa qornini to‘ydirib, tong saharda, hali havo yorishmay turib qaytib keladi. Kuzning bu qisqa kunlarini mana shu hovlida, bog‘da aylanib o‘tkazadi, istasa yotib dam oladi.

Men:

— Xo‘sh, paxtaning egasi kechalari buni paxtazorga qo‘yib qo‘yaveradimi? U paxtazorini mol-holdan, o‘g‘ridan qo‘rib yotmaydimi? — deb so‘radim.

Jiyanim bunday deb javob qildi:

— Avvalo, sen biroz sekinroq gapir, chunki u paxtazorlar qo‘ni-qo‘shnilarimizning yeri, o‘shalarning barakotidan bu ko‘r sigirimiz har kuni bir ko‘za sut beradi. Qo‘shnilar, garchi sigirimizning hunaridan xabardor bo‘lsalar ham, biroq Ollohga tavakkul qilib, sigirimizni olisroqdagi dalalarga o‘g‘irlikka boradi, deb o‘ylaydilar; aslida esa sutimizning barakoti ana shu devor-darmiyon qo‘shnilarimiz paxtasining barakotiga bog‘liq. Shuning uchun ham sendan o‘tinaman, biroz pastroq gaplashaylik.

* * *

Uyga qaytdik. Qorong‘i tushib, chiroqlar yoqildi. Kechqurun tamaddi qilib bo‘lganimizdan so‘ng dasturxonga bir kosa qaynatilgan sut tortildi, uni ko‘rib o‘g‘ri sigir shundoq ko‘z oldimga keldi-turdi, hozirda o‘g‘ri sigir qayerdaligini, nima qilayotganini judayam bilgim keldi. Jiyanim, sigir hozircha hovlida, chunki hali vaqti bo‘lgani yo‘q, ya’ni o‘g‘irlikka ketgani yo‘q dedi. Men:

— Qachon ketadi? — deb so‘radim.

— Odamlar yotgandan keyin, — deb javob berdi u.

Men unga shunday dedim:

— Jiyan, menga qara, men bir yozuvchi odamman, bir necha kundan beri siznikidaman, u yoq-bu yoqlarni kezib, yog‘li sut-qatiqlardan yeb-ichib yurishim o‘z yo‘liga. Albatta, shaharga qaytgandan so‘ng bu ajoyib kunlarni sog‘inaman. Ammo shunisi borki, biz bir yozuvchi xalqmiz, bizni yog‘ va pandirdan, sut va qaymoqdan ko‘ra har bir narsani yaxshilab o‘rganish, tajriba to‘plash ko‘proq qiziqtiradi. Biz ko‘proq narsani ko‘rishimiz lozim. Bizga tema, mavzu kerak, ya’ni, qisqacha aytsam, bizning yozuv-

chilik korxonamiz bekor qolmasligi, ishlab turishi uchun hamisha xomashyo kerak. Endi bu kecha menda uyqu yo'q. Bitta choyshab olib, sen bilan birga sahargacha o'g'ri sigirning ortidan pusib yuraman, uning "fe'l-atvorini" o'rganib, so'ng yozuvga ko'chiraman, chunki sigirning ham o'g'risi bo'lishini bilmagan bilsin, eshitmagan eshitsin.

Shundoq ham qildik. Avvaliga jiyanim tixirlik qilib, men bilan borishni xohlamay turdi. Men qistayverganimdan keyin istar-istamas rozi bo'ldi; birga yo'lga tushdik.

Garchi oy shu'lasi bo'lmasa ham, havo unchalik qorong'i emas edi. Hovlining etagigacha bordik. Lekin sigir yo'q edi. Bog'ga chiqib qaradik. U yerdan ham sigirni topmadik. Jiyanim, sigir allaqachon biron-bir paxtazorga urib ketgan bo'lsa kerak, dedi. Ammo qaysi paxtazorga kirganini bilmasdik. Bog'dan chiqib, paxtazorlar tomon yura boshladik. Havo biroz salqin edi. Men sovqota boshladim. Biroq sigirning fe'li meni shu qadar qiziqtirib qo'ygan ediki, endi muzlab qolsam ham sigirni topmaguncha uyga qaytmas edim.

Shunda jiyanim qo'qqisdan menga:

— To'xta, — deb qoldi.

Sinchiklab qarasak, oldinda bir jonivorning qorasi ko'rinyapti.

Jiyanim:

— Shu bizning sigir, — dedi. — Husaynqulining paxtazorini mo'ljallab turibdi, shekilli. Lekin paxtazorda odam borga o'xshaydi va buni sigir ham sezib turibdi.

Biz shu tariqa suhbatlashib turganimizda paxtazor ichidan gugurt shu'lasi ko'zga tashlandi. Ma'lum bo'ldiki, chindan ham paxtazorda odam bor ekan. Demak, o'g'ri sigir Husaynqulining daladan chiqib uyiga ketishini, u ketishi bilanoq paxtazorga kirib olib, sahargacha o'tlab qornini to'yg'azishni kutib turibdi.

Tabiiyki, qo'shnichilikda bunaqangi ko'zga cho'p suqish jiyanimning sha'niga yarashmas edi; shuning uchun men unga hech narsa demasam-da, uning o'zi borib sigirni qaytarib keldi, hovliga haydab kirib, boshqa jonivorlar qamalgan molxonaga kiritmoqchi bo'ldi, lekin sigir u yerga kirishni istamadi, chunki yovvoyi hayvonlar kabi tashqarida boshvoqsiz yurishni ko'pdan odat qilib olgan ekan. Aytishlaricha, uni zo'rlab molxonaga kiritishsa ham,

eshik yo devorini buzib qochib chiqar va dalaga o‘tlash uchun ketib qolar ekan.

Mening o‘zim ham ancha toliqqan edim. Yotdik. Ertalab aytishlaricha kechasi o‘g‘ri sigir qayoqqadir g‘oyib bo‘libdi va sahar chog‘i qornini to‘ydirib qaytib kelibdi.

O‘g‘ri sigir mojarosi shu bilan tugagani yo‘q. Mening kabi bir yozuvchiga bir o‘g‘ri sigirga duch kelishim, bir kecha uning o‘g‘riligini kuzatib, qaytib kelib yotishim, ertalab turib o‘g‘ri sigirning o‘g‘rilikdan hosil bo‘lgan yog‘liqqina sutini choyga aralashtirgancha maza qilib ichishim va indamay ketaverishim kifoya emas edi.

Ollohning bu jonivori qayerda, qachon va kimdan bu o‘g‘rilikni o‘rgangani juda qiziq, juda g‘alati va albatta bilishim lozim bo‘lgan voqeot edi.

Jiyanim bu o‘g‘ri sigirni buzog‘i bilan bundan ikki yil avval qoraqilchiqlik Mashadi Najafdan sakson bir manatga sotib olgan ekan. Borib Mashadi Najafni topdim. U sigirni jiyanim olishidan bir yil ilgari qiyomiddinlik mashhur “o‘g‘ri Muso”dan olgan ekan. Biroq Mashadi Najaf sigirning kechalari molxonani buzib o‘g‘rilikka ketishidan va qo‘ni-qo‘shnilarning shikoyatidan bezor bo‘lib, uni jiyanimga sotib yuborgan ekan.

Endi men o‘g‘ri Musoni topishim kerak edi. Qiyomiddinli qishlog‘i bilan Qoraqilchiq qishlog‘ining orasi olti-yetti verst[1] kelardi. Uyga qaytib jiyanimga, bitta ot o‘zingda bor, yana bir ot-ulov qo‘shnilardan olib tur, deb iltimos qildim.

Jiyanim Qiyomiddinliga borishimizni eshitib bir kuldi-da, avvaliga ko‘nmay turdi, men qattiq qistayverganimdan so‘ng istar-istamas rozi bo‘ldi.

Qiyomiddinli kattakon bir qishloq bo‘lib, qadimdan o‘g‘rilik bilan shuhrat topgan edi. Esimda qolgani shuki, oldingi paytlarda adliya mahkamalari ko‘rib chiqqan ishlarning katta qismi qiyomiddinliliklarning o‘g‘riliklaridan iborat bo‘lar edi. Keyinroq, ya’ni bundan bir necha yillar ilgari ham qiyomiddinliliklar yana nom chiqarmoqchi bo‘lishdi, ammo hukumat qattiq tutgandan so‘ng Qiyomiddinli o‘g‘rilarining shashti biroz pasaydi.

[1] **Verst** — uzunlik o‘lchovi (chaqirim), 1, 06 km ga teng *(tarj)*.

Jiyanim bilan kunning sovug'ida otlarga minib, Qiyomiddinliga yetib keldik. Endi qayerga tushsak ekan? Jiyanim ot boshini qishloq sho'rosining raisi, jiyanimning oshnasi Mammadyornikiga burmoqchi bo'ldi. Men unga bunday dedim:

— Yo'q, unikiga borishimiz ikki sababga ko'ra to'g'ri kelmaydi: birichidan, Mammadyorni bu ishga aralashtirmaganimiz yaxshi, chunki u yerda savol-javob, suhbat bo'ladi. Sigirni o'g'ri Muso qayerdan olgan, kimga sotgan, qancha pulga va nima uchun sotgan? Mammadyor o'z qishlog'ining nainki odamlari o'g'rilik dorilfununidan o'g'rilik diplomlari olishini, hatto bu qishloqning jonivorlari ham bu borada odamlardan qolishmasligini eshitsa, bizning oldimizda xijolat chekishi mumkin. Ikkinchidan esa, biz agar sho'ro raisining uyiga tushsak, unda hech bir ishni amalga oshira olmay qolamiz: chunki o'g'ri Muso bizning sho'ro raisining uyiga tushganimizni eshitsa, qo'rqqanidan na biz bilan ko'rishib gaplashgani keladi, na bizga ochiq-oydin bir gap aytadi. U bizni shikoyatga kelgan deb o'ylaydi. Agar bizning u yerga kelganimizni, sho'ro raisining uyiga tushib, o'g'ri sigirdan gap ochganimizni eshitib qolsa, qo'rqqanidan hatto qishloqdan qochib chiqib ketishi ham mumkin.

Men jiyanimdan bu borada jo'yali bir maslahat chiqishidan umidimni uzib, otlarning boshini qishloq maktabi tomon burishni aytdim. Shundoq ham qildik.

Bir sinfli kichkinagina maktabning faqat bittagina muallimi bo'lib, u shu maktabning mudiri ham hisoblanar ekan. Ismi Mirza Xalil ekan. Otlardan tushdik. Mirza Xalil bizga peshvoz chiqdi. Salom-alik. Maktab bolalari hovlida shovqin-suron solgancha o'yin bilan mashg'ul edilar. Ular bizni ko'rib atrofimizni o'rab olishdi. Otlarimizning jilovidan tutib, bilmadik, qayoqqadir olib ketdilar. Jiyanim otlarning ortidan ketdi, Mirza Xalil meni ichkari boshladi.

Bir kattakon xonaning burchagida temir pech yonib turardi. Xona ancha iliq edi. Birozdan so'ng jiyanim kirib keldi, biz choy ichdik va oxirida men Mirza Xalilga maqsadimni aytdim.

Mirza Xalil bilan bu borada suhbatlashib o'tirganimizda bizga choy tashib turgan o'n to'rt-o'n besh yoshlardagi bir o'spirin bizning suhbatimizni tinglab o'tirgan edi. Men "o'g'ri Muso"

nomini tilga olishim bilanoq bu o'spirin darhol chiqib ketdi. Muallim Mirza Xalil ham uning ortidan chiqib, birpasdan so'ng qaytib kirdi va menga:

— Bizga choy tashib turgan bu bola o'g'ri Musoning qo'shnisi bo'ladi, — dedi.

Men ishni buzib qo'ydim deb o'yladim; chunki biz begona kishilar bo'lib, otdan tushgan zahoti o'g'rilikdan gap ochganimizni eshitgan jamoat albatta bizni hukumat odami va bular o'g'ri Musoni tutgani kelishgan deb o'ylashi aniq edi.

* * *

Mening bu gumonim to'g'ri chiqdi. Maktab o'quvchilarining tiliga o'g'ri Musoning nomi tushgan zahoti qishloqda: "O'g'ri Musoni tutib olib ketish uchun ortidan odam kelibdi", — degan vahima tushdi.

Mirza Xalil qo'ng'iroq chalib, o'quvchilarni sinfga to'pladi. Ularga, biz hukumat odami emasmiz, birovni tutgani ham kelganimiz yo'q, biz Qoraqilchiq qishlog'ining muallimlari bo'lamiz, faqat bolalarning qanday o'qiyotganini ko'rgani keldik, deb tushuntirdik.

Mirza Xalil darsni boshlab yubordi. Biz otlardan xabar olgani hovliga chiqib tabla tomon yurdik. Bir qariya otlarimizning oldiga somon to'kayotgan ekan. Bizni ko'rib salom berdi va:

— Siz bezovta bo'lib sovuqqa chiqib yurmang. Uzoq yo'l bosib kelgansiz, bahuzur xonada o'tiravering, otlardan ham xavotir olmang, men shu yerdaman, — dedi.

Bu qariya maktab xizmatchisi ekan. Biz qaytib xonaga kirdik, haligi qariya ortimizdan kirdi. U chubug'ini olib tamaki to'ldirar ekan, shunday dedi:

— Xudobezorining uyi kuysin! O'g'rilik bilan topgan moling zahar bo'lsin! Inson bir parcha nonini halol topib yeyishi kerak. Hali bu dunyoda o'g'rilikdan hech kim boyib qolgan emas, unday kishining uyida ham xayr-u barakot bo'lmaydi, — dedi.

Men:

— Hoy amaki, sen kimni nazarda tutib bunday deyapsan? — deb so'radim.

— Anavi haromzoda Musoni aytaman-da. Mana, endi uning ham boshiga sigirning kuni tushdi.

— Qanaqasiga?

— Qanday bo'lardi, yilning ikki oyini ochiqda o'tkazadi, o'n oyini qamoqxonada.

— Hoy amaki, sen uning qilmishlarini bilsang kerak. Uning o'zi-ku o'g'ri ekan, bu o'z yo'liga. Lekin aytishlaricha, uning xuddi o'zi kabi bir o'g'ri sigiri ham bor emish?

Qariya chubug'ini qattiq so'rib tortganicha dedi:

— Hay-hay!.. Musoning nimasi bor ekan? U zinhor mol saqlaydigan odam emas. O'sha sigirni ham bolaligida chorva molidan o'g'irlab olgan edi. Sigirga ko'z-quloq bo'lib turish uchun kechalari uyda qolmasdi. Shu sababli kechalari sigirni ham o'g'irlikka olib ketardi. Sigir ham zotli sigirlardan, Zangazur sigirlarining naslidan edi. Bu qarishmol sigirni paxta o'g'irligiga shu qadar ko'p olib bordiki, sho'rlik sigir ham nima qilsin, hayvon bo'lsa nima qipti? "Otni ot yoniga bog'lasang, yo qilig'ini oladi, yo fe'lini!", — degan ekan ota-bobolarimiz. Evoh, og'a, u jonivorning boshiga nimalar yog'ilganini, necha bor o'g'irlikda qo'lga tushganini, qanchalar kaltak yeganini bilsang edi. Bir shoxi ham singan bo'lishi kerak; Zulfiqor bir ko'zini ham urib chiqargan edi.

Shu payt qo'ng'iroq chalinib qoldi. Bolalarning bolari kabi g'o'ng'illashlari boshlandi. Biz otlarga minib, kechqurun Qoraqilchiq qishlog'iga yetib keldik. Havo esa juda sovuq edi.

TUSH

Hoji Mirzali og'a vafot etgan edi. Uning bizning ayolimizga bir nav qarindoshligi bo'lgani uchun ham men marhumni dafn etish uchun qabr boshigacha borishga majbur bo'ldim, hatto kechqurun ko'ngil so'rash uchun ham bordim, yolg'iz o'zimgina emas, ayolimni ham olib bordim.

Erkaklar tashqi hovlida yig'ilib turardilar, ayolim hovliga kirgandan so'ng mendan ayrilib, ichkariga yo'l oldi (u qarindosh bo'lganligi uchun ham bu yerni yaxshi bilardi).

Men erkaklar o'tirgan xonaga kirdim va salom berib, to'rga o'tib joylashdim. Ikki sallali mulla eng yuqorida cho'kkalab o'tirardi. Men o'tirgan zahoti ulardan biri baland ovozda fotiha o'qidi, so'ng o'tirganlardan ham kimdir "Bismilloh" deb, kimdir "Alhamdulilloh" deb o'z-o'ziga pichirlab vird aytishga tushdi. Xonaning o'rtasida sallasiz bir mullavachcha ham tiz cho'kib o'tirar, oldida bir necha jild kitoblar qo'yilgan bo'lib, u ushbu kitobchalardan birini burniga tekkuday yaqin olib kelib o'qimoqda edi. Uning yonida o'tirgan kishilarning ham ba'zi birlari qo'llariga ushbu kitobchalarni tutib, hijjalay-hijjalay o'qishga tutingan edilar. Bu kitobchalar o'ttiz hissadan iborat Qur'onning juzlari edi.

Marhumning to'ng'ich o'g'li Kabla Tog'i eshik oldida tik oyoqda boshini solintirganicha g'amgin turar edi. Har bir yangi odam kirib salomlashib o'tirganidan so'ng Kabla Tog'i ham cho'kkalab o'tirar, birov turib ketayotganida u ham sapchib oyoqqa qalqirdi. Har bir odam chiqib ketayotganida uyning yangi sohibiga o'zicha tasalli berardi. Kimdir qisqagina qilib: — Olloh rahmat qilsin, — desa, kimdir uning yonida to'xtab, ko'proq tasalli aytardi:

— Kablayi, hech yuragingni siqma, bu dunyoga hech kim ustun bo'lgan emas, bu shunaqa bevafo dunyo. Har kelganning bir ketishi bor, Ollohning amri shunaqa. Bizning qo'limizdan hech narsa kelmaydi, hech yuragingni siqma.

Men ham hamd surasini o'qib bo'lganimdan so'ng mayin ovozda:

— Olloh rahmat qilsin, — dedim.

Men o'tirgandan so'ng anchagacha hamma jim qoldi, hech kim g'ing demadi. Xonaga yani bir kishi kirib keldi va o'tirdi; yana bir fotiha o'qilgach, o'tirganlar hamd surasini o'qidilar, so'ng tag'in sukunat cho'kdi. Mening so'l tomonimda o'tirgan Mashadi Zulfiqor mullalarga yuzlanib so'rab qoldi:

— Oxund Mulla Ahmad, bu oy kamyak bo'lsa kerak?[1]

Mulla ham boshini juzdan ko'tarib javob qildi:

— Ha, kamyak bo'lsa kerak.

Men ham Mashadi Zulfiqorga o'girilib:

— Ha, kamyak bo'lsa kerak, — dedim.

[1] Ya'ni, bir kun kam bo'ladi *(muallif)*.

* * *

Men ham sallasiz mullavachchadan Qur'onning bitta juzini so'rab oldim va ochib o'qiy boshladim.

Dunyoning qayerida sayr qilib yurganimni bilmayman, bir payt qarasam, uy egasi Kabla Tog'i yonimga kelib cho'kkanicha meni uyqudan uyg'otayotgan ekan. Keyin bilsam, meni shiringina pinak tutib qolibdi. Qarasam, juzning Alif-lom-mim surasidan faqat ikki sahifa o'qibman, xolos. Zo'rg'a juzni tugatib, ichimda fotiha o'qidim. Hamd surasini o'qib, juzni o'pdim-da, mullavachchaga qaytarib o'rnimdan turdim.

— Kabla Tog'i, Olloh Mashadi amakiga jannatning to'ridan joy ato etsin, iloyo, sen uning chirog'ini o'chirmagaysan.

Dolonga chiqdik, Kabla Tog'i baland ovozda:

— Hoy bola, Bilqays opaga ayt, Mulla amaki ketyapti, de, chiqsin, — dedi.

Bilqays bizning bolalarning onasi bo'ladi. Dolonda fonusimni yoqib berishdi, uni qo'limda tutganimcha hovliga chiqdim, shu payt ayollar o'tirgan uydan bir chodrali ayol chiqib kelib ortimdan tushdi, ko'chaga chiqdik, men fonusni ko'targanimcha asta-sekin uy tomon yo'l oldim.

Atrof qop-qorong'i bo'lib, qo'limdagi fonus yo'lni zo'rg'a yoritib turardi. Hoji Mursal ko'chasini kechib o'tib, Alimurod ko'prigiga yetib bordik. Ko'prikdan o'tib ortga qarasam, Bilqays chodraga qattiq o'ranib olganicha qaqqayib men tomon qarab turibdi. Men bundan taajjubga tushdim, hatto biroz jahl bilan:

— Nega qaqqayib turibsan? Kech bo'lib qoldi. Yur tez, boraylik, — dedim.

Lekin ayol qoqqan qoziqdek o'rnidan jilmas edi. Men ovozimni biroz ko'tarib yana uni chiqardim, og'zimga duch kelgan bir-ikki achchiq gap ham qildim, shekilli.

Ayol hamon qilt etmay turardi. Bundan ham hayron bo'ldim, ham nihoyatda jahlim chiqdi, unga qarab bir-ikki haqoratli so'z yo'lladim:

— Hoy mal'unning qizi, agar men bilan hazillashmoqchi bo'lsang, hozir hazilning payti emas, yur, ketdik.

Voh!.. Meni hayratga solgani shu bo'ldiki, ayol ortiga burilib, kelgan tomoniga yo'rg'alab qoldi.

Yerdan bir tosh olsam-da, ortidan borib boshini majaqlab tashlasam, deb o'yladim; ammo turgan yerimda qotib qoldim va o'z-o'zimga dedim: Subhonolloh! Balki men tush ko'rayotgandirman.

Ammo shu payt qandaydir tovushni eshitib uyqudan uyg'onib ketdim. Olisdan kimdir erkakcha tovushda "Bilqays!" deb qichqirar edi. Tovush tobora yaqinlashib qoldi. Qarasam, Mashadi Ja'far amaki bizning ayolimiz Bilqaysni ortidan ergashtirib kelmoqda.

Shunda hammasi ayon bo'ldi. Xullas, mening ortimdan ergashib kelgan ayol Mashadi Ja'far amakining xotini Bilqays ekan, Mashadi Ja'far amaki ayollar orasidan o'z Bilqaysini topa olmay, biznikini menga topshirish va o'zinikini olib ketish uchun ortidan bizning Bilqaysni ergashtrib kelgan ekan.

Shundoq ham qildi: xotinini mazammat qilgancha olib ketayotganini eshitib turdim. Bizning Bilqays ham mening ortimdan tushdi va men ham uni goh mazammat qila-qila, goh so'ka-so'ka uyga boshlab ketdim.

Bolalar hali uxlashmagan ekan. Qizalog'imiz Hojar bizni ko'rgan zahoti sevinganicha:

— Dada, qayoqqa ketgan edingizlar? — deb so'rab qoldi.

Men jahl bilan javob qildim:

— Jahannamga ketgan edik, go'rga ketgan edik!

Darhol qizaloqning ovozi o'chdi.

QASSOB

Bir gal qo'shnimiz Mashadi Mammadali qizini qassob Shomilga berar ekan degan gapni eshitib qoldim. Yana bir gal eshitsam, u qizini bermaydigan bo'libdi. Keyingi kunlarda Mashadi Mammadali qizini qassob Shomilga berishga rozi bo'libdi degan gap tarqadi. Keyinroq yana Mashadi Mammadali qassob Shomildan ranjib qolibdi va qizini unga bermaydigan bo'libdi deyishdi. Bundan uch-to'rt kun oldin qassob Shomil biznikiga keldi. U bilan bizning qandaydir qarindoshchiligimiz bor emish (ya'ni uning

o‘zining aytishiga ko‘ra). U qizni nihoyatda yaxshi ko‘rar ekan, lekin Mashadi Mammadali nima uchundir qizini unga bermoqchi emas emish. Agar siz vositachilik qilsangiz balki Mashadi Mammadali yumshalar, deb o‘tindi Shomil. Men rozi bo‘lib:

— Mashadi Mammadali mening so‘zimni yerga qoldirmas, axir, modomiki qiz rozi ekan, bir amallab to‘g‘rilasam kerak, — dedim.

Bu orada shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Mashadi Mammadali uch daf’a qassob Shomil bilan murosaga kelibdi, lekin har uch daf’a nimadandir jahli chiqib, so‘zidan qaytibdi.

* * *

Bir kuni Mashadi Mammadaliga, juma kuni kechqurun senikiga bo‘zbosh[1] yegani beraman, deb buyurtma berdim. Mashadini amallab ko‘ndiraman va agar jiddiyroq bir uzrli sababi bo‘lmasa, uni qassob Shomil bilan doimiy murosaga keltiraman degan fikrni ko‘nglimga tugib qo‘ygan edim.

Mashadi Mammadalinikiga yo‘l oldim. Dimog‘im chog‘ edi; chunki bir tomondan sho‘rlik Shomilning ishini bir amallab to‘g‘irlasam kerak degan umidda edim, ikkinchi tomondan, Mashadi Mammadalining xotini eronlik bo‘lgani uchun juda mazali bo‘zbosh pishirishini yaxshi bilardim.

Olddagi uyga dasturxon solingan edi; idish-tovoq, piyoz, turp, bozorning eng yaxshi noni...

O‘tirishdik. Men avval bu yerga kelish sababimni qisqacha bayon etib, Shomilning qarzidan qutulmoqchi bo‘ldim:

— Mashadi birodar, o‘zing bilasanki, men senga bir xayrixoh odamman, seni, nauzubilloh, oxiri pushaymonchilik bilan tugaydigan yo‘lga boshlashni aslo istamayman. Sen Ollohning anavi bandasi Shomilni ko‘pam ranjitaverma. To‘rt muchasi sog‘ bir yigit. U bilan qarindosh tutinsang, har tomonlama yaxshi bo‘ladi. Agar jiddiy bir e’tirozing bo‘lmasa, ber qizingni, borgan joyidan tinchisin.

Mashadi Mammadali juda bosiqlik bilan menga bunday javob qildi:

---

[1] **Bo‘zbosh** — no‘xatsho‘rva *(tarj.)*.

— Mulla birodar, Qur'on haqi ont ichamanki, mening hech bir qarshiligim yo'q; qizni bersam, o'z-o'zidan tinchib ketadi. Ammo u noinsofga ham jinday pand-nasihat qilib qo'ygin-da, men bilan qarindosh bo'lmoqchi ekan, meni izzat-ikrom qilib, hurmatimni joyiga qo'ysin, boshqalarning oldida o'z qaynotasiga ayricha bir e'tibor qilsin-da! Masalan, qurbon hayitida bizga semiz bir qurbonlik jo'natsin deb buyurtma berdim. Olti yarim manat pul ham berib yubordim. Tekinga so'raganim yo'q. Nima qipti, men unga bir begona kishi bo'lsam. Xudo haqi, u shunaqangi bir oriq jonivor berib yuboribdiki, teri bilan suyakdan boshqa hech narsasi yo'q. Axir men tosh emasman-ku! Jahlim chiqib ketdi, biz qarindosh bo'la olmaymiz deb xabar jo'natdim... Xullas... Mulla birodar, ko'ngling to'q bo'lsin, gapga berilib ketib, seni ham och qo'ydim. Ko'ngling to'q bo'lsin... sen so'rab kelgan ekansan, bir qiz degani nima bo'pti, beraman qutulaman-da. Olloh seni ham yor-birodardan, qarindosh-urug'dan kam qilmasin. Xabar olay-chi, ovqat tayyormikin...

Mashadi chiqib ketib, bug'lanib turgan bo'zboshni o'zi ko'tarib kirdi, unga non to'g'rab, aralashtirdi va "marhamat" deya menga manzirat qildi. "Bismilloh" deya qo'l cho'zib bir bo'lak go'shtni og'zimga soldim, bo'zboshining mazasi me'yorida, ya'ni juda unaqangi zo'r ham emas, lekin juda ta'msiz ham emas, shunchaki o'rtacha bir bo'zbosh edi.

Bu mening ta'bim.

Lekin qo'shnimga kelsak, bu borada ta'bimiz o'rtasida xiyla tafovut chiqib qoldi. Ya'ni Mashadi Mammadali ikkinchi go'sht bo'lagini og'ziga solgach, o'z-o'ziga gapirgandek past ohangda:

— Juda yovg'on bo'lipti, — dedi.. Oradan yana biroz o'tgach:

— Nomardning bolasi yog'siz et beribdi, — dedi va yana bir bo'lak go'shtni og'ziga solgach, yeyishni bas qilib, hovli tomon o'girildi-da, xotinini chaqirib qoldi:

— Tukazbon, hoy Tukazbon! Hoziroq anavi firibgarga mening nomimdan xabar jo'nat, men endi unga qizimni bermaydigan bo'ldim.

Men bunga hayron qoldim, biroz noqulay ahvolda tushib, ishtaham ham bo'g'ildi. Bir Mashadi Mammadaliga pand-nasihat qilmoqchi, yolg'ondakamiga bo'zboshni rosa maqtamoqchi

bo‘ldim, chunki qo‘shnimning yuz-ko‘zidan zahar yog‘moqda edi, biroq bu ahvolda pand-nasihat kor qilmasligini sezdim. Lekin baribir bu ishga aralashishni o‘z burchim deb hisoblar, balki oxiri yaxshilik bilan tugar degan umidda edim.

Shuning uchun:

— Mashadi birodar, bo‘zbosh unchalik ham yovg‘on emas-ku, nega buncha jahling chiqadi? — dedim.

Ammo Mashadi Mammadali shu qadar g‘azabda ediki, go‘yo mening gapimni eshitmadi va hovliga qaragnicha tag‘in baqira ketdi:

— Hoy xotin! Bu mening oxirgi so‘zim. Hazil qilayotganim yo‘q. Bermayman dedimmi, bermayman! Shuni har ikki qulog‘ing bilan yaxshilab eshitib ol!

Mashadining qo‘llari titrar edi. Men lol bo‘lib qoldim va tabiiyki, kelganimga pushaymon bo‘ldim. Qo‘limni artib, bir chekkaga surilgancha Xudoga shukur qilib o‘tirdim.

Lekin shu payt Mashadi go‘yo uyqudan uyg‘onib ketgandek, o‘z xatosi va beodobligini tushunib yetgandek bo‘ldi; chunki u mening och qolganimni ko‘rib turardi. Biroz jahldan tushdi, shekilli, mayin ovozda:

— Xudo haqi, Mulla birodar, meni kechir. Hoziroq sen uchun quymoq pishirtiraman. Sen och qolding, — dedi va yana hovli tomon yuzlanib, avvaligidan biroz yumshoq tovushda:

— Tukazbon, darhol jinday quymoq pishir. Mulla birodarimizga bo‘zbosh yoqmadi, och qoldi. Yomon odamning padariga la’nat. Bizni och qo‘ydi, — dedi.

Men uzr so‘rab, quymoqni rad qildim; chunki ishtaham butunlay bo‘g‘ilib bo‘lgan, buning ustiga quymoqni eskitdan yoqtirmas edim. O‘rnimdan turmoqchi bo‘ldim. Mashadi Mammadali mendan oldin sapchib turib, yelkamdan bosgancha meni zo‘rlab yerga o‘tqazdi. Men unga tobe bo‘ldim.

Oradan biroz o‘tgach, Mashadi quymoqni ham olib keldi. Ustidan choy ichib, jinday suhbatlashgandek bo‘ldik, so‘ng men o‘rnimdan turib, xayrlashgancha chiqib ketdim. Chiqish oldidan bir to‘xtab olib, Mashadi Mammadalining yuziga tikildim, tag‘in qassob Shomildan so‘z ochib, unga pand-nasihat qilmoqchi

bo'ldim, lekin darhol shu fikr keldimki, badbaxt qassob Shomil shunchaki Mashadining nishiga poynak bo'lib tushgan, yo'qsa oriq qo'y, yog'siz go'sht deganlarining hammasi bir bahona edi.

Shu lahzada menga ushbu narsa ayon bo'ldiki, bu xastalikning dunyoda davosi yo'q, agar hozir Mashadi Mammadali qassob Shomil bilan yarashib, o'pishsa ham, ertasi yoki indiniga bir yog'siz go'sht ustiga tag'in ranjib, xafa bo'ladi. Tarki odat — amri mahol.

Oradan bir oy yoki bir yarim oylar o'tgach, Mashadi Mammali qizini to'y qilib, qassob Shomilga beribdi, deb eshitdim. To'yga men ham taklif qilingan edim, ammo tobim yo'qligi uchun bora olmadim.

SOQOLLI BOLA

Bu hikoyani boshlashdan oldin shuni aytib o'tmoqchimanki, ba'zi bir bolalarda qo'llariga qalam tushgan zahoti uyning devorlariga yozib tashlash kabi bema'ni bir odat bo'ladi. Ko'pgina bolalar hatto ko'mir, bo'r bilan ham yozib tashlayverdilar. Hali sen ko'mir, bo'rni aytyapsan, men shunaqangi bir yaramas bolani ko'rganmanki, qo'liga mix yoki pichoq olib olib, devorlarni o'yib dabdala qiladi.

Negadir devorga yozadigan bolalarni iqim suymaydi; chunki sen yaxshi bola bo'lsang, yozishni mashq qilmoqchi ekansan, ol qo'lingga qog'oz-qalamni, bir chekkaga joylashib olib, xumordan chiqqancha yozaver.

Endi hikoyamizga qaytaylik.

Men bizning bolalarimiz boshqa bolalar kabi unaqangi devorga yozadigan bolalardan emas degan fikrda edim; chunki men ularga juda ko'p pand-nasihat qilgan edim va ular ham devorga yozmaslikka so'z bergan edilar. Ammo keyingi vaqtlarda qarasam, ayvonning devoriga, eshikning tashqarisidagi pana bir joyga g'alati rasm chizilgan: hayvonning boshiga o'xshash bir surat, quloqlari ham borga o'xshaydi, bir-ikkita oyog'i ham bor, uning ostiga beshta tik chiziq tortilgan bo'lib, bundan tashqari, besh-oltita

dumaloq shakl ham chizib qo'yilgan. Bularning hammasi qalamda chizilgan, lekin shu qadar qo'pol chizilganki, boladan boshqa hech kim bunaqangi chizmaydi.

Kayfiyatim buzilib, bolalarni chaqirdim:

— Xo'sh, nega devorlarga yozyapsiz?

Uchalasi ham devordagi yozuv yoniga kelib turishdi.

— Buni qaysi biringiz yozdingiz?

Uchalasi ham tan olmadi.

— Demak, buni shayton yozgan ekan-da?

— Dada, Xudo haqi, men yozganim yo'q.

— Men ham yozganim yo'q.

Kichkintoy Qurbon ham "men yozganim yo'q" deya ko'zlarini ishqalab yig'lay boshladi. .

Men koyina-koyina bir eski latta topib devorni tozaladim-da, takror-takror tanbeh berganimcha nari ketdim. Ortda qolgan bolalarning bir-birini ayblayotgani eshitilib turardi. Haydar Temurga:

— Sen yozgansan, — desa, Temur Haydarga:

— O'zing yozgansan, — der edi.

Shu payt yig'lab turgan o'g'ilcham Qurbon yugurganicha yonimga kelib:

— Dada, uni Haydar yozgan, rost dada, Haydar yozgan, — dedi. Haydarning jahli chiqqanicha Qurbonning yoniga kelib, qo'llarini silkitganicha unga shundoq po'pisa qila ketdiki, ukasining ko'ziga barmoqlarini suqib olishiga oz qoldi. Mening jahlim chiqib ketdi, buni ko'rib uchalasi ham jim bo'lib qolishdi va ketmoqchi bo'lishdi, men ularni to'xtatib, bunday dedim:

— Men sizning devorga yozganingizdan unchalik xafa emasman, faqat sizlarning gaplaringizdan xafa bo'lyapman; qo'rqqaningizdan yolg'on gapirayotganingiz uchun xafa bo'lyapman. Shubhasiz, devorga uchalangizdan biringiz yozgansiz, ammo uchalangiz ham qasam ichib buni tan olmayapsiz, men ana shundan xafaman. Axir, bu uyda sizdan boshqa bola yo'q-ku.

Yana bolalar qasam ichib, aybni bir-biriga to'nkay boshladi.

Oradan besh-o'n kun o'tdi. Qarasam, o'sha devorda, eshikning tashqarisida, o'sha men o'chirib tashlagan yerda yana bir yozuv

paydo bo'libdi: hayvonga o'xshash bir narsaning surati, ostiga bir necha tik chiziq tortilgan, yonida bir necha yong'oqqa o'xshash shakllar chizilgan.

Jahlim chiqib ketdi. Darhol bolalarni chaqirdim. Yana o'sha-o'sha ont ichish, yana aybni bir-biriga to'nkash, yana ko'z yoshi...

Men bu gal shu qadar xafa bo'ldimki, kun bo'yi kayfiyatim bo'lmadi, hatto ovqat ham tomog'imdan o'tmadi. Shuning uchun yuragim siqilmoqda ediki, uch farzandimdan biri ko'zimga cho'p tashlamoqda, ham mening tarbiyamga zid o'laroq yozib-chizib devorni rasvo qilmoqda, ham qasam ichib menga shu qadar katta yolg'on sotmoqda va shu yo'sinda o'zining qo'rqoqligini ochiq-oydin namoyon etmoqda edi.

Hammasi ortda qolib, bir-ikki oy o'tgach, bu gina-guzora esdan chiqa boshlagan edi.

Ammo bir kuni kechqurun men juda qattiq xafa bo'lib ketdim. Ayvondan o'tayotib, devorda yana yozuv paydo bo'laganini ko'rib qoldim: o'sha-o'sha hayvonga o'xshash bir surat, ostida bir necha tik chiziq, yonida bir nechta dumaloq narsalarning surati.

Bu gal bolalarga hech narsa demadim; modomiki bolalarimdan biri atayin jig'imga tegib, meni ranjitmoqchi ekan, mening indamay qo'ya qolganim ma'qul, balki bu ishning yaramasligini uning o'zi tushunib yetar, degan xayolga bordim.

Ikkinchi tomondan esa meni tashvishga solayotgan muammo shu ediki, xo'sh, men bolalarga bergan tarbiyamning qaysi o'rnida xatolikka yo'l qo'ydim, xo'sh, men kabi keksa bir murabbiy qayerda sahv etdim ekan, bundan keyin bolalar bilan qiladigan muomalamning qaysi jihatlariga e'tiborni kuchaytirishim kerak, degan xayollar bilan band edim...

Katta shaharda yashashning ko'pgina qulayliklari bor. Xususan, bozor-do'konlarga to'kib tashlangan dunyoning turfa xil nozne'matlari — yeyish-ichish jihatidan olib qaralganda — barchasi shahar ahli uchun muhayyodir. Bozor-do'kondan tashqari qo'llarda ko'tarib yurib, to eshigingning tagigacha olib kelib sotishmaydigan ne'matning o'zi yo'q: meva-cheva deysanmi, sut-qatiq deysanmi, yog'-pishloq deysanmi, nima desang, hammasi bor.

Bizning ham bir mushtariyimiz bor, haftada, oyda bir, o‘ng qo‘lida bir chelak yog‘, so‘l qo‘lida bir savat tuxum, yelkasida tarozi, inqillab-sinqillab zinapoyalardan yuqori ko‘tariladi va bizga salom bergach, har gal:

— Qani, idish olib chiqing, — deydi.

Xotinim, bolalar, goho-goho esa mening o‘zim ham doimo uning oldiga chiqib, salomlashamiz, hol-ahvolini so‘raymiz, so‘ng olib kelgan narsalarini tomosha qilib, narxini surishtiramiz. U esa hamisha bir xil javob qiladi:

— Narxini o‘zingiz yaxshi bilasiz, idish olib chiqing.

Ana shunaqangi savol-javobdan so‘ng mushtariyimiz bizga bir necha girvonka yog‘ tortib, bir necha dona tuxum sanab berar, pulimiz bo‘lsa olar, bo‘lmaganda keyingi gal yo‘li tushganda olish uchun nasiyaga berib ketardi.

Bu kishining ismi Kabla Azim bo‘lib, qirq-qirq besh yoshlarda, baland bo‘yli kambag‘al va faqir eron ahlidan edi.

O‘tgan kuni Kabla Azim tag‘in yog‘ va tuxum olib kelgan edi. Yog‘ni naq Darbandning yog‘i, juda kam durda chiqadi, xuddi kahraboga o‘xshaydi, yeganda hididan to‘ymaysan, deya ta’rifladi; tuxumlarni ham Qurnashin qishlog‘idan olib kelgan emish, u yerning tovuqlari go‘yo chamanzorning gul-u chechagidan boshqa narsa emas emish.

Yog‘dan besh-olti manat, tuxumdan ham jinday qarzdor bo‘lib qoldik. Chunki o‘sha kuni mayda pulimiz yo‘q ekan (ya’niki, katta pulimiz ham yo‘q edi). Kabla Azim mayda-chuydasini yig‘ishtirib, ketish uchun dahlizga chiqdi, men ham xonaga kirib ketdim.

Birdan Kabla Azim Ardabildan yaqinda kelgan bo‘lsa, undan ardabillik fozil insonlardan biri Mirza Alakbar og‘aning hol-ahvolini so‘rash yodimga tushib qoldi (chunki Kabla Azim ham ardabillik edi).

Darhol dahlizga chiqdim, qarasam Kabla Azim yog‘ va tuxumni yerga qo‘yib, eshikning ortiga o‘tib bir kichkina qalamning uchini tishlaganicha o‘yga cho‘mib o‘tiribdi. Devorga hayvonga o‘xshash bir surat chizilgan, ostiga bir necha tik chiziq tortilgan,

yonida bir nechta dumaloq narsa. Men juda taajjubga tushdim, negadir avzoyim ham o'zgarib ketdi.

Kabla Azim vaziyatni anglab, men so'rab o'tirmasdan o'zi gap ochib qoldi:

— Mulla amaki, rostini aytsam, mening savodim yo'q. Hisob-kitoblar chalkashib ketmasin deb, xotira uchun devorga yozib qo'ydim.

Men qah-qah otib kulib yubordim. U ham jilmayib qo'ydi. Men undan, bu devorga yozganlaringning ma'nosi nima, deb so'radim.

Ma'nosi bundoq ekan: Kabla Azim devorga bir sigir rasmini chizib, uning ostiga beshta tik chiziq tortgani — bu mening sigir yog'idan besh manat qarzdor bo'lib qolganimni bildirar ekan. Dumaloq suratlar mening tuxumdan qolgan qarzimni bildirar emish.

Men tag'in kulib yubordim va bolalarimni chaqirib, shunday dedim:

— Bolalar, hoy bolalar, bu yoqqa keling!

Bolalar chopib kelishdi, ko'zlari devorga tushgan zahoti hayron bo'lib qoldilar va mendan so'ray boshladilar:

— Dada, buni kim yozibdi?

Men:

— Bolalarim, buni ham siz kabi bir bola yozgan, faqat farqingiz shundaki, u bolaning soqoli bor, sizning esa hali soqolingiz yo'q, — dedim.

Bolalar rosa yayrab kulishdi, ularning bu qadar yayrab kulishlarining, xursand bo'lishlarining kattakon bir sababi bor ediki, bu har bir o'quvchiga ayon bo'lsa kerak.

TO'Y

Mening bir odatim bor: qayerda qamoqxona nomini eshitsam, yetti yig'och nari qochib qolaman. Men qamoqxonadan juda qo'rqaman. Agar bir paytlar mening boshimga tushgan qazo-yu

qadarni hikoya qilsam va siz ham uni hafsala bilan o'qib chiqsangiz, mening qamoqxonadan qo'rqishga haqli ekanligimni bilib olasiz.

Bundan bir necha yil avval xolamning qizi Mahbubaning to'yi bo'ladigan bo'ldi. Qizni Akbar Og'a nomli qal'alik bir yigitga beradigan bo'lishdi. Yigit musofir bo'lib, bizning shaharda hech kimi yo'q edi, shuning uchun to'yni xolamnikida qilishadigan, hatto to'ydan so'ng yigit xolamnikida ichkuyov bo'lib qoladigan bo'ldi.

Xullas, unashtirish, nikoh... to'y taraddudi ko'rildi, mehmonlar chaqirildi, palov qozonlari osildi, qarindosh-urug'lar xolamga aytmasdan cholg'uchilarni ham olib kelishdi. Kechasi yotib, ertalab turib qarasam, xolamnikida qiyqmat-qoyim: kim soz chalgan, kim baqirib-chaqirgan, kim o'yinga tushgan, kim gapirgan, kim kulgan...

Xolamning katta qizi to'yga kelgan ayollarni boshqarardi. Erkaklarga qarab turishni menga tayinladilar va men bu ishga zo'r hafsala bilan kirishib ketdim, chunki men xolamning qizi Mahbubani juda yaxshi ko'rardim.

Peshin bo'lib qolgan edi. Hovli-haram odamga to'lib ketgan, men mehmonlarga peshvoz chiqib, sidqidildan "xush kelibsiz" deya ularni kutib olardim.

Shu orada menga xolam chaqirib qolganligini aytishdi, men hamma ishimni tashlab, uning oldiga yugurib bordim, qarasam, uning kayfiyati yo'q. Ma'lum bo'ldiki, u o'g'li Abdulkarim uchun qattiq qayg'urayotgan ekan.

Xolamning o'g'li Abdulkarim bundan besh-olti oy oldin narigi tomondan[1] kontrabanda yo'li bilan shevyot olib kelib, Javod degan tikuvchi bilan birgalikda yashirincha sotib turganida qo'lga tushib, bir yilga kesilgan edi.

Sho'rlik xolam shu qadar ko'z yosh to'kardiki, mening unga rahmim kelib ketdi. Qizingni erga bersang, uyingda to'y qilsang, butun shahar yopirilib kelsa-yu, sening tug'gan o'g'ling shunday bir shodlik kunida uni ko'ra olmasa, eshita bilmasa, qamoqxonadan

[1] **Narigitomon** — Ozarbayjonning Eron hududidagi janubiy qismi *(tarj.)*.

chiqib kelib singlisining to'yida o'ynamasa, shu ham insofdan bo'ldimi? Men:

— Xola, Xudo haqi, yig'lamagin. Men hoziroq borib Abdulkarimni qamoqxonadan olib kelaman, — dedim.

Xolam gapni eshitib sevinib ketdi va:

— Voy o'zginam sening qurboning bo'lay, — deya kelib meni quchoqlab oldi.

Xolamning katta qizi ham, tog'am ham meni qurshab olishdi va agar biror yo'lini bilsang, borib Abdulkarimni hech bo'lmasa bir kunga chaqirib olib kel, deya yolvora boshlashdi.

Sho'rlik xolam ham menga tavallo qila ketdi:

— Dard-u baloyingni olay, Jahongir, hech bo'lmasa bir kunga, hech bo'lmasa yarim kunga! Na iloj, atigi bir soatga bo'lsa ham Abdulkarimni chiqarib kel, singlisini to'yini bir ko'rsin-u qaytib ketaversin, boshqa na ilojimiz bor.

Xolamning ortidan boshqa xotin-xalaj, katta-kichik yolvora ketishdi:

— Nima ham derdik, hech bo'lmasa bir kunga chiqarishsin, kelib singlisini to'yini ko'rsin-u qaytib ketaversin.

Men "Xudo poshsho" deya ko'chaga chiqdim.

Bu fikr qayerdan ham miyamga kelganini o'zim-da bilmayman. Na qamoqxonaning yo'lini bilaman, na u yerda xizmat qiladigan biron-bir kimsani taniyman. Faqat uzoqdan kattakon, ikki qavatli bino qamoqxona ekanligini ko'rib yurardim. O'sha bino sari yo'l oldim. Olisdan qarasam, devorning burchaklarida, minoralar ostida miltiq tutgan rus soldatlari u yoqdan bu yoqqa borib-kelib turibdi.

Darvoza oldida bir-ikkita ozarbayjonlik kishi qamoqxona xizmatchisi bilan nimalarnidir gaplashishmoqda. Bir xayolim ortga qaytib ketmoqchi bo'ldim; bundan bir ish chiqishiga hech ko'zim yetmasdi. Axir, agar mahbus haqiqatan ham mahbus bo'lsa, qamoqxonada qolishi kerak, mahbus bo'lmasa, mensiz ham uni ozod qilishadi; yo'qsa men kim bo'libman va qanaqangi izzat-hurmatim borki, mening gapim bilan kontrabandachi bir mahbusni muddatidan avval ozod qilsalar.

Shu xayolda turgan edim, qarasam, darvoza tomondan bir xizmatchi men tomon shoshib kelyapti. U yonimga kelib, yuzlarimga sinchiklab tikilgach, avval bunday deb so'radi:

— Menga qara, sen Hasanali emasmisan?

Men taajublanib, cho'chinqirabroq:

— Qaysi Hasanali? — dedim.

Mening bu gapimni eshitgach, u ortimga o'tib jahl bilan:

— Qani, yur qamoqxonaga, — deb buyurdi.

Men hayron bo'lgancha unga tomon o'girilib:

— Birodar, sen adashyapsan shekilli, men Hasanali emas, Jahongir bo'laman; Kabla Vali o'g'li Jahongir bo'laman, — dedim.

Bu noinsofga mening ushbu gapim zig'ircha ham ta'sir qilmadi. U zo'rlik bilan qamoqxona hovlisiga olib kirdi. Men darvoza oldida oyoq tirab olgan edim, u zolim yonidan to'pponchasini olib menga shunaqangi o'qtaldiki, men to'pponchaning otilib ketmaganiga hayron qoldim.

U meni darvozadan ichkariga kiritib o'zi kabi boshqa bir xizmatchiga meni yomonlay ketdi; go'yoki men qorakamarlik Hasanali bo'lib, bugun qamoqxona hovlisida ariq qazib turgan joyimdan qochib ketgan, shaharni aylana-aylana endi qaytib kelgan emishman.

Men qorakamarlik Hasanali emasman, shirvonlik Jahongirman, otamning oti Kabla Vali, falon-piston ish qilaman, deya rosa yolvordim, qasam ichdim. Lekin hech foydasi bo'lmadi. Hovlida yurgan bir-ikkita qamoqxona xizmatchisi meni qurshab olib, qamoqxonaga eltishdi, baland narvonlarni tushirib, qamoqxonaga tiqishdi.

Oradan ancha o'tgach, qorong'i tushdi, chiroqlarni yoqib, mahbuslarning har biriga, shu jumladan menga ham bir parcha qora non bilan bir stakan shirin choy keltirishdi.

Choydan so'ng uxlagani yotdik. Men ham boshqa mahbuslar kabi ichiga somon solingan to'shakka cho'zilib, ustimga ko'rpaga o'xshash bir uvadani tortdim.

Ertalabki choydan so'ng meni qamoqxona idorasiga chaqirishdi. Jiyanim Mashadi Farzali qo'lida bir qog'oz tutganicha qamoq-

xona noziri bilan suhbatlashib o'tirar, nozirning oldida har xil qog'ozlar qalashib yotar edi. Nozir meni ko'rach, ruschalab otimni va otamning otini so'radi. Men javob qildim. Mashadi Farzali ham qo'l silkiganicha:

— Hoy inson, Xudo haqi, bu mening amakivachcham Jahongir bo'ladi, hech qanaqangi Hasanali-pasanali emas, — dedi.

Shu orada bir-ikkita qamoqxona xizmatchisi, shu jumladan kecha meni ko'chada tutib olib qamoqxonaga olib kelgan xizmatchi ham nozir huzuriga kirib kelib, bir-birlari bilan pichirlasha boshladilar.

So'ngra nozir menga yuzlanib:

— Ketaver, — dedi.

Ikkalamiz ham sevingancha tashqari chiqdik. Darvozadan tashqari chiqib sho'rlik xolamni ko'rgandan keyingina uning o'g'li Abdulkarim esimga tushdi, shunaqangi yomon ahvolga tushib qoldimki, xolam mening kecha bu yerda yotib qolishimning sababini so'rab qolsa, bu sho'rlik ayolga nima javob qilishimni ham bilmasdim; chunki men qamoqxonada uning o'g'lini ko'rmagan, u hatto esimga ham tushmagan edi. Keyin ma'lum bo'lishicha, to'ychilar men Abdulkarimni qamoqxonadan chiqarib kelishimni, xolamning bundan nihoyatda xursand bo'lib ketishini bir-ikki soat kutishibdi. Biroq xuftondan ancha o'tgach, kelinni tushirib kelishibdi, hamma narsa rasamadida o'tibdi.

Xullas, Abdulkarimni olib chiqish o'rniga o'zim o'sha kechani mahbuslikda o'tkazdim.

Qizig'i shunda ediki, mahbus bo'lishimning sababini hozirgacha o'zim ham bilmayman, shuning uchun ham biron-bir yerda qamoqxona ko'rib qolgudek bo'lsam, yetti yig'och nari qochaman.

SARTAROSH

Sodiq amakining o'n yashar o'g'li Mammadvalining ko'zlari og'rir edi. Bir kuni bolakay onasiga:

— Axir, Karbaloyi Qosimning o'g'li Ahmadning ham ko'zlari og'rir edi. Kecha Ahmad bilan ariq bo'yida o'ynab o'tirgan edik.

U burun qonatadigan o‘t bilan burnini qonatdi. Burnidan biroz qon kelgandan so‘ng Ahmadning ko‘zlari yaxshi bo‘ldi, — dedi.

— Bolam, bor, sen ham burningni qonata qol, — dedi Mammadvaliga onasi.

Mammadvali borib o‘tlar orasidan o‘sha tikanak o‘tni topdi, so‘l qo‘li bilan o‘tni burnining teshiklariga tiqib turib, o‘ng qo‘li bilan so‘l tirsagining ostidan bir musht urgan edi, Mammadvalining ham burnidan oqa boshladi.

Qon yarim soatcha oqdi. Mammadvali qon to‘xtasa kerak degan o‘yda burnining teshiklarini barmoqlari bilan to‘sib turdi, ammo qon to‘xtamadi. Oxiri onasini chaqirdi. Onasi ham qonni to‘xtatgani bir chora topa olmadi. Shu payt Sodiq amaki bozordan savatda et ko‘tarib kelib qoldi. Ayol Sodiq amakiga qarab:

— Voy adasi, buni qarang, nima qilsak ham Mammadvalining burnidan qon to‘xtamayapti; balki siz bir ilojini toparsiz, — dedi.

Sodiq amaki o‘g‘lining yoniga kelib, o‘ng qo‘lining barmoqlari bilan Mammadvalining burni uchidan siqib, qon oqqani qo‘ymay turdi. Ammo qon burnining ichida shishib, yana yo‘l topib oqa ketdi.

— Hoy adasi, yuguring bozorga, — deya qichqirdi xotini Sodiq amakiga, — Tez Usta Husaynga boring. Uning tabiblikdan xabari bor. Darhol borib unga ayting. Yo‘qsa bola adoyi tamom bo‘ladi, uyimiz kuyadi. Hayallamasdan, g‘izillab borib, g‘izillab qayting.

Sodiq amaki qo‘lining qonini ariqda yuvib tashlab, uydan chiqdi. Usta Husaynning do‘koniga yetib borganida usta bir mijozning boshini qirib bo‘lib, qonagan joylariga paxta bosmoqda edi.

Sodiq amaki do‘kon eshigida turib salom berdi. Usta Husayn uni ko‘rib, mijozlardan biri deb o‘yladi, shekilli, qo‘ltiq cho‘ntagidan bir ko‘zgu chiqarib Sodiq amakiga uzatdi. Sodiq amaki ko‘zguni olgach, ko‘zlarini yumganicha bir salavot o‘qidi, so‘ng oynani avval o‘ng yelkasiga, so‘ng chap yelkasiga tekizdi, shundan so‘ng uni yuziga tutib ko‘zlarini ochdi, so‘l qo‘li bilan qizg‘ish soqolini ko‘rgach, yana bir bor salavot o‘qiganicha ko‘zguni Usta Husaynga qaytarar ekan:

— Hoy Usta Husayn, bizning Mammadhusaynning burni qonayapti. Harchand qilsak ham qon to'xtamayapti. Xotin yalinib-yolvorib meni sening oldingga jo'natdi, balki sen biror chorasini toparsan,— dedi.

Usta Husayn Sodiq amakidan ko'zguni olib, avval uni do'koniga kiritib, supachaga o'tirgani taklif etdi. Sodiq amaki do'konga kirib o'tirgandan so'ng Usta Husayn uning yoniga keldi-da, o'ng qo'li bilan uning bo'rkini boshidan yuqori ko'tardi. Sodiq amaki pastdan yuqoriga, Usta Husaynga qaradi. Usta Husayn boshini sarak-sarak qilib:

— Evoh, voy-voy-voy! Rahmim keladi senga, Sodiq amaki! — dedi. — Bilmayman sening oxirating nima bo'ladi! Hoy inson, yo nomingni armani deb qo'y, xaloyiq sening musulmon emasligingni bilsin, yo agar musulmonman desang, og'ayni, sening bu qilib yurgan ishing musulmonchilikdan emas-da, axir. Sochingni shuncha o'stirib, qirdirmay yurgani uyalmaysanmi? Tag'in etmay-netmay Mammadvalining burnidan qon to'xtamayapti, deysan. Ollohning g'azabi seni tutgani bu. Yo'qsa burunning qoni to'xtamaganini qayerda ko'rgansan? Senga o'xshagan musulmonlar bundan ham battar balolarga giriftor bo'ladilar!

Shunday deya Usta Husayn kichkina bir mis jomchadagi sovuq suvdan quyib turib, sochi yumshalsin deya ikki qo'llab Sodiq amakining boshini ishqalar edi. Sodiq amaki ham boshini quyi solganicha jimgina o'tirardi. Usta Husayn qo'llarini etagiga artib, ustarani oldi-da, uni qayroqqa urib tezladi, so'ng bir necha bor qayishga surtib olgach, Sodiq amakining boshini qirar ekan, nasihatini davom ettirdi:

— Sodiq amaki! Musulmonchilikning shartlari juda og'ir. Kamdan kam kishi bu shartlarning barchasini uddalay oladi. Masalan, hech bilasanmi sochni o'stirib yurish naqadar katta gunohlardan biriga kirishini? Avvalo, boshini vaqti-vaqtida qirdirib yurmagan kishining uyida hech bir xayr-u barakot bo'lmaydi. Ikkinchidan, insonga turli-tuman balolar duch kelaveradi. Men senga ont ichib aytamanki, o'g'lingning qoni to'xtamasligi Xudovandi olamning qilgan gunohlaring oldidan senga jo'natgan

bir tanbehidir. Mendan senga nasihat, bir bechora, faqir odamsan, zinhor bunday gunohlarni qila ko'rma. Yo'qsa kattaroq falokatga yo'liqasanki, keyingi pushaymoning o'rniga tushmaydi.

Usta Husayn Sodiq amakining boshini qirib bo'ldi. Sodiq amaki bo'rkini boshiga qo'yib, Usta Husaynga ikki kapik uzatdi va:

— Usta, otangga rahmat! — dedi.

Usta Husayn pulni olar ekan:

— Sening ham otangga rahmat! — deb javob qildi.

Sodiq amaki uyiga yo'l oldi.

Hovliga kelib qarasa, o'g'lining qoni allaqachon to'xtagan. Mammadvali bir uzun cho'pni ot qilib minib olgan, hovlining goh u tomoniga, goh bu tomoniga chopar, har zamonda ot kabi bir kishnab ham qo'yardi.

SHARQ FAKULTETI

1920-yil sentabr oyining o'n ikkinchisida dorilfununning Sharq fakultetida imtihonlar tamom bo'ldi va ertasi kuni, ya'ni sentabrning o'n uchinchisida Abdulhasanzoda Xalil nomli yosh bir talaba dorilfununga kelib qarasa, kech qolibdi, chunki imtihondan o'tgan o'tib, o'tmagan qaytib ketibdi. Abdulhasanzoda biroz tashvishga tushib, dorilfununning kattakon va uzun yo'lagidan oqlangan devorlarga ilib qo'yilgan turli-tuman e'lonlarga ko'z yugurtirganicha Sharq fakultetiga kirganlarning ro'yxatini izlay boshladi. Lekin hali devorda bunday ro'yxat yo'q, chunki professorlar kengashi bugun kechqurun yig'ilishi kerak, qabul qilinganlar va qilinmaganlar ana shu kengashdan so'ng ma'lum bo'lar edi.

Abdulhasanzoda Xalil hech yerdan o'ziga tasalli topa olmay, professorlar xonasi tomon yurdi. Uning oldidan tibbiyot sho'basining professori, mashhur do'xtir Ivanov chiqib qoldi. Ma'lumki, Xalilning unga hech qanday ishi yo'q, unga faqat Sharq fakultetining professori, masalan, professor Sulaymonbek yoki shunga o'xshash boshqa birov lozim edi. Shuning uchun ham Xalil kirib xonadan o'shalarni so'rashga majbur bo'ldi. Shu payt Xalilning

baxtiga Sulaymonbek va Sharq fakultetining yana bir mudarrisi Ahmad Zaki (ko'p yaxshi odam edi) yo'lakka chiqib kelishdi va yosh yigitning dardidan xabar topishdi. Professor Sulaymonbek, endi hammasi hal bo'ldi, deya qat'iy javob qildi. Xalil qattiq yalinib-yolvora boshladi va mudarris Ahmad Zaki, insof qilmoqchi bo'ldimi, professor Sulaymonbekka yaqin borib, unga nimadir deb shivirladi. Bu ikkala pedagog bir necha daqiqa o'zaro pichirlashib turishgach, Abdulhasanzoda Xalilni chaqirdilar va mudarris Zaki afandi unga bunday dedi:

— Mana, o'zing ham ko'rib turibsanki, imtihonlar tugab bo'ldi, sen kechikib, vaqtni boy berib qo'yibsan. Lekin, to'g'risi, mening ham, professor Sulaymonbekning ham senga rahmimiz kelyapti, gapning dangali, agar sen imtihonga tayyor bo'lsang, biz senga shu yerda bir tema beramiz va sen shu yerda, bizning ko'z oldimizda ana shu temada bir insho yozasan. Agar uni yaxshi yozsang, sening layoqating bizga ayon bo'lsa, daftaringni kecha imtihon topshirganlarning dastasiga qo'shib Maorif Komissarligining komissiyasiga jo'natamiz. Agar sening yozganlaring ma'qul deb topilsa, unda qabul qilinishing mumkin.

Xalilning shodligiga chek-chegara yo'q edi.

Uchalasi ma'ruza xonasiga yo'l olishdi. Professor qora taxtaning oldiga borib, bo'rni ikki barmog'i orasiga qistirganicha turkcha[1] "Nima eksang, shuni o'rasan" deb yozdi. Yozib bo'lgach, Xalil tomon o'girilib:

— Shu temada bir maqola yoz. Ammo unchalik uzun ham bo'lmasin, qisqa ham bo'lmasin; masalan, to'rt sahifacha yozsang, shuning o'zi kifoya, — dedi.

Xalil "bosh ustiga" deya yozishga tushib ketdi. Professor Sulaymonbek va mudarris Ahmad Zaki afandi yo'lakka chiqib papiros cheka boshadilar.

Bizlarda shogirdga tema berib yozuv yozdirish odati ruslardan olingan.

Tema — biron-bir yozuvning, biror maqolaning sarlavhasidir; masalan, bir risolaning mavzusi terlama kasalligi deylik. Terlama

[1] **Turkcha** — ozarbayjoncha demoqchi *(tarj.)*.

kasalligi shu risolaning temasi hisoblanadi. Kimdir biror shoir haqida yoza boshlaydi; u shoirdan bahs yuritadi. O'sha shoir ushbu maqolaning ham sarlavhasi, ham temasi hisoblanadi. Kimdir biror masalani sarlavha qilib olib, uzundan uzoq bir kitob yozib tashlaydi; masalan, "Idorayi mustabidaning husni axloqqa ta'siri", "Bironbir mamlakat ob-havosining shu mamlakat aholisining fe'liga ko'rsatadigan ta'siri" va boshqa shunga o'xshash masalalar...

Birorta temani sarlavha qilib olib, shu haqda bir maqola insho etish, ya'ni berilgan shu temada birorta maqola yozish bir tomondan juda qiyin, ikkinchi tomondan juda oson ish. Qiyin jihati shundaki, ko'pincha nima deb yozishingni, qaydan boshlab, qayda tugatishingni bilmay qolasan. Tema faqatgina ikkita so'zdan iborat; ammo sen ikki mingta so'zni tizib tashlashing kerak. Masalan, faqat ikkitagina so'zni qarshingga qo'yib, qani yoz, deydilar: "Shoir Nabotiy va kitob". Qani, yoz-chi, nima deb yozar ekansan.

Rus maktablarida ikkinchi darajali[1] talabalarga, masalan, shunday tema beriladi: "Shoir Lermontov va Qofqoz tog'lari". Esimda bor, bir gal shunday tema berilgan edi: "Shoir Turgenev va rus xonimlarining sariq sochi..." Endi o'lsang o'l, lekin bir narsa deb yoza ko'r-chi. Turgenevning o'n yetti jild romanlarini oldingga xirmon qil, axtarib top-chi, u noinsof rus qizlarining sariq sochlarini qaysi jildida ta'riflagan ekan.

Keyingi paytlarda o'rta maktablarning bitirish imtihonlarida mana bundoq temalar ko'zimga tashlanib qolardi:

1. Zulmning natijasi.
2. Shoh Mammadali va Eronda mutribbozlik.
3. Hozirgi otalar va hozirgi bolalar.

Va hatto o'tgan yili Bokudagi madrasalardan birida (qaysiligini aytmayman) shunday bir tema berilgan edi: "Har kasa do'st dedim, dushmani jon o'ldi manga" va hokazo...

Ikkinchi tomondan olganda, biror-bir temada insho yozishdan oson ish yo'q; faqat biroz jur'atli bo'lishing, ba istilohi rus[2], biroz fantaziya ishlatishning kerak. Vassalom.

---

[1] O'rta maktab *(tarj.)*.

[2] **Ba istilohi rus** — ruslar aytganidek *(tarj.)*.

Biz o‘z suhbatimizga qaytsak, talaba Abdulhasanzoda Xalil — keyinchalik ma’lum bo‘ldiki — unaqangi ojizlardan emas ekan. Janobi professorlar papirosni lablariga qistirganlaricha yarim soatcha kezib, u yoq-bu yoqqa borib-kelganlaridan so‘ng, skameykaga o‘tirmoqchi bo‘lgan ham edilarki, Xalil ma’ruza xonasidan daftar ko‘tarib chiqdi va uni odob va ehtiyotkorlik bilan Sulaymonbekka qo‘sh qo‘llab uzatdi. Mudarris Ahmad Zaki afandi:

— Tugadimi? — deb so‘radi.

— Ha, — deb javob qildi yosh talaba.

Professor Sulaymonbek ko‘zoynagini yangidan dazmollangan oq ro‘molchasiga arta-arta daftarning birinchi sahifasini ko‘ziga yaqinlashtirib o‘qiy boshladi. Sahifaning oxiri qatorlariga yetganda keyingi sahifani ochish uchun varaqni asta-sekin ko‘tardi va navbatdagi sahifani ochib kula boshladi. Xalilning o‘zi ham jilmayib qo‘ydi. Lekin mudarris Zaki afandi professorning kulgisidan taajjubga tushdi, shekilli, u ham Xalilning yozuviga qiziqsinib boqa boshladi. Professor janoblari endilikda o‘zini tuta olmay baralla qahqaha urib yubordi va Zaki afandiga:

— Quloq sol, men boshidan o‘qib beraman, — dedi.

Yosh talabamiz Abdulhasanzoda Xalil berilgan tema bo‘yicha ushbu mazmundagi bir maqola yozgan edi:

“Tarix 1920, sentabr 13.

“Nima eksang, shuni o‘rasan”. Bizga ma’lumki, rahmatlik ota-bobolarimiz, nima eksang, shuni o‘rasan, deb chindan ham juda topib aytganlar; masalan, biz rostdan ham ko‘ramizki, bir dehqon avval yerga omoch soladi, so‘ngra uni yumshatish uchun dandana qiladi, shundan so‘ng yerga urug‘ sepadi, bir qancha vaqt o‘tgach, ushbu urug‘ unib chiqadi. Oradan yana ancha vaqt o‘tgach, ekin boshoq tortadi, boshoq to‘kilib ketguday bo‘lib sariq tusga kiradi. So‘ng dehqon uni o‘rib olib, bog‘larni xirmonga eltib yanchadi, bug‘doyini ajratib olib qoplarga soladi, somonini esa qishda molholga berish uchun somonxonaga tiqadi.

Qish pallasida somon chindan ham tilla bahosiga chiqib ketadi, lekin yozda unga birov qayrilib ham boqmaydi. Dehqon bug‘doyni

yuvadi, tozalaydi, quritadi va ulovga ortib tegirmonga olib boradi. Tegirmonda uni yaxshilib tortgach, un qilib uyiga olib keladi. Ayollar unni elak bilan elaydi, xamir qorib tandirga yopadi va non pishiradi. Bola-chaqa dasturxon boshiga yig'ilib, shu nonni yeydilar va Ollohga shukrona aytadilar. Shuning uchun ham bunday zahmatkashlarni Olloh o'ziga do'st tutadi va shuning uchun ham ota-bobolarimiz: "Nima eksang, shuni o'rasan", deganlar.

Endi sen bu yerda bug'doy ekkaning uchun ham bug'doy o'rding, lekin boshqa bir narsa ekkaningda edi, o'shani o'rarding: masalan, olaylik, sen bug'doy ekmay, tarvuz urug'ini eksang, unda...".

Ushbu so'zlarni o'qir ekan, Sulaymonbek ham, mudarris Ahmad Zaki afandi ham xaxolab kular, hatto bu asarning sohibi Abdulhasanzoda Xalilning o'zi ham jilmayib o'tirardi. Biroq voqea tarvuzga kelib taqalganda Xalil professor tomon egilib qo'rqa-pisa:

— Hali tugatganim yo'q, — dedi.

Bu gapni eshitib Zaki afandi shu qadar qattiq kula boshladiki, atrofdagi bir necha yosh talabalar tomoshaga to'planishdi. Professorlar xonasidan ham bir-ikki ko'zoynakli professorlar chiqib, kulayotganlarga hayron bo'lib tikilar edilar.

Zaki afandi dastro'moli bilan ko'z yoshlarini arta-arta Sulaymonbekka der edi:

— Qo'yib bersak bo'lardi, tarvuz voqeasini ham tugatsin edi.

Yosh talaba Abdulhasanzoda Xalil odamlar orasidan sirg'alib chiqib shu qadar tez g'oyib bo'ldiki, professor Sulaymonbek va mudarris Zaki afandi kulgidan to'xtaganlarida uning qayoqqa ketganini bilolmay qoldilar.

G'ALLA HAKIMI[1]

Bundan ikki yil avval Pirsaqqiz qishlog'iga, Hasanboynikiga mehmonga borgan edim. Bahor oxirlab qolgan edi. Ob-havo juda qulay kelib, tez-tez yomg'ir yog'ar, o't-o'lanlar tizzadan oshib

[1] **Hakim** — shifokor *(tarj.)*.

qolgan edi. G'alla ham yaxshi bitgan edi. Eng quvonchlisi shuki, Pirsaqqiz qishlog'ining atrofida chigirtka ko'zga tashlanmasdi.

Ammo, ma'lumki, dehqonning boshi tashvishdan chiqmaydi, uning ekin-tikiniga biron-bir balo, biron-bir ofat dorimagan yil kamdan kam uchraydi.

Men Hasanboynikida ikki hafta mehmon bo'ldim va u yerda bu yil g'allaning boshiga qandaydir bir balo yog'ilganini eshitib qoldim; ya'ni g'allaning boshog'i turgan yerida o'z-o'zidan qir-qilib tushar, dehqonlar harchand urinsalar ham bu sirning sababini topa olmayaptilar ekan. Dehqonlarning aytishlariga ko'ra, bugun yashnab turgan, bir-ikki haftada sarg'ayib yetilgach, o'rimga tayyor bo'ladigan sho'rlik boshoqlar, ertalab borib qarashsaki, go'yo qaychi bilan qirqilgandek yer bilan bitta bo'lib yotibdi-da! Taajjublisi shunda ediki, dalalarda na chigirtka ko'rinardi, na qurt-qumursqa. Sichqon borasida esa gap ham bo'lishi mumkin emas edi, chunki Pirsaqqiz qishlog'ining yerlari sug'orma yerlar bo'lib, bunday ekinzorlarga sichqonlar osonlik bilan yaqinlasha olmaydilar (suvda bo'g'ilib o'ladilar).

* * *

Qishloq ahli ushbu hol haqida shaharga xabar qilishgan ekan, men qishloqqa borgan kunning ertasiga g'alla hakimi kelyapti degan ovoza tarqaldi.

Hakimning bemalol joylashishi uchun qishloqda munosibroq joy yo'q edi, shuning uchun g'alla hakimi Hasanboynikiga tushadigan bo'ldi.

Hakim sariq soch, sariq soqol bir kishi bo'lib, ikki nafar xizmatchisi bilan kelib avtomobildan tushishdi, uy sohibi va men bilan tanishdi, yengilgina choy-nondan so'ng qishloqliklar bilan birgalikda ekinlarni ko'rgani ketishdi.

Ular ketgach, Hasanboy mehmonlar uchun dasturxon tuzashga kirishib ketdi. Avval bir qo'chqor so'yishdi. Biroq men bu jonivorni qayerdan olib kelishganini, kim keltirganini ko'ra olmadim. So'ngra ma'lum bo'lishicha, hatto sharob ham olib kelish uchun qo'shni armani qishlog'iga odam jo'natishibdi. Men ham bularni

bir chekkadan tomosha qilib turar, hakim yo'lida chekilayotgan bu tashvishlarni ich-ichdan tasdiqlar edim va bu ko'nglimga yoqib tushgan edi. Chunki ilm va bilim egalarining yo'lida tashvish chekish hamisha vojib va mustahiq hisoblanadi, ayniqsa, bu olimning ilmi va bilimidan qishloq ahli manfaatdor bo'lsa!

* * *

Ikki soatlardan so'ng Hasanboyning ayvonidagi ziyofat stoli aziz mehmonlarga muntazir edi.

Olisdan avtomobil tovushini eshitib, mehmonlar qaytib kelishayotganini bildik. Bir necha daqiqadan so'ng otsiz ajdaho arava hovliga kirib keldi. G'alla hakimi avtomobilning ichida tik turib olganicha biz tomonga qarab "Urra! Urra!" deya qichirar edi. Ular avtomobildan tushib, bizning yonimizga chiqib kelishdi. Qishloq ahli ham birma-bir hovliga to'plana boshladi. Hakim qog'ozga o'ralgan allanarsani tutganicha nuqul "spirt", "spirt" der edi. Yaqin borib qarasak, qog'ozning ichidagi narsa Ollohning g'alati bir maxluqi bo'lib, biroz chayonga, biroz qirqoyoqqa, biroz qo'ng'izga, biroz buzoqboshiga o'xshab ketadi, lekin ularning hech biri ham emas.

Hasanboyning uyidan spirt topilmadi. Qishloqning boshqa xonadonida uning bo'lishi ham mumkin emasdi. Va hakim spirt o'rniga stakanga armani qishlog'idan bugun ichish uchun keltirilgan aroqdan biroz quyib, qog'oz ichidagi hasharotni unga soldi. Sho'rlik maxluq aroq ichida biroz suzinqiragandan so'ng to'ntarilib qoldi, oyoqlari osmondan kelgancha jonsiz, harakatsiz yotaverdi.

* * *

Hakimning bayonotiga ko'ra g'alla boshoqlarini qirqib yerga to'kayotgan maxluq mana shu qurt ekan.

Voy la'nati!!!

Hamma ochiqqan edi; xususan daladan qaytganlar. Taom tortildi va Hasanboy avval hakimning sog'ligiga qadah ko'tardi. Hasanboydan so'ng xizmatchilardan biri ham nutq irod etib, ilm

va bilim arbobining sog'ligi uchun ichdi, biz ham unga qo'shildik. So'ng hakim o'rnidan turib, ichiga qurt solingan stakanni yuqori ko'targanicha hayvonot ilmini shaharlashga tushdi. U avval jonivorlarni bo'limlarga, bo'limlarni sinflarga bo'ldi. Avval sut emizuvchi jonivorlar, so'ng qushlar haqida, to'rtinchi sinfda ikki umrlilar to'g'risida gapirdi, keyin bir faslli jonivorlar haqida biroz ma'lumot bergach, qurtlar va g'umaklar bo'limiga o'tib, aroq ichidagi qurtga ishora qilganicha, uning tana tuzilishini izohlay boshladi:

— Janoblar, bir qarang. Bu jonivorning tanasi o'rgimchak kabi ikki qismdan tashkil topgan. Aksar hollarda g'alla ekinlari orasida kun kechiradi. Boshi bilan ko'kragi oldida olti juft mo'ylovi, olti juft og'iz qismi va besh juft oyog'i bor. Qorin qismi uzun bo'lib, unda joylashgan oyoqlar juda ingichka va zaifdir.

Hakim qurtning qobig'i haqida, sezgi a'zolari, yeydigan narsalari, chiqaruv a'zolari to'g'risida gapirib o'tgandan so'ng, uning og'ziga cho'p uzatib, ushbu la'nati jonivorni chigirtkadan so'ng g'allaning eng ashaddiy dushmanlari safiga qo'shib qo'ydi. Va u ma'ruzasini tugatgach, shishaning og'zini mahkam bekitib, salobat bilan yonidagi tokchaga qo'ydi-da, o'zining niyati ushbu nodir jonivorni markazga eltib, u yerdagi o'simlikshunoslik ilmiy-tekshirish laboratoriyasida o'rganib chiqish hamda unga qarshi kurashni tashkil qilish ekanligini aytdi.

Shuni ham qayd etishim kerakki, hakim o'z ma'ruzasi davomida qo'lidagi jonivorni goh Hasanboyning tumshug'iga, goh mening tumshug'imga, goh xizmatchilarning tumshug'i ostiga olib borar edi. Shishada oyoqlari osmondan kelib, to'ntarilib qolgan jonivorning jasadi esa aroq ichida hamon qalqib turar edi.

* * *

Qishloq ahli to'planib olib bizning bu ziyofatimizni tomosha qilib turardi. Ularning ba'zi birlari jimgina eshitib o'tirar, ba'zi birlari piq-piq kular edi. Ular xursand bo'lganliklaridan kulayotganmidilar yoki boshqa bir sabab bormidi, bunisini farqlay olmadim. Mening o'zimga keladigan bo'lsak, rosti, men juda xursand

edim. Yo‘qsa nima qilay? Hasanboynikida kabobni chindan ham juda qoyil qilib pishirgan edilar; buning ustiga, Qorakand sharobi ham dasturxonda muhayyo edi. Bu qirilib bitkur qurtmi yo hashoratga — endilikda anavi aroq ichida muallaq oshib yotgan, dehqonlarning nonini indamay-netmay yarimta qilmoqchi bo‘lgan jonivorga kelsak, albatta, uni biron-bir vosita bilan qirib yo‘qotish savob ishlarning eng savobidir.

Biroq hozirgi ziyofatdan bu muqaddas maqsad amalga oshadimi yoki yo‘q — buni yolg‘iz misli va monandi bo‘lmagan Haq taboraku taolo biladi, xullasi kalom, natija qanday tugasa tugasin, hozircha stol ustidagi qo‘chqor kabobi va Qorakand sharobi — eng naqdi mana shular edi.

Bu — mening ko‘nglimdan kechgani.

Qolgan ziyofatdosh birodarlarim hozir nimani his qilsalar qilaversinlar, bu bilan mening ishim yo‘q.

* * *

Avtomobil na’ra tortganicha ayvon oldiga kelib to‘xtadi. G‘alla hakimi o‘rnidan turib, ketishga hozirlana boshladi.

— Xayr, yaxshi qoling.

— Xayr, sog‘ bo‘ling.

— Olloh umringizni uzoq qilsin.

— Salomat qoling.

— Xayr.

— Xayr...

Avtomobil na’ra tortganicha ko‘chaga chiqib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Ammo shu payt Hasanboyning ayvonidan bir qichqiriq eshitildi.

— Hoy birodarlar! Birodarlar! Hakimning qurti qolib ketibdi!.. G‘alla qurti qolib ketibdi! Hoy og‘ayni! Chaqir uni, yuguringlar hakimning ortidan! Avtomobilni quvib yetinglar!..

Xullas, avtomobil hovlidan chiqishi bilanoq, mundoq qarasak, g‘alla qurtining shishasi, qurt ham uning ichida, esdan chiqib ayvon tokchasida qolaveribdi.

Ikki yigit sakrab otga mingancha avtomobilni quva ketdilar. Biroq avtomobilni kashf etganning padariga ming la'nat, koshki ot quvib unga yeta olsa.

Xoh Hasanboy, xoh mening o'zim, xoh qishloq ahli va boshqa xizmatchilar ko'nglida shunday bir ishonch bo'lishi kerak edi va haqiqatan ham shunday bir ishonch bor ediki, g'alla qurtini aroq shishasida saqlagan, uning qadrini biladigan g'alla hakimi, hayvonot olamining mutaxassisi qancha yo'l bosib qo'ygan bo'lsada, shishani bu yerda unutib qoldirgani yodiga tushib qolsa, darhol avtomobilni ortga buradi, hech bo'lmaganda qurt uchun boshqa birovni jo'natadi.

* * *

Men Pirsaqqiz qishlog'ida, Hasanboynikida yana uch kun turdim. Hakimning aziz va nodir jonivori Hasanboyning ayvonidagi tokchada, aroq shishasining ichida hamon to'ntarilganicha qalqib yotardi.

* * *

O'tgan yili Hasanboy Bokuga, biznikiga mehmon bo'lib kelgan edi, uning aytishiga qarganda, keyingi bir-ikki oy mobaynida aroq ichidagi haligi g'alla qurti buzilib, uvadalana boshlabdi. Oxiri Hasanboy bu shishani aroq-parog'i, qurt-purti bilan tashqariga uloqtirishga majbur bo'lsa kerak va shunday ham qiladi.

HAMMOLLAR

Milodiy tarixning 1921-yilida — Bokuda bolshevik inqilobining ikkinchi yili bo'lib, yangi kommunistlar hokimiyati o'z kuch-qudrati va e'tiborini mamlakatni tiklash ishiga sarflayotgan bir davrda — men qarindoshlarimizdan birining uyida yashar edim. Avvalo o'zimga alohida bir joy topish fikriga tushdim.

Do'stlarimning yordami va idoralarning soyayi davlatida joy ham topdik; biroq menga berilgan uch xonali uyning na yozuv

yozish uchun stol-kursisi, na boshqa bir qulayligi bor edi. Ularni qaydan topsa bo'larkin? Na sotib olgani bir do'kon-bozor bor, na dallolga bu narsalarning ustiga ortiqcha bergani mo'mayroq pul bor.

Xullas, stol-kursi tashvishidan meni qutqargan ham tanish idoralardan biri bo'ldi; ya'ni Bolshoy Morskoy ko'chasidagi 13-sonli hukumat omboridan ushbu narsalarni olishim uchun (albatta, tekinga) bir qog'oz yozib berdi; ro'yxatda ikki javon (kitob javoni va oziq-ovqat javoni), ikkita kursi (katta va kichik), ikkita karavot (biri temir, biri taxta), bir dona chovgum (samovar o'rniga) va bir dona rus qozoni (sho'rva qaynatish uchun) bor edi.

Shuni ham ta'kidlab o'tishim kerakki, ma'mur mening qo'limga bu qog'ozni berar ekan, shunday dedi:

— Ombor mudiriga bu qog'ozni ko'rsatayotganingda aytki, qalang'i-qasang'i narsa bermasin... yaxshi-yaxshilaridan bersin!

Bu so'zlar meni biroz o'ylantirib qo'ygan bo'lsa ham, "bosh ustiga" deya tashqari chiqdim va Bolshoy Morskoy ko'chasidagi o'sha omborni izlab topdim. Ombor mudiri sariq soqolli bir kishi ekan. Unga qog'ozni ko'rsatdim. Mudir qog'ozni olib, boshini sarak-sarak qilgancha o'qib chiqdi va lom-mim demay qo'liga bir qalamni olib, qog'oz ustiga nimalarnidir yozdi-da, uni menga qaytarib berar ekan:

— Yo'q, — dedi.

Men ko'chaga chiqib qog'ozni o'qib ko'rsam, unda qizil siyoh bilan: "Ombordagi bu narsalar tugagan", — deb yozilgan ekan. Qog'ozni uni bergan idora kotibiga qaytarib keltirib berdim, u qog'ozni o'qir ekan, kulib qo'yib:

— Ayyorlik qilyapti, — dedi va ushbu qog'ozga u ham qizil siyohda nimalarnidir yozib menga uzatar ekan:

— Bu qog'ozni unga eltib ber va jihozlarni uyingga olib ket, — dedi.

Men:

— Axir, mudir bu narsalar yo'q deb aytdi-ku, — dedim.

Kotib tag'in jilmayib:

— Ayyorlik qilyapti, — dedi.

— Xo'sh, nima qilish kerak, chorasi nima? — deb so'radim.

Kotib biroz o'ylanib turgach, menga qarab:

— Agar mudir bermoqchi bo'lmay, oyoq tirab olsa, sen unga, omborni o'zim ag'dar-to'ntar qilib ko'raman, deb ayt, — dedi.

Ko'chaga chiqdim, juda ochiqqan edim, uyimga kelib, bir parcha non-pishloq yeb oldim va o'g'limning onasi bilan birgalikda Bolshoy Morskoy ko'chasiga yo'l oldik.

Bu safar ham mudir qog'ozni olib, boshini sarak-sarak qildi, biroz o'ylanib turgach:

— Bo'pti, nimaiki topilsa, beraman, lekin bu narsalarning ko'pchiligi bu yerda yo'q, — dedi.

Mudir ruchka bilan siyohda yozilgan ushbu ro'yxatdan qozonning ustiga chizib "yo'q", dedi, so'ng javonlardan birining ustiga chiziq tortar ekan, bir menga boqdi, bir qog'ozga. Nihoyat, ombor mudirining bizga rahmi keldi, shekilli, o'rnidan turib:

— Ketdik, — dedi.

Bir xonadan ikkinchisiga o'tdik, undan uchinchisiga; mudir ham, biz ham o'ng-u so'lga razm solib borardik, biroq mening ro'yxatimda yozilgan narsalarning hech birini bu yerda uchratmadik. Menga lozim bo'lgan narsalarning hech birini topa olmagan ombor mudiri meni to'rtinchi xonaga boshlab borib, bunday dedi:

— Ko'rib turibmanki, sen obro'-e'tiborli, keksa kishi ekansan, kelib-ketishdan ham charchading. Bu yerdagi narsalarni xazinadorning muovini kecha saralab qo'yib ketgan, menga, hech kimga berma, deb tayinlagan edi. Men jur'at qilib bu narsalarni sizga beraman; mana bu shkafni, mana bu stolni, mana bu xontaxtani ola qoling. Istasangiz, mana bu stolni ham ola qoling, ham stol, ham karavot vazifasini o'taydi, ustiga gilamcha solib o'tirsa ham bo'ladi. Chovgum o'rniga mana bu likopchalardan besh-oltitasini berishim mumkin.

Savdomiz pishdi va bu narsalarni ko'tarib ketgani hammol chaqirmoqchi bo'ldik.

Bolalarning onasi bilan ko'chaga chiqdik va u yerda turgan hammollardan birini gaplashib olish uchun chaqirdik.

Biz bir hammol chaqirgan edik, lekin shu zahotiyoq ustimizga bir gala hammol yopirilib keldi. Ularning hammasi Iravon kurdlaridan edi. Biz avval narsalarni ko'rsatib, uyga eltishni savdolashib bo'ldik, ammo taxminan o'n besh-yigirmatacha hammollar bu narsalarni ko'rib, bizga quloq ham solmay ularni bir-birlariga ko'maklashgancha ko'chaga tashib chiqara boshladilar. Uzoqroqda turgan hammollar ham yopirilib kelib, har biri bizning narsalarni o'zicha ko'tara boshladi. Lekin bu narsalar hamma hammolga ham yetmasdi, shuning uchun, masalan, bitta javonning har bir oyog'idan va eshigidan bir hammol yopishgan edi. Biz bular nima qilayotganini anglamay qarab turardik.

Ular nega bunaqa qilishyapti va bu narsalarni qayoqqa olib borishmoqchi? Biz ular bilan hazillashayotganimiz yo'q edi va agar ular savdolashmasdan bu narsalarni uyimizga olib borsalar, bizdan qancha pul talab qilishlarini ham bilmasdik; shuning uchun ham ilgari gaplashib olib, keyin narsalarni ko'tarishlari lozim edi. Lekin menga e'tibor beradigan biror kimsa yo'q, narsalarning bir nechasini hammollar allaqachon yelkasiga ortib olishgan edi; yerda qolgan narsalar ustida ham hammollar shunaqangi torta-tort, shunaqangi ur-sur qilishayotgan ediki, meni hech kim tinglamay ham qo'ygan edi.

Ombor mudirining yoniga kelib, bu qanday mojaro, nega bu yerning hammollari kishiga azob berishadi, deb so'radim. Lekin ombor mudirining o'zi ham yelkalarini qisib-qisib qo'yar, bir narsa qilishga ojiz edi.

Jihozlarni yelkalariga ortib olgan hammollar bizning oldinga tushib yo'l boshlashimizni kutgancha qator bo'lib turishdi. Men chorasiz qolib, ularga, agar gapimga quloq solmasangiz, xizmatingizning ham keragi yo'q deb aytmoqchi bo'ldim. Shu gap og'zimdan chiqishi bilanoq hammollardan bir nechasi xo'rozlanganicha ustimga bostirib keldi va baqira ketishdi:

— Hoy xo'jayinlar! Biz bilan hazillashib bo'lmaydi. Bizni majbur qila olmaysiz. Biz sizning xizmatkoringiz emas, hammol bo'lamiz. Bizni tekin ishlatishga haqqingiz yo'q. Qani, bizni

xafa qilmasdan, oldinga tushing. Yo'qsa o'zingizga yomon bo'ladi!

Toza baloga qoldik-ku! Biror melisami, ma'murmi chaqiraylik deb atrofga jovdiraymiz, lekin hech kimsa yo'q. Xotin ham, axir bu yerda atigi besh dona ashyo bor, shu besh dona ashyoni yigirma beshta hammol uyimizga ko'tarib eltsa, biz bu yigirma beshta hammol talab qiladigan pulni topa olamizmi yoki yo'q, deya tushuntirib ular bilan murosaga bormoqchi bo'ldi.

Yo'q, Ollohning bu bandalariga ushbu dalil-isbot ham kor qilmadi; hatto mening o'zim baqirib-chaqirib yolvora boshladim:

— Birodarlar, Xudo xayringizni bersin, biz bu narsalardan voz kechdik. Ularni o'z uyingizga olib keta qoling.

Bunga javoban Ollohning ushbu bandalari shunaqangi bir na'ra tortib, shunaqangi shovqin-suron ko'tarishdiki, Bolshoy Morskoy ko'chasidan o'tayotgan yo'lovchilarning hammasi to'xtab qolib, bizni tomosha qila boshlashdi.

Yo birodar, boshimizga tushgan bu qanday kulfat bo'ldi? Xotinimga sekingina:

—Yur, ketdik, — dedim.

Hammollarning oldiga tushdik. Torgovaya ko'chasining muyulishida oldimizdan bir necha avtomobil chiqib qoldi; orqadan ham avtomobil tovushi kelar edi. Ko'chaning o'rtasidan bir to'p askar qo'shiq aytganicha o'tib bormoqda edi. Yo'lak o'tib-qaytayotgan kishilar bilan shu qadar tirband ediki, hammollarning atigi bitta-ikkitasi ko'zga tashlanar, qolganlari ko'rinmas edi. Krasnovodskaya ko'chasining muyulishiga yetib borishimiz bilanoq sekin xotinning qo'lidan tutib, yashirincha so'l tomondagi bir darvoza ichiga o'zimizni urdik. Hovlida uch-to'rt bolakay o'ynab o'tirar edi. Ulardan biri bizdan:

— Kimni izlayapsiz? — deb so'radi.

Men hovli qorovulini so'radim. Chekkaroqda o'tirgan bir rus ayoli:

— Sizga nima kerak? — deb so'radi.

Men:

— Doktor Vasilev shu yerda turadimi? — dedim.

Ayol:

— Bu hovlida hech qanaqa doktor turmaydi, — deb javob berdi.

— Bizga shu yerni aytishdi-ku?

Ayol:

— Nechanchi nomerni aytishdi? — deb so'radi.

— O'ttiz ikkinchi nomerni, — javob qildim men.

— Bu qirq beshinchi uy, siz anavi tomonga borishingiz kerak.

Shubhasiz, bularning hammasi hammollarni ko'zdan yo'qotish uchun o'ylab topilgan hiyla edi.

Shunaqangi bahona bilan bu yerda besh-o'n daqiqa alahsib turgach, o'g'ri kabi sekin darvozadan chiqdik. Ko'cha hamon odam bilan tirband edi. Sekin so'l tomonga o'tib, dengiz bo'ylab xiyobonga yetib keldik. Bu yerda yarim soatcha aylanib yurib, dengiz manzarasi ta'sirida ancha o'zimizga kelib oldik va eranqaran uyimizga qaytdik.

O'zimizga kerakli jihozlarni esa undan-mundan topdik, ba'zilarini Qubo maydonidan sotib oldik; ammo men keyin ham anchagacha ko'chada hammol ko'rib qolsam, cho'chib o'tadigan bo'ldim.

Endilikda bu ehtiyotkorlik unut bo'lib ketgan; darvoqe, dunyoda kimdandir qo'rqish lozim ekan, Ollohning ojiz bandasi bo'lmish hammol toifasidan qo'rqishga hech bir qo'rqoq kishining haqqi yo'q va haqqi bo'lmasligi ham kerak.

XAVOTIR

Tiflisdagi "Islomiya" mehmonxonasining uchinchi nomeriga ikki musofir tushgan edi; ikkalasi ham naxchivonlik bo'lib, biri bazzoz Mashadi Haydar, ikkinchisi esa ko'chada savdo-sotiq qiladigan Mashadi G'ulomhusayn edi.

Shu kuni mehmonxonaga yana bir kishi kelib tushdi, bu kishi shirvonlik Mashadi Mammadbag'ir bo'lib, boshqa nomerlarda joy

yo‘qligi uchun yuqorida nomi zikr etilgan mashadilarning roziligi bilan ushbu uchinchi nomerga yana bir karavot qo‘ydirib, ularga sherik bo‘ldi.

Yevropada urush ketayotganligi sababli shahar ur-yiqit bo‘lib, odam dastidan mehmonxonalardan joy topib bo‘lmasdi. Shuning uchun ham keng-mo‘l va tinchgina joy topish mushkul bo‘lib, yuqorida aytganimiz kabi tor-u tang joyga ham hamma g‘ing demay chidar edi. Narx-navo ham shunga yarasha edi.

Uchinchi musofir Mashadi Mammadbag‘ir aslan ma’rifatparvar bir kishi bo‘lib, Tiflisda ancha-muncha tanishlari bor edi. Shu kuni kechqurun uni ko‘rgani musulmon ma’rifatparvarlaridan bo‘lmish ikki yigit keldi; biri tabrizlik gazeta muxbiri Mirza Rizo bo‘lib, xiyla ma’lumotli va serg‘ayrat yigit edi; ikkinchisi shoir va adib Hasanbek Ganjali bo‘lib, ruscha tahsil ko‘rgan, musulmonchadan ham o‘ziga yarasha saboq olgan bir zot edi.

Uchinchi nomerga bir samovar so‘ratdilar va bu besh nafar og‘a qisqa muddat ichida bir-birlari bilan mehribonlashib qolib, shirin suhbatga tushib ketdilar. Yarim soat o‘tar-o‘tmas naxchivonliklarni ko‘rish uchun uchinchi bir kishi kirib keldi, bu kishi muallim Mirza Mammadquli edi.

Og‘alar suhbat va choy ichish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Mirza Mammadquli choyiga qand solib, hamshaharlariga yuzlanganicha dedi:

— Mashadi G‘ulomhusayn, men uydan juda xavotirdaman. Naxchivondan ukamdan o‘g‘lim Sodiqning og‘rib qolgani haqida xat olganimga bir hafta bo‘ldi. O‘g‘lim sho‘rlik bolaligidan zaifroq edi, lekin bu xatni olib, rosti, qo‘rqib ketdim. Avval men ham xat yozib yubordim, so‘ng chidab turolmay bir telegraf ham jo‘natdim. Hozirgacha na xatning javobi bor, na telegrafning. Sizning bu yerga kelganingizni eshitib, balki biror narsa bilarsiz degan umidda sizdan so‘ragani keldim. Balki bizning Ja’farni bozor-o‘charda ko‘rib qolgandirsiz yoki uyimizdan biron gap eshitgandirsiz. Qisqasi, juda ham xavotirdaman.

Mashadi G‘ulomhusayn va Mashadi Haydar afsus bilan Naxchivonda Sodiqning og‘rib qolgani haqida eshitmaganliklarini,

Ja'farni ham bozorda ko'rmaganliklarini, umuman, bu gapdan xabarlari yo'qligini aytishdi.

Og'alar ana shunday suhbatlashib turgan paytlarida eshik bir ochilib, tag'in yopildi. Nomerda gaplashib o'tirganlardan bir-ikki kishi bunga e'tibor bersa bergandir, ammo boshqalar buni sezganlari ham yo'q, ko'rganlar ham bunga ahamiyat berishmadi.

Eshikni sekin ochib-yopgan kimsa politsiya ma'muri bo'lib, u kiyimlarini o'zgartirib, odamlar orasiga aralashib yurar, o'zining nima ish bilan mashg'ul ekanini boshqalarga sezdirmaslikka harakat qilardi. Bu kimsa bundan bir soat avval ko'chani kezib yurarkan, "Islomiya" mehmonxonasiga to'plangan musulmonlar uning diqqatini tortgan, u ushbu yig'ilish bekorga bo'lmasa kerak, uchinchi nomerda yig'ilganlar siyosiy yoki milliy masalada suhbatlashib, tadbirlar belgilab olishayotgan bo'lsa kerak, ular orasida keskinroq masalalar bilan shug'ullanadigan ba'zi yoshlar ham bo'lsa kerak, degan shubhaga borgan edi. Bu hukumat ma'muri eshikni qiya ochib, ichkaridagi og'alarni ko'rgan bo'lsa-da, ammo, tabiiyki, ular qayerdan kelgani va nima haqida gaplashayotganliklarini bila olmadi, dahlizda uzoq turib qola ham olmasdi, chunki mehmonxona xo'jayini yoki xizmatchilari uni ko'rib, "sen kim bo'lasan, bu yerda nima qilib yuribsan?" deb surishtirib qolishlari mumkin edi. Shu sababli ma'mur asta-sekin ko'chaga yo'l oldi.

Uchinchi nomerdagi og'alar naxchivonlik Mirza Mammadqulining xavotirga tushib qolganidan juda afsuslanishdi; chunki ular bu sho'rlik juda qattiq xavotirda ekanligini ko'rib turardilar. Shirvonlik Mashadi Mammadbag'ir ikkinchi stakanini oldiga tortib, Mirza Mammadquliga yuzlanganicha dedi:

— Mirza, men sendan nima o'tayotganini bilib turibman: chunki bunday savdo mening ham boshimga tushgan. Chindan ham xavotirga tushishdan yomoni yo'q, Xudo hech kimga buni ko'rsatmasin. Bultur, ya'ni taxminan yetti-sakkiz oy avval, yoz fasli edi, bolalarni qishloqqa jo'natib yuborib, o'zim shaharda qolgan edim; havoning issig'iga chidab bo'lmasdi. Kechqurun choy ichib o'tirar

edik. Adib Hazmiy ham biznikida edi. Eshik ochilib, navkarimiz Qosim kirib keldi. Men sapchib turib: "Qosim, nima gap?" deb so'radim. U: "Og'a, xonim sizni tezda qishloqqa yetib kelsin deb aytdi", — dedi. "Nega, nima bo'ldi? Rostini ayt, bolalardan birontasi kasal-pasal bo'lib qoldimi?" "Yo'q, yo'q. Qo'rqmang, og'a, hech kim kasal bo'lgani yo'q, faqat kichkina o'g'lingiz kecha ertalabgacha uxlamay, yig'lab chiqdi. Bilmadim, biror joyi sanchganmi yo boshqami. Qayerda bo'lsa ham tezda etib kelsin deb, xonim meni sizga jo'natdi". Men: "Qosim, biron gap bo'lgan bo'lsa, mendan bekitayotgan bo'lmagin tag'in. Yashirmay, to'g'risini ayt. Balki bolaga jiddiyroq biron narsa bo'lgandir?"– dedim. Lekin navkar menga shundan boshqa hech narsa demadi. Ammo insonning o'z fahmi-farosati bor-ku, axir! Men o'z-o'zimcha, agar chindan ham biron qo'rqqulik narsa, biron-bir baxtsizlik sodir bo'lmasa, xotinim meni bu yerdan qishloqqa chaqirib yurmasdi, deb o'yladim; axir, qishloqdan qaytganimga hali bir hafta ham bo'lgani yo'q edi. Xullas, harchand o'ylasam ham, bir qarorga kela olmadim. Darhol bitta fayton ushladim. Qosimni ham yonimga olib yo'lga tushdim. Yo'lda qorong'i tushib qoldi. Kallamga ming xil xayollar keladi: goh, bolaga bir gap bo'lgandir, deb o'ylayman, goh, balki onasi og'rib qolgan-u, navkar mendan yashiryapti, degan o'ylarga boraman. Xullas, qishloqqa borguncha bo'larim bo'ldi; hayot-madorim qurib qoldi. Oxiri borib ko'rsam, nima bo'pti deng, kechasi bolaning qorni biroz sanchibdi, bir choy qoshiq yog' ichirgan ekanlar, tuzalib ketibdi. Xullas, xavotirdan yomonroq narsa yo'q.

Mashadi Mammadbag'ir gapini tugatgan zahoti o'tirganlarning hammasi bir ovozdan:

— To'ppa-to'g'ri, dunyoda xavotirdan ham yomonroq narsa yo'q, — deyishdi.

Shoir va adib Hasanbek Ganjali oyoqqa turib, stakaniga ikki bo'lak qand soldi-da, unga choy quya turib dedi:

— Sen-ku hali uni aytasan, Mashadi, lekin men chekkan xavotirni Xudo hech kimning boshiga solmasin. Uch yoki to'rt yilcha ilgari, anig'i yodimda yo'q, bizning Baxshalibek Ganjaga

ketadigan bo'ldi. Vokzalga olib chiqib, bilet olib berdim, u jo'nab ketdi. Ertasi kuni Tiflisga, temir yo'lda bir poyezd qulab tushibdi, yo'lovchilardan bir nechasi jarohat olgan, halok bo'lganlar ham bor, degan xabar keldi. Buni eshitib jon-ponim chiqib ketdi. Garchi qaysi poyezdning qulagani ma'lum bo'lmasa-da, men nuqul bu Baxshali mingan poyezd bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Darhol Ganjadagi ukamga telegraf qildim. Olloh ishimni o'ngladi, javob o'sha kuniyoq yetib keldi. Baxshalibekning o'zi: "Xavotir olma, men Ganjaga sog'-salomat etib qildim", — deb javob qaytargan edi. Keyin ham qaysi poyezd — Bokuga kelayotgan poyezd qulaganmi yoki Bokudan ketayotgani — bunisi noma'lumligicha qoldi. Xullas, kim nima desa desin, dunyoda xavotirdan ham yomonroq narsa yo'q. Shu payt xonaning eshigi yana ochilib yopildi, lekin xonadagilar bunga e'tibor bermadilar.

Og'alardan ba'zi birlari:

— Ha, xavotir juda yomon narsa, — deb qo'yishdi.

Naxchivonlik Mashadi Haydar papirosini oyog'i ostida ezib, o'z hikoyatini boshlab yubordi:

— Hasanbek, haliyam sen oson qutulibsan, Olloh ishingni o'ng qilib, atigi bir kungina xavotir olibsan. Lekin bir hafta nuqul xavotirda yurishdan yomoni yo'q ekan, na uxlab uxlay olasan, na yeb-ichishingda maza bor. Men o'tgan Navro'z bayramidan bir hafta keyin Iravonga bordim. O'ziyam Hoji Ma'sum amakining o'g'li Mashadi Salimnikiga tushgan edim. Chunki marhum Hoji Ma'sum rahmatli amakim Hoji Ne'mat bilan qalin do'st edilar. Men Iravonga tushgan zahoti Hojining kichik o'g'li Mashadi Alakbar qarshimdan chiqib, qo'yarda-qo'ymay uyiga olib ketdi. Risoladagidek hurmat-izzat, mehribonchilik... Xullas, gap bunda emas. Kechasi yeb-ichib, uxlagani yotdik. Men o'zim, rostini aytsam, tushga ishonaveradigan kishilardan emasman; biroq o'sha kecha tush ko'rsam, tushimda bizning Mashadi Kozim vafot etgan emish. Ertalab o'rnimdan turdim, hech kimga hech narsa demay, choy ichib bo'lgach, Mashadi Alakbar bilan bozorga tushdim. Bu shunchaki tush-da, nimasiga parvo qilaman, deb o'yladim; lekin qarasam, qo'lim hech bir ishga bormayapti, nimaiki qilmoqchi

bo‘lsam, ko‘rgan tushim shundoq ko‘z oldimga keladi-turadi. Qarasam, ish chatoq, darhol Naxchivonga bitta “sroshniy”[1] tel qoqdim. O‘sha kuni kechqurungacha toqatlarim toq bo‘ldi, nima qilishimni ham bilmayman.

Yeganim harom, ichganim harom. Xullas, bir amallab kechani ham o‘tkazdim. Tong otdi, lekin hamon telegrafdan hech xabar yo‘q. Peshingacha ko‘zim yo‘lda bo‘ldi. Tush payti edi, nihoyat, telegraf kirib kelib, telni menga berdi. Ochib o‘qidim. Telegraf uyimizdan, onamning nomidan bo‘lib, unda “darhol Naxchivonga yetib kel” deb yozilgan edi. Buni o‘qib hayot-madorim qurib qoldi. Xullas, boshingizni og‘ritib o‘tirmay qisqasini aytsam, o‘sha kuniyoq yo‘lga otlandim. Ertasi kuni kechqurun Naxchivonga yetib bordim. Voy noinsoflar... Mashadi Kozim ham tuppa-tuzuk, qolganlar ham sog‘-salomat. Bo‘lgani shuki, bir bog‘ni savdolashib qo‘ygan edik, egasi boshqa birovga sotmoqchi bo‘libdi; agar men tezda yetib bormasam, bog‘ qo‘ldan chiqib ketar emish. Endi shuncha kun mobaynida mendan nimalar o‘tganini o‘zingiz bilib olavering. Xullaski, dunyoda xavotirdan yomonroq narsa yo‘q.

Tun allamahal bo‘lib qoldi. Mehmonlardan uch kishi o‘rnidan qo‘zg‘alib “xayr”, “yaxshi qoling” deb chiqib ketishdi va yo‘lbo‘yi bir-birlariga “chindan ham xavotir juda yomon narsa” deb borishdi. Mehmonxonada qolgan Mashadi Haydar, Mashadi G‘ulomhusayn va Mashadi Mammadbag‘ir ham yechinib, yotish taraddudini ko‘rishar ekan, bir-birlariga, “chindan ham dunyoda xavotirdan yomonroq narsa yo‘q”, deb qo‘yishardi.

Haligi kiyimini o‘zgartirib olgan politsiya ma’muriga kelsak, mehmonxonani aylanib yurib, bu millatparastlar mehmonxonaga nima maqsadda to‘planganliklarini, qanday siyosiy masala borasida muzokaralar olib borishayotganini, qanday tadbirlar belgilashayotganini bilishga ko‘p urinib ko‘rdi. Ammo harchand qilsa ham hech narsani bila olmadi va hech narsani bila olmaganidan qattiq xavotirga tushdi.

Chindan ham, dunyoda shu xavotirdan yomonroq narsaning o‘zi yo‘q.

---

[1] **Sroshniy** — ruscha srochniy (shoshilinch) so‘zining buzilgan shakli *(tarj.)*.

SIRKA

Bundan bir necha kun oldin bizning bir adib do'stimiz Bokuga kelib, o'rtacha mehmonxonalardan biriga tushgan edi.

Men va Boku adiblaridan biri ertasi kuni tush payti o'sha adib do'stimizni ko'rgani bordik. Ichkari kirdik. Salom-alik... Ko'rishib bo'lgach, bir yarim soatcha undan-bundan suhbatlashib o'tirdik. So'ng biz ketmoqchi bo'ldik. Do'stimiz ham biz bilan chiqib toza havoda biroz aylanish maylini bildirdi. Uchalamiz ko'chaga chiqdik.

Parapet bog'iga yaqinlashganimizga Boku adiblaridan yana birini uchratib qoldik. U ham bizga qo'shildi. To'rt kishi bo'lib Mixaylovskiy ko'chasi bo'ylab yarim soatcha u tomon-bu tomonga borib-kelganimizdan so'ng Bokuga yangi kelgan do'stimiz:

— Rostini aytsam, men ochiqib qoldim, — dedi.

To'rtalamiz ham to'xtab, bir-birimizga tikilib qoldik. Ikkinchi bokulik adib do'stimiz:

— Biznikiga bora qolaylik, — deb qoldi.

Birinchi adib do'stimiz:

— Uyingizda yegulik nima bor? — deb so'radi.

Ikkinchi bokulik do'stimiz bunday javob qildi:

— Ishonsangiz, bundan bir soatcha ilgari bozorga tushgan edim. Bozorning o'rtasida bir arava yangigina kutum balig'i sotishayotgan ekan, qarasam yoppatalosh qilib olishyapti. Men ham ikkita baliq olgan edim, ikkalasi o'n ikki girvonka chiqdi. Uni bir bolakay bilan uyga berib yubordim. Hozir onam uni pishirayotgan bo'lsa kerak. Agar hozir to'rtalamiz biznikiga borsak, o'sha baliqlarni o'rtaga qo'yib olib, suhbatlashgancha maza qilib yer edik: uyda xochparastlar iste'mol etadigan, biz mo'min bandalarga harom deb buyurilgan haligi "zahrimor"dan ham topiladi; chunki baliqqa biron-bir ichkilik qo'shni bo'lsa, yomon bo'lmaydi.

Biz hammamiz och edik, shuning uchun ham bu taklifni qabul qilib unikiga yo'l oldik.

Dasturxon yozildi... Idish-tovoq, non-tuz keltirildi. Shu payt men xonadon sohibining nimadandir bezovta bo'lib, bir narsa axta-

rayotgan kabi goh u xonaga, goh bu xonaga kirib-chiqayotganini sezib qoldim. Oxiri u yonimizga kelib, ikki qo'lini tizzasiga urgancha:

— Afsus, baliq tatimaydigan bo'ldi, — dedi.

Biz buning sababini so'rasak, uyda sirka qolmabdi, dedi. Kutum balig'ini esa sirkasiz yeding nima-yu, yemading nima — hech farqi yo'q.

Shunday deya xonadon sohibi shoshib tashqari chiqdi-da, birozdan so'ng sevinganicha qaytib keldi. Biz uch adibning yelkamizga shodiyona qoqib:

— Bu yog'i zo'r bo'ldi, hozir sirka keladi, — dedi.

Biz garchi chindan ham och bo'lsak-da, lekin sirka kelishini sabr-toqat bilan kutadigan bo'ldik. Chunki rostdan ham har bir taomning o'z taomili va qonun-qoidasi bor, binobarin, yangi baliqni ham sirkasiz yeyish etni tuzsiz yeyish bilan barobar edi.

Oradan o'n daqiqalar o'tgach, bir bolakay kattakon shisha to'la qip-qizil sirkani stolning ustiga qo'yib yugurib chiqib ketdi, uy egasi — adib do'stimiz ikkita katta laganda bug'lanib turgan baliqlarni "voh-voh" deya dasturxonga keltirib qo'ydi.

Bir kampir eshikdan boshini ichkari suqib, mehribon va titroq ovozda:

— Osh bo'lsin, olinglar, yenglar, — dedi.

Bu kampir xonadan sohibi — adib do'stimizning onasi edi. Bokuga yangi kelgan adib do'stimiz baliqning bir bo'lagini sanchqiga ildirib yuqori ko'tardi va burniga etib hidlaganicha:

— Voh-voh!.. Rosa yeyishli baliqqa o'xshaydi, — dedi.

Xonandon sohibi bo'lmish adib do'stimiz ham baliqning bir bo'lagini sanchqi suqib mening likopchamga, bir bo'lagini esa o'z likopchasiga solar ekan, "voh-voh"lagancha:

— Voh-voh, baliqning hidiga bir qarang!.. Naqadar ajoyib baliq. Baliqni yangiligida yeyish kerak, sovub qolsa, uning mazasi ham bo'lmaydi, — dedi.

Birinchi bokulik adib do'stimiz sanchqisi bilan baliq bo'laklarini saralab-saralab olar ekan, xonadon sohibi bo'lmish adib do'stimizga tanbeh bergandek bo'ldi:

— Menga qara, Ahmad Fitrat (xonadon sohibi bo'lmish adib do'stimizning ismi shunaqa edi), bu yeyayotgan balig'imizning otini ota-bobolarimiz "balix" deb atashgan, sen ham "baliq" emas, "balix" deb ayt.

Ushbu paytda Ahmad Fitrat sirka shishasini qo'liga olib, baliqning ustiga to'kmoq taraddudini ko'rayotgan edi, birinchi bokulik do'stimizning tanqidiga nima deb javob berishni bilmay qoldi. Tiqini ochilmagan sirka shishasini stol ustiga qo'yib, biroz jim qoldi, so'ng:

— Marhum ota-bobolarimiz chindan ham "balix" deganlar, ammo biz "balix" emas "baliq" deyishimiz kerak, — dedi.

Bokuga yangi kelgan adib do'stimiz Ahmad Fitratdan so'rab qoldi:

— Axir, buning biron sababi bormi yoki yo'q?

Ahmad Fitrat uning savoliga savol bilan javob berdi:

— Nimaning sababi?

Shu asnoda men Ahmad Fitratga yuzlandim:

— Nimaning sababi deganing nimasi? Mana, biz to'rt Ozarbayjon farzandi bu yerda o'tirib baliq yeyapmiz. Sendan nima uchun bu baliqqa "balix" emas, "baliq" deymiz, deb so'rayaptilar?

Ahmad Fitrat ovozini balandlatib:

— Balix degani nima? — deb so'radi.

— Mana shu yeyayotgan jonivorimizning oti "balix"-da, axir.

Ahmad Fitrat sinchqisini stol ustiga qo'yib o'rnidan turdi va non kavshanganicha:

— Hoy mening aziz birodarlarim, — dedi, — har bir tilning o'z qonun-qoidasi bor. Ayting-chi, bizning turk tilimizning ham o'z qonun-qoidasi bormi yoki yo'q? Birinchi bokulik adib do'stimiz sanchqisini stol ustiga qo'yib, unga yanada balandroq ovozda, biroz achchiqlangan kabi javob berdi:

— Otangga rahmat, Ahmad Fitrat. U qanaqa qonun-qoida ekanligini o'zing mundoq tushuntirib ber-chi. Balki biz chindan ham uni bilmasak kerak?

Bokuga yangi kelgan adib do'stimiz ham bu suhbatga aralashish niyatida, u ham sanchqsini stol ustiga qo'yib, Ahmad Fitratga yuzlandi:

— Ahmad Fitrat, og‘ayni, sening jahling chiqyapti, shekilli. Avvalo, bu yerda jahl qiladigan narsaning o‘zi yo‘q, ikkinchidan esa, axir...

Ahmad Fitrat uning so‘zini kesdi:

— Yo‘q, kechirasiz, mening hecham jahlim chiqayotgani yo‘q; lekin har bir tilning o‘z qonun-qoidasi bor va biz ham o‘sha qonun-qoidaga bo‘ysunishimiz kerak. Ma’lumki, biz turk millati har bir sohada ortda qolib ketganmiz, til borasida ham shundoq. Na bir qonun-qoidani bilamiz, na bir ohangga bo‘ysunamiz; boshimizni solintirganimizcha avom xalq tilida gapirganimiz-gapirgan. Nahotki, hali-hamon bobokalon-u momokalonlarimiz kabi baliqqa “balix” deb yuraversak?

Bokulik birinchi adib do‘stimiz ham baliqdan bir bo‘lagini og‘ziga solib, biroz qizishganicha:

— Ha, albatta, “balix” deyishimiz kerak. Xo‘sh, sen ona tiliga qarshimisan? — dedi.

Ahmad Fitrat bir bo‘lak baliqni og‘ziga solib, uni chaynay-chaynay qo‘llarini paxsa qilganicha baland ovozda:

— Og‘ayni, bu yerga ona tilining nima daxli bor? — dedi. — Agar “balix” desak ona tili bo‘lib qoladi-yu, “baliq” desak ona tili bo‘lmay qoladimi? Men bir narsaga tushunolmay turibman, biz to‘rt kishi bu yerda o‘tirib olib yangi til yaratmoqchimizmi? Dunyoda har bir ilmning o‘z mutaxassisi bo‘lgani kabi tilning ham qonun-qoidalarini o‘rganadigan, uni hayotga tatbiq etadigan kishilar bor. Qosimbekning til borasidagi risolasini... Agar bularni...

To‘rt nafar turk adibi, ular ichida men ham bor, ana shunday bahs-munozara qila-qila o‘n ikki girvonka baliqni paqqos tushirib, hatto suyagini ham qoldirishga ko‘zimiz qiymay turgan bir payt-da eshik ochilib, xonadon sohibining kampir onasi boshini ichkari suqdi va titroq ovozda bizdan so‘radi:

— Aylanay bolalarim, nega buncha “balix-balix” dedingizlar-u, shunday yaxshi sirkani og‘zini ham ochmadingizlar?

Kampirning bu gapi bizni uyqudan uyg‘otgandek bo‘ldi, mundoq qarasak, chindan ham biz to‘rt adib “baliq” bilan “balix” so‘zlarining bahsiga shu qadar berilib ketibmizki, o‘n ikki gir-

vonka baliqni yeb tugatibmiz-u, sirka stol ustida og'zi ochilmay qolaveribdi; holbuki, bizning to'rtalamiz ham ana shu sirkaning bozordan kelishini rosa yarim soat kutgan edik.

ARZONCHILIK

Naxchivon shahridan bir yetim o'spirin huzurimga kelib, Bokuning falon texnikumi mudiridan iltimos qilsangiz, yetim bo'lganligim uchun u meni o'z texnikumiga qabul qilsa, deb o'tindi.

Bu yetim menga juda ma'qul bo'ldi: o'n besh yoshli bu o'spirin urinib-surinib Naxchivon dorulmuallimini bitirgan ekan.

Ertalab kiyinib yo'lga tushdim va falonchi mudirni idorasidan topdim. Ichkari kirdim. Salom-alik... Va falonchi mudir o'rnidan turib, men bilan bir qo'llab emas, ikki qo'llab ko'rishdi.

Men Naxchivondan kelgan yetimni albatta maktabingga qabul qilishing kerak, deb arzimni boshladim. Mudir menga bu borada hech narsa demay, gugurt yoqib papirosini tutatdi va bu yozda mening qaysi rohatgohda dam olganimni so'radi. Men Borjom rohatgohida bo'lganimni aytdim. Mudir o'z navbatida ma'dan suvlariga boy Temirsuv, ya'ni ruscha aytganda Jeleznovodsk rohatgohida bo'lganini aytdi. Men:

— Zo'r bo'libdi, — deb javob berdim.

Mening yana boshqa bir zarur ishim bo'lib, mudir o'rtoqdan yetim o'spirin borasida biron-bir natija kutmoqda edim.

Mening bu savollarimga javob berish o'rniga mudir o'rtoq mendan borjomning qimmatmi yoki arzonligini surishtirdi. Men, borjom bu yil qimmat bo'ldi, deb javob berdim. Mening bu gapimni eshitib mudir o'rtoq o'ng qo'lidagi qalamni va so'l qo'lidagi papirosni yozuv stoli ustidagi qalamdonga qo'yib, dedi:

— Agar bilsang, Jeleznovodskda bu yil yeb-ichish suv tekin bo'ldi; masalan, bilasanmi, qo'y go'shtini qanchadan olardik? Bir girvonkasini yigirma ikki kapikka. Tag'in qanday go'sht de? Qorachoy qo'yining go'shti deydilar, shundoq olovga qo'yasanu olib yeyaverasan. Shu qadar yumshoqki!..

Bu yerda mendan boshqa ham bir necha o'spirin navbat kutib o'tirishardi. Ular o'z dardlariga darmon topish uchun mudirning qo'li bo'shashini kutmoqda edilar. Ularning dardi ham xuddi bizniki kabi ushbu texnikumga kirib olish edi.

Men o'rnimdan turmoqchi bo'ldim. Mudir mening qo'zg'ala boshlaganimni ko'rsa-da, baribir yetimning qabuli haqida hech narsa demadi. Lekin Temirsuv rohatgohining oziq-ovqatlari arzonligi haqidagi suhbatini davom ettirdi:

— Oppoq nonni istaganingcha olib yeyaver. Bir girvonkasini yetti kapikka sotishdi. Sutning bir chelagi ikki shohiga tushgan kunlari ham bo'ldi. Sigir yog'i yarim manat edi. Bitta tuxum to'rt kapik edi.

Naxchivondan kelgan yetim biroz chekkada qo'llarini orqasiga qilganicha devorga suyanib suhbatimizga quloq solib turardi. Boshqa bolalar orasida mudirning suhbatini eshitib turganlari ham bor edi, eshitmay turganlari ham. Lekin, tabiiyki, ularning fikr-u xayoli texnikumga kirish yo kirmaslik masalasi bilan band edi.

* * *

Men o'rnimdan turdim. Falonchi mudirdan uning yetim borasidagi fikri qanday ekanini, iltimosimizni u qabul qiladimi yoki yo'q — shuni bilishni istadim. Shu payt mudir ham men kabi o'rnidan turdi va xayrlashish uchun menga qo'l uzatar ekan, tag'in rohatgohning arzonchiligiga qaytdi:

— Goh shunday bo'lardiki, sayohatga chiqsak o'n-o'n besh kishi xarajat pulini yig'ardik. O'sha kungi xarajatimiz ikki-uch manatdan oshmasdi; nari borsa kishi boshiga yarim manatdan tushardi. Bir kuni o'n ikki girvonka — butun boshli bir pandirga atigi bir manat 30 kapik berdim. Shunday kunlar bo'lardiki, atrofdagi qishloqlardan kelgan sutni oladigan odam topilmasdi. Ishonsang, sutni yana qaytarib olib ketib yurmasdan, yerga to'kib ketardilar.

Tashqari eshikdan chiqqanimda mudir o'rtoq ortimdan chaqirib qoldi. Sho'rlik yetim, balki mudir insofga kelib texnikumdan biror gap ochib qolar, degan ilinjda sevinib ketdi; mudir esa bunday dedi:

— Tuxumni donabay olsang, bir donasi uch kapik edi. O‘ntalab olsang, o‘ntasi yigirma besh kapik edi. Ammo, ishonasanmi, yo‘qmi, bir gal yuzta tuxumga atigi ikki manat berdim.

Ming pushaymon yeb ko‘chaga chiqdik. Shundan so‘ng yetimning qayoqqa ketgani-yu boshiga nima ishlar tushganidan xabarim bo‘lmadi.

IKKI OLMA

Kechqurunlari sayrga chiqqanimda ba’zan kichkintoy o‘g‘ilchamni ham o‘zim bilan birga olib chiqaman. Bu gal ham shunday qildim.

Va hamisha kichkintoy o‘g‘ilcham bilan sayrga chiqqanda uni xursand qilish uchun goh-gohida biror yegulik narsa olib beraman. Bu safar ham u do‘konlarda terib qo‘yilgan noz-ne’matlarni ko‘rib, biror narsa olib berishimni so‘radi. Men har gal bola bilan bozorga borganda unga albatta biror narsa olib berish kerak degan aqidaga qo‘shilmayman, ayni paytda, unga zinhor hech narsa olib bermaslik kerak degan fikrdan ham yiroqman. Lekin bu safar hech narsa olib bermadim, chunki cho‘ntagimda kattaroq pul yo‘q edi. Buning ustiga, bolaning har gal bozorga chiqqanda mazaxo‘rak bo‘lib qolishini istamas edim.

* * *

Biroz aylangach, yo‘limiz dengiz yoqasidan tushdi. O‘g‘limning kayfiyati yo‘q edi. Zero, tarbiya degani o‘z yo‘liga, lekin bola tabiati ham o‘z yo‘liga. Shuning uchun ham unaqangi terslik qilib o‘tirmay, dengiz qirg‘og‘ida tog‘oralarga uyib qo‘yilgan mevalardan ikki shohiga[1] ikkita yaxshi qizil olma olib, ikkalasini ham o‘g‘limga berdim. O‘g‘lim ularni ko‘ngilsizgina bo‘lib oldi. Men undan nega xafa ekanligini so‘rab o‘tirmadim; chunki sababi ayon edi. Bundan salgina oldin u bozorda ikkita narsa so‘ragan, lekin men hech birini olib bermagan edim; so‘ragan narsalaridan

[1] **Shohi** — mayda pul *(tarj.)*.

biri Chorjo‘y qovuni edi — olib bermadim; ikkinchi so‘ragan narsasi esa qandolat do‘koni oldidan o‘tib ketayotganimizda shisha orqasida uyib qo‘yilgan rang-barang konfet va shirinliklar edi — olib bermadim.

O‘g‘lim mendan shu qadar xafa bo‘lgan ediki, men olmalarni unga berganimdan keyin ham bir so‘z aytmas, bergan savollarimga ham istar-istamas javob qaytarar edi.

Uning qovog‘i uyilib ketganini ko‘rib o‘zimning ham kayfiyatim buzildi. Uyga qaytish uchun Ozarneft idorasining oldida turgan tramvay vagonlaridan biriga o‘g‘limni chiqarib, o‘zim ham mindim. Vagonda hali bizning ikkimizdan boshqa hech kim yo‘q edi. O‘g‘lim tengi, engil-boshi juldur, yuz-ko‘zlari qop-qora, kir va iflos bir rus bolasi oldimizga kelib, mendan bir kapik pul tilandi.

Cho‘ntagimda faqat bir abbosi[1] kumush tanga bor edi. Men bolaga nari ketsin degan ma’noda hech narsa demadim. Bir necha ayol va erkak yo‘lovchilar vagonga chiqib, sog‘-u so‘limizga joylashdilar. Shunda yetimga pul bermaganimni o‘ylab, tilanchiga pul berish kerakmi yoki yo‘qmi degan masala ustida o‘z ko‘nglimda bahs qila boshladim; boshqalar nima desa desin, biroq tilanchi bolaga hech narsa bermaganimdan xafa bo‘lib ketdim. Bu o‘rinda shunga ishorat qilyapmanki, men aslida hech bir tilanchining qo‘lini bo‘sh qoldirmasdim, lekin keyingi paytlarda ba’zi bir faylasuflarning, tilanchiga pul berish uni baxtsiz qilish bilan teng degan talqini menga ham yuqqanga o‘xshaydi. Biroq, rostini aytsam, bugun tilanchi bolaga sariq chaqa ham bermaganimdan qattiq ezildim; shuning uchun ezildimki, mening o‘ng yonimda o‘sha tilanchi bola tengi, ota-onasi tirik, ust-boshi top-toza, qorni to‘q, konfet olmay, olma olib berganim uchun mendan ranjib qolgan o‘g‘lim o‘tirar edi. Tramvayimiz o‘rnidan jilgach, deraza ortida, pastda haligi tilanchi bolaning bir qip-qizil olmani g‘ajib yeyayotganini ko‘rib qoldim. Avval hech narsaga tushunmadim; lekin shu lahzadayoq yonimda o‘tirgan o‘g‘limning olmalari esimga tushdi va darhol u tomon o‘girilib qaradim.

[1] **Abbosi** — pul birligi *(tarj.)*.

O‘g‘lim kula-kula sekingina menga:

— Dada, olmaning bittasini tilanchi bolaga berdim, — dedi.

Bir dona qizil olma aslida aytgulik narsa emas; uning bahosi atigi ikki kapik bo‘lib, yeysan-qo‘yasan, vassalom. Ammo ma’naviy jihatdan olganda bitta olmaning evazi juda baland turadi. Shu ikki kapiklik olma mening ko‘nglimga ajoyib bir yengillik, cheksiz xursandchilik baxsh etdi.

Falsafa olamiga kelsak, boshqalar ko‘chada tilanchiga sadaqa berishni qanday tushunsalar tushunaversinlar, jamiyat mutaxassislari bu masalani qanday talqin etsalar etaversinlar, lekin mening bir kichkintoy o‘g‘ilcham bugun o‘zining ikki olmasidan birini bir yetim bolaga bergan edi.

Ehtimol, o‘g‘lim ham katta bo‘lgach, ba’zi olimlarning “ko‘chada tilanchiga sadaqa bermaslik kerak” degan nasihatini eshitib, tilanchi ko‘rganda ters qarab ketar. Lekin hozircha o‘g‘lim bu narsalarni tushunmaydi va tushunmagani uchun ham ikki olmasidan birini yetim bolaga bergan edi.

YUSUF VAZIR CHAMANZAMINLI





MILLAT DEYA QAYG'URGAN ADIB

Ushbu jildga Jalil Mammadqulizodaning kichik zamondoshi — Yusuf Vazir Chamanzaminlining "Ikki o't orasida" tarixiy romani ham kiritilmoqda. XIX asr oxiri — XX asr birinchi yarmida yashab ijod etgan bu yetuk so'z san'atkori qismati nainki og'ir, hatto fojeiy bo'ldi. Dastlab yer yuzi aholisining uchdan ikki qismini o'z qa'riga tortgan Birinchi Jahon urushi; so'ngra Rossiyada yuz bergan siyosiy taloto'plar — podsho Nikolay II ning taxtdan ag'darilishi, davlat tepasiga avval muvaqqat hokimiyat kelishi, so'ngra hokimiyatning bolsheviklar qo'liga o'tishi va Rossiyaga qaram o'lkalardagi milliy uyg'onish harakatining bostirilishi, nihoyat Stalincha qatag'on mashinasining ishga tushishi Ozarbayjon xalqi, uning ziyolilari va chunonchi, Yusuf Vazir Chamanzaminli taqdirida ham og'riqli iz qoldirdi.

Asli shushalik bo'lgan bu adibning Vazir nisbasini olishi uning XVIII asrda Qorabog' hukmdori Ibrohim Halilxonning nufuzli vazirlaridan bo'lgan Mirza Alimammad og'a avlodlaridan ekani bilan izohlanadi. Chamanzaminli adabiy taxallusini tanlashi esa uning hayotidagi qayg'uli bir voqea bilan bog'liqdir. 1905-yili Shushada arman dashnoqlari da'vati bilan arman-ozar qirg'ini boshlanadi. Politsiya va hukumat bu g'animlikka loqayd munosabatda bo'lgani sabab ikki xalq bir-birini qirar, uylarini yoqar, xarobaga aylantirardi. Ana shu tahlikali vaziyatdan yuzaga kelgan asabiylik Yusuf Vazirning otasi Mashadi Mirboboning tez-tez kasallanishiga sabab bo'ladi. Oxir-oqibat u 1906-yilda vafot etib, oilaning butun yuki 19 yoshli Yusuf gardaniga tushadi. Biroq aksiga olib, Yusufning o'ziga ham dard tegib, bir qancha vaqt yotib qoladi. Ana shunda ularning oilasi joniga qo'shnilari — uch aka-uka Hasanxon, Nifti va Faraslar aro kiradi. Ular bir vaqtlar Janubiy Ozarbayjonning Chamanzamin degan kentidan bu yerga qochib kelgan, shunda Mashadi Mirbobo ularni o'z himoyasiga olib, boshpana bergan edi. Endi ular o'sha oliyhimmatlikka javoban mar-

humning oilasiga beminnat yordam qo'lini cho'zadi va shu yordam bois sog'ayib ketgan Yusuf bundan buyon Chamanzaminli taxallusini qabul qilishga ahd etadi.

Yusuf Vazir Chamanzaminli 1910-yili Kiyevga borib, Avliyo Vladimir nomidagi Imperator universitetining huquq fakultetiga o'qishga kiradi. 1914-yilda Birinchi Jahon urushi sabab bu universitet Saratovga ko'chiriladi va yosh Yusuf oliy tahsilni shu yerda tamomlaydi. 1917-yilgi fevral inqilobi chog'larida u Kiyevda o'qiyotgan talabalarni o'z atrofiga to'plab, "Musovot" firqasining Kiyev sho'basini tashkil etadi va unga raislik qiladi. Xullas, o'sha yillar yosh Yusufning nafaqat oliy ta'lim olishi, balki ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy faoliyat yuritishi nuqtayi nazaridan ham juda sermahsul bo'ldi. Uning "Ozarbayjon Muxtoriyati", "Biz kimmiz va maqsadimiz nima?", "Ozarbayjon va ozarbayjonliklar", "Xorijiy siyosatimiz", "Milliy va madaniy ishlarimiz" kabi maqolalari jadidchilik ruhi, milliy taraqqiy g'oyasi bilan yo'g'rilgan edi.

1919-yilda yangi ta'sis etilgan Ozarbayjon Demokratik Respublikasi hukumati uni Turkiyaga elchi qilib yuboradi. Ozarbayjonda Sovet hokimiyati o'rnatilgach, Yusuf Vazir Chamanzaminli elchilik vazifasini to'xtatib, Parijga yo'l oladi. O'sha vaqtda uning ukasi Mirabdulla Fransiya poytaxtidagi Siyosiy fanlar institutining diplomatiya fakultetida tahsil ko'rayotgandi. Bu yerda u "Parij xabarlari" gazetasi bilan yaqindan hamkorlik qiladi — "Sharq maktublari" rukni ostida bir necha maqolalar chop ettiradi.

Ukasining qo'qqis kasal bo'lishi va bevaqt vafot etishi uning qalbini chuqur larzaga soladi. Yusuf Vazir Chamanzaminli uzil-kesil Vataniga qaytishga ahd qiladi. Ozarbayjon SSRning yuksak martabali shaxslariga yozma murojaatlardan so'ng, u Ozarbayjon Kompartiyasi MKning birinchi kotibi Sergey Mironovich Kirov qo'llab-quvvatlovi ostida 1926-yili Bakuga qaytadi. Bu yerda u dastlab "Boku ishchisi" nashriyotining badiiy sho'basida muharrir bo'lib xizmat qiladi, so'ngra Ozarbayjon Davlat universiteti, shuningdek, Pedagogika, Tibbiyot va Neft institutlarida talabalarga saboq beradi. U 1930–1935-yillarda "Qizlar bulog'i", "Talabalar", "1917-yilda" kabi romanlarini yaratadi. 1937-yilda esa "Ikki o't orasida" romanini yakunlaydi, biroq uni chop ettirishga ulgur-

maydi. Zero, shu yili Stalincha qatag'on eng avjiga chiqqan davr edi. Ozarbayjon Yozuvchilar ittifoqi ham jon-jahdi bilan o'z saflarini "yot unsurlar"dan tozalashga kirishadi. Oqibatda Yusuf Vazir Chamanzaminlining o'tmishi titkilanadi va asosan 1926-yilgacha bo'lgan faoliyatidan ayb topilib, Yozuvchilar ittifoqi a'zoligidan chiqariladi, ayni chog'da u ishsiz ham qoladi. Ta'qibga uchragan adib Iosif Stalinga xat yozib, haqiqatni qaror toptirishga intiladi, shu maqsadda hatto Moskvaga borib ham javob ololmaydi.

Ayni shu davrda adib hayotining ona diyorimiz — O'zbekiston bilan bog'liq yillari boshlanadi. 1938-yili u "Kommunist" gazetasida bosilgan e'londan O'zbekiston SSRning Urganch shahridagi Xorazm viloyat Pedagogika institutida rus tilidan dars beruvchi muallim o'rni uchun tanlov e'lon qilinganini o'qib qoladi. Bu tanlovga o'z hujjatlarini yo'llagan Yusuf Vazir Chamanzaminli rektoratdan taklif xati oladi. U mazkur institutga katta o'qituvchi va ayni chog'da kutubxona mudiri etib ishga olinadi. Biroq Yusuf Vazir Chamanzaminli 1940-yili bu shaharda hibsga olinib, Bokuga keltiriladi va sud qilinib, Nijniy Novgorod viloyatining Suxobezvodnaya stansiyasidagi lagerga jo'natiladi. 1943-yili u shu yerda ochlik va yurak xurujidan vafot etadi.

Yusuf Vazir 1911-yildan Chamanzaminli adabiy taxallusidan foydalana boshlagan. U o'z asarlarida, shuningdek, "Badbaxt", "Haq tarafdori", "Musaviy", "Sersem" kabi o'ndan ziyod taxalluslarni ham qo'llagan. Shular orasida Qurbon Said taxallusi ham borligi sabab muallifligi bahsli bo'lgan "Ali va Nino" romanini ham unga nisbat beruvchi adabiyotshunoslar topiladi. Yusuf Vazir Chamanzaminlining mazkur jilddan o'rin olgan "Ikki o't orasida" romani garchi XX asrning 30-yillarida yaratilgan bo'lsa-da, faqat 60-yillarga kelibgina matbuot yuzini ko'rdi. Bu asar ozar xalqi uning sha'niga "Har o'qigan Mulla Panoh bo'lolmas" deya maqollar to'qigan ulug' vazir va shoir Mulla Panoh Voqif hayotiga bag'ishlanadi. Asarda Voqif yashagan XVIII asr ozar xalqi hayoti ham o'zining keng tajassumini topgan.

Muhiddin Rahim,
adabiyotshunos

IKKI O‘T ORASIDA

Roman

BIRINCHI QISM

“Ibrohim xon... davrasiga yaqin, xon xizmatining nodim-suhbatdoshi, bosh kotibi va davlatining mustahkam ustunlaridan biri bo‘lgan qazaxlik Mulla Panoh Voqifni huzuriga chaqirdi. Voqif kamol, adab va ilm sohibi bir siymo edi. Agar Chinning fasohat sahrosining ohusi uning ravon ohangli tabiatining sunbulistonida parvarish topgan g‘azallarning maroli[1] bilan baravarlik da’vo qilsa, butunlay xatodir. Agar bala-g‘at Badahshonining la’li, uning siynasi xazinasida yig‘ilgan yorqin baytlar va juda kam topiladigan qimmatbaho marvaridlar oldida xijolatdan qizarsa, butunlay to‘g‘ridir”.

Mirza Odigo‘zal

“Birinchisi, Voqif taxallusli marhum Oxund Mulla Panohdirki, tadbirli va kamolli mashhur vazir edi va Eronda, Rum[2]da juda shuhrat qozongandi. Uning turkcha yozgan oshiqona she’rlari hozir ham tillardan tushmaydi”.

Mirza Jamol

“Har o‘qigan Mulla Panoh bo‘lmaydi”.
Maqol

1

Oqarib tong otayotir. Bag‘riqon[3]ning orqasidan boshlab osmon yuzini xira shafaq qoplagandi. Havoda xafif bir ayoz bo‘lsa ham bahorning daraxtlarni uyg‘otgan ilk eli bu ayozga hush safo baxsh etardi. Atrofda xo‘rozlar qichqirar; bozorda

[1] **Marol** — ohu, kiyik.

[2] **Rum** — Turkiya nazarda tutiladi.

[3] **Bag‘riqon** — Shushaning o‘ng tomonidagi tog‘.

uyqusiz darg‘a shogirdlarning bo‘g‘iq ovozlari sahar sukunatini buzib anduh taratardi.

Sharaqlagan tovush eshitildi: saroy darvozasi ochildi, orqada sharpalar ko‘rindi, g‘ala-g‘ovur ovozlar keldi. Ko‘p o‘tmay, ichkaridan bir necha odam tashqari chiqdi, orqadan otliqlar ko‘rina boshladi. Jilovdorlar otlarning boshidan yetaklab ohista yurishar, qarollar, po‘sht-po‘shtlar, maof[1]lar ularning orqasidan kelishardi. Qafila[2] biroz ilgarilab o‘ng tomonga, qal’a eshigiga qarab burildi. Bir-ikki qarol shahar darvozasi darbonlariga xabar bergani yugurishdi. Temir qopqalarning zalvorli zulfinlari sirtmoqlardan chiqarildi, bir zumda qopqalar ketma-ket ochildi, qorong‘i tog‘larga oftob tushib, shafaqlar qizardi. Darvoza yonlaridagi supalarda bir qator soqchilar qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib, intizorlik bilan qafilani kutishardi. Bulardan ichkarida yopinchiqli lazgi va qumuq, Javonshir eliga mansub mo‘ylovdor, yengsiz po‘stinli o‘qchilar bor edi. Qilich va xanjarlarining kumush dastalari, miltiqlarning bandlari yaltirab turardi.

Qafila yaqinlashdi. Soqchi darbonlar endi ikki qator bo‘lib turishar, ko‘zlari yerga qadalgandi. Oldinda kelayotgan otning ustida og‘ir gavdali, oq chodrali bir xonim o‘tirardi. Bu Ibrohim xonning xotinlaridan biri Shohnisa xonim edi. Tong shafag‘i xonimning yuziga tushganday ko‘zlarini qisdi, yuzini burishtirib:

— Qandaysizlar, yigitlar? Yaxshimisizlar? — dedi.

— Ko‘p yashang! Salomat bo‘ling, xonim! Boshimiz uzra hamisha soyabon bo‘ling! — degan har xil ovozlar eshitildi.

Qafila qal’a darvozasini tark etganiga ancha bo‘lgandi, lekin uning sha’niga aytilayotgan rizolik so‘zlari hali davom etardi.

Kun asta-sekin yorishib borardi. Osmonda bir parcha ham bulut ko‘rinmasdi; sharq tomon kesilgan tarvuz kabi qizarib turardi. Hanuz davom etayotgan sukunatni Shohnisa xonim buzdi, chap tomonida otda ketayotgan qizi Kichikbayimga o‘girilib:

— Hoy qora qiz, — dedi, — charchagan ko‘rinasan, ranging qochibdi... Kechqurun senga aytdim kamroq o‘yna, kamroq sakra deb. Quloq solmading.

---

[1] **Maof** — soliqdan ozod qilingan hizmatchi.

[2] **Qafila** — sayrga chiqqan, otliq va piyoda yo‘lovchilar.

Kichikbayim olvoli rangli lablarini burdi, qoshlarini chimirib:

— Voy, oyijon yilda bir kecha chilla chiqadi, uni ham o'ynab-kulib o'tkazmasang, to'yguncha raqs tushmasang... Qanday bo'ladi? — dedi, go'yo kecha tongacha yaxshi o'tkazgan vaqtini eslab zavqlandi, qahqaha urib, yurakdan kuldi. Bayimning kulgisi orqadan kelayotgan qadimiy[1] Boboni ham mudrashdan uyg'otdi; so'lg'in chehrasi ochildi, cho'qqi soqolini selkillatib:

— Xonim, sadag'ang ketay, yoshlik-da. Qo'y o'ynasin-kulsin! Bayimning hozir ayni qizlar bulog'idan suv ichadigan payti... — dedi, jim qoldi va go'yo boshidan charx urib to'lqinlangan xotiralar uning so'zlarini parokanda qildi. Shohnisa xonim yarim o'girilgan holda lablarida imoli bir tabassum o'ynatdi:

— Hoy qadimiy, — dedi, — yoshliging esingga tushdi shekilli. Qo'rqma, judayam qari emassan. Kechagi o'yiningdan ko'rdim; hali suza olasan.

— Xonim, boshingdan o'rgilay, nimalar deyapsan, sen mening qanday vaqtimni ko'ribsan... Meni rahmatlik Panoh xonning davrida ot belida ko'rsayding... Shunqor edim.

Bobo bir oh tortib, otning ustida qaddini rostladi, qamchisi bilan o'ng tomonda ko'rinayotgan to'pxonani ko'rsatdi.

— Qara, parvonang bo'lay xonim, yigirma yilcha bo'ldi Fatali xon Afshar anavi yonbag'irdan boshlab Shushaning daralarini qo'shini bilan to'ldirgandi, qara, og'zi tepaga qaragan Qal'aga tomon tirmashardilar. Panoh xon rahmatlik to'plarga o't oldirdi. Yer-osmon larzaga keldi... Bu hozirgina o'tganimiz Ganja darvozasi ochildi. Otlarni uchirdik... Daralarni sel kabi, tepalarni yel kabi tuyib bordik... Fatali xon shu bo'yi ketdi.

Boboning qamchini hamon havoda osilib turar, go'yo yana nimalarnidir aytmoqchiday edi. Oqargan qoshlari ostidan qarab turgan kichik ko'zlaridan o't chaqnardi.

Shohnisa xonim uni o'ziga keltirish maqsadida kulimsirab:

— Oxiri nima bo'ldi, qadimiy? — dedi. Yana sizlarni aldadi, Ibrohim xonga ham pand berdi.

---

[1] **Qadimiy** — har xil soliqlardan ozod qilingan xizmatkor.

Bobo qo'lini pastga tushirib, jahl bilan xanjari dastasiga yopishdi, tili tutilib dedi:

— Xonim nimasini aytasan... Qasd qildi... Shirin tilini ishga soldi... Qizini Ibrohim xonga bermoqchi bo'ldi. Kechirim so'rab keldi... Biz ham Ibrohim xonning orqasidan ergashib, Xo'jali dashtiga yarashgani bordik... Qo'ylar so'yilib, qozonlar osilgandi... lafzidan qaytishini, bizni ham Eronga tortiq qilishini qaydan bilibmiz...

Kichikbayim xonim gap qotdi:

— Hoy buvajon, — bo'ldi qiling, maqtanavermang, orqadan otilgan tosh to'piqqa tegadi.

Bobo qo'llarini siltab-siltab yana gapirmoqchi bo'ldi, lekin yo'tal uni bo'g'di, boshqa gapira olmadi.

Shohnisa xonim qadimiyning yo'talining sababini sezib, unga tamaki chekishga ruxsat berdi.

Bobo uzr so'radi:

— Xonim, jonim sadag'a, hurmatsizlik bo'ladi, hijolat tortaman.

Kichikbayim onasi o'rniga:

— Hechqisi yo'q, buvajon chekavering! Mushtugingizni to'ldiravering, — dedi.

Bobo bir-ikki bor uzr so'rab tamaki xaltasini oldi, kumush zanjirli mushtugini to'lg'azdi. Chaqmoqtosh bilan tutantiriqni yondirib, mushtugiga o't oldirdi.

Tamaki tutunining isi xon oilasida noxushlik tug'dirmasin deb bobo otining jilovini tortib sekinlatdi va ellik qadamcha orqada qolib, otliqlar guruhining ortidan yura boshladi.

Tong yeri yorishgan bo'lsa ham quyosh hali Bag'riqonning orqasidan chiqmagandi.

Yoqimli tong epkini odamni erkalar, ko'ksiga sirli bir farax ufurardi.

Yo'l borgan sari yalang'och qoyalardan Dashalti daryosigacha ilon izi so'qmoq bo'lib tushib borardi. Otlar asta qadam bosib borar, oyoqlari tez-tez sirg'anardi. Jilovdorlar otlarning yuganlaridan mahkam ushlab, ora-sira ularga o'shqirib qo'yardilar.

Kanizlar otlardan tushib Shohnisa xonimning oyoqlariga yopishib olgandilar.

Kichikbayim ham otini jilovdorga berib, Mammad bek bilan oldinda borar va kesib chiqiladigan yo'llarda qoyalardan sirg'alib pastga tushardi. Mammad bek o'n ikki-o'n uch yoshlardagi shahlo ko'z, qo'ng'ir soch, keng ko'krakli o'smir edi. Ibrohim xonning ukasi Mehrali bekning o'g'li edi. Ibrohim xon Eronga tutqin qilib olib ketilganda Panoh xon qo'shin tortib Fatali xonning ortidan borgandi. Eron davlatining vakili Karim xon Zand Panoh xon bilan birlashib Fatali xonni bosgan va Ibrohim xonni qutqargandi.

O'sha paytlar Karim xon farmon yuborib Mehrali bekni Qorabog' xoni qilib tayinlagandi. Panoh xonni esa tajribali maslahatchi sifatida Sherozga olib ketgandi.

Asoratdan qutulgan Ibrohim xon Qorabog'ga qaytib kelgach, ukasi Mehrali bek bilan o'rtalarida saltanat da'vosi chiqadi. Ibrohim xon qayni Avar xonining yordami bilan ukasini Shushadan quvib, Qorabog' xoni bo'lgandi.

Mehrali bek esa qochib Quba xoniga sig'ingandi. O'g'li Mammad bek otasining saroyida tarbiya olib, o'sayotgandi. Yigit, keskin tabiatli bir o'smir edi.

Kichikbayim undan besh-olti yosh katta bo'lsa ham bir-biri bilan o'rtoqlarcha munosabatda bo'lib yigitlik maydonida bir-biridan qolishmasdi. Kichikbayim ona tomonidan shohsevanlik Badir xonning nabirasi bo'lgani uchun ona yurtining bir qancha xususiyatlari mujassamlashtirilgan edi: ot minib poyga o'ynash, miltiq otish, qilich o'ynatish uning uchun tabiiy bir ehtiyoj kabi edi. Kunning muayyan bir qismini shahar atrofini aylanish bilan o'tkazardi va hamisha bechora Shohnisa xonimni hamda buvasi Boboni o'zi bilan borishga majbur qilardi. Bugungi sayri-sayohat ham uning nozi tufayli amalga oshirildi: Navruz munosabati bilan oqar suv ustidan sakrab o'tib chillasini chiqarmoqchi edi.

Daryoning shildirashi bora-bora yanada aniq eshitila boshladi. Nihoyat, qoyalar orasidan daryoning o'zi ham ko'rindi. Ikki tog'ning orasidan chiqib dumaloq toshlarga urilib shovqin solib oqardi. Suvi hali oz edi. Tog'larda qor eriganda va bahor yomg'irlari boshlanganda bu sayoz daryo og'zi ko'pikli bir ajdarhoga aylanib,

butun atrofni qoplab olar, qoyalarni qo'porar, ulkan daraxtlarni ildizi bilan sug'urib, shovvoz qo'lida miltiqni o'ynatganday panjasida o'ynatardi. Eh bu daryo toshganida ne kunlarni ko'rsatmaydi, deysiz! Hozir qish uni kuchdan qoldirgan, shaldirashi ham jonsiz va ruhsiz edi.

Otliqlar hali aylanmalarni o'tib ulgurmay Mammad bek bilan Kichikbayim daryoga yetgan edilar. Besh-olti uyli armani qishlog'ining ichidan o'tib, toshko'prikning ustiga chiqishdi. Ro'parada o'ng tomonda ko'kka yuksalgan yalang'och qoyaning boshiga quyosh za'faron rangini tortgandi.

Chap tomondagi qoyaning orqasida o'rmon ko'zga tashlanardi.

Olis-olislarda oq sallali Kirs tog'i ulug'vorlik bilan uyquga tolgandi.

Otliqlar ko'prikka yetar-yetmas hamma otdan tushdi, astasekin chap tomondagi Qo'tirsuvga yaqinlashdilar. Qoyani yorib chiqqan Qo'tirsuv uch-to'rt gaz balandlikdan ola-bula shag'al toshlar ichiga quyilar, kumush zanjir kabi jilvalanib oqib ketardi. Kichikbayim suv sohiliga keldi: "Og'irligim, ug'urli[1]gim to'kilsin!" deb bir necha bor suv ustidan u yoq-bu yoqqa sakrab o'tdi. Keyin yosin qoplagan qoya toshga suyanib turgan Mammad bekka qarab yurarkan:

— Hoy yigit, sen nega turibsan? — deya erkalanib uning chuxasi[2] yengidan tortdi.

Mammad bek ko'prikdan tushib kelayotgan Shohnisa xonimga ishora qilarkan, o'rnidan qimirlamadi: oldin kattalar, keyin yoshlar suvdan sakrab o'tishlari kerak edi. Qo'llaridan kaniz va oqsochlar ushlab olgan xonim kelib Qo'tirsuv bo'yidagi tutzorning chetan to'sig'i ustiga o'tirdi.

— Oq-oppoq kunlarga yetkur, — dedi, — meni shu yoshimda qara, qayerlarga sudrab kelding: jonim bo'g'zimga kelib qoldi-ku.

— Voy, oyijon, uyda o'tirib zerikkandan ko'ra bu yaxshi-ku: Lattaga o'ral, el bilan sudral. Birozdan keyin shaharning barcha qiz-kelinlari, katta-kichiklari yog'ilib keladi bu yerga.

---

[1] **Ug'urli** — baxtli, omadli.

[2] **Chuxa** — erkaklarning uzun ustki kiyimi, cherkeska.

Shohnisa xonim qizining qoramag'iz chehrasini qoplagan zavq va shavqni faxr bilan kuzatarkan:

— Boshing omon bo'lsin, qizim, — deya kulimsiradi va xizmatkorlarga:

— Hoy yigitlar, darhol bitta o'choq yasanglar bir qahva ichaylik, — dedi. Xizmatkorlar chetandan oshib o'tib bog'ning pastki tomonida o'choq qilish taradudiga tushdilar; kanizlar tut daraxti tagiga dasturxon tuzay boshladilar.

Shohnisa xonim biroz dam oldi, so'ng turib buloq boshida yuz-qo'lini yuvdi va "Og'irligim, ug'urligim to'kilsin!" deb Kichikbayim yordamida oqar suv ustidan xatlab o'tdi. Kichikbayim Mammad bekning qo'lidan ushlab, uni ham suv yoniga yetaklab bordi, qahqaha urib uni itardi, suv ustidan sakratdi. Hazillashib, bir-birini suvga qarab itarib sho'xlik qila boshlashdi. Nihoyat Kichikbayimning baxmal boshmog'i suvga tushib ketdi.

Mammad bek suvda suzayotgan boshmoqni baland ko'tardi va istehzo bilan:

— Hoy, bayim, o'g'il bo'lishni judayam istayapsan, bo'lolmayapsan. Yigit bo'lish sening hunaring emas, — dedi.

Kichikbayim yig'lamsirab, boshmoqni uning qo'lidan oldi-da chetan ustiga o'tirdi.

Tut tagiga zarif sholchalar to'shalgan, bahmal ko'rpachalar solingan, ipak yostiqlar, bolishlar tizilgandi. Qoravashlar — xos-xizmatkorlar qo'llari ko'ksida saf tortib, xonimlarni kutishardi. Shohnisa xonim esa suv bo'yida o'tirib, chillayosin qildirardi. Kichikbayim uchun Gulobli qishlog'idan olib kelingan va o'sha paytdan beri saroyda qolgan enaga xonimning qarshisiga o'tirib uning bosh barmoqlarini oq ip bilan bog'ladi, keyin dedi:

— Hazrati Sulaymon haqqiga, jin qizi Marjon hukmiga, bani odamdan, bani hayvondan, jindan, shaytondan, oqar suvdan, tomirli daraxtdan, tag-tugli qoyadan, yetti yo'l chorrahasidan... har kimning chillasiga yo'liqibsan, chillangni qirqdim!

Shu so'zlardan so'ng qaychi bilan oq iplarni kesdi. Qo'shimcha tarzda xonimning barmoqlariga yana ikki marta ip tugdi, haligi so'zlarni takrorlab, iplarni qirqdi va kesilgan iplarni bir qo'li bilan ko'tarib xonimning boshi uzra ushlab turdi, narigi qo'li bilan

burunj[1]dan yasalgan, ustiga duolar o'qilgan "qirq ochar jom"da buloqdan biroz suv olib qirqilgan iplar ustiga tomizdi. Suv xonimning boshidan pastga oqib tushib, uning butun dardlarini yuvib ketdi. Enaga Kichikbayimning ham chillasini qirqdi, chillayosin o'qidi, unga baxt-saodat tiladi, keyin o'z suti bilan boqqan bayimning nozik qo'llarini lablariga bosib, o'pganida ko'zlariga yosh keldi...

Quyoshning za'faron yorug'i asta-sekin qoyaning tepasidan pastga tushar va tushgan sari avvalgi rangi o'zgarib borardi. Endi daryoning va daryodan tegirmonlarga ayrilgan ariqlarning chetlari alvon libosli qiz-kelinlarga to'lib ketgandi.

Xalq eski yildan qolgan dard va g'am-g'ussalarini suvga oqizib, oqar suv ustidan xatlab o'tishar, chillasini qirqtirishardi. Kulgilar, qiyqiriqlar tog'larga urilib, aks sado berardi.

2

Derazaning rang—barang mayda shishalaridan ichkari tushayotgan shu'lalar yerga to'shalgan gilamlarning naqshlariga o'zgacha jilo berardi. Ba'zi naqshlar lovullagan olovday tovlanar, yaltirab kamalak misoli derazaga rang taratardi.

Ichkarida ipak to'shak ustida uzun telpak, chuxa, yashil chalvar kiygan shol belbog' o'ragan bir kishi o'tirib, bir tabaqasi ochiq derazadan olis manzarani — Dabtalabni, boshini qor qoplagan Murov tog'ini tomosha qilardi.

Uning qoraga bo'yalgan mo'ylovi atrofidagi chuqur ajinlar goh fusunkor manzara oldida xafiflanar, goh esa chuqurlashib, og'ir qayg'ular ifoda etardi. Bu xonning vaziri va davlat maslahatchisi Mulla Panoh Voqif edi.

U ro'parasidagi emal guldon ichidagi navruzguli va binafshalarni olib hidladi va guldonni noxush holda deraza taxtasining ustiga qo'ydi.

Shu asnoda naqshli eshik ochildi. Voqifning o'g'li Qosim og'a ichkari kirdi. Mo'ylov o'rni endi terlagan bu yosh yigit naqshinkor paypoqlari bilan gilam ustiga tovush chiqarmay yurganicha otasiga yaqinlashdi va tiz cho'kib qo'lini o'pdi.

---

[1] **Burunj** — latun, jez.

— Og'a, bayramingiz muborak bo'lsin! — dedi va sevinch bilan otasining yuziga qaradi.

— O'zingga ham muborak bo'lsin, o'g'lim! Shunday bayramlarni ko'pini ko'rgin! Katta yigit bo'lgin!

Oraga chuqur jimlik cho'kdi. Na ota bir og'iz gap aytdi, na o'g'il. Voqif yuzini yana Murov tog'iga tomon o'girib aqiq uzukli barmoqlari bilan deraza taxtasini chalarkan negadir Qosim og'aning onasining bevaqt o'limini achinib esladi. Yuzidagi chiziqlar yana chuqurlashdi va ko'zidan bir tomchi yosh uzilib yonog'i bo'ylab pastga yumaladi. Go'yo uning o'zi avval buning farqiga bormadi, manzaraga tikilib qoldi. Lekin birozdan keyin yuzini yana o'g'liga burganida uning qovoq chehrasiga g'amginlik soyasi cho'kkanini sezdi, o'ziga kelganday bo'ldi. Qo'lini cho'zib, ko'rpachaning tagidan bir dastro'mol olib ko'zini artdi.

— Bayram-ku, bor aylan o'g'lim! — deya Qosimning chiqishiga ruxsat berdi. Qosim og'a o'rnidan turib eshikka yetib ulgurmasdan harir parda ko'tarilib, ichkariga o'rta bo'yli, to'la, vujudi chiroyli bir ayol kirdi. Shoyi durrasining ostidan chiqib turgan qora sochlarining uchlari oppoq tomog'i uzra ilonday buralib turardi. Doroyi ko'ylagidan bo'rtib turgan ko'kraklari namoyishkorona bir vaziyatda edi. Zarbof nimchasining tugmalari sezilmas bir titroq ichida edi. Bu ayolning chuqur iztirob kechirganidan darak berardi.

Voqifning ko'zi xotiniga tushishi bilan chaqnab ketdi, unga nisbatan asragan, ba'zan ikkilanishlar ichra topgan ishqi yangidan jonlandi.

Sho'x va ehtirosli bir tabassum bilan:

— Qizxonim, bayraming muborak bo'lsin! — dedi va uni iliq qarash bilan erkaladi.

Qizxonimning bayram farahini ifoda etuvchi chehrasi erining iltifotidan ta'sirlanib o'zgardi. Ta'nali bir chizgi uning nozik lablariga jirkanish jilosi berdi. Voqif butun nozikliklarigacha belgi beruvchi bu chehradagi o'zgarishni sezdi. Qo'rqqan narsasi yuz berdi: uning bayram na'shasiga endi zahar qo'shilgandi. Qalbi g'am-alam to'lqiniga uloqtirilib butun vujudini dovdiratdi. G'ayri ixtiyoriy ravishda qo'lini derazaga cho'zganda guldonga tegib ket-

di. Guldon tushib sindi. Qizxonim bu emal guldonning sinishidan ta'sirlanib o'zicha o'yladi: "Qalb ham shu guldon kabi bir narsa: sindimi, boshqa tuzatib bo'lmaydi".

Shu asnoda ichkariga keksa bir xizmatkor kirdi:

— Og'a, Mirza Alimammad og'a tashrif buyurdi, — dedi.

— Marhamat, kirsin!

Shu paytga qadar oyoq ustida tikka turib qolgan Qizxonim shaxt burilib — ikkinchi eshikdan chiqdi. Xizmatchi ham qo'shimcha eshikni ochib:

— Marhamat! — deya devorga qisilgancha mehmonga yo'l bo'shatdi. Mirza Alimammad ichkari kirdi. Bu baland bo'yli, soqolining ba'zi joylariga oq oralagan, qora qosh bir kishi edi. Har bir harakati chaqqon edi.

Qo'lini chaqqonlik bilan ko'ksiga qo'yib, salom berdi va ayni shunday chaqqonlikda o'rnidan turmoqchi bo'lgan Voqifning yoniga kelib tiz cho'kdi:

— Meni hijolat va sharmisor qilmang! — dedi va Voqifning ikki qo'lini hovuchlar orasiga olib qattiq-qattiq qisdi.

— Iydi-sharifingiz muborak bo'lsin, inshollоh! Ko'plab shunday bayramlarni ko'raylik, kayfiyatimiz a'lo, dimog'imiz chog' bo'lsin!

— Senga ham!... Nega endi hijolat bo'lasan? Gap martabada emas, avlodi payg'ambarga hurmat ko'rsatish ham bir musulmonga qarzdir... nega bu yerda o'tirding? Tur, og'zimizga shirinliklar olaylik.

Ikkalasi ham turib yemakxonaga o'tishdi. Bayram dasturxonining chetlariga to'shalgan ko'rpalarga o'tirdilar. Naqshinkor dasturxon ustida lojuvard sopol likobchalarda nog'ul konfeti, qozonguli, zulbiya, paxlava, shakarcho'ragi, tort, och sarig' po'rtaxol rangidagi mozandaran novvoti va quruq ne'matlar qo'yilgandi. Dasturxonning o'rtasida bir necha taqsimchalar yasmin ko'kati, chekkalaridagi lojuvard matrab[1]da esa sharbat bor edi.

Voqif qo'lini nog'ulga cho'zib o'ziga xos hazilomuz tabassum bilan:

[1] **Matrab** — ichiga suyuq ichimlik solinadigan katta sopol idish.

— Sayyid, tasadduq, shirinliklardan ol, tortinma! "Bargi sabzist to'hfai darvish[1]" — dedi.

Mirza Alimammad ustiga qalampirmunchoq sanchilgan tortdan bir parchasini kesib olib og'ziga soldi:

— Siz kabi darvish bo'lishga har kim havasmand-ku, axir.

— Eh ko'zim nuri, darvishning ne dardi bor — qara, navruz saharida guldonim tushib sindi. Bu yomon narsa emasmi, axir?

Voqifning yuzidagi tabassum izlari o'chib ketdi.

— Shoirul-shuaro, idish sinishi qo'l orasidagi baloyim — qazoning daf bo'lishi deya tafsiflaydilir. Tag'in hali yil tugagani yo'q, kun o'rta bo'lishga bir soat qolganda tugaydi. Guldonning sinishi eski yilga taalluqlidir.

— Koshki sening aytganing bo'lsa. Faqat yurakka yomon ta'sir qilayapti: pashsha iflos emas, qalbni bulg'aydi.

Boya Mirza Alimammadni ichkari kiritgan xizmatkor yuzasi nafis naqshlangan jez laganda ikki finjon qahva olib keldi va Xonmammad og'aning tashrifini xabar berdi.

Voqif:

— Kirsin, — deya lablarida istehzoli tabassum izhor etdi.

Mirza Alimammad esa tez-tez eshikka qarardi, akasining kelishidan sira mamnun emasdi. Xonmammad kirdi, bayram bilan qutlab, o'tirdi. Yashil chuxasining yenglarini yelkasiga tashlab, kattakon, usti tukli burnini tortdi va hech qanday taklifsiz dasturxondagi shirinlikdan olib og'ziga soldi. Lunjlarining ikkilasi ham shishgan bir holda shaharning yangi xabarlaridan gapira boshladi:

— Xon Qurdlar mahallasidan o'tibdi... Xazna qoyasidan qaytarmish, haligi, yangi minora poydevoriga tosh qo'ygani borayotganmish...

Voqif kulganicha uning so'zini bo'ldi:

— Yo ketayotganmish, yoki kelayotganmish!..

Xonmammad shoshib:

— Qaytayotganmish! — dedi va og'zidagi shirinliklarni sachratib yubordi:

— Qaytarmish! Boshorboshi-darg'a Og'asi ham yonida ekan. Xullas, savdogar Hoji Karimning chetani yonidan o'tayot-

[1] Darvishning tuhfasi, quruq mevalar.

ganda ko'zi Hojining qiziga tushib qolibdi. Aytishlaricha, juda yoqtirib qolganmish. Qiz ham yomon emas: o'n besh-o'n olti yoshida...

Voqif hazillashdi:

— Demak to'yda o'ynarkanmizda? — dedi.

— Nega o'ynamaymiz, Oxund, o'ynaymiz, axir...

Mirza Alimammad akasining gaplarini uyalib tinglar, ko'zlarini yerdan ololmasdi. Voqif esa xursand bo'lib hazilini davom ettirardi:

— Hoy, Xonmammad otaxon, xo'sh, do'sting Safardan qanday xabar bor?

Safar Qorabog'ning mashhur qochoqlaridan edi. Asli Zarisli[1] qishlog'idan bo'lib yuzboshini o'ldirganidan so'ng, tog'larga qochib ketib, yo'lto'sarlik qilib yurardi.

Bir yil avval Xonmammad qishloqlarning birida moljaxat[2] yig'ib qaytarkan Safarga duch kelibdi. Safar uni ushlab, xizmatchilari bilan birga daraxtga bog'labdi. Eshaklarga ortilgan mahsulotni esa olib ketibdi. Necha kun o'rmonda suvsiz, och qolgan Xonmammad tasodifan topilib, chalajon holda Shusha qal'asiga keltirilibdi.

— Siz menga kuling, chunki men qo'rqoqman. Tug' yo'lida Ardabildan kelib Tiflisga ketayotgan karvonni ham talabdi... juda qo'rqinchli odam. Esimga tushsa vujudim titraydi.

Voqif jiddiylashdi va andisha bilan so'radi:

— O'sha odam qayerda o'zi?

— Oxund, hali yosh, yigirma-yigirma ikki yoshlarda bo'lsa kerak. Ammo yovuz fe'lli bir odam u. Chaqirdimi — odamning kalavasi aylanadi...

Voqif qahqaha urib kuldi:

— Rost aytayapti, — dedi va nazari Xonmammaddan uzilib Mirza Alimammadning yuziga tushdi: Mirza lablarining uchida tug'ilayotgan tabassumni bo'g'ib, Voqifni so'zini shartta bo'lishni lozim topdi:

---

[1] Shusha yaqinidagi qishloq.

[2] **Moljaxat** — mahsulotning o'ndan biri xalqdan xon uchun undiriladigan soliq.

— Oxund, xon huzuriga borish payti bo'lmadimi? — deb so'radi. Voqif qo'lini qo'ltiq cho'ntagiga tiqib, qora bog'ichli yaltiroq qopqoqli soatini chiqarib qaradi va shoshib:

— Lala! Lala! — deb chaqirdi. — Ketishimiz kerak, — dedi.

Keksa xizmatchi ichkari kirdi.

— Og'a, qanday xizmat?

— Jilovdorga ayting, otlarni olib chiqsin!

— Xo'p bo'ladi, og'a!

Xizmatkor chiqib ketdi va ikki daqiqadan so'ng otlar tayyorligini xabar qildi. Turishdi. Voqif chuxasining yenglarini tortib bilagi ustida tugmasini soldi. Chiqishdi. Boshmoqlari dahlizda eshik oldida tayyor turardi. Kiyib, tosh zinapoyalardan hovliga chiqishdi. Ulkan tut daraxti tagida ikki kumush siynabandli, chiroyli egarjabduqli arg'umoq etakda turardi.

Jilovdorlar avval Mirza Alimammad og'aning otini oldinga tortdilar. Xonmammadning oti yo'q edi. U avvalroq yo'lga tushdi.

Voqif bilan Alimammadni ikki jilovdor va yelkalarida zinpush — soyabon tutgan ikkita xizmatchi kuzatib borardi.

3

Voqif bilan Mirza Alimammad saroyning keng kallayisiga[1] kirganda u yerda katta izdihomga duch keldilar. Shaharning barcha a'yon, ashraf[2] va asnafi[3] shu yerda edi. Yuqori to'rda yuzasi rangli shishalar bilan naqshlangan deraza qarshisidagi qimmatbaho gilamlar to'shalgan taxt ustida Qorabog' hukmdori Ibrohim Xalil xon o'tirardi. Atrofini dabdaba bilan kiyingan og'alar, beklar, a'yonlar va oqsoqollar o'ragandi. Xonning qaynotasi Malik Shohnazar, darg'a Og'asi bek, armani ruhoniysi O'hon, oq sallali shahar qozisi va yashil dastor o'ragan bir-ikki sayid ham shu yerda o'tirardi. Kallayining pastki qismi tojir va hunarmandlar bilan to'la edi: bular devor bo'ylab to'shalgan ipak ko'rpachalar ustida tizzalab odob bilan jimgina o'tirar edilar.

---

[1] **Kallayi** — binoning ichkari tomonida turdagi xona, zal.

[2] **Ashraf** — oqsoqollar.

[3] **Asnaf** — hunarmandlar.

Voqif bilan Mirza Alimammad og'ani ko'rib majlisdagilarning barchasi o'rinlaridan turdi: faqat xon bilan saltanat valiahdi bo'lgan o'g'li Mammadhasan og'a o'rinlaridan jilmadilar. Lekin yangi kelganlarni yuqoriga o'tishlarini qo'llari bilan ishora qildilar. Voqif bilan Mirza Alimammad xalqqa ta'zim qila-qila to'rga o'tib, ko'rsatilgan joyga o'tirdilar: Voqif xonning chap tomoniga, Mirza Alimammad esa o'ngda, O'hon kashish yoniga o'rnashdilar. Ibrohim xon Chingiz xonning nabirasi Xuloku xon naslidan bo'lganiga faxr bilan saroyda ham Chingiz an'analarini davom ettirishga harakat qilardi. Bu an'analardan biri obro'li odamlarning xonning chap tomonida o'tirishi edi. Voqifning ham chap tomonidan joy egallashi uning saroyda qozongan mavqeyi va hurmatini bildirardi. Yangi kelganlar o'tirishi bilan takroran xonga, atrofdagilarga, so'ngra jamoaga bosh egib, ta'zim bajo keltirdilar. Javob tariqasida uzun telpaklar tartib bilan egilib turdilar. Xon bayram munosabati bilan Lambaran gazmolidan tikilgan oq chuxa, boshiga ham oq mo'yna telpak kiygandi. Yelkasiga ichi suvsar mo'ynali bo'yinbog' tashlab olgandi. Shol belbog'idan tilla xanjarining qimmatbaho toshlar bilan bezalgan dastasi ko'rinib turardi.

Yangi kelganlar o'tirgach, dasturxonchi hozir bo'ldi, bir tizzasini yerga qo'yib chinni finjonlardagi qahvani tilla patnisdan olib mehmonlarning oldiga qo'ydi.

Voqif iforli Yaman qahvasidan xo'plaganicha kallayini tomosha qilardi. Xonani to'la egallagan nafis hoshiyali gilam o'rtasiga hashamatli dasturxon solingan, ustiga tilla va kumush idishlarda qandolat, shirin pishiriqlar, sharbatlar tuzilgandi: oralatib yasmin ko'kati, nafis guldonlarda binafsha va navruz guli, vodiydan yuborilgan olucha va shaftoli gullari qo'yilgandi. Dasturxon tepasidan chiroyli bo'yoq va zar bilan ishlangan shiftdan billurlari porlab turgan bir chilchiroq osilgan, qandillariga sariq shamlar tizilgandi. Poygakda va yuqori to'rda ham xuddi shu shakldagi, lekin biroz kichik ikkita qandil osilgandi. Yon devorlaridan birida to'rtburchak rangli derazalar orasida zarli doiraviy ko'zgular qoqilgandi; narigisida nafis bezakli alvon bo'rttirma tokchalar bor edi. Tokchalardan birida oltin suvi

yuritilgan farishta haykali, bir farang soati, boshqasida sadafdan ishlangan nozik buyumlar, egar-jabduqlar, chinni kosa va likobchalar va alvon jildli noyob kitoblar qo'yilgandi. Taxtning orqasi Kashmir shollari, Eron gilamlari, oltin va kumushga chayilgan qurol-yarog'lar: qalqon, qilich, xanjar, dubulg'a, miltiqlar bilan bezalgandi. Eron shohlaridan, atrof xonlaridan yuborilgan barcha hadyalar bu yerda jamlangandi.

Xonlikning tinchlik va farog'at ichida yashayotganiga ancha bo'ldi. Nodirning qonli bosqinlaridan keyin Karimxon Zand Eronda osoyish barpo etgandi, hozircha u yerda hech qanday tahlika kutilmasdi. Nodirning Xurosonga quvg'in qilgan va Ibrohim xon mansub bo'lgan Javonshir, O'ttiz ikki va Bahmonli ellari ko'pdan qaytib kelgan, Qorabog' tuprog'iga, Kura va Araz orasidagi ona yurtlariga joylashgan, ekin ekish, chorva boqish bilan mashg'ul edilar.

Gurjiston hokimi Irakliy xon bilan do'stlik davom etar; Irakliy Qozoh bilan Yerevanni idora qilardi, Ibrohim xonning hokimligi Dog'istondan to Tabrizga qadar cho'zilgandi. Faqat Quba hukmdori Fatali xon unga bo'yin egishni istamas, Ozarbayjonning sharqiy qismini, Bokuni, Tolishni o'z tasarrufida qoldirib, Qorabog'ga nisbatan doimiy dushmanlik saqlardi. Lekin Fatali xon tahlikasi Ibrohim xon uchun ahamiyatli bir narsa emasdi. Shusha qal'asi kabi qo'lga olish mumkin bo'lmagan, baland to'siqlar va minoralar bilan himoya qilingan shaharning hukmdori Fatali xondan qo'rqarmidi? Bir ishorasi bilan Qoratog', Xoy, Naxichevan, Shaki xonlari ko'makka keladi, qayni Umar Avaristondan o'n besh ming yigiti bilan qo'zg'aladi...

Siyosiy vaziyatning bunday qulay bo'lishi ipak bolishlarga suyangan xonning to'la, qat'iy va mag'rur yuzida aks etardi. U chilimning qahrabo naypushini lablaridan olmay turib nash'a qilib chekar va bayram yig'ilishini zavq bilan kuzatardi. Shu asnoda Xonmammad ichkari kirdi. Salom berib, paygakda o'tirishga joy axtardi. Hojilardan bittasi uni biroz yuqoriga, o'zi yoniga chaqirdi. Xonmammad o'tib o'tirdi.

Qahva keltirgan dasturxonchidan bir pahlava so'radi, u ham likobcha keltirib unga taqdim etdi. Bu manzarani tomosha qilgan

Mirza Alimammad yana siqildi, boshini quyi soldi. Xon kulimsirab Voqifga murojaat qildi:

— Xonmammad qanday ahvolda? Ranjidaxotir bo'lganimni biladi deb ko'zimga ko'rinmayotir.

Voqif muloyim ovozda:

— Iltifotingizga muntazir, — dedi.

Xon ko'p o'ylab o'tirmay:

— Qal'a darg'asiga yordamchi qilib bersak, foydasi tegarmidi?

— Umringizga duoda bo'ladi... Viloyat ahli, o'zi ham bizning tarakkama[1] aytganday, biroz nasabsizdir...

— Hechqisi yo'q, qo'lidan mahmadonalikdan boshqa bir ish kelmaydi... Shunday bu yoqdan u yoqqa, u yoqdan bu yoqqa gap tashiydi.

Voqif afsuslandi:

— Bilsangiz, Mirza Alimammad u tufayli qanchalik hijolat tortib, pajmurda dil bo'ladi.

Mirza Alimammadning nomi aytilganda xon hurmat bilan boshini qimirlatib qo'ydi:

— Bir otaning bunaqa zurriyoti ham bo'ladi, unaqa ham, — dedi va chilimini lablariga oldi.

— Suruv oqsoqsiz bo'lmaydi — otalar to'g'ri aytishgan.

Xon Voqifning so'zlarini tasdiqlab yana boshini qimirlatdi, nimadir demoqchi ekani ko'rinib turardi. Lekin qozining soatga qaraganini ko'rib jim qoldi.

Qozi yangi yilga besh daqiqa qolganini e'lon qildi. Har kim quvnoq bir chehrali bo'lishga urindi. Xalq odatiga ko'ra, yangi yil qanday ahvoli-ruhiya bilan kutib olinsa, ayni shu ahvoli-ruhiya yilning oxirigacha davom etarmish.

Shu bois yuzlar jilmayishga, dard-u g'amni unutishga harakat qilardi. Xon uchun nafis naqshli xontaxta ustiga jayron terisiga yozilgan qadimiy bir "Qur'on" qo'yilgandi; xon va atrofidagilar yangi yilni oyatga qarab kutib olishni istardilar. Bir-ikki daqiqa davom etgan chuqur sukunatni zambarak ovozlari buzdi: yil

[1] **Tarakkama** — turkman.

almashardi. Hamma o'rnidan turdi, saf bilan xonga va a'yonlarga yaqinlashib tabrikladi.

4

Tushdan keyin shaharning butun aholisi Jidir[1] maydoniga qarab oqa boshladi.

Rang-barang kiyingan ayollar, bolalar; barmoqlari xinali, soqollariga zeb berilgan erkaklar, taranib, bezanib olgan yoshlar aralashib ketgan. Og'alarning ko'ksi bezakli, savdogarlar va hunarmandlarning moviy, yashil va qora chuxalari g'aroyib bir manzara hosil qilardi. Bu bayram qiyofalariga o'smirlar shimlarining xishillashi, sozlarning jarangi ilova qilinsa manzara yanada oydinlashadi. Otliqlarning son-sanog'i yo'q edi. Dong'i olamga ketgan Qorabog' arg'umoqlari, bayram kunining sinov kuni ekanini bilganday boshlarini yon tutib depsinar, xinalangan yollari oftobda jilolanardi. Qal'aning barcha dilovar mard-u maydonlari: turk el va uluslarining jasur yigitlari, Qumuq va Avariston polvonlari Jidir maydoniga oqardi. Shaharga yaqin bu keng yalanglik maydon chumoli iniday qaynardi.

Sozlar va gurunglar, quvnoq qahqahalar — hazin bayotilar, dilkash shikasta kuylar bir-biriga aralashib yoqimli tarona hosil qilar, arg'umoqlar kishnashi esa bu taronaga alohida joziba baxsh etardi.

Birdan keng yalanglik ustidan to'lqinlanib bir shovqin o'tdi — minglarcha odam ko'zlarini tepada tiklangan chodirlarga tikilib jimib qoldi.

Dabdabali bir qafila — suvoriylar va piyodalar karvoni chodirlarga qarab yurardi.

Oldindagi arg'umoqda Ibrohim xon, chap tomonida Voqif, o'ng tomonida Mammadhasan og'a borardi. Orqadan esa darg'a Og'asi bek, og'alar, beklar, ba'zi armani maliklari, mirzalar otlarini asta-sekin haydardilar. Qafilaning orqa tomonidan yuk ortilgan xachirlar borardi. Ularga suv meshlari, g'ilofli safar kal-

[1] **Jidir** — otchopar, poyga maydoni.

yanlari, osma manqal, har xil ashg'al-dashg'al ortilgandi. Qafila chodirlardan biroz chetroqda to'xtadi; hamma otlardan tushib, chodirlarga joylashishdi.

Saroy xonimlari oldinroq kelib yon chodirlarda o'tirishgandi. Xalq maydonni gir aylana o'rab poylar; Burg'u chalindi, poyga boshlandi.

Kichikbayim onasining yonida o'tirib, zo'r hayajon bilan poygani tomosha qilardi. Chopib ketgan otlarni biri oldinga o'tib oldi deguncha Kichikbayimning rangi oqarar, o'rnida jim turolmasdi. Ba'zan orqada qolgan chavandozga achchiqlanib, g'ayri-shuuriy bir holda qo'lini ko'tarib chodirning naqshinkor ustuniga tushirib qolardi. Ana, bir nozik belli qumuq yalang'och xanjarni og'ziga tishlaganicha otini uchirib kelayotib, miltig'ini boshidan oshirib o'q uzadi va yana yelkasiga osib, xanjarini qiniga soladi. Kichikbayimning bug'doyrang yuzi qizaradi, zavq bilan qo'llarini musht qilib tugadi... O'ttiz ikki ulusidan bir yosh yigit ostidagi to'riq otini yelday uchirib borayotibdi, go'yo chodirlardan ilhom olib, osmonga bir pavarot[1] otib, uni o'q bilan urib tushirdi...

Kichikbayim qanotlari bog'langan qush misoli tipirchilaydi, chuqur iltijo bilan onasiga qaradi:

— Oyijon, — deydi: — men ham jidirga[2] chiqqim kelayapti.

— Yo'q qizim! Odamlar nima deydi!

Kichikbayim yolvoruvchi ko'zlari bilan onasining yuziga qaragancha:

— Nima deyishardi, ot ustida o'smaganmizmi? Peshonamdagi chandiq haliyam bor... — deya sho'x bir noz bilan chap ko'zining ustidagi ingichka chandiqni onasiga ko'rsatdi va dalilining g'aroyibligi o'ziga ham yoqib jilmaya boshladi.

Shohnisa xonim qizining yuziga qusurdan ko'ra juda yarshib turgan bu chandiqni bir oniy farah bilan kuzatdi, biror so'z aytmadi, faqat qoshlari chimirildi — bu norozilik alomati edi. Kichikbayim buni bilardi.

Shu asnoda chodirning orqasidan ot kishnagani eshitildi. Kichikbayim yig'lamsirab:

---

[1] **Pavarot** — Panoh xon chiqargan tanga.

[2] **Jidirg'a** — poyga.

— Ko‘rdingizmi, otim zerikib kishnayapti... Rahmingiz kelmaydimi bechoraga? — deb boshini onasining ko‘ksiga qo‘ydi.

Shohnisa xonim kulimsiradi va qizining boshini silab so‘radi:

— Hoy qiz, bir qarachi, anavi kelayotgan bizning Mammad emasmi?

Kichikbayim darhol o‘girilib qaradi.

Rostdan ham Mammad bek bir saman ot belida chang to‘zg‘itib chopardi: Chuxasining orqada hilpirayotgan yenglari ninachi qanotlarini eslatardi.

Cho‘ntagidan pul chiqarib, arg‘umoqning quloqlarini ustidan oldinga otdi, chopib borayotib otdan tushdi, pulni yerdan ko‘tarib va yana otga minib yo‘lida davom etdi.

Kichikbayimning avval rangi oqardi, keyin qizarib ketdi. Mammad bekning otchopar chetiga yetganini ko‘rgach, chuqur nafas oldi. O‘zini biroz to‘xtatib:

— Lala! Lala! — deb chaqirdi.

Chodirning yonida turgan qadimiy Bobo shu zahoti paydo bo‘ldi:

— Bayim, menga qanday xizmat, bor, tasadduq?

Bayim jasur bir ovozda:

— Lala nega turibsan, otim u yerda kishnayaptimi? Darhol minib jidirga chiq! — dedi.

Bobo Shohnisa xonimning yuziga qarab jilmaydi. Shohnisa xonim kulib:

— Chiq deyapti, chiq! Bu qizning yana tentakligi tutib qoldi, — dedi.

Bobo bosh egib ketdi.

Ko‘p o‘tmay Bobo ot ustida kelib, choptirib o‘tdi va o‘tib borarkan chaqmoq toshi bilan tutantiriqni o‘t oldirib chubug‘ini[1] tutatdi.

Chodirlardan guldirab kulg-u ko‘tarildi. Kichikbayim zavq bilan onasining qo‘lidan yopishib dedi:

— Ko‘rdingizmi, azamat lala orzuyimni yerda qoldirmadi.

[1] **Chuhuq** — mushtuk.

5

Voqif Qozohning Soatli elidan edi. O'n sakkizinchi asrning boshlarida Qiroq Solohli qishlog'ida tug'ilgandi. Otasi Qozohliklar singari dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanardi. Lekin ko'p yillardan beri davom etayotgan Usmonli—Eron urushlari bu elning tinchligini buzdi, barcha qo'liga qurol ushlashga qodir bo'lganlarni sudrab ketardi. Avval Qozoh — Shamsiddin bilan birga Ganja xonligiga qaram edi. Keyin Ganjaga hukmdorlik qilayotgan Ziyod o'g'illari Nodirning hokimiyat tepasiga kelishga moyillik ko'rsatmaganlari uchun Nodir Qozohni Ganjadan ajratib Gurjiston voliyligiga qo'shib berdi. Nodir shohning barcha safarlarida Gurjiston voliysi[1] Irakliy bilan birga qozohliklar ham ishtirok etib, katta mardlik ko'rsatardilar lekin bu mardlik juda qimmatga tushardi: xalq qirilar, ona yurti vayronalarga aylanardi. Gurjiston va Ozarbayjonga hujum qilgan usmonlilar[2] ham bu tuproqlarni qayta-qayta toptab o'tardilar.

Tabiiyki, xalq bu hayotdan tang ahvolda qolgan, undan chiqish yo'lini izlardi. Qorabog' xonligining tashkil topishi va Shushaning 1754-yilda ta'sis etilishi Qozohliklarga umid baxsh etdi. Katta yo'llardan chetda tog' ustida qurilgan bir qal'a himoyasida tinch yashashni istardilar. Qozoxliklarning Qorabog'ga ko'chishi shu sabablardan kelib chiqadi. Voqif ham Soatli eliga mansub bo'lgan o'n yetti oila bilan birga Shushaga ko'chib kelib Soatli mahallasiga joylashgandi.

Voqif Shushaga kelganida 29–30 yoshlarda edi. O'qishni o'z qishlog'ida bitirgan turkcha va forschani mukammal bilar va zamonasi ilmlardan voqif edi. Kelishi bilan Soatli mahallasida bir maktab ochib, dars berib hayot kechira boshlagandi. Dars ma'nan Voqifni qoniqtirmasdi, bu hunar unga ozlik qilardi. Unda kuchli bir ishonch bor edi, hamda o'jar edi; uning ziyrak ko'zlari muhitining har tomonini ko'rar, yutuq va kamchiliklarini ajrata olardi. U shu muhitga nufuz baxsh etish, uni o'z ra'yiga bo'ysundirishini istardi.

[1] **Voliy** — hokim.

[2] **Usmonlilar** — turkiyaliklar.

Lekin o'sha paytda hali Voqif oddiy bir mulla sifatida tanilgandi, bu tanishlik ham kamchilik mahallasi doirasidan chetga chiqmagandi. Faqat ba'zida go'zallarni maqtagan she'rlari shaharda aylanar, qiziquvchilar bu so'zlarni o'z bayozlariga yozib qo'yardilar.

Shunga qaramay u hech kimni tanimasdi, tanishni ham istamasdi.

O'zining yo'qsil kulbasida o'tirib, mustahkam bir iroda bilan oldinga qarar, hech qanday an'ana bilan hisoblashishni istamasdi. U tavallud e'tibori bilan sunniy edi, lekin e'tiqod e'tiboriga ko'ra qattol sunniylardan emasdi. U shia muhitida yashardi. Ammo shialikning ikki yuzliligi uning riyosiz tabiatiga mos kelmasdi. U, faqat vahdatga[1] ishonar, vahdatning ham mantiqsizligini sezardi.

Bir kuni g'alati hodisa yuz berdi. Bu hodisa Voqifning ko'zga tashlanishiga sabab bo'ldi. Bir cho'ponning sevgan ko'ppagi bor ekan, cho'pon kuchugiga ko'z tegmasin deb bir duo yozdirish niyatida bo'libdi. U, avom tarakama[2] bo'lgani uchun bu harakatning joiz emasligidan xabarsiz ekan. Cho'pon o'zi bilan bir-ikki qo'yni olib shaharga kelibdi. Dardini duch kelgan bir shaharlikka aytibdi, shaharlik bu odamning xom ekanini sezib, uni qo'lga tushirmoqchi bo'libdi. Shaharda avom cho'llikni qo'lga olish qoida bo'lgani chun mazkur shaharlik cho'ponni maydondagi qassobning yoniga yuboradi. Qassob masalani tushunib, cho'ponni Shaytonbozorga, kimningdir oldiga yo'llaydi. Bechora cho'pon bozorni to'rt marta aylanib chiqadi. Nihoyat bittasi unga Voqifga uchrashishni maslahat beradi.

Voqif gap nimadaligini yaxshi anglab, quyidagi misralarni bitadi:

Ko'zim tushdi atiga[3]*,*
Duo yozdim itiga,
Ushbu sirni kim ochsa
Bu cho'ponning.....

---

[1] **Vahdat** — birlik, yakka-yu yagonalik.

[2] **Tarakama** — turkman.

[3] **At** — go'sht (qo'y nazarda tutilyapti).

Moviy va qattiq qog'ozga shu "duo"ni yozib, buklab cho'ponga berarkan, Voqif debdi:

— Buni eski bir matoga tik, bitta ko'z munchog'i ham olib itning bo'yniga osib qo'y.

Cho'pon ketadi. Kunlarning birida Ibrohim xon ovga chiqqan ekan, ovda charchab bir sayhon yerda chodir tiktiradi. Bitta daraxt soyasida tamaddi qilib o'tirarkan atrofda uymalashib yurgan itlardan birining bo'ynidagi "duo" ning farqiga boradi. Qishloqi cho'ponning bunday xilof ish tutganiga hayron bo'lib tumorni itning bo'ynidan yechdirib o'qiydi.

Xon bir tomondan g'azabga keladi, boshqa tomondan esa ichichidan kuladi. Shaharga kelishi bilan eshik og'asi Shohmammadni huzuriga chaqirib, duo yozgan odamni topishni buyuradi. Shohmammad cho'ponni Qal'aga olib keladi, Cho'pon ham Voqifni aytadi. Xon devon xonasiga keladi, qizil kiyingan jallodlar saf tortadilar, Voqifni olib kelishadi.

Ibrohim xonning qizi Sanam xonim she'rga juda qiziqqanidan Voqifning har bir she'rini bayoziga ko'chirib yurarkan. U shu paytgacha o'zi ko'rmagan bu shoirning ushlab keltirilganini eshitishi bilan kelib devonxona derazasining orqasidan uni tomosha qilardi. Ozg'in, lekin sog'lom yuzli, qoramag'iz chaqnoq va jasur ko'zli bir yigitning devon oldida mag'rur turganini ko'radi. Qora chuxali, rangli chitdan nimcha kiygan bu yigit o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib dadil ovozda xonning savollariga javob berardi. Shu paytgacha faqat she'rlariga maftun bo'lgan Sanam xonim bu safar shoirning o'ziga: zakovotiga, hozirjavobligiga, yoqimli siymosiga va shirinsuxan gaplariga shaydo bo'ldi.

Voqif xonning g'azabli so'zlarini tinglagach, shirin bir ovozda gap boshladi:

Yuz yigirma to'rt ming payg'ambar o'tdi,
Dunyodan kim ketdi biror dard-g'amsiz.
Qani Nushiravon, taxti Sulaymon?
Davron shunday o'tdi, Jamshid-u sensiz,
Ko'p ishonma; oltinim bor, pulim bor,
Puch dunyoda ulusim bor, elim bor,

Hech demassan: ayriliq bor, o'lim bor,
Necha ming suhbatlar qilishgan sensiz.
Matlubim istaram shohi — Haydardan,
Sohibi Zulfiqor, shohi — Qambardan,
Bechora Voqifni qo'yma nazardan,
Qul xatosiz bo'lmas, og'a karamsiz!

Diqqat bilan she'rni tinglagan Sanam xonim hayajon-la goh shoirga, goh otasining yuziga qarardi: xonning g'azabi asta-sekin pasayadi, nihoyat, halimlasha boshladi. Chuqur bir sukunatdan so'ng xon qo'li bilan ishora qildi. Voqifni qo'yib yuborishdi. Voqif ozod bo'ldi, lekin... Sanam xonimning qalbini asir qilib olib ketdi. Endi bu qalb kecha-kunduz Voqifning atrofida tipirchilardi. Xon qizi kun bo'yi saroyning chekka bir derazasi oldida o'tirib saroydan masjidga boruvchi to'g'ri ko'chani, rastabozorni, g'arb tomonda yo'q bo'lib ketgan Soatli mahallasini kuzatar, Voqifning har bir misrasidan tug'ilgan otashni ko'z yoshlari bilan so'ndirishga urinardi...

Bir kuni Voqif xivichdan o'rilib ustiga suvoq tortilgan kulbasining gullab turgan bog'ida aylanarkan tikonli chetanto'siqning orqasidan o'tayotgan, boshida tuguncha ko'targan bir bola undan so'radi:

— Amakijon, mulla Panoh Voqifning uyi qaysi?

Voqif hayratlanib chetanto'siqqa yaqinlashdi.

— Shu yer, nimaydi? — dedi.

Bola kulimsiradi, eshikni ochib hovliga kirdi.

Bola tugunchani berib, masalani ohista tushuntirdi. Voqifning keksa onasi suyunganicha bo'xchani uyga olib kirdi, o'g'lini ham chaqirib dedi:

— Hoy bolam, Xon qizi Sanam xonim senga sovg'a yuboribdi.

Voqif kumush taxsimchaning ipak yopinchig'ini ko'tardi: tilla likobchada bir juft qizil shaftoli yuborilgandi.

Shoirning sevinchi uyni to'ldirdi. Onasi ham sevinar, ham hijolat chekardi.

— Hoy o'g'lim, — derdi, — xon qizidan xijolat bo'lamiz: tuguncha quruq qaytarilmaydi, unga loyiq bo'ladigan nima yuborsak

ekan... — ayol o'ylanib qoldi: — ko'p bo'ldi, bir juft paypoq to'qib qo'ygandim, yo shuni qo'yamizmi?

Voqif ham o'yga tolgandi. U ham og'ir bir vaziyatga tushib qolgandi.

Ona yana takliflarida davom etardi:

— Bir taroq g'ilofi tikkandim, sholdan... sandiqda bir atrim ham bor, rahmatlik otang Sherozdan olib kelgandi... bir tovon-toshimiz ham bor, usti kumushdan... o'z sepimdan, rahmatlik otang Tabrizdan yuborgandi... xayolimga kelgan faqat shular...

Voqif biror so'z aytmasdan uydan chiqdi. Nok daraxtining tagiga bir sholcha va uning ustiga ko'rpacha solingandi. Voqif bo'sh paytlarida shu yerda o'tirib she'r yozardi. Qalamdonni va qog'ozni ham hamisha shu ko'rpacha ostidan olardi. Tez kelib o'tirdi, tayyorlandi va tizzasini ko'tarib, qog'ozni uning ustiga qo'ydi. Qamish qalam dovatning uchiga botirilib, moviy qog'oz satriga qing'ir-qiyshiq misralar to'qilardi. She'r tayyor edi. Buklab, shaftoli likobchasiga qo'ydi va boladan berib yubordi.

Sanam xonim bolaning qaytib kelishini sabrsizlik bilan kutardi. Nihoyat bola qaytdi. U Voqifning maktub yozib likobchaga qo'yganini xon qiziga aytdi. Sanam darhol tugunchani yechib, likobchani oldi, yopinchig'ini ko'tardi — shoirning xati yo'q edi. Xonim g'azablandi, xizmatkor bolani urishib, orqasiga qaytardi: "Bor, topib kel" — dedi.

Hamma joy izlandi, yo'llar, saroy atrofi qarab chiqildi — maktub hech qayerdan topilmadi. Shu asnoda xos xizmatchilardan biri maktubni pillapoyadan topib xonga bergan, xon g'azab bilan xatni o'qiyotgandi:

Rosa ajab qilib Xusravi shohim,
Bir juft bizga labi — shirin yubormish.
Go'zallar bog'ida meva yetilgan
Uning bizga xush nuborin[1] yubormish.
Mendan salom bo'lsin, yetkaz Yamanga,
Siynasi billurga, sadri jahonga,
Bilsayding xush keldi naqadar manga,

[1] **Nubor** — hadya, sovg'a.

Yer yuzining siym-u zarin yubormish.
Yo Rab, axir ul jononga kim demish:
Falonchi betobdir, meva tilamish,
Ulki, bizga yemish in'om aylamish,
Voqif unga sovg'a sarin[1] *— yubormish.*

Xon Voqif so'ziga ko'zi tushishi bilan titray boshladi, qo'lini cho'zib mo'ylovlarini og'ziga soldi, chaynadi. Bu yaxshi alomat emasdi.

Bunday hollarda albatta qon to'kilardi. Xonning to'ng'ich xotini Bika og'a buni ko'rib imo qildi, xonning boshqa ayollari va bolalar xonani tark etishdi. Bika xonim erining g'azab-la yirtib yerga sepgan qog'oz parchalarini ehtiyotlab yig'ishtirdi, tizib chiqib o'qidi. Zahiron yuziga bir jahl qo'nsa-da, aslida juda sevindi. Chunki Sanam bo'yi yetgandi, ammo xohlagani yo'q edi.

Uyda qolishi ham balog'atga yetgan boshqa qizlarga monelik qilardi. Yaxshi taklif bo'lsaydi eng avvalo erga berilish haqqi uniki edi, chunki o'sha paytlar: "falonchi falon xon bilan qarindosh bo'lishni istaydi", elchi yuborilar va qiz emas xon nazarda tutilardi. Xon ham saroyga mansub qizlarning eng kattasini taklif etardi. Bika xonim yetishgan qiz onasi sifatida bu odat va qoidani nazarda tutib xonning g'azabini sovutishga va qalbiga yo'l topishga harakat qildi. Sovg'a yuborib, xat olishning qabihligini qayd etib, yoshlarning "miyasiga qon urganini" ham ehtiyot-la tushuntirib, keyin sekin gapirdi:

— Ota-bobolar aytishgan: qizni o'z boshiga qo'yib bersang surnaychiga ham erga tegaveradi, — dedi va ehtiyotlik bilan davom etdi: ammo bu Voqif degani aftidan aqli boshida yigitga o'xshaydi. O'zi ham savodxon. Yozuvi ham chiroyli... Chiniqqan..

Xon biroz yumshadi:

— Xati boshidan qolsin! Xati bor deb odam boshidan baland sakraydimi?

Xonim bu safar yana dadillashdi:

— Xon nega bunday deyapsiz? Bilimi bo'lgandan keyin o'zingizga ham kerak bo'ladi-ku. Yaxshi mirza kerak hamisha. Buning

[1] **Sar** — bosh.

ustiga qiz daraxti — qoz[1] darahti degan naql bor, har o'tgan bir tosh otadi. Yozib-yozib uzoqdan nima ham yozardi, el qoyadan nima ham olardi? Yoshlardan aql kutib bo'ladimi? Hozir ularning o't-olov paytlari...

Xon chuqur o'yga tolgandi. Yetti-sakkiz xotinining ichida eng ko'p hurmat qilgani Bika xonimning so'zlari unga ma'qulday ko'rinardi.

Bika xonim ko'zlarini uning yuzidan uzmay asta-sekin mulohazalarini erining fikriga jo qilardi:

— Ya'ni bu taniganimiz xonlarning hammasining ota-buvasi xon o'tganmi? Nodir shoh oddiy bir cho'pon emasmidi? Chingiz avlodi borki, asir bo'ladi, zavol ketadi, xizmatkor borki, mardlik ko'rsatadi, og'asining taxtiga o'tiradi... Boshida aqli bo'lsa, maydonga chiqishga layoqati bo'lsa, qolgani to'g'ri bo'lib ketadi...

Xon xotinining so'zlarini bo'lib, ojiz bir ovozda so'radi:

— Ya'ni, aytayapsanki, Sanamni Voqifga beraylikmi?

Bika xonim asl maqsadini yashirib:

— Maslahat o'zingizdan, — dedi, — lekin unga bir mirzalik bersangiz, biror qog'oz yozdirsangiz, ya'ni kimdan kam joyi bor?

Xon xotinining gaplari haqli ekanini angladi, lekin qat'iy bir javob bermay yana o'ylanib qoldi. Voqifning devonxonadagi javoblarini esladi, uning xushraftor, muloyim, o'rni kelganda uning gaplariga e'tiroz bildirmay, yon bosishini yodiga olib, Voqifga nisbatan gina-qudurat emas, balki qiziqish bilan qaray boshladi. Nihoyat, hali masalani oshkor qilmay, Voqifni chaqirib, uni o'ziga mirza etib tayinladi. Qisqa bir muddat davomida Voqif davlat ishlarida katta mahorat ko'rsatib, butun saroyda hurmat qozondi va xonning eng yaqin do'stiga aylandi. Shu asnoda Sanam xonim qizlar xonasida o'ynab-kulib yurganda birdan yurak og'rig'iga uchrab, bir necha daqiqa ichida olamdan ko'z yumdi. Voqifning jo'shqin ishqi bilan qovusha olmasa-da, bu ishq tufayli unga yangi hayot eshiklari ochildi.

Voqifning doimo isyon ko'tarib tipirchilagan yuragi jarohatli qoldi.

[1] **Qoz** — yong'oq.

6

Qoidaga ko'ra, jidir — otchopardagi tantanalardan so'ng bayram tugar va saroydan davlat arboblariga, sarkardalarga va boshqa mo'tabar zotlarga mukofot — to'n jo'natilardi. Ibrohim xondan tashqari valiahd Mammadhasan og'a ham ba'zi odamlarga hadyalar yuborardi, shu jumladan Voqif ham rag'batlanardi.

Bayramning ikkinchi kuni odat bo'yicha valiahdni ziyorat qilardilar. Voqif yana Mirza Alimammad bilan yo'lga tushdi. Tor bir yo'lak bilan maydonga chiqib olishdi. Bozor berk edi, lekin rang-barang kiyingan xalq qaynardi.

U yer-bu yerda qandolatchilar shirinliklar sotar, sallabichilar yangi kavsharlangan yirik choydonlarini silkitib: "Sallabi[1] — tanga malham!" — deya baqirar, qizil nimchalari ustidan bellariga bog'langan yarim doiraviy qutidagi finjonlarini jingillatardilar. Bir tomonda darvishlar davra qurib, qasida o'qishar, sal nariroqda afsungar to'rva xaltasidan turli-tuman ilonlar chiqarib bo'yniga, bilaklariga, beliga o'rardi; yashil bo'zdan uzun yelkapo'sh kiygan: boshiga o'n ikki imom haqiga o'n ikki qizil salla o'ragan bir sehrgar o'choqda qizdirilgan temirni tilining uchiga bosardi.

Voqif kulimsiraganicha olomonni yorib asta-sekin olg'a siljirdi. Hamma unga salom berar, bayram bilan qutlardi. Voqif ham xinali barmoqlarini labiga, keyin peshonasiga tekkizib salomlarga javob berardi. Maydondan chiqib rastabozor bo'ylab pastga tusha boshladilar. Chuqur mahallaga kiraverishda armanilar kalisosining ro'parasida O'hon kashishga duch keldilar.

Voqif hazilomuz muloyim va shirin ovoz bilan:

— Mirza O'hon, qartayib qolibsan-u, haliyam Isoning etagidan qo'l tortmaysan-a, — dedi.

O'hon oqargan soqolini silab turib:

— Isoning etagida karomat bo'lsaydi, avval o'zini dordan qutqarardi, — dedi.

Kulishdi. Voqifning ko'zlari toshdan tiklangan ixchamgina kalisoga tushdi: afti basharasini turklardan sira ajratib bo'lmaydigan armanilar boshmoqlarini eshikning oldida yechib kalisoga

[1] **Sallabi** — shirinlik, sharbat.

kirardilar. Kaliso binosining o'ng tomonida turgan kichik martabali ruhoniy o'z tilida o'qir, armani xalqini ibodatga chorlardi. Oq chadrali, qizil cholvorli armani ayollari boshqa bir eshikdan kalisoning xotinlariga maxsus ajratilgan ayvoniga kirishardi. Eshikka olib boruvchi yo'lning u tomoni ham, bu tomoni ham mayib-majruhlar, kasallar bilan to'la edi.

Voqif:

— Aftidan Mammadhasan og'aning xizmatiga tashrif buyuradiganga o'xshaysan? — deya otini niqtadi.

— Inshaalloh! Inshaalloh — deya O'hon itoatkorona jilmayishi bilan otliqlarni yo'lga boshladi.

Mammadhasan og'aning qo'rg'oni qoya boshida, To'pxona va Bag'riqonga ro'paro' chiroyli bir joyda edi. Qal'a devori va burchak minoralari bu yerdan o'tib qiblaga tomon Shohnishinga va Xazna qoyasiga qarab cho'zilib ketgandi. Ko'pxonali, keng ayvonli, rangorang derazali, ikki qavatli bino toshdan tiklangandi.

Darvozaning arkiga pishgan, yirik g'ishtlardan naqshlar berilgandi. Binoning chap tomonida otxonalar, omborlar, molxonalar qurilgandi. Darvozadan ayvon zinasiga eltuvchi tosh to'shamali yo'lning usti tunika chordog'i bilan qoplangan. Mehmonlarni xizmatkorlar kutib olib, ichkari da'vat qilishdi. Musiqa tovushi kelardi. Tanobi xonada Mammadhasan og'a, bir guruh mashshoq va xonandadan boshqa odam yo'q edi. Mammadhasan og'a mehmonlar bilan ko'rishib, Voqifga chap tomonidan, Mirza Alimammad og'aga o'ng tomondan joy ko'rsatdi, o'tirishdi. Mammadhasan og'aning so'lg'in chehrasida qandaydir g'am bor edi, ko'zlarining usti biroz shishgandi. Sil kasaliga chalingani uchun saroy hokimi unga xino aralashtirilgan mahsus doridan berar bu malhamni ichish kerak bo'lgan qirq kun muddat davomida uning ruhini ko'tarish uchun yonida musiqa chaldirardi.

Mehmonlar ichkari kirganda Mammadhasan og'a ishora bilan musiqani to'xtattirdi.

Voqif vaziyatni tushunib dedi:

— Og'a, dasturxoningiz ochiq, iltifotingiz va saxovatingiz olamga ma'lum, do'stlardan hech narsani ayamaysiz, ammo zavqni... ko'rinib turibdi, yolg'iz olish istagidasiz...

Mammadhasan og‘a kulimsiradi:

— Bosh og‘rig‘i bo‘lmasin, dedim-da.

— Aflotun musiqani ruh ozig‘i, degan ekan[1].

Mashshoqlar chala boshlashdi. Voqifning tuyg‘ulari to‘lqinlanib, mahzun, ayni paytda zavq yuzida aks eta boshladi. Ingichka qoshlari chimirildi. Ko‘zlari suzilib, hasrat to‘la nigohi bir nuqtada qotib qoldi. Shu onda u, negadir, sharq naqllaridagi fusunkor shamni esladi. Ko‘nglida charx urayotgan orzularini amalga oshirish uchun shamni yondirsang, istaganing o‘sha zahotiyoq hosil bo‘lgay. Hozir o‘sha sham shu yerda bo‘lsaydi, xira yorug‘ida jilvalangan ohu ko‘zli, nozik adoli dilbarlarni tomosha qilardi... Nafis xonandalar torlarni nolalariga qo‘shilib, jarohatli qalbda aks sadolar tug‘dirar, oppoq siynalariga sanchilgan binafshalar ifori bilan dimoqqa urilardi.

Musiqa va ayol maysiz, bodasiz ham odamni mast qilardi...

Mehmonlar kela boshlagandi. Og‘alar va beklardan boshqa Shohmammad va Xonmammad ham shu yerda edi. Alimammad, Shohmammad va Xonmammad tug‘ishgan og‘a-inilar bo‘lishlariga qaramay oralarida keskinlik bor edi. Xonmammadning sevilmasligi aniq edi — bu odam necha marta Alimammadning vositachiligida ishga qo‘yilgan, topshirilgan vazifani bajara olmagandi. Qo‘rqoqligi va soxta qiliqlari bilan xonning g‘azabini qozongandi. Shohmammad esa, aksincha, jasur, amrga tobe, xonning barcha g‘azablarini o‘chirishga tayyor bo‘lgan bir odam edi. Lekin unda ifodasi qabul bo‘lmaydigan bir narsa bor edi va shu narsa tufayli uni yoqtirishmasdi: tashqi ko‘rinishi juda xunuk, katta cho‘tir burni, yulingan qoshlari, mayda, nursiz ko‘zlari kishida noxushlik uyg‘otardi. Ovozida boyqush sayrashi eshitilardi, gapirganda odamni vahima bosardi. O‘lkaning pastdan tepagacha hech bir tabaqa va sinfi xonning g‘azabidan qochib qutulolmasdi. Bu g‘azab ham Shohmammadning vositasida amalga oshirilardi.

---

[1] Qo‘lyozmaning shu joyida Voqif nomining yonida arabcha yozuvda “she’r” so‘zi yozilgan. Aftidan, Voqif Mammadhasan og‘aga she’r bilan javob bermoqchi bo‘lgan yoki javob bergandan so‘ng bir she’r ham aytmoqchi bo‘lgan, lekin muallif nazarda tutgan she’rni matnga tushurmagan.

Birozdan keyin O'hon kashish ham yetib keldi. Avval yuqoridagilar bilan salomlashib, keyin yuzini majlis ahliga burdi; pastdagilarning hammasi bilan birma-bir salomlasharkan, ko'zlari Shohmammadga duch keldi, rangi o'chdi. U bilan uch marta salomlashib, o'sha joyida tikan ustiga o'tirganday cho'kdi.

7

Peshin azonida mehmonlar tarqaldi. Mammadhasan og'a Voqifni, Mirza Alimammad va O'hon kashishni tushlikka olib qoldi. Ovqatlanish xonasiga o'tishdi.

Xonaning o'rtasida gilam ustida gulli dasturxon yozilgan, atrofiga ipak ko'rpachalar to'shalgandi. Mehmonlar o'tirishlari bilan xizmatchi qo'lida oftoba — lagan bilan kirib keldi, qo'llar yuvilib va xizmatchining yengidagi sochiq bilan artildi. Boshqa xizmatkorlar patnislarni keltirib dasturxonga tizishdi. Har kishiga bir patnis berildi va har patnisga ham bir likobchada qizilmiyali palov, ustida yaxna qo'zi go'shti, yonida sarimsoqli qatiq va jigarilik qo'yilgandi. Ko'k rangli xumchalarda ichiga rayhon urug'i qo'shilgan sharbatlar ham bor edi. To'rda o'tirgan Mammadhasan og'a patnisning chekkasiga qo'yilgan oq, yupqa lavashdan[1] ozgina kesib olib mehmonlarga qaradi va:

— "Bismilloh!" deya ovqatlana boshladilar. Bir muddat jimlik hukm surdi. Ko'rinib turibdiki, ovqat mehmonlarga juda ma'qul kelgandi, faqat likobchalar yarimlaganda Voqif barmoqlaridagi no'xot donlarni bir yerga to'plarkan:

— Rostdan ham, — dedi, — har faslning o'z ne'mati; yilning bu paytida no'xatli palov juda e'tiborli va laziz taomdir. Bizlarda no'xat hali endigina nish urayapti:

Mammadhasan og'a:

— No'xatni Ag'damdan yuborishgandi. Ammo afsuski, yarmi kuyib ketibdi, — dedi.

O'hon kashish:

— Hali barra-da, shuning uchun kuygan, — deya qo'shib qo'ydi.

[1] **Lavash** — yupqa yoyilib pishirilgan non.

Yana ovqatlanishga tutindilar. Ba'zan boshlanib, uzilib qolgan hangomalarni istisno qilganda, tushlik oxirigacha jimlikda o'tdi. Nihoyat eshik og'zida qo'llarini ko'ksiga qo'yib turgan xizmatkorlarga ishora qilindi.

Dasturxon yig'ishtirildi. Yana oftoba va lagan keldi, iliq suv va sovun bilan qo'llar, og'izlar yuvib, artildi.

Chilim keltirildi. Hammaga qahva, faqat Mammadhasan og'aga dolchin choyi keldi: sovuqlikni yo'qotishda davo emish...

Chilim chekish ancha cho'zildi va suhbat qizigandan qizib borardi. Qayerdandir bir necha yil burun Londondan kelib Qorabog'ga chiqqan bir armani esga tushdi.

Voqif taassuf-la:

— Afsuski uni ko'ra olmadim, aytishlaricha jasur odam ekan, — dedi.

Mirza Alimammad kinoyali bir ifoda bilan luqma tashladi:

— Jasur edi, ammo bandangizning bir illati bor edi. Har bir so'zi tug'yon edi. Xon unga nisbatan juda mardlik ko'rsatdi. Gunohlarini kechirdi.

O'hon kashish Mirza Alimammadning so'zlarini tasdiqlab:

— Xon juda katta oliyjanoblik qildi, — dedi, — Yusuf Amin, bilasizlar, hamadonlik edi, borib Londonda o'qigandi, keyin Fitilburga[1] keladi, missioner qo'liga tushadi, o'rgatib, yo'ldan uradilar. Bor, armanilarni to'pla, gaplash, deydilar, ularga ayt, musulmonlarni qirg'in qilishsin, qo'rqishmasin. Bizlar yordam bergani boramiz. U ham keldi. Dog'istonda, Tiflisda va bu yerda biroz aylandi, armani tojirlaridan[2] pul yig'moqchi bo'ldi. Uch kalisoga bordi, bizning tovuqmiya patriarxdan fatvo — duo oldi... oxiri qarasa biror ish chiqmaydigan, Hindistonga jo'nab qoldi...

Mirza Alimammad yana muloyim ovozda boshladi.

— Yusuf Aminning bu yerda shaytanat urug'ini sochishga kelganini bilardik. Irakliy xonning huzuriga ham borgandi, qabul qilinmagandi. Xon bu masalani menga havola qilgandilar. O'zi bilan uchrashdim. Unga aytdim, butun Ozarbayjonda armanilarning soni o'n ming uydan oshmaydi. Shu bir hovuch halqdan pod-

[1] **Fitilburg** — Peterburg.

[2] **Tojir** — savdogar.

sholik chiqmaydi. O'zlari ham hunarmand, savdo-sotiq va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Turkmanlar kabi ot belida qilich o'ynata olmaydilar... Yana o'z bilganidan qolmadi. Mening orqamda ingliz podshosi turibdi, derdi u, zambaraklari zarbidan yer larzaga keladi... Xullas, yo'ldan urgandilar.

O'hon asabiy bir holda:

— Bu xomkallalar shuni o'ylamaydilarki, ingliz va rus podshohining yuz xotiri deb Nuh zamonidan buyon bir yerda yashaganimiz jon qo'shnimizga yomonlik qila olmaymiz. U borib podshohlarga ahvolni bayon qilgach, bu yerga kelib bizlarni qirg'in qildilar: o'rmonga o't ketsa ho'l-u quruq barobar yonadi deganday...

O'hon kashishning g'azabdan lablari titrardi. U jimib qoldi, lekin armani rahbarlarining jinoyatkorona harakatlarini eslagani sari jahli chiqardi. O'hon burunga hidlaydigan tamakidan chekib, sal o'ziga kelib jim qolgandan keyin armani xalqiga rahbarlik qilishga intilayotganlarning tarixini tushuntirdi. Bu tarix juda qonli va o'ta mantiqsiz bir narsa edi. Hali XVII asrning oxirida "Oriy" degan bittasi mojaro va boylik ketidan quvib o'zini Ovro'paga urgan, uzoq yillar Italiyani, Fransiyani, Olmoniyani aylanib, ming qiyofaga kirgandi. Lui XIV ga xizmat qilgani singari Pfals doirasiga ham yaqinlasha olgandi; epchilgina va yaltoqligi bilan bir muddat Vena saroyiga hizmat qilgandi. Hokimlarga armanilar isyonini va'da qilib, Karlovits sulh shartnomasini Vena foydasiga hal qilish uchun rasmiy bir vazifa bilan Istanbulga ham kelgandi. Ayni zamonda Oriy Ovro'pa qo'shinlariga oziq-ovqat sotib boylik orttirish maqsadini ham unutmagandi. Mojaroparast Oriyga bu faoliyat kamdek ko'rinadi. Bu safar u o'zini Moskvaga, Pyotr huzuriga uradi. Katta bir reja taqdim qiladi. Sharqqa borib armanilarni qutqaruvchi qo'shinlarga yo'l so'raydi. Bunga rozilik berilmaydi. Venada armani isyoni va'da qilinadi; josuslik, yo'l ko'rsatuvchilik qilish kabi ishlarga tayyor ekanini bildiradi. Bu safar unga Vartapet Minas degan bir armani ruhoniysi ham hamroh bo'ladi. Pyotrning Eronga yurishi, Astrobod yaqinida bir shahar qurish va Hindistonga qo'l cho'zish niyati bor edi. Bu fikr ko'pdan beri uning xayolida charx urardi, lekin Usmonlilar Turkiyasi va Shvetsiya davlati

bilan davom etayotgan urushlar bunga monelik qilardi. Har holda Oriy kabi sharq tillarini yaxshi bilgan bir odamdan foydalanish Pyotrning jahongirligiga qo'l keladi. Oriy bu vaziyatdan keragicha foydalandi, avvalo o'ziga polkovnik martabasi berilishini iltimos qildi. Keyin Eronga bir rasmiy hay'at yuborilishiga muvaffaq bo'ldi. Pyotr Shoh Husayinga bir xat yuborib Eronda yashayotgan armanilarning ahvolini yaxshilashini so'raydi. Bu bahona edi. Asosiy masala Eronni o'rganish, uning moddiy va ma'naviy kuchini bilish, askarlarining, qal'alarining, yo'llarining vaziyati bilan tanishmoq edi. Demak, arman xalqi yana urush chiqaruvchilar vositasida o'tga tashlanar, natijada buyuk imperialistlar maqsadlariga erishardilar.

Oriy hay'ati Ajdarxon vositasida Eronga bordi. Qaytishda Uchkalisoga kirdi, armani ruhoniylariga va maliklariga bir dunyo va'dalar berib qaytdi. Pyotrni qiziqtirgan ma'lumotlar olingandi, endi Eronga yurish qilsa bo'lardi. Pyotr bu yurishni amalga oshirdi va aldangan armanilar ham qo'shnilari bilan dushmanchilik qilib, butunlay chor poshshoga bel bog'lagan paytda Pyotr Eronni va Kavkazni tark etib, ortga chekindi. Tabiiyki, armanilarning ahvoli yomonlashdi, ularga nisbatan katta dushmanlik vujudga keldi...

Olisdagilarning foydasi deb qo'shnilarga dushmanlik qilish tajribasi arman xalqiga juda qimmatga tushgandi. Buni O'hon juda yaxshi bilar va hech qachon esidan chiqarmasdi. Har safar armanilar masalasi haqida gap ketganda uning g'azabdan lablari titrardi.

O'hon yana hidlash uchun burniga tamaki tiqib jim qoldi.

Panoh xon ruslar bilan aloqaga kirishgan armanlarni qilichdan o'tkazdirdi, kallalaridan minora tiklattirdi, bu ma'lunlarning ko'zi yana ochilmadi.

Mirza Alimammad:

— Bizning xon murosayi madorani istaydi. Yusuf Aminning bizga yog'iy ekanini bilamiz. Lekin u qal'aga keldi. Xon bilan uchrashdi. Xon uni o'ldiradi deb o'ylashdi. Ammo o'ldirmadi: Elchiga o'lim yo'q, — dedi. O'ziga ham bitta ot tuhfa qildi...

— Ularni non-tuzimiz ko'r qilsin! — deya O'honning lablari titray boshladi.

8

Xonlik davri Shushada suv yetishmasligi sezilardi. Shaharda bir nechta chuchuk suvli quduq bor edi. Ularga ham qorovul qo'yilgandi, suv xalqqa navbat bilan tarqatilardi. Bu faqat ovqat tayyorlash va ichishga sarflanardi. Kiyim-kechak yuvish uchun atrofdagi Xalfali va Dasholti daryolariga borishardi. Chuchuk quduqlardan tashqari ikkinchi ichimlik suv manbai Chuqur mahalladagi Mehrali bek bulog'i edi, lekin bu buloqning suvi sho'r edi. Kunlardan bir kun Shusha oilalaridan biri Xalfali daryosi bo'yiga tushib, kiyim yuvish tadorigini ko'rayotgan edi. Shu oilaga mansub o'n olti-o'n yetti yoshlardagi bir qiz daryo bo'ylab pastga tushgancha shox-shabba terayotgan edi.

Birdan daryo sohili bo'ylab kelayotgan qoramag'iz, kelishgan otliqqa duch keldi. Suvoriy unga yaqinlashib, otini to'xtatdi va qo'lini orqasi bilan nozik mo'ylavini silab:

— Qayerliksan hoy qiz? — deya so'radi.

Qiz qip-qizarib ketib turgan joyida qotib qoldi. Ko'zlarini yuqori ko'tarishga jur'at qilolmay, yigitning uzangiga tiralib turgan changli boshmoqlariga va mohirona o'ralgan qora paytavasini tomosha qilardi.

— Kimlardansan?

Qiz zo'rg'a eshitilar bir ovozda:

— Zaruqachi Kozimning qiziman, — dedi.

Yigit qizga xaridor ko'zi bilan qaradi: katta bosh ro'moli tagidan chiqib turgan qora sochlari gul bargiday qizarib turgan yonoqlariga yoyilgandi: shox-shabba ushlab turgan qo'llarini musht holida ko'ksiga yig'ganicha bechora qush misoli hurkib turardi... Qora paytavali yigit arg'umog'ini haydab, oilaga yaqinlashdi, salom berib, salom oldi:

— Alloh mehmoni kerakmasmi?

O't ustida chordona qurib o'tirgan Kozim kishi o'rnidan turib:

— Allohga ham jonim sadaqa, mehmoniga ham! — dedi va otning tizginini ushladi.

Yigit otdan tushdi, yuganini otning boshidan chiqarib, jabdug'ini bo'shatdi, o'tlagani qo'yib yubordi. So'ngra kelib dasturxonning chekkasiga o'tirdi.

Iyagini ro'mol bilan o'ragan ayol ovqat olib keldi. Yigit ovqatlanarkan sekin gapirardi.

Gap orasida:

— Qal'ada nima gap? — deb so'radi.

— Omon bo'l, biror yangi gap yo'q. Hamma joyda qochoq Safar haqida gapirishayapti.

— Nimani gapirishayapti?

— Mardligini, jasurligini, insofli ekanini. Shaharda bir yetimning molini amakisi bermayotgan ekan, buni eshitibdi, odam yuborib, adabini beribdi. O'sha kuni yetimning moli o'ziga yetib boribdi.

Yigit ovqatlanarkan gapga quloq solar, qalbidan quvonar, sevinardi. Kozim ashyo bo'yaganidan so'ng qo'lida qolgan qizil rangga qaraganicha so'zida davom etdi.

— Aytishlaricha, bir qishloqda amri-ma'ruf[1] bir cholni ro'zani buzib ovqat yegani uchun kaltaklatibdi. Keksa odam menga ro'za tutish mumkin emas deb ont ichibdi. Amri-ma'ruf quloq solmabdi. Darra urilayotgan paytda cholning joni uzilibdi. Bu xabar Safarga yetib boribdi. U kelibdi. Qishloqda kengash quribdi va hukm chiqaribdi. Amri-ma'rufni cholning qabri ustida ostiribdi...

Yigit zimdan Kozimga qaraydi: Kozimning ko'zlari chaqnab turar, yuzida baxt tuyg'usi aks etardi.

Yigit tamaddi qilib bo'lgach:

— Tog'ajon, Tangri noningizni mo'l qilsin, dasturxoningiz hamisha to'liq bo'lsin!

— Uzr, yaxshi xizmat qilolmadim, darvishning topgani nima bo'lardi...

— Juda ham roziman, rahmat sizga, Alloh bu bolalarni umri bilan bergan bo'lsin!.. Tog'ajon, bilasiz... men Safarning odamiman, u sizni taniydi... O'zi ham siz bilan qarindosh bo'lishni istaydi.

[1] **Amri-ma'ruf** — shariat tatbig'iga mas'ul ma'mur.

Kozim o'rnida bir depsindi, diqqat-la yigitga qaradi. Uyatchang bir tabassum yuziga yoyildi.

— Ochiq gaplashaylik, tog'a, qizingizni Safarga berasizmi? Men huzuringizga sovchilikka kelganman.

Kozim yana o'rnida qimirlab qo'ydi, xotinining yuziga qaradi, ayol biroz yuzini berkitdi.

— Nima deyman, men undan yaxshisini topishim gumon, ammo... axir u qochoq-ku... uyi — eshigi... Kozimning tili aylanmay qoldi. Yigit uning fikrini tushundi.

— Bilaman, nima demoqchi ekaningizni; yigitning uy-joyi bo'lishi kerak, demoqchisiz... Qo'rqmang, aslo qo'rqmang: bularning hammasi bo'ladigan narsalar...

Shu bilan suhbat tugadi. Yigit sakrab otiga mindi-yu, o'rmonda g'oyib bo'ldi.

Bir kuni kechqurun yomg'ir yog'ib turganda eshik taqilladi. Kozim tashqari chiqdi. Chaqmoq chaqar, ko'k gumburlardi.

— Kimsan?

— Alloh mehmoni.

Kozim eshikni ochdi, mehmonni uyga kiritdi. Qora moy chirog'i yorug'ida yigitni tanidi. Ko'rishishdi. Uni sovchi sifatida qabul qilib rosa siylashdi.

Kozim jasoratsiz bir tovushda:

— Yaxshi, hoy yigit, dedi, — mening gapim yo'q, ammo qizning onasi biroz g'ing-ping qilayapti... Ya'ni uning ham haqqi bor: mehnati singgan, qiz o'stirgan...

— Bergisi yo'qmi?

— Yo'q, bir narsa demayapti. Lekin, aytayotibdiki, qochoqligini yig'ishtirsin... Biror hunar boshini tutsin!..

Yigit Kozimning so'zlarini tinglab, o'yga toldi. Uylanish sinov toshi ekan: odamning nima ekani uylanmoqchi bo'lganida bilinarkan. Uylanganining kasbikori boshini ham qilish ekan. Eng buyuk mardlik kulfati do'st-u dushmanga muhtoj bo'lmaslik ekan. Odamni so'ksalar, eshitmaganga olib turishi kerakmi... yigitga Kozimning gaplari, mulohaza va fikrlari butunlay begona edi. Bu yangicha fikrlash shahar ta'siri edi. O'troq hayotdan, istirohat orzusidan tug'ilayotgandi bu qobiliyat, mulohazalar... Yigit rosa

gapni aylantirdi, tushuntirdi. U desa, bu dedi, bu desa u dedi. O'ladi, ko'rdi, ranjidi, ortga qaytishga chora yo'q.

— Hoy tog'a, — dedi, — Siz nima desangiz Safar shuni qilishga tayyor. Lekin... Necha odam o'ldirgan qochoq yuzaga chiqa oladimi? Xon bunga nima deydi?

Kozim biroz o'ylab turib dedi:

— U so'z bersa, tinch tursa... yuzaga chiqishi oson...

Bir yildan beri maydonga chiqqan qochoq Safarning nomi kundan kunga shuhrat qozonardi. Uni Araz va Kura oralig'ida tanimagan yo'q edi: qishloqda qaysi bir uyga kelsa, ovqatlantirilib, kuzatib qo'yilardi, amaldor va maliklarning do'q — po'pisalariga qaramay, hech kim uni xonning qo'liga topshirishni istamasdi.

Xalq qochoq Safarga qo'shiqlar bag'ishlagandi, uni jasur, mard, adolatli deya tarannum etardi. Bu masala bir necha bor saroyda muhokama qilingan, tadbirlar ko'rilgan, izidan suvoriylar yuborilgan, lekin hech qanday natijaga erishilmagandi.

Safar ham telpagini chekkasiga qo'ndirganicha charx urib dala-tog'larni kezardi.

Safarning o'zi Qilinjlar urug'idan bo'lib, otasi bolalarini qishloqqa ko'chirgan edi. Qishni vodiyda, xon tuprog'ida o'tkazar, yozda esa tog'ga ko'chardi.

Otasi Qorabog' xonining Naxichevan atrofida bo'lgan urushda o'ldirilgandi, Safar yetim qolgandi. Kichkinagina yerlari bor edi. Uning hosili, mol-mulk, to'ypuli va boshqa soliqlarni to'lagandan keyin o'zlari zo'rg'a kun ko'rardilar. Safarning otasi o'lgandan keyin ahvollari ancha og'irlashdi.

Lekin Safarning yetimligini mahalla-ko'y hisobga olib, ko'maklashib, hashar qilib, ekiniga, o'rimiga yordam berardi. Nihoyat Safar ming qiyinchilik bilan o'sib, balog'atga yetdi va o'z tasarrufidagi mol-mulk, yerlarni o'zi idora qila boshladi. Keng yurakli, baland bo'yli, qoramag'iz bir yigit edi. Jidirlarda ot choptirar, o'qni bexato otar, mohirona qilich chopar o'smirga aylangandi. Nomi ellar orasida og'izga tushgandi. Qizlar, kelinlar uni ko'rganda yuragiga o't tushar, yoshlar hurmat qilar, keksalar jasur va mardligi uchun uni juda sevardilar.

Bir kuni o'rim payti xonning sarkori[1] qishloq ahlini yig'di — ular xonning bug'doyini o'rib, yanchib, qoplarga joylashlari kerak edi. Safarni ham unutishmadi. O'rim nihoyasiga yetkazildi. G'aramlar xirmonga tashildi, yanchishga kirishdilar. Yuzboshi aylanib, ishlayotganlardan ko'z quloq bo'lib turardi. Kechki payt ishdan keyin esa to'latilmagan qoplardagi bo'g'doyni o'g'irlashmasin deb donini ustiga barmog'i bilan bir xoch tasvirini chizib ketardi. Bir safar shamolli kechadan keyin yuzboshi yarim qoplarni tekshirib bir nechtasida xochning buzilganini ko'rdi.

— Bug'doyni kim o'g'irladi? — deb ko'zlari qonga to'lib baqirdi. Hech kimdan sado chiqmadi. Yuzboshi yana baqirdi va bir ikki odamning qo'lidan qattiq siltab tortdi-da:

— Hudo haqqi, teringizni shildiraman! — deya yana do'q urdi.

Qo'lidan tortilganning bittasi Safar edi. Himmatiga yarashmagan bu harakatdan g'azabi qaynardi:

— Yuzboshi, — dedi, — sening bug'doyinga zor emasmiz. O'zingni sal yig'ishtirib ol.

Yuzboshi kutilmagan bu javobdan battar achchiqlandi:

— Sen xonning yuziga oyoq bosayapsanmi? — deya xon mulozimini chaqirdi va Safarni tol daraxtiga bog'lab kaltaklatmoqchi bo'ldi.

Safar mulozimning qo'lidan siltinib chiqishga urinarkan:

— Chopar ot o'ziga qamchi urdirmaydi! — dedi va chalg'i o'roqni oldi-yu yuzboshiga tushirib qoldi. Yuzboshi yerga ag'darildi, bo'ynidan qon tirqirardi. Safar esa bir otga sakrab mindi-da dala yo'lini changitib dara tomon uchirib ketdi.

O'sha kundan beri Safar qochoq bo'lib, tog'lar va o'rmonlarda izg'ib yurardi.

O'zi ham yuzboshilarga, sarkardalarga, amri-ma'ruflarga dushmanga aylangan, faqir fuqorolarga qo'lidan kelganicha yordam qilardi. Ellarda vodiy va uluslarda ko'rinib qolganda uning yoniga shikoyatchilar kelardi, darhol oqsoqollarni to'plab, masalani hal qilar, halqning haqqini, nohaqning esa jazosini berardi.

---

[1] **Sarkor** — xon tasaruffatiga mas'ul ma'mur.

9

Kozim Voqifning maktabdosh jo'rasi edi. Nodir shoh zamonida urushga haydalib bir-ikki marta yarador ham bo'lgandi, ustaxonasi vayron bo'lgani uchun hunari barham topgandi. Nihoyat Panoh xonning o'g'li Mehrali bek Shusha qal'asi obodonligiga kirishgach, Qozox viloyatidan ko'chib kelib Shushaga joylashgandi. Avval tabrizlik bir sharbofning yonida usta sifatida ishlagandi.

Keyin Erondagi to's-to'polonlar tufayli karvon yo'li bekilib mol tangligi vujudga kelganda Shusha mollariga talab kuchaya boshlagandi. Shu asnoda Kozim pul to'plab xususiy bir ustaxona ochgan va ikki xonali uy qurib, avval yashagan qora tomini tark etgandi.

Voqif yurtdoshlari bilan aloqasini uzmasdi. Ham borib-kelar, hamda ahvollaridan xabar olib turardi. Shunday qilib Kozim ham Safar masalasida Voqifning huzuriga bordi. Mulozim lala xabar berish bilan ichkari chaqirildi. Kozim boshmoqlarini ayvonda yechdi-da, tortina-tortina ichkari kirdi. Voqif deraza yonida o'tirib she'r yozardi. Kozimni ko'rishi bilan qalamni qalamdonga qo'ydi, mehrli bir ovozda:

— Vaho, xo'sh ko'rdik hamshahar! — deya unga deraza yonida joy ko'rsatdi. Kozim qo'llarini yana ko'ksiga qo'yib, bosh egdi, keyin tizzalab ko'rpachalardan birining ustiga o'tirdi.

Voqif mehribon bir qarash bilan kuzatib chiqdi:

— Ahvollaring yaxshimi? — dedi va javob kutib undan ko'z uzmay turdi.

— Kam bo'lmang, oxund! Rostini aytganda, bir ish bilan kelgandim...

— Qanaqa ish? — deya so'radi Voqif.

— Qiz masalasi... aytadilar-ku: o'lmadik, ko'rdan darakchi keldi. Qochoq Safar qizimga sovchi yuboribdi...

Voqif hayratlandi:

— Qochoq Safar? — deya so'radi, — qanaqasiga axir.

— Oxund, o'zim ham bilmayman. Sovchi yuboribdi, qizimni so'rayapti. Beray desam, qanday beraman, bermay desam boshimga

balo bo'ladi... Eshakka minish bir ayb, eshakdan yiqilish esa ikki ayb.

— Yaxshi, lekin u buni bilmaydi-ku, uy joyi bo'lmagan odamga xotin yarashadimi?

— Hamma balo shunda-da; ho'kizning ingraganiga qorni qurullaydi. Aybdor aybini bilsaydi, dunyoda ayb bo'larmidi?

Voqif o'yga toldi, birozdan so'ng:

— Mayli, mendan qanday yordam bo'lishi mumkin? — deb so'radi.

— Xon gunohimdan o'tsin, men ham yuzaga chiqib, biror ish bilan shug'ullanay, deyayotganmish.

Voqif yana o'ylanib qoldi:

— Aytaylik shunday bo'ldi, dala-dashtlarda, tog'-u toshlarda tentirab yurishdan voz kechadimi? Axir, xon bilan xonlik da'vo qilayapti, devon tuzib, osayapti, kesayapti.

— Qasam ichayotgan emish, xonning sodiq mulozimi bo'lay deb.

Voqif o'ychan ko'zlarini barmog'idagi aqiq ko'zli uzugiga tikib:

— Buning bir iloji bor, — dedi. Va o'ng qo'li barmog'idagi uzugini siladi, — birgina iloj. Tehron beklarbegi sovchi yuboribdi, xon qizi Kichikbayimni o'ziga so'rayapti. Xon rozi, yaqinda to'y bo'lib, qiz uzatiladi.

Kichikbayimga arz qilish kerak, u ham otasining xizmatidan bahramand bo'lsin, biror narsa so'rasin. Ayriliq payti xonning yuragi yumshaydi, ko'ngli eriydi, nima istasa bajo keltiradi. Yoki Shohnisa xonimdan iltimos qilish joizdir. Bu yanada maqbul ko'rinadi. Ha, shu bugun Shohnisa xonimning xizmatiga boraman: shu xayrli ish uchun meni maslahatga chaqirgan. Bugun qulog'iga shipshitaman, qani nima derkan.

Boshini bir tomonga qiyshaytirib Voqifni diqqat bilan tinglayotgan Kozim rozi bo'ldi:

— Jonim tasadduq, oxund, meni dordan qutqarasan. Ammo, xonning g'azabiga ro'para bo'lmay tag'in. Bilasan-ku, ilon chaqqan odam ola arqondan ham cho'chiydi, necha bor to'zib, buzilib xonavayron bo'lganman. Endi Allohning marhamati va xonning

panohida yangidan qovushib bolalarimning rizqini terib yuribman. Bilmayman, taqdir bu Safarni qaydanam menga ro'para qildi. Aytadilar-ku: echki jon qayg'usida, qassob qon qayg'usida.

Voqif:

— Echki nega jon qayg'usida ekan? — deya kuldi.

Kozim qo'llarini uqalab dedi:

— Oxund, bilasan-ku tilga tushishdan qo'rqaman. Bu zamonda tilga tushding baloga qolding degani.

Eng yaxshisi:

Dar rah chinan rov ke qiyomat na konand,
Va xalq chinan zi ke malomat na konand,
Ve masjid agar ravi, chinan rov ke tora,
Dar pish na xanand, imomat na konand... [1]

Voqif Kozimning ehtiyotkorligiga va tavozesiga hayron qolarkan, chin yurakdan kuldi, keyin uni xotirjam qilib, yo'lga kuzatib qo'ydi.

* * *

Shohnisa xonimning Dabtalab va Xalfali o'rmoniga qaragan bir qo'rg'on — hovlisi bor edi. Devorlari va shifti naqshinkor edi. Derazaning ichki devorlariga "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" dostonlaridan alohida voqealarga oid manzaralar chizilgandi. Shohnisa xonimning to'shagi ustida Farhod tesha bilan tog'ni yorardi.

Voqif ichkari kirganida Shohnisa xonimni o'z o'rnida ko'rdi: kanizlaridan biri tizzalab o'tirganicha qurama bo'xchaning bir uchidan ushlab nimanidir xonimga ko'rsatardi. Xonim Voqifni ko'rgan zahoti kanizga ishora qildi, u ham bo'xchani ko'targanicha chiqib ketdi. Voqifning salomiga javob olarkan, Shohnisa xonim shikoyatona ovozda dedi:

---

[1] Yo'l bilan yurki, senga e'tiroz aylashmasin,
Xalq ila shunday raftor et, senga ta'na so'ylashmasin.
Gar masjidga borar bo'lsang, shunday borki, seni
Bir chetga surib, seni imom saylashmasin.

— Oshiq (Shohnisa xonim Voqifni hazillashib "oshiq" deb chaqirardi) chaqirsamgina kelasiz-a? Axir Kichikbayim mening qizim bo'lsa, sizning shogirdingiz-ku. Usta shogirdini ko'rgani shunday keladimi?.. Marhamat, o'tiring!

Voqif xonimning qarshisidagi ko'rpachaga o'tirdi.

— Haqqing bor, Shohnisa xonim! — dedi. — Biroq to's-to'polonli bir vaziyatni ham hisobga olmasdan bo'lmaydi. Ganjada Mammad xon bosh ko'tarib xuruj qilayapti, Fatali xon yana bir ikki qishlog'imizni vayron qilibdi. Xullas, kecha-kunduz bu xonlarning bir-biri bilan o'chakishishlaridan boshimiz chiqmay qoldi... — Shu asnoda Voqifning nigohi Shohnisa xonimning boshi uzra tog' qaziyotgan Farhodga tushdi. Voqif bunga ishora sifatida; — Qara, o'sha sen o'tirgan ko'rpachada men o'tirishim kerak edi, — dedi.

Xonim masalani tushunmay:

— Nega? — deya o'ylanib qoldi.

— Chunki Farhodning toshkesar teshasi boshimizdan arimaydi.

Xonim orqaga, Farhodning tasviriga qarab kuldi:

— Oshiq yana bir so'z topib to'g'riladi, — dedi. — Sen qiz onasining ahvoli sizlarnikidan yaxshi deb o'ylaysanmi? Xudo haqqi yo'q! Qara, Kichikbayim kabi bir gulni olib borib Tehronga tashlayman. G'urbatda, begona yurtda qizimning holi ne kechadi, boshiga qanday kunlar tushadi... Kim biladi?

Shohnisa xonim yig'lamsiradi.

Voqif tasalli berdi:

— Bu bo'lmaydi, xonim! Sen Shohsevar mardlaridansan, ot belida ulg'ayding, savashlarda chiniqqan, erkak misoli bir ayolsan...

Shohnisa xonim ko'z yoshlarini guldor dastro'moli bilan artaturib:

— Yo'q, oxund. Bizning dardimiz yer-u ko'kka sig'maydi, — dedi. — Koshki qo'li qadoq aholidan bittasi bo'lsaydim, bolalarim ko'z o'ngimda bo'lardi. Tehronga qiz berish Azroilga jon berish degan gap. Ketdimi, tamom, yuzini boshqa ko'rolmayman... Kuyovimni ko'rmaganman, kim biladi hech ko'ramanmi?

Xonim yana yig'lamsiradi va ko'zlarini arta-arta dedi: — Ichiga qon qusishim uchun tilla jomning nima keragi bor?!

Shu asnoda Kichikbayim ichkari kirdi va Voqifni ko‘rib uyaldi, o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Qip-qizarib ketib, salom berdi va orqaga burilganda Voqif:

— Qora qiz! Qayoqqa? — deya chaqirdi.

Kichikbayim yerga qaraganicha Voqifga yaqinlashdi. Gulob hidi shoirga zavq berdi. Iliq bir tabassum bilan shogirdiga tikilib qoldi: zulukdayin qora sochlari oppoq ro‘molidan chiqib, siynasiga tushib turardi. Osilib turgan shoyi ro‘moli vujudining bir tomonini qoplagandi. Yoqasi ochiq ko‘ylakdan marmar siynasi bo‘rtib turardi, keng cholvari pochasiga marvarid tizilgandi. Baxmal boshmoqlarining ustiga ham marvaridlar qadalgandi.

Qo‘lini Voqifga cho‘zganida qahrabo bilak uzugi shoirning qo‘liga tegib ketdi. Voqif Kichikbayimning qo‘lini qo‘lidan chiqarmay:

— Katta qiz bo‘lib qolganingdan beri murshidi ustozingni esdan chiqarib qo‘yding! — dedi.

Kichikbayim qizarib jilmaydi:

— Unutganim yo‘q! — dedi.

Shohnisa xonim ham kulimsiradi:

— Biror ash’oringiz bormikin, bayoziga yozmagan! Har kuni ovozi bog‘ga taraladi, sening so‘zlaringni kuylaydi.

Kichikbayim uyalib yanada qizarib ketdi va qo‘lini Voqifning qo‘lidan tortib olib, eshik tomon yugurdi; orqasidan yelkasi to‘la qora sochlari cho‘lg‘anib borardi.

Shohnisa xonim g‘urur bilan qizining orqasidan qarab qoldi:

— Tog‘ echkisi bu! Tog‘ echkisi! — dedi kulib.

* * *

Voqif kelganda havo qoraygandi, endi osmon birdan gurladi, chaqmoq chaqib, egri-bugri yorqin chiziqlar bulutni kesib o‘tdi, gumburlashdan tog‘lar larzaga keldi. Shohnisa xonim kalimayi shahodat ayta-ayta cho‘rini chaqirdi.

Cho‘ri darrov tayyor bo‘ldi, derazaning pardalarini tushirdi. Xona yanada qorong‘ulashdi. Endi yomg‘ir yog‘a boshlagandi, dahshatli bir gumburlash bilan derazani qamchilardi, suvi ichkari

sachrardi. Cho'ri shamni yondirib olib keldi. Osmon yana shiddat-la gumburladi, xonim o'rnidan dik etib turdi:

— La iloha illolloh!... — dedi va qo'rqa-qo'rqa derazaga qaradi.

Bir-ikki daqiqadan so'ng yomg'ir tindi, havo ochila boshladi.

Oq bulut parchalari orasidan oftob mo'raladi. Shamdon olib ketildi, deraza pardalari yana ko'tarildi, bahor havosi bilan birga bulbullarning chaqchaqlari ichkariga yopirildi. Shohnisa xonim farahli bir chehra bilan tashqaridagi chinorlarning yangi och yashil barglariga qaradi:

— Tangrining qudratiga shukur! Boyagi to'fonga, hozirgi go'zallikka qara!

Voqif quvnoq va mag'rur bir tarzda boshini qimirlatdi, xonimning gaplarini tasdiqladi.

Nihoyat, masalaga o'tishdi. Xonim Tehron beklarbegiga qiz berish haqida Voqifning fikrini bilishni istardi:

— Axir, yuragim isimaydi, — dedi, — begona yurt, uzoq joy...

Voqif muloyim ovozda:

— Xon men bilan maslahatlashdi, aytganlariga men ham qo'shildim. Bilasan, bir qiz bir yigitniki... qismat shundayga o'xshaydi. Qizni har qanday odamga ham berib bo'lmaydi. Tehron olisda bo'lsa ham Tehron... Ayriliqqa kelganda, buning ham chorasi bor: bir-ikki oydan keyin borasan yoniga, bir necha oy qolasan. Keyin u ham aylangani keladi... Tekkan odami yaxshi bo'lsin, bu yog'i oson kechadi.

Shohnisa xonim tinglaganicha o'ylab o'tirardi, biror so'z aytmasdi. Bu ishga siyosat aralashganini bilardi. Karim xon Zand bilan do'st bo'lish kerak; yo qarindosh bo'lish, yoki baxtsizlikka uchrash. Panoh xon Sherozda o'lganidan keyin Qorabog'ning u yerda tashvishi qolmagandi. Ikki orada e'tibor bo'lish uchun Kichikbayim Tehronga kelin bo'lib tushishi lozim edi. Beklarbeginin sovchilariga rad javobi berish xonlik bilan shahanshohlik orasida sovuqlik va ishonchsizlik tug'dirish mumkin edi... Lekin ayol qalbi bunga rozi bo'la olarmidi?

Shohnisa xonim chiqib bo'lmas bir vaziyatga tushib qolgandi, na "ha", na-da "yo'q" deya olar, istasa-istamasa oqimga qo'shilib tobe bo'lardi:

— Mayli, yolg'iz yuboramizmi, yoki xonzodalardan birortasini qo'shib yuboramizmi? Qanday maslahat berasan?

Voqif o'yladi:

— Meningcha, — dedi, — xonzoda qo'shib yuborish kerakmas, nima bo'lishini kim biladi. Ertaga Karim xon tarkidunyo qilsa yana mamlakat alg'ov-dalg'ov bo'ladi, har shaharda bitta xon bosh ko'taradi. Xonzodani Tehronda xavf ostida qoldirish mumkin. Shunday bo'lgan taqdirda Erondan qanday buyruq kelsa bo'yin egishimiz... xonlikka foydalimi, yoki koni zararmi, baribir bo'ysunishimiz kerak bo'ladi.

Shohnisa xonim qo'rquv bilan:

— Bas, qiz-chi? — dedi.

— Qizga zarar qilishmaydi. Bundan qo'rqma!..

Suhbat cho'zildi. Nikoh, to'y, sep singari bir qator masalalar kelishib olindi. Keyin Voqif savob ishlar haqida gap ochdi. Bir necha qul va cho'rining ozod qilinishini taklif etdi. Javob ber, ketishsin, — Kichikbayimni duo etishsin, — dedi. Nihoyat, Safar masalasi ko'tarildi:

— Kozimning qizi Telli bechora bir ojiza. U ham baxtli bo'lsa, Kichikbayimni duo qilardi. Xondan iltijo qil Kichikbayim uzatilishdan oldin Safarga ruxsat bersin, yuzaga chiqsin: yo'ldan ozish ayb emas, yo'lga kirmaslik ayb.

Shohnisa xonim Kichikbayimni shunday yaxshi ko'rardiki, Voqifning barcha takliflarini qabul qildi.

10

Saroyda to'y tayyorgarligi borardi; bichilar, tikilar, qishloqlardan to'y hadyalari kelardi, tashrif buyuradigan mehmonlarning ro'yxati tuzilardi. Kichikbayim esa o'zini qo'yarga joy topolmas, dard-alam bilan saroyni aylanar, bog' ichra kezib, g'amgin bayotilar kuylardi. Qorabog'ning go'zal tog'larini, muzdek buloqlarini, ko'rkam o'rmonlarini eslab, bag'rini tig'lardi. Bularni yana qaytadan ko'rish nasib etarmikan?

Arg'umoq belida erkin bir qizcha kabi, dardsiz, qayg'usiz yana istagan joylarida aylana olarmikan?...

Zindon misoli qalin devorlar bilan o'ralgan Tehron saroyini ko'z oldiga keltirdi: Haram, zolim, qizg'onchiq xodimlar, qattiqqo'l qizlar og'asi... G'urbat... Kichikbayimning yuragi siqiladi... nima ham qila oladi, taqdir shu ekan! U qismatni o'zgartirib bo'lmasligiga ishonadi... Taqdirga tan berishdan boshqa iloji yo'q edi...

Kichikbayim o'ylardi. O'ylagan sari o'z xayollarining yechilmasligidan chalkashib ketardi. Birdan unga bir fikr kelib qoldi, yuragi hapriqib ketdi, qalbida jasorat o'yg'ongandi. Lalani chaqirtirib, dedi:

— Lalajon,[1] otlarni tayyorlashsin, Mammad bekni ham chaqirtir. Sayrga, aylangani chiqmoqchiman.

— Xo'p bo'ladi, Bayim!

Bobo lala bosh egib, chiqib ketdi. Bunday paytlarda lala begoyimga so'z qaytarmasdi, savol ham bermasdi. Ammo Kichikbayimning amrini Shohnisa xonimga aytar va u bilan maslahatlashardi. Bu safar ham masalani Shohnisaga tushuntirdi.

Shohnisa xonim rozi bo'lmasa ham, qarshilik ko'rsatmadi:

— Mayli, aylansin. Ayriliq og'ir dard...

* * *

Otliqlar shaharning Xalfali darvozasidan chiqishdi: oldinda Kichikbayim bilan Mammad bek, orqada esa Bobo amaki, Gulli enaga va bir necha qurolli qarol borardi. Tik qiyalikdan oshib, tekislikka chiqishdi. Yalang'och tog'lar orasida olisda, daryoning narigi tomonida o'rmon va moviy tuman ichra tog'lar ko'rindi. U tomondan salqin shabada keldi. Issiqdan qizargan Bayim yayrab, farah-la:

— Mammad, — dedi, — otga qamchi bos, ko'ray.

Otlar olg'a intildi, ular tuyog'idan tuzilgan chang yoshlarni ko'zdan yashirdi. Yo'lning o'rtasida bir taqa sinig'i tushgandi. Kichikbayim buni uzoqdan ko'rdi. Yelib borib unga yetganida yirtqich qush tarzida otdan tushib siniq taqani ko'tardi va egarga o'tirdi. Buni ko'rgan Mammad bek egar uzra tikka turib osmonga

[1] **Lalajon** — amakijon (erkalanib).

qarata bir o'q uzdi. Kichikbayim yon tomondan bu mard o'smirni ta'qib etib, otini unga yondoshtirdi. Mammad bekning yonoqlari qizargan, manglayini ter qoplagandi... Kichikbayimning qo'li tag'in ayni yirtqich shiddati bilan Mammad bekning bo'yniga chirmashdi. Yupqa lablaridan uch marta hasrat-la o'pib, chetlandi. Endi otlarni sekin haydab yonma-yon borardilar. Hech qaysi biri miq etmasdi. Kichikbayim yigitni yana yon tomondan kuzatib borardi. Mammad bekning ko'zi otining yoliga tikilarkan sirli bir baxtiyorlik ifoda etardi.

Orqadagi otliqlar ellik qadamlik bir masofaga kelgandilar Bobo lala shirin bir hangoma boshlagandi.

Kichikbayim o'girilib orqaga bir nigoh tashlagach, — Mammad, — dedi, — ikki kundan keyin amakingning qizidan ayrilib qolasan, — iffatimga tega olasanmi?

Mammad bek indamadi, yuzini burib Bayimning ko'zlariga qaradi, va yana uyalib, boshini egdi: kipriklari orasida yirik bir tomchi yaltirardi. Buni ko'rgan begoyim otiga bir urib ildamlatdi. Mammad bek otining yurishini o'zgartirmadi; orqadan Kichikbayimni tomosha qilardi: qanotlangan durrasi qora sochlari bilan birga hilpirardi. Begoyimni osmon uzra uchayotgan farishtaga o'xshardi. Bu manzara Mammad bekni erkalar, sevintirar va ayni paytda yuragida hozirgacha his etilmagan g'amgin va shirin bir dard o'yg'otdi.

Begoyim dovonni oshib, ko'zdan g'oyib bo'lgandi, faqat alamli, oshiqona bayotilari eshitilardi:

Bu tog'lar bo'lmasaydi,
Sarg'ayib so'lmasaydi.
Bir ayriliq, bir o'lim,
Hech biri bo'lmasaydi...

Orqada qolgan hamroh otliqlar guruhi Mammad bekka yetib olib, qiyalikdan pastga daryoga qarab tushib borardi. Chap tomonda baland devor kabi ko'kka bo'y cho'zgan Xazna cho'qqisi, o'ngda hazin shovullagan daryo, nariyog'ida issiqdan tuman qoplagan o'rmon bo'rkka burkangandi. Otlarning tuyoqlari osti-

dan sachragan shag'al toshlarning shaqillashlari ortar, jambil isi odamni mast qilardi. Otliqlar qoyadan uchib tushgan toshlar orasida ohista o'tib borishar, o'tgan ayyomlaridan, urushlardan, mard-u maydonliklardan gaplashardilar. Kichikbayim esa olisda daryoni kechib o'tar, ora-sira arg'umog'ini sug'orib borardi.

Begoyim hammadan burun o'rmondagi buloqning yonida to'xtadi, otdan tushdi. Otning jilovini terakka bog'lab o'tlashga qo'ydi. Keyin shag'al toshlar orasidan qaynab chiqayotgan chashmada qo'l-yuzini yuvib, hamrohlarini kutib olgani chiqdi. Hamma kelib otdan tushdi.

Begoyimning dardi borday ko'rinardi.

— Men pirga boraman, — dedi, — meni kutib turinglar.

Daraxtlar oralab tepaga ko'tarila boshladi. Quyosh ajib rutubatli o'rmonga oltin nurini yoygandi. Kichikbayim findiq[1] va emishan[2] shoxlarini egib maysazor bir maydonga chiqdi. Bir tomoni ko'karib o't tolalari osilib turgan, bir tomoni yirik shox — butoqlari qurigan daraxt turardi. Tagiga ustma-ust bir necha tosh qo'yilgandi, butoqlariga xilma-xil iplar bog'langandi. Bitta shoxiga mo'jazgina beshik osilgan, boshqa bittasiga mittigina o'q-yoy ilingan edi.

Atrofda o'choq joylari ko'zga tashlanardi; u yerda-bu yerda qo'y suyaklari sochilib yotardi. Bu — pir edi. Biror orzu tilagi bo'lgan odamlar shu yerga kelar, istagini pirga eslatish uchun daraxtning shoxlarini alvon lattalar, rang-barang iplar bilan bezardilar; bepusht ayollar beshik osar, jasur yigitlar otasi bo'lmoq orzusida yurganlar butoqqa o'q-yoy ilib qo'yardilar; o'sallar bir haftalik oziq-ovqat zaxiralari bilan kelib, daraxt ostida yotar, pirdan shifo tilardilar.

Kichikbayim daraxtni tomosha qilar, lekin hech narsa tilashni istamasdi. Nima ham tilay olardi? Qismat qora qanotlarini yoyib uning hayot yo'lini to'sib qo'ygandi.

Pirga yaqinlashmay orqaga qaytdi, yana mungli ovozi o'rmonga, tog'-u toshlarga yoyildi:

---

[1] **Findiq** — tog' yong'og'i.

[2] **Emishan** — do'lana.

Oshiq diyorma-diyor,
Holing diyorma-diyor,
Qo'yding kamonga meni,
Otding diyorma-diyor...

Mammad bek Kichikbayimning ovozini eshitgan hamon qayg'u to'la shirin tuyg'u uning qalbini to'ldirib yubordi. Turdi, uyalib qizarganicha ovoz kelayotgan tomonga yurdi. Begoyim mo'jaz bir buloqning yonida o'tirardi.

Qo'lidagi shoxning barglarini bittama-bitta yulib suvga tashlardi. Qo'llar qarsillaganini eshitib boshini ko'tardi. Mammad bek ko'rindi. Nigohlar to'qnashganda Mammad bek ko'zlarini yerga qadadi, yonoqlari qip-qizarib ketdi. Oldida Kichikbayimning nigohini his etib, quvonar, ayni chog'da negadir, bir yomon hissiyot uni ranjitardi.

— Mammad, buyoqqa kel! Senga gapim bor, — deya chaqirdi uni Kichikbayim.

Mammad bek itoatkor bir alpozda kelib Kichikbayimning yonida turdi; yana qo'lini xanjarning dastasiga qo'yib yerga qaradi.

— O'tir!

Mammad bek o'tirdi.

— Sen amaking qizini shunday sevasanmi?

Mammad bek indamadi, u o'zini butunlay yo'qotgandi. Begoyim uni quchoqladi: ehtirosli bo'salar o'smirning lablarini, yonoqlarini, ko'zlarini, manglayini, sochini aylana boshladi...

Mammad bek o'ziga kelganda yonidagi begoyimni ko'z yoshlarini oqizayotgan holda ko'rdi. Shoshib qoldi. Unga ham achinar, hamda bu ko'z yoshlariga nima qilarini bilmasdi.

Kichikbayim to'yib-to'yib yig'lab oldi. Nafis, ipak dastro'moli bilan ko'z yoshlarini artib, ho'l ro'molchani Mammad bekka uzatdi:

— Ol, buni asragin, men yodingga tushganimda uni bag'ringga bosib, mening ismimni esga olarsan... Endi tur, boraqol. Men ham yuzimni yuvib boraman.

Mammad bek o'rnidan turib ketmoqchi bo'lganida Begoyim uni to'xtatdi:

— Hech kimga biror narsa dema, xo'pmi!

Kichikbayim unga yana termildi va yonog'ini unga ko'rsatib dedi:

— Kel, mana bu yerimdan o'p, keyin bor!

Mammad bek jasoratsiz bir tarzda engashdi, Begoyim uning boshini yuziga tortdi: jur'atsiz bir bo'sa Begoyimning yonog'ini yondirdi.

Mammad bek daraxtlar orasida g'oyib bo'lgach, Kichikbayim qo'lini qulog'iga qo'yib, qayg'uli, nozik qiz ovozida kuyladi:

Men oshiqman, yaxshi bil,
Bag'rim pora-pora qil,
Ko'ngilsiz xon bo'lgancha
Sevgiling-la o'yna, kul!..

11

Kichikbayimning to'yi munosabati bilan Safarning afv etilishi xonga arz qilindi. Xon o'ylab ko'rdi. Safarni kechirish afkori umumiyga nisbatan ojizlik ko'rsatishni bildirardi, kechirmaslik esa Shohnisa xonimning va Kichikbayimning so'zini yerga urish edi. Bu ikki yo'lning ikkalasi ham ma'qul kelmagani uchun xon uchinchi bir vositaga murojaat qildi. Bu vositada ham Safarni afv etish, hamda qo'rqinchli bir safarga jo'natib, undan qutulish ehtimoli bor edi.

O'sha paytda Quba xoni Fatalining bir juft mashhur oti bor edi: birining nomi Qamar, boshqasiniki Shohboz edi. Fatali xon bu arg'umoqlari bilan faxrlanar va ularni Qorabog'ning barcha otlariga almashmayman deb Ibrohim xonga maqtanardi. Ibrohim xon busiz ham Fatali xon bilan dushman edi. Ammo ot masalasi Ibrohim xonga eski dushmanchilikdan ham katta bir dog' bo'lgandi. Endi Ibrohim xonning qo'liga qulay imkoniyat tushdi: u Safar yordamida Qamar bilan Shohbozni o'g'irlashni istab qoldi. Safar bu taklifni muvaffaqiyatli ado qilsa, xon uni afv etishga tayyor edi.

Xonning xohishi Voqif vositasida Kozim kishiga bildirildi. Kozim kishi o'ylanib qoldi va o'z-o'ziga "daryoda baliq savdo-

si ekan-da", deya ma'yuslandi. Lekin bu ma'yusligini birovga bildirmadi. "Taqdir nima bo'lsa, shu bo'ladi-da!" — deb indamay qo'ya qoldi.

Juma kuni edi. Kozim kishi istirohat kunidan foydalanib, hovlidagi gullar bilan ovora edi. Birdan hovli eshigi ochildi va qora paytavali yigit ichkari kirdi. U bu safar juda yaxshi kiyinib olgandi. Aftidan bu tashrifga kechadan tayyorlangan edi. Kozim kishi uni xursand kutib oldi. Tut daraxti tagiga sholcha to'shaldi, Safarning elchisi o'tirdi.

Mehmon kulib:

— Xo'sh, qanday yangiliklar bor? — dedi. — Eshitdim xon zindonidan mahbuslar ozod qilinibdi.

Kozim ma'yusligini bildirmadi.

— Safarni ham kechiribdi, xabar berarsan.

Yigitning yuzi kuldi.

— Lekin... Xonning Safarga bir ishi bor ekan.

— Qanaqa ishi? — deya yigit jiddiylashdi.

— Quba xonining ikki ayg'iri bor, ularni keltirib berishni istayapti.

Kozim masalani atroflicha tushuntirib jim bo'ldi va yigitga ko'z ostidan qarab qo'yardi. Yigit ko'p o'ylab ham o'tirmay:

— Bu nima bo'libdi! Koshkiydi xonning bunday xizmati ko'proq bo'lsa, — dedi. — Bu Safar uchun hech gap emas. Boradi ham, olib keladi ham.

Kozimning ko'zlari kattaroq ochildi:

— Ya'ni, boradi, deyayapsanmi?... Olib kela oladimi?

— Ha, jonini ham oladi.

Kozim mehmoni bilan shirin suhbat qurarkan, qizi Telli shisha o'rniga yog'li qog'oz yopishtirilgan derazaga yaqinlashib, mehmonini tomosha qildi. Qalbining qa'ridan:

"Koshki shu mening qallig'im bo'lsaydi!" — deya kelib qulog'iga eshitilgan ichki tovushdan titrab ketdi. Yonoqlari olov bo'lib yonayotganini his etguncha devorga suyanib qoldi. Shu asnoda Gulnoz ichkari kirdi. Bu ularning qo'shni bo'lib yashayotgan armani Ollohqulining qizi edi. Gulnoz Tellining bu ahvolda ko'rib hayron qoldi:

— Tellijon, nima bo'ldi? — deya shoshib so'radi. Uni tortib, yoniga o'tirdi: — Hoy qiz, nima gap?

Telli kulimsirab, Gulnozning qulog'iga nimanidir pichirladi. Gulnoz shahodat barmog'ini lablariga bosdi:

— Shunaqa degin! — deya derazadan hovliga qaradi.

Qora paytavali yigit odob bilan tizzalab o'tirib qahva ichardi. Boshiga qiya qo'ndirilgan bo'z telpagining tagidan chiqib turgan kokili yaltirardi. Ingichka mo'ylovini uchlari biroz buralgandi.

Gulnoz Telliga yuzini o'girdi:

— Hoy qiz, bunaqa qallig'i bo'lganning dardi bo'ladi. Xudo haqqi, kelishgan yigit ekan.

Telli bu so'zlardan quvonar, derazadan haligi yigitga qarab-qarab qo'yardi. Birozdan keyin yigit nima degan bo'lsa Kozim kishi boshi bilan tasdiqladi. Yana gaplashishdi, keyin yigit o'rnidan turdi, xayrlashib ketdi.

Hovli eshigi yopilganda go'yo quyosh botganday bo'ldi. Tellining sevinchi yo'q bo'lib ketdi. Gulnoz masalani tushundi, Tellining iyagini silab:

— Hoy qiz, holingni xarob qilma; yana keladi, yana ko'rasan, — dedi.

Telli jilmaydi, lekin bu jilmayishda bir hasrat qayg'usi bor edi.

Shu pallada ko'chadan baqiriq-chaqiriqlar eshitildi. Hamma ko'chaga qarab yugurdi. Mahallada yashovchi qumuq qo'shnilar orasida janjal chiqqandi.

Qo'llarida xanjar va qilich ushlagan qumuqlar qarama-qarshi ikki safda turib, bir-biriga xuruj qilardilar. Bir odam esa yerda, qonga belanib tipirchilab yotardi. Telli bunday qumuq da'vosini ko'p ko'rgandi. U yaxshi bilardi, janjallashayotganlar orasiga bir ayol kirib, ro'molini o'rtalariga tashlasa, erkaklar ayol tufayli hayo qilib, odat va an'analariga ko'ra janjalni to'xtatardilar. Telli o'zini yo'qotmadi, chaqqon yugurdi va bir-biriga qarshi hujumga shay turgan elliktacha qurolli qumuqlar orasiga suqilib kirib, boshidagi guldor ro'molini yerga tashladi. Bir pasta bir-birini qoniga tashna turgan ikki tomon ham ortga chekindi; qilichlar va xanjarlar qinlariga solindi.

12

Tehron beklarbegi Mirza Mammad xon Qorabog'ga vakil sifatida o'z ukasini yuborgandi. Vakilga xayrli ish Kichikbayimning ko'ngli istagan tarzda bajarilsin va undan hech narsa ayalmasin degan topshiriq berilgandi.

Vakil ham barcha talablarini bajarar, ashrafi puli ayamay sarflanardi. Ahd — nikoh marosimi ancha tantanali o'tdi. Barcha Shusha ruhoniylariga mo'l xalat berildi, o'ng ming ashrafi va bir botmon parvona qanoti[1] nikoh sepi belgilandi.

Parvona qanotina kabin qog'oziga[2] solish nikohning mustahkam bo'lishi niyatida amalga oshirildi. Chunki erga tegib ajralish katta qabohat sanalardi.

Ahd–paymonning ertasi kuni barvaqt, quyosh chiqmasdan sep ro'yxatga olindi. Ibrohim xon ham qiziga bergan sepi bilan Tehronning saxovatidan ustun keldi.

Xonning rasmiy qabul xonasining bir tomoni sep to'lib ketgandi. Bobo lala bularni birma-bir tashir, qabulxonaga yig'ilgan a'yon, ashraf va asnafga ko'rsatar, mahalla mullasi esa ularni zarli naqsh bilan bezatilgan qog'ozga qayd qilib borardi. Buyumlarning ro'yxatga olinishi bir necha soat davom etdi: bu yerda uy ashyolariga doir hech narsa unutilmagandi. Soat g'ilofidan tortib gilam, sholcha, idish-tovoq, nasldor Qorabog' arg'umoqlari, alvon kiyim-kechak, qimmatbaho ko'ylaklar, mo'ynalargacha hamma narsa bor edi. Zebi-ziynat, javohirot, tilla, ayol taqinchoqlari, sadaf bilan ishlangan ashyolar tanlangandi. Zebi-ziynatlarning ko'pi Shusha zargarlari tomonidan ishlangandi. Sepning bir qismi to'y ulushi sifatida qishloqlardan yuborilgandi: toy-toy lambaran gazlamalar, Ag'jabadi ipagi, Gulobli sholchalari, shu jumladan edi. Umar xon Avaristondan chiroyli qurollar: xanjar, qilich, kumush bilan zeb berilgan egar-jabduqlar jo'natgandi. Sep ro'yxati tugagach, bir qancha guvohlarning muhrlari ro'yxat oxiriga va chekkalariga bosildi.

---

[1] Parvona qanoti shaklida qayrilgan tilla bezak.

[2] **Kabin qog'ozi** — nikoh ahdnomasi.

Erkaklar masalaning rasmiy tomonini hal qilisharkan, ayollar ham to'yga tayyorgarlikni boshlab yuborishdi. Kichikbayimni tengto'shi bilan kelin hammomiga olib borishdi. Keyin qosh bo'yash va xina qo'yish bo'ldi. Nihoyat yaxshi bir pallada to'y boshlandi. To'y, tabiiy: faqat ayollar uchun edi, erkaklar uchun to'y Tehronda, bek bo'lgan joyda o'tkazilish lozim edi.

Kechqurun Gulobli va Abdal surnaychilari saroyning peshayvonida chala boshladilar. Saroy hovlisi odamlar bilan to'lib ketgandi. Bularning ko'pchiligi yo saroyga mansub, yoxud to'yga kelgan bekalarning oqsochlari edi. Bir tomonda elliktacha qushbozlar turib olishgan, qo'llarida ko'zlari bog'liq qizil qush-lochinlar, ularni shovqin-suronga ko'niktirish harakatida edilar. Xizmatchilar bir-birlarining qo'lidan ushlab davra qurishdi va yalla ayta boshlashdi. Laparchilar yetakchisi Bobo lala edi. Bora-bora surnayning tovushiga har tomondan odamlar yig'ila boshladi. Lapar aytilishi bilan boloxonadan bir-ikki hovuch tanga sochildi. Xizmatkorlar bir-birini tortib tanga terishga kirishdilar.

Ashula, o'yin-kulgilar kun botguncha davom etdi. Shundan keyin asl to'y tomoshalari qabul koshonasiga o'tdi. To'rda xon oilasiga mansub elliktacha xonimlar va qizlar joylashgandi, yon devorlar bo'ylab a'yonlar, beklar va hunarmandlarning xotin-qizlari o'rin egallashgandi. Yuzlab shamlar yoqilgandi.

Sozandalar soz chalar, xonandalar kuylardilar. Hazin navolar ba'zilarni g'am-g'ussaga cho'mdirar, ba'zilarni zavqlantirardi. Boshdan oyoq oppoq kiyingan Kichikbayim teng-u to'sh qizlar bilan o'tirib chuqur sukunatga cho'mgandi, ammo ba'zan xonandalarning hassos so'zlari uni to'lqinlantirardi; u nafis dastro'moli bilan ko'zlarini artardi. Dugonalari unga tasalli bersalar ham, bu ovutishlar uni noma'lum dardi oldida hech gap emasdi.

So'ngra oshiq-bahshilar bahsi boshlandi. Gulobli va Abdal baxshilari sadaflar bilan bezatilgan torlarini jaranglatib koshonaning u boshidan bu boshiga borib kelar, goh yurib, goh to'xtab bayotilar kuylashardi. Baxshilarning el qalbidan otilib chiqqan sevgi-muhabbat, dard-hasrat, ayriliq kabi tuyg'ularni jo'shtiruvchi so'zlari har kimni to'lqinlantirar, butun vujudini larzaga solardi. Kichikbayimni yanada g'amga cho'lg'ardi.

Uning qalbida jo'shqin tuyg'ular uyg'ondi. Musiqa unga yuksalmoq, bardam-baquvvat bo'lmoq orzusini bag'ishlardi. Ayni chog'da boshqa bir tuyg'u to'lqinlanib bu kuch-quvvatni sindirar, uning o'rnida achchiq, so'lg'in ko'lanka qoldirardi. Bunday damlarda begoyim qiyin ahvolda qolardi.

Raqs va ashulalar qisman bu g'amgin vaziyatdan qutqarardi. Quvnoq "Uzundara", "Rang", "Innabi", "Tarakama", "Og'abola rizosi" singari navolar bazm kechasiga o'zgacha bir shavq bag'ishladi. Qorabog' go'zallari raqs boshlashdi.

Ustlariga dur qadalgan duxoba boshmoqlar zarif gilamlarning ustida qushday yengil sirpana boshladi. Suzilgan qora ko'zlar, mayin harakatli oq bilaklar, nozli barmoqlar hammaning diqqatini o'ziga jalb qilardi. Ushbu nafis raqslarda na qadar go'zallik, na qadar bokira his-tuyg'u bor edi. Bir qiz raqsni tugatganda boshqasi uni davom ettirardi, biri-biridan go'zal, biri-biridan jozibali edi; har birining ham boshqa bir joyda, o'zgacha bir xirom etishi bor edi.

Kichikbayim endi o'rnida jim o'tiraolmasdi, zavq butun vujudini qamrab olgandi, raqs davrasiga chorlardi. Birdan uning qalbidan xabar beruvchi bir ovoz:

— Kelin o'ynasin! Kelin o'ynasin! — deya eshitildi. Ovozga boshqa ovozlar ham qo'shildi. O'rtada charx urayotgan ikki qiz eshila-eshila Kichikbayim oldiga kelishdi, nozik qo'llarining, go'zal boshlarining chiroyli harakatlari bilan Kichikbayimni raqsga taklif etardilar. Begoyim o'rnidan turdi. Butun bazm ahli jim qoldi. Hammaning ko'zi kelinga tikilib qoldi. Titroq qo'li bilan gardaniga tushib turgan sochlarini siladi, bo'g'doy rang yuzi qizil tus olgandi, har bir qadamida hayajoni aks etib turardi.

Raqs eta boshladi: ot belida juda epchil bo'lgan Begoyim, bu yerda ham shunday epchillikni namoyish etdi; har bir harakati nafis va nazokatli edi.

Kelinning raqsi bilan o'yin tomoshalari tugadi, qiziqchilar o'yinni boshladi. Davraning har boshida bir qiziqchi — nadim o'tirib olib o'yin ko'rsatar, askiya qilardilar. Bu oddiy va nafis bir o'yin edi. Unda faqat oyoqlar ishtirok etmas, o'tirgan holda qo'llar va yelkalar harakatga keltirilardi. Nozik xatti-harakatlar tugar-

tugamas musiqa tindi, manzum-nazmiy aytishuvlar boshlandi. Askiyachilar bir-birini mot qilishga tirishardi. Bunday aytishuvlar hozirjavoblikning, nazokatning yuksak namunalari edi. So'ngra navbat abdallik Najafga keldi. Uning o'ziga xos o'yinlari bor edi. Najaf boshiga salla o'rab, mulla qiyofasiga kirgandi. Hunarmand kiyimidagi shogirdi unga yaqinlashib, bosh egib ta'zim qildi va bir diniy masalada maslahat so'radi:

— Oxund, bir masalaga duch kelib qoldim: bir xum asal bilan bir xum yog' yonma-yon qo'yilgandi; ikki xumning o'rtasida bir sichqon o'lib yotibdi. Endi ikki xum o'rtasida shubha tug'ildi — bilolmayapmiz sichqon yog'ga tushib o'lganmi yoki asalga tushib halok bo'lganmi? Chunki asalga tushib o'lgan bo'lsa uni to'kib yuborish kerak. Yog'ga tushgan bo'lsa, yog'ni. Shariatan nima qilishimiz kerak?

Najaf bir-ikki yo'talib olib, dedi:

— Mo'tabar bir risolada shunday buyuriladi: ikki xum o'rtasida shubha paydo bo'lsa, unga sabab bo'lgan haligi mahluqni olib, lablaringga yaqin tutasan-da dumining tagini yalab ko'rasan, asal ta'mi bo'lsa — asalga tushgan, agar yog' mazasini bersa, demak u yog'ga tushgan bo'ladi. Vassalom masala hal.

Davradagilar kulishdi. Kichikbayim turib ketdi.

Shogird Najafga ikkinchi savolni berdi:

— Oxund, — dedi, — tang bir ahvolga tushib qolgandim, niyat qildim, och, yalang'och bo'lgan bittasiga besh tanga nazr qilsam deb. Sizdan bo'lak e'tiborliroq kim ham bo'lardi, oling ushbu tangalarni och, yalang'och bir bechoraga bering.

Najaf tilla tangalarni olib, shogirdidan chetlashdi. Keyin xalatining ostidan bir moda maymun chiqardi. Maymunga faqat ishton va nimcha kiydirilgandi.

Najaf maymunning kiyimini yechintirib dedi:

— Ey tangrining ishtonsiz mahluqi. Ertalabdan beri hech narsa yeganing yo'q. Qorning och, usting yalang'och, ol mana bu tangalarni, senga nazir qilishibdi.

Kulgi ko'tarildi, xalq yana qahqaha urdi. Najaf esa yangi taqlidlar qilishga tayyorlandi.

13

Devonxona maydonidan boshlab xon saroyiga qadar cho'zilgan keng xiyobon odamlar bilan to'lgandi. Saroy darvozasi ro'parasida qarollar qo'riqlab turgan yarim doirada alvon yopinchiqli rang-barang ukparlar, ko'zmunchoqlar va chig'onoqlar bilan bezatilgan, bo'yniga qo'ng'iroqchalar osilgan tuyalar turardi. To'rt-besh tuyaning ustida Kashmir jun matolariga to'la kajava bor edi. Orqadagi tuyalarga choyshablarga o'ralgan seplar ortilgandi. Har bir tuyaning tizgini cho'qqi qalpoq kiygan, beliga xanjar qistirgan bir sarbonning qo'lida edi. Tevarakka yig'ilgan xaloyiq bir-birini itarib-turtib tuyalarni, shuningdek ularga ortilgan seplarni yanada yaqinroqdan ko'rishga intilardi. Otliq sarbozlar arg'umoqlarini yeldirib, ora sira saroyga qarab talpinayotgan xaloyiqni qamchilab orqaga qaytarardi. Atrof-tevarakdagi uylarning tomlari, bolo-xona, ayvonlari, ko'cha eshiklari ayollar, qizlar va bolalar bilan to'lib ketgandi.

Saroy devorining tagida boshqa xotin-qizlar bilan bir yerda Telli va Gulnoz ham bor edi. Ularning ikkalasi ham chit chodra yopingan va lablariga qadar iyaklarini berkitib olgandilar.

Telli tirsagi bilan dugonasini turtib:

— Hoy Gulnoz, — dedi, — Kichikbayim og'aning ahvolini qaragin! Aftidan uning ham dardi borga o'xshaydi?!

Gulnoz yelkasini qisdi.

— Kim biladi deysan, dardsiz odam ham bo'ladimi?

Xotinlarning bir-birini turtib-surtib saroy darvozasi tomon siljish shovqinlari ularning ovozini bosib ketdi. Ayollar to'lqini ularni ham sudrab saroy hovlisiga olib kirdi. Yonlaridagi bolali va bolasiz ayollar tosh zinalardan saroy ayvoniga ko'tarilardilar. Telli va Gulnoz ham chiqishdi. Ayvon oldiga to'plangan ayollar orasini yorib ichkari kirdilar. To'rdagi xonimlar orasida oppoq kiyimli, iyaklarini oq shoyi mato bilan berkitgan nozik badan Kichikbayim ko'zga tashlanib turardi. Uning ikki tomonida bittadan yuzi duvoqli[1] yanga bor edi.

[1] **Duvoq** — parda.

Onasi nimadir gapirar, ikkalasi ham yig'lar edi. Kichikbayimning ko'zlari qizarib ketgandi, so'lg'in chehrasi siniqqan, unda chuqur bir qayg'u aks etardi, peshonasidagi chandig'i endi yaqqol ko'zga tashlanardi. Beka — xonimlar birin-ketin uning huzuriga kelar, baxt tilar, xayrli duolar qilar, birov qo'lidan, boshqasi yuzidan o'pardilar. Bo'y etgan qizlar yaqinlashib: "Baxtli-saodatli bo'lsin!" — deb, qo'llaridagi yashil ipli ignani uning duvog'iga botirib, keyin o'z yoqalariga qadardilar. Bu "mening ham baxtim ochilsin" — degani edi. Kichikbayim bu elning odatiga rioya qilib, biror so'z aytmasa-da, yuragida: "Erga tegish baxtiyorlikmi?" — deya o'ylar va ko'ksini dog'lardi.

Nihoyat, sozandalar chala boshladilar. Xonanda quvnoq ovoz bilan kuylashga tushdi:

Sizda bir bodom,
Bizda bir bodom,
Yangaga qadam,
Tursin, o'ynasin!
Sizda bir kurak,
Bizda bir kurak,
Yangaga yurak,
Tursin o'ynasin!

Yangalar duvoqlarini yelkalariga tashlab, raqsga tushishdi. Davraga jo'shqin bir shavq kirdi. Yangalardan keyin Bobo lala va enaga Gulgaz dastro'mollarini hilpiratib "Og'abola rizosi"ni o'ynashdi. So'ngra ikkalasi ham kelib Kichikbayimning oyoqlariga yiqilishdi. Lala bilan enaganing ho'ngrab yig'lashini ko'rgan Kichikbayim ham o'zini yig'lashdan to'xtata olmadi. Shohnisa xonim ham ularga qo'shildi...

Nihoyat, tashqaridan nog'ora tovushi eshitildi. Bu karvon tayyorligini bildirardi. Soqchilar ayollarni ayvondan chiqara boshlashdi. Ayvon chet odamlardan tozalangandan keyin qo'shni xonalardan birining eshigi ochildi, Ibrohim xon, Voqif, Mammadhasan og'a, O'hon kashish, Malik-shohnazarning yosh o'g'li Jamshid, xonzodalar, shu jumladan Mammad bek ichkari kirish-

di. Xon qizi bilan ko'rishib o'pishdi. Voqif Kichikbayimning peshonasidan o'pdi, boshqalar ham ko'rishib, chetga chiqishdi. Kelinning va yangalarning duvoqlari pastga tushurildi, yuzlariga ustidan jig'jig'a tortildi. Beklarbegining birodari kelin yoniga kelib, telpagini yechdi va uning boshiga kiydirdi, o'z kamari bilan kelin belini bog'lab, dedi:

Qizim seni qiz istayman,
Qosh-u ko'zing duz[1] *istayman,*
Yetti o'g'il onasi bo'l,
Hamda bitta qiz istayman.

Bel bog'lash ijrosidan so'ng Kichikbayimning bir qo'lidan Ibrohim xon, ikkinchisidan Voqif yetaklab ayvonning o'rtasiga olib keldilar. To'rt-besh cho'rini keltirib Kichikbayimning boshidan aylantirdilar, keyin ularning yuzlarini eshikka qaratdilar.

Kimdir: Ozodsizlar! — deya baqirdi.

Saroyga o'rganib qolgan cho'rilar ketishini istamay ho'ngrab yuborishdi. Shu odat bajarilgach, Ibrohim xon bilan Voqif Kichikbayimni eshik tomonga yetakladilar. Surnaychilar oldinga tushib olib, "Kelin otlandi" kuyini chalishardi. Eshik bo'sag'asiga to'nkarib bir taqsimcha qo'yilgandi. Kelin uni bosib sindirishi va hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan barcha balo-qazolarni yengishi kerak edi. Kichikbayim taqsimchani bosib sindirdi.

Kelinning ayvonda ko'rinishi atrofga to'plangan aholi orasida hayajon uyg'otdi. Olomon ustidan bir qalqima to'lqini o'tib tinchidi...

Kajavali tuyalar olg'a tortilib cho'ktirildi. Kichikbayimni kajavaning bir ko'ziga, yangalardan bittasini ikkinchi ko'ziga mindirishdi. Ketadigan boshqa odamlar va ikkinchi yanga boshqa kajavalarga joylashdilar. Tuyalar o'rinlaridan turishdi, g'amgin qo'ng'iroq ovozlari atrofga taraldi. Kichikbayim yuz pardasini ko'tarib, so'ngi bor ona yurtiga, yaqin odamlariga bir nazar soldi. Hamma narsa tabiiydek ko'rinardi. Faqat Mammad bekning pajmurda turishi bir xanjar bo'lib uning qalbiga sanchildi.

[1] **Duz** — to'g'ri, to'la –to'kis.

14

Kichikbayimning erga berilganidan keyin go‘yo Shusha yana oddiy hayot yo‘li bilan borar va uning osoyishtaligini buzadigan hech qanday hodisa ko‘rinmasdi. Lekin bir necha kun keyin ko‘chalarda qoqilgan nog‘ora va chalingan burg‘u ovozlari biror yanga voqea yuz berganini bildirardi. Hamma ko‘cha eshiklari oldiga to‘planib, qo‘shin o‘tib borishini kuzatardi. Kozimning oilasi ham tashqari chiqqandi. Telli bilan Gulnoz yashmag‘lanishib[1] lazgi va qumuqlarning yo‘lga otlanishar, buyumlarini ot, xachirlar, ashyolarga yuklashlarini tomosha qilishardi. Qo‘shin ichida turli yoshdagi odam bor edi.

Gulnoz Tellining qulog‘iga shivirlab:

— Hoy, qiz, — dedi, — anavi mo‘ylovi oqargan kishiga qaragin, yonidagi bola o‘g‘li bo‘lsa kerak.

— Ha, o‘g‘li, men taniyman, ko‘rmayapsanmi, judayam o‘xshaydi-ku?!

Kozim ham Gulnozning otasi Ollohquli bilan ishni qo‘yib, ko‘chaga chiqqandilar.

— Eh Ollohquli, yaxshiyamki boshimizni bu urho-urdan qutqardik. Bo‘lmasa, hozir ketayotgan bo‘lardik.

Ollohquli istehzo bilan:

— Qutqarganingni qayerdan bilasan? — dedi. Ganja xonining qo‘shini ko‘p bo‘lgandaydi, hozir bizlarni olib ketishardi.

— Axir, Ganja xoni Mammad xon yolg‘iz emas-ku? Uning Ibrohim xon itoatidan chiqishga qanday haddi sig‘adi! Bir bo‘ri yo‘ldan o‘tib borayotgan ekan, tog‘ ustida yolg‘iz qo‘zichoq turganini ko‘ribdi, qo‘zichoq bo‘rini ko‘rgach, uni haqoratlay boshlabdi.

Bo‘ri qo‘zichoqqa qarabdi, qarabdi, keyin depti: “Hoy qo‘zichoq, bu jur’at seniki emas, orqangdan suyab turgan tog‘niki”. Endi, usta Ollohquli, Mammad xon shunday. Orqasida Quba xoni Fatali turibdi. Fatali turmaganida bu g‘alvani boshlamasdi. Mammad xon bir tosh, uni Ibrohim xonning oyog‘i ostiga yumalatib yuborgan bor...

---

[1] **Yashmag‘lanish** — og‘iz va dahanlarini maxsus parda bilan to‘sish.

Qo‘shin guruh-guruh parokanda bir holda o‘tib borardi. Kimningdir piltali, boshqasini chaqmoqli miltig‘i bor edi. Ko‘plari qadimiy libosda; qalqon, qilich va zirhli edilar. Nayza, cho‘qmor, dubulg‘alar quyoshda yaltirardi. Beliga zambarak bog‘langan bir necha tuya o‘tdi... Ollohquli boshini sekin tebratib, astagina:

— Hoy usta Kozim, — dedi, — gap oramizda qolsin-u, bu xonlar yil bo‘yi bir-biri bilan urush qiladilar, kasb-hunar qo‘ldan ketayapti.

Urushlarning qanchasini ko‘rgan Kozim istehzoli jilmaydi:

— Usta, bular yuvindi da’vosidir. Mulla Nasriddin yotgan edi, dahlizda qandaydir shovqinni eshitdi. Mulla ko‘rpasiga o‘ranib dahlizga chiqqan zahoti shovqin tindi. U orqasiga qaytdi. Ko‘rpasi yo‘q edi. Xotini: Hoy mulla, nima shovqin ekan? — deb so‘radi. E, xotin, — dedi Nasriddin, — barcha shovqin mening ko‘rpam ustida ekan: olishdi, tinchib qo‘ya qolishdi... Endi bo‘lsa usta, dunyoning to‘s-to‘poloni ko‘rpa uchun bo‘layotir. Hozirgacha Ganja Irakliy xon bilan Ibrohim xonga bas kelardi.

Endi Mammad xon shobolidga[1] aylangan, yog‘ bermayapti...

Qo‘shin o‘tib ketdi, orqasidan ko‘cha changitgancha bir to‘da bola va ko‘zida yosh ayollar yugurib borardi...

Kozim bilan Ollohquli ustaxonaning hovlisiga kirishdi. U yer bu yerlarga alvon rangli matolar osib quritilayotgandi. Ulardan tomchilayotgan rangli suvdan ko‘lmakchalar vujudga kelgandi. Bir tomonda tovuq-xo‘roz yer titishardi. Darvozaga yaqin bir daraxt o‘sardi. Ustalar qo‘llarini yuvib daraxt ostiga solingan buyra ustiga o‘tirdilar. Havo issiq edi. Sahar eli ham esmayotgandi. Osmonda suzayotgan oq bulut parchasi kumushdek yaltirardi.

Kozim bulutga qarab, noxush ovozda:

— Yomon qurg‘oqchilik bo‘layapti, — dedi. — Shunday bo‘laversa, bug‘doy kuyib ketadi. Alloh rahm qilsin-da!

— Mullalar, Tavob toshiga borib, toshga duo o‘qib, uni suvga solishsaydi... Esimda, bir marta borishgandi. Shunday yomg‘ir yog‘ib bergandiki, suvga tushgan jo‘jaday qaytib kelishgandi.

Shogirdlardan patnisda temir o‘choqda pishirilgan ikkita yupqa non, qo‘y terisi meshkopda asralgan quruq pishloq, ikki finjon choy

[1] **Shobolid** — kashtan daraxti.

olib keldi, ustalarning oldiga qo'ydi. "Bismilloh" deya tamaddi qila boshladilar. U yoq-bu yoqdan gaplashib uzuq-yuluq fikr va mulohazalar yuritardilar. Biroz ashyolarini sotib olgan tojirning batxohligi haqida gapirdilar, keyin tijoratning to'xtab qolganidan biroz shikoyatlandilar. Oxirida yana urush masalasiga o'tdilar.

— Axir oldi-sotdi ishlariga nima xalaqit beradi, mol deganing suvday oqib tursagina foyda ko'rasan-da. Karvon yo'lga chiqdi deguncha qochoq qul oldidan chiqadi — yo'lini to'sadi; qaysi xonning mulkidan o'tsa "yerbosti" solig'i oladilar... Savdogarlarni tavbasiga tayantiradilar. Qarang, bizning armanilar o'ris yerlariga qochib borishibdi. O'tgan kun bittasi Qizlar shahridan kelibdi. Hammasi davlatli bo'lib ketibdi, deydi. Eh-he, chog'irchilarni aytmaysizmi? Tillani kurak bilan yig'ib olishayapti... Bu yerda shunday qilib ko'r-chi, o'sha zahoti qo'lingdan tortib oladilar...

Ollohqulining qoshlari chimirilgan, yuzida chuqur norozilik ifodasi bor edi.

Kozim zo'r e'tiqod-la:

— Eh Ollohquli, — dedi, — dunyo moli haqida ko'p gapirayapsan, nima qilasan, go'ringga olib borasanmi?... Sarmoyeyi tu dar in jajon yek kafan ast — ura ki, gumon nist, bari ya na bari.[1] Hoy, usta davlatning ham davlat dardi, dunyoda dardsiz Inson yo'q! Ozgina oshim, og'rimas boshim — hammasidan yaxshiroq. Besh kunlik dunyoni bir amallab o'tkazib yur... Shoirimiz yaxshi aytgan:

Dar har kasi ke, nim nani dorad,
Az bahre nishast a setani dorad,
Na xodeme kas bovad, na maxdime kasi,
Gushod bezi ke, xo'sh jihoni dorad.[2]

---

[1] Sening bu dunyoda qozonganing birgina kafandirki, uni ham olib borish-bormasligingga gumon yo'q.

[2] Kimniki bor esa bir burda noni,
O'ziga ishora uy — oshiyoni,
Na birov unga qul, na u birovga,
Ayt, shod yashayversin, xushdir zamoni.
(Xayyomning bu ruboyisini forschadan Sh.Shomuhammedov tarjima qilgan.)

Kozim falsafasiga maftun bo'lgan bu she'rni Ollohquliga tarjima qilib berdi, juda to'g'ri ekaniga shuncha urinsa ham Ollohqulini ishontira olmadi. Chunki Ollohqulining o'z muayyan hayot rejasi bor: u bir kun imkon topib, davlat mol sohibi bo'lishiga ishonardi. Uning ibtidoyi holda, ming azoblar bilan yasagan mahsulotini rus tuprog'ida moshina yasaydi, o'zi ham unikidan arzon, unikidan ancha yaxshi bo'lishini bilardi. Shunday mashina yasagan mahsulotni olib kelib bu yerlarga sotish, evaziga bu yerning matosini rus yerlariga olib borib pullash Ollohqulining azaliy orzularidan biri edi.

Bu paytda Shushaning Ganja darvozasidan chiqib borayotgan qo'shin asta-sekin tog' yo'llari va daralarni to'ldirardi. Qo'shinning oldida Ibrohim xon, chap tomonida Voqif va atroflarida xonzodalarning ba'zisi hamda sarkardalar borardi. Ko'pdan beri safarga chiqmagan otlar yuganini chaynardilar.

15

Safar xonning qarorini bilgan zahoti yo'lga chiqdi. Qorabog' hududi sanalgan Kura daryosini kechib o'tib Shirvon yeridagi bir qishloqda tunadi. O'sha joyda tasodifan Fatali xonning zulmidan qochib kelgan bir qishloqlik kishiga duch keldi. U bilan do'stlashdi va Quba xonligi chegarasigacha unga yo'l ko'rsatuvchi bo'lishini iltimos qildi. Qishloqlik rozi bo'ldi, ikkovlon otlarga minib yo'lga chiqishdi. Yo'lda tunab qolgan joylarda yangi-yangi odamlarga uchrab, xabar olib borishdi.

Nihoyat Quba hududiga etishdi. Yo'l boshlovchi oldindagi yo'llarni va qishloqlarni tushuntirib qaytib ketdi. Safar esa yaqin bir ovulda tushib qoldi. U bu yerda xon yilqisining tog' yayloviga olib kelganidan xabar topdi. Yaxshigina ma'lumot to'plaganidan so'ng, yana yo'lida davom etdi. Oxiri bir oqshom chog'i Miroho'rning [1]yaylov qo'nolg'asiga yetib oldi.

— Alloh mehmoni istaysizmi? — dedi.

---

[1] **Miroho'r** — xonliklarda saroy otxonalariga boshchilik qilgan mansabdor shaxs.

— Allohga ham jonim tasadduq, mehmonga ham! — deya Safarni kutib olishdi.

Odatga ko'ra, qarol kelib mehmonning oyoqlarini yuvdi, chaylaning ro'parasida to'shak soldi, non-qatiq olib keldi. Miroho'r ham uning yoniga o'tirib suhbat boshladi. Hangoma asta-sekin qovusha bordi. Atrofga cho'kkan sukunatni faqat daryoni jozibali shovullashi buzardi. Uyqu ham Qorong'ulik misol harakat bilan ko'zlariga joylashar, ularning yorug'ini sindirishga harakat qilardi. Joylar solindi, har kim ko'rpaga kirib, boshini yostiqqa qo'ydi. Miroho'r ham chaylaga, xotinining yoniga o'tdi. Tun zulmat sari chopar, samodan osilgan minglab qandillar go'yo unga yo'l ko'rsatganday bo'lardi. Hamma uxlab qolgandi, faqat Safarning ko'zlariga uyqu qo'nmasdi: Qamar bilan Shohboz haqidagi o'y unga tinchlik bermasdi. Chalqancha yotib osmonga tikilar, samo qa'ridan Qambar bilan Shohbozning ko'zlari porlab qarab turganday qo'rinardi. Ba'zan bu ko'zlarning orasida Tellining charosday qora ko'zlari uyatchan bir holatda qarab turar, sog'inganini sezdirmoqchiday bo'lardi. Safar o'rnida to'lg'anar, yana ko'zlarini yulduzlarga qadar, qalbining nolalarini, faryodlarini tinglay boshlardi. Shu asnoda oyoq tovushlari eshitildi. Xayolga cho'mgan Safar bu tovushlarga ahamiyat bermadi. Uyg'oq ko'zlari miltirab turgan yulduzlar orasida tentirardi.

Lekin yaqinlashgan tapir-tupir qulog'iga chalindi — kimdir chaylaga yaqinlashib, kelardi. Safar ko'zlarining qiri bilan qorong'ulikni kuzatardi. Bir odam kelib, chayla yonida to'xtadi. Atrofni diqqat bilan ko'zdan kechirib, engashdi, yerda nimanidir axtarib, o'ziga qarab torta boshladi. Ichkaridan bo'g'iq bir ovoz eshitildi, achchiq bir faryod taraldi. Safar qo'lini bolishi tagiga tiqib xanjarini oldi va yotgan o'rnidan qoplonday sakradi, uning hayqirig'i chaqmoqday sharaqladi. Chayla yonidagi odam changday erib, qorong'ulikda g'oyib bo'ldi. Safar uni ta'qib qilmadi. Quloqlarini chayla to'siqlariga qo'yib tingladi. Ichkaridan g'azabli ovozlar eshitilardi. Miroho'rning bo'g'iq ovozi asta-sekin oydinlashdi. Ingichka, qo'ng'iroqday jaranglagan ayol ovozi esa unga o'shqirib, tuhmat qilardi...

Safar qaytib kelib o'rniga cho'zildi. Bir necha daqiqadan so'ng Miroho'r chaylasidan chiqib keldi, bolishga yonboshlagan Safar tomon engashib, ohista:

— Mehmon, ko'rdingmi? — dedi, — uxlayotganimda tomog'imga sirtmoq solib meni bo'g'moqchi bo'lishdi. Yaxshiyamki sen uyg'oq ekansan.

Miroho'r g'azabidan gapini davom ettira olmadi. Safarning qo'lidan tortib chetga yetakladi. O'tirishdi. Miroho'r mushtugini yondirib, dardini ochdi. Uning yosh xotinining o'ynashi bor ekan.

Sezib yurarkan-u hech qo'lga tushirolmaskan. Bir safar xotinini o'ldirmoqchi ham bo'libdi. Xotin tavbalar qilib, shubhalari bekor ekanligiga ishontiribdi. Nihoyat Miroho'rni o'ldirish payiga tushishibdi.

— Mehmon! — dedi Miroho'r. — Tangri seni ayol makridan uzoq aylasin! "Egri do'stdan do'st chiqmaydi. Uning bir ildizi egri bo'ladi...". Ayolning bir ildizi hamisha qiyshiq bo'ladi!..

Miroho'r o'zini bosib olish uchun tamakidan tortdi. Ufqda to'plangan qora bulutlarga qaradi, ko'kragini ko'tardi. Safar qotib qolgandi.

Miroho'r gapida davom etdi:

— Sen mening jonimga ora kirding, mehmon. Endi ayt, bilay, nima ish bilan yuribsan? O'zing kimsan? Bizlar besh og'a-ini edik, to'rttamiz urushlarda halok bo'ldi. Endi men yolg'iz qoldim. Sen mening dunyo-oxirat birodarim bo'l. Ayt, o'zingni darding nima? Borimni, jon-tanimni sendan ayamayman!

Safar Miroho'rning ovozida samimiyat, mardlikni his etdi, qalbini ochdi, dardini aytdi. Boshidan o'tkazganlarini birma-bir gapirib berdi, oxiri maqsadini ham yashirmadi.

Miroho'r biroz jim qoldi, keyin afsuslangan bir ovozda:

— Bularning hammasi yaxshi. Biroq... Afsuski, sen ham ayol sirtmog'iga bandi bo'libsan... Kel, qo'y endi bu toshlarni etagingdan to'kib tashla! Oxiri befoyda buning. Otlarni sendan ayamayman. Minib ketamiz. Arazning u tomoniga o'tib ketamiz. Karbalo yerlariga borib, umrimizni duoniyoz-la o'tkazib, mol dunyoga aldanmaylik...

Safar indamadi. Ufqda chekkalari qizargan qora bulutlarni tomosha qilarkan u yerda ma'sum qarashli Tellining ol yonog'ini, tarqoq qora sochlarini ko'rdi. Yuragini g'am bosdi.

Miroho'r biroz g'azabli, biroz esa mehribon va minnatdor ovoz bilan:

— Mehmon, — dedi, — xayolingga yomon fikr kelmasin, arg'umoqlar ham, jonim ham sendan aylansin, sadag'ang ketay, senday mard yigitga jonim tasadduq. Ammo senga rahmim kelayapti. Yoshsan, ishqilib, menga o'xshab qarigan chog'ingda boshinga tashvish tushmasin-da.

Safar indamasdi. Tellining yonoqlari tong otar paytining qizarishidan ham porloq edi. Uning ko'zlari so'nib borayotgan yulduzlarga ziyo berardi.

Miroho'r g'azabli bir harakat bilan turib ketdi. Ko'p o'tmay Qamar bilan Shohbozni egar-jabduqlab olib keldi.

Mehmon, — dedi, — hozir kutish vaqti emas, min, ketdik!

Chaqqon otlanib, yo'lga tushishdi. Yaqindagi daryoni kechib o'tib, bir tolzor joyda to'xtadilar.

Miroho'r dedi:

— Miltig'im esimdan chiqibdi. Sen shu yerda tura-tur, hozir borib olib kelaman.

Miroho'r o'z otini ham Safarga qoldirib ketdi. U o'n daqiqalarda qaytib keldi. Safar Qamarning to'lqinli yolini silarkan, tulporning nimqorong'uda Damashq qilichi singani yarimdoira hosil qilgan bo'yniga, g'urur-la qayrilayotgan boshiga qarab hayron qolgandi. U endi o'zini yerni larzaga soluvchi oltin ho'kiz belida his qilardi: Qamar unga zavqli va yengilmas qudrat bergandi.

Yugurgan oyoqlarning tapillashi uning diqqatini tortdi. Miroho'r yon tomondan chopib kelarkan, jahl bilan yerga bir narsani uloqtirdi:

— Bevafo ayolning oqibati shunday bo'ladi, — dedi, sakrab otga mindi.

— Hayda!

Qamar yerga uloqtirilgan narsaga qarab hurkar, pishqirardi. Safar ham diqqat bilan o'sha yerga qaradi: o'tlar orasida sochlari to'zg'igan xotin boshi yotardi.

16

Safar bilan Miroho'r Kura daryosi bo'yigacha birga borishdi, shu yerda xayr-xushlashib ajralishdi. Safar Shushaga qarab, Miroho'r esa Arazga tomon ketdi.

Yo'lda Safar tasodifan Ganjadan zafar bilan qaytayotgan Ibrohim xon qo'shiniga duch keldi. Ko'zlari o'yilgan Mammad xonni yuztuban eshakka bog'langan holda olib ketishardi. Oilasi va ukasi Rahim bek ham shu yerda edi. Yuk ortilgan ulovlar, xachirlar, otlar og'ir-og'ir qadam bosib yurishardi. Ganjani va barcha qishloqlarni talab ketishardi.

Safarning ostidagi tulpor hammaning e'tiborini tortdi. Hali qo'shin ketayotgan yo'lga yetmay turib, choparlar yuborilib, otning kimniki ekanini surishtirishdi.

Bir zumda Safarning nomi og'izdan og'izga o'tib, minglargacha ko'z unga qadaldi.

Safarni xonning yoniga olib kelishdi. U otdan tushib, bosh egdi:

— Men buyurganlarini bajardim. Endi ixtiyor xonda! — dedi boshini ko'tarmay.

Voqif andishali bir tarzda xonga qaradi; xonning g'azab ufurib turgan yuziga marhamat aksini ko'rib sevindi.

Xon amrona bir ovozda:

— Bo'lib o'tganlarni mardliging uchun kechirdim, — dedi, kulimsirab Voqifning yuziga qaradi. Unda rozilik alomatini ko'rib, yanada marhamatli bir tovushda: — Qamarni min, ehtiyot bo'l, uni senga topshiraman.

Safar otining jilovidan yetaklab, xon va uning a'yonlaridan uzoqlashdi, sarkardalarni ham oldinga o'tkazib, keyin otga mindi. Endi u o'zini, dunyoning eng baxtiyor odami hisoblardi, kechirilgandi, o'zi ham Qamarning belida, Shushaga, Tellining yoniga borayotgandi. Yana sevgi to'lqini uni chulg'ab oldi — uning faqat qanoti yo'q edi. Lekin so'ngsiz yo'l tugamasdi, daqiqalar yillar kabi cho'zilardi, sog'inch olovi vodiyning yoz quyoshidan ham dahshatli edi. Ammo hasrat sarob singari aldoqchi bo'lsa-da, intihosiz emasdi — soatlar og'ir bo'lsa-da o'tib borardi.

Yondirguvchi quyosh g'arbga qarab siljirdi. Nihoyat tog'larning salqin epkini esa boshladi, endi shaharga bir-ikki chaqirim qoldi.

Choparlar xonning kelayotganini oldindan xabar bergandi. Erkak-ayol, yosh-qari olomon qal'a darvozasining kiraverishidagi qiyalik yonbag'irlarni to'ldirishgandi.

Bizning do'stlarimiz Kozim, Ollohquli, Gulnoz va Telli ham shu yerda edi. Shusha darasidan chang ko'tarildi. Bir-ikki chopar xabar berish uchun ot choptirib kelishdi. Xalq qo'zg'aldi, chuqurroq joyda turganlar oyoqqa turmoqchi bo'lishdi.

Hayajonli ovozlar: — O'tirsanglar-chi! — deb ularni cho'kkalashga majbur qilishdi.

Gulnoz shoshib:

— Hoy qiz, — dedi, — Telli, boshingni sal chetga ol, men hech narsa ko'rolmayapman.

Telli kulib:

— Hazil qilmayapsanmi? — dedi. Qo'lini cho'zib Gulnozning iyagini ushladi.

Hazillasha boshlagan Telli boshini egib Gulnozning og'zini mayna qilardi.

Gulnoz bo'lsa uning boshi ustidan cho'zilib pastga, qabristonga tomon qarardi.

Birdan kimdir baqirdi:

— Kelishayapti, Xudo haqqi kelishayapti!

Telli shart burildi. Xon a'yonlari bilan qiyalikdan chiqib kelardi. Atrofni jimlik qopladi. Hammaning diqqati o'sha yoqqa qaratildi. Qo'shin ham ko'rina boshladi.

Endi xon a'yonlari bilan bizning qizlar oldida o'tib borardi: yuz-ko'zlariga chang qo'ngandi, oftobda yuzlari qoraygandi. Voqif o'girilib, ayollar o'tirgan qiyalikka qaradi, uning ko'zi Telliga duch kelib to'xtadi.

Telli qizarib boshini xam qildi. Xon bilan a'yonlari qal'a darvozasidan ichkari kirib ko'zdan g'oyib bo'lgach, Telli yana boshqa kelayotganlarni tomosha qila boshladi.

Bir mahal uning ko'zlari bir nuqtaga tikilib qoldi: yuziga qon yugurdi. Qo'li bilan Gulnozni turtdi:

— Hoy qiz! Hoy qiz! — dedi. Qaragin, biznikiga kelgan yigit ham shu yerda ekan. Oti muncha chiroyli uning!..

Qamarning kelbati, chiroyliliga og'izdan og'izga hamma yoqqa tarqaldi.

Har tarafda: "Qani? Kim? Nima?" — degan savollar, so'rab-surishtirishlar boshlandi. Nihoyat, savollarning uning kim ekanligi aniqlanib, tevarakka yoyildi.

Telli quloqlariga ishonmasdi:

— Hoy qiz, Gulnoz! U qayoqdan Safar bo'lib qoldi. U Safarning odami, Safar emas!

— Nima deyapsan, hoy qiz, demak hamma yolg'on gapirayotgan ekan-da. Qochoq Safar siznikiga kelib, men Safarman, demaydi-ku, axir...

Telli ko'zlarini Safardan uzmas va Safar bilan Qal'a darvozasi orasidagi masofaning yaqinligiga afsuslandi... Qamarning nag'allaridan uchgan tovushlar Qal'a darvozasining taqiga urilib jarangladi...

Telli orqadan kelayotgan asirlar to'dalarini alvon rangli kiyimli askarlarni, nayza uchlaridagi qoraygan odam kallalarini tomosha qilishdan ojiz edi. Uning xayoli, qora ko'zlari va tipirchilayotgan qalbi Safar tomonda edi.

17

Ganjaga qilingan yurish Ibrohim xonning nufuzini Ozarbayjon xonliklari orasida ancha oshirib yubordi. Saroyda katta shodiyonalik bo'lib o'tdi. To'n — mukofotlar ulashildi. Shaharda chiroqlar yoqildi, to'plar otildi. Lekin bu shodiyonani o'ttiz yildan beri vakil nomi bilan boshqarib kelayotgan Karim xon Zandning vafoti haqidagi xabar buzdi.

Saroyni yana andishalar qopladi. Ibrohim xon bu xabarni olishi bilan Voqifni yoniga chorladi. Saroyning xonalaridan biriga kirib olishdi. Bu yerda sharqda tarqalgan ovoza tafsiloti xususida gap bordi. Voqif o'ziga xos sovuqqonlik-la dedi:

— Eron har yigirma-yigirma besh yilda bir to's-to'polonni boshidan kechiradi. Demak, Nodir shohning zuhuridan avvalgi

vaziyat takrorlanyapti. Har shahardan bir xon bosh ko'targusi, musulmon qoni suv bo'lib oqadi...

Xon alam bilan:

— Buning oqibati esa bizga yomon bo'ladi-a? — dedi va diqqat bilan Voqifning yuziga qaradi.

Voqif tasbehini o'girarkan:

— Albatta, — dedi, — o'sha xarobaning g'alvasi qachon bizni og'ir ahvolga solmagan o'zi? Nodir o'lkada talofat ko'rmagan yer qoldirmadi, hamma joy xarobaga aylandi. Qorabog' va Shirvon aholisini haydab Xurosonga olib bormadimi? Qancha odam halok bo'ldi...

Oraga jimlik cho'kdi. Ikkalasi ham yaqin o'tmishdagi achchiq voqealarni o'ylab qolishdi... Urushlar, qon, yong'in, ochlik, vabo... Falokatning cheki-chegarasi yo'q ėdi...

Ibrohim xon turdi, yana o'tirdi, chordona qurdi, ipak bolishni chap tirsagi ostiga olib suyandi:

— Jahannam, — dedi, — hech bo'lmasa qanday o'yinlari bor bo'lsa, Arazning narigi tomonida qilishavermaydimi, xavf-xatari bizga tegmasdi!

— Shunday bo'lishi mumkinmi? Bizdan itoat etish talab qilinadi; itoat qilsak bir balo, qilmasak ikki balo.

Xon yana iztiroblarini ifodalash uchun ba'zi harakatlar qiladi, soqolini silab, Voqifning yuziga qaraydi.

Voqif kulimsirab:

— Hozircha ehtiyot chorasining keragi yo'q, — dedi, — vaziyatga qarab harakat qilamiz. Hozirchalik Tehron bilan qo'shnichiligimiz bor, beklarbegi bilan xat-xabar, aloqalarimizni kuchaytiraylik, ahvolotdan xabardor bo'lib, tadbir ko'ramiz.

Voqifning ohista, salmoqli gapirishi xonga ham ta'sir qildi, u biroz o'ylab, qat'iy ohangda:

— Vakilning maslahat hamda ta'siri tufayli Fatali xon biroz hayo qilardi, endi qo'rqamanki u ham isyon ko'tarmasa.

Voqif yuziga jirkanish ifodasi bilan ta'kidladi:

— Fatali xon hamyonidan boshqa narsani o'ylamaydi. U kim ko'proq ashrafi[1] bersa o'shaning nog'orasiga o'ynaydi.

[1] **Ashrafi** — tilla pul.

Bundan to'rt yil burun rus qo'shinini Darbandga chaqirmadimi? Tobosaron va Qoziquluq tomonlarda ruslar bilan birga bosqinchilik qilmadimi? Bu mal'un dini mubini islomning dushmanidir. Hadis bor-ku, Darbandga kofir qadam bossa, islomning beli sinadi. Bu mal'un islomning umurtqasini o'z qo'li bilan sindirdi.

— Bir marta sindirgan, boshqa sindirmaydimi?

Voqif biroz yumshadi:

— Fatali xondan besh vaqt namozdan bo'lak nima desang topiladi, — dedi, — ammo rus qo'shinining hozirgi paytda kela olishiga gumonim bor. Kelgan edi, chiday olmadi. Demak, biror to'siq borki, qololmadi, qaytib ketdi. Usmonli davlati bilan Yekaterina orasida sulhnoma bor, yaqin oralarda ruslarning bu yerga kelishiga haqlari yo'q. Agar bo'lsaydi, gumonimcha, Darbanddek bir qal'adan to'p-zambaraklarini olib ketmasdi...

Xon bilan Voqif uzoq o'ylab ko'rib ba'zi tadbirlar belgilashni lozim topishdi. Mammadhasan og'a bilan Alimammadni Araz sohiliga yuborib, xon bilan Voqifning ham Quba bo'yiga borishi, qo'shin va boshqa yumushlar tadorigini boshlashga qaror qilindi.

Xon osuda nafas olib, sirlangan chilimdagi suvni nash'a qilib qurullatarkan, yana Voqifga qaradi, chehrasida minnatdorlik ifodasi bor edi. Dasturxonchini chaqirdi. U o'sha zahoti yetib keldi.

— Chilimni olib ket!

Dasturxonchi ehtiyot-la chilimni olib ketdi. Qiya ochiq qolgan eshikda Shohnisa xonim ko'rindi.

— Hoy oshiq, xon bilan yana nimalar ustida bosh qotirayapsizlar? — deya ichkari kirdi.

Voqif o'rnidan turdi, xonimga joy bo'shatdi. Shohnisa xonim ohista o'tirdi:

— Karim xonga, aftidan ta'ziya bildirmoqchiga o'xshaysizlar, deya kinoyali kuldi va o'zini qo'lga olib andisha bilan so'radi:

— Oxund, beklarbegiga hech narsa bo'lmas?

Voqif jiddiy ohangda:

— Beklarbegi taxt-saltanat da'vosi qilmasa, nima ham bo'lardi, — dedi.

Shohnisa xonim oh tortdi va durrasining uchini o'ynay turib:

— Qayoqdan bilay, aftidan Tangrining qismati shunday ekanda, — dedi va yig'lamsiradi.

Ibrohim xon ochiq derazadan tashqariga, shaharning kunbotar tomoniga qaradi va nimanidir o'ylab qoldi. Ko'charli mahallasining qalamchadan to'qilgan uylari, mo'rilaridan burqsitib tutun chiqarayotgan qora tomlari, tezak quritayotgan ayollar, nishon qo'yib, unga tekkizish uchun o'q otayotgan bolalar, daraxtlar ostida chug'urlashayotgan kalta shimli o'yinqaroq bolakaylar bir-bir ko'z o'ngidan o'tdi. O'ng tomondagi tekis minora yonida Javonshir va O'ttiz ikki ulusiga mansub askarlarning zambarak atrofida mashq o'tkazayotganlari uning diqqatini tortdi: tund yuzi biroz yumshadi. Yuqorida past-baland cho'qqili qoyalar, ularning ustidagi qora bulutlar chulg'agan osmon ko'rinardi... Xon bu manzaradan miyasiga bir o'y keldi chog'i, orqaga o'girilib:

— Oxund, — dedi, — Irakliy xonga xabar berish kerak, tayyor tursin. Bir noma yoz!

— Xo'p bo'ladi, xon, kechqurun yozib taxt qilaman. Chopar qachon jo'naydi?

— Ertagayoq, — dedi xon. — Vaqt kutib turmaydi... Nima desang de, ammo Fatali xonga ishonch yo'q. — Xon o'ylab turib, qo'shimcha qildi: bitta noma Umar xonga ham yoz, mayli, tayyor tursin.

— Ho'p bo'ldi! — deb xonning yuziga qaradi va yana nimalar aytishini kutib sergaklandi.

18

Voqif soqolining xinasini yuvib quritdi. Uyga chaqirilgan sartarosh uni kutardi. O'tirib yuzi o'yma naqshli ko'zguni taqdim etdi. Voqif ko'zguga qarab:

— Qani boshla-chi, usta, — dedi, — olib tashlanadigan joyim bormi, o'zi.

Sartarosh qizil matoni Voqifning ko'kragiga tortib, uchlarini yelkalaridan oshirdi, boshini suv bilan ho'lladi. Sartaroshlar ko'p gapiradigan bo'lganiday bu usta ham og'zi bo'sh edi, lekin so'z xaltasini ochish uchun bahona qidirardi.

Xina masalasi bir bahona bo'ldi.

— Oxund, xina juda qimmatlashib ketibdi. Bunga xon nega biror tadbir ko'rmaydi? — dedi-da Voqifning boshini ho'llab, egilib uning yuziga qaradi.

Voqif indamadi. Sartarosh javob olmagach, biroz gapni olib qochmoqchi bo'ldi:

— Ammo, — dedi, — odam o'lishi tayin ekan, rostini aytgan ma'qul, qimmat bo'lsa ham, qo'lga xina-da axir.

Voqif yana indamadi. Sartarosh cho'ntak bandidan enli ustarasini chiqarib sochni ola boshladi. Bir-ikki joyda qo'li qaltirab kesib oldi, matoning uchi bilan qonni artib olarkan Voqifning eti junjikdi. Lekin yana indamadi. Sartarosh qonga bir maqol aytdi:

— Kesilgan joydan qon chiqadi, — deydilar. Otalarimiz juda topib aytishgan-da.

Voqif sartaroshning barcha bema'ni gaplariga chidab, oxiriga biror kalima so'z aytmadi, javob bermadi. Sartarosh uning boshining sochini qirib tugalladi, soqoli va mo'ylovini to'g'irlab qo'ydi. Keyin matoni yechib, qirqilgan soch, soqol, mo'ylovni to'kib kelishga turganda yana bir-ikki maqol aytmoqchi bo'ldi. Lekin Voqif oyoqqa turdi, cho'ntagidan bir nechta yigirma tiyinlik tanga chiqarib sartaroshga berdi va:

— Usta, — dedi, — xinaning narxi oshgan bilaman, a'loligi ham bilinib turibdi; kesilgan joydan qon chiqadi, bu ham o'rnida aytilgan. Faqat bitta aytilgan narsa ham bor, o'shani esdan chiqarding:

Qo'lingda bor kuching, usta,
Qonim bo'lsin to'yching[1]*, usta,*
Boshimni kesganing joyda
Sinsaydi ulguching[2]*, usta!*

Voqif so'zini tamomlab, qo'shni xonaga o'tdi. Qizxonim kichkinagina ko'zguni derazaga qo'yib sochlarini to'g'riladi. Gulob isi xonani to'ldirib yuborgandi.

---

[1] **To'yching** — pul yoki mahsulot tarzida olinadigan soliq.

[2] **Ulguch** — ustara.

Derazaning rangli oynalaridan tushgan yorug‘ uning yonoqlarida ming bir tusda jilva qilardi. Qora ko‘zlari o‘z aksidan ilhom olib farahlanib ketgandi. Oppoq bilaklariga kahrabo bilaguzuklar judayam yarashgandi.

Voqif to‘r pardaning orqasida turib noz va ishva bilan samoda charx urayotgan bir farishtaga qaraganday uni tomosha qilardi. Qizxonimni ko‘zguga, derazaga, yorug‘ga va butun jahonga nisbatan qizg‘ana boshlagandi. U bir daqiqa yana turib qoldi. Unga taqiqlangan bu go‘zallikning ohangiga moslashuvga urindi. Lekin o‘zini alday olmadi: achchiq bir qayg‘u vujudining ich-ichidan qaynab butun borlig‘ini larzaga soldi. Eshikni mahkam berkitib, loqayd bir ahvolda ichkari kirdi.

Eshikning qarsillab yopilishidan Qizxonim seskanib tushdi, hurkkan ohu singari gangib yoniga qaradi: boshida do‘ppi, egnida uzun yelkapo‘sh Voqif nimanidir axtardi. U ko‘z qiri bilan Qizxonimga qaradi: endi bu Qizxonim sal oldinroq sochlariga sayqal berayotgan Qizxonim emasdi. Chehrasining haligi farishta ifodasi o‘rnida endi boshqa bir ifoda bor edi; bu ifoda shoir qalbiga yovga aylangandi.

— Qizxonim, chuxamni olib ber, — dedi Voqif qat’iy ohangda.

Qizxonim ham hayron bir ovozda:

— Chuxani nima qilasiz, yana qayergadir safarmi? — dedi.

— Ishim bor. Mirza Alimammadni ko‘rishim kerak.

— Sizni hammada ishingiz bor... Kayf safodan sira tushmaysiz...

Voqif so‘z ohangini tushundi. Kayfiyati yana buzuldi:

— Eh, Qizxonim, — dedi. — Xudo haqqi, busiz ham parishon qalbimni sen ham g‘ash qilma! Chuxa so‘radim, janjal deganim yo‘q-ku. Sen kelinsalom-u, yuz ocharingga borayapsan, men hech narsa deganim yo‘q-ku; sen mening ishlarimga aralashma. Senday xushraftordan o‘zga bir so‘z talab qilmayman.

Qizxonim aylanib o‘rnidan turdi, tokchadagi ipak bo‘xchani yechib, ichidan chuxani olib berdi.

Voqif kiyinib xonadan chiqdi va yana ko‘z qiri bilan xotiniga qaradi: qopqora, oh-u ko‘zlarda tomchilar yaltirardi.

* * *

Telliga uch kun burun to‘y bo‘lgandi, bugun yuz ochar ma’rakasi edi. Qizxonim kelganida Telli dugonalari bilan chimildiq orqasida edi. Chimildiqning bu yog‘ida xotin mehmonlari o‘tirishardi. Qizxonimni hurmat bilan to‘rga o‘tkazdilar. O‘tirdi. Yuzida hamon parishonlik aks etardi.

Mehmonlar asta-asta kelib yig‘ilishdi. Yanga Tellining onasi bilan nimanidir gaplashishdi, keyin chiqib ketdi. Birozdan keyin qo‘lida sham bilan ichkari kirdi.

Shamni bir taqsimchada uyning o‘rtasiga qo‘ydi, yondirdi, so‘ngra ustiga bir tog‘orani to‘nkarib qo‘ydi. Tog‘oraning ustiga sholcha solindi, to‘shaklar va yostiqlar qo‘yilib, chiroyli bir taxt yasaldi, yuzasiga ipak so‘zana yozildi. Kelinni chimildiq orqasidan chiqarishdi, bir qo‘lidan yangasi, ikkinchi qo‘lidan Gulnoz yetaklab olgandi. Boshiga nafis bir parda — duvoq yopilgandi. Olib kelib taxtga o‘tqazdilar. Yanga bir likobda shirinlik olib chiqdi va “O‘g‘illi, qizli bo‘lsin” deb kelinning boshidan sochdi. Mehmonlarning hammasi talashib-tortishib shirinliklarni terib olishdi[1]. Shundan so‘ng kelinning qarindoshlaridan bir bolakay qo‘lida o‘qlog‘i bilan o‘rtaga chiqib, kelinning yuz pardasi — duvog‘ini o‘qlog‘i bilan ko‘tarib yechib oldi-da, qochib qoldi. Bir guruh bolalar duvoqni izlab tashqariga chopib ketdilar.

Duvoqni olib borib mevali bir daraxtning shoxiga ilib qo‘ydilar. Bu odat Tellining yangi oila o‘chog‘i qurganiga ishora va shu oilaning mevali — o‘g‘illi, qizli va barakatli hayot kechirishini tilashni bildirar edi...

* * *

Qizxonim dugonalari bilan kelin yuz ocharida shirin suhbatlar qurib o‘tirarkan, Voqif ham Madinaning visol og‘ushida mashg‘ul edi. Madina sarkardalardan birining xotini edi. Bu sarkarda Ibrohim xonning Eronga yurishi paytida o‘ldirilgandi. Madina esa boshqa erga tegishni xohlamay, beva yashardi, mo‘jazgina mulkining daromadi bilan kun ko‘rardi. Bolasi bo‘lmagani uchun butun fikri-

[1] Shunday baxt menga ham nasib etsin degan niyatda qilinadigan udum.

zikri o'z oroyishiga qaratgandi, hamisha nurli kiyinib yurar, hushchaqchaq hayot kechirardi.

O'ttiz-o'ttiz besh yoshlarda bo'lishiga qaramay yosh va zavqli edi. Uning mehribonligi, dilkashligi, mehmonnavozligi Voqifni maftun etardi. Chehrasi ham shoir qalbini mast qilar darajada go'zal edi. To'ladan kelgan, qirmiz lablari, sadaf tishlari, kalta va ravon qoshlari, tiniq va ziyrak ko'zlari, oq va to'lin yuzi juda yoqimli va jozibali edi. Bularning barchasiga so'z bilan ta'riflab bo'lmaydigan to'g'ri so'zlik va o'ziga yarashgan qiliqlari ham ilova qilinsa Voqifning shirin visollari ma'nosi oydinlashadi qo'yadi.

Madina hamishadagidek Voqifni to'pxonaga qaragan bezakli deraza oldiga o'tqazdi. Voqif Madinaning tabassum qilgan yuziga sog'inch bilan qarab:

— Netay, sendan ayriliq meni, yana o'tga soldi sevgilim... — dedi, ko'zlarida o't chaqnadi. Derazaning Madinaga tomon ochiq tabaqasidan sariq-yashilga, qizilga burkangan to'pxona o'rmoniga qaradi. Moviy o'rmon tuman orasidan lovullab turganday ko'rindi.

Nash'ali bir g'am Voqifning yuzini qoplay boshladi: — Madina, — dedi, — bilsang bu rangin kuz o'rmoni menda qanchalik dard uyg'otadi, har narsa o'chadi va o'cha turib tabiatning yorqin bir ifodasini namoyish qiladi, so'nggi bor butun olamga ko'rsatadi. Inson tabiatining har so'ngi ifodasi sevgidir... Kel go'zalim, dam g'animatdir.

Voqifning shirin suhbatlaridan zavqlangan Madina jingalak sochlar orasida jilvalanayotgan oppoq gardanini biroz yelkasi tomon engashtirib tinglar, asal lablariga qo'ngan qaymoq tabassumi bilan shoirga ilhom bag'ishlardi:

— Nima uchun so'ngi ifodasi? — deya xush bir ado bilan so'radi.

Voqif o'zini yo'qotdi. Ko'zlarini o'rmon sayridan olib Madinaga tikildi.

Kashan bahmalidan tikilgan bolishga g'urur bilan suyangan Madina saroy go'zallarini lol qoldiradigan bir husni tarovati-la Voqifga qarar, kipriklarining uchlari bilan uning qalbini har on, har daqiqa yaralardi.

— Madina, — dedi kulimsirab, — so‘ngi ifoda yanada jo‘shqin, yanada otashin bo‘ladi. Yoshlikning tarovatini unutganman deb o‘ylama. Yo‘q! Yoshlik bilan bahor unutilmaydi! Lekin inson tabiatining so‘nggi ifodasi kuz singari mevali, idrokli va ayni zamonda g‘am-g‘ussali bo‘ladi. Bu rang-baranglikning, dabdababaning keyini oq sochli qishdir, shavqatsiz ajaldir...

Madina qahqaha urib, shoirning so‘zlarini bo‘ldi:

— Afv et, bunday mudhish gaplarni aytma! — dedi, — Sen shu yerda, Madina shu yerda, umr ham shu yerda!..

Voqif yana jo‘shdi, lekin Madinaning gaplari qarshisida shoshib qoldi. So‘z axtarganday atrofga qaradi. Madina esa jajjigina nozik qo‘llarini bir-biriga urib, kulardi.

Voqif ham kulimsirab dedi:

— Siz-ku bor, chah-chahlaydi bulbul misol bir jondir, hurkitib yuborsang, sayramaydi.

Madina teran bir tovush-la:

— Men nima manki, sening nutq bulbuling mendan hurksa?

— Sen o‘jar bir parisan, shoir bog‘ini aylanib, ohangini buzasan.

— Faqat buzamanmi?

Voqif Madinaning noz-u adosidan zavqlanib:

— Yo‘q, — dedi, — sen o‘sha ilhom bog‘iga ora-sira parishon ohang, shirin bir qayg‘u, sog‘inch ham olib kelasan. Shoirga ham shu kerak: og‘riqli bir dard, qon sirqiratuvchi bir qalb, samolarda charx uruvchi bir sevgi parisi...

— Bu seni baxtiyor qiladimi?

— Baxtiyorlik nima degani? — xush bir daqiqa, tugamas bir tabassum, balog‘atga yetgan o‘smirning ishq tuyg‘usi.

Madina hayrat bilan Voqifni tinglar, lekin xushnud emasdi:

— Shoir, — dedi, — bu gaplaring haqiqatga o‘xshamaydi: xonlikning maslahatgo‘yi, davlatni rukni bo‘lgan bir odamdan bu gaplarni eshitish...

Voqif jiddiy bir ohangda uning gapini bo‘ldi:

— Madina, — dedi, — davlat ishlarinig bari bir vazifa. Qalb esa bulardan chekkadagi olamdir. Uning ham o‘z talablari bor; sevgisi bor — nomi sevgi emas; shuhrati bor — nomi shuhrat emas; zavqi bor va bu zavq uning mohiyatidir.

Madina yana imo bilan kulimsiradi:

— Vazifa kim uchun, qalb kimniki?

— Vazifa davlat, oila, xotin, bola-chaqa uchun, qalb esa yor uchun.

Madina mamnun bir tabassum-la kulimsirab hazillashdi:

— Erkaklarga ishonib bo'ladimi? Qalblari bir sharbat piyolasi singari qo'lma-qo'l aylanadi, hech kim to'yguncha ichmaydi.

Voqif izza bo'lganday:

— Madina, to'yguncha nima degani? — dedi. Har narsa to'yguncha bo'lsa, zavq bo'ladimi, hasrat sog'inch bo'ladimi, she'r bo'ladimi?

Madina yana qahqaha urdi:

— Shoir, — dedi, — qishloqdan menga olma, nok yuborishgandi: sening ulushingni asrab qo'ygandim. Bundoq qarasam, bularning hech qaysining senga keragi yo'q: to'ysang, sog'inching ham, zavqing ham o'ladi.

Madinaning hazili Voqifga juda ma'qul keldi, g'ururlanib qo'ydi:

— Yo'q, shirinlikdan kechib bo'lmaydi! — dedi va o'rnidan turib, xonadan chiqib ketayotgan Madinaning orqasidan sirli bir qarash bilan termilib qoldi.

Ol-yashilga burkangan Madina alvon gilamlar, pardalar, tokchalardagi rang-barang ashyolar orasida tonggi shabadada titrab turgan cho'l lolasini eslatardi.

19

Voqifning Ibrohim xon bilan maslahatlashuv payti aytgan gaplar to'g'ri bo'lib chiqmoqda edi. Karim xon Zandning vafotidan so'ng Eronning har tomonidan bosh ko'targan xonlar taxt-saltanat talashib qon to'ka boshlagandilar. Bularning ichida eng kuchlisi Jaloyir turklariga mansub Qojor xonlari edi.

Qojorlar butun turk ellarida sarkardalari Qojor xonning nomi bilan shuhrat qozonib, asrlardan beri Ganja va Yerevan xonliklari yerlarida yashardilar. Birinchi shoh Abbos Ganja atrofidan o'ttiz ming Qojor oilalarini ko'chirib Astrobod va Xurosonga joylashtir-

di. Bu Qojorlarning sarkardalari naridan beri Eron saltanatiga bir necha bor yurish qilib, olishga muvaffaq bo'lolmagandilar. Nodir shoh o'lganidan keyin, Mammadhasan xon Qojor uzoq vaqt Karim xon Zand bilan urushgan, maqsadiga erisha olmay o'lgandi.

Kichikligida Odil shoh Afshar tomonidan axtalangan Og'amammad ham uning o'g'li edi; ukasi Husaynquli xon bilan birga Karim xon tomonidan asir sifatida Sherozga olib ketilgandi. Karim xon Zand o'lishi bilan Og'amammad xon Sherozdan qochib Astrobod, Mozondoron va Gilonni qo'lga olib bosh ko'targan boshqa xonlar bilan birga kurash boshladi. Og'amammadning Astrobodga kelishi Yekaterinaga yoqmadi, chunki Yekaterina Pyotr Birinchining vasiyatiga amal qilib Astrobod ko'rfazidagi Ashraf qishlog'ida port qurdirib, Hind—Ovropa tijorat yo'nalishini shimolga burishni istardi, tiklanmagan shaharning nomini ham oldindan Melissopol[1] deb qo'ygandi. Og'amammad xon Rusiya bilan muzokara olib borish uchun Peterburgga elchi ham yubordi. Lekin ruslarning Astrobod da'vosini rad etgani uchun elchisi qabul qilinmadi. Rusiya da'vosida davom etardi: Mirtuzaquli xoni Gilon xoni Hidoyatga yordam berib Og'amammad xonga qarshi chiqdi. Nihoyat, Rusiya talabini qondirmoq uchun Astrobod ko'rfaziga Graf Voynovich qo'mondonligida bir flot yubordi.

Og'amammadning ko'rsatmasi bilan flot yaxshi kutib olindi, komanda va a'zolariga nisbatan xush raftor ko'rsatilib, ishonchlar qozonilgandan so'ng bir kuni hammasini sohilga chaqirib, asir oldilar. Bir muddat oyoqlarida kishan zindonda yotganlaridan keyin Og'amammad "xabar topib", ularni ozod qildirdi, hurmat bilan huzuriga chaqirtirdi: "Eron tuprog'ida sizlarga bir qadam ham yer berilmaydi. Shuni qabul qilsangiz sizlarni ozod qilaman", — deya shart qo'ydi. Graf Voynovich xohlasa-xohlamasa rozi bo'lishga majbur edi. Haydalgan kabi flotlariga o'tirib Eron sohillaridan uzoqlashdilar...

Bu favqulodda vaziyatga doir saroyda kengash chaqirildi. Ibrohim xon barcha og'alarni va beklarni yig'gan edi. Mirza Alimammad o'z mahfiy vakillari vositasida olgan xabarlarni gapirib

[1] Ari shahri.

berdi va xabarlar xususida shaxsiy mulohazasini bildirmadi. Kengash chuqur sukunatda edi: birov tasbeh o'girar, birov chilim tortardi. Mirza Alimammad ma'ruzasini tamomlagandi, lekin hech kim gapirishga jur'at qila olmasdi. Xon atrofdagilarga ko'z yugurtirib ora-sirada:

— Og'alar, — beklar, — derdi, — gapiringlar, ko'raylik, qanday fikrdasiz? Yoki qutqu solayotgan zilzilani sezmayapsizlarmi?..

Hech kimdan sado chiqmadi. Voqif xondan ijozat olib, so'z boshladi:

— Xon sog'-omon bo'lsin, — dedi. — Mirza Alimammad og'aning bergan axborotini eshitgandim. Menimcha hali tashvishga tushish kerak emas. Hozircha yaxshi raftordan boshqa ilojimiz yo'q. Fatali xon singari ochiqdan ochiq ruslar tomonga o'tib, Og'amammad xon bilan dushmanlik yo'lini tutish xatarli qadamdir.

Chuni Arazni kechib o'tib, ellarimizni talon-toroj qilishlari mumkin. Og'amammad bizga murojaat qilib itoat talab etsa, masalani qayta muzokara qilarmiz, hozircha shay turishimiz va maqom kutishimiz lozim. Boshqa choramiz yo'q. Ikki o't orasida ekanimizni yaxshi bilasizlar.

Voqifning fikrlari har kimning yuzida umid ifodasi tug'dirdi, boshlarning egilishi bilan hamma bu fikrga qo'shilishidan darak berdi. Ibrohim xon yana og'alarga va beklarga murojaat qilib:

— Nima dardlaringiz bor aytinglar, yuragingizda yana biror narsa qolmasin, — dedi.

Mammadhasan og'a kulimsirab dedi:

— Endi Oxund Mulla Panoh singari jahongashta bir odamning gaplaridan keyin nima ham deyaolardik! Toki Og'amammad xonning boshi gangib turibdi: Sherozning va Isfahonning ustiga bostirib borarkan, balki Murtuzqulu xon ruslarning ko'magi bilan Astrobodni yag'mo qiladi. Hozircha biror narsa ma'lum emas.

Yana kengash uzra jimlik cho'kdi. Mammadhasanning yo'tali sukunatni buzdi. U dastro'moli bilan og'zini artib jim bo'lgach: — Boshqa qanday xabar bor? — deb so'radi.

Voqif xonning ruxsati bilan javob berdi:

— Iravan[1] xoni Arzurum va Qars posholariga murojaat qilibdi. Irakliydan ajralishni istayapti. Posholar[2] ham bizga noma yozib, Ochiqboshga[3] yordam berishimizni ravo ko‘rmabdi. Biz ham shunday bir noma bitdikki, na “ha”deyildi, na “yo‘q”.

Voqif kulimsiradi. Yig‘ilishdagilar ham Voqifning harakatidan quvonishdi. — Posholar bu yerdagi ishlardan bexabarlar — ishlarning bu paytida Irakliy xon bilan bo‘lgan do‘stligimizga xalal beradigan hech qanday harakatga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Iravan xoni har yili Irakliy xonga to‘lab turadigan olti ming tumandan bo‘yin tovlashni istayapti: echki jon g‘amida, qassob yog‘ dardida, — Voqif kuldi, xon ham kulib, bosh tebratib qo‘ydi.

Shu asnoda eshik asta ochilib, ichkariga 17–18 yoshlardagi qizil yuzli, burun teshiklari keng bir yigit kirdi. Bu yangi mirzalikka kirgan Jamol[4] edi. Mirza Jamol qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib salom berdi va tavoze bilan:

— Tasaddug‘ing bo‘lay, xon, — dedi, — Boku xoni Malikmammad xon huzuri a’lohazratlaringizga yetishish orzusidalar.

Xon mirza Jamolga g‘azab bilan qaradi. Jamolning yonoqlari yanada qizara boshladi.

— Hoji Malikmammad xon? — deya xonning ko‘zlarida g‘azab o‘tlari chaqnay boshladi. — Fatalining kuyovi?..

Hamma bir-biriga qaradi. Davraga bir qo‘rquv tushdi. Voqif xon tomon engashib, nimadir deb shivirladi. Xonning afti o‘zgardi:

— Shohmammadning uyiga olib borilsin! Hozir uchrashuvga vaqtim yo‘q... Ertaga!

Mirza Jamol peshonasining terini oqiza-oqiza bosh egib, xonadan tentirab chiqdi.

---

[1] **Iravan** — Yerevan.

[2] **Posho** — general.

[3] **Ochiqbosh** — Irakliy.

[4] Bu yerda mashhur “Qorabog‘ tarixi” asarining mualifi Mirza Jamol nazarda tutilyapti. U bir muddat Panoh xonning va uning o‘g‘li Ibrohim xonning huzurida mirzalik qilgan, Voqif o‘ldirilgandan so‘ng esa vazirlik vazifasiga tayinlangan va 1822-yilgacha (Mehdiqulu xonning vaqtida) shu vazifada bo‘lgan.

* * *

Qishning ikkinchi oyi. Qalin qor yog'gandi. Hoji Malikmammadni bunisi kuni qor bosib piyoda xon saroyiga olib borishdi. Bir soat sovuq ayvonda kutganidan so'ng Ibrohim xon uni chaqirtirdi.

Malikmammad xon ichkari kirganda xonada Ibrohim xon bilan Voqifdan bo'lak hech kim yo'q edi. Bir-biriga ilk bora duch kelgan bu odamlar avvaliga indamay qarashdi. Bu qarashda aralash ifodalar bor edi. Bora-bora Hoji Malikmammad xonning halim chehrasi, itoatli turishi xonga va Voqifga yaxshi ta'sir qilmay qolmadi.

Lekin xon yana mehmonga g'azab bilan tikilar, Voqif esa ko'rinishda xon bilan g'azabda sherikdek ko'rinsa-da, yurakdan Boku xoniga achinar, uning marhamatli va birovga yomonlik qilish fikrida bo'lmagan qarashidan ta'sirlanardi.

Ibrohim xon mehmonga o'tirishni ham taklif qilmay hayajonidan bo'g'iq ovozda:

— Ne ajab? — dedi.

Boku xoni sovuqdan qizargan qo'llari bilan samur muynali po'stini yoqasini tuzatarkan:

— Yoshimning ko'pi ketib, ozi qoldi, — dedi. — Umrimda mendan hech kim pashsha qanotidan ranjiganchalik ranjimagan... faqat, dedim, boray o'z musulmonlik burchimni bajaray... Chunki haq joyga borgumdir. Bu oraliqqa tushgan dushmanlikni daf etishga harakat qilay... Quba xoni va oliy martabali Qorabog' hukmdori orasida yuz bergan xusumatning ummati islomga yarashmaydigan bir ish ekanini...

Ibrohim xonning lablari titray boshladi, uning so'zini yarmida bo'ldi:

— Sendan kim iltimos qilgandi? Bir kalla qand yuborganmidik?

Xonning ovozidan xona larzaga keldi. Voqif Shohmammad chaqirilsa kerak deb o'yladi. Boku xonini och qo'zg'unlarga yediradilar. Lekin Malikmammad xonning:

— Iltifot qiling! Karam ko'rsating! — deyishi Ibrohim xonni yumshatdi. Jahli chiqqonidan bir-ikki yo'talib oldi. Keyin bo'g'iq tovushda:

— Bilasan, xon! — dedi va "xon" so'zida istehzo sezildi. Fatali tuzalmaydi! U shunday qonxo'rki, balo ham urmaydi. Mening ukam Mehrali menga dushman bo'lgani holda Fatali uni bag'riga olib non-namak tutdi; Shirvon xonini taxtidan ag'dardi; yangi Shamahini to'zitib, aholisini eski Shamahiga yig'di, xalqni xonavayron qildi; nomusini o'risga sotdi, ming fisq-u fujur tarqatdi... Qaysi birini aytay? Hidoyat xonga qo'shin berib Gilonga yuboradi... Bular o'risga yukinish uchun emasmi? Kunda bir Kurani kechib o'tib, bizning xos mulkimizni toptadi... Shunaqa bir qonxo'rga ishonib bo'ladimi? Endi bo'lsa sen kabi bir eshakni mening huzurimga yuborib, aql o'rgatmoqchi bo'lyaptimi? Yo'qol! Haromzoda!

Ibrohim xonning ovozi yanada gurladi. Tovushga Shohmammad yugurib keldi.

Ibrohim xon og'zidan tupuk sachratib:

— Shohmammad! — dedi. — Bu haromzodani zindonga tashla!

Malikmammad xonning rangi o'chdi, nimadir demoqchi bo'ldi-yu, imkon berishmadi: maxsus xizmatchilar uni sudrab olib ketishdi.

20

Tumanli kunlarning birida sahar payti saroy g'ulomlaridan biri Kozimning hovlisiga kirib ayvonda yumush bilan band Telli bilan Gulnozga yaqinlashdi.

— Bu yerda Safar degani kim? — deb so'radi. — Uni saroyga chaqirishayapti. Saroy nomini eshitgan Tellining rangi o'chdi, tili tutilib:

— Nima qilishadi? — dedi.

G'ulom chekkasiga charm qoplagan, konussimon chit qopqog'ini orqadan ko'tarib boshini qashigancha javob berdi:

— Kerak ekan, qayerda u?

Telli yana o'jarlik bilan:

— Axir, nima qilasan? — dedi.

— Saroyga chaqirishayapti, demak, kerak...

G‘ulom boshini qashir, g‘alati qarardi. Birdan qalpog‘i boshidan tushib ketdi, o‘rilgan kokili qalpog‘i ichidan yoyilib yuzining bir tomonini to‘sdi.

Gulnoz kulimsiradi, Telli esa yuzidagi andisha ifodasini o‘zgartirmay o‘rnidan turdi, chit lozimiga ilashgan qiyqimlarni qoqib hovlidan chiqdi. Ustaxonaning bosh tomonida bo‘sh yer bor edi, Safar bu yerda o‘ziga uy ko‘rayotgandi: to‘rtta ustun qadab, oralariga hivich urib, devor qildi. Tellining tashvishi uni hayratga soldi.

— Nimaga qo‘rqayapsan? — dedi. — Chaqirishibdi, boraman. Biror yerga yuborishsa kerak-da.

Safar g‘ulom bilan birga ketdi. Bozordan o‘tisharkan katta izdihomga duch kelishdi. Darg‘a bittasini, tosh-tarozisi to‘g‘ri bo‘lmagani uchun balchiqqa yotqizib darra urdirayotgan edi. Oyoqlariga o‘ttiz darra urdirgandan so‘ng — haligi erkakning yuragi to‘xtadi. G‘ulom yana boshini qashigancha olomonni kuzatar, yuzining loqayd ifodasida hech qanday o‘zgarish sezilmasdi.

Safar esa yuzini burib, g‘azabidan lablarini kemirardi. To‘xtashmadi. Rastabozori bo‘ylab borarkan u tomon va bu tomondagi bazzozlarni, baqqol va attor do‘konlarni tomosha qilardilar. Devonxonaga yetib kelishdi. Temir qoziqlarga o‘tqazilgan bir necha gunohkor devonxona devoriga suyab qo‘yilgandi. Ularning bittasi hali o‘lmagandi.

Bolalar olisdan tosh otishar, u bo‘lsa azobidan burishgan yuzini yon tomonga burib:

— Tosh... ot...ma... ko‘zimga tegadi, — deb ingrardi.

Safar bu achchiq manzarani ko‘rib g‘azablandi:

— Hoy noinsofning bolasi! — deya bolalarni tosh otib quvib yubordi...

G‘ulom Safarni maxsus xizmat binosiga yetkazib o‘zi ketdi. Yetti-sakkizta xizmatchi yerga to‘shalgan gilam ustida o‘tirib shirin suhbatda edilar. Bobo lala ham shu yerda edi. Mushtugi og‘zida to‘rda chordona qurib o‘tirardi. Xizmatchilardan bittasi kecha bozorda ko‘rgan manzarani hikoya qilardi.

— Men bu itning bolasi birovni qatig‘ini ichib qo‘yganini qayoqdan bilibman.

Darg'a:

— Hoy gadoy, bu kishining qatig'ini sen ichdingmi? — deb so'radi.

— Yo'q, — dedi.

— To'g'risini ayt! Axir bu kishi yolg'on gapirmaydi, kosasi ham bo'sh. Qatiq yerga to'kilmabdi, yer yutmabdi, osmonga uchib ketmabdi, — dedi darg'a. — Tovuq bir oyoqli ediki, bir oyoqli edi...

Darg'a pichog'ini chiqarib gadoyning qorniga tiqdi... qatiq pirtilab chiqdi.

— Itning bolasi, qatiqni ichmaganman, deysan-a? Unda bu nima? — dedi darg'a.

Xizmatchilar kulishdi. Bobo lala gerdayib qo'ydi. Shu asnoda eshik ochilib ichkariga bir tog'lik turk kirdi; baland bo'yli, jingalak soqolli, oppoq tishli bir odam edi. Yuzini to'rga burib so'radi:

— Hoy qardosh, bu yerda xon degan qaysi biringiz, shikoyatim bor.

Qarollardan bittasi istehzo bilan Bobo lalani ko'rsatdi:

— Hoy qardosh, ana, xon to'rda o'tiribdi, nima arzing bor?

Tog'lik shuni kutganday, bosh egib dedi:

— Muhtaram xon, bizga shavqat qiling. Zulm ham shunchalik bo'ladimi: buyuribsiz — yilda bir oy ro'za tutilsin, kunda besh vaqt namoz o'qilsin deb. Uch yuz uyli Pejaniz qishlog'ida ham bir oy ro'za, besh vaqt namoz, o'ttiz besh uyli Vaqozina ovulida ham. Axir bu zulmni Alloh ravo ko'rmaydi!

Qarollar yana qahqah urib kulishdi. Safar ham o'zini kulishdan tutib turolmadi.

Qarollar tog'likni yana kalaka qilmoqchi bo'lib turganlarida boyagi g'ulom kelib, Safarni chaqirdi. Ular Mirza Alimammad og'aning uyiga borishdi. Derazasi ayvonga ochiladigan bu mo'jazgina uy birinchi qavatda edi; gilamlar to'shalgan, tokchalarda kitob va daftarlar bor edi. Mirza Alimammad to'rda o'tirgancha nimanidir tizzasi ustiga qo'yib yozayotgandi.

Safarning salomiga alik olib:

— O'tir, — dedi va qalamni qalamdonga qo'yib, Safarga o'ychan nazar bilan qaradi.

Safar o'tirishga jur'at qilmadi. Mirza Alimammad takror:

— O'tirsang-chi! — dedi va Safarga devor yonidan joy ko'rsatdi.

Safar tizzalab o'tirdi. Mirza Alimammad:

— Sen Qubaga yo'ldoshchisan, borgan eding, — dedi. — Endi senga xonning yangi buyrug'i bor... Fatali hon Shamaxiga qo'shin to'playapti. Yana bir fitna boshlamoqchi. Borasan, u yer-bu yerdan xabar yig'asan. Ko'raylik-chi, qo'shin qancha, qachon yo'lga chiqadi, qayoqqa boradi... Bildingmi? Pul beraman, biroz mol olasan, u yerga savdogar sifatida borasan, sotib yurib ommaga qo'shilib, aralashib ketasan, ahvolni o'rganasan. Bildingmi? Qirg'inday borib, qirg'inday kelasan, shunqorim. Vojib ish bu.

Mirza Alimammad og'a Safarga batafsil ma'lumot berib, kuzatib qo'ydi.

Safar uchun tujjor moli berib, ot tayyorlatdi. Bir kundan keyin ertalab yo'lga tushdi.

Ko'zlari nam Telli hovli eshigini ochib, uning orqasidan suv sepib qoldi — bu sog' borib omon qayt, degani edi.

21

Mammad bek endi mo'ylov o'rni terlaydigan yigit bo'lgandi. xususiy mulladan olgan sabog'i natijasida turkcha va forschani o'rganib olgandi. O'sha davrning tahsili zotan shundan iborat edi: duoyi fotihadan so'ng arabcha Qur'onni o'qishardi, keyin fors mumtoz adabiyoti o'tilardi. Maktablarda turkcha o'qitilmasa ham yaqin sharqda baynalxalq bir tanish til bo'lgani uchun hamma bilardi.

Turk tili boy xalq adabiyoti, hozirjavob ertak, masal, xalq maqollari, fusunkor rivoyatlar va hikoyalari, otashin ishqiy qo'shiqlari hamda she'r va bayotilari bilan rasmiy doiralarning forschasidan ustunlik qilardi. Savodxon yoshlar bayozi bo'lardi. Bu bayozlarga turkcha she'rlarning nafis parchalari ko'chirilar, yod olinardi. Voqifning she'rlari oldingi qatorlarda turardi.

Mammad bek ham vaqtini o'sha davrning shahar yoshlari kabi she'rga, shikorga chiniqish va sportga sarflardi. Voqifning o'g'li Qosim og'a ham Mammad bekning jo'ralaridan edi.

Bahor kelgandi. Ko'chalarning muzi erib, sel bo'lib shovqin solib oqardi. Tog'larning boshidan bulut arimasligiga qaramay, havo issiq edi. Besh-olti oy davom etgan zerikarli qishdan so'ng har kim o'zida qandaydir sevinch his etib ayvonlarda, ko'chalarda o'zlarini quyoshga toblardi. Ayollar jun taroqlarini yerto'lalardan tashqariga — ochiq havoga olib chiqishgandi.

Miyondor[1] ham odam yuborib yoshlarni kuch-quvvat maskaniga chaqirgandi, sport fasli boshlanayotgandi. Mammad bek Qosim og'a bilan kelganida u yerda anchagina yoshlar bor edi. Kuch-quvvat maskani — "zo'rxona" keng bir doira atrofiga taxta o'rindiqlar yasalgan usti faner bilan yopilgan bir bino edi. Sportchilar taxta so'ri — o'rindiqlarda kiyimlarni yechib, kalta charm cholvor kiyardilar. Uch kishidan iborat musiqachilar guruhi ham bor edi. Ular tor va g'ijjaklarni sozlashardi.

Baland bo'yli, mushaklari bo'rtib turgan, keng ko'krakli miyondor hammadan oldin pastki doiraga tushib, qo'lida kamon o'qi bilan aylanib yurardi. Tepadan tushib turgan yorug' uning sochi qirtishlangan boshini yoritib turardi. Yosh yigitlar so'rilardan asta-sekin tushib kelishardi. Birdan miyondorning na'rasi eshitildi. Qo'ng'iroq jarangladi. Shu on musiqa yangradi. Miyondor qo'lidagi o'qning ishorasi bilan yoshlar ikki guruh bo'lib, ikkita ikkitadan uning o'ng va chap tomoniga tizilishdi. O'rtaliqqa anchagina bir uchi ingichka nayzalar taxlab qo'yilgandi. Miyodnor o'qining qo'ng'iroqchasiga rioya qilib, yoshlar nayzalardan olib o'ynata boshladilar. Dastlab mashq yengil vaznli nayzalardan boshlanib, bora-bora og'ir vaznlarga o'tardilar. Mammad bekka bu yengil nayza bola o'yinchog'i kabi ko'rindi. Buni ko'rgan miyondor darhol o'qini tebratdi, qo'ng'iroqcha jarangladi; Mammad bek nizomga bo'ysindi.

Miyondor nayzalardan biroz og'irlariga o'tishni amr qildi. Nayzalar almashtirildi, yangidan harakat boshlandi. Yugurib doirani aylanishar, to'xtab turishar, dam olishar, tag'in nayza o'ynatishardi.

---

[1] **Miyondor** — kuch-quvvat maskanida sport ishlariga rahbarlik qiluvchi amaldor.

Nayza o'yini tugadi. Kurashishga tayyorlandilar. Yigitlar bir-birining badanlarini yog'lay boshlashdi. Yana qo'ng'iroqcha chalindi. Yoshlar doira bo'ylab tizilishdi. Sho'x raqs kuyi chalindi.

Miyondorning ishorasi bilan Mammad bek bilan Qosim og'a doiraning o'rtasiga kurashga chiqishdi. Avval musiqa ohangiga mos ohista odimlab tushdilar. So'rilarni to'ldirib o'tirgan tomoshabinlar ko'z o'ngida o'zlarini ko'rsatish uchun jo'shqin harakat qilardilar. Musiqa ham sho'x ohang bilan ularni g'oiblikka chorlardi. Mammad bek bir-ikki bor doirani aylantirganidan so'ng na'ra tortib o'rtaga keldi, unga yaqinlashgan Qosim og'aning yuqori ko'tarilgan o'ng qo'lining hovuchiga panja urib, chekindi. Yana aylanishga boshladilar, musiqadan yanada jo'shdilar. Tag'in bir-biriga yaqinlashdilar, bu safar boshlarini bir-biriga tirab, gardanini bir-biriga suykab ajralishdi. Kuy avjiga chiqdi. Kurashchilar bir-biriga yaqinlashib, belbog'laridan ushlashdi. Tortishishdi, qo'llari yog'lik bellaridan sirg'anardi. Boshqa tarzda olishishdi. Hech qaysinisi ustun kela olmadi. Qosim og'a fursat topib, raqibining yon tomonidan siqilib kirdi, Mammad bekni chalqanchasi ko'tarib yerga otdi. Otilganda to'rt oyog'i bilan yerga tushgan mushuk singari Mammad bek ham qo'llari va oyoqlarini yerga tirab, havoda yarim doira hosil qilgan bir holda qoldi. Qosim og'a ham qancha urinmasin uning bu vaziyatini o'zgartira olmadi. Nihoyat, Qosim og'a uning ustiga minib olmoqchi bo'ldi. Shu asnoda Mammad bek chaqqon harakat-la bir qo'li bilan oyoqlaridan, ikkinchi qo'li bilan bo'ynidan ushlab, uni yerga ag'dardi. Tipirchilayotgan Qosim og'ani bo'g'moqchi bo'lganida miyondorning qo'ng'irog'i jarangladi. O'tirganlar ularga tashlanib bir-biridan ajratishdi.

Yog'liq badanlariga chang-tuproq yopishgan, hansirayotgan bu ikki yigit yuzma-yuz turib, hali ham bir-biriga kin bilan xo'mrayardi. Miyondorning qo'ng'irog'i ularni bu vaziyatdan qutqardi: ilgarilab, bir-birini quchoqlashdi, o'pishishdi. Zo'rxonaning bu odatidan keyin yuraklarida hech qanday gina-kudurat qolmas edi. Yarashib ajralishdi, maydonga boshqa kurashchilar kirdi.

Bir-ikki soat zo'rxonada o'tkazgandan keyin Mammad bek jo'ralarini to'plab ko'chaga chiqdi:

— Bolalar, — dedi, — kelinglar bu oqshom bosqinga boramiz!

Yigitlar:

— Boraylik, boraylik! — deya baqirishdi.

Bittasi e'tiroz bildirdi:

— Nima, hozir bosqin paytimi? — dedi. — Bu paytlar daryolar toshib qonsiragan palla-ku?!

Mammad bek istehzo bilan:

— Tavba! — dedi. — Yigitga yarashmagan gap qilayapsan, Azamat ham toshqindan qo'rqadimi? Men shu kech yo'lga chiqaman, bir-ikkita qarol ham olvolaman. Ayol emasman-ku, uyda o'tirsam.

— Men ham boraman!..

Men ham! — degan ovozlar eshitildi.

Mammad bek uzun oq qalpog'ini ko'zining ustidan yuqoriroq ko'tarib, zavq bilan:

— Imillamanglar! — dedi. — Shom azonidan biroz o'tgach, qal'a darvozasidan sal narida kutaman, qabristondan biroz yuqoriroqda... Ammo qayoqqa ketayotganimizni hech kimga ayta ko'rmanglar... Bizning Qahrizli qishlog'iga boramiz. Bir necha kun o'sha yerda mehmon bo'lib qolamiz; qo'y so'ydiramiz, Pirsaqqiz daraxti tagida mazza qilib kabob yeymiz, keyin Kura daryosini kechib o'tib Shirvon yerlariga boramiz. Uramiz, chopamiz, o'ldiramiz, jasorat ko'rsatamiz... Mayli, onalarimiz qanday o'g'illar tug'ishganini ko'rib qo'yishsin.

Mammad bekning gaplari yoshlarning yuragidan chiqayotgandek edi. Har kim qilich o'ynatish, mardlik, jasorat ko'rsatishni istardi.

Kechqurun bulutlar orasida goh ko'rinib, goh yo'qolayotgan oy yorug'ida o'n olti otliq Kahrat[1] yo'li bilan Oronga[2] qarab yura boshlashdi.

Safarning Shirvonga borib-kelishiga o'n besh kun ketgandi. Tez borib kelishining sababi otni qistab haydaganida edi: arg'umog'i toliqqan joyda turk qishlog'i bo'lsa yuz boshi, armani qishlog'i

[1] Shusha shahrining shimoliy sharq tomonidagi qadimiy tuproq yo'lni "Kahrat" yo'li deyishadi.

[2] **Oron** — pastekkislik, uva, vodiy.

bo'lsa malik uning otini almashtirar, yangisini berib yo'lga solardi. Xonning buyrug'i shunday edi. Safar Shushaga kirib kelishi bilan otini to'g'ri saroyga haydadi, Mirza Alimammadga uchrashdi. Alimammad og'a boshqa ishlarini bir chetga qo'yib Safar bilan gaplashdi:

— Ha azamatim, qani ayt-chi, nima gaplar?

— Nima bo'lardi, og'a, Shamaxi tomonda mo'l qo'shin yig'ilyapti. Otliqlarning ko'pligidan yo'llardan o'tib bo'lmaydi. Hatto qishloq-ovullarda boshida qalpog'i bor odam qolmagan, hammasini yig'ishibdi. Men Shamaxiga borgan kunim shamaxallik sakkiz ming lazgin o'sha yerga keldi. Og'a, shunday yigitlar bor, ot belida shunqorday o'tiribdi.

— Yaxshi, endi shuncha qo'shin to'plangan ekan, bas, nega tebratmay turishibdi?

— Og'a, aytishlaricha, g'alla, oziq-ovqatlari yetarli emaskan. Shirvon xonini qishloqlardan oziq-ovqat to'plashga jo'natishibdi. Xalq qarshilik ko'rsatib, bermaymiz deyapti. Bir qishloqda olomon to'planib:

"Urug'ligimizni olib ketsanglar biz nimani ekamiz" — deya norozilik bildirardi. Yuzboshi o'n-o'n besh odamni devorga urdirib, boshlarini ho'kizlarga torttirib badanlaridan judo qilishdi... O'z ko'zim bilan ko'rdim!..

Safar ko'rgan dahshatni eslab, eti junjikdi, tili aylanmay, gapirolmay qoldi.

Mirza Alimammad og'a hayratlanib:

— Sen ham qo'rqdingmi? — dedi.

Safar qizarib:

— Yo'q, og'a, — dedi, — hecham qo'rqqanim yo'q... Faqat Alloh bandalariga shunday zulmni ko'rib, negadir odamning yuragi chidamasakan.

Mirza Alimammad baroq qoshlari ostidan Safarga qarab:

— Fatali xonni uchratmadingmi? — dedi.

— Darbandda ekanini aytishdi. Kema Ajdarxondan[1] zambarak — to'pxona olib kelibdi, uni olishga ketibdi. Aytishlaricha, Salyan baliqchilaridan ruslarga baliq sotib, evaziga qurol olgan ekan.

[1] **Ajdarxon**— Ashtarxon (Astraxan)ning eski nomi.

Alimammad og‘a chuqur o‘yga toldi. So‘ngra o‘ziga kelib, Safarga yana bir necha savol berib:

— Ozodsan! — dedi.

Mirza Alimammad og‘a yuqoriga, xonning yoniga chiqdi. Voqif bilan Mammadhasan ham o‘sha yerda edilar. Alimammad og‘a Safarning kelganini va olib kelgan xabarlarini ma’lum qildi. Xon axborotni chuqur g‘azab bilan tinglab:

— Qanjiq, qanjiq! — dedi lablari titrab.

Voqif uni tinchlantirish uchun:

— Hozir Irakliy xonning qo‘shini Ganjadan o‘tgan bo‘lsa kerak, — dedi. Bizning Kura bo‘ylaridagi qo‘shinning sonini oshirishimiz kerak bo‘ladi. Mammadquli og‘ani ham zambaraklari bilan o‘sha joyga yuboraylik. O‘n ming biz qo‘ysak, besh ming Ochiqboshdan kelsa, Fatalini Kurani kechib o‘tishiga qo‘ymaymiz...

Xon biroz sokin ovozda:

— Qanjiq o‘n besh ming qo‘shin chiqara oladimi? — dedi va savol nazari bilan avval Voqifga, keyin Alimammad og‘aga qaradi.

Voqif kulimsirab:

— Sadag‘ang ketay xon, — dedi, — Fatalining ixtiyoriga qolsa chiqara olmaydi. Uni gij-gijlayotgan bor. Bu ishlarning hammasi ruslarning ishi. Mana bu tilsiz-og‘izsiz Hoji Malikmammad xonni bu yerga kim yubordi? Bu ham ruslarni hunari bilan bo‘lgan. Bizni o‘tga tashlashni istayaptilar. Elimizga, ulusimizga Og‘amammad xon o‘t qo‘yishini istayaptilar!..

Xon diqqat bilan Voqifni tinglab, chilimning so‘rg‘ichini soqoliga suykadi:

— Mayli, maslahatimiz nimaga taqalib qoldi?

Voqif ham ayni shunday vazminlik bilan:

— Maslahatimiz haligi oldingi maslahatga aloqador, — dedi. — Faqat Hoji Malikmuhammad xonni zindonga tashlaganimiz Fataliga og‘ir botganga o‘xshaydi. Elchiga o‘lim yo‘q, deydilar.

Voqif gapini tugatmadi. Ammo xonning o‘jarligini qamchilashga shuning o‘zi ham kifoya edi.

Ibrohim xon xatosini tushungan bo‘lsa ham bildirmadi, o‘z ichida o‘yladi: “Endi zindondan bo‘shatsam, Fatali qanjiq, ana, Ibrohim xon mendan qo‘rqdi, deb aytadi... Butun qo‘shinni yig‘ib,

o‘zim borishim kerak.” Birdan xonning lablarida achchiq tabassum o‘ynadi:

— O‘zim boraman! O‘sha itvachchaning otasini qabrdan kavlatib oldiraman. Meni bilib qo‘ysin!

Keyingi kun shaharning hamma mahallalarida karnay chalinib, nog‘oralar qoqildi.

Qo‘shin yo‘lga chiqdi. Barcha yuzboshilarga, maliklarga choparlar yuborildi. Otliqlar qismlarga, oziq-ovqat zaxiralariga buyruq berildi. Araz bilan Kura daryolari oralig‘i to‘lqinlanib Shirvon tomon oqdi. Ikki xonning manmanligi tufayli minglarcha odam ekin-tekinni qoldirib, o‘lim safariga otlandi.

Irakliy xon o‘g‘li Georgiy sarkardaligida besh ming askar yuborgandi. Ularning ko‘plari Qozoh va Shamsiddin turklari edi. Ibrohim xonning qo‘shini bilan birlashib, chegara bo‘ylab joylashib Fatali xonning qo‘shinini kuta boshladilar.

Safarni yo‘l boshlovchi qilib olishgandi. Safar kechasi Kuraning u tomoniga o‘tib, sahar payti darhol Shamxalning uch ming lazgi bilan olg‘a intilayotgani xabarini keltirdi. Qo‘shinga xabar qilindi, hamma tayyor bo‘ldi. Izg‘irinli bir tong edi, shamol odamni teshib o‘tganday izillatardi. Qamish va butalar orasidan junli telpaklar ko‘rina boshladi. Ibrohim xonning qo‘shini pistirmada edi, miltiq otishga buyruq berilmagandi. Shamxal qo‘shini bilan Kura qirg‘og‘iga yaqinlashdi. Atrofni ko‘zdan kechirib, daryoni kechib o‘ta boshladilar. Endigina berigi qirg‘oqqa o‘tgan edilarki, miltiqlardan o‘t ochildi. Lazgilar shoshib qolishdi. Yiqilgan otlar va odamlar bir-biriga aralashdi. Tovushga u tomondan yangi kuchlar kela boshladi. Gurjiston va Qorabog‘ qo‘shini pistirmadan sakrab chiqib, hujumga o‘tdi.

Qilichlar havoda chaqmoqdek yaltirab qochayotgan dushmanni qiyrata boshladi. Zambaraklar o‘t ochdi. Tutun tuman singari atrofni qopladi. Ibrohim xon qilichini yalang‘ochlab Kurani kechib o‘tdi. Minglarcha suvoriylar uning ketidan daryodan o‘tib, bir-biriga aralashib, qochayotgan yog‘iylarni quvlay boshladilar. Voqif ham Ibrohim xonning orqasidan otini haydab, u yer-bu yerda yiqilib qonga belangan odam jasadlarini ko‘rib, qalbida sanchiq his etardi.

22

Mammad bekning guruhi Qahrizliga yetib keldi. Bahorning go'zal payti edi: atrof yam-yashil, binafshalar ochilgan, oq va pushti gullar daraxtlarni yasangan kelinchakka aylantirgandi. Minglarcha asalari go'yo quyoshning yulduzlari torlariga teginib mo'jizakor ohanglar hosil qilayotganday. Yer-u osmon jo'shib, zavqlanar, faqat shu go'zalliklar ichra yashayotgan odamlar xursand emasdi. Erkaklar yil bo'yi urushda: kimdir o'lgan, kimdir jarohat olgan, ayollar og'ir ishlarda: yuz boshi bo'lsa eshikni qoqib, derdi: "Soliqni to'la!"

Aslida Mammad bekni qishloq ahli oshkora shodlik bilan kutib oldilar, yuraklarida esa: "Tangri panohida asrasin, bu shahardan keluvchilarda sira xayrli ish chiqmagandi", — deb g'am belbog'ini bog'lashga shay turardilar.

Yuzboshi Mammad bekning kelganini eshitib, o'zining og'alik uyiga yetib keldi va qo'lini yog' bosgan ko'ksiga qo'yib, bazo'r egilib, ta'zim qildi:

— Qurboning bo'lay, og'a, — dedi, — xush kelibsan! Mehmonlaringning ham ilk qadamlariga hasanot!

Bir daqiqada ikki qavatli uyning ayvoniga joy solindi, og'alar bog'dan oqib o'tayotgan qahriz suvida yuvinib kelib o'tirishdi. Otlarning har biri bir hovliga bog'landi, yuzboshi esa, qishloqqa odam chiqarib to'y haqqi yig'dira boshladi.

Mammad bek oppoq gullarga burkangan bog'larga faxr bilan qarab:

— Hoy yigitlar, — dedi, — mulkimiz sizlarga yoqdimi?

Hamrohlari:

— Juda yaxshi!

— Juda zo'r!

— Xuddi jannatning o'zi! — deya ma'qulladilar.

Mammad bek ko'zlarini qisib:

— Qarab turinglar, sizlarga shunday maza qildirayki! — dedi og'zini chapillatib...

Qarollar bog'da o'choq yoqib, talashib-tortishib olovga tuflab, ko'zlarining yoshini yirtiq-yamoq kiyimlarining yenglari

bilan artardilar. Bir tomonda so'yilgan qo'zining terisi archilar, ariqchada ko'katlar yuvilardi. Dahanini parda bilan berkitgan bir ayol kirib dasturxon yozdi. Yupqa — yumaloq cho'yon o'choqda yopilgan non keltirishdi. Pishloq, tuzlangan suzma va qatiq qo'yildi.

— Bolalar, bismilloh! — dedi-da, Mammad bek qo'lini dasturxonga cho'zdi. Dasturxon atrofida o'tirgan mehmonlar ovqatlana boshlashdi. Ayvon chetida mehmonnavozlik ko'rsatayotgan yuzboshi Mammad bekka muloyim bir tabassum bilan murojaat qildi:

— Og'a, qurbon bo'lay, qorningizni non-suzmaga to'ldirmanglar, sajichi[1] hozir tayyor bo'ladi, dedi.

Chindan ham mis qozon o'choq ustiga qo'yilgandi, qarollar qo'zi go'shtini unga tashlashardi. Jizillash tovushi, xush go'sht hidi yo'ldan kelgan mehmonlarga lazzat bag'ishlardi. Ko'p o'tmay sajichi tayyor bo'ldi, ustiga qatiq qo'yib mehmonlarga jo'natishdi. Bardoqlarda suv keltirib qo'yishdi.

Birozdan keyin ayvonning oldida juldir kiyimli qishloq bolalari to'plandi. Yuzboshining jahli chiqib, ularni haydadi.

Mammad bek boshini sarak-sarak qildi:

— Tegmang, turaverishsin! — dedi va ularga bir-ikki suyak tashladi.

Bolalar yerdan suyakni olaman deb bir-biri bilan talashib-tortishib yiqilishardi. Mammad bek bu manzaradan zavqlanib, maqtanar va qayta-qayta suyak tashlardi.

Nahordan keyin yuzboshi uchun bir bahona bo'ldi: uning odamlari hali ham uyma-uy yurib to'y ulushi yig'ishardi. U yer-bu yerda ushlangan tovuqlarning qaqag'lashi, qishloq ayollarining qarg'ishi atrofni tutgandi.

Mehmonlar uyg'onganda quyosh hali botmagandi. Turishib yana qahriz bo'yiga tushdilar, to'yguncha suv ichib, qishloqni aylanmoqchi bo'ldilar.

Mammad bek ko'z qisib:

— Qani ko'raylik-chi, arziydigan biror narsa bormikin? — dedi.

[1] **Sajichi** — maxsus mis idishda pishiriladigan qovurma (qozon kabob).

Chiqishdi. Qora uylar u yer-bu yerda solingandi. Orqalariga tezak uyumlarini taxlab tashlangandi. Har yer-har yerda rangi uniqqan kiyimli chollar va ayollar ko'zga chalinardi. Bir guruh bolalar ularning ortidan ergashib borar, borgan sari sonlari ortib, ko'payib borardi. Bog'lar orasida quloqlari va burunlari kesilgan bir necha odamni uchratishdi.

Qishloqdan chiqishdi. Bir guruh yosh qizchalar yelkalarida ko'za qahriz boshiga suvga borishayotgan ekan. Ulardan bittasi boshidagi durrasini yon qo'ndirib, narigi qizlarga nimalarnidir gapirardi. Gapira turib qiyo boqarkan bekka ko'zi tushdi. Yonoqlari cho'g'day qizardi. Bu hurkak nigoh Mammad bekning hayolini o'g'irladi. U qizlarning ketidan asta-sekin yurib, orqavorotdan uchlari kumush tangali uzun sochlari, ingichka beli va quyoshdan qoraygan to'la va yalang'och boldirlarini tomosha qilardi. Qizlar ularni kuzatishayotganini ko'rib, yurushlarini tezlashtirdi. Qahriz boshiga yetishdi, engashib ko'zalarini suvga to'ldirishdi. Mammad bek chekkadan turib qizni kuzatardi. Birdan u hayajonli tovushda:

— Hoy qiz, isming nima? — dedi.

Qiz yerga qarab indamas, ora-sira boshini ko'tarib to'qnashgach, mag'lub nigohini olib qochardi.

— Isming nima? — deya yana so'radi.

Qiz hurkak bir boqish-la Mammad bekka qarab:

— Oyisha! — dedi qizarib.

— Kimning qizisan?

— Tegirmonchi Usmonning.

— Menga tegasanmi, senga uylanaman?! — dedi va viqor bilan qo'lini xanjarining dastasiga qo'yib javob kuta boshladi.

Qizlar bir-birini turtdi. Oyisha bo'lsa qip-qizarib ketib kulimsiradi, ko'zasini yelkasiga qo'yib Qahrizdan uzoqlashdi.

Qizlar jadal odimlar bilan qishloq tomon shoshib borar, Mammad bek ham daraxtga suyanib, hasrat-la ularni kuzatar, ko'ksini dog'lardi.

— Bolalar, — dedi u, zolimning qizi imonimni o'g'irlab ketdi!

Yuzboshi ixlosmand bir ta'zim-la:

— Og'a, — dedi, — imoningni nega o'g'irlaydi, qiz nima degani, uni deb ko'ksingni changallayapsanmi? Oq paytavalim

sog‘ bo‘lsin, mayli topilmagan qiz bo‘lsin!.. O‘sha qizlarning qaysi birini xohlasang, xizmatingga tayyor.

Mammad bek og‘ir qadamlar bilan qishloqqa qaytardi. Yuzboshi uning atrofida parvona bo‘lib:

— Og‘a, — dedi, — istasang boray, sovchilik qilay. Otasi biroz qo‘rs odam, bermasa, mayli, xuddi shu kecha olib qochamiz.

— Mammad bek indamadi, og‘ir o‘yga tolib, ko‘prik chetida o‘tirdi. Hamrohlari ham tizzalarini quchoqlagancha suv bo‘yiga tizzalashdi.

Hech kim gapirmasdi, go‘yo Mammad bekning qayg‘usi hammani zaharlaganday edi.

Faqat yuzboshi biror xizmat ko‘rsatish istar, qo‘llarini tez-tez to‘shiga urib, aftida yaltoq bir ifoda aks ettirardi.

— Og‘a, — dedi, — sen yilda-ayyomda bir marta bu yerga tashrif buyurasan, shunda ham bu yerdan xafa qaytasan, bunaqasi ketmaydi. Ruxsat ber, hoziroq otasi bilan gaplashay.

Mammad bek uning yuziga ma’nodor bir nazar bilan qaradi. Yuzboshi bu qarashdan nimanidir o‘qib, qo‘llari ko‘ksida yoni bilan yurib chiqib ketdi.

Oyishaning otasi uyda yo‘q edi. Yuzboshi kata-katta qadamlar tashlab tegirmon tomon yurdi. Tegirmon arig‘i bo‘yidagi tol daraxti ostida oqsoqol bir kishi o‘tirar, oyoqlarini endigina yuvib dam olayotgandi.

Yuzboshi uyga yaqinlashganda, u vaziyatini o‘zgartirmadi ham, yuzini sal o‘zgartirib, salomga javob berdi, keyin:

— Marhamat, o‘tir, — dedi.

Yuzboshi o‘tirib, hamishagidan yanada mehribon bir raftor-la gap boshladi:

— Nima qilayapsan deb bir ko‘ray dedim-da...

— Nima bo‘lardi... Eshitdim, og‘a kelibdi. To‘y ulushiga kelishgandi, yarim qop un berdim. — Tegirmonchi yirtiq shimini yuqoriroq ko‘tarib, tizzasining pastidan qayirdi va yuzboshiga qiyo qarab, uning to‘la qizil yuziga yirik gavdasiga razm soldi: bor budimni olib ketishdi. Bilasan-ku, ekinim yo‘q, tikinim yo‘q, zo‘rg‘a kun ko‘rayapman, boqimimda esa yetti jon bor, — dedi.

Yuzboshi kulib uning gapini bo‘ldi:

— Xayrli xabar bor — endi darding bo'lmaydi!

Tegirmonchi yaxshilik kutmagan ko'zlari bilan yuzboshining yuziga qaradi:

— Xayrli xabar nima bo'lishi mumkin? — dedi, loqayd bir holda javob kutdi.

— Og'a meni... sening yoninga sovchilikka yubordi: sal oldinroq Oyishani Hahriz boshida ko'rgan ekan.

Tegirmonchi jahlini yashira olmadi:

— Hoy yuzboshi, — dedi, — og'a mening tengim bo'lmaydi!.. Yo'q, bu ish mening yuragimga o'tirmadi. Keyin diqqat-la yuzboshining ko'zlariga qarab qat'iy bir ohangda:

— Yo'q, bir-birimizga teng emasmiz! — deb jim qoldi.

Yuzboshi shirin tilini ishga soldi, Oyishaning baxtli bo'lishini, og'alik uyga kelin bo'lishini gapirsa ham kishi rozi bo'lmadi. Yuzboshi uni qayta-qayta ishontirishga urindi:

— Sen ham manfaat ko'rasan, — dedi, — hech qanday soliq to'lamaysan, oilang rohat -farog'atda yashaydi.

Tegirmonchi gaplarini bo'lib, o'ng qo'li bilan yuzboshining yelkasiga qoqib, dedi:

— Bilasan, birodar, besh qizim bor, Tangri menga o'g'il zurriyotni ravo ko'rmadi. Men Oyishani shunday yigitga berishni istaymanki, men ham boshimni yerga qo'yganda xotirjam bo'lay, bilayki, o'rnimga o'g'il qo'yib ketayapman, bolalarimga ko'z quloq bo'ladi... Og'a menga bo'yinturuq yo'ldoshim bo'la olmaydi! Bildingmi! So'zning rosti yaxshi narsa!

Yuzboshi qanchalar tushuntirmasin, tegirmonchi o'z bilganidan qolmadi. Yuzboshi uning qo'rsligini avvaldan ham bilardi. Endi o'z o'ziga: "sunniydir to'nini teskari kiyib oldi, bilganidan qolmaydi, deb ishning yaxshilikcha bo'lishdan voz kechdi".

Tegirmonchi Usmon Mehrali bek zamoni Shirvonga qilingan bir bosqin payti asirga olinib keltirilgan va o'n-o'n besh hovlilik bu qishloqda ilk bino tiklangandan bittasi edi.

Tabiat e'tibor bilan taqya va haylayi shariy yo'lida tarbiyalangan shia qo'shnilariga hecham o'xshamasdi: qat'iy, rostgo'y, bir so'zli, harakatida sobit bir odam edi. Xalq orasida unga o'jar

Usmon deyishardi. Yuzboshi buni yaxshi bilardi. Ishqilib, umidsiz bir holda kelib, Mammad bekning guruhiga qo'shildi, lekin yana umidvor qilib uni ovutdi.

Masala uch kun cho'zildi. Yuzboshi Mammad bekka taskin berish uchun uni yaqin oradagi o'rmonga ovga olib bordi, boshini aylantirishga urindi va ayni chog'da qishloq oqsoqollaridan Usmonga sovchilar yubordi. Usmon aytganlaridan qaytmadi. Nihoyat Oyishani buloq boshidan olib qochishdan boshqa chora qolmadi.

23

Fatali xon Kura bo'yidagi mag'lubiyatidan so'ng ham popugi pasaymadi: Hoji Malikmammad xonni Ibrohim xondan talab qilar va yangidan qo'shin to'plar edi. 1780-yilning avgust oyida Fatali xon o'n bir ming qo'shin bilan yana Kura tomon harakat qila boshladi. Lekin lazgilar maoshlarini vaqtida olmaganlari uchun yo'lda tarqalib uylariga jo'nashdi.

Kuz faslining so'ngi oyida Qubadan andishali xabar kela boshladi.

Mirza Alimammad og'a Qubaga 7–8 ming askar to'plaganini Safar vositasida aniqladi. Masalani Voqif bilib Ibrohim xonga aytdi. Xon yana o'jarligida turib olganida Voqif muloyim tovushda boshladi:

— Xon, — dedi, — mening sizga bo'lgan sadoqatimni bilasiz. Ojiz maslahatlarim bilan hamisha xonlikning shon va shuhrati uchun harakat qilganman. Dunyo ko'rgan odamlar, mamlakat gardishidan boxabar shaxslar shunday bir qoida belgilashgan: "Ba do'ston muruvvat, ba dushman madoro[1]". Jahongashta va donishmand kishilar maslahatini mensimagan hukmdorlar xayr ko'rmaganlar. Biz Fatali xon bilan murosa-yu madora qilib chiqisha olardik.

Bunchalik qo'shin to'plashga zo'r berish ham xonning xazinasiga ziyon, hamda el va ulusga. Boshqacha munosabatda bo'lsak yaxshi emasmi?

[1] Do'stga muruvvat qil, dushmanni yo'lga sol.

Xon g'azabidan lablarini tishlar, jahlidan ko'zlari qon kosasiga aylansa-da, Voqifning aytganlariga qarshi biror so'z topa olmasdi:

— Yaxshi, nima qilamiz? — deya titroq ovoz-la so'radi:

Voqif biroz muloyim va mehribon ovoz-la dedi:

— Avval ham aytgandim Hoji Malikmammad xonni zindonda ushlab turishdan hech qanday manfaat ko'rmaymiz. Zindondan bo'shataylik, ammo shart qo'yaylik.

— Qanday shart? — deya xon uning so'zini bo'ldi.

— Aytaylik, Fatali tinch turmasa, Og'amammad xon bilan birlashib uning tuprog'ini otning yem xaltasida tashitamiz.

— Fatali ishonadimi?

— Ishontiramiz. O'rtalikka bir qarindoshlik masalasi ham tashlaymiz. Nima aybi bor, mayli Fatali xonning singillaridan biri xonning haram doirasiga dohildor bo'lsin.

Xonning g'azabi biroz yumshaganday bo'ldi. U o'ylab qoldi va yuzida ehtiros olovi sezildi. Birdan xon qalin qoshlarini chimirib, nimadir o'yladi va yuzi yana vahima ifodasiga g'arq bo'ldi.

— Bas, Ganja Mammadga nima deysan? — deya ko'zlari o'yilgan Mammad xonga ishora qildi.

Voqif shartta:

— Mammad jazosini oldi, — dedi. — Xonga qilgan xiyonati ajrini tortishi kerak. Faqat... ahli-ayoli xonimizga nisbatan hech qanday qabih harakat qilmagan. Beva bechoralarga xon hamisha madad bergan. Shuning uchun Tangri ham mudom xonning boshidan mol-davlat yog'dirgan va qilichini o'tkir qilgan. Ahli-ayoli xotamtoydek saxovatli xonimizdan umidvordir.

Xon butunlay yumshadi:

— Maslahat qanday, Shohmammadga buyur, bajarsin! — dedi va birdan kulganicha nimanidir o'ylab zich soqolini silay boshladi.

* * *

O'sha kuni Hoji Malikmammad xonni zindondan chiqarishdi. Ikki yildan beri sartarosh va hammom ko'rmagan bechora Boku xoni yomon ahvolda edi: soch-soqoli o'sib gavdasini egallagandi, butun badani hasharot uyasiga aylangandi. Voqif uni hammomga

yubortirdi. Sochini olib, soqolini qirdirdi va bir dasta issiq kiyim tuhfa qildi.

Qattiq qish pallasi edi. Qor va bo'ron yo'llarni qoplagandi. Ag'dam bilan Shusha o'rtasida borish-kelish to'xtab qolgandi. Bu yil ko'p odam yo'lda muzlab o'lgan yoki qor bosgan uchurumlarga tushib yo'qolgandi. Shu bois Voqif Boku xonini olib ketib, mehmon qildi, havo ochilib ketguncha qadar asradi. Bu mo'min va muloyim kishidan teri bilan suyak qolgandi. Tortgan barcha azob-uqubatlariga qaramay, yana Tangriga iltijoda tasalli topardi.

— Og'a, — dedi, — barcha bu g'am-g'ussalar peshonamizda yozilgan ekan. Qismatdan ortiq yeb bo'lmaydi. Har narsa Alloh irodasidandir...

Voqif bu mo'min kishining so'zlarini iliq bir tabassum-la tinglarkan:

— Xon, Inson foili muxtordir, — dedi, — Alloh insonga aql bergan, idrok bergan sen ularga quloq solmaganingdan keyin Alloh nima qilsin?

Hoji Malikmammad Voqifning fikriga qo'shilmadi:

— Hech bir narsa Allohsiz emas. Shunday bo'lishi ham kerak edi. Muluki-islom Allohdan yuz o'girgan. Alloh taologa oid bo'lmagan zulmlarni o'ylab topadi, urchitadi. Bu zulmlarning jazosini ayni shu dunyoda tortayapmiz. O'zing olimsan, ilm va tavorixga voqifsan, yaxshi bilasan, bir qush bevaqt tulagandi, yalang'och edi. Alloh taolo buyurdi, o'sha yili qish bo'lmadi, qor yog'madi. Halloqi olamning qudratidan havo yoz kabi issiq bo'ldi, toki ojiz qush jonivor tuk chiqardi.

Bu rahmdil tangrining yer yuzidan shariatini tasarruf etuvchi din peshvolari buning yuzdan birini qilishayaptimi?

Abadie meyxona, zi vironie — mast,
Jamiyat kufr az parishonie — mast[1].

— Yo'q, Oxund, jifeyi dunyoga aldanib, bo'g'zimizga qadar gunohga botganmiz... Zindonda nazir qilganman, Bokuga yetib

[1] Mayxonaning abadiyligi bizning vayronaligimizdandir.
Kofirlikning jamiyati bizning parishonligimizdandir.

borishim bilan taxti-saltanat varaqasini bukib, Makkayi Mukarammaga ziyoratga borib oliy adoga dohil bo'lmoqchiman.

Xon so'zlarini tugatib, tasbeh o'girishda davom etardi. Voqif esa yoqimli bir tabassum-la bu sof qalbli qariyani kuzatar va uning aytganlarini o'ylardi.

Uch kundan keyin havo ochildi. Hoji Malikmammad xonga ot berildi, yoniga ikkita qarol qo'shib yo'lga chiqarildi. Uning zindondan ozod qilinishi, chindan ham, Fatali xonning Qorabog'ga yurishga mone bo'ldi. Fatali xon hali ham kin saqlab turgan bo'lsa-da, Shamxal bilan Shirvon xoni behuda qon to'kishga rozi emasdilar.

24

Ayoz bir oqshom edi. Kunduz yog'gan qor to'xtamagan, oy olamga sadafiy nur sochardi. Voqifning uyda o'tirishga qarori qolmadi. O'choqning u tomonida o'tirib paypoq to'qiyotgan Qizxonim tomon yurarkan:

— Hoy Qizxonim, turgin, bir xonlik tomon borib kelaylik, — dedi.

Qizxonim javob bermasa ham paypoqning kegaylarini sug'urmay bukib, oyoqqa turdi-da, narigi xonaga o'tib ketdi. Lala Voqifning to'ni bilan telpagini olib keldi.

O'n besh daqiqada tayyor bo'lishdi. Qizxonim cheti mo'ynali baxmal chakmonni kiygandi, oyoqlariga yarim paypoq kiyib, tizzasidan bog'lagandi. Boshida jun matodan qalpog'i bor edi. Voqif ham suvsar po'stinini kiyib yo'lga chiqishdi. Oy yorug'iga qaramay, qo'lida fonus ushlagan ikkita qarol oldinda ikkitasi orqadan kelardi. Fonuslarning qalaylangan mis doiralari oy yorug'ida yorqirardi, mo'rikon shaklidagi bir arshin osilib turgan qavat-qavat oq mato esa yangidan kraxmallanib mumlangandi. Pastki mis doirada yonayotgan shamning shu'lasi oydin ko'rinmasa ham mumli matodan o'tib yo'lni yoritar va mehmon bo'lib borayotgan safga alohida bir dabdaba baxsh etardi.

Saroyga kelgach, Qizxonim xonimlar davrasiga, Voqif esa xonning qishki xonasiga o'tdi. O'choqda charsillab o'tin yonar,

yorug'i devorlardagi rangli naqshlarga, alvon pardalarga va gilamlarga tushardi. O'choq mo'rikonining ikki tomonidagi tokchalarga qo'yilgan shamdonlarga shu'la sochib shamlar yonardi. Ibrohim xon shoyi yostiqlarga yastanib darg'a Og'asi bek bilan finjon o'yini o'ynardi. Yosh bir xos xizmatchi ham chekkada tik turib, amrga tayyor holda kutardi. Finjon o'yini unchalik murakkab narsa emasdi: qalayi bir taxtachaga o'n ikkita jez finjon tiziladi, ulardan birining ichiga bitta uzuk yashiriladi. O'yinning yutug'i uzukli finjonni topishda edi. Voqif ichkari kirganida xos xizmatchi finjonlarni yangidan tuzib chiqqan edi; qo'l xonda edi, o'ylab finjonlardan birini ko'tarmoqchi edi, toki Voqifning kelishini ko'rib, qahqaha urdi:

— Oxund, juda vaqtida kelding-da, — dedi. — Darg'ani xo'rozga ortgandim. Endi gul uraman.[1]

Voqifga joy ko'rsatishdi, o'choqning chekkasida o'tirdi. Xon unga g'olib bir nazar bilan qarab, yana maqtana boshladi.

— Darg'a meni Alimammad deb o'ylaydi, — ko'zini ochirmayman deydi shekilli. Mana qara, bu ham bittasi! — deya xon taxtachaning chekkasiga tizilib, doira hosil qilgan finjonlardan bittasini ko'tardi. Unda uzuk yo'q edi.

— Og'asi bek kulimsiradi. Xon mulzam bo'lib, narigi tomonidan ham bitta finjon ko'tardi, uzuk yana chiqmadi. G'azabi yana oshdi. Og'asi bek xonning iyagini titratishning farqini tushunib, jim qoldi. Xon jahl bilan qo'lini havoda o'ynatib, uchinchi finjonga qo'l cho'zganda Darg'aning rangi o'chdi; u bu safar uzukning chiqishini samimiyat bilan istardi. Lekin aksiga olib, uzuk yana chiqmadi. Xon uchinchi finjonni taxtachaning o'rtasi urib, xos xizmatchiga o'shqirdi:

— Bu yoqqa kel, buni yig'ishtir, — dedi ovozidan atrofga vahima cho'kdi.

Voqif xonning g'azabini yumshatish uchun masalaga butunlay dahli bo'lmagan suhbatni boshladi.

— Xon, — dedi, — bugun qo'limga ajoyib kitob tushib qoldi. Bu o'lkaning juda qadimgi ahvoli haqida yozilgan ekan. Bilasizku, tarixga qiziqaman.

---

[1] **"Gul urmoq"** — ilk qo'ldayoq uzukni topish demakdir.

Xon qiziqqanday bo‘ldi, jahldan tushdi. Voqif xonda bo‘lgan o‘zgarishni sezib, so‘zini davom etdi.

— Hali hijrat[1]dan ming yil burun bizning ushbu Qorabog‘da Zardushtiylar yashagan. Turon ellari Darbanddan, Saddi–Iskandardan o‘tib bu joylari yag‘mo qilarkanlar. “Shohnoma”da rivoyat qilingan Eron–Turon urushi bizning Kura bilan Araz orasida yuz bergan... Bizning o‘lkamiz boshidan juda ko‘p voqealar o‘tgan.

Og‘asi bek osuda nafas olib, o‘zini o‘ngladi, ko‘kragini ko‘tarib suhbatga qo‘shildi:

— Rahmatlik Panoh xon Afshar Fatali xon ustiga yurish boshlaganda, xabaringiz bor, men yarador bo‘lib, ancha vaqt Ardabilda yotdim. Beklarbegi meni bir darvish boshpanasiga topshirgandi. U yerda bir keksa shayx bir edi. Kecha-yu kunduz ibodat qilardi. O‘zi ham hakimi oziq edi: jarohatimni tuzatgan ham o‘sha edi. Ibodatdan so‘ng huzurimga kelib to‘shagim yonida o‘tirardi. U ham bu voqealarni menga gapirgandi. Uning aytishicha, Oron buyuk bir o‘lka ekan, markaziy shahri ham Ganja ekan. Ammo Alloh bir go‘zal o‘lkaga ilohiy g‘anim yaratgan ekan.

Ibrohim xon butunlay jim qolib, qiziqib so‘radi:

— Xo‘sh bu armanilar qayerda ekan?

Voqif past ovozda:

— Armanilar bu yerlarga ancha keyin kelishgan; ular Chingiz va Temurlang zulmidan qochib, bu tog‘larga sig‘inishgan. Ko‘rmaysizmi, armanilar yashaydigan joylarga “sig‘inoq” deydilar... armanilar boshi baloli toifa bo‘lganlar.

Suhbat qizidi. Voqif sharq tarixiga doir xonning shu paytgacha eshitmagan ko‘pgina narsalar haqida gapirdi. Keyin latifalar boshlandi, boshdan o‘tgan mojarolar va voqealar hikoya qilindi. Voqif Qorabog‘ga yangi ko‘chib kelgan vaqti Xonmammad bilan aylangani borgani haqida aytdi:

— Yosh vaqtimiz edi, — dedi, — to‘pxonaga aylangani borgimiz kelib qoldi. Jo‘ralar yig‘ildik. Xonmammadning puli yo‘q ekan.

— Hech bo‘lmasa uyga borib yog‘, bir nechta tuxum olib kel, dedik.

[1] **Hijrat** — Muhammad payg‘ambarning Makkadan Madinaga ko‘chishi.

Xonmammad ketdi-yu gum bo'ldi. Kutdik kelmadi. Meni orqasidan yuborishdi. Bordim, qarasam onasi uni tandir yoniga o'tirg'izib, o'zi non yopayotgan ekan. Jo'ramiz nonlarni sixdan o'tkazib xom joylarini tandirda qizartirayotgan ekan. Aylangani borishimizni onasi bilmasdi. Bildirmasdan chiqib ketmoqchi edi.

Xullas, chetdan turib Xonmammadni kuzatardim. Bir vaqt qarasam, belbog'idan yog' oqayapti. Onasi buni ko'rib:

— Qaranglar-a, yog'ni o'g'irlab qayeriga qistiribdi! — deya kasov bilan boshiga bir-ikki tushirdi. Singan tuxumlar suyug'i Xonmammadning chekkasidan pastga oqib tusha boshladi. U tuxumlarni ham onasidan so'ramay olib telpagi ostiga yashirgan ekan...

Xon yayrab o'tirdi. Kulaverib darg'aning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Latifalar ayni qizigan paytda xos xizmatchi patnisda olma, nok, anor, behi keltirib mehmonlar oldiga qo'ydi. Bular qishloqlardan yuborilgan mevalar edi.

IKKINCHI QISM

1

Shimoldan kelayotgan xabarlar saroy diplomatiya darajalarida katta tashvishlarga sabab bo'lsa-da Tiflisdan Mirza Alimammadning yozishicha, Shimoliy Kavkazdagi Qizlar qal'asi tomonga rus qo'shini to'planayotgan ekan, Irakliyning yoniga bir rus kelib nimanidir gaplashar ekan...

Fatali xon ham eski gina-kuduratida davom etib, Kura daryosini tez-tez kechib o'tar, Qorabog' qishloqlarini talab va xalqni asir olib ketardi. Eronda avvalgiday xonlarning bir-birlari bilan to'qnashuvlari davom etar va ba'zan Arazning bu tomoni osoyishtaligini buzardi. Ibrohim xon bir tomondan Shushani mustahkamlar, ikkinchi tomondan Kura va Araz daryolari bo'ylarida qo'shin saqlash majburiyatida qolardi. Ichkarida ham ishlar joyida emasdi: Armani maliklari va kashishlari rus saroyi bilan bo'lgan aloqalarida davom etar hamda Qorabog'ning harbiy ahamiyatga ega bo'lgan barcha ahvolotlarini ruslarga bildirardilar.

Ruslarning e'tiborini jalb qilish uchun ularga imkon doirasiga sig'magan va'dalar berardilar: katta qo'shin va oziq-ovqat taklif qilardilar, o'lkada mavjud bo'lmagan kumush konlaridan safsata sotardilar...

Xon qayni Jumshudni yoniga chaqirtirdi. Jumshud xavotir bilan keldi.

Xon Og'asi bek bilan o'tirib o'yga tolgandi. Jumshud salom berdi. Xon uning salomini olmadi. Biroz tik turib qolganidan so'ng g'azab bilan qarab:

— O'tir, — dedi va hayajon-la gapira boshladi: — Bolam, sen armani, men musulmon — hech mendan aziyat chekdingmi?

Jumshud itoatli bir holatda: — Alloh ko'rsatmasin, xon, — dedi, — hamisha hurmat ko'rganmiz!

— Opang necha yildirki, mening ayolim, ayt, mendan guldan og'ir bir narsa eshitganmi?

— Alloh saqlasin!

— Otang mendan, yo rahmatlik otamdan hech ranjiganmi?

— Alloh rahmat qilsin, Panoh xondan, na-da sizdan sira ham ranjimagan.

— Xo'p, bas bu maliklar mendan nima istaydilar? Aytishlaricha, Dizoq maligi Iso ruslarga bel bog'lab xizmat qilayapti, og'iz-burun o'pishayapti. Bilmaydiki, bitta Isoni, o'nta Isoni, yuzta Isoni, — shu joyda xonning ovozi ko'tarildi, — yo'q qilish men uchun bir qultum suv ichish kabi bir narsa!..

Jumshud sekin ovozda:

— Albatta, xon!.. Bilasiz-ku, bu yaramas to'rtta malik otam bilan ham dushmanchilik qilishgan. Quturishyapti.

Xon yana shiddatlandi:

— Quturganning bo'ynini siindirishadi! — dedi. — Rahmatlik otam o'sha quturganlarning kallalaridan Xachinda minora tiklagandi, haliyam eslari kirmadimi?

Xon biroz to'xtab, chilimning uchini lablariga suykadi va bir ikki bor chekib, jim qoldi. Keyin muloyim tovushda dedi:

— Biz murosayi madora bilan yashaylik, dedim, sening opangga uylandim, qarindosh bo'laylik deb. Yana so'zda boshqa, amalda boshqa bo'lishini istamadik.

Odam ko'rpasiga qarab oyoq uzatadi. Butun Qorabog' xonligida olti ming uysizlar. Bir ishora qilsam tuxumlaringizni yer yuzidan quritadilar.

Ammo men yomonlik qilishni istamayman. Aytishadi: "Telpaging echki terisidan, xabaring yo'q gerisidan[1]". Odam oxirini o'ylashi kerak. Petro[2] podsho sizga nimalar va'da qilgan edi, nima bo'ldi? Yordam qilaman deb: "tentakka yel, qo'liga bel" berdi, sizlarni musulmonlarga qarshi qayradi.

U bir mehmon edi, keldi va ketdi, ikki o'rtada sizlar qurbon bo'ldingiz. Bu esdan chiqdimi?

Xon jimib, chilimni chekishda davom etdi. Birdan chilimni og'zidan oldi, qo'li titray boshladi, jag'i ochildi:

---

[1] **Gerisi** — oxiri, keti.

[2] **Petro** — Pyotr Birinchi.

— Og‘asi? — deya Darg‘aga murojat qildi: — Hoziroq, Dizoqqa uch yuz suvoriy jo‘nat, o‘sha itning bolasi Isoni ushlab osishsin, uyini, mulkini vayron qilishsin! Hech narsani ayashmasin! Men uni Dizoq sig‘nog‘iga yuzboshi qilib tayinlagandim, boshimga balo bo‘lsin demagandim.

Og‘asi bek o‘rnidan turdi:

— Xo‘p bo‘ladi, — deb yoni bilan chiqib ketdi. Jumshudning rangi oqarib ketgandi: xon bilan bir xonada qolish azob edi. Yaxshiyamki xon to‘satdan:

— Ketishing mumkin! — dedi va Jumshud o‘rnidan turib ketarkan, xon biroz muloyim ovozda: — Bor, armanilarga ayt es-hushlarini yig‘ishsin! — deb qo‘shib qo‘ydi.

Jumshud ayvonga chiqqandagina chuqur va osuda nafas oldi.

Xonada yolg‘iz qolgan xon bir necha bor o‘rnidan turib o‘tirdi, rohatlanolmay tizzasiga cho‘kkaladi, qayta ko‘rpachani tuzatib chordona qurib o‘tirdi. Shu asnoda eshik oldida tik turib qolgan xos xizmatchi yo‘taldi: xon shartta o‘girilib, unga hayrat bilan qaradi:

— Yo‘tal paytimi hozir? — deb o‘shqirdi. — Bor Shohmammadni chaqir! Shohmammad nomini eshitib xos hizmatchining quti o‘chdi. Ko‘zlarining yoshini oqizib sajdaga tushdi:

— Otam, onam qurboning bo‘lsin, xon! — dedi. — Meni aziz bolalarim boshiga qaytar. Beadablik qildim, yo‘taldim!

Xon gilam uzra yuztuban tushgan xizmatchisiga qarab, hech narsa tushunmadi. Xizmatchi yalinib, yig‘lashda davom etardi. Birdan xon qahqaha urib kularkan:

— Tur, ahmoq! Shohmammadni boshqa ish bilan chaqiryapman! — dedi.

Xizmatchi boshini ko‘tarib, shubha bilan xonga qaradi va g‘alati bir tashakkur ifodasi bilan:

— Jonim sizga qurbon, xon! — deb xonadan chiqdi.

Birozdan keyin Shohmammad ichkari kirdi. Bu qo‘pol odam xonning ko‘ziga ko‘rinishi bilan xuddi xon undan jirkanganday aftini burishtirdi:

— Bu nimasi? — dedi. — Eshitdim, ukang yana yangi hunar ko‘rsatibdi.

Shohmammad voqeani bilardi, boshini xam qilib, hijolatdan terlab ketdi.

Voqifning xonaga kirib kelishi uni bu vaziyatdan qutqardi. Voqif o'tirib masalani tushunish bilan:

— Xonmammadmi? — dedi. — Do'stim bo'lsa-da biroz qo'rqoqligi bor!

Xon qat'iy ohangda dedi:

— Chaqirtir, kelsin, bir ko'ray.

Shohmammad bosh egib chiqib ketdi.

Xonning yuzi yana qat'iylasha boshladi.

— Oxund, — dedi, qaragin, bu armanilar yana isyon ko'tarishibdi. Murosa qilib yasha, deysan. Mana senga murosa-yu madora! Bodorolik Gopi Bollija, yo'lini to'sib o'tgan-ketganning, tegajog'lik qilayapti. Ana, bittasi qochoqlik ishqiga tushibdi, yo'l to'sarlik qilib, g'ashimizga tegayapti.

Voqif o'ychan bir qiyofada:

— Bularning bari maliklarning ishi, — dedi, — xalqni chalg'itib ovora qilishyapti. Go'yo rus kelib bularni xon qiladi deb o'ylashyapti.

— Xon Dizoq sig'nog'iga suvoriylarni jo'natganini aytdi.

Voqif afsuslanganday bo'ldi va dedi:

— Nima qilish mumkin, boshqa iloj qolmagan bo'lsa. Bular tinch o'tirganda vatanlari Lo'ristonda yashashardi, qochib Qorabog'ga kelishmasdi.

O'rtalikka og'ir jimlik cho'kdi. Shu payt eshik keng ochildi. Ichkariga olti-yetti yoshlardagi oq chehrali, shahlo ko'z chiroyli bir qizcha kirdi. Yashiringanday yugurib xonning quchog'iga o'zini urdi.

Eshik orasidan eshitilgan xotin ovozi devor yonida tikka turgan xizmatchini o'rnidan qo'zg'otdi: u qizchani olib ketish niyatida oldinga yurdi.

Mehribon ko'zlari bilan qizchani kuzatib turgan Voqif:

— Qo'y, shu yerda qolsin! — dedi va qo'llari bilan ishora qilib:

— Og'abayim. Beka, kel amakingga! — deb chaqirdi.

Qizcha yoqimli bir tabbasum-la Voqifga qarab va jajji qo'llari bilan otasining bo'ynini silardi. Xon qizining qo'ng'ir sochli boshidan o'pib:

— Amakisi, — dedi, — qaragin qizim ham sen singari she'r biladi.

Og'abayim beka uyalib yanada otasiga qisindi. Voqif mehribon va erkalagan bir tovushda:

— Bayim bir o'qisin, ko'ray! — dedi. — Yoki bilmaydimi?

Qizcha Voqifga qarab:

— Yo'q, bilaman, — dedi.

Xon:

— O'qi-chi, — deya qizchaning qulog'iga shivirladi. Qizcha sal tortinib turdi va derazaning tepasiga qaraganicha yoqimli va jasur bir ovozda o'qidi:

Qo'limni pichoq kesdi,
Bilmadim qandoq kesdi,
Yog' obkeling, yog'layin,
Ro'molcha bering bog'layin.
Ro'molcha tuya bo'ynida
Tuya Shirvon yo'lida,
Shirvon yo'li muz bog'lar,
Dasta-dasta gul bog'lar,
U gullarni uzsaydim,
Sochlarimga tizsaydim,
Akajonim to'yida,
Raqs tushib suzsaydim.

Bolalarga xos bu go'zal xalq she'ri, tag'in uning chiroyli bir qizcha tomonidan o'qilishi Voqifni hayratga soldi.

— Oy ofarin! Oy ofarin! — deya qizchani yoniga chaqirdi. Lekin Og'abayim shaxdam odimlar bilan xonadan chiqib ketdi. Qizchaning kelib ketishi hammada farah uyg'otdi.

Xon ham butun g'azabini unutib, ota mehri bilan qizi haqida gapira boshladi:

— Oxund, juda zehnli bola-da, — dedi. Charaka[1]ni tugatdi. Endi Qur'on o'qiyapti. Har bir ko'rgan narsasini surishtiradi, tagiga yetmoqni istaydi. Juda ko'p topishmoq biladi.

Voqif zavq bilan:

— Aqlli qizaloq! — dedi. — Men ko'rmaganimdan beri, mosholloh ancha katta qiz bo'libdi.

Bobo lalaning ichkari kirishi Voqifning so'zlarini bo'ldi. Xonmammadning kelganini xabar qildi. Xon avvaliga kulimsiradi, keyin jiddiy qiyofada:

— Kelsin! — dedi.

Xonmammmad usti junli burnini torta-torta ichkari kirdi. Telpagi namiqqandi, demak havo aynigan.

Xon g'azab bilan so'radi:

— Aytishlaricha, qochoq Gopidan qo'rqib, Allohdan, payg'ambardan tonibsan?! — Xonmammad boshini xam qilib jim turardi. Voqif sezilmas istehzo bilan qarardi.

Xon qat'iy:

— Rostini ayt, o'zi nima bo'ldi? — dedi. — Menga qara, yolg'on gapirib, bog'dan-tog'dan keladigan bo'lsang, bilib qo'y boshing jallod qo'lida bo'ladi!

Jallod so'zini eshitib Xonmammadning eti jimirladi, rangi bo'zardi:

— Rostini aytaman... Nima qilay... Inson boshiga ish tushadi: xon omon bo'lsin, Bollija daryosidan o'tib, kelayotuvdim. Birdan o'rmondan bir ovoz eshitib... Qo'rqib ketdim. To'xtadim. Qarasam qochoq Gopi. Dedi: "Hoy itvachcha musulmon, Muhammad payg'ambar yolg'onchi, Iso rostgo'y" deb ayt. Xon omon bo'lsin, qarasam, agar aytmasam meni o'ldiradigan... Turgan joyim ham juda noqulay, u o'rmonda, men esa tepalikda... Jon esa shirin...

Ilojim qolmadi, aytdim. Dedi: "Alloh hech narsa emas, azdos[2] yaxshi, — deb ayt."

Birpas o'ylab turishni istadim, qarasam itvachcha armani otmoqchi, bolalarim yetim qolmoqchi...

[1] **Charaka** — arabcha alifbe.

[2] **Asdos** — armanicha Xudo degani.

Xon g'azablandi:

— Demak, oftob ko'rmagan bir armani bolasidan qo'rqib Allohdan tondingmi?

Xonmammad sal jasorat-la:

— Xon janoblari, — dedi, — Xudo haqqi, juda yomon bir joy edi, agar siz bo'lganingizda, Gopining o'ziga ham, "Alloh" derdingiz!

Xon qah-qah urib kula boshladi. Voqifning esa barmog'ini kessang ham o'zidan xabari bo'lmasdi.

2

Ibrohim xon Mammad bekni yoniga chaqirib dedi:

— O'g'lim, jasoratlaringni eshitib faxrlanaman. Biroq sen Kuradan o'tib Shirvon yerlariga rahna solganingda, qanjiq Fatali ham achchiqlanadi, u ham bizning qishloq-ovullarimizga bostirib kiradi, talaydi, vayron qiladi. Agar mardlik ko'rsatmoqchi bo'layotgan ersang, qarollarni yig', bor qochoq Gopining orqasidan. Eshitdingmi?

— Eshitdim amaki!

— Avvalo Bodoro maligini osdirasan!

So'ngra yerning tagidan bo'lsa ham Gopini topib, jazosini berasan. Men Naxichevanga ketayapman. Qoduq Kalbali quturib, meni tan olgisi kelmayapti. Uning burnini ezib, popugini pasaytirib qo'yish kerak. Gopini yo'q qilganidan keyin Xudofarin ko'prigiga chiqasan, birgalashib Naxichevanga boramiz.

Mammad bek ham o'sha kuni yo'lga chiqdi. Ibrohim xon ham qo'shinining kamchiliklarini butlab, ikki kundan keyin Naxichevan safariga chiqdi. O'rniga qoldirgan darg'a Og'asi bekka osoyishtalikni ta'minlash uchun katta vakolat berdi.

Ibrohim xon Xudofarin ko'prigiga yetganida Mammad bekni o'sha yerda ko'rdi: Gopining nayza uchiga sanchilgan boshi xonga taqdim etildi. Xon Mammad bekka va navkarlariga to'n berdi, yo'lga tushishdi.

Yerevan xonligi Gurjistonga tobe bo'lib, Irakliy xonga boj bergani singari, Naxichevan ham Qorabog' xoniga tobe bo'lishi

kerak edi. Lekin Kalbali xon Rusiya tarafdori bo'lgan Xoy xoni Jafarqulining ta'siriga tushib, Ibrohim xonni tan olishni istamasdi. Ibrohim xon buni o'ziga haqorat deb bilib, Kalbaliga jazo berishga shoshardi.

Havo juda issiq edi. Qo'shin parokanda bir holda ship-shiydon cho'llar orqali borar, yerdan ko'tarilgan chang-to'zon olamni tutgan edi. Nihoyat kelib Naxichevan tevaragiga chiqishdi. U yerbu yerda ko'kartirilgan bog'lar, qovun-tarvuz polizlari, paxta dalalari boshlandi.

Qo'shinni ko'rgan qishloq ahli qochar, atrofga tashvish, vahima yoyilardi. Birdan olisdagi bir chorbog'ning orqasidan chang ko'tarildi. Bu — Kangarli suvoriylari edi. Ular turk ellari orasida jasurliklari bilan mashhur edilar. Mammad bekning ilg'ori ot qo'yib suvoriylarni qarshiladi. Qilichlar porlar, qichqiriqlar, na'ralar havoni titratardi. Mammad bekning ilk zarbasidan uzun mo'ylovli bir sarkardaning boshi uchib ketdi. Uning o'rniga otilib chiqqan boshqa birining yelkasiga solingan qilichdan otdan yerga qulab tushdi. Safar ham bir tarafdan suqilib kirib, o'nga-chapga qilich solardi. Kangarlilar pisib orqaga qaytishdi. Mammad bekning dastasi ularni urib-yiqitib, ta'qib qila boshlashdi.

Naxichevan qal'asi qurshab olindi. Ikkita mis zambarak shaharga tinimsiz o't yog'dirar, navkarlar ham xandaqma xandaq o'tib, qal'a devorlariga yaqinlashar, narvonlar qo'yib minoralarga chiqishga tayyorlanardilar. Shu asnoda chopar Qoradog' xoni Mustafoning Qorabog'ga hujum qilgani xabarini keltirdi. Ibrohim xon chodirda o'tirgandi, bu xabar uni shoshirib qo'ydi. Chunki Mustafo xonni bir marta asir olgan, o'ziga tobe qilgandi va bir marta unga qo'shin berib Tabriz ustiga yuborgandi.

Dushmanlik joyi emasdi: Ibrohim xon buyruq berdi karnaylar chalindi, qo'shin tezda to'planib, orqaga chekina boshladi. Shu paytda Kalbali xonga yordamga kelgan Safarqulu xon va bolboslik Mammadsharif sultonning otliqlari orqadan chiqdi. Ibrohim xon amr qildi, zambarakli tuyalar cho'klatildi, to'plardan o't ochildi. Dushman saflaridan bir necha odam qulatilgan bo'lsa-da, hamlaning oldini olib bo'lmadi: Ibrohim xonning ham suvoriylari oldingga tashlandi: miltiqlar otilar, qilich ko'tarilib tushardi.

Qorabog‘ qo‘shini Chorbog‘ tomon qisishtirilgan bir paytda Mammad bek Mammadsharif sultonni urib, otdan ag‘dardi. Safar ham boshqa bir sarkardani o‘ldirgach, dushman qo‘shini parokanda bo‘la boshladi. Kechki payt Kalbali xon bilan Safarqulu xon ortga chekinishga majbur bo‘ldilar.

Mayitlar va yarador atrofda yoyilib yotardi. Tirik qolganlar qo‘lga tushgan o‘ljalarni olovlarga ortardilar. Oqshomning salqinligidan foydalanib Ibrohim xon ham orqaga chekindi.

Yo‘lda Mammad bek Safarga dedi:

— Safar, qo‘shin oyog‘i bilan yuradigan bo‘lsak kech qolamiz: Mustafo xon qishloqlarni talab, chopib qochib qoladi. Kel ot qo‘yamiz.

Mammad bek xon bilan maslahatlashib bir guruh navkarlar bilan ilgarilab ketdi.

Bunisi kun kechki payt Araz sohilida Qorabog‘ qishloqlarini talab orqaga qaytayotgan Mustafo xonga duch keldilar. Bir tepaning orqasiga berkinib, to‘satdan hujumga o‘tdilar. Mammad bekning birinchi zarbasi Safiquli bek degan bir sarkardani otdan qulatdi. Mammad bekka yon tomondan ot solgan Mammadvali sulton ham yaralanib chetga chiqib ketdi. Mustafo xon vaziyatni bunday ahvolda ko‘rib, otini Arazga haydab daryoni kechib o‘tdi. Safar yerda qolgan qoratog‘liklarni qiyratardi. Bittasi unga qilich soldi. Safar shartta orqaga chekinsa-da qo‘lidan yaralandi. Endi g‘alaba qorabog‘liklar tomonda edi. Qoratog‘liklarning omon qolganlari o‘zlarini daryoga otib jon saqlardilar.

Yerda o‘n-o‘n besh jasad va yarador qolgandi. Yetti-sakkizta ot yuki hamda qishloqlardan g‘orat qilingan narsalar tashlab qochilgandi. Mammad bek savashdan bo‘shagach, Mustafo xon tashlab qochgan karvonga qarab yurdi.

Bu yerda bir guruh qo‘li bog‘liq asir bor edi: aksariyati yosh yigit va qizlar edi. Charchab, holdan toygan asirlar Mammad bekka qarar, hech narsa demasdilar, qo‘rqqanlaridan hali o‘zlariga kelmagandilar. Ularning orasida bug‘doyrang, qo‘ng‘ir ko‘zli, uzun bo‘yli bir qiz bor edi. U Mammad bekdan ko‘z uzmas, go‘yo unga minnatdorlik bildirayotgandek edi. Mammad bek unga yaqinlashib, qo‘llarini yechdi.

— Isming nima? — deb so'radi qizdan.

— Huri! — degan sekin ovoz eshitildi.

Mammad bek muloyim bir ovozda:

— Bor, daryoda yuz qo'lingni yuv, — dedi, keyin navkarlariga buyurdi:

— Hoy, yigitlar, asirlarning qo'llarini yechinglar, qorinlarini to'yg'azinglar!

Navkarlar hafsala bilan asirlarning qo'llarini yechishar, jarohatli qo'lini yelkasidan osib olgan Safar esa bir toshning ustida o'tirib, u yer-bu yerda qonga belanib ingrayotgan yaradorlarga va cho'zilib yotgan jasadlarga qarar, achchiq o'yga tolgandi.

3

Necha yil davom etgan Rusiya–Turkiya urushi Kichik Qaynarcha bitimi[1] bilan yakunlangan, Rusiya Qrimni qo'lga olib, qora dengizga chiqqandi. Bu bilan Yekaterinaning Sharq dasturi hali tugamagandi.

Kichik Qaynarchadan keyin bir necha yil tayyorlanib, Kavkaz safariga boshlaydi. Sharq ishlarini Potyomkin Tavricheskiyga topshirgan, u esa Kavkaz yerlariga amakisining o'g'li general-polkovnik R.Potyomkinni tayinlagandi. General-polkovnikning birinchi galdagi vazifasi gurjilar va armanilar bilan aloqalar bog'lash edi.

Bu masala ba'zi armani tabaqalarida, xususan maliklar, kashishlar orasida yangi bir umid — xonlarning zulmatidan qutulish umidini uyg'otgandi.

Maliklar Eron podsholari tomonidan armani sig'noqlariga tayinlangan yuzboshilar edi. Bu yuzboshilar Eronda tez-tez yuz beradigan to's-to'polondan foydalanib, maliklik ro'tba — martabasiga nasliy-meros unvon sifatida qarashga va o'zini bir hukmdor sifatida hisoblashga o'rgangan edilar. Shu boisdan bir malikni bo'shattirib, o'rniga boshqasini tayinlash, eski malikni xo'rlash,

[1] Bu yerda 1768–1774-yillardagi Rusiya–Turkiya urushi va 1774-yilda Dunay daryosi sohili(hozirgi Bulg'oriston vodiysi)dagi Kichik Qaynarcha degan qishloqda erishilgan sulh bitimi nazarda tutilmoqda.

non-tuzdan benasib qilish deb qaralar, ur-yiqit boshlanardi, milliy masala ko'tarilib, musulmon-armani dushmanchiligi avj ola boshlardi. Chor imperializmining Sharq siyosati bu ahvoldan bemalol foydalanib qolar, maliklar va kashishlar vositasida mehnatkash armani xalqini gij-gijlardilar. Pyotr Birinchining Kavkazga kelib ketishi Oriy va Vartapet Minasning yordamida armani xalqiga katta umidlar berib, musulmonlar ustiga bostirib va natijada armanlarning behuda qirilib ketishi ba'zi armanilarga ushbu masalaga ehtiyot-la yondashish tuyg'usini bergandi. Chorlarning "Xristianlik marhamatiga" ishonmaganlardan bittasi ham O'hon kashish edi.

O'hon armani sig'noqlarini aylanar, nasihat qilar va xalqni maliklarning fitnalaridan ehtiyot bo'lishga da'vat etardi. Bu safar ham u sig'noqlardan endigina qaytib, to'g'ri Voqifning yoniga bordi. Bahorning ilk kunlari edi. Voqif bog'ida aylanib, binafsha terardi. O'honni ko'rgach:

— O'-ho'! Xush ko'rdik, Mirza O'hon! — deya kutib oldi va qo'lidagi binafsha dastasini unga berarkan qo'shib qo'ydi: — gul ba daste gul bashad[1].

O'hon kulib binafshani oldi va hidlab:

— Tangri muncha chiroyli narsalar yaratgan! — deb qo'ydi.

Voqif hazillashib javob berdi:

— Chiroyli narsalar cho'xdir[2], sen bilan menga yo'qdir: bu oxundlik bilan kashishlikni bo'ynimizga qo'yib, dunyoni bizga harom qilishgan.

— Harom-u halolga qaragan kim o'zi?

— Senga nima Mirza O'hon, — dedi — yangi o'ylangansan, kayfing a'lo, dimog'ing chog'! Meniki bittagina, u ham umrimni eski deb o'ylaydi.

O'hon kashish oh chekdi:

— Eyy! Oxund, — dedi, — Odamga olisdan urush oson ko'rinadi. Ko'hna xotin yangisiga kun bermayapti. Har kuni uyda janjal...

Voqif yana hazillashib dedi:

— Sen ham kechasi yotganda ikkalasining o'rtasida yot.

[1] Gul-gulga yarashadi.

[2] Ko'pdir.

Kashish mazza qilib kuldi:

— Oxund, — dedi, — buni ham qilib ko‘rganman. Bo‘lmayapti, unisi yuzingni menga burib yot deydi; bunisi menga qarab yot deydi. O‘rtalarida ovora bo‘lib qolayapman.

Suhbatdoshlar to‘yib-to‘yib kulgancha bog‘dan chiqishdi. Ayvonning oftob tushib turgan burchagiga sholcha solinib, ko‘rpacha yozildi, bolishlar qo‘yildi. Voqif bilan O‘hon kelib ko‘rpachalarga o‘tirishdi. O‘hon hazilni yig‘ishtirib jiddiy, ammo hayajonli ovozda:

— Oxund, — dedi, — sening yoningga maslahatga keldim, bizning bu maliklar yana be’mani ish boshlashibdi. Xudo oxirini o‘nglasin...

Voqif qiziqish bilan chaqnagan ko‘zlarini O‘honga tikib diqqatla tinglay boshladi.

O‘hon so‘zida davom etardi:

— O‘ris podshosiga bir ariza bitib xon bizlarni unday qilayapti, bunday qilayapti, — deb yozishibdi. Qo‘l qo‘yib yuborishibdi.

Voqif achingan ohangda:

— O‘risdan nima so‘rashyapti, — dedi.

— Nima so‘rashardi, istaydilar o‘ris bu yerga kelib bir armani podsholigi tuzsin. Men, Oxund, bir narsadan qo‘rqaman: o‘ris bularga musulmonlarni qiringlar, deb o‘rgatadi, shunda boraman, deydi... O‘hon jim qoldi, hayajonidan gapira olmadi. — Oxirida bu sho‘rlik armani jamoasi qirilib ketadi. Vartapet Minasning qabriga o‘t tushsin!

Voqif o‘ychan ko‘zlarini quyoshdan to‘sib, suzib ketayotgan oq bulutlarga qarab jim turardi. Tevarakdagi daraxtlar oppoq gulga ko‘milgandi, bahorning rutubatli havosi yoqimli bir ifor bilan to‘yingandi. Voqifning ko‘zlari bu go‘zalliklar ichra aylanib, nihoyat O‘hon kashishga burildi:

— Masalani xonga yetkazish kerak — dedi. Jamoat qirilguncha qo‘y, besh malik hamda beshta isyon qilayotgan kashish o‘lgani ma’qul. Bu maslahat! — dedi va O‘honni diqqat bilan kuzatdi.

O‘sha zahoti turib xon huzuriga borishdi. Xon ahvolni bilib juda g‘azablandi. Sig‘noqlarga qo‘shin yuborib, osish, so‘yish haqida buyruq bermoqchi bo‘ldi. Voqif o‘ziga xos vazminlik bilan xon-

ni tinchlantirdi. O'hondan vaziyatni batafsil o'rganib, unga javob berishdi, so'ngra xonada ikkalasi yonma-yon o'tirib, maslahatlasha boshladilar.

Voqif ishontiruvchi bir ovozda dedi:

— Armanilarni qirg'in qilsak, o'risga yaxshi bahona bo'ladi, kelib seni taxtdan tushiradi, bu yerlarni armanilarga beradi. Bamaslahat ish ko'rish kerak. Ular yozayapti, biz ham yozaylik, mavjud holatni bildiraylik. Haqiqat ham, kuch ham biz tomonda ekanini bilib qo'yishsin. O'risning maqsadi Eronni ro'parasiga katta kuch chiqarib qo'yishdir.

Seni ham Fatali xon singari qo'lga olish payida. Bir hovuch armanidan biror foyda chiqmasligini o'ris qaydan biladi? Armani maliklarini va kashishlarini o'z tomoniga og'dirib, bizga qarshi qo'ymoqchi... Mening maslahatim shunday: bir yaxshi noma yozay, sening xon avlodi bo'lib yigirma yildan buyon Qorabog' yerida hukm surayotganingni, nufuzingni, kuchingni bildiray, o'zi ham... — Voqif biroz jim qoldi, keyin davom etdi: — O'ris himoyasiga kirishga, ham boj to'lashga tayyor ekanini aytay. Bu xat ertaga tayyor bo'ladi. Muso Sultonga beramiz, olib borib rus a'yonlariga topshiradi. Og'zaki javobini ham keragicha aytib, qaytadi. Vassalom. Muso Sulton viqorli va murosa qiladigan odam, bu ishni uddalay oladi. O'risni armani fitnasidan uzoqlashtirib, ishimizni qilaveramiz.

Xon taklifga rozi bo'ldi.

— O'tir, yoz! — dedi, va Muso Sultonning nomzodini ham ma'qul qildi.

Voqif xonning butunlay jim qolganini ko'rib:

— Xon, — dedi armani tentaklarining ham quloqlarini sal cho'zib qo'yish kerakka o'xshaydi.

— Malik Obo'ni hibsga oldir va zindonga soldir. Shuning o'zi yetarli. Boshqa tanbehning keragi yo'q!

Voqif saroydagi rasmiy xonasiga kirib, Yekaterinaga xat yoza boshladi. Bu Peterburg saroyining Qorabog'ga qarshi tuzgan rejasini butunlay o'zgarishiga sabab bo'ladigan xat edi. Armanilarning 1783-yil mart oyida Peterburgga etib borgan arizasi ustida knyaz Potyomkin — Tavricheskiy: "Ibrohim xonni taxtdan ag'darib,

Qorabog'da armani viloyati tuzilishi kerak", deb yozgandi. Voqif yozgan xat ayni aprel oyida Peterburgga yetib borib Potyomkin avvalgi qarorini o'zgartirgandi: "Ibrohim xonning bizga nisbatan asrayotgan sadoqati rus tsaritsasi uchun eng ajoyib bir bojdir" — deya Qorabog' hukmdoriga shoshilinch xabar yo'llandi.

4

1783-yilning iyun oyida Rusiya bilan Gurjiston o'rtasida ahdnoma tuzilib Gurjistonning Rusiya himoyasiga o'tishi haqidagi habar Ozarbayjon xonlariga yetganidek, Ibrohim xonga ham yetib bordi. Shu xabarga ko'ra, Gurjiston xoni mustaqil bo'lib o'rnida qoladi, saltanat huquqi Irakliydan keyin avlodlariga o'tardi. Gurjistonning o'zi pul ham chiqara olardi.

Tiflisga yuboriladigan ikki bo'luk rus qo'shini o'lkani har ehtimolga qarshi mudofaa qilishi kerak edi.

Ibrohim xon davlat arboblarini, og'alar va beklarni kengashga chaqirdi. Masala atroflicha muzokara qilindi. Ba'zilar Erondan, ayrimlar Turkiyadan madad so'ralishini ilgari surdi. Valiahd Mammadhasan so'z so'rab, ohista ovozda:

— O'rislar bilan muzokaralar olib borish zarur, — dedi. Zero, ularning o'zlari ham bunga muhtojlar: Apraksin degan bittasini buyoqqa yuborganlari ma'lum. Katta mamlakat, qonuniy qo'shini bor.

Mammadhasan og'aning taklifi munozalar tug'dirdi. Og'alardan bittasi taassufli bir ovozda dedi:

— Islom mamlakatiga kofirni kiritib bo'ladimi? Qur'oni karimni oyoq ostiga olishlarini istaysizmi? Yo'q, Alloh menga u kunni ko'rsatmasin! — deya norozi bir tus oldi.

Xon hayajonlandi va o'zini qo'lga olib:

— Xonlikni o'rusga beraman degan kim o'zi? — dedi. — Men tirik ekanman bunga rozilik berarkanmi?

Xonning ovozi bo'g'ildi, rangi qochdi, keyin chilim chekib o'ziga keldi. Xonning ahvoli majlis ahlini ham sukutga soldi. Chuqur sukunatni Voqifning yumshoq, lekin ishonch bag'ishlovchi ovozi buzdi.

— Xon sog‘ bo‘lsinlar, — dedi. Ojizingiz fikricha, hafsalasizlik ko‘rsatib bo‘lmaydi, eshikni dushman qoqayotgani yo‘q-ku! It bilan hamroh bo‘l, lekin kaltaging qo‘lingda bo‘lsin, — degan ota-bobolarimiz! Biz ham hamishagidek, avval yaxshi kaltak tayyorlashimiz kerak. Xon uch ming lazgi asrab turibdi, to‘rt ming o‘z qo‘shinimiz bor. Umar xonga yozib, o‘n ming lazgi so‘rashimiz lozim. Xonning benihoya xazinasi va oziq-ovqat zaxirasi omborlari katta lashkarning uddasidan chiqa oladi.

Keyin Tiflisga elchilar yuborish kerak: voliyni tabriklash bahonasida vaziyatni o‘rganishsin, o‘risning kattasi bilan uchrashib, fikr-mulohazalarini eshitib ko‘rsinlar.

Shu yerda Voqif gapdan to‘xtab, atrofdagilarni ko‘zdan kechirdi. Hamma diqqat bilan Voqifni tinglashardi. U shu vaziyatdan foydalanib oxirgi fikrni aytdi:

— Nima aybi bor, mayli elchilarimiz bizning ham o‘ris himoyasiga kirish orzumizni rus kattasiga eshittirishsin. Shu so‘zni aytish bilan himoyaga kirganimiz yo‘q-ku.

Voqifning so‘nggi fikri majlisdagilarning ba’zisini hayajonga soldi. E’tirozlar boshlandi. Yana dinning buzilishi, kofirning zafar qozonishi, armanilarning ustimizga oyoq qo‘yishi kabi masalalar qalqib chiqdi. Voqif muloqotlarni oxirigacha tinglab, kulimsirab bir ertak aytdi:

— Kunlardan bir kun, — dedi, — bir podsho jar soldirib, aytdiki, kimda-kim mening eshagimga til o‘rgatsa, unga bir hamyon tilla beraman, o‘rgata olmasa boshini jallodga uzdiraman. Bir keksa kosib kishi podsho yoniga kelib: “Men o‘rgataman”, — dedi. Tillalarni oldi va uch oy muhlat so‘radi. Uyiga qaytib kelganida xotini unga ta’na qildi: “Hoy — dedi, — eshak ham til o‘rganadimi, uch oy bir pasda o‘tib ketadi, podsho sening boshingni oldiradi, men bo‘lsam ora yo‘lda qolib ketaman.” “Xoy xotin, — deya kuldi eri, — hali uch oy muhlatim bor, shu uch oy mobaynida yo podsho o‘ladi, yo eshak, yoki men”. Endi og‘alar, himoya degan bilan himoyaga kirmadik. Vaqt bor, imkon bor, ko‘ramiz, kengashimiz nima qarorga kelsa shuni qilamiz.

Voqifning fikri va latifasi hammaga ma’qul bo‘ldi. Xonning ham kayfiyati ko‘tarildi, kulimsirab chilimini og‘zidan qo‘ymas,

chilimning shishasiga chizilgan qiz rasmiga qarab xayol surardi. Birdan xayollari tarqab majlisni ko'zdan kechirdi. Hamma ko'zini uning og'ziga tikkandi.

Xon biror qarorga kelishi lozimligini sezdi:

— Demak bunday, — dedi. — Oxund Mulla Panohning o'zi Tiflisga boradi. Unga beklardan ham qo'shamiz. Yozuv-chizuvini Mirza Jamol qiladi, yaxshi xat-savodi bor. Oxundga to'la ixtiyor beraman. Maslahat qanday bo'lsa shunday qiladi: o'zi oqil va odil odam.

Xonning taklifini majlis sukut bilan ma'qulladi.

5

Kuzning ajoyib pallasi. Daraxtlar gullar dastasi misol sariq va qizilga burkangandi. Yog'in mavsumi hali boshlanmagandi. Issiq chekingan, lekin havoda yoqimli bir iliqlik bor edi. Daraxtlar soyasi cho'zilgan, qizg'ish rangli barglar xiyobonlarni qoplab, oyoq ostida hazon shitirlardi.

Og'abayim kun bo'yi enagasi Nozli bilan saroy bog'ini aylanar, to'kilgan rangli yaproqlardan dasta yasar, enagasiga ming bir savol berardi. Enaga ham butun mehrini chiroyli qizaloqqa baxsh etib, u bilan bir hamroh sifatida gaplashar, har bir savoliga o'z bilganicha javob berardi. Nozli savodli emasdi, u shaharda ildiz otgan islom va Eron madaniyatidan bexabar edi. Lekin u o'z ona eli va ulusining asrlar osha davom etayotgan laparlari, afsona va dostonlarini bilardi: turk osori-atiqalari uning uchun rad etib bo'lmaydigan bir haqiqat singari yig'ilib ko'ngil daftariga qayd qilingandi. Xuddi shu qalb daftari har kun ochilar, uning tugamas sahifalari Og'abayimning oldida varaqlanardi. Bu daftar barcha tabiiy istaklarni izohlardi: qayerdandir ajdarho paydo bo'lib oyga tirmashayapti, uni bo'g'moqchi bo'layapti, shu ajdarhoni qo'rqitish uchun odamlar unga o'q otadi, mis idish chalib, shovqin solib uni haydamoqchi bo'lardi — bu oy tutilishi. Havo bulut bo'lganda osmondagi farishtalardan bittasi oltin otiga minib, uni olovli qamchisi bilan savalar ekan, ko'k gumburlar, olov qamchi havoda o'ynaydi. Qushlarning ham rivoyatlari shu daftarda yozilgandi: sassiq po-

pushak — hud-hud ayol kishi ekan, daryoda cho'milayotgan ekan, sochini tarayotganda birdan qaynotasi kelib qoladi. Ayol uyalib, yuzini ko'kka qaratib iltijo qilibdi: "Ey Tangri, meni qushga aylantir, toki hayom o'zimda qolsin". Buyuk Tangri uni qushga aylantiribdi, — qaragin, tarog'i ham boshida turibdi.

Yana Og'abayimni ertadan kechgacha ovuntiradigan yorqin afsonalar. Bu afsonalardan otin ayaning tushunish qiyin bo'lgan arab alifbosi va Qur'oni qizchaga og'ir ko'rinardi. Iloji qancha, o'qir, yod olardi. Bugun dars bo'lmagandi. Otin ayasi betob bo'lib qolgandi. Shuning uchun Og'abayim erta sahardan enagasidan ajralmagandi. Nahorgi nonushtaga borib, yana bog'ga chiqqandi. Endi quyosh botayotir, g'arb qontalash edi. Nozli Og'abayim og'aning qo'lidan yetaklab, dedi: kech bo'ldi, uyga boraylik.

Og'abayim tepalikka, saroyga qarab so'qmoq bilan xohlamaygina odimlab borar, ko'k yuzini qoplagan qizg'ish bulut parchalarini tomosha qilardi.

Birdan uning yuzini savol alomati qopladi:

— Enaga, — dedi, — ko'k yuzi nega qizillashadi?

Enaga to'xtab osmonga dardli-dardli qarab qo'ydi-da:

— Bayim, — dedi, — bir podsho bo'lgan ekan, o'sha podshoning yakka-yu yolg'iz, ko'zining oq-u qorasi bittagina o'g'li bor ekan. Podsho yana boshqa bir xotinga uylanibdi. Ikki kundosh bir-biri bilan hech chiqisha olishmabdi. Yangi ayol kundoshini yomonlab har kun eriga chaqar ekan, er bo'lsa katta xotiniga zulm qilar ekan. Bir kuni yangi xotin nayrang ishlatib, katta xotinining o'g'liga tuhmat qilibdi. Podsho g'azablanib o'z o'g'lining boshini oldiribdi. Bechora ona hovuchini tutib, o'g'lining qoniga to'ldiribdi-da osmonning yuziga sepib nido qilibdi: "Tangri bu nohaq qonni yerda qo'ymasin", — debdi. Qon osmonning yuziga yoyilib qolibdi... Qiyomat kuni mezon-tarozi quriladi, podshoni Tangri huzuriga olib kelishadi, ajrimi berilgach, ko'kning yuzidagi o'sha nohaq qon yo'qolib ketarkan.

Enaganing rivoyatini maroq bilan tinglagan Og'abayim jim bo'lib qolgandi.

Har zamon-har zamonda osmonning qizg'ish yuziga qarab qo'yar, murg'ak chehrasida g'am-g'ussa ifodasi aks etardi. To

uyiga yetib olguniga qadar Og'abayim boshi kesilgan bolani unuta olmadi.

Uyga kirarkan enaganing qulog'iga:

— Enaga, o'sha bola boshqa tirilmaydimi? — deb shivirladi.

Enaga javob berdi:

— Yo'q. O'lgan tirilmaydi, axir!

— Endi uni yerga ko'mishganmi?

— Ha, u tuproqning ostida, — dedi enaga.

Og'abayimning onasi To'to' bayim derazaning oldida o'tirib chilim chekardi.

Qizining enaga bilan pichirlashayotganini ko'rib:

— Bu bilag'on qiz yana nimani so'rayapti? — deb kulimsiradi.

— Osmon nega qizg'ish? — deb so'rayapti.

To'to' bayim og'a shahlo ko'zlarini suzib:

— Osmonning qizilini nima qilasan, a, alloma! — deya qahqaha urib kuldi.

Og'abayim qizarib onasiga qarab chopdi, onasi uni quchoqlab o'pa boshladi. Keyin enagaga tomon yurarkan:

— Enaga, ovqatini tayyorla, qizim charchabdi, yotgisi kelyapti, — dedi.

Enaga devordagi kichkina tokchaning o'yma naqshinkor eshikchasini ochdi: qatiq, murabbo, tandir noni oldi. Gilamning ustiga dasturxon yozilib, ovqatlar qo'yildi. Enaga Og'abayimni ovqatlantira boshladi.

Og'abayim istamaygina ovqatlanar, onasiga ketma-ket savol berardi:

Avvaliga qatiq va murabbo qanday tayyorlanganini so'radi. Non pishirilishini bilardi, lekin bug'doyning qanday o'sishini va tegirmonda unga aylantirilishini bilmasdi. Enaga bularni tushuntirdi. To'to' bayim chilim chekib, katta qizi To'bo'bayim bilan suhbatlashar va uni gapiga ishontirish uchun otasi Shohberdi xonning go'riga qasam ichardi.

To'to' bayim ganjalik bo'lgani uchun gaplashganda Qorabog'da tushunilmaydigan ba'zi so'zlarni ishlatar va To'bo'bayimning mazah qilishiga sabab bo'lardi.

To'bo'bayim ataylab:

— Oyi, yer xuyushdir[1]! — deya qahqaha urdi.

Onasi ham istehzo uchun:

— Tog‘ qalbidir[2], — deb qorabog‘lik qiziga hazillashdi.

Og‘abayim bu hazil-mutoyibani eshitishi bilan dasturxondan turdi:

— Yer huyushdir, yer huyushdir, — deb xonada yugura boshladi.

Hamma kuldi. Keyin To‘to‘ bayim jiddiy ovozda:

— Nozli, — dedi, — qizning sakrab o‘ynagani yetar, yuvintir, xonasiga kirit, keyin uyqusi qochishi mumkin.

Ibrohim xonning har bir xotiniga ikkitadan xona ajratilgandi. Bu xonalarning bittasi bolalar uchun edi. Enaga Og‘abayimni narigi xonaga olib kirib derazaning yonidagi taxta o‘rindiqqa yotqizdi.

Oy Bag‘riqon tog‘ining ustida pishgan olma misoli osilib turardi. Bog‘dan pastda, minoralarning tagidan tor ovozi kelardi. Kimdir dardli shikasta kuyini chalardi. Chap tomonda daraning ustidagi kiyolikdan kimdir kuyga javob qaytarardi. Bayotilarning ajoyibligi kechaning go‘zalligiga qo‘shilib Nozlining qalbini to‘lqinlantirib yuborgandi: u ro‘paradagi sirli koinotni humor ko‘zlari bilan kuzatar, navoni tinglardi. Go‘yo uning o‘zi ham asta-sekin erib, shu navolarga aralashar, yo‘q bo‘lib ketardi. Lekin Og‘abayim uning xumorlangan ko‘zlarini jajji va yoqimli iliqlik qo‘llari bilan ochib:

— Ertak ayt, ertak ayt, uxlama! — deya o‘jarlik qilardi.

Nozli ko‘zlarini uqaladi, keyin tirsaklari bilan Og‘abayimning to‘shagiga suyanib boshladi:

— Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, Tangri bor ekan. Uning bandalari juda ko‘p ekan. Ana shu bandalarining ichida bir O‘g‘iz degan jasur kishi bor ekan. Uning otining taqasi yerga tekkanda yer titrarmish, kishnaganda osmon gumburlarkan. O‘g‘uz ana shunday O‘g‘uz xon ekan. Kunlardan bir kun O‘g‘uz xon qo‘shini bilan kelib Temirqopqaga[3] yetibdi. O‘sha joyning podshosi darvoza orqasidan:

— Qo‘chqor boshimi, qo‘y boshimi?” — debdi. O‘g‘uz xon “Qo‘chqor boshi!” deb na’ra tortibdi. Podshoning qo‘rqqanidan

[1] **Xuyush** — nam degani.

[2] **Tog‘ qalbi** — qalbi yuksak degani.

[3] **Temirqopqa** — Darband.

yuragi to‘xtab qolibdi. Vazir va boshqa a’yonlar kelib podshoni hushiga keltirishibdi. So‘rashibdi: “Podsho omon bo‘lsin, sizga nima bo‘ldi?” Podsho debdi: Vazirlarim, a’yonlarim bu Temirqopqaga ko‘p podsho, shahzodalar kelishgan, hammasidan so‘raganman: “Qo‘chqor boshimi? Qo‘y boshimi?” deb. “Qo‘y boshi!” deganlari zamon boshlari Temirqopqaga urilib, parchalanib, yerga tushardi. Bu bo‘lsa: “Qo‘chqor boshi!” deb baqirdi, na’rasidan darvoza titrab ketdi. “Bu odamda xato bor”. Va’zir va a’yonlar maslahat — kengash qurib, darvozani ochibdilar. O‘g‘uz xon ichkari kiribdi.

Bayim senga kim haqida gapiray. O‘g‘iz xonning qizi Gultakin haqidami? Bu bir sanam ekan, kunduz quyosh kabi, tunda oy kabi nur socharkan. O‘zi ham juda jasur qiz ekan. Qiz qizlar lashkarining sarkardasi ekan. O‘g‘uz xon bir kuni o‘z qizi bilan Oronga kelibdi. Qo‘shiniga qarab shunday debdi: “Qizlar — bu yer Oron, tep-tekis joy — vodiydir. Men bu yerda bir tepa bo‘lishni istayman. Shu tepaning ustida butun Eron—Turon ellari aniq ko‘rinib turishini xohlayman.” Askarlar O‘g‘uz xonga bosh egib, har biri bir hovuchdan tuproq keltirib to‘kibdi. Tekis dalada katta bir tepa paydo bo‘libdi. O‘g‘uz xonning qizi Gultakin bilan tepaning ustida dunyoni tomosha qila boshlashibdi.

Eron podshosi ayni shu paytda uyida o‘tirgan ekan, mundoq qarasa Oron tomonda bir quyosh chiqibdi, ko‘zlari qamasha boshlabdi. Podsho vaziridan: “Bu nima?” deb so‘rabdi. Unga: “Bu quyosh emas, O‘g‘uz xonning qizi Gultakindir: kunduz quyosh, kechasi oy kabi nur sochadi”, — debdi.

Podsho barmog‘ini tishlabdi: ”O‘sha qizga men uylanishim kerak” — debdi. Butun qo‘shinini yig‘ib Oronga kelibdi. O‘g‘iz xon qarasa tepa etagidagi Toshni bir odam taqillatayotgan ekan. Xizmatchisini yuborobdi, kimligini bilib kelsin deb. Eron podshosidan Gultakinga sovchi kelibdi, deyishibdi. Gultakin buni eshitib butun lashkarini yig‘ib, Eron shohining oldiga chiqibdi. “Menga sovchi bo‘lib kelgan kim?” — debdi. Eron podshohi oldinga chiqibdi. Gultakin debdi: “Men shu paytgacha jang maydonida yengilgan emasman. Qaysi yigit meni yengsa, men o‘shanikiman. Shu maydon, ushbu qilich, marhamat!”

Gultakin bilan Eron podshosi o'rtasida qattiq jang bo'libdi. Gultakin Eron podshohini yengibdi, lashkarining quva-quva Arazning narigi tomoniga uloqtirib tashlabdi. Gultakin holdan toygan, qon va ter bosgan bir holda orqaga qaytibdi. Axtarib-axtarib O'g'iz xon o'tirgan tepani topa olmabdi. Oxiri kelib Bag'riqon tog'ining tepasiga chiqib o'tiribdi. Sochlarini yoyib tog'dan pastga osiltiribdi, otasini eslab yig'lay boshlabdi. Gultakinning ko'z yoshlari tomgan yerlardan binafshalar unib chiqibdi. O'sha paytdan beri bu tog'ning nomi Bag'riqon deb atalib kelinadi. Chunki o'sha joyda ota dardini tortib yig'lagan Gultakinning bag'ri qonga aylangan. Binafshalar ham boshlarini hamisha pastga egishadi, Bag'riqondan ko'z uzishmaydi, Gultakinning dardini eslab turishadi...

Ular yashab yeb-ichishdi, o'tib ketishdi, sen ham ye, ich, davringga munosib bo'l.

Nozli ertakni tamomlab, Og'abayimning yuziga qaradi: qizaloq qo'lini chakkasiga qo'yib, allaqachon uxlab qolgandi.

6

Voqif boshchiligida Tiflisga jo'natilgan Qorabog' hay'ati yo'lda qorbo'ronga uchrab ancha azob tortgandi. Tiflisga yetar-yetmas Irakliy xonning mehmondorlari ularni zodagonlardan birining uyiga olib borib dam oldirishdi.

Hay'at a'zolari ham, ularning otlari ham holdan toygandilar. Voqifning birinchi o'yi ta'rifini ko'p eshitgan Tiflis hammomini ziyorat qilish edi. Mirza Jamol o'ziga xos muloyimlik bilan:

— Oxund, — dedi, — yo'ldan keyin bu qorli havoda hammomga borilsa, sizni Xudo asrasin, zotiljamga chalinish mumkin.

Voqif yonoqlari qizil bu yigitga otalik mehri bilan qarab dedi:

— Bolam, men tog'larda o'sgan qozohman, sovuq, izg'irin menga kor qilmaydi. Suv yo'l charchog'ini aritadi, so'ng bir-ikki kun uyda o'tirib dam olamiz.

Mehmondor yangi otlar tayyorlagandi. Voqif suvsar po'stinini kiyib yo'lga tushdi, qo'ltig'iga naqshli bo'xchani qistirib olgan xizmatchisi ham unga ergashdi.

Qishning dastlabki oyi edi. Tiflisni qor qoplagandi. Shunga qaramay, rus qo'shini yetib kelgan va Tiflisga katta quvonch bag'ishlagandi.

Aholi Eron bo'yinturug'idan va lazgi hujumidan qutulganday ko'rinardi. Voqif Tiflisning ahvolini eng avval hammomda sovun surgich O'joqqulidan eshitdi.

O'joqquli Voqifni tosh supada cho'ziltirib, sovun surkab, uni oq ko'pikka belab, ikki qo'lini ko'pik ichiga cho'zgancha badanini ishqalardi. Voqif bu amaliyotdan badani yayrab, mastga o'xshab ba'zi savollar bera boshladi. O'joqquli sharq voqealari ichida katta bo'lgan va bu hodisalardan muayyan saboq olgan odam bo'lgani uchun Voqifga ehtiyotlik bilan qaradi va o'zi ham unga savollar bera boshladi:

— Og'a, kechirasiz, mehmonga o'xshaysiz?

— Balli, bu yerlik emasman.

O'joqquli ko'p ma'noli yuzini Voqifga yaqinroq tutib:

— Og'a, dedi, — Tiflisda ahvol yomon emas, inshalloh, yanada yaxshi bo'ladi. Biroz qiyinchilik ko'rdik. Keyingi paytlarda Erondan karvon kelmay qoldi. Qorni ko'rayapsiz-ku.

Sovunsurgich so'zlarini tamomlab g'alati kulimsirab Voqifga qaradi. Bu qarashda juda ko'p mulohazalar ifodalanardi: uni faqat sharqda yashagan ko'pni ko'rgan odamlargina izohlay olardi. O'joqqulining gaplarini sodda tilga o'girsak anglanilardi: "Tiflisda hayot juda og'ir, aholi kundalik zaruriy narsalardan ham mahrum. Chunki Erondagi va Ozarbayjondagi toj-u saltanat urushlari kosiblar hayotini zaharlamoqda. Ehtimol hali turmush yaxshilanib ketar, lekin bunga shubha bor". Har holda O'joqqulining "Qorni ham ko'rib turibsiz-u" jumlasining masalaga dahli yo'q edi: istibdod iskanjasida yashagan odamlar bunday jumlalarni ko'p ishlatar, buni "kirish yo'li" deydilar.

Voqif masalani anglab kulimsiradi:

— Qayerliksan? — dedi.

O'joqquli yana ayni ifoda bilan:

— Tabrizlikman... — dedi. — Bu yerga ziyoratga kelganman. Yana yurtimga qaytaman, oilam o'sha yerda.

Voqif masalani tushundi. O'joqquli bekorga urushlarda sudralib yurmay deb, yurtidan bosh olib ketgan, xotini, bola-chaqasini tashlab bu yoqlarga qochib kelishga majbur bo'lgan.

O'joqquli Voqifni ishqalab, yuvintirdi va kiyimini kiygizib tashqariga kuzatib qo'ydi:

— Og'a ko'rinib turibdi xayrli ish uchun kelganga o'hshaysiz. Bunday ob-havo sharoitida safarga xayrli ish uchun chiqadilar, — dedi. Uning yuzini yana ko'p ma'no anglatuvchi tabassum qopladi.

— Yaxshi bo'ladi, insholloh! Yaxshi bo'ladi! — deya ilova qildi Voqif.

Voqif hammomdan so'ng ikki kun uydan chiqmay, Tiflisga va voliysiga bitta she'r, yana Alyunga ham bag'ishlab yana bitta she'r yozdi. Ko'chirish uchun she'rlarni o'zi bilan olib kelgan hattotga berdi. Shaharni aylanish uchun chiqqan Mirza Jamol qaytib, Umar xon bilan Fatali xon vakillarining Tiflisga kelganini xabar qildi. Bu masala Voqifni o'ylantirib qo'ydi. U Umar xonning vakillari bilan uchrashish niyatida bo'lsa ham ehtiyot bo'lardi: bu uchrashuv yanglish gap so'z tug'dirishi mumkin edi: Fatali xonning odamlariga bir bahona kerak edi. Voqif ana shu mulohazalarga borib, Irakliy xonni rasman tabriklagunga qadar birov bilan uchrashishni lozim topmadi. Lekin Voqif bilan uchrashishni istaganlar borligi ma'lum bo'ldi.

Voqif kelganining uchinchi kuni xizmatchi bir tojirning u bilan uchrashish niyati borligini aytdi.

— Nima ish qilarkan, kim o'zi? — so'radi Voqif qiziqib.

— Og'a, qo'ltiqchi[1] ekan, ipak mol olib kelibdi.

Voqif ehtiyotkor bo'lsa-da, rozilik berdi. Ichkariga gurji qiyofadagi tekis soqolli bir odam kirdi.

— Ruxsat etasizmi, afandim hazratlari? — deganida Voqif bu odamning Rum diyoridan ekanini sezdi.

— Marhamat! Marhamat! — dedi-da o'choq yonidan joy ko'rsatdi. Keyin ishora qilishi bilan ichkaridagilar boshqa xonaga o'tishdi.

[1] **Qo'ltiqchi** — savdogar.

Qo'ltiqchi — tojir mollarini ochib ko'rsatdi. Chiroyli farang va Istanbul gazlamalari shoirni hayron qoldirdi. Savdogar mollarni ko'rsatarkan, asl maqsadini muloyim bir til bilan tushuntira boshladi. Bu odamning Axisxa poshosi Sulaymonning vakili ekani ma'lum bo'ldi. Tiflisga yashirin ravishda Ozarbayjon xonlari vakillari bilan uchrashishga kelgan va sir ochilmasligi uchun tojir kiyimida kirgan edi. Masala ruslarning Terek daryosi ustiga ko'prik solib, tog'lardan yo'llar ochib Tiflisga kelishi xususida edi.

— Birodar, bu yo'llar faqat askar emas, og'ir to'plar va zambaraklar tashib keltirish uchun qurilmoqda. Bugun Tiflis ertangi Qorabog', keyingi kun esa Eron va Usmoniya davlati yerlariga bostirib kirishadi va kofir xanjari islom bo'g'ziga sanchiladi.

Sulaymon poshoning vakili ruslar xususida uzoq gapirdi va barcha xonliklarni birlashishga va qarshilik ko'rsatishga da'vat etdi.

Voqif jimgina ahvolda vakilni tinglar, va ora-sira o'choqni otashkurak bilan kavlab qo'yardi:

— Usmonli davlati bilan Rusiyaning aloqasi qanday? — deb so'radi.

Vakil ko'zlarini chaqnatib hayajon bilan:

— Afandim, — dedi, — sakkiz yil burun Kichik Qaynarcha bitimiga muvofiq Moskov bilan sulh holatida ekanimizni bilasiz. Bu olti yillik shiddatli janglarning bir hujjati sifatida bizni hozircha ba'zi tashabbuslardan mahrum qilayotir. Ahvol shunday davom etsa, albatta...

Shu payt eshik ochilib, xizmatchi mehmondorning kelganini xabar qildi.

Voqif vaziyatini o'zgartirmay: — Marhamat qilsinlar! — dedi va gazlamaning o'ramini quchog'iga olib, vakilga:

— Mana bu menga ma'qul keldi, narigilarini ham och-chi, bir ko'ray...

Mehmondor ichkariga kirganda Voqifni gazlamalarni tanlash bilan mashg'ul ekanini ko'rdi, u savdo bilan shu qadar band ediki, mehmondorning ichkari kirganini go'yo sezmay qolgandi. Birdan gazlamalarni qo'yib:

— Kechir, o'g'lim, — dedi, marhamat, o'tir!

Mehmondor tavoze bilan dedi:

— Oyning yigirma sakkizida, ertaga emas, indinga rasmiy ziyorat bo'ladi, shuni xabar qilgani keldim. Shu kuni podsho tashrifingizni kutadi...

Voqif darrov:

— Juda soz, o'g'lim, — dedi.

Shu asnoda ko'chadan musiqa tovushi eshitildi. Voqif derazaga yondoshdi: ko'chadan zirhli suvoriylar va gurji jarchilari musiqa dastasi bilan birga yurib bayram bo'lishini e'lon qilardilar.

Yanvarning 22-sida erta sahardan 101 zambarakdan ochilgan o't bayram boshlanganini Tiflis aholisiga ma'lum qildi. Rasmiy Saf Chor vakili polkovnik Burnashov yashayotgan uydan boshlanib, Irakliy xonning saroyiga borishi kerak edi. Voqif hay'ati bilan o'sha yerga bordi. Ammo Safga rasman qo'shilmadi, bir chetda turib tomosha qila boshladi. Ko'chaning ikki tomonida qurolli tiflisliklar turardi, o'rta bo'sh edi. Saf olg'a jildi. Oldinda yetakchi tashabbuskorlar, ular orqasidan gurji suvoriylari, ulardan keyin esa ikkita rus bo'luki borardi. So'ngra bosh tashrifotchi va Irakliyning bosh kotibi rahbarligida 24 suvoriy zodagon o'tdi. Yana bir otliq rus zobiti, orqasidan piyoda yurayotgan kichik rus zobitlari ko'rindi: qo'llarida rus tsaritsasining Irakliyga jo'natgan hadyalarini ko'tarib borardilar. Bu hadyalar — bayroq, qilich, cho'qmor, toj va farmondan iborat edi. Hadyalarning har ikki tomonida gurji zodagonlari borardi. Keyin bir rus zobiti kelardi. Saf gurji suvoriylari bilan tugadi.

Voqif otini qaytarib, yon ko'chalar bilan saroyga qarab haydadi. Qor tizzaga chiqardi, yo'llar ham qiyalik va tepaliklar orqali o'tardi. Saroyning oldida safni rus qo'shinining musiqa dastasi va gurji surnaychilari kutib oldi. Tanatanavor yurish saflari saroy darvozasidan ichkari kirgandan keyin Voqifning hay'ati ham qo'shildi. Mehmondor ko'rsatgan joyda Voqif va uning odamlari otdan tushishdi. Voqif jilovdorlar, yo'lboshlovchilar va o'zi bilan olib borgan Safarni otlarning yonida qoldirib, beklar va Mirza Jamolni olib zinapoyadan ayvonga ko'tarildi. Tashrifotchi ularni ehtirom bilan qarshilab, qabul zaliga olib bordi. Barcha rus zobitlari, gur-

ji a'yonlari qimmatbaho gilamlar to'shalgan ana shu zalda edilar. Irakliy xon taxt oldida turar, atrofini xonzodalar, bosh kashishlar, vazirlari, a'yonlari o'rab olgandi.

Voqif ko'rsatilgan yerda o'tirib, marosimni zo'r maroq bilan tomosha qilardi.

Rus zobitlaridan biri oldinga chiqib Irakliy xonni Rusiya himoyasiga o'tishi munosabati bilan tabrikladi, keyin Peterburgdan yuborilgan hadyalarni birma-bir kichik zobitlar olib Irakliyga berdi. Nihoyat kumush va oltin bilan jilo berilgan jildga solingan farmonni taqdim etdi.

Irakliy xon hadyalarni tik turib qabul qilar va atrofidagilarga berardi, faqat toj va cho'qmorni o'z yonida baxmal yostiqlar ustiga qo'ydi.

Tsaritsaning farmoni taqdim eitilishi bilan tashqaridan 101 zambarakning o't ochishi eshitildi. Shundan so'ng Irakliy xon yetti o'g'lini va ikki o'g'il nevarasini taxtning zinalariga qo'yib o'zi taxtga chiqdi va o'sha yerdan hadyalarni taqdim etgan rus zobitiga tashakkur bildirdi.

Shu bilan marosim tugadi, Rusiya vakillari birma-bir oldinga chiqib Irakliy xonning qo'lini qisar va tabriklardi. Gurji a'yonlari va ma'murlari hukmdorning qo'lini o'pardi, ba'zilari hayajondan yig'lardi. Navbat Voqifga keldi viqor-la yurib borib Irakliy xon bilan qo'l olishdi, sal engashib:

— Ajdodingiz taxtida poyi qadam bo'lingiz, — dedi. Qorabog' hukmdori, faxrimiz Ibrohim Xalil xon oliy hazrat-la yigirma yildan buyon do'st va ittifoq bo'lib tinch yashab kelayapsizlar insholloh, kelgusida ham sadoqat va vafodorligimizda poydor bo'lgaymiz.

Irakliy qoshlari ostidan Voqifga qarab, turkcha dedi:

— Shubha qilmayman! Do'stim Ibrohim Xalil xonga ko'pdan ko'p salomlarimni yetkazing.

Voqif gapirarkan uning so'zlarini tarjimon taxt yonida turgan polkovnik Burnashov tarjima qilar, u ham Voqifni diqqat bilan kuzatib boshini tebratardi.

Marosimdan keyin mehmonlar tamaddixonaga chaqirildilar. Gurji zodagonlaridan bittasi tulumboshi — tamada qilib saylandi,

dabdabali ziyofat boshlandi. Tamadaning taklifiga binoan chag'irlar muguz qadahlarga quyildi.

Tsaritsa Yekatirinaning sharafiga nutq aytilib, tikka turib ichildi: tashqarida yana 101 marta zambarak otildi. Ikkinchi qadahni "Zoti hazratlari" (bitimga ko'ra Gurjiston podshosiga shu unvon berilgandi) Irakliyning sog'ligiga ko'tarishdi, 51 zambarak gumburlashi ostida qadahlar sipqorildi...

Rasmiy qadahlardan keyin Voqifga so'z berildi. Voqif oyoqqa turganda tilmoch Burnashov tomon engashib, Voqifning so'zlarini unga tarjima qilishga tayyorlandi. Qorabog' vaziri o'ziga hos viqor va sovuqqonlik bilan o'ralib shim belbog'iga qistirilgan qog'ozni chiqarib ochdi va go'zal bir tovush bilan o'qidi:

Voh, bu bog'ning na ajab sarv dilorolari bor,
Har taraf yangi ochilgan gulira'nolari bor.
Ochilib yangi-yangi lola-yu humrolari bor,
Ya'ni Tiflisning ajib dilbari zebolari bor,
Ey ko'ngil, yayra ko'rib, turfa tomoshalari bor...

— deya boshlangan bu she'rni aksari turkcha biladigan gurjilar zo'r havas bilan tingladilar. Lekin she'rning oxiri turlicha talqinlarga sabab bo'ldi.

Voqifo, senda-ku, yo'qdir bilaman, toat-ibodat,
Shart ixlos kerak aylagaysan endi ado,
Ayla bu valiyga, o'g'illariga xayri-duo.
Asrasin ularni o'z hifzi panohida Xudo!
Nasib etgay na qadar dilda tamannolari bor.

Bu parchadagi "voliy"[1] so'zi eng avval Irakliyga yoqmadi. Chunki endi Irakliy Eronning to'rt voliysidan biri emas, Rusiya himoyasiga o'tgan mustaqil bir podsho edi. Burnashov ham mamnun bo'lmadi: Rusiya qo'shinining dabdaba bilan Tiflisga kirib kelishi, tsaritsa Yekaterinaning dunyoga dovruq solgan shuhrati kichkina Qorabog' xonligining rasmiy vakilining diqqatini ham

[1] **Voliy** — hokim.

jalb etmagandi. Burnashov ilk daf'a sharq diplomatiga, uning ehtiyotkorligiga duch kelayotgandi. Tabiiyki, Voqif "voliy" o'rniga "podsho" desaydi, bu so'z bilan Eronga nisbatan bo'lgan aloqani buzgan bo'lardi, bu esa hozircha Qorabog' xonligining foydasiga emasdi.

Keyingi kuni Voqif kalisoga[1] borib Irakliyning Rusiya bilan tuzilgan bitimga sodiq qolishiga doir ichgan qasami marosimida ishtirok etdi. Voqif Tiflisda ikki hafta qoldi. U Irakliy xon bilan boshqa uchrasha olmadi, chunki bitimga ko'ra Gurjiston podshosi faqat polkovnik Burnashov vositasi bilangina aloqaga kirisha olardi va Rusiya vakilining maslahatisiz biror qadam bosolmasdi. Irakliyning bu vaziyatidan mamnun bo'lmagan Voqif rasmiy olamni tark etib, Tiflisni tomosha qilardi. U endi faqat bir shoir, go'zallarning hassos oshig'i edi.

Kalisodagi qasamyod marosimidan so'ng yanada ko'proq u yerdagi bir gurji dilbariga shaydo bo'lib qolgandi. Shu dilbarga nisbatan uyg'ongan jo'shqin ehtirosini o'sha kuni bayoziga qayd etdi.

Sha'niga vash sayqal berib zulfi binafsha nisbatga,
Parda mutloq tutmagan siymoviy — sadr-u suratga,
Qil tomosha gardanga! Boqqim keldi qomatga!
Qosh, ko'z, g'amza-yu karashmasi aylanibdir ofatga,
Etgani din mulkini yag'mo kalisodan chiqar!

Voqifman, to ko'zim uning tushdi qoshiga,
Istadi mehrob-u minbardan xayolim doshina[2],
Endi bildimki, ne kelganin Shayx Sanon boshiga,
Yo shuldirkim, Tiflisni g'arq etgum ko'z yoshiga,
Ul sanam vasli mening-chun yo kalisodan chiqar!..

Voqif Tiflis go'zallarining nash'asi bilan havolanib she'riyat osmonida suzar ekan, mehmondor keltirgan xabar ila uni yerga tushirdi. Irakliy xon Qorabog' elchisining polkovnik Burnashov

[1] **Kaliso** — cherkov.

[2] **Doshina** — ketsin, qochsin.

bilan uchrashishini tavsiya qilardi. Voqif Irakliyning taklifini mamnuniyat-la qabul qildi, kun va soat tayin etildi.

Voqif Qorabog‘ xonligining kuch-qudratini namoyish qilish uchun alohida bir dabdaba bilan Burnashov yoniga bordi: kumush egar-jabduqli otini mindi, ikki jilovdor otni yetaklar, qo‘riqchi orqasidan borar, qurolli navkarlar ham go‘zal Qorabog‘ arg‘umoqlarini yo‘rttirib ular ketidan borardi.

Safar ham otini oldinda haydab, yo‘l bo‘shatish uchun xabardorlik qilardi. Voqif beklarning borishini lozim topmadi. O‘zi bilan faqat hay’at kotibi Mirza Jamolni olgan edi.

Voqif Burnashov yashayotgan uyning ayvonida ustki po‘stinini yechindi, navkarlardan bittasi uning yelkasiga suvsar mo‘ynali ipak xirqa tashladi, shu qiyofada ichkari kirdi. Burnashov stolining yonida tikka turardi. Uning tizzasigacha tortilgan paypoqlari, ingichka poyabzali, uqali chakmoni, tumori, ko‘ksidagi xoch va yulduzlari, nihoyat ustiga oxir sepilgan mayda sochli parik va qirtishlangan yuzi Voqifga tanish bo‘lsa ham uni qaytadan qiziqtirdi.

Stolning orqa tomoniga ilingan qimmatbaho gilamning ustidan Yekaterinaning kattakon rasmi osib qo‘yilgandi. Voqif rus tsaritsaning rasmini ilk marta ko‘rayotgandi, u bu suratga bir qarab, nazarini Burnashovga burganda, bu ikki siymo orasida qandaydir o‘xshashlik sezdi: yumaloq yuz, ola ko‘zli Burnashov ham ayolga, xususan Yekaterinaga o‘xshardi.

Negadir Voqif sezilmas bir tabassum-la: “mol egasiga o‘xshamasa harom o‘ladi”, degan maqolni esladi. Burnashov unga yaqinlashgan Voqifga nazokat-la qo‘l berib, stolining oldidagi yumshoq o‘rindiqda unga va kotibiga joy ko‘rsatdi. O‘tirishdi.

Tilmoch ham kelib o‘tirdi. Nazokat yuzasidan bir qator rasmiy so‘zlardan so‘ng Burnashov Yekaterinaning adolat va marhamatidan, Tiflisga qo‘shin yuborishda hech qanday istilo fikrida bo‘lmaganidan, faqat aholiga osoyishtalik va baxtiyorlik tilashidan ekani haqida gapirib, asosiy masalaga o‘tdi.

— Biz muhtaram hukmdoringiz Ibrohim Xalil xon bilan ham do‘st bo‘lish niyatidamiz. Marhamatli tsaritsa sizlarga ham himoyachi qo‘lini cho‘zishni istaydi. Xon faqat bizning himoyamizdagina o‘z taxtida boqiy qola oladi.

Voqif bu so‘zlarni tinglar va sharqliklarga xos shubha bilan Burnashovning ingichka lablarini va oppoq tishlarini tomosha qilardi. Burnashov so‘zini tugatishi bilan Voqif boshladi: Qorabog‘ xonining Chingiz nasliga va Argun sulolasiga mansubligini, Shusha singari sharqning kaliti hisoblangan mustahkam bir qal’aga molik ekanligini, kuch va qudratini, Tabrizga qadar hukmi yetishini birma-bir gapirib berdi va:

— A’lo hazratlari tsaritsa bilan ham, — dedi, — do‘st bo‘lib yashashga mushtoq va umiddamiz. Lekin...

Shu o‘rinda Voqif to‘xtab, jiddiy bir qarash bilan Burnashovga tikildi va Irakliyning tuzgan bitimiga ishora qilib, ayni shu sharoitni Ibrohim Xalil xonning ham maqbul ko‘rishini sezdirdi.

Burnashov kulimsiradi. Bu. kulimsirashda chor Rusiyasi vakilining ushbu vaziyatga rozi bo‘lmagani oshkora ko‘rindi. Voqif masalani angladi, lekin bo‘sh kelmadi: Eron voqealariga o‘tdi. Ibrohim xonning Eron taxtini qo‘lga olishi singari qilingan takliflarni eslatib o‘tdi.

Burnashov chehrasi asta-sekin tundlashib, yana ochildi:

— Siz, — dedi, — a’lohazrat tsaritsaning oliyjanobligiga ishonishingiz kerak. Sizlar uchun bu marhamat ulug‘ bir ne’mat bo‘la oladi.

Voqifning ham yuzi biroz qat’iylashdi.

— Marhamat katta ne’matdir, — dedi, — to‘g‘ri marhamat qilasiz, ammo mamlakatlar o‘rtasidagi munosabat va aloqalarning ham qonun va qoidalari bor.

Burnashov yana ishonch va marhamat masalasini o‘rtaga tashladi, tsaritsaning Qrim xoniga nisbatan qilgan “adolati”ni dalil qilib keltirsa-da, Voqifni qoniqtira olmadi. Voqif Irakliy bilan tuzilgan bitimni nazarda tutib, ishoralar qildi, bu fikrlar o‘z shaxsiy fikrlari bo‘lib, Ibrohim Xalil xonning hali go‘yo qanday rayda ekanini bilmasligini ilgari surgan holda Burnashovni og‘zidan ilintirishga harakat qildi. Nihoyat, Burnashovning xochparast Gurjistonga va musulmon Qorabog‘ga boshqa bir nazar bilan qarayotganini sezib diltang bo‘ldi.

Endi Voqif ayni suhbatga yana qaytishni istamas, Burnashovning tsaritsaning marhamatiga bag‘ishlangan suhbatini dahldor bir

kin bilan tinglab jim qolardi. Nihoyat, Voqif Burnashovning o'jarligiga javob tariqasida ushbu masalaga butunlay daxli bo'lmagan suhbatlarga o'tib, Chor vakilining hafsalasini pir qildi.

7

Voqif Shushaga kelishi bilan Ibrohim xonning huzuriga kirib Tiflisda ko'rganlarini va eshitganlarini gapirdi. Ruslarning gurjilarga munosabati va Qorabog'ning shartsiz va bitimsiz Rusiya tobeligiga o'tishi haqidagi taklifi xonni jig'ibiyron qildi. Uning hamishagidek faqat iyagi emas, butun vujudi g'azabdan titray boshladi.

— Mayli, — dedi, — bas sen mening kuch-quvvatimni, qal'aning mustahkamligini aytmadingmi?

Voqif sekin ovoz-la javob berdi:

— Xon, hammasini aytdim... Barini gapirdim, tushuntirdim...

— Xo'sh, nima bo'ldi.

— O'z bilganidan qolmadi.

Xon indamadi, lekin asablari ich-ichini tirnardi. Otashkurak bilan o'choqning cho'g'ini titkilar, o'ylanardi. Voqif xonni tinchlantirish uchun:

— Xon, — dedi, — it itning oyog'ini bosmaydi, deydilar. Irakliy xochparast, o'ris xochparast. Bizga nisbatan adovatlari bor. Buning ustiga o'rislarning oyoqlari yerga tegdi: usmonlilarni yengishdi, Qrimni olishdi. Bu g'alabalar o'rislarni quturtirdi. Ularning esa nizomli qo'shinlari, zambarak, to'pxonalari, dastgohlari joyida.

Xon indamas, yana titroq qo'llari o'choqni aralashtirardi. Birdan hushiga kelganday bo'ldi:

— Alimammadning orqasidan odam yuborganman, kelsin ko'ramiz, maslahatimiz qanday bo'lishini, — dedi.

Voqif nekbin bir ovozda:

— Xon, — dedi, — o'rislarni yumshatmoq uchun vosita ko'p: hozircha qal'ani yanada mustahkamlash, yangi zambaraklar olish, qurol-yarog'imizni, oziq-ovqat zaxiramizni ko'paytirishimiz lozim. Tayyorgarlik ko'rayotganimizni armanilar Tiflisga xabar qilishlari tayin. Ko'raylik-chi, nima bo'ladi. — Voqif biroz jim

qoldi, keyin ehtiyotkorlik bilan qo'shimcha qildi: — Fatali xon Alloh degudek bo'lsa, ehtimol...

Xon Fatali xon so'zidan yana g'azablandi:

— O'sha qanjiqning so'zini gapirma! — dedi. — Uning ipi ustiga o'tin yig'ib bo'larmidi? U kofirdan ham yomon!

Eshik ochildi, Mirza Alimammad og'a ichkari kirdi. Sovuqdan burni qizargandi, kipriklari qirov bog'lagandi. Salom berib o'tirdi. Qizargan ko'zlarini bir-biriga ishqalab, o'ychan bir holda shishalari turlangan rangin derazaga qarardi. Xon otashkurakni yerga qo'yib, yuzini o'ng tomonida o'tirgan Mirza Alimammad og'aga o'girdi:

— Qanday yangilik bor? — dedi.

Mirza Alimammad og'a itoat bir vaziyat olib, qo'llarini tizzalari ustiga qo'ydi:

— O'sha kungi xabardan boshqa, yangi biror narsa yo'q: o'rislar Og'amammad xonga juda ko'p sovg'alar va to'nlar yuborishibdi. Avval tanishni istamasdilar, endi negadir qiliq chiqarishyapti. Alimurod xon Isfahonda mahkam o'tirib, Og'amammad xonni tanishni xohlamayapti. Bosh qo'mondon Sodiq xonni taxtdan ag'darib, 18 o'g'li bilan birga halok qilgan. Tojirlar olib kelgan xabarga ko'ra, Farangiston Isfahonga elchi yuborib surishtirishlar olib bormoqda.

Voqif bu suhbatlarni tinglab, tasbeh o'girar va o'ylardi. Mirza Alimammad so'zini tugatgach, xon Voqifning yuziga qaradi, bu ishora edi: Voqifdan maslahat so'radi. Voqif qad rosladi, ko'zlari chaqnadi:

— Xon, — dedi, — bu xabarlar shuni ko'rsatadiki, hozircha Erondan bizga ozor yetmaydi. — It it bilan talashayapti, yo'lovchining ishi o'ngidan keladi: masala o'ris masalasidir. Armani maliklari va kashishlari bu yerda bo'lganlarning ustiga beshni qo'shib o'risga yozayaptilar, "bog' unday, bo'ston bunday" deyaptilar, o'rislar esa ishonishyapti. O'ris bilan bo'lgan muammoni izga solmoq lozim. Kuch-quvvatga qolsa, bizlar eplay olmaymiz. Biz tomondan o'zi, ikkinchi tomondan Fatali xon... — Voqif gapdan to'xtadi, negadir o'choqning chetiga tushib qolgan ko'sovni otashkurak bilan olib, olovning ichiga otdi va so'zida davom etdi:

— Tadbir ishlatishimiz kerak. Sulaymon posho bilan aloqaga kirish lozim. Umar xon hujumga tayyorlanishi darkor. Xonligi qo'lidan olingan Og'asi xonga yordam berishimiz kerak: Shamaxi xoni Mammadxasanning ustiga bostirib borsin; bilasiz Fatali xonning qizi Mammadhasanning o'g'lida, qarindoshlik bahonasida Fatali xon Shirvonni idora qilayapti. Shaki xoni Hoji Abdilqodir ham tinch turgani yo'q, u ham Fatali xon bilan apoq-chapoq. Bunga nisbatan ham biror chora topish kerak bo'ladi... Bu tadbirlar ko'rilmasa, boshimizni omon saqlay olmaymiz.

Xon g'amgin bir ohangda:

— Abdilqodir... Abdilqodir... — deya boshini sarak-sarak qildi va alam bilan dedi:

— Kimga ishonish mumkin! Non-namak haqqi-hurmati qolmagan bo'lsa?! Bu Abdiqodir xo'tik Makka ziyoratidan qaytib, Ko'ra sohiliga sig'ingandi. Boshini qayerga urishni bilmasdi. Qumuq xoni Mammad kelib akasi Og'akishi xonni o'ldirib Shaki xonligiga ega chiqqan edi. Akasining o'g'li Husayn xon Og'asi xondan yordam oldi. Mammad xonni quvib Shakida xon bo'ldi. Bu Abdilqodir xo'tik yonimga odam yubordi, yalinib-yolvordi. Rahmim keldi... hamda Fatali yog'iy bo'ladi deb o'yladim. Yordam yubordim. Shakiga hujum qilib, akasining o'g'li Husayn xonni bo'g'dirib, o'rniga o'tirdi... Buning evaziga endi menga yog'iy bo'lib o'tiribdi... Eh, Oxund, insonning yuzi teskari bo'larkan!

Voqif kulimsiradi.

— Xon, — dedi, — dunyoning ishlari hamisha shunday bo'lgan, shundayligicha qoladi! Zo'ravonlik va hiyla! — gardishi davronning loyi zo'ravonlik va hiyla bilan qorilgan. Insofga sig'masa ham shunday! Hoji Abdilqodirning uddasin yana sho'rlik Husayn xon Mushtoqning o'g'li Mammadhasan xon chiqa oladi. O'shandan beri u bu yerda bekor o'tiribdi. Ertaga buyur, borib Jar tomonda qo'shin tadorigini ko'rsin.

Voqifning taklifi xonga ma'qul keldi. Hoji Abdilqodir xon Dordoqqozda qo'shin to'plarkan, Shaki hukmdori Husayn xon Mushtoq o'g'li Mammadhasan xonni Abdilqodirning yoniga yuborib yarashuvni taklif qilgandi, u ham akasining nevara-

si bo'lgan Mammadhasan xonni ushlab, qo'li bog'liq holda uni Ibrohim xon o'ldirsin deb Shushaga yuborgandi.

O'sha payt Voqifning maslahati bilan Mammadhasan o'ldirilmadi, Abdilqodir xonni rozi qilish uchun Mammadhasan xonning ko'ylagi qonga belanib unga yuborilgandi. Endi Voqif vaqti kelib omon qolishiga sabab bo'lgan Mammadhasan xondan foydalanishni istar edi.

Maslahatlashuv shomdan bir-ikki soat o'tguncha davom etdi. Voqif bilan Mirza Alimammad xon huzuridan chiqdi. Xon o'choq yonida yolg'iz qolib, yana otashkurakni qo'liga olib o'choqni kovlashtira boshladi. Hizmatchi ayol astagina odim bosib unga yaqinlashdi:

— Xon omon bo'lsin, qaysi xonada dasturxon yozay, — deb kuta boshladi.

Saroy odatiga ko'ra xon qaysi xotinining yonida shomni kutsa, kechani ham o'sha yerda o'tkazardi. Shu tufayli xizmatchi ayol har oqshom xonning rayini bilishi kerak edi.

Xon oqsochga bir necha soniya javob bermadi, keyin titroq ovoz bilan:

— Tamaddini shu yerda qilaman, — dedi, — g'ulomga ayt, o'choqqa o'tin qalasin!

Oqsoch ta'zim qildi.

— Xo'p bo'ladi, — deb chiqib ketdi. Shomdan keyin xon yana charsillab yonayotgan o'choq yoniga o'tirdi. Avval ovqatning ta'siri bo'lsa kerak, biroz xotirjamlandi, so'ngra asta-sekin yana asabiylashdi. Voqifning Tiflisdan keltirgan xabarni qayta-qayta eslab, g'azablana boshladi: "Men necha marta yordam berib, tanglikdan qutqarganim Irakliyga toj kelsin, sovg'alar kelsin... Menga esa shartsiz-sababsiz tobe'lik taklif qilinsa?! Men shu kunga qoldimmi? Men Panoh xonning o'g'li Arg'un xon avlodi?!"

Barcha Ozarbayjon xonlari mening maslahatim-la ish ko'rishsin-u, men kofirga bo'ysunaymi, qul bo'laymi? Fatali qanjiq, bunaqangi dushmanchilik! Sendan mening nimam kam?! Abdilqodir xo'tik ham oyoq ko'taryapti. Bular hammasi o'sha so'zidan qaytgan Irakliyning ishi. Yeding Yerevandan va Ganjadan kelgan tumanlarni!..

Bu o‘tin muncha yaxshi yonayapti... Damirog‘ochning yaxshi cho‘g‘i bo‘ladi. Mana bu do‘lana ham faqat tutun chiqaradi, na issig‘i bor, na olovi... Eh nima qilay, qo‘limda imkon bo‘lsa, Qubaning kulini ko‘kka sovuraman, Shakining o‘rniga arpa ektiraman.

Sham ham tez eriydi... Qiziq, moyini nimadan tayyorlasharkan? Ko‘pdan beri boshlar o‘rnidan o‘ynamagandi. Eh ko‘ppak bolasi maliklar!!!

Soatlab davom etgan o‘ylar Ibrohim xonni band etdi, u asabiylashdi, uyqusi butunlay qochdi. Nihoyat, uning og‘irlashgan boshiga bir yengillik keladi, go‘yo boshi berk ko‘chada bir yorug‘ ko‘rinib, uni qiyinchilikdan qutqardi. Xon Voqifning tadbirlarini esiga olib jim qoldi. Birdan asabiy bir kulish uning vahimali chehrasiga halimlik sochdi. Bu soatlab chekkan azobi unga o‘rinsiz va kulgili ko‘rindi. Xon oyoqqa turib, esnadi, yayrab kerishdi. Antiqa bir titrash butun vujudini qoplab, jimirlatib o‘tdi. Shamdonga qaradi, shamning so‘ngi shu’lasi olovlanib jizillay boshlagandi. Boshqa bir shamdondan sham olib yondirdi jizillayotgan shamning ustiga bosdi. Butunlay xotirjam bo‘ldi. Shamdonni olib xonadan chiqdi. Uyoq-buyoqqa qaradi, devor tagida tik turgan xos xizmatchiga qaradi:

— Shamlarni o‘chir, borib yot! — deb haram doirasiga o‘tdi. Mammadhasanning onasi hurrak otayotgandi. Xon yurishdan davom etdi. Qoradog‘li Shohnisa xonim yuzini devorga o‘girib uxlab yotardi. Keyingi xona Malik Shohnazarning qizi Hurzodniki edi. Undan so‘ngisida Shohberdi xonning qizi Xurshid bayim yotardi... Xon bu katta yoshli xotinlari yonida qolmasdi. Hozir ham e’tibor bermay o‘tdi. Ungutlik Allohyor bekning qizining ko‘rpasi tushib ketgandi, xon uni to‘g‘rilab qo‘yib o‘tib ketdi. Borgan sari sham erib barmoqlarida qotib qolardi. Ganjalik Javad xonning singlisi To‘to‘ bayim oppoq bilaklarini boshi ostiga qo‘yib, jimgina uxlardi. Xon yurishdan to‘xtab, uni ehtiros bilan ko‘zdan kechirdi. Yorug‘ To‘to‘ bayimning yuziga tushganda, u ko‘zini ochdi. Shuursiz bir qarash bilan xon tomonga burildi, kerilib kulimsiradi.

— Voy, xon, shu paytgacha ham uxlamadingizmi? — deya boshini ko‘tardi. Yirik soch o‘rimi ilon kabi yostiq uzra to‘lg‘ondi.

— Kela qoling, sovqotganga o‘xshaysiz.

Xon To‘to‘ bayimning yoniga o‘tirdi. To‘to‘ bayim xonning qo‘lidan shamdonni oldi, gilamning ustiga qo‘ydi va xonning sovuq qo‘llarini bo‘liq to‘shiga bosdi. Xon yoqimli bir harorat sezib zavqlandi.

To‘to‘ bayim erkalovchi shirin ovoz-la:

— Nega yotmadingiz? — deya xonning yaralarini yangiladi.

— Yana Tiflis, Quba, Shaki bir-biriga aralashib butun og‘irligi bilan uning yelkasidan bosganday bo‘ldi. Xon javob bermasdan qo‘llarini xotinining issiq siynalaridan olib, dik etib o‘rnidan turdi. Yana sham qo‘llarida haram doirasini aylana boshladi... Avar xoni Umarning singlisi Bika Xo‘rna o‘rtasida g‘ujanak bo‘lib yotardi... Keyin Naxichevanlik Ro‘g‘ashin, tog‘-lik So‘naning, Dizaq maligining qizi Xotoyning, Bahmanlik Xadichaning, Sarijalik Murussa xonimning va boshqalarining xonalaridan o‘tib, oxirgi yotoqqa yetdi. Hamma joyi gilam, sholcha, olacha va ipak matolar bilan bezangan bu xona Shusha savdogari Hoji Karimning qizi Onaxonimga ajratilgandi. Onaxonim Ibrohim xonning eng yangi xotini edi. O‘n olti-o‘n yetti yoshlarida, to‘lagina bir qiz edi. Xon yotoqqa kirganda gulob hidi uni mast qildi: ko‘rpasining bir tomoni surilib gilamning ustiga tushgandi, qizning tashqari chiqib turgan chap ko‘kragi qorday oppoq edi, qora kipriklar qayrilib hafif soya solgandi, lo‘ppigina yonoqlar tong shafag‘iday porlardi...

Xon qo‘lini beliga olib borib titroq barmoqlari bilan qurshog‘ini[1] yecha boshladi.

8

Xon ertalab barvaqt uyg‘ondi. Onaxonim kechasi uning uyquda og‘ir ingrashini eshitgandi. Burnashov xonning tushiga ajdarho bo‘lib kirib, u bilan bo‘g‘ishibdi, necha joyidan jarohatlangandi. Bu yaralarning og‘rig‘i haligacha jonidan chiqqani yo‘q. Ichida go‘yo nimadir uzilganday edi, atrofida barcha ko‘rganlari unga tegib bezovta qilardi.

[1] **Qurshoq** — kamar, belbog‘.

Xon devonxonaga kelib, bir o‘zi o‘tirdi. Bu yaxshi alomat emasdi: xonning g‘azablanishi butun saroyga ma’lum bo‘lib, hammani qo‘rquv bosdi.

Qiziqchilar orqasidan odam yuborildi, mashhur Lo‘tio‘g‘li chaqirildi. Xonning kayfiyatini hamisha o‘sha ko‘tarardi. Shaharning barcha masxarabozlari bu yerga to‘plandi. Qisqacha ma’ruza tamom bo‘lgach, o‘rtaga Lo‘tio‘g‘li chiqdi. Hammaning ko‘zi unda edi. Birdan bir odobsizlik qildi-yu, xonga qarab:

— Ovozi chiqmayapti boriti[1] nam tortibdi shekilli, — deb kuldi. To‘planganlar ham xonning kayfiyatini ko‘tarish uchun qahqaha urdi. Xonning yuzidagi ajinlarning bittasi ham yoyilmadi.

Lo‘tio‘g‘li qiziqchilardan bittasi bilan soqoldan finjon o‘ynab, gul urdi:

— Yutdim! — deb qichqirdi.

Raqibi:

— Yo‘q, hali yutganing yo‘q, soqolim joyida turibdi, — deb maydonda aylanib chopar, Lo‘tio‘g‘li uni quvardi. O‘rtaliqda do‘mbaloq oshib, jamoatni kuldirishsa ham, xonga ta’sir qilmasdi. Nihoyat, Lo‘tio‘g‘li raqibini yerga yiqitib chinqirtirib soqolini qirqib, beliga osgan ro‘molchaga yig‘di.

Bularning hech qaysi biri Ibrohim xonga ta’sir ko‘rsatmadi: tez-tez yonida turgan Shohmammadga buyruqlar berar, shaharda so‘zga kirmaydigan o‘jar va qaysarlarni zindonga tashlattirardi. Saroyni qoplagan vahima shaharga ham yoyila boshlagandi: odamlarni sixga tortadilar, qo‘rg‘oshinni eritib tomog‘iga, dog‘lab boshiga quyishadi, shunqorlarga bugun yem berilmasin, deb buyurilgandi, ular tirik odam go‘shti bilan to‘ydiriladigan edi... Qiziqchilar xon g‘azabining oldini olish uchun bor kuchlarini sarflayotgan bo‘lsalar-da hech natija chiqmayotgandi. Lo‘tio‘g‘li bir hiyla o‘yladi: to‘rga o‘tib xon bilan yonma-yon o‘tirib, qosh-qovog‘ini uydi, masxarabozlarning bittasini yoniga chaqirib:

— Jahlim chiqib, g‘azabim qaynadi, kayfiyatimni ko‘tarmasangiz, hammangizni tuxum qo‘yishga majbur qilaman, — deya Ibrohim xonga taqlid qila boshladi.

[1] **Borit** — porox (borut).

Qiziqchilar bor mahorat-u nayranglarini ishga soldilar: it bo'lib vovulladilar, shoqol bo'lib uvladilar, xo'roz bo'lib qichqirdilar, eshak bo'lib hangradilar, ot bo'lib kishnadilar... Xonning holi o'zgarmadi.

Lo'tio'g'li g'azabli ovozda:

— G'azabim gul urayapti, darhol tuxumlanglar! — deya qichqirdi. Yigirma-o'ttiz qiziqchi u yerda cho'kkalab, qanot qoqa-qoqa "tuxumlashga" boshladilar.

O'rtada bir odobsizlik qilib:

— Hali bunisi nima, oxirini ko'r, jim-jima! — deya hiringladilar.

Xon hamon avvalgi vaziyatda o'tirar, ko'zlaridan g'azab o'ti chaqnardi. Shu asnoda Xonmammad kelib qoldi. O'tirar-o'tirmas, qo'llarini o'lchab qo'shnisiga bir nimalar hikoya boshladi. Xonning ko'zlari unda edi. Birdan:

— Xonmammad, nimalarni gapirayapsiz? — deya baqirdi.

Xon majlisida o'zlarini erkin tutayotgan qiziqchilar qo'rqqanlaridan pisib qoldilar.

Xonmammad jur'atsiz bir ovozda:

— Xon omon bo'lsin, — dedi, — bir tush ko'rdim, shu tushni hikoya qilayapman.

— Qanday tush? Qattiqroq gapir, men ham eshitay.

Xonning taklifi majlis ahliga tasalli bo'ldi. Chunki Xonmammad ko'p marta xonni g'azabdan tushirgan bir odam edi. Bu safar ham biror latifa aytib xonni kuldirishiga umid qilardi.

— Xon, sog' bo'lsin, — dedi, — bu kecha tushimda ko'rsam go'yo siz meni devonxona oldida ostirgan emishsiz. Mehrali bek bulog'ida yuvdirgan emishsiz. Keyin Datalabning ostiga bostirgan emishsiz.

Xon Shohmammadga qaradi. Shohmammad darhol ta'zim qilib xonga yaqinlashdi:

— Shohmammad, jallodga topshir, sening bu ahmoq ukangni devonxona oldida dorga torttirsin, Mehrali bulog'ida yuvdirsin va Datalabning tagiga ko'msin. Shohmammadning devonxonadan chiqishi va qaytib kirishi bir daqiqa tortmadi: qizil kiyimli jallodlar kelib Xonmammadni olib ketishdi...

* * *

Voqifning yo'l charchog'i hali tarqamagandi. U o'tib kelgan tog'larning sovug'idan tumov bo'lgandi. Shuning uchun hali xonasida yotib Fuzuliyni mutolaasi bilan mashg'ul edi. Fuzuliyni qayta-qayta o'qigandi, shunga qaramay dam olish paytlari uni qo'lidan qo'ymas edi. Keksa lala oyog'i uchida ichkari kirdi:

— Og'a, sizni ko'rishni istaydilar, — dedi.

— Kim ekan?

Lala hurkak bir tovushda javob berdi:

— Og'a, aftidan xonning g'azabi yana oshganga o'xshaydi...

Voqif masalani darhol tushundi, tez kiyinarkan:

— Chaqir zalga kirishsin, tashqari sovuq! — deya lalaga o'girildi.

Lala sekin tovushda:

— Og'a, zalga sig'ishmaydi. Jamoat ko'p yig'ilib kelishdi, — deya chekkaga chiqdi.

Voqif ayvonga qarasa hovli, zinapoya, ayvon — hamma joy odamga to'lib ketibdi. Quchog'ida bolasi bor bir ayol o'zidan ketib, yuz tuban cho'zilib yotardi. Voqif bunday manzaralarga ko'nikkan bo'lsa-da, yuraga sanchdi. Lekin zahiriy sovuqqonligini saqlab, iltijo bilan kelganlarning bir-ikkitasining ichkari chaqirdi. Dardlarini tingladi: yaqin odamlari zindonga tashlangandi.

Voqif ohista:

— Gap bunday, — dedi-yu biroz iztirobini to'xtatdi: — o'ttiz-qirqtacha odam oq kafan kiyib qo'lda zanjir bilan saroy hovliga kelasizlar, men sizlarga bir ikkita zikr yozib beraman, uni o'qib boshingizni dudama bilan urib yorasizlar. Keyini bilan sizlarni ishingiz bo'lmaydi, men hozir saroyga jo'nayman.

Voqif shunday ko'rsatma bergach, ichkaridagi ko'rpacha ustiga o'tirib, qog'oz oldi-da yoza boshladi. Keyin qog'ozni buklab, saroyga boradiganlarga topshirdi:

— Menga qaranglar, boshlaringizni yorayotganda buni o'qiysizlar. Endi boringlar, aytganlarimni tez qilinglar, men ham boraman.

Voqif devonxona oldidan o'tib, saroyga borarkan bechora Xonmammadni dor yog'ochida osig'liq ko'rdi. Qor aralash shamol uning mayitini havoda tebratardi. Atrofga ko'p olomon

to'plangandi, jallodlar o'choqqa o'tin qalab, odamlarni sixga tortishga tayyorlashayotganini tomosha qilardi.

Voqif saroyga borganida Ibrohim xon hali g'azabdan tushmagandi: doro'g'a, mizondor, amr — ba, ma'ruf xon huzuriga chaqirilib, jazolash uchun odam talab qilinardi. Shohmammad Ibrohim xonning buyruqlari ostida shoshib qolgan, qalbi tosh bo'lsa ham ukasi Xonmammadning osilishi uni gangitib qo'ygandi.

Voqif salom berib ichkari kirdi va to'rga o'tdi. Salomga javob olarkan xonning lablari qimirladi, xolos, ovozi eshitilmadi. Voqif biror kalima so'z aytmay, majlisdagi masxarabozlarning yengil, be'mani qiliqlarini achchiq bir istehzo bilan tomosha qilardi. Birdan ochilib-yopilgan eshikdan zikr tovushi eshitila boshladi:

Bo'lmaganmiz Karbaloda
Shumri sanoni mahv etgani.
Parcha-parcha etsak qani
Qonxur Haydar avlodini.
O-o Husaynima!
Vo, Husaynima!

Xonga xabar keldi. Xon hayrat bilan Voqifning yuziga qaradi. Voqif ham yuzida ayni ifodani aks ettirishga urindi. Xon ayvonga odam yugurtirdi, hech kim bu ahvoldan biror narsa tushunmadi. Jo'shqin zikr ovozi aniq eshitilar, yurakka vahima solardi:

Ey Yazid, hoy behayo!
Ro'zi-a'lo va hasrata!
Nuri cheshmi Mustafo
Albatta, istar qonlisan!
O-o, Husaynima!
Vo, Husaynima!

Voqif xonning butunlay o'zgarganini ko'rib:

— Xon, biroz zahmat torting, ko'raylik-chi, nimalar bo'lyapti — dedi.

Turib ayvonga chiqdilar, oq kafanli odamlar zikr tushib boshlariga dudama urib yorardilar. Qonga belangan kafanlarga qaraganda odamlarni dahshat qoplardi.

Xonni ko'rib nola tovushlari, iltijolar yanada yuksaldi:

O'shal damda Fotima
Kelgaydir Qiyomatga,
Qo'lda sariq — Husayn.
Go'yo Husayn o'lgan,
Motam sadosi bordir,
Eyvoh! Ba — dasti Karbalo!
O–o Husaynima!
Vo Husaynima!

Qon tomayotgan lablardan uchayotgan bu jo'shqin zikr xonni iligigacha gangitdi, titroq tovush-la Voqifga o'girildi:

— Oxund, sen o'qigan odamsan, bu nimasi? — dedi.

Voqif ro'molchasini ko'ziga bosib, yig'lagan tovushda:

— Xon omon bo'lsin, — dedi, — Karbaloda shahid bo'lgan Husaynning yo'lida... — Voqif boshqa gapirolmadi. Xon xavfsirab so'radi:

— Nima xohlashayapti?

— Xon, bugungi mahbuslarning gunohlaridan kechishingni so'rashyapti... Xon, imom Husayn ishqidan kechib bo'lmaydi!...

Dindor xonning ko'z yoshlari soqolidan oqardi:

— Oxund, — dedi,— bilganingni qil, men gunohga botishni istamayman!

Voqif boshini ayvondan pastga qaratib, sevinchli bir tovushda:

— Hoy, jamoa, — dedi — xon bugungi mahbuslarning gunohini imom Husaynga bag'ishlaydi. Boringlar, xon umriga duo qilinglar!

— Sog' bo'lsin, umri uzoq bo'lsin! — deyayotgan ovozlar hovlini to'ldirdi.

9

Voqif qo'lini cho'zib, finjonni ko'targanda tagidan uzuk chiqdi:

— Mirza Alimammad, — dedi, — yana gul urdim! Hozircha ishlar yaxshi. Lala finjonlarni yangidan tiza boshladi. Havoning titrashidan shamning shu'lasi yog'ini yalay boshladi.

Mirza Alimammad:

— Mamlakat ishlarida ham shunday gul urganman, — dedi.

— Qanaqasiga? — deya, Voqif Mirza Alimammad og'aning yuziga qaradi.

Mirza Alimammad jiddiy tovushda:

— Oxund, — dedi, — to'g'ri aytayapman. Sening barcha tadbirlaring o'rnini topadi. Husaynbek qo'shin yig'ib Irakliyning noyibini Ganjadan quvibdi. Irakliy, deyishadi, mahkam qo'l-oyoqlidir. Burnashovdan qo'shin so'rabdi. Qo'shin ham oziq-ovqat istaydi. Irakliyning na zaxirasi bor, na puli. Yerevan xoni ham boj berishni istamayapti.

O'yinni yangidan boshlashdi. Voqif kulib Mirza Alimammadning yuziga qaradi:

— Nima berasan, yana gul ursam! — dedi.

— Nima istasang!

Voqif qo'lini cho'zishi bilan uzuk chiqdi.

Mirza Alimammad hayrat-la:

— Bu pok bo'ldi! — dedi.

Voqif hazillashdi.

— Ya'ni Irakliyning harakatidan ham pok bo'ldimi? O'z ishimni tuzataman, deydi, sizni ham ko'zdan yo'qotaman. Bu ham yigirma yillik do'stlikning natijasi! Ibrohim xon unga qancha yordamlar bermadi?! Endi bo'lsa qal'aning darvozasini och, o'rislar kirsin, armani maliklarni boshingizga og'a qilib qo'ysinlar...

Mirza Alimammad qo'lini o'choqda isitarkan:

— Bu uning xom xayolidir! — dedi.

Voqif ham finjon o'yinidan chiqib, o'choq yoniga solingan dasturxondan bir-ikki dona tut mayizdan olib og'ziga soldi, keyin isinarkan:

— Ko'ramiz, — dedi, — Muso Sulton qanday xabar olib kelarkan. Rusiyaga birinchi marta borganida yaxshi xabar olib kelgandi.

— Bu safar ham olib keladi.

— Nima derdim, — deya Voqif o'ylanib qoldi: — Bizning shartlarimizni qabul qilisharmikan? Yozdim: himoyaga tayyormiz. Ammo xon o'rnida qoladi, daxldor ishlarimizga aralashmaydi, Qorabog' tuprog'ining biror qarichi ham o'zgarmaydi.

Mirza Alimammad:

— Shartlarimizni qabul qilishmasa, — dedi, — nima yo'qotamiz?

— Hech narsa! Biz masalani cho'zishimiz kerak, ko'raylik-chi, bu ishlarning oxiri qanday bo'larkin. O'rislarning kelishi butun Eron va Usmonli mamlakatini besaramjonlik va g'alvaga soldi. Ko'rmayapsanmi, Sulaymon posho nima deb yozibdi: aytishicha, "O'risning Tiflisga kirishi shunday bir olovki, sizni ham, bizni ham yondiradi..."

Voqif so'zlarni to'xtatib, kuldi. Mirza Alimammad hayratlanib unga qararkan, dedi:

— Esingga nimadir tushdi shekilli.

Voqif hazilomuz kulishida davom etarkan:

— Hoy kishi, qachon biror yerga keldikmi, mana shu jonni qiynaydigan suhbatlardan sira voz kecholmaymiz-da.

Voqif bu yerda biroz to'xtab, keyin so'zida davom etdi: — Mirza Alimammad, menga shunday tuyuladiki, "sa'y-harakat choriq yirtadi", — to'g'ri maqoldir. Bizning harakatimizning ma'nosi bor, ammo tasavvur qilinganchalik emas. Zamon gardishning daryo oqimi singari oqishi bor, u shu oqimini o'zgartganda oqim oqimligini ko'rsatadi. Men — sen, u — bu bunday oqim qarshisida hech narsamiz. Ozarbayjon xonlari bir-birlari bilan urushayapti, hokimiyat uchun talashib ota o'g'lini, aka ukani o'ldirayapti, bir-birining ko'zini o'yayapti, elimiz, ulusimiz xonlarning xohishi uchun qirilib ketayapti: xonimonimiz kuyib kul bo'layapti... Bu falokatga yuragimiz yorilsa ham, oldini olishdan ojizmiz! Buning uchun o'zimizni qiynamasdan, qalbdagi yaraning og'rig'ini unutish uchun biroz chidaylik. Deyman

shu qarolni yuboray, Kozim kelsin unda ajoyib suhbatlar bo'ladi, biroz gapirsin, vaqtni yaxshi o'tkazaylik.

Lala chaqirildi. Qarollardan bittasi fonus ko'tarib Kozimni izlab ketdi. Uni uyidan turg'azib olib kelishdi. Eshikdan kirib kelishi bilan:

— Qulluq bo'lsin! — deb kuldi.

— Qulluq bo'lmagan nima bor, kel, o'tir!

Kozim o'tirdi. Dasturxondagi tut mayiziga, g'oz oyog'iga qarab kulimsiradi.

Voqif:

— Marhamat, ol, ye! — dedi.

Kozim kesatib:

— Naxichevan yemagi bo'lsa biz esdan chiqamiz, g'oz oyog'i bo'lganida meni chaqirasan, bilasan-da, tishim yo'qligini.

Voqif e'tiroz bildirmoqchi edi, Kozim gapini bo'lib, bir latifa aytdi:

— Bir kuni, — dedi, — Mulla Nasriddin uxlayotib, tushida pul ulashishayotganini ko'ribdi. Hammaga oq pul berishibdi, unga qora pul berishibdi. Mulla achchiqlanib alamidan qichqirib yuboribdi. O'zining ovoziga uyqudan uyg'onib ketibdi. Hovuchiga qarasa, qo'li bo'm-bo'sh. Ko'zlarini yumib depti: "Mayli, zarari yo'q, qora pul bo'lsa beraveringlar". Endi, Oxund, mayli g'oz oyog'iga ham roziman, beringlar buyoqqa.

Voqif bilan Mirza Alimammad suyunib ketishdi. Kozim ham taqsimchadan bitta g'oz oyog'ini olib kemira boshladi. Voqif guldor dastro'moli bilan ko'zlarining yoshini artib, Kozimga qarar, undan yangi bir latifa eshitishni istardi. Kozim esa g'oz panjasini u lunjidan bu lunjiga olib, uni maydalashga urinardi.

Voqif istehzo bilan:

— Ha, Kozim dadash, bu tegirmoningni nafi bo'lmay qoldimi deyman? — dedi.

Kozim:

— Tegirmon qayoqdan ham naf berardi, — dedi, — arpa, jo'xori tortaverib holdan toygan. Shuncha ko'p arpa noni yeganmanki, ko'chada eshaklarga "ish-sh" deb to'xtatganlarida men ham to'xtayman.

Bu so'zlarning o'tkirligi Voqifga juda ma'qul keldi; hazillashib:

— Kozim, — dedi, — senga gap topib bo'lmaydi. Behuda xonning kayfiyati buzulganda saroyga kelmayapsan, bilasan-ku, kelsang mo'l to'n mukofot olarding.

Kozim tavoze bilan boshini quyi solib, qo'llarini hovuch qildi:

— Oxund, jonim tasadduq, kosib odam bo'lsam, saroyda nima bor! Nima, eshitmaganmiding, xon bilan poliz ekkanning palagi yelkasida ko'karadi?

Mirza Alimammad og'a juda ehtiyotkor davlat arbobi bo'lgani uchun Kozimning ba'zi ishoralaridan xursand bo'lmadi. Gap mavzusini o'zgartirish uchun o'choqning o'chib qolishini bahona qildi.

— Oxund, bu olov bizga bevafolik qilmoqchiga o'xshaydi, — dedi o'choqni ko'rsatib.

— Hamma narsaning iloji bor, — deya Voqif lalani chaqirib, o'choqqa qaytadan o't yoqtirdi va shamdonning ham shamini yangilattirdi. Keyin lalaga o'girilib:

— Lala, bolalarga ayt, bir yaxshi holva tayyorlashsin, — dedi. — Kechalar uzun, o'tirmoqchimiz.

Kozim kulimsirab, hayotida yuz bergan bir voqeani eslay boshladi:

— Holva deding-u, esimga voqea tushdi. Eronda edim, yigit paytim, jang qilayotgandik. Axar degan joyda meni asir olishdi. Axarga olib ketishdi, meni bir xonga sotishdi. Unga qarol bo'ldim. Ma'lum bo'ldiki, bu xonning o'zi Javonshir elidan ekan...

Voqif uning so'zini bo'ldi.

— Demak, qo'shni chiqibsizlar-da, — deb kuldi.

— Ha, qo'shni chiqib qoldik. O'zi ham menga o'xshab: "Kam bo'lsa oshim, og'rimas boshim" deydiganlardan ekan. Kichikroq yer mulki bor edi. O'sha bilan kun ko'rardi. Da'vo janjallarga hushi yo'q edi. Butun topgan tutganini qiziqchi, hazilkash odamlar bilan baham ko'rardi. Xizmatkorning xushchaqchag'ini yaxshi ko'rardi. Bir kuni u zinapoya bilan ayvonga ko'tarildi. Men ham uning orqasidan chiqdim. Zinapoyaning o'rtasida uning sonini chimchiladim.

Achchiq bilan o'girilib yuzimga qaraganda dedim:

— Xon, afv eting, men sizni xonimingiz deb o‘ylabman.

Buni eshitib xon qahqaha etib kuldi. Dedi: “Mana endi menga yoqib qolding. Qayerliksan?” Dedim: “Qorabog‘likman.” Dedi: “U yerni nega Qorabog‘ deyishadi? ” Dedim: “Chunki har narsamiz qor bilan bog‘liq. Hatto birortamiz hisob-kitobimiz bo‘lganda ham “mahkam” bo‘lsin deb qorning ustiga yozib qo‘yamiz”. Xon yana kuldi, dedi: “Sening bugun qilgan qilig‘ingni ham qorga yozdim. Bora qol!” Zinapoyadan pastga tushib, to‘xtadim. Dedim: “Hoy xon, tushunmadim, mening qilig‘imni qora yozdingizmi, yoki qor ustiga yozdingizmi?” Xon yana kuldi, lekin kulgusi menga yoqmadi. Qo‘rqdim: ”U xon bo‘lsa, rosti-yolg‘onini bilib bo‘ladimi, jahli chiqib boshimni choptirsa–chi?” Birdan baqirdi: “Yo‘qol bu yerdan! Sening holvangni qovurtiraman”, — deb ustimga tashlandi. Dedim: “Xon, ko‘pdan yo‘qolardim, ammo darvozangiz berk–da”. Xonning kayfiyati yana ko‘tarildi, kula turib dedi: “Hoy gado, sen juda aqling kirdi-chiqdi odamga o‘xshaysan. Mendan nima so‘rasang beray, chiqib ketsang bas. Bor, meni balodan qutqar!” Dedim: “Meni ozod ayla, o‘zimni Arazdan o‘tkazib qo‘y, yurtimga qaytay”. Xon o‘ylab qoldi. Keyin rozi bo‘ldi. Cho‘ntagimga pul solib, yo‘lga kuzatib qo‘ydi.

Voqif kulib dedi:

— Demak hazilkashliging unga yoqmabdi.

— Yo‘q, xon ko‘p xotin asrardi. Mening hazilimdan shubhalandi shekilli. Men ham ataylab shunday qildim, meni ozod qilsin, dedim–da.

Holva keldi, yonida esa Dizoq bug‘doyi yupqasi. Za’faronning hidi dimmoqqa urildi. Kozim to‘rtko‘z bo‘lib holvaga qarab dedi:

— Agar o‘likka tegsa tiriltiradi, — deb shunga aytadilar.

Voqif suv sepib, yumshatilgan yupqani kesib orasiga holva joylarkan:

— Ko‘ramiz, — dedi, — holvadan keyin qanday ertaklar to‘qirkansan. Za’faron axir kulgini qistatadi.

Kozim holvadan yirik-yirik parchalar ushatib lunjiga solar, ko‘zlari charaqlardi. Og‘zini chapillatib-chapillatib, dedi:

— Oxund “odamning kulgisini qistatadi” deganingga, esimga bir voqea tushdi. Ardabilda edim. Kuzning yomg‘irli bir kuni edi.

Issiq ovqatga zorman. Ko'chada bir pakana g'ilayga duch keldim. "Ushbu mahallaning nomi qanaqa ma'noda? " — deb so'radim. Shunday deganimni bilaman, meni mushtlay ketdi!

Telpagim boshimdan uchib loyga belandi. Demak, bu odamga ushbu mahallani nomi qanaqa ma'noda desa jahli chiqarkan. Qiziq, axir men to'g'ri ma'noda so'radim-ku! U kesatdi, deb o'ylabdi-da. Xullas, telpagimni boshimga kiyib ketayapman, qarasam bir hovliga odamlar kirib chiqayapti-kirib chiqayapti. Bittasidan bu yerda nima bor? — deb so'radim, "bir odam o'libdi" — dedi. "Juda yaxshi bo'ldi-da" — dedim, kirib hamdardlik bildirib, ta'ziya izhor qilaman, hamda ehson palovidan yeb, qornimni to'yg'azaman. Ichkari kirib o'tirdim, mundoq qarasam, fotiha o'qib chiqib ketayotganlar yonimga kelib, menga ta'ziya bildirib, bosh sog'ligi berib ketayaptilar. Juda hayron qoldim.

Demak, yo bu shahar ahli tentak yoki men... Demak, bu shaharda odami o'lgan kishining telpagiga ta'ziyador ekanini bildirsin deb balchiq surkasharkan-da.

Telpagim loyli ekan deb meni ta'ziyador deb bilishibdi... Keyin o'zimga nash'a qilib rosa kuldim...

Suhbat tun yarmigacha cho'zildi, Voqif Kozimni gapirtirib rosa kuldi.

10

Bahorning sevimli quyoshli tush paytiga kelgandi. Lekin quyoshda e'tibor ko'rinmasdi: yerdan bug' chiqib turar, tog'lar boshini tuman qoplar, ufqlar tutashib ketdi. Birozdan so'ng osmonni bulut qoplay boshladi, oftob g'oyib bo'ldi, havo qoraydi. Uzoqdan gumburlab kelgan chaqmoqlar shahar ustida sharaqlab, qayergadir tushdi.

Go'yo osmon ham shisha deraza kabi uning orqasida sinib, chil-chil bo'ldi. Taxta to'siqlarga va tomga yog'gan do'lning shaqir-tuqiridan shaharga vahima tushdi.

Sofdil Telli do'l yog'ishini qaytarish uchun sajoyog'ini[1] oyoqlari yuqori, qozonni esa yuztuban qilib teskari ag'dardi, to'qiyot-

[1] **Sajoyog'i** — uch oyoqli o'choq qurilmasi, ustiga dumaloq tunuka qo'yib yupqa pishiriladi.

gan sholchasining ustiga o'tirib, iplar orasidan ilgak o'tqazayotgan Gulnozni shoshilib chaqirdi:

— Hoy, Gulnoz, sholcha to'qishga xo'p vaqt topibsan-da, — dedi, — sen onangni to'ng'ichisan, kel, yetti dona do'lni olib tashqariga irg'it, do'llar jarohatlansa, yomg'ir to'xtaydi.

Gulnoz kulganicha o'rnidan shart turdi, iplarni bo'yoq tekkan barmoqlari bilan ayvonga tushgan do'llarni olib tashqariga uloqtirdi.

Do'l shiddat bilan yog'ar, daraxtlarning barglari, meva g'o'ralarini yerga to'kardi.

Tellining onasi kalimayi shahodatni keltirib, tasbeh o'girib derdi:

— Tangrining qudratiga shukur, daraxtlarda meva qolmadi, demak qayerdadir nohaq qon to'kilayapti, balosini esa biz tortayapmiz.

Osmon yana qarsillab ketdi, uning orqasidan eshitilgan gumburlash to'lqinlanib uzoqlashdi. Bulutlar siyraklashib, yoyilib ketdi, quyoshning yoqimli tabassumi yana olamga zarlar socha boshladi. Telli bilan Gulnoz sholcha to'qishni tashlab hovliga chiqishdi. Ilma-teshik bo'lgan barglar va feruza rang tog'olchalar yerga to'shalgan. Qizlar engashib tog'olchani yig'isharkan darvoza ochilib Safar ichkari kirdi. Yuzida hayajon aks etardi.

— Telli, — dedi, — men ketayapman. Mana kalit, uyni berkitib yur, ehtiyot bo'l!

Telli uning kutilmagan safarlariga o'rgangan bo'lsa-da, yana qayg'uga tushib, qo'rqib ketdi. Faqat:

— Nega, qayoqqa, — deya oldi va burilib darvoza tomon ketayotgan Safarning orqasidan chiqdi.

Safar hovlidan chiqib, darvozaga bog'langan otiga sakrab mindi-da aytgan gapi shu bo'ldi:

— Quba xoni bilan Shaki xoni katta qo'shin bilan Kurani kesib o'tishibdi...

Safarning oti taqalaridan loy sachratib chopib ketdi. Telli ham ko'z yoshlarini kaftining orqasi bilan artib ichkariga qaytdi. Kozim ishdan xabar olib qaytib keldi. Butun oila Tellining boshiga yig'ildi. Telli yuzini to'qilayotgan sholcha tomon burib, otasidan uyalib, ovoz chiqarmay yig'lardi, Gulnoz unga tasalli berardi. Tellining

onasi qo'llarini ko'ksiga qo'yib, sholchaga suyanib turdi, yuzida qattiq dard ifodasi bor edi. Kozim kishi ayvonning chetida o'tirib, oyoqlarini osiltirib loyni ezarkan:

— Tangrining sabriga jonim sadaqa, — deya g'azab bilan osmonga qaradi. — Bu xonlarning talashishlari tugamaydiki, bizlar ham ko'zimizni ochaylik, dunyo yorug'ini ko'raylik. Demak, bu yil ham bug'doy bo'lmaydi, arpa noniga ham hasrat qolamiz. Har kuni bir kelishadi, tarakamani[1] talashadi, ekindan, o'rimdan ovora qilishadi. Eh! Tangrining oson bir o'limi ham yo'qki, o'lib qutulsak.

Gulnozning ham onasi kelib qoldi. Oq chodrasining uchi bilan iyagini to'sib:

— Hoy Kozim kishi, — dedi, bizning kishimizdan hech qanday xabar yo'q-ku!

Kozim shartta jahl bilan:

— Hoy rahmatlikning qizi, — dedi, — bizning dardimiz shundayki, Safar bormasa bo'lmaydi. Xonning buyrug'idan chiqolmasligini yaxshi bilasan. Boshiga biror tashvish tushsa Xudo ko'rsatmasin, Telli badbaxt bo'ladi... — Tellining yelkalari osha chinqirig'i eshitildi. Kozim sal o'ziga kelib so'zida davom etdi: — Sening darding esa o'tkinchi darddir. Ering o'tirgan yerda o'zini ishga soldi, dedi: "Tiflisga borib, mol olib kelaman, boylik orttiraman".

Gapimga quloq solmadi. Hoy Parizod, ko'nglingga kelmasin-u, sening ering juda ochko'z odam. Armanining o'jari ham juda o'jar bo'ladi-da.

Ko'p yillardan beri yonma-yon yashagan, bir odat va bir qoidali bu ikki oila bir-birining dardiga yig'lardi. Ikki oila ham eng avvalo Kura daryosini kechib o'tgan qo'shinning qanday falokatlar keltirishini oldindan bilar va dahshatli natijasini bir xil darajada tushunar edilar.

Shu paytda Ibrohim xon a'yonlari bilan birga Askaranga yuborgan qo'shinini ko'zdan kechirish uchun qal'a darvozasidan chiqib kelayotgandi. Unga hamrohlik qilayotgan darg'a Og'asi bek otini xon bilan yonma-yon haydab, uning topshiriqlariga javoban:

[1] **Tarakama** — turkman.

— Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, xon! Tashvishlanmang xon! — derdi.

Qabristonning kiraverishida Og‘asi bek qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib xonga va a’yonlariga ta’zim qilib, orqaga qaytdi.

Xon a’yonlari bilan ketib borar, hamma sukut ichida edi. Voqif yomg‘irdan so‘ng, tozalanib, yashnagan maysalarga, gullarga qarab zavqlanardi. Lekin atrofda tumanlashgan hodisalar uning zavqini qora bag‘riga bosib bo‘g‘ardi.

Keta-ketguncha qochoqlarning ahvoli ko‘zga tashlana boshladi: ellar, uluslar ekin-tekinni tashlab, jonlarini qutqarish uchun tog‘ga qarab qochardi. Qo‘y-qo‘zining ma’rashi, otlarning kishnashi, bolalarning yig‘lashi bir-biriga aralashib ketgandi.

El bosh olib kelardi. Voqif bu manzaraga qarab o‘yga tolgandi, o‘chmas og‘riqlar his etardi. Ibrohim xonning tund boqishida intiqom olovi yonardi:

— Bu odam ishning oldi-ketini o‘ylamaydimi? — deya Voqifga murojaat qildi.

Ishora Fatali xonga edi. Voqif jirkanch bir ahvolda:

— Xon, — dedi, — bu odam o‘ris yasovulidir. Ularning aytganini qiladi. O‘risdan hamyon-hamyon ashrafi[1] oladi. Bir hunar ko‘rsatishni istaydi, shunday emasmi?! Bularning hammasi bizlarni yumshatib, yuvoshgina qilib bo‘ynimizga bo‘yinturuq urish uchun qilinayapti.

Xon g‘azabnok ovozda:

— Dunyo parcha-parcha bo‘lib ketsa ham, men o‘sha bo‘yinturuqni qabul qilolmayman. Armani maliklari menga og‘alik — xo‘jayinlik qila olmaydilar. Voliyga qilingan hurmatdan menga ham qilinsa roziman...

Ruslar diyoriga xat olib borib qaytgan Musa Sulton ham shu yerda edi. Butun vujudi bilan otga suyanganicha suhbatga quloq solardi. Uzun mo‘ylovini tuzatab dedi:

— Hech aytganlaridan qaytadilarmi?! Men o‘rislarni tushunadigan odam deb bilardim. Ammo, ushlagan yeridan uzishni istaydilar. Siz bizga ishoning, podshoning marhamati keng, — deyishadi...

[1] **Ashrafi** — tilla pul.

Xon g'azab bilan uning gapini bo'ldi:

— Xudo ularni ham ursin, marhamatlarini ham! Ularning marhamati bundan oshiq bo'lmaydi-ku, — deya xon tepalikka qarab o'rmalayotgan qochoqlarni ko'rsatdi. — Fatali qanjiqni va'dalar bilan shishirib mening ustimga yubormoqda. O'lsam ham bo'ysunmayman, menga ham Ibrohim Xalil xon deydilar!

Mammad bekning guruhi orqadan kelayotgandi. U xonning otni sekin haydayotganidan norozi edi. Mammad bekning oti suvlig'ini kemirar, jilovini bo'sh qo'yish kerak edi, ammo xondan oldinga o'tolmayotgandi. Nihoyat tezlashib, xonga yondashdi:

— Amaki, izn bering, biz oldinga o'taylik, — dedi, — xonga tik qarab.

— Bor!.. Bir qarab ko'r-chi, o'sha qanjiqning atrofida qancha odam bor. Tog'lardan odam yubor, orqasidan kirib, qirib tashlashsin.

Mammad bek:

— Xo'p bo'ladi! — deya ishora qildi. O'ttiz-qirq navkari ham ot qo'ydi.

Ibrohim xon qo'shinning katta bir qismini Askaranda joylashtirgandi.

Fatali xonning quvvatlarini bilmay turib qo'shinni Oron tekisligiga chiqarish maslahat ko'rilmagandi. Faqat xabar olish uchun alohida-alohida guruhlari oldinga yuborilgandi. Mammad bek Askaranni kechib, tezlikni kamaytirishga majbur bo'ldi. Chunki yo'llar orqadan oqib kelayotgan ellar — odamlar bilan to'la edi. Qoraog'ochga yetganda bir keksa kishi uni to'xtatib otining oyog'iga yiqildi.

— Qutqaring, og'a! Qiz! Ikki qizimni olib ketishdi!

Mammad bek:

— Qayerdan... Qayerda ular? — dedi shoshib.

— Barda. Bardaga o't qo'yishdi.

Mammad bek yana ot qo'ydi. Fikri Qahrizliga yetib olib xotinlari Oyisha va Ho'rini tog'ga yubormoqchi edi. Ag'damda ularga duch keldi: Yuzboshi butun Qahrizli xalqini yig'ib kelayotgan edi. Mammad bek ularni Qoraog'ochga qadar kuzatib qo'yib, orqaga qaytdi.

Endi suvoriylar Bardaga qarab ot surishdi. Qishloqlar, ovullar, yaylov va qishlovlar bo'm-bo'sh edi: hech qayerda odamga duch kelmadilar.

Ekinlar chala qolgandi. Qarvandga yaqin bir joyda Fatali xonning ilg'orlariga duch kelishdi. Elliktacha suvoriy asta-sekin kelardi. Orqadagi bir tuyada zambarak ham bor edi. Mammad bekning guruhi daraga kirib, otdan tushdi. Butalar orasida yashirindilar. Dushman ilg'ori yaqinlashganda, gaplari ham aniq eshitila boshladi. Kelib, yonlaridan o'tayotganda butalar orasidan o't ochildi. Birinchi o't zambarakchini ag'dardi. Otliqlar orasiga vahima tushib har biri har tomon qocha boshladi.

Mammad bek miltig'ini yelkasiga oshirib o'z otliqlariga:

— Otlaninglar! — deya sakrab otiga mindi. Qilichlarini yalang'ochlab dushmanlariga tashlandilar. Mammad bek tepada bittasiga yetib olib, orqasidan qilichni bo'yniga tushirdi. Qon vishillab otning egar-jabdug'iga sachradi. Suvoriyni ot ustidan tushirayotganda chap oyog'i uzangiga ilinib qoldi, ot esa hurkib uni sudrab ketdi. Piyoda qolgan dushmanlarni Mammad bekning navkarlari quvib yetib qilichdan o'tkazardi. Olisdan chang ko'tarilayotgandi. Mammad bek tepaga chiqib, qo'lini ko'zi ustiga qo'yib diqqat bilan kuzatdi.

— Yigitlar! Juda ko'p qo'shin kelayapti, ko'ryapsizlarmi? Qara oldindagi Fatali xonning o'zi bo'lsa kerak. Hozir kutib turish paytimas. Tog' etaklariga o'taylik, odam yig'ib, orqasidan oralariga kirib olaylik, ko'raylik-chi, nima bo'larkan...

Ibrohim xon a'yonlari bilan Askaranga yetib, o'sha yerga to'xtadi. Darakchilar keltirgan xabarga qaraganda, Fatali xon bilan Hoji Abdulqodir xonning qo'shini o'n mingga yaqin edi. To'rtta mis to'plari ham bor edi. Ibrohim xon chodirida kengash o'tkazib masala muhokama qilindi. Oldingi tadbirdan kechmaslikka qaror qilindi. Butun aranni Fatali xonga qoldirib, kuchni Dog'iston tomonga tashlashga kelishildi. U yerga yuborilgan Shaki xonining o'g'li Mammadhasan xonga katta umid bog'langandi. Mammadhasan xon Umar xon vositasi bilan kuch yig'ib, Fatali xonning janubga yurishidan foydalanmoqchi edi.

Ag‘dam tomondan chiqayotgan tutun Fatali xonning yetmaganini ko‘rsatardi.

Ibrohim xon otga minib, qo‘shinni va xandaqlarni ko‘zdan kechirar, Fatali xonning kelishini kutardi. Ammo kunlar o‘tib borar, dushmanning qorasi ko‘rinmasdi. Kechasi Ag‘damga chopar yuborildi. Keltirilgan xabardan ma’lum bo‘ldiki, Fatali xon qishloq-ovullarni talab, o‘t qo‘yib Arazga qarab ketayotibdi.

11

Safarning soniga o‘q tekkandi, uyida yotardi. Telli bilan Gulnoz uning yotog‘i yonida o‘tirishardi. Jarroh Safarning yarasining dokasini almashtirgandi. Safar biroz dam olgach, yostiqqa suyanib yotog‘ida o‘tirardi. U Gulnozga qarab hazillashdi:

— Gulnoz, — dedi, — sholchani to‘qib bo‘ldinglarmi?

Gulnoz qizarib:

— Yo‘q, Safar aka, hali to‘qib bo‘lmadik, ikki-uch kunda bitiramiz.

Safar jilmaydi:

— Telli bilan yaxshi pul topish yo‘lini o‘rganibsizlar. Telli mendan yashirgan kabi sen ham pulni otangdan yashirasanmi?

Gulnoz Tellining yuziga qarab jilmaydi:

— Nimaga? — dedi.

Parizodning ichkari kirishi hazilni bo‘ldi. Salom berdi, keyin Safarning ahvolini so‘radi:

— Ahvoling qanday, hoy Safar inim?

Safar unga javoban:

— Kechasi ancha qiynaldim — dedi, — hozir ancha tuzukman, rahmat.

Parizod Tellining qulog‘iga nimadir shivirladi: qarz so‘radi shekili.

Telli mamnun bir chehra bilan:

— Hoy Parizod xola, — dedi, — saldan keyin kun tush bo‘ladi, ulgurmasangiz, bolalar sizni qiynab qo‘yishadi. Boring ularni buyoqqa olib keling, birga ovqatlanamiz, bo‘zbosh[1] osganman. Safar

[1] **Bo‘zbosh** — go‘sht bilan no‘xat qaynatma sho‘rvasi (*mohora*).

ham zerikayapti, uning xam kayfiyati ko'tariladi. Parizod biroz ikkilandi, baribir rozi bo'ldi. Engashib Tellining qulog'iga shivirladi.

— Unda bir burda non ber, bolalarni yuragidan holga keltiray, keyin kelamiz.

Telli o'rnidan turib tokchadan bitta tandir non oldi, Parizodga berib yo'lga kuzatib qo'ydi. Peshin azoni aytilayotganda, Tellining boshqa dasturxoni yozilgandi. Non bilan birga boshqa shirinliklar ham qo'yilgandi. Parizod ikki bolasi bilan keldi. O'tirib ovqatlana boshlashdi. Bo'zboshning suviga non to'g'rab yeb olishdi. Endi go'shtga qo'l cho'zishayotganda eshikdan jandaga o'ralgan, soch-soqoli o'sib ketgan bir odam kirdi. Hamma uni hayrat bilan qarshilab, birdaniga:

— Ollohquli! — deb yubordi.

Bu Parizodning eri edi: necha oydan beri yo'q bo'lib ketgandi.. Ollohquli bolalarni bag'riga bosib yig'ladi. Sevinch yoshlaridan keyin Ollohqulini hovliga olib chiqib yuz-qo'lini yuvib olib kelishdi. Endi hamma dasturxon atrofida o'tirib xursand bir holatda ovqatlanardilar. Kozim kishi ham ayoli bilan kelib qoldi.

U Ollohqulini ko'rgach:

— Hoy bultur ketgan bedana, ahir kepsanda yana, — deb ko'rishdilar. — Oshna, bir teri-yu suyak bo'lib qolibsan-ku. Demak narsa sotib pul qilmoqchiyding, bor-budingdan ayrilib kelibsan-u!

Kozim qahqaha urib yurakdan kular, Ollohquli ham non bilan tovoq tagini sidirib og'ziga olib borarkan:

— Mazhab haqqi, rost aytasan, shunday bo'ldi, — dedi.

Telli bilan Gulnoz dasturxonni yig'ishtirib, piyolalarda xo'jag'at choyi berishdi.

Havo issiq edi. Ochiq derazadan ufurgan havo tor xonaga ta'sir etmasdi: hamma terlagandi. Safar urushlardan bo'shay olmaganidan, hali ayvonni bitira olmagandi, hovlida ekkan nihollari hali yosh, soyalari yo'q edi. Mehmonlar Safarni bezovta qilmaslik uchun, xivichdan to'qilgan tor xonaga tiqilishgan edi.

Kozim deraza taxtasiga suyanib, o'ziga xos hazil bilan:

— Hoy, Ollohquli, — dedi, — olib kelgan sovg'alaring o'zingniki bo'lsin, gapir-chi shu paytgacha qayerda eding?

Ollohquli boshiga tushganlaridan shikoyat qilganday:

— Xullas, Tiflisga yetib bordim, — dedi, — borishda yomon bo'lmadi, bir-ikkita gilamcha, u-bu narsa olib borgandim, o'rislarga sotdim. Qarasam ishlarim yaxshi ketayapti, tevarak atrofdan arpa-somon olib keldim, yaxshi pul topdim.

Tiflisdan bir uy olsam degan o'yim bor edi, kelib-ketib, bola-chaqani ham olib ketmoqchi edim. Uy ham oldim, qo'limdagi pullarga u-bu narsalar ham xarid qilib, bir karvonga qo'shildim... Nima ham qila olardim, yo'lni mardimozor lazgilar to'sishdi.

Ollohquli piyolani labiga tekizib bir qultum ichdi, hayajonlanib biroz jim qoldi, keyin so'zida davom etdi:

— Itning bolalari juda yovuz, shafqatsiz ekanlar; karvonni o'qqa tutib, o'ldirganlarini o'ldirib, o'ldirmaganlarining qo'llarini bog'lab, karvonga qo'shib oldilariga solib haydadilar. Bir joyga yetib keldik. Bor narsamizni tortib olishdi. Bizni bir savdogar sotib oldi. Hammamizni bir dahmaga joylashtirib, oldimizga bir burda non bilan suv qo'yishdi. Bunisi kun bizni otliqlar haydab qayergadir jo'nadilar. Ikki kun yo'l yurdik. Bir mahal bir guruh ko'chmanchilar yo'limizni to'sdi, otishma boshlandi. Qarasam hamma aralashib ketdi, mazhab degan narsani unutdik. Bir-birimizning qo'limizni yechib, bosh oqqan tomonga sochilib ketdik.

Keyin bilsam, bizni Rum[1] eliga olib borishgan ekan. Xullas bir necha kun tog'-u toshni och-tashna kezib, bir cho'lga chiqdim. Bir to'da ko'chib ketayotganlarga ko'zim tushdi, nima bo'lsa bo'lar deb tavakkal qilib ularning oldiga bordim. Buni qarangki, ular ham Qorabog'ga ko'chayotgan ekanlar. Xudo ularga madadkor bo'lsin, ularning soyasida bu yerlarga yetib keldim...

Kozim tinglarkan boshini sarak-sarak qildi:

— Tangri oxirini xayrli qilsin, — dedi, — dunyo alg'ov-dalg'ov bo'libdi-da, — Kozim taraddudlandi va istehzo bilan: — Bas o'risning kattalari bu ishga nima deyapti? Axir to'p — zambaragi, kuchi bor.

Ollohquli ma'yus bir ahvolda:

— Eh, Xudo ursin ularning ishini! Ozgina qo'shin olib kelishibdi. U ham bo'lsa Tiflisdan tashqaraga chiqishni istamaydi. Bir

[1] **Rum** — Turkiya.

tomondan lazgilar, ikkinchi tomondan Sulaymon posho[1]ning odamlari ochiqboshga[2] qarshi chiqmoqdalar. It egasini tanimaydi.

Men u yerdan chiqqanda aytishdiki, Umar xon besh ming qo'shin bilan Alazan daryosini kechib o'tibdi. Tiflis aholisi qo'rquvdan dir-dir titrardi. Hokimning ishi hamisha Qozox — Shamshaddin eli yordamida bitardi. Endi ular ham qo'shinga odam bermayapti. Juda tang ahvolga tushib qolishsa ko'chib bu yerlarga kelishadi... Eh-he, usta Kozim, dunyo yomon alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi, Tangrining o'zi asrasin!

Ollohquli piyoladagi xo'jag'at choyini sipqordi-da, alamli bir ahvolda piyolani Telliga uzatdi:

— Qizim, yana bir piyola qo'y, kunlaring yorug' bo'lsin, — dedi.

Ollohqulining yuragi hali bo'shalmaganga o'xshardi. Tiflisda ko'rgan va eshitgan narsalarni gapirib berish ehtiyoji unga tinchlik bermasdi.

Telli uzatgan issiq choyli piyolani olib, derazaning taxtasiga qo'ydi va peshonasining terini qo'l uchi bilan artib, davom etdi:

— Hamma joydan battar Dog'istondir, — dedi. — O'sha yerdan bitta armani qochib keluvdi. Uning aytishicha, Shayx Mansur degan bittasi chiqib jihod boshlabdi, katta qo'shin bilan o'risning ustiga bostiribdi. O'zi cho'pon ekan, ammo endi xalq nomidan qasamyod qilayotganmish. Usta Kozim, birodar, sendan aqlli odam yo'q ekan, mazhab haqqi. Rost aytayapman... Necha marta o'limdan qutulib qoldim...

Kozim g'olibona bir kulish bilan:

— Xo'sh endi bildingmi, bu haqiqatni. Men "ozgina oshim, og'rimas boshim" deganimda kularding. Bilasan-ku, ot tepkisini ot ko'taradi. Hozir boshingni omon asramoqchi bo'lsang boshing ham qil, kasbkorlaringga suyan, bu bo'rondan saqlan, vassalom! Men dunyo ko'rgan odamman: yetim qiz bo'lsang, bukchayib yot!

Suhbat qizigandan qizidi. Safar ham ko'rgan-kechirganlarini gapirdi. Keyin oiladan, turmushdan hangoma qilishdi. Ollohquli

[1] **Sulaymon posho** — Ahisxa xokimi, posho-general.

[2] **Ochiqbosh** — Irakliy.

oilasiga qarashib turgani uchun Kozim va Safarga minnatdorlik bildirdi:

— Mazhab haqqi, — dedi,— kulfatdan tashvishim yo'q edi, chunki non-tuz ulfati ekanimizni bilardim, axir qabrdoshlarmiz.

Kozimning jahli chiqib:

— Bu nima deganing, — dedi, — hech Gulnozni Tellidan ajratamanmi? Parizod rozi bir nigoh bilan Kozim va xotiniga qaradi va minnatdor holda ko'zlariga yosh oldi.

Birdan Kozim mardona bir tovushda:

— Ollohquli, — dedi, — endi tur, ust-boshingni almashtir. Xalq orasiga borasan.

— Almashtirishga bor deysanmi? Mardimozor lazgi bo'lsam...

— Yo'q bo'lsa menikini kiyasan. Qimirlasang-chi, sendan ayaymanmi?

Kozim xotiniga qora chuxa va chakmonini, ko'k shimini Ollohquliga berishni tayinladi.

12

Fatali xonning Oronni talab, orqaga qaytishi haftalarga cho'zildi. Bu paytda Ibrohim xon Fatali xonning orqasiga qaytishida Shushaga hujum qilish ehtimolini hisobga olib qo'shini bilan Askaranda kutib turardi. Voqif ham xonning huzurida bo'lish majburiyatida edi, lekin bu majburiyat adoyi tamom qilardi. Har soat, har daqiqa ruhi vujudidan ayrilib shahar tomon uchardi.

Ajoyib bir kun edi. Mayin yel gilam kabi bezangan gullarga urilib sof havoni ifor bilan to'ldirardi. Voqif chodirdan chiqib, yashil dala bo'ylab borardi. Uning hamisha navqiron, yorqin va muloyim tabassumi bilan yonib turuvchi ko'zlariga endi g'am pardasi cho'kkandi. Borgan sari quyosh g'arbga qarab pasayib borar, ufqning po'rtahol ranglari qizillashar, olis o'rmonlarning moviy pardalari tundlashib, osmondan yerga sirli bir hadya tushadiganday xar narsa koinotning alvon bo'yoqlariga cho'mib sukut saqlardi. Voqif yurishdan to'xtab, oqshom dabdabasini tomosha qila boshladi. Ikki tog' orasiga yoyilgan Qarqar daryosi sirli sharqirashi bilan unga go'yo: "Dunyoda faqat bir marta yashaladi", deya tushunib

bo‘lmas qayg‘ularni talqin etdi. Boshini o‘ng tomonga burdi: moviy soyalarga burkangan minglarcha gullar unga dardli mahluq singari ko‘rindi. Go‘yo oq kiyimli ma’sum qizlar tiz cho‘kib, tevarakdagi ulug‘vorlikka sig‘inayotgandi.

Uzoqdan hazin bir tovush kelganday bo‘ldi, go‘yo kimdir yig‘layotgandi: so‘nuk soz simlari nola qilardi. Hasrat va ayriliq hissi butun dahshati bilan shoir qalbini g‘am-anduhga to‘ldirdi. Chuqur iztirobini bosish uchun orqaga qaytmoqchi bo‘ldi, qarasa qaroli orqasida turibdi. Hayrat bilan seskanib:

— I-ye, sen bu yerda nima qilayapsan, — deb so‘radi.

— Og‘a, qarasam juda uzoqlab ketayapsiz, ehtiyot bo‘lib, orqangizdan keldim.

Voqif jilmaydi, lekin bu jilmayish hasrat dog‘i bilan to‘la edi:

— Bor, chodirdan mening haligi kichik xurjunimni olib kel! — dedi.

Qarol yugurib borib, bir pasda xurjunni olib keldi. Bir tosh ustida o‘tirgan Voqif uni kutayotgandi. Xurjunni oldi:

— Mayli, sen boraqol, — deb qarolni jo‘natib yubordi, xurjundan qog‘oz va qalam olib, yoza boshladi. Uni hayajonga solgan butun his-tuyg‘ulari qalamdan qog‘ozga oqa boshladi:

Qizil kiyib, chiqsam gulshan sayriga,
Yig‘ilar boshiga gullar aylanar.
Matlabi — husni banda farmondir,
Xizmatida oylar, yillar otlanar.

Ko‘rmaganman sendek bir malakzoda,
Dardini tortaman haddan ziyoda:
Kipriklarning uchi tushganda yoda,
Bag‘rimning boshida millar aylanar.

Men bir Farhod, sen bir Shirin dahansan,
Darding zohir, ammo o‘zing nihonsan,
Go‘zallik bobida shohi — jahonsan,
Azming bilan doim ellar aylanar.

Lablaring bag'rimni dilxun ayladi,
Oqizib ko'z yoshim Jayhun ayladi.
Hasrating Voqifni majnun ayladi,
Shuning uchun kezar, cho'llar aylanar.

Endi kechaning bo'z qanotlari atrofga yoyilgandi. Voqif qog'ozdan bosh ko'targanda qizil kiyingan Madina unga ko'ringanday bo'ldi. Shoirning ko'zlaridan ikkita iliq tomchi tushib qog'oz uzra yoyildi.

Voqif bu she'rga xat ham ilova qilib, muhrladi. Xurjun qo'lida chodirga tomon xayollar ichida kelayotgan Voqifni olisdan ko'rgan qarol yugurib kelib xurjunni og'asining qo'lidan oldi. Voqif to'xtab, dedi:

— Otga min, ushbu nomani darhol Qal'aga yetkaz, Madina xonimga ber, darrov qaytib kel!

Qarol bir necha bor shunday xatlar olib borgandi.

— Xo'p bo'ladi, — deb jo'nab ketdi.

Voqif yotoqxonasida cho'zilib yotardi, lekin ko'zlariga uyqu kelmasdi. Chodirning eshigidan oyni tomosha qilardi, uning ham afsonaviy bir ishqi bo'lganini eslardi. Oy ham asrlardan beri maftuni bo'lgan ma'shuqasi quyoshning orqasidan chopardi, uning sog'inchi — hasratida tipirchilardi. U ham Voqif singari ishq yo'lida horib tolgan bo'lib, tepalar ortidan so'lg'in chehrasi bilan olamni tomosha qilar, sevgi mashaqqatlari siridan voqif bo'la olmasdi. Soatlar emas, yillar aylanardi, umr o'tar, chopar esa kelmasdi. Voqif o'rnidan turib, xonada o'tirdi. Qulog'i ding edi. Turib chodirdan tashqariga chiqdi. Hasratni sog'inchga qovushtirgan yo'llar oy yorug'ida oqarardi. Olisdan chang ko'tarilganday edi. Bu chang shoir qalbini sevinch bilan to'ldirardi. O'zini to'xtata olmay yo'lga qarab yurdi. Chopar saodat mujdasi kabi chopardi. Nihoyat, Madinaning maktubi Voqifga yetdi. Tezda qaytib, titroq qo'llari bilan shamni yondirib o'qidi: faqat bitta bayoti yozilgandi:

Ohular ma'rar kelar,
Tog'larni yorar kelar.

Yor yorni istaganda
Kechani yorar kelar!

Voqifning qo'llari bo'shashdi. Ko'p o'ylab o'tirmay, tashqarida kutib turgan choparga:

— Otingni almashtir, menikini ham egarla, Qal'aga bormoqchiman, deb kiyina boshladi.

13

Fatali xon Qubaga qaytgan, odamlar ham ko'pdan beri xaroba bo'lib qolgan qishloqlarga qaytishgandi.

Mammad bek Kahrizli mulkiga kelib, bir necha kun ediki Huri bilan Oyishaning yonida edi. Bir kuni o'rmonda ovda ekan chopar kelib uni topdi:

— Og'a, — dedi, — Ag'damdan odam kelibdi, sizni o'sha yerga chaqirishyapti.

Mammad bek o'zgarib qoldi. Shahlo ko'zlari o'yga toldi:

— Kim chaqirayapti? — dedi, — Nima bo'ldi?

Chopar duduqlandi. Aftidan gapirishni istamasdi. Mammad bek g'azablandi:

— Aytsang-chi, nima bo'ldi, itning bolasi!

Chopar titroq tovushda:

— Og'a, yuragingizni xarob qilishni istamayman...

Mammad bekning battar jahli chiqdi

— Nega indamaysan? — dedi ko'zlarini kosasidan chiqarib.

Chopar voqeani aytishga majbur bo'ldi.

— Og'a, — dedi, — Mehrali bekning mayitini olib kelishibdi.

Mammad bek otasining o'lganini eshitib qotib qoldi. Mehrali bek necha yildan beri Fatali xon yonida edi.

— Nima? Otam o'ldimi, yo o'ldirishdimi? — deb so'radi.

— Og'a, Bokudan qaytayotgan ekan, yo'lda ko'r Og'asi xonning o'g'li Ahmad bekka duch kelibdi. Ahmad bek bilan rahmatlik Mehrali bek o'rtasida janjal chiqib, o'ldirilibdi.

Mammad bek navkarlarini olib, Ag'damga ot qo'ydi. Mehrali bekning tobutini xonlik binosining bog'iga qo'yilibdi.

Ibrohim xon ham a'yonlari bilan shu yerda edi. Xon Mammad bekni ko'rgach ho'ngrab yig'lab uni bag'riga bosdi:

— Mammad, belimiz sindi! Ko'rayapsanmi, Og'asi qanjiq non tuzimni yeb, qanday nomardlik qildi?!

Xon dastro'moli bilan ko'z yoshlarini artib: — Onangning suti senga harom bo'lsin, otangning qonini yerda qo'ysang! — deb, mayit namoziga turdi.

Mehrali bekning mayitini binoning hovlisida, otasi Panoh xonning yoniga ko'mdilar.

Dafn marosimidan so'ng qurilgan ulkan g'orda Xudoyi berildi.

Quba xoni Fatalining marhum Mehralining dafn marosimiga yuborgan odamlari ham shu yerda edi. Ibrohim xon eski dushmanlikni unutib, birodarining janozasiga hurmat ko'rsatgan bu odamlarga katta iltifotda bo'la boshlagandi.

O'sha kuni Mammad bekning sarkardaligida qo'shin tayyorlanib, Shirvon xoni Og'asidan qasos olish uchun Fatali xonning ko'magiga yuborildi. Voqif bu tashabbusga qarshi biror so'z ham aytmadi. Chunki Ibrohim xon g'azablangandi, aql-farosatdan chalg'igan bir holda edi. Voqif yuragini tirnayotgan dardlarini Mirza Alimammadga ochdi. Oqshom payti bino bog'ini aylanarkan istehzo bilan:

— Hoy sayid, tasaddug'ing bo'lay, bugungi ishlarni qanday tushunding? — deb so'radi.

Mirza Alimammad chuxasining yenglarini yelkasidan oshirib, ehtiyot-la:

— Oxund, — dedi, — aka qoni bu, dushman bo'lsa ham aka, axir.

Voqif kulimsiradi:

— Mayli, hoy mirza, — "mirza" so'zini Voqif istehzo bilan aytdi: Fatali xonni ag'darib, tinch bo'lish uchun Mammadhasan xonni Jarga yubordik, qo'shin to'pladi, Hoji Abdilqodirni o'ldirib, Shakini egalladi; Og'asi xonga yordam berdik, yana Shirvonga ega bo'ldi. Endi Shakidan va Shirvondan kelgan qo'shin Fatali xonni bo'g'gan paytda biz qaytib Fatali xonning hiylasiga uchayapmiz... — Voqif Mirza Alimammadni biroz kuzatib jilmaydi:

— Fatali xon bizning yordamimiz bilan Og'asi xonni va Mammadhasan xonni bosadi, keyin esa, qaytib keladi bizga tomon. Voqif gapini tomomlab, istehzo bilan qahqaha urdi. Mirza Alimammad biror so'z ham demadi.

Shu asnoda xon ularni chaqirtirdi. U mog'oraning to'rida o'tirardi. G'orning o'rtasida so'zana solinib, ustiga 32 juz[1] qo'yilgandi. Atrof bek, yuz boshi va maliklar shu yerda edilar, ta'ziyaga kelishgandi. Voqif bilan Mirza Alimammad ichkari kirganda mulla "Allohin min qaratil fotiha!" deb o'qiyotgan Qur'on oyatiga o'tdi. Voqif bilan Mirza Alimammad kiraverishda to'xtab, fotiha o'qiy boshlashdi.

14

1786-yilning bahori edi. Nayson yomg'irlari to'xtaganiga ikki kun bo'lgandi. Mehmonlar Askaranga qaragan minorada o'tirishardi. Shaharning barcha a'yon va ashrafi shu yerda edi. Bu ziyofat Shushaga kelgan Avar xoni Umar sharafiga berilayotgandi. Umar xon Gurjistonni talab, Vahang qal'asidan asir olgan Abashidzening ikki qizining bittasini o'ziga, Yelena degan ikkinchisini bir talay sovg'alar bilan birga Ibrohim xonga hadya keltirgandi. Ibrohim xon Yelenaning go'zalligiga hayron qolib, uning ismini "Javohir" qo'yib, haram tojining ko'rkam bir yeriga joylashtirgandi. Javohir xonimdan olgan zavqi xonning chehrasidagi doimiy g'azab izlarini o'chirib yuborgan, uni xushraftor, muloyim dasturxon sohibiga aylantirgandi, hamma mamnuniyat bilan ikrom aylardi. Xonning butun e'tibori to'rda o'tirgan qirg'iy burun, shohboz ko'z qarashli, chaqqon harakatli, kelishgan bo'y-bastli Umar xonda edi. Umar xon zo'r ishtaha bilan palov yerdi va Gurjiston safarini dog'istonlikka xos tallafuz-la turkcha gapirardi:

— Sulaymon poshoning maktubini o'qib, juda alam qilib ketdi. Posho haq edi. O'rislarning Qizlar tomondagi bizning musulmonlarni qirib, ularning o'rniga o'rislarni olib kelib joylashtirganlari ko'pdan beri mening yuragimni yondirayotgandi. Oxiri Shayx

[1] **Juz** — hissa, ulush.
Bu yerda gap Qur'on oyatlari haqida borayotir.

Mansur xuruj qilgach, butun Chechen va Qabarda oyoqqa turdi. Endi qarab turishning o'rni emasdi. Xalqni yig'ib, bordim... Umar xon go'sht parchasini og'ziga solib faxr bilan Ibrohim xonning yuziga qaradi. Xonning kulib turgan ko'zlari Umar xonning ko'zlariga tikilgandi. Voqifning ham qulog'i unda edi. Umar xon chaynayotgan go'shtni yutdi:

— Vallohulazim, birodar, sizning Ganjaga qo'shin bilan kelganingizni eshitib yig'ladim. "Himmatal rachal, taqlal jihal" deganlar. Xullas Sig'noqni, Kumushxonani qilichdan o'tkazdim. Qish tushdi. Ahisxaga o'tdim. Sulaymon posho bizga rosa hurmat ko'rsatdi. Yozda qaytdim, Abashidzening Vahang qal'asini ham dabdala qildim. Endi Irakliyning dimog'i pasaygandi: o'risni chaqirganiga pushaymon edi. Sulaymon poshoga va menga xat yozib yarashishni istardi.

Oltin ham yuborgandi, o'rislarning kattasi menga bir tilla tamakidon ham hadya yubordi. O'ris Tiflisdan chiqmasa, yarashmaymiz, — deb yozdik...

Umar xon so'zini tugatarkan, idishdan bir qazmoq[1] olib, sog'lom tishlari bilan qarsillatib chaynay boshladi.

Voqif jiddiy bir tovushda so'radi:

— O'ris nima deyapti, chiqib ketayaptimi, yo'qmi?

Umar xon shartta:

— Og'am, xotirjam bo'ling, ketadi, — dedi, — Shayx Mansur Terek yo'lini to'ssa, o'ris Tiflisda o'ladi... Shayx Mansur imom saylanadi, butun Dog'iston o'limga olib borsa ham borgusidir.

Ibrohim xon g'urur bilan:

— Irakliy o'risning panasida turib bizni bo'yinsindirmoqchi edi. Savdosi pishmadi, Yerevan ham qo'lidan chiqdi. Endi u yerlarda ham ishlar boshqacha tus oldi. Xoylik Ahmad xonga Usmonli podshosi sarkardalikni beribdi, men ham Ahmad xonga qo'shin yubordim, Tabrizni olib, Hidoyat xonni asir etdi...

Majlis jim qolib, mamnun bir holda ovqatlanardi, og'iz chapillashidan boshqa hech narsa eshitilmasdi. Voqif palovni yeb bo'lib, dovg'aga[2] o'tgandi.

---

[1] **Qazmoq** — non po'stlog'i.

[2] **Dovg'a** — ayron va guruchdan tayyorlangan salqin ovqat.

Bir–ikki qoshiq olgach, kulib:

— Mening qozohliklarim ham ko'chib ketishayapti, — dedi. — Ahmad og'a ming besh yuz oila bilan qo'zg'alibdi, kelmoqchi bo'layapti.

Umar xon tasdiqladi:

— Qozox Shamsiddin Irakliyning o'ng qo'li hisoblanadi. Ular ketsa, Irakliy qo'shinsiz qoladi. Qozohliklar juda mard toifadir. Men ularni shu safar ko'rdim. O't –olov bari...

Safar payti Voqifning lalasi shoir Vidodiy kelayotganini xabar qildi. Voqif xondan izn olib shoshib uyga qaytdi. Do'sti Vidodiyni derazaning ichkarasida o'g'li Qosim og'a bilan suhbatlashayotganini ko'rib, uni o'rnidan turishga qo'ymay o'zi egilib borib quchoqlashib ko'rishdi.

Voqif so'radi:

— Qani ayt–chi, to'qmisan, ochmisan?

Vidodiy mutavoze bir holda:

— Iltifoting uchun rahmat, — dedi, — ovqat berishdi, tamaddi qildim.

Voqif o'g'li Qosim og'aga o'girilib:

— Bizga qahva tayyorlattir, — dedi. Keyin Vidodiy bilan qarama-qarshi o'tirib, ko'pdan beri sog'ingan do'stlar shirin suhbat boshlashdi.

Vidodiy o'rta bo'yli, soqoli oqargan, ozg'in va nuroniy bir kishi edi:

— O'ta dindor va dunyodan qo'l yuvib qo'ltiqqa urgan bir odam edi. Voqifdan yetti-sakkiz yosh katta, tabiatan shan va nash'ali Voqifning aksi bo'lishiga qaramay, o'rtalikda qalin do'stlik bor edi. Hamisha bir-biri bilan yozishar va bir-biriga she'rini yuborib turishardi.

Voqif cheksiz mehr aks etgan ko'zlarini do'stiga tikib: Juda soz, — dedi, — ajoyib! Bilasiz-ku sizni ko'pdan beri kutayotgandim.

Vidodiy qo'llarini ishqalab:

— Ko'chdim, men ham ko'chdim, — dedi. — Qozohda yashash qiyinlashdi. Dedim bir borib Qorabog' bilan tanishay, keyin iloji bo'lsa xotin, bola-chaqani ham yig'ishtiray.

— Yaxshi qilibsiz, menga o'xshab avval Javonshir keyin esa "Qizilbosh" bo'lasan!

Ha-ha-ha! — deya istehzo bilan kuldi Voqif.

Vidodiy mayin tabassum bilan do'stiga qarab:

— Panoh, — dedi, — anchadan beri seni ko'rmayapman, na qaribsan, na shavq-zavqdan qolgansan.

Voqif ta'kidladi:

— Hoy, Mulla Vali, — dedi, — bu odamning o'ziga bog'liq: Inson degan sal yuzadan yurish kerak, juda ham chuqurga qo'l cho'zavermagani ma'qul. Insonga umr bir marta berilgan, to'y-guncha yashash lozim. "O'l!" deganda o'lamiz. Ammo bu tor dunyoni shunday o'tkazishing kerakki, o'lganda orqaga qarab afsuslanmagin! Hikmat ana shunda.

Vidodiy bu fikrga qo'shila olmasdi:

— Bu sen aytganlar odamning o'ziga bog'liq bo'lmasa-chi?

— Nega bog'liq bo'lmaydi. Inson foili muxtordir. Har narsani o'ziga buysundirishi kerak.

Vidodiy Voqifning fikriga sira qo'shila olmasdi:

— O'lkadagi bu mojarolarni, nohaq qon to'kishlarni, bosh kesish, ko'z chiqarishlarni ko'rib turib ham odam xotirjam bo'la oladimi? Odamlarga nisbatan bo'lgan muhabbat insonning yuragini yondiradi. Bechora Mushtoq Husayn xonni Hoji Abdilqodir nega bo'g'dirdi?

Bu saxovat, lutf va karam sohibining gunohi nima edi? Oxiri Mushtoqning o'g'li Mammadhasan xon ham otasining o'chini oldi — Hoji Abdilqodirni o'ldirdi. Haqqi edi, yengdi. Bu zulmlarni ko'rgan xursand bo'ladimi?

Voqif jiddiy tusda:

— Xursand bo'lmaganingizdan nima ham chiqardi? — dedi. Otalar aytgan-ku: To'qilgan to'lmaydi deb! — deb. Umr azob bilan shodlikdan qorilgan tikanli bir guldir. Uning tikoni bo'lmasa, guli ham latifligidan mahrum bo'ladi. Umring zavqidan sevingan kabi azobini ham to'y-bayram deb bilishing kerak.

Vidodiy jilmaydi: lekin kulimsirashida azob ifodasi sezildi; u o'z she'rining juda sevgan ma'ruf parchasini parishon bir ohangda o'qirdi:

Yuz mavsumi-xo'sh hurram bo'lib yillar ochilsa,
Yuz lola bitib susan-u sunbullar ochilsa,
Yuz bog'i-jahon yangilanib, gullar ochilsa,
Ko'nglimki ochilmas qancha mushkullar ochilsa.

Lala qahva olib keldi. Voqif finjonni ko'tarib hidladi:

— Mulla Vali, dedi, — qaragin, ushbu qahvaning hidida his qilganim shu bir lahzalik lazzat dunyoning butun azobini unuttiradi. Menimcha butun dunyo o'rnida qurilgan va chiroyli qurilgan. Bu bizni har daqiqada chaqib ranjitgan pashsha ham menga farishta holida ko'rinadi, u uchib ketgach shunday degim keladi:

Ketgan ketma, menga qara, hoy ketgan!
Ko'zim to'ymas sendek go'zal kimsadan:
Goh yoqadan shu'la berar oq badan,
Goho esa nozik qo'llar ko'rinar...

Vidodiy bu safar butun samimiyat bilan kuldi, tasbehini qo'liga to'plab:

— Yo'q azizim, — dedi, — men hech yanglishmaganman, sen chindan ham yosh ekansan: pashshaning ham yoqasidan shu'la sochuvchi oq badanni ko'rarkansan...

Voqif qahvani ho'pladi-da, qahqaha urib kuldi.

15

Vidodiy hali Shushada, Voqif mehmoni edi. Voqif saroydan qaytgandan so'ng ayvonda o'tirib shirin suhbat qurardilar. Bir-biriga yangi yozilgan she'rlarini o'qib berishar, shaharning va qo'shni o'lkalarning yangiliklaridan gaplashardilar. Voqif hazillashishda davom etar, do'stini ham kulishga majbur qilardi.

— Bizda har kuni bir yangi xabar bor; yo to'ydir, yoki voy, o'rtasi yo'q. Umar xon keldi, olib kelgan gurji go'zalini xonga tuhfa qilib, evaziga xonning singlisini olib ketdi. Ibrohim xon ukasi Mehrali bek bevasiga o'ylanmoqchi bo'ldi, bo'lmadi...

Vidodiy g'amgin ovozda Voqifning so'zlarini bo'ldi:

— Rostdan ham, hoy Panoh, aytishlaricha Mammad bek onasining xonga erga tegmasligi uchun o'ldiribdi, bu qanaqa gap?

Voqif taassuf-la:

— Shunday, — dedi, — sho'rlik ayol ko'kragini chiqarib: "Bolam, seni sutim tutadi, xanjarni joyiga qo'y!" — debdi. Mammad bekning ko'zini qon tutgan ekan, xanjarni benavoning yuragiga sanchibdi...

Vidodiy ko'ksini changallab:

— Yomon zamonada yashayapmiz, — dedi, — ota-onaga hurmat yo'q: non-tuz oyoq ostida toptalayotir.

Bu fojiali xabar do'stlarni o'yga toldirdi. Birozdan keyin Vidodiy yuzida jirkanish bilan:

— Xo'sh. Ibrohim Xalil xon bunga qanday qarardi? — dedi.

— Ibrohim xon nima ham deya olardi, busiz ham dardi-qilmishlari juda ko'p. Mammad bek ham o't-olov kabi bir kas, kallakesar to'dasini olib jo'nab qolgan. Shu ketganicha ketdi, birorta "ko'rdim" degan odam yo'q. Juda borsa, borib Og'amammad xonga qo'shiladi. Bu yanada yomon bo'ladi. Chunki o'lkani yaxshi biladi, tarafdorlari ham ko'p.

Vidodiy Eron ishlari bilan qiziqdi:

— Hoy Panoh, — dedi, — Erondan qanday xabar bor? Haliyam urush borayaptimi? Musulmon qoni to'kilayaptimi?..

Vidodiy so'nggi jumlasini qattiq iztirob bilan aytdi. Voqif ham ayni iztirobni sezgan holda:

— To'kilayapti, Mulla Vali, — hamda behuda qon to'kilayapti, — dedi. Alimurod xon istisqo illatidan o'ldi, o'rniga Lo'tfali xon o'tirdi. Isfahon tomonda ur-yiqit. Og'amammad xon Tehronda, o'z Qojar — elining yaqinida. Ukasi Jafarquli xonni bosib Astroboddan quvib yubordi. Xozir Quba xoni Fatalining yonida, o'risning qanoti ostiga kirmoqchi bo'lyapti. Aytishlaricha, Isfahonga inglizlar ko'plab to'plar yuboribdi... Xullas, Mulla Nasriddin aytganday o'lka alg'ov-dalg'ov bo'lib turibdi.

Vidodiy hayrat-la tinglab, dedi:

— Hoy Panoh, inson oxir-oqibat o'lmaydimi? Bu besh kunlik dunyoda hashamati uchun shunchalik bosh og'rig'i tortishga

arziydimi? Shoh ham, gado ham o'lib tuproqqa ko'miladi. Oxiri o'lim ekan, bu foniy dunyoni zohid va taqvo bilan o'tkazish yanada yaxshi bo'lmasmidi?

Voqif do'stining bu tarki dunyochiligiga javob tariqasida jilmaydi, Vidodiy masalani tushunib shartta:

— Bilaman, — dedi, — zohid va taqvo xayolingga kelmaydi. Biroz keksayasan ham, o'lim qo'rquvi joningga tushar, shundagina Voqif bo'larsan. Hali Voqif emassan, foniy dunyoga bel bog'lagan Panoh o'g'lonsan.

Voqif kuldi:

— Hoy Mulla Vali, — dedi, — axir o'limni ham Tangri yaratgan, ishqni ham, zavqni ham, go'zalni ham. Tangri oxiratda menga aytmaydimi: "Hoy bandam, senga yurak berdim — sevmading, lab berdim — o'pmading, ko'z berdim — o'sha yashilbosh so'na[1]larni to'yguncha tomosha qilmading; nega?" Unda men Tangriga nima deb javob beraman.

Vidodiy kuldi:

— Xudo haqqi, Panoh, to'y — bayramsan! — dedi. — Sen bilan gaplashganda odamning dili yayraydi.

Voqif birdan so'zni o'zgartirdi:

— Men uyda bo'lmaganimda zerikmayapsanmi? — deb so'radi. — Bayozlarimni mutolaa qilmadingmi?

— Yo'q, zerikmadim, — dedi Vidodiy, — bayozlaringni o'qiyapman. Juda saranjom-sarishta odamsan-da o'zi, ham o'z she'rlaringni, hamda boshqalarnikini yig'ib asrayapsan. Sho'rlik Mammadhusayn xon Mushtoqning senga yozganlarini ko'rdim, yaralarim yangilandi.

Voqif taassuf-la:

— Juda ajoyib odam edi, — dedi, — bekorga o'ldi ketdi. Juda saxiy va mard edi. Bir miltiq va po'stin so'ragandim. O'ta hushraftor mulozimat bilan yuborgandi!

Voqif to'xtadi, bu safar yuzida chuqur bir alam ifodasi bor edi.

— Mulla Vali, — dedi, — sen meni zohiran hazil ichra ko'rayapsan, aslida barcha shoirlarimiz singari mening ham dardim tug'yon urgan vaqtlarim bo'ladi.

[1] **So'na** — o'rdak (bu o'rinda go'zal ma'nosida).

Vidodiyning dardi ochildi:

— Panoh, — dedi, — endi mening aytganimga kelayapsan. Bu zaruratdir, hali yoshing o'tgan sari yanada parishon bo'la borasan. Dunyo o'zgarmaydi: ahd, vafo, sadoqat, rostgo'ylik qolmaydi. Og'a Masih Shirvoniy go'zal aytganlar:

Bo'libdi qalb xoin, xaq bilan bir pok tinat[1] yo'q,
Tushganda sotmagan dinorga dinin hech millat yo'q,
Zukur oqshomining tabinda aslo to'g'ri bayot yo'q,
Ayol ahlinda bir zarra hisobi sharmi ismat[2] yo'q,

Tariqat, odamiyat yo'lda, na arkonda qolgandir.

— Tariqot, odamiyat bo'lsa, bu hangomalar bo'ladimi? Qara, Nishot Shirvoniy nima yozadi:

Bir damda uy tikladim va yiqib yo'lga tushdim,
Yuz ko'rmadim az baskim Nishot ahl vatandan
Shu vajdankim, bosh olib, har elga tushdim...

— Hoy Panoh, mening ham dardim Nishotning dardidan emasmi? Yurtim, uyim bor edi, kunda bittasi ot chopib keladi, bosadi, talaydi. O'lgan o'ladi, qochgan qochadi, qo'lsiz, oyoqsiz ham ochidan o'ladi: "Raiyatlar qilar dastgoh har besh kunda bir shohni".

Voqif o'rnidan turib, uyda aylana boshladi:

— Mulla Vali, — dedi, — hech o'z hamyurtimiz Abdulrahmon og'a "Shoir" taxalluslini aytmaysizmi? Irakliy xon u kishining ko'zlarini o'ydirtirdi, yorug' dunyoga hasrat qo'ydi. Yozgan har satridan qon tomadi.

Mulla Vali ham oyoqqa turdi:

— Bas, Panoh, musibat daftaringni yop, qalbim portlaydi... To'xtab, o'yladi: — Oqshom cho'kdi, havo salqinlashdi, sayrga chiqaqolaylik, — dedi.

Voqif rozi bo'ldi, otlarni minib aylangani chiqishdi. Qal'a darvozasidan chiqib, Dotalabga qarab yurishdi. Atrofda saf tortgan

[1] **Tinat** — oliy himmat.

[2] **Ismat** — toza, sof.

tog'lar, o'rmonlar, qiyaliklar, daralar quchog'ida sharqirab oqayotgan soylar, go'zal bir ohang hosil qilib odamlarni erkalardi: salqin va yengil havo iztirobli qalblarga quyilib, ularga orom berardi. Ikki keksa shoir otlarini yonma-yon haydab tabiat ulug'vorligining, uning fusunkor taronasining qarshisida biror so'z aytishga ham iymanardilar.

16

Ibrohim xon Umar xon bilan ittifoq tuzib, Fatali xonning hujumidan Qorabog'ni himoya qilganidan keyin Naxichevan safariga chiqqandi. Naxichevanni egallab, Shushaga qaytishi bilan odatiga ko'ra davlat arbobilarini yoniga chaqirdi.

Mammadhasan og'a, Voqif, Mirza Alimammad, Og'asi bek va boshqa og'alar, beklar va sarkardalar to'plandi.

Xonning yoz quyoshidan rangi qoraygandi, keksa bo'lsa ham yonoqlari tund qizil ko'rinardi. Chilimning so'rg'ichini qo'lidan qo'ymay, hammaning ahvolini so'rab chiqdi. Xotirjam va mamnun edi. Yuzini majlis ahliga burib:

— Qanday yangilik bor? — dedi. Hech kimdan sado chiqmadi. Xonning o'jar ko'zlari majlis qatnashchilarini takror aylanib chiqdi. Og'asi bekning yuziga qaraganda to'xtadi. Darg'a darhol:

— Xon sog' bo'lsin, — dedi, — Qal'aning ahvoli siz qoldirib ketganingiz kabidir. Faqat qo'shindan bir navkar miltig'i bilan qochmoqchi bo'lgandi, qo'lga olindi va Xazna qoyasidan boshini pastga qilib tashlandi.

Xonning mamnun qarashi darg'a Og'asi bekdan o'tib, Mirza Alimammadning yuziga qadaldi. Mirza Alimammad seskandi, o'rama qilib buklanib, beliga qistirilgan qog'ozni shartta chiqarib, qaydlariga ko'z yugurtirdi-da arz qildi:

— Qozohlik Ahmad og'aning ming besh yuz xonadon bilan birga Qorabog'ga ko'chishi Irakliy xonga juda alam qilibdi, o'ris qo'shini bilan Ganja taraflarga xujumlar uyushtirib, bizdan mazkur qozah ellarini orqaga qaytarilishi muddaosidir. Bunday xatti-harakat xonlikda bo'lgan ba'zi armani maliklarini, shu jumladan malik Abonni, malik Majnunni va Qandzasar rohibini junbishga

keltiribdi, bosh ko'tarishayapti. Tiflisga odam yuborib, o'rislarning Qorabog' hududlariga hujum qilish taraddudiga tushganlar.

Xonning Naxichevan zafari natijasi sifatida xotirjam chehrasi birdan esgan qattiq shamoldan to'lqinlangan o'rmon singari chayqaldi, qahri keldi, mo'ylablarini og'ziga olib, g'azabidan chaynay boshladi.

— Axir men Abonni nega zindondan bo'shatgan edim? — deya bo'kirdi. Aytaman, qo'yinglar bu badbaxt ko'ppak bolasini ildizi bilan qirib tashlay, quritay, har biringiz har xil gap aytasiz!

Xonning iyagi titray boshladi. Majlisga chuqur jimlik cho'kdi. Hech kim jur'at qilib boshini ko'tarolmasdi. Birdan xon qo'lidagi chilimni yerga otdi:

— Og'asi bek, — dedi, — tur!

Og'asi bek darhol o'rnidan turdi. Qo'llarini ko'ksiga qo'yib, mo'ylabini chaynayotgan xonning amrini kutdi.

Xon qattiq ovozda:

— Besh yuz suvoriyni olib, hoziroq sig'noq[1]larga bostirib borasan, tosh ustida tosh qoldirmaysan, — dedi. — O'sha qanjiq Aboni, Majnunni va rohibni sudrab olib kelasan!

Og'asi bek:

— Xo'p bo'ladi, — deya chiqib ketdi.

Xon biroz jim qolib mo'ylovini tuzatdi va chilimni olarkan:

— Sizlar ham bo'shsizlar! — deya maslahat kengashiga yakun yasadi.

Havo yaxshi bo'lgani uchun Voqif bilan Mirza Alimammad saroydan chiqib, piyoda yurmoqchi bo'ldilar. Jilovdorlar otlarni yetaklab orqadan yurdilar. Osuda nafas olishga juda ehtiyoj sezgan bu ikki inson suhbatlashib devonxona oldidan o'tib Soatli mahallasi tomon borardilar. Mamayi masjidiga yetganda O'hon kashishga duch keldilar. Salomlashishgach, Voqif hazil bilan gap boshladi:

— Hoy Mirza O'hon, aytishadi: "Echkining shohi qichishsa boshini cho'ponning tayog'iga surkarkan..." Demak maliklar tinch turisha olmaskan-da.

O'hon ahvolni bilardi:

[1] **Sig'noq**— sig'inuvchi. Ozarbayjonga kelib joy so'rab, sig'inib yashovchi armanilar nazarda tutilayotir.

— Oxund, — dedi, — "to chekmasang jafo — jon, qo'lga kirmas narsa hech qachon!" Qo'y azobini tortishsin!

O'hon so'zini tugatib o'yga toldi, yuzini g'am bosdi, so'ngra Voqifga qarab dedi:

— Ishqilib, sho'rlik xalqqa biror narsa bo'lmasaydi.

Voqif javob tariqasida aynan shunday g'amgin bir nigoh bilan O'honning qo'zlariga boqdi, hech narsa demadi. Go'yo ikkalasi ham:"Quruqning oloviga ho'l ham yonadi," deya afsuslanishardi.

Ikki hafta o'tgach Og'asi bek sig'noq safaridan qaytdi. Qandzasar rohibining uyi titilganda knyaz Potyomkinning xatlari topilgandi.

Xiyonat oshkor bo'lganini ko'rgan hokimning qo'rquvdan yuragi yorilib o'lgandi. Abo bilan Majnun esa Og'asi bekning kelayotganini eshitishlari bilan rus qo'shinidan umid qilib Ganja tomonga qochib ketgandilar.

17

Og'abayim beka endi ulg'ayib 14–15 yoshiga to'lgandi. Uning go'zalligi haqidagi xabar butun Ozarbayjon xonliklariga yoyilib, oshig'-u shaydolar tilida va shoirlar she'rida yod bo'lib ketgandi. Bayimning ishqida yonib kuyayotganlar ko'p edi. Xonzodalar va beklar, ot choptirgan, qilich chopgan mard-u maydonlar uning yo'lida qurbon bo'lishni shon-shavkat deb bilardilar. Lekin Ibrohim Xalil xon bu Qorabog' injusining qiymatini yaxshi bilar, hech bir nomli — unvonli elchiga mayl ko'rsatmas, qiz esa saroy bog'ida gul-u chechak orasida bir g'uncha kabi farah-la yashnardi. Yana enagasi Nozli rivoyatlar, afsonalar va dostonlar aytib berardi. Og'abayimga butun koinot G'irot mingan Go'rug'li kabi jasur, Majnun kabi telba va Farhod singari o'jar ishq gadosi sifatida ko'rinardi. U bir kun baland saroy devorlaridan xushro'y bahodir otini sakratib o'tib uni baquvvat bag'riga bosib olib ketadi deb o'ylardi. Va hamisha shu yigit uning xayolini band etarkan, Og'abayim bekaning rangi o'zgarar, nozik vujudi titray boshlardi. Og'abayim bekaning afsona va ertaklar bilan birga she'rga ham katta havasi bor edi: u barcha turk shoirlarini o'qigan, yaxshi ko'rgan

g‘azal parchalarini bayoziga ko‘chirib yod olardi. Bu shoirlarning ichida eng yoqtirgani Fuzuliy bilan Voqif edi. U Voqifni ko‘rgandi, biroq uning majlisida qatnashish, u bilan tanishishish qizga muyassar bo‘lmagandi.

Og‘abayim beka har safar onasiga aytganda, onasi:

— Hoy qiz, sen hali kichkina bir qizchasan, keksa kishi bilan nimani ham gaplashasan? — deya qizining jur’atiga hayron qolardi.

Nihoyat bir kuni To‘to‘bayim og‘a Voqifni xonasiga chaqirtirdi. Voqif keldi. To‘to‘bayim yasmog‘lanib[1]:

— Oxund, — dedi, — sizning hech xabaringiz yo‘q, — bu yerda bir shogirdingiz bor. Anchadan beri Mulla Panoh oxundni biznikiga mehmonga chaqiring deb jon-holimga qo‘ymaydi.

Voqif kulimsirab chiroyli qo‘llarini nozik beliga tirab turgan Og‘abayimga qaradi: saf tortgan uzun kipriklar yerga tikilgan ko‘zlarini yashirib turardi, uyalganidan yonoqlari yonib, qizarib ketgandi, qo‘ng‘ir sochlari oppoq tomog‘i uzra cho‘lg‘angandi. Alvon ko‘ylagi yoqasidan ko‘rinib turgan siynasi shalola ko‘pigi singari qabarib turardi.

Voqif shavq bilan:

— Hoy ofarin! Hoy ofarin, qizim! — deya Og‘abayimga qo‘l cho‘zdi.

Og‘abayim seskanib ketgan bir qushcha kabi boshini baland ko‘tarib, Voqifning yuziga qaradi va barmoqlarining uchlari sovqotgan qo‘li bilan shoirning qo‘liga yopishdi. Voqif ilk bora bu yosh qizning shahlo ko‘zlarining va chap yonog‘idagi nafis xolining jozibasini his etib o‘zini yo‘qotdi. Voqif ko‘p go‘zallar ko‘rgandi, ko‘p mohichehralarni tarannum etgandi, lekin bunday bir sanamga duch kelmagandi. Og‘abayimning lablari yoqutning rangini so‘ldirar, tishlari durdonalarni uyaltirardi. To‘to‘bayim og‘a Voqifga joy ko‘rsatdi, yuzma-yuz o‘tirishdi.

Og‘abayim beka tikka turardi.

Voqif:

— Nega o‘tirmayapsan, qizim? — dedi.

To‘to‘bayim og‘a:

[1] **Yasmog‘lanib** — ro‘molining uchi bilan og‘zi va iyagini to‘sib.

— Bor, bayozingni olib kel, oxund ko‘rsinlar, — deb yugurub ketgan qiziga shavq bilan qarab qo‘ydi.

Voqif ham Og‘abayimning jiyagiga inju va marjon qadalgan shalvarini, baxmal boshmoqlarini, qadam olishlarini zavq bilan kuzatdi.

To‘to‘bayim:

— Oxund, dedi, — kechalari o‘tirib she’r yozadi. Biram havasi bor-ki...

Voqif To‘to‘bayimning so‘zlariga javob tarzida:

— Bayim, she’r yozadigan payti hozir... Bir jahil[1] birda men kabi ahil[2] yaxshi yozadi, — deya qahqaha urdi.

— O, nega oxund? — deya To‘to‘bayim ham kuldi.

— Qoidasi shunaqa — quyosh chiqishi bilan botishi go‘zal bo‘ladi, kun o‘rta bo‘lganda unga hech kim qaramaydi.

To‘to‘bayimning shahlo ko‘zlari yoqimli bir ado bilan suzildi:

— Oxund, bu manga tegib ketadi! — dedi va shikoyatona Voqifga tikila boshladi.

Voqif boltani toshga urganini fahmladi-yu darhol tuzatishga shoshildi:

— Bayim, buning senga dahli yo‘q, sen shunday yulduzsanki, vasling hamisha oshiq uyqusini harom qiladi.

Shu asnoda Og‘abayim beka yashil charm qoplangan chiroyli muqovali bayoz bilan ichkari kirdi.

Voqif:

— O‘tir qizim, bir ko‘ray-chi! — deya Og‘abayimga yonidan joy ko‘rsatdi.

Og‘abayim bayozni Voqifga berib, onasining yoniga tizzalab o‘tirdi. Shoir ko‘zoynagini taqib, bayozni varaqladi: butun Ozarbayjonning zamondosh shoirlari — Voqif, Vidodiy, Mushtoq, Nabi, Rojiy, Rafe, Mushtariy, Og‘a Masih, Nishot, Orif, Ojiz, Oshiq Ali, Abdurahmon og‘a Shoir va boshqalarning g‘azallaridan parchalar ko‘chirilgan.

Voqif tabrizlik Quvsiniyning bir parchasini ko‘rsatdi:

— Bayim, — dedi, — buni o‘qi-chi, ko‘ray.

---

[1] **Jahil** — o‘smir, yosh.

[2] **Ahil** — qari, keksa.

Og'abayim qizarib, yoshlik ohangi bilan tarona taratuvchi bir ovoz-la o'qidi:

Garchand gul latif bo'lar — ruxsoring o'zgadir,
Nargiz ne bo'lsa — chashm fusunkoring o'zgadir!
Bir g'unchaga yomon demasman — nuqta qo'ymasman,
So'z shundakim, la'l — gavharbaring o'zgadir...

To'to'bayim Voqifning porlagan ko'zlarini chetdan kuzatib, jilmaydi. Og'abayim she'rni tugatar-tugatmas shoir jo'shdi.

— Oy ofarin! Marhabo! — deya qizga katta zavq bilan qaradi.

To'to'bayim qizini o'ng qo'li bilan quchoqlab:

— Oxund, o'zi ham yozadi, — dedi, — so'ng qiziga qarab: — qizim o'zingnikilardan ham o'qigin, oxund eshitsin.

Og'abayim uyalganidan qip-qizil bo'lib ketdi. Onasi bilan Voqif qancha iltimos qilmasin o'qimadi.

Og'abayim bekaning Voqif bilan uchrashuvi unga bir g'urur bergandi. Endi u o'zini butunlay kap-katta qiz, shoir majlisida qatnashgan hisoblardi. U kechalari shamning yorug'ida o'tirib, yozgan she'rlarini yig'ib, bir kun ularni Voqifga yuborishni o'ylardi. Lekin to'satdan yuz bergan bir tasodif uning o'ylarini ag'dar-to'ntar qilib yubordi, xotirjam va farahli hayotiga zahar qo'shdi.

Bir kuni ertalab Nozli bilan bog'da aylanib yurarkan saroy minorasida keng yelkali, shahlo ko'z, qo'ng'irsoch, xushro'y bir yigitni ko'rib qoldi. Egnidagi zirhi va boshidagi dubulg'asi quyoshda yalt-yalt porlardi.

— "Bu o'sha, Go'ro'g'li!" — deya o'yladi va ilk marta g'uncha bag'riga dard kirganining shirin og'rig'ini sezdi.

Og'abayim Nozlini yengidan tortib:

— Enaga! Enaga! — dedi. — Kim u? O'sha yigit qayerdan keldi?

Nozli minoraga qarab hayrat-la:

— Bayim, tanimayapsanmi? — dedi. — Bu amakivachchang Mammad bek-ku.

Og'abayim tortinib daraxtlar panasiga o'tdi.

— Enaga, — dedi, — men ko'rganimda kichkina edi. Endi butunlay o'zgaribdi.

— Ha-da! Onasini o‘ldirganidan keyin xonning ko‘ziga ko‘rinmay yurgandi. Bokuga borib otasining xundorlari Og‘asi xon, uning o‘g‘li Ahmad bekni o‘ldirgach, xon uning gunohidan o‘tdi. U endi yuzaga chiqayapti.

Og‘abayim engashib, barglar orasidan yana bir bor Mammad bekka qaradi, uning shahlo ko‘zlari xanjarga aylanib, qizning yosh qalbini yaraladi.

Og‘abayim daraxtlarning panasidan chiqib, ko‘zlarini minoradan uzolmasdi. Qalbidagi bolalik shavqi endi so‘ngandi, uning o‘rnini tushunib bo‘lmas sog‘inch qayg‘usi to‘ldirgandi.

18

Mirza Alimammad bilan Safar Qubaga kelishlari bilan otlarini to‘g‘ri Fatali xonning saroyiga haydadilar. Hovli xilma-xil qiyofali navkarlar bilan to‘la edi: turklar bilan birga lazgilar, avarlar va Dog‘istonning boshqa millatlariga mansub odamlar ham ko‘p edi. Qorabog‘dan qochib kelgan odamlarning xonni so‘raganlari zahoti eshikog‘asiga bildirildi. Mirza Alimammad derazasi bog‘ga qaragan xonaga chaqirildi. Derazaning ichkarisida mo‘ylovdor, uzun xanjarli, yonlama kiyilgan katta telpakli bir kishi o‘tirib mushtuk chekardi. Mirza Alimammad bosh egib, salom berdi. Eshikog‘asi o‘tirgan vaziyatini o‘zgartirmay, salomga alik olib, joy ko‘rsatdi.

— Eshitdim, — dedi Ibrohim xonning qo‘lidan qochibsan.

— Bali, og‘a diydoringizni ko‘zlarimdan mahrum qilmoq istardi, Tangrining marhamatiga shukur, qochib rahmdil Fatali xonning mulkiga iltijo ayladim.

Eshikog‘asi mamnun jilmayib:

— Hush kelibsan! Juda hush kelibsan! — deb o‘ylanib qoldi va birozdan so‘ng, qo‘shimcha qildi:

— Borlig‘ingdan hech narsa olib keldingmi? Bo‘lmasa...

Alimammad og‘a qo‘lini cho‘ntagiga solib bir hamyon chiqardi:

— Mana bu yuz ashrafiyni olib kela oldim, — dedi, — sen mening xaloskorim, senga sovg‘am bu. Tepada Alloh, yerda sen, haloling bo‘lsin.

Eshikog'asi hamyonni uning qo'lidan oldida cho'ntagiga tiqdi, xursand bo'lib:

— Hush kelibsan! Ko'zimiz ustida joying bor, — deya jilmaydi. — Qachongacha shu yerda bo'lsang, bir burda nonimiz hamisha bor, baham ko'ramiz.

Mirza Alimammad ta'zim qilib:

— Martabangiz baland bo'lsin, — dedi.

— Hoziroq seni xonning huzuriga olib boraman, hozircha u haram doirasida. Shakidan singlisi Huri Paykar kelgan, u bilan suhbatlashayapti. Balki Mammadhasan xonni tanirsan — bir paytlar Qorabog'ga garovga yuborilgandi. Fatali xonning singlisi axir uning xotini.

Mirza Alimammad:

— Taniyman, u ham non-namagidan mahrum bo'lganlardan, — dedi, — jonkutayliklar bilan birga Oqsuvga, Fatali xon ustiga yurish qilgandi.

Eshikog'asi shoshib uni gapini bo'ldi:

— Boshidanoq katta xato qilgandi, jazosini tortdi. Yo'q, ishlar endi butunlay boshqacha. Hozir Huri Paykar xonim xonning yonida iltifotda yashayapti.

Eshikog'asi jim qoldi, yuzida bir g'urur aks etdi:

— Fatali xonning bisoti, mosholloh, o'zgacha: bu yil Ardabilni oldi, barcha Shohsevan xonlar unga tobe bo'ldi.

Hukmi, mosholloh, Darbanddan Tabrizga qadar o'tadi. Umar xon singari bir azamat unga qiliqlar qilmayapti, ammo ahmoq Mammadhasan tirsak ko'rsatayapti.

Xon xizmatiga yetish cho'zildi, suhbat ham tugaganday bo'ldi. Eshikog'asi shoshilmay mushtuk sarxonasiga tamaki joyladi, xos xizmatchi unga o't tutattirdi; keyin:

— Shikoyatchilar bor, — deya arz qildi.

Eshikog'asi holatini o'zgartirmay:

— Ko'rinishlari qanaqa? — dedi.

— Og'a, yirtig'-u mayda!

Eshikog'asi jilmaydi:

— Uni so'ramayapman... xullas, chaqir, kirsin.

Ichkariga soqoli uzun, burni katta bir kishi kirdi. Yerga cho'kib, ta'zim qilib dardini aytdi: yuzboshi undan yilning shu vaqtida bog'boshi — bog' solig'ini talab qilayapti.

— Og'a, bog'boshi kuzda yig'iladi. Hozir esa qishning so'nggi oyi. Shunaqa ham bo'ladimi?

Eshikog'asi beparvogina:

— Bo'ladi, — dedi. — Bor mevaning ho'li bo'lmasa, qurug'idan ber. Yilda necha g'alvir olma–nok hosili olasan, hech ko'rganimiz yo'q.

Haligi dehqon nimadir demoqchi edi, xos xizmatchi qo'lidan tortib, olib chiqdi. Ichkariga bir ayol kirdi, erining uning talog'ini bermayotganidan shikoyat qildi.

Eshikog'asi:

— Bor, — dedi, — qozidan yorliq olib kel. Hali shuniyam bilmaysanmi?

Shu payt xos xizmatchi keldi va shosha-pisha:

— Og'a, xon sizni xizmatiga chaqiryapti.

Eshikog'asi qo'llarini yerga tirab, o'rnidan turdi, yelkapo'shini, chakmonini tuzatdi, yonga surilgan xanjarini qappaygan qornining ustiga tortib, chiqib ketdi.

Uning orqaga qaytishi bir necha daqiqa tortdi, kelib Mirza Alimammadni olib ketdi. Chiroyli to'shalgan naqshinkor zalga kirishdi. Turda gavdali, cho'qqisoqol, qo'rqinch chehrali, taxminan ellik yoshda bir odam o'tirardi. Bu Fatali xon edi. Mirza Alimammad og'aning salomiga alik olib, unga joy ko'rsatdi, hol-ahvol so'radi.

— Ibrohim Shusha qal'asiga bel bog'lab, quturayotir, — dedi.

— Hamma mening maslahatim bilan o'tirib-turgan bir holda u menga bo'yinsinishni istamaydi. O'ris qo'shini Tiflisdan chiqib ketgandan so'ng oyog'i biroz yer oldi. Hech aytmaydiki o'ris ketdi, ammo yana keladi. Hozir boshi Usmonli davlati urushi bilan gangib turibdi. Biz o'risning etagidan qo'l uza olmaymiz.

Fatali xon ancha jimlikdan so'ng:

— Qochib kelishingga nima sabab bo'ldi? — dedi.

— Xon, Qorabog'ga ikkinchi marta qo'shin yuborganingizda Ibrohim xonga aytdimki, Fatali xonga yomonlik qilma, tadbirli,

juda ishning ko'zini biladigan hukmdor. Shunday dedim-u, aytganimga pushaymon bo'ldim. Meni zindonga tashlatdi. Ko'zlarimni o'ydirmoqchi bo'ldi. Tangrining madadiga shukur, qochib, uning zulmidan qutildim.

O'sha kundan e'tiboran Mirza Alimammad Fatali xonning e'tibrini qozonib ishonchiga kirdi. Quba xoni fikrini hech kimdan yashirmay, oshkora harakat qilishini Mirza Alimammadga aytdi. Fatali xonning maqsadi Rusiyaga tuhmat qilib, butun Ozarbayjon va Eron ishlariga aralashib, bosqinchilik qilmoqchi edi. Bu haqda Irakliy xonga yozilgan, u ham kengashga chaqirilgan edi. Ibrohim xonni siquvga olish yaqin tadbirlardan biri edi.

Mirza Alimammad esa bu ishlardan voqif bo'lib, tafsilotlari bilan ma'lumot to'plagandan keyin Ibrohim xonga uzun bir xat yozib, ahvoldan habardor qildi. Xatni Safar Qubadan olib chiqib yaqin qishloqlardan birida yashirin yurgan Qorabog' choparigа berib qaytishi kerak edi, toki uning yo'q bo'lib qolishi ko'zga tashlanmasin. Mirza Alimammad Eshikog'asining uyida yashar va shubha tug'dirmaslik uchun undan biror daqiqa ham ayrilmasdi. Ish bo'lmagan payti Shohtog'iga, tog' buqasi oviga borib, shahar va atrofini aylanardilar. Havolar juda yaxshi edi. Bahorning yaqinlashuvi sezilib turardi. Ba'zi joylarda daraxtlar gullagan, binafsha ochilgandi.

Bir kuni Eshikog'asi Mirza Alimammadga dedi:

— Mammadhasan xon Shakidan xonga mehmon bo'lib kelibdi. — Shu yerda Eshikog'asi g'ururla ko'z qisib jilmaydi: — mening ishim bor. O'g'limni senga yo'l ko'rsatuvchi qilib beraman, borib aylaninglar.

Mirza Alimammad 20–25 yoshlardagi bu yigit bilan daryoga qaragan tepadagi xon bog'iga borishdi. Ko'chalar qurolli odamlar bilan to'la edi, aksar qurollar rus qurollari edi. Bir joyda qandaydir janjal chiqdi. Ikkita qubalikning so'zlari bir -biriga to'g'ri kelmay so'kishib ketishdi, shu asnoda yo'lning o'rtasida bir sholcha solindi, so'kishganlarning har biri sholchaning bir chekkasida tiz cho'kib xanjarini sug'urdi. Xaloyiq jim turib, ularni tomosha qilishardi. Faqat bir oqsoqol qoidaga amal qilardi — bu hakam ekan. Birinchi

zarbani o'ng tomondagi berdi va raqibining yarmi uzilib yelkasiga tomon qiyshayib qolgan boshini ko'rib, istehzo bilan:

— Ha, demak joning shu ekan-da, — deya kuldi.

Yaralangan chap qo'li bilan boshini ko'tarib, o'rniga o'tkazdi va xanjarni raqibini qorniga tiqdi, qon tirqiradi. Ikkinchi zarba bo'yni kesilganning ishini bitirdi. Yiqilib qonga belangan mayitlarni olib ketishdi. Yig'ilgan xaloyiq ham hech narsa bo'lmaganday tarqalib ketishdi.

Mirza Alimammad hayotida ilk marta tasodifan yuz bergan bu hodisaga hayratda qoldi. Yigitga murojaat qilib:

— Qiziq, odamlar ularni ajratib qo'ymadi. Yarashganlarida yaxshi bo'lmasmidi? — dedi.

— Bu bizlarga bir odat, yarashmaydilar. Har kuni bo'lib turadigan hodisa bu.

Xon bog'ida maysalar ko'kara boshlagandi. Binafsha tera-tera tepaning chetiga kelib qolishdi: qum-shag'ali bilan ancha keng yerni egallagan daryoning suvi hali oz edi, buralib-buralib o'zanning o'rtasidan oqardi. Narigi tomonida yahudiy mahallasining kulbalari ko'rinardi.

Bir haftadan keyin Mirza Alimammad Fatali xon bilan birga Shakiga, Mammadhasan xonga mehmon bo'lib borishdi. Shaki xoni Fatali xonning kuch-qudratini sezib, unga tobe bo'lgandi. Husayn xon Mushtoqning saroyi bo'lgan muhtasham binoda bir necha kun mehmon bo'lishdi. Fatali xonning ko'nglini olish uchun qo'ldan kelganini ayashmadi. Mirza Alimammadni juda qiziqtiradigan ziyofatlar uyushtirilgandi: Shakining mashhur o'n ikki pahlavonining kurashi, Shirvon raqqosalarining o'yini, sozandalarning go'zal navolari alohida bir tomosha bo'ldi. Nihoyat, "Qizlar bulog'i" degan atrofdagi tog'larga ovga chiqishdi.

Mana shu barcha ziyofat va bazmlardan keyin Fatali xon qo'shini Kura daryosi tomon yo'lga chiqdi. Kura sohilida chodirlar tiklandi. Ganja hukmdori Javad xon ham a'yonlar bilan o'sha yerda edi, Fatali xon istiqboliga chiqqandi, o'zi bilan ancha hadyalar olib kelgandi. Karnay chalindi, qo'shin saf tortdi.

Javad xon hadyalar va ustiga ipak yopilg'ich solingan bir patnis bilan Fatali xonning huzuriga keldi. Barcha a'yonlari bilan tiz

cho'kib, patnisni Fatali xonga taqdim etdi. Xon g'urur bilan yopilg'ichni ko'tardi. Ganja qal'asining kumush kalitlarini tomosha qilib, Eshikog'asiga ishora qildi; patnisni oldi, so'ngra Javad xonga yonida joy ko'rsatdi.

— Kayfiyating yaxshimi, dimog'ing chog'mi? — deya Ganja xonining holini so'radi.

— Hazrati Alining soyasida.

— Tangrining soyasida, — dedi Fatali xon, o'ylab turib, ko'zini qisibroq, — o'ris chekindi, ishlar mushkullashdi, endi o'lkaning nizomini nazorat qilish bizning zimmamizda. Irakliy xonga qog'oz yozgandim, yo'lda bo'lsa kerak. Maslahatlashish kerak.

Javad xon qo'li ko'ksida, bosh egib Fatali xonning aytganlarini tasdiqlardi. Quba va Darband xonining vahimasi uni shunday gangitgandiki, Javadning gaplari qulog'iga kirmasa ham bosh egib:

— Bali! Bali! — deya takrorlab turardi.

— Javad xon qo'ylar so'ydirib, Fatali xonga, a'yonlarga, qo'shiniga katta bir mehmondorlik tayyorlagandi, yo'lga chiqishdi. Shamkir daryosining sohilida Irakliy xon chodir tikdirib, Fatali xonni kutardi, olisdan Quba xoni ko'rinar-ko'rinmas gurji to'plari o't ochdi, keyin surnaychilar guruhi musiqa chalib, oldinga chiqib Fatali xonni Irakliyning chodiriga olib keldilar.

Irakliy xonning o'zi chodirdan chiqib, ellik qadam masofada Fatali xonni qarshilab, ko'rishdi. Mirza Alimammad Irakliyni birinchi marta ko'rishi edi — bu soqoli oqargan, beli biroz mayshiq, chiroyli chehrali hukmdor unga ma'yusdek ko'rindi, gaplasharkan pastdan yuqoriga qaragan ko'zlarida zamonning ur-yiqiti aks etardi. O'lkasidagi izdihom, tala-to'plar, o'rislarning chekinishi, oilasidagi nizolari, hali tirik bo'laturib taxti tevaragida avj olgan mojarolar Irakliyni vaqtidan burun qaritgandi.

Irakliy xon Fatali xon bilan chodirda qolib, eshikka qorovul qo'yildi. Bu ikki hukmdorning yuzma-yuz o'tirib gaplashuvi ikki soat cho'zildi. Lekin sir yopiqligicha qolmadi, o'sha kuni kechqurun Mirza Alimammad bilan bir chodirda yotgan Eshikog'asi hammasini Qorabog' ayg'oqchisiga bildirdi. Asosiy masala Ibrohim xonning o'jarligi emish: katta kuchlar bilan Shushaga hujum

qilish muhokama etilgan va Qozox — Shamsiddinning ham ishtirokini ta'minlash uchun bu ikki muzofat Javad xonga qaytarildi.

Mirza Alimammad bunisi kuni bu ahvolatni hammasini yozib, Safar vositasida Ibrohim xonga yubordi. Lekin uchinchi kuni yuz bergan bir hodisa muzokaralarni chala qoldirdi. Fatali xon to'satdan kasal bo'lib, Qubaga qaytib ketdi. Xonning kasal bo'lib qolgani qo'shinga yoyilib, ruhiy tushkunlikka uchratdi. Hamma yoq alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Eshikog'asi gangib qolib, endi mehmon bilan qiziqmay qo'ydi. Bu vaziyatdan foydalanib qolgan Mirza Alimammad kechqurun Safar bilan uchrashib Qorabog'ga qaytishdi.

19

Mirza Alimammad og'aning Qorabog'ga yetib kelganidan biroz keyin Fatali xonning o'lgani haqida xabar Shushaga ma'lum bo'lib, saroyda katta sevinch uyg'otdi.

Ibrohim xon o'tirish qilib, shaharning barcha nufuzli odamlarni chaqirgandi. Mehmondorlik tushdan boshlanib, yarim kechagacha davom etdi. Ibrohim xonning sevinchi ma'lum edi. — Eng katta dushmanidan xalos bo'lgandi.

Bu paytda Og'abayim sevinardi, lekin uni sevintirgan boshqa narsa edi: o'sha kuni Mammad bekni ko'rishi ehtimoli ertalabdan unga umid bag'ishlardi. Bayim eng chiroyli ko'ylaklarini kiygan, sochlarining uchlariga binafshalar tizgan, kun bo'yi ko'zgu qarshisida o'tirib, jilvalar qilib Mammad bekning hasratini chekardi. Lekin Mammad bek kelmagandi.

Quyosh asta-sekin botar, yer yuziga qora parda tortardi. Oshiq qalbiga shubha va g'am-g'ussa tuyg'ulari tosha boshlardi. Og'abayim daraxtga suyanib, ko'zlarini Askaranga qaragan minoraga tikkandi. Minora asta-sekin qora soyalarga burkanar ulug'vorlik va g'urur-la go'yo bir yo'qlik tomon sho'ng'irdi.

Nozli bayimga hayrat-la boqib uning ahvoliga tushunmasdi:

— Bayim, — dedi, yaxshi payt emas, kayfiyatni buzma, yomon bo'ladi. Bayim eshitmaganday jim turar, intizor vodiylarda kezayotgandaydi.

Nozli unga yaqinlashdi, nozik belidan quchib, uni erkaladi:

— Nima bo'ldi, axir? Nega kayfiyating yo'q? — deya so'radi.

Bayim o'ylaridan chalg'ib, jilmayib enagasiga qaradi. Lekin og'ir bir dardi borligi Nozliga ham ayon edi. Uning qo'lidan olib, ohista ayvon tomon yetakladi. Ustunlarga suyanib chaqnab turgan yulduzlarni tomosha qilishdi. Og'abayim yana jo'shqin hayollarga berildi. Birdan saroyning narigi boshidagi hovliga ikki otliq kirdi. Undagining dubulg'a va zirhi mashallarning yorug'ida yaltirab so'ndi: otdan chaqqon tushib, ayvonga ko'tarildi. Og'abayim tikilib shavq bilan qaradi.

"Bir qora tuproq bo'lib, sepilsaydim oyoqlaring ostiga!" — deya sog'inch bilan o'yga toldi. Lekin Mammad bekning mehmonxonaga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lishi uni yana g'amlarga soldi. Endi kim biladi, Mammad bek ziyofatdan qachon chiqadi.

Uni qayta ko'rish imkoni bo'larkanmi?... Hech bo'lmasa uchar yulduz singari yana bir porlab uchib o'tsaydi... Oh, qushlar na qadar baxtiyorsizlar! Qanotingiz bor, xohlagan butoqqa qo'na olasizlar... yurakdan yurakka yo'l bo'lsaydi, qalbimning dard daftarini ochsaydim, o'qisaydim, men yonayotgan o'tda u ham yonsaydi... ko'z yoshlarim marvarid bo'lsaydi, sochim tolasiga shoda qilib tizsaydim, ol yorim, yaxshi asra desaydim...

Saroyning narigi boshidan kelayotgan ovozlar Og'abayim bekaning o'ylarini tarqatib yubordi: bir odam sakrab otga mindi, yana dubulg'a bilan zirh yorug'da yaltirab ketdi:

— Yo'q, uch kundan keyin qaytaman. Yo'lda Qahrizliga ham tushib o'tishim kerak! — degan ovoz eshitildi. Otliqlar arg'umoqlarini choptirib ketishdi.

— "O'sha!" — deya bekaning sevilgan qalbi qaytadan sanchdi. Turib, yotog'iga yo'l oldi. Yonayotgan shamlar xonaga motam tusini bergandi. Beka o'zini ipak to'shagi ustiga otib, qo'liga qalam oldi:

Afsuski, yorim gej[1] *kelib, keja ketdi,*
Hech bilmadim umrim neja[2] *kelib, neja ketdi.*

---

[1] **Kech, geja** — kechasi.

[2] **Neja** — qanday.

Bayimning ko'ngli buzildi, qalam qo'lida titradi, ko'zlaridan yoshlar oqib, misralari ustiga tushdi.

Nozli darhol uning yoniga keldi:

— Hoy, bayim darding nima, sening? Menga aytsang-chi? — deya unga tasalli bermoqchi bo'ldi, ipak ro'molcha bilan ko'zlarini artdi, sovuq qo'llarini olib, erkalay boshladi. Beka ko'z yoshlaridan uyalganday, enagasining yuziga qarab, jilmaydi.

— Eh, enaga, — dedi, — qanday yaxshi damlar edi, menga kechalari shirin ertaklar aytardingiz, quloq solardim... hech qanday dard, g'am bilmasdim.

Og'abayim yana g'amga cho'mdi. Nozli mehribon tovushda:

— Bayim, jonim girgitton, dedi, — endi nima bo'ldi? Tangriga ming shukur quyoshday nur sochayapsan, ovozang olamni tutgan...

Beka butun qalbi bilan unga bog'lanib qolgan bu sof ayolga qaradi:

— Enaga, bir ertak ayting... ammo o'z boshingizdan o'tgan voqea bo'lsin.

— Nimani aytay, sadag'ang ketay, men sho'rlikning boshidan nima o'tganki?...

Og'abayim kulimsiradi:

— Ayting qani, siz qanday katta bo'lgansiz, erga qanday tekkansiz?

Nozli lablarini cho'chchaytirib:

— Qanday tegardim, — dedi. Hamma erga qanday tegsa, men ham shunday... qiz edim, har kechqurun buloq boshiga suvga borardim. Bir kuni ketayotib bir cho'ponga duch keldim. Tepada o'tirib, sibizg'a chalardi. Qarasam, ko'zini mendan uzmay turibdi... men boshqa o'ylamadim. Kelib, ishlarimni tugatib, yotib uxladim. Shundan keyin har kuni kechqurun o'sha cho'pon kelib, bizlarning chetan yonida sibizg'asini chaladigan bo'ldi. Ammo bu juvarmak, juda yaxshi chalardi-da. Shu tariqa sibizg'aning tovushi men yotganga qadar qulog'imdan ketmasdi. O'z o'zimga aytardim: eh, bu cho'pon muncha behayo bo'ladimi, hech erinmaydimi, kechaning yarimini chetanimiz yonida o'tkazardi...

— Eh, enaga judayam baxtli ekansiz! — deya beka enagasining gapini bo'ldi. — Qaniydi, sizning o'rningizda bo'lsaydim.

— I-ye, joningdan nari, tasadduq, nima bo‘libdi, bir orsiz cho‘pon tufaylimi?

Mening o‘rnimda bo‘lib nima qilarding?

— Sizning o‘rningizda bo‘lsam, o‘sha chetanga yopishgancha tongni ko‘zlarim yoshi bilan ottirardim!

Nozli:

— I-ye, nima zaril! — deya bekaga hayrat-la boqdi.

Og‘abayim yana kulimsirab:

— Keyin nima bo‘ldi? — dedi.

— Keyin nima bo‘lardi, — bir kuni sovchilar kelishdi, meni yoqtirishdi. To‘y bo‘ldi. Qarasam o‘sha cho‘pon.

— Enaga suyundingizmi?... Yig‘ladingizmi?

— Voy, aylanay, nega suyunardim? Taqdir ekan, shunday bo‘ldi. Yig‘lashga kelsak — bu odat. Qiz ota-onasidan ayrilganda yig‘laydi.

Og‘abayim beka enaganing so‘zlarini bo‘lib dedi:

— Eh, enaga, baxtingiz qadrini bilmaysiz. Dunyoga ko‘zi yumuq kelib, ko‘zi yumuqlikcha ketarkansiz-da!..

UCHINCHI QISM

1

Ollohquli Kozimning kulbasiga kirganida Kozimni mayda bolalar bilan birga kursi[1] atrofida ko'rdi. Kursi kalta oyoqli masa[2] edi, uni xonaning o'rtasidagi o'choqning ustiga qo'yib, atrofiga yostiq tizib chiqilar va ustiga ko'rpa yopardilar. Oyoqlarini tancha ostiga tiqqan Kozim yostiqlarga suyanib ko'rpani ko'ksiga tortgandi, faqat boshi ko'rinardi. Telli bilan Gulnoz bir chekkada o'tirib jun tarashardi, Kozimning ayoli Bolli esa urchuq yigirardi.

Pastqam derazani qor qoplagandi.

Ollohquli qo'llariga puflay-puflay qorli boshmoqlarini eshik oldida yechdi, salom berib oyoqlarini tanchaning ichiga tiqdi. Tanchaning ichi hammomday issiq edi. Ollohquli oyoqlarini o'choq chetiga uzatib, qo'llarini ham isita boshladi.

— Biram ayozki, tosh chatnayapti, — dedi.

Kozim alam bilan:

— Tosh ham chatnaydi, odamning yuragi ham chatnaydi. Qachongacha shunday ishsiz o'tiramiz! Xarobada paxtaning, ipakning hisobi yo'q edi, endi topilmas matohga aylandi.

Ollohquli g'azab bilan:

— Ekin ekuvchi dehqon, har narsani uddalaydigan hunarmand ishini qilishga qo'ymayaptilar-ku?! — dedi. — Oronda tomorqa qolmadi, hech kimning ertaga tirik chiqishiga umidi yo'q.

Ollohquli biroz o'ylanib, g'azab bilan:

— O'ris ham kelmadi jonimizni qutqarardi!

Kozim kulimsiradi:

— Bir kuni, — dedi, — Mulla Nasriddin "tog'ning narigi tomonida odamga bir qopdan tarvuz berishayapti" — deb ovoza tarqatdi. Odamlar qop olib yo'lga chiqishdi. Mulla tog'ga tomon

[1] **Kursi** — tancha, sandal.

[2] **Masa** — stol, xontaxta.

chopayotgan xaloyiqqa qarab: "I-ye, rostdan ham tarvuz berishayotganga o'xshaydi", — deb o'zi ham bitta qopni olib yugurib ketibdi. Endi, hoy Ollohquli, sen ham qop ko'tarib ketgan eding, ammo tarvuzingni ko'rmadik.

Ollohquli kulib:

— Mening tarvuzim chirigan chiqdi, — dedi, — va sandal ustiga to'kilgan jo'xori bodrog'idan olib og'ziga soldi, so'ng qo'lini darhol tancha tagiga tiqdi. Shu asnoda Kozimning katta o'g'li keldi, u maktabdan tushlik tanaffusiga chiqqandi, burchakdagi tog'oradan bir burda non olib tanchaga suqildi.

— Adajon, — dedi, — mullam oylik so'rayapti, — ikki oydan beri to'laganing yo'q, — deyapti...

Kozimning sal achchig'i keldi:

— O'sha sening mullang, — dedi, — juda jonimga tegdi, qo'lim kaltaligini biladi-ku.

Kozimning o'g'li quruq nonni chaynarkan, qosh-qovog'ini uydi:

— Endi men o'rtoqlarimning oldida qanday aytaman, kambag'almiz, qo'limiz kalta deb...

Ollohquli qiziqdi:

— Qancha qarzingiz bor?

Kozim g'azab bilan:

— Besh tanga.

— Haligi, shuni deb bolani o'rtoqlari oldida uyaltirasanmi? — deya Ollohquli izlanib hamyonni chiqardi. Tanchaning ustida yumalagan tangalar maktab bolaning ko'nglini ko'tardi: u otasining yuziga qarab tangalarini hovuchiga olib, tanchadan chiqdi.

Kozim:

— Nega? Peshin azoni hozirgina tugadi, — deb o'g'lini chaqirsa ham, bola qalpog'ini kiyib jo'nab qoldi.

Ollohquli boshini liqqillatganicha:

— Eh, yoshlik, yoshlik, — dedi, — na sovuqni biladi, na rohatni!

Kozim qahqaha urib kuldi:

— Bir kuni Mulla Nasriddin ariqdan o'tayotgandi. Sakraganda ariqning ichiga tushib qoldi. Odamlar kulishdi. Mulla o'zini maqtab: "Eh-he bilsangiz yoshligimda qanday azamat edim, hozir

qarib qolganman-da!" Mulla xilvat joyga o'tgach, o'z-o'ziga dedi: — "Maqtanib nima qilasan, yoshligingda ham hech baloga yaramasding"... endi, hoy Ollohquli, Xudo haqqi, yoshligimiz ham hech narsa emasdi.

Yana kulgi ko'tarildi. Ayollar va bolalar ham ularga qo'shilishdi.

Kozim xotiniga murojaat qilib istehzo bilan:

— Hoy, Bolli xonim, — dedi, — tez bo'l palovni damla, olib kel yeylik. Tez bo'la qol ochmiz.

Bolli:

— Xo'p bo'ladi! — dedi, — o'rnidan turib, chaqqon harakat qildi, keyin patnisda biroz non, biroz quruq pishloq keltirib sandalning ustiga qo'ydi. Ollohquli Kozimning hazil va istehzosini shunchalik o'rgangan ediki, palov o'rniga non — pishloq olib kelinganiga hech ham hayron bo'lmadi.

Quyosh chiqdi. Derazaning moylangan qog'ozlaridan ichkari xira yorug' kira boshladi. Kozimning kayfiyati yanada ko'tarildi:

— Sog' bo'lgay usta, Tangri yana marhamatini bizdan ayamayapti.

Ollohquli istehzo bilan dedi:

— Havo ochilib, shoh kelishidan qo'rqmaysanmi?

— Eh, jahannamga kelsa!.. Ana shoh keldi, mana shoh keldi, qulog'imiz bitti-ku. Kelsa kelaversin. "Mus-mus" deguncha bir yo'la "Mustafo" deyilsin, qo'yilsin-da...

Kozim borgan sari g'azablanardi, qat'iy ravishda:

— Yo u yoqli bo'lsin, yo buyoqli! Vassalom! — deya so'zini tugatdi.

Ollohquli og'zidagi nonni chaynab, Kozimning boshi ustidan tokchaga qarardi. Lekin u yerda tizilgan lojuvard idishlarni ko'rmasdi, uning fikri-xayoli butunlay oldinda ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisalar tevaragida aylanardi.

— Mayli, — dedi, — axir oldin oralari yaxshi edi, shoh dedilar, Ibrohim xonga to'n sovg'a ham yuborgandi. Bas, nima bo'ldi?

Kozim g'azab bilan:

— Alloh shohning uyini ham kuydirsin, xonning uyini ham! — dedi. Na u Alloh deganini deydi, na bu. Shoh to'n-borot yubor-

di, mamlakatga baxtsizlik istaydi, Ibrohim xon ham Abdulsamad bekni Tehronga baxtsizlik uchun yubordi. Shu bilan ish bitti deb o'ylayapsanmi? Orqasidan paydar-pay qo'shin berasan, oziq-ovqat yuborasan. Nimaga de, Isfahonda urush, Xurosonda ur-yiqit. Boshlaridan qolsin o'sha urushlari, kosibkorlar qo'ldan ketdi!

Bolli gapga aralashdi:

— Hoy kishi, muncha ko'p gapirdingiz? Osmondan nima yog'ilsa, yer o'shani qabul qiladi. Taqdir yozig'ini o'zgartirib bo'lmaydi.

Kozim ham taqdirga ishongani uchun ayolning gaplari unga biroz tasalli berdi. Lekin yozig'ning nega shunday yozilganiga doir unda zaif bir savol tuyg'usi uyg'ondi, uni dovdiratib yo'qotdi-qo'ydi.

Safarning kelishi suhbat mavzusini butunlay o'zgartirdi. Kozim ham unga nisbatan ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lardi. Safar salom berib, tanchaga kirdi va bodroqdan olib og'ziga soldi-da, sog'lom tishlari bilan qarsillata boshladi.

Ollohquli hurmat va biroz qo'rquv bilan:

— O'g'lim, qandaysan? — deya undan ahvol so'radi.

— Yaxshiman, rahmat! Biroz qattiq sovuq bo'lganda yaram zirqiraydi.

— Qaysi? Soningdagimi?

— Ha, la'nati azob berayapti.

— Ho'sh, jarroh nima deyapti?

— Malham bergandi, bog'layapman.

Kozim tajribali bir odam tarzida dedi:

— Yaraning ko'zini tuzatadilar, ichi qoladi. Go'shtning ichida suyak sinig'i qolgan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun zirqirasa kerak-da.

Safar javob bermadi. Bodroq chaynar, nimanidir o'ylardi:

— Eh, bahor kelganda edi, bir ot minib cho'llarga chiqardik, — dedi va jilmaydi. — Uyda o'tirishdan chirib ketdik.

Ollohquli ehtiyot-la dedi:

— Hali yoshsan, ot belida yuradigan payting hozir...

— Nima qilay, qishloqda edim, ekinim-bisotim bor edi. Endi hamma narsadan bezorman.

— Ho‘sh, mol-holing nima bo‘ldi?

— O‘sha paytdayoq tarqab ketdi. Bu hozirgi sigirni Ag‘damdan olib kelganman. Qishloqda o‘sgan odammiz, sut-qatiqsiz yashash qiyin. — Safar biroz o‘yga toldi. Keyin yanada havas bilan:

— Mayli, yer ko‘karsin, bir-ikkita qo‘zi olib, hovliga tashlab qo‘yaman. Kuzda sovliq bo‘ladi, so‘yib qovuramiz, qishga asraymiz, — dedi.

Ollohquli ham havaslandi:

— Bultur mening mehnatim zoye ketdi: asradim, katta qildim, oxirida Xazna qoyasidan yiqilib o‘ldi.

Kozim kulib hazilga o‘tdi:

— Xazna qoyasidan shuncha odam qulaydi, bitta to‘qli yiqilsa nima qilibdi. Demak, Ollohquli, sizning uydan bitta qurbon berilarkan, yaxshiyamki to‘qli, dard-u baloni olib ketibdi.

Ollohqulining hazildan eti jimirlab ketdi, o‘zini yo‘qotib, javob berishga ham so‘z topolmadi. Kozim buni his etib hazilni yanada kuchaytirdi:

— Muncha tutab ketding, ayta qolsang-chi, — dedi.

Safar dadil bir ovozda:

— Nega tutaydi, — dedi, — men o‘lganim yo‘q-ku!

Safarning gaplari Ollohquliga madad — turtki berdi, u o‘zini qo‘lga olib:

— Yashavor, Safar! Xudo haqqi! — deya oldi.

2

Voqif o‘choq yonida o‘tirib, Gulistonda yashayotgan Vidodiyga xat yozardi. Zavq, nash’a va latifago‘yligi yuksak darajada chiqqandi.

Zarang o‘tini lovullab yonar, issig‘i va chirsillashi shoirga ming bir ilhom berardi. Derazaning rangdor oynalaridan tushayotgan yorug‘ bo‘g‘iq edi. Gilamlarning, sholchalarning, ipak yostiq va to‘shaklarning bo‘yoqlari bir-biriga aralashib jimjimalashgandi. Voqif bularning farqiga bormay, o‘choqning olovida jilvalangan she’r parisi bilan o‘tirar, uni qoplagan bir ohangga singib ketgandi.

Muazzinning xush ovozi uni she'r parisidan ayirdi: qalamni yerga qo'yib soatiga qaradi. Vaqt bo'libdi. Shu asnoda eshik ochilib lala kirdi, jilmayib og'asining yuziga qaradi. Voqif masalani tushundi:

— Mayli, olib kelsin, — dedi. Qog'oz va qalamlarini yig'ishtirib ko'rpa ostiga qo'ydi.

Dasturxon yozildi. Tushlik ayni peshin azoni payti bo'lardi. Bug'lanib turgan ovqatlar dasturxonga tortildi. Qosim og'a kelib o'tirdi. Nihoyat, Qizxonim ham chiqdi. U muharram munosabati bilan qora xalat kiygandi. Upalangan yuzi, qora yirik ko'zlariga bu qora libos juda yarashgandi.

Voqif uni ko'pdan beri ko'rmagan odam kabi qaradi, ich-ichidan ezildi. Lekin ehtiyotsiz biror so'z aytib qo'ymasin deb indamadi. Kumush bilaklar ovqat suzarkan qahrabo taqinchog'i sharaqlab, yonoqlar ko'zgu misol o'z-o'zini aks ettirib porlar, qizarardi. Boya olovda jilvalangan parilar endi bu so'lmas yonoqlarning Tangridan sho'xlik bag'ishlangan ushbu ohu ko'zlining atrofiga joylanardi.

Ovqatlanishardi. Hech kimdan sado chiqmasdi. Voqifning ziyrak ko'zlari Qizxonimning chehrasida aylanar, shoir zavqiga ozuqa berardi. Xonimning lablari yog'langan, shudring tushgan gulga o'xshardi.

Voqif o'zini tuta olmadi, ammo qosh qo'yaman deb, ko'z chiqardi:

— Umringdan baraka top, Qizxonim, ajoyib ovqat bo'libdi, — dedi xotinining yuziga qarab.

Koshki hech qaramasaydi, ayol o'sha zahoti o'zgardi, chiroyli lablar burildi, qoshlar chimirildi, yuzida xushnudsizlik ifodasi aks etdi.

Bu yurak o'rtovchi alomatlar Voqifga ma'lum edi, uning sababini ham yaxshi bilardi: keksalik — yoshlik, go'zallik — xunuklik singari ziddiyatlar hamisha ularning hayotini zaharlagan va zaharlar edi. Lekin nima uchun Voqif yosh emasdi? Nima uchun o'z xotini unga begona va yasoq[1] bo'lgandi? Nima uchun u bir uyda,

[1] **Yasoq** — taqiq, man qilingan.

bir yotoqda yashagan xotinining bu qadar hasratini tortadi, dardidan kuyinardi? Yaqinlik bilan birga oralarida katta masofa, qulamas to'siqlar, devorlar bormidi?

Voqif yillardan beri bu savollarni o'ziga bergan va yana berardi. Lekin javoblarida ojiz qolib g'amga botardi. Hozir ham shunday bo'ldi. Ishtahasi bo'g'ildi, tomog'i tiqildi. Atrofga qaradi: xona unga qorong'i bo'lib ko'rindi, endi ranglar jimirlashib uning qalbiga to'kilardi, so'ldirib, so'ndirardi...

Voqif ovqatdan yarimida turdi, ko'chalar odamlar bilan gavjum edi: childirma-yu nog'oralar, "Haydar!" "Haydar!" — tovushlaridan quloq qomatga kelardi.

Voqif og'ir tuyg'ular og'ushida yurib borardi, otini ham minmagandi.

Po'stini unga og'irlik qilsa ham chidardi. Soatli bilan Xo'ja Amirjonli mahallalari orasida biroz to'xtashga to'g'ri keldi. Ikki mahallaning guruhlari bir-birlari bilan talashardi. Osmondan tosh va kesak yog'ardi. Qichqiriq, so'kish olamni tutgandi. Xuddi jang ketayotganday edi. Soatli to'dasi ustun kelib, narigi mahallaning olomonini tarqatib, tor ko'chalarga suqilishga majbur etdi. Voqif o'tib ketdi. Hammom oldiga chiqdi. Chuqur daraning ustidagi taxta ko'prikdan o'tdi. Endi to'la sukunat hukm surardi. Havo bulut bo'lsa-da, uncha sovuq emasdi. Balki Voqifga shunday tuyulgandir: piyoda bosib o'tilgan yo'l va og'ir po'stin uni terlatgandi.

Madinaning mazasi qochgandi. Xonasida o'tirib bayozlar o'qish bilan band edi. Oppoq libosli bir ayol chiqib, Voqifning po'stinini oldi. Shoir Madinaning ko'rpasi ustiga o'tirib, tomir urishini ko'rdi:

— Sal-pal isitmang bor, — dedi. Madinaning so'lg'in chehrasiga qarab jilmaydi.

Madina:

— Bo'lmaydimi? — deya imo bilan Voqifning ko'zlariga qaradi.

Voqif bu qarashdan ko'p narsa angladi.

— Eh, Madina, bilsang bu davlat ishi qanday janjalli narsa: o'ris ketdi, endi shoh kelyapti. Avrasini ko'rsatsang, astarini ham so'raydi...

— Shunday ekan, o'sha avradan do'stga nega ko'rsatmaysan? Necha kundan beri to'shakdaman: deyman, ana keladi, mana keladi...

Voqif Madinaning so'zlarini haqli deb biladi, lekin javob topolmaydi.

— Dard bittami? — dedi, jim qoldi. Uyida oila dardini solishtirib o'ylardi. Lekin dard — g'am tortish Voqif uchun begona edi, unga yana o'zida nekbin kuch topib g'olib chiqdi.

Voqifning yuzidan ko'zlarini uzmagan Madina:

— Shoir, — dedi, — yuzingdan bir tuman o'tdi, qosh-qovog'ing bulutdan qoraydi, jonimni qora g'am bosdi. Ammo oxiri yaxshi bo'ldi, yuzingda yana kun tug'di.

Voqif Madinaning yetukligiga hayron bo'lib:

— Madina, — dedi, — yurakdan yurakka yo'l borligini endi ishondim. Biroq, tuman bilan, bulut bilan nima ishimiz bor, quyoshdan gapir! Azizam, seni ko'rganda yuzimga kun tug'maydimi? Axir sen Madinasan! Shoir qiblagohi, imon maskani Madina!

Madinaning sog'inch bilan to'la ko'zlari shoirga tikilgan, haroratdan qurigan dudoqlari yetishib o'tgan zardoli singari ochilib qolgandi. Shoir uning bo'ynidan quchoqlab, shirin zardoliga qovushdi. Oila dardi, shoh dardi, xon dardi — hammasi bir necha soniya davom etgan shirin yo'qlik ichida erib yo'qoldi.

3

Muharramning biridan o'niga qadar davom etgan imom ta'ziyasi: marsiya, motam, guruh-guruh bo'lib savashish kabi mahallalar o'rtasida odat tusiga kirgan mojarolardan keyin butun bu hangoma ashura marosimi[1] bilan tugardi.

Qorabog' aholisi ko'chmanchi hayot kechirgani uchun islom dini va Eron madaniyati ta'siriga tushmay, o'z qadimiy turk an'anasi va odatlari bilan yashab kelardi. Shushaning saroyi xonlikning ta'sisi va Eron bilan boshlagan aloqalari begona odatlarning kirib kelishiga yo'l ochgan edi.

[1] **Ashura** — Muharram oyining uninchi kuni — imom Husayn o'ldirilgan sanani nishonlash marosimi.

Shabihgardanlik[1] ham Erondan olib kelingan shu odatlardan biri edi. Avvallari Qarbalo fojiasini aks ettiradigan faqat bitta tomosha ko'rsatilar, tarixiy siymolarning rollari bo'linar, zikr o'qilar, Husaynning qatli va oilasining jang maydonida og'ir ahvolda qolgani yetarlicha qayg'uli bir tarzda namoyish qilinar, ommani yig'latishga urinardilar. Endi bu tomoshaga bosh yorish qo'shimcha qilinib an'anaga aylantirildi. Voqif shu bosh yorish marosimi bilan bog'liq voqeada gunohsiz bir guruhni xonning g'azabidan qutqargandi. Xonning g'azabi tugamas bir narsa bo'lgani uchun bu odat ham mahbuslarni afv etish uchun bir vosita bo'lib qolayotgandi.

Bu yil ham hamishagiday aybdor tutqunlari bo'lgan odamlar kafan kiyib kallayi sahardan saroy hovlisiga kelgandilar. Voqif yozgan zikrlarga endi shoirlar yangi qo'shimchalar bitgandilar. Xon yana ayvonga chiqib, mahbuslarni bo'shatishni va'da qilib, xaloyiqni tinchitdi. Guruh zikr qila-qila Chuqur mahallaga, Mammadhasan og'aning saroyi tomon boruvchi yo'lga chiqdi. Pasti qal'a devorlari, yuqori qismi kulbalar bilan qurshalgan bu keng maydon odam bilan to'lib ketgandi. Sovuqqa va qorga qaramasdan qatl taraddudi ko'rilayotgandi. Qizil kiyimli jarchilar bir tomonda to'planib rollarini yodlardilar: boshi temir panjali tug'lar hilpirar, dindor ayollar ularga nazr ro'molchalar bog'lardilar, uzun yelkapo'shli, baland telpakli bolalar u yoq-bu yoqqa yugurib: "Hoy sham olgan, hoy naziri qabul bo'lgan!" — deya qichqirardilar.

Xon saroydan kelgan oqko'ylaklar guruhi maydonga kirdi va doira tashkil qilib, guruhdagilar zikr aytib, yana boshlarini yora boshladilar.

Jarchilar turgach, yerdan "ezid" kajavasi yelkalarga ko'tarildi; qarshisida bir bosh kiyimi bor edi, uning tagida imom Husaynning boshi o'lja sifatida olib kelinardi. Orqadan "asir"lar ko'rindi, bu yerda ayollar va bolalar bir-biriga aralashib ketgandi.

Mirshab musulmon bolalarini qamchi bilan savalayotganday bo'lardi. Go'yo qonga belangan qilich sudrab olib borilayapti, ustiga bir juft kabutar qo'ngan Yarador Aliakbar otni sekin haydab

[1] **Shabihgardanlik** — o'zini urish, kaltaklash.

borayapti. Zar va ipaklarga burkangan "Qosim xonasida" bir yosh qizcha o'tirib sochlarini yularkan: "Boshimga kullar, ko'zimga millar" — deya ingraydi. Husaynning boshi kesilgan tanasining ko'rinishi bilan ho'ngrashlar avjga chiqadi. Firang shabehi[1], sher shabeh deya, bir-biriga jo'r bo'lardilar.

Muvassir munojaat, zikr, marsiya, jarchilarning she'r bilan aytgan rivoyatlari bir-biriga aralashib, xalqni yig'latardi. Saroy ahli uchun tiklangan chodirdan boshlab maydonning atrofiga va tomlariga joylashgan xaloyiqqacha hammasi ko'z yosh to'kardi. Bu yerda ishtirok etgan, nazr bergan, yig'lagan faqat turklar emasdi, armanilarning bir qismi ham e'tiqod bilan qatnashardi. Ollohquli butun oilasi bilan shu yerda edi. U nazr qilgani uchun kichkina bolalariga sham olgandi. Kechqurun uydan yoqib "shamig'aribon" qilmoqchiydi. Gulnoz Telli bilan yonma-yon turib, hazin-hazin yig'lardilar.

Shu payt maydonning o'rtasidagi chodirga o't qo'yildi. Bir guruh qora kiyimli "arab" chiqib, boshlariga somon sovurib chodirning atrofida aylana boshladilar...

Chodirga o't tushganda
O't tushsaydi olamga,
Yondirsaydi olamni
Avlodi Haydar qonho'ri!
Ku Husaynima!
Vo Husaynima!

Oqko'ylaklar zikrdan yanada jo'shishdi, yaltiroq qilichlar va xanjarlar bosh uzra o'ynatildi, davomli ho'ngrashlar maydonni takror qoplab sovuq havoni dahshat-la titratdi.

4

Ikkinchi Usmonli — Rusiya urushi[2] davom etardi. Kavkaz chetda qolib, o'z holiga tashlab qo'yilgandi. Eronga daxldor mo-

[1] **Shabehi** — jarchilar.

[2] Turkiya va Rusiya o'rtasidagi 1787–1791-yillardagi urush nazarda tutilayotir.

jarolar ham necha yillardan biror natija bermagandi. Demakki, Ibrohim xonning qo'li bo'shab, o'z mulkida rohat davron surardi. Endi Ozarbayjonda unga tahdid soladigan biror-bir hukmdor qolmagandi: nufuzi yana Shirvondan Tabrizga qadar amal qilardi. Endi saroy mashg'ul bo'ladigan narsa faqat poyga, ziyofat va shikor kabi ko'ngilochar tomoshalar edi.

Kuzning ajoyib kunlaridan biri edi. Oron bog'lariga sariq va qizil ranglar endigina yoyila boshlagandi. Ibrohim xon va a'yonlari yuz otliq xizmatchilari bilan ovloq to'qayga[1] ovga chiqishgandi. Voqif ham shu yerda edi, sobiq Shaki xonining sovg'asi tilla naqshli miltiqni egarning qoshiga ilganicha yaxshi kayfiyat bilan otini haydardi. Qushchilar bahlali[2] qo'llarida yigirmatacha shunqor bor edi. Tozi itlar yo'q edi, chunki qush oviga tozi olib borishmasdi, uning vazifasini qarol navkarlar bajarardi.

Qirg'ovul va kaklik uchray boshladi. Muguz chalindi, hamma otdan tushdi. Yoy-o'qli qarollar o'ngga va chapga yoyilib keng maydonni o'ray boshlashdi. Doirani to'g'ri tashkil qilish uchun Safar otlanib, qarollarga bosh imlay-imlay aylanib orqaga qaytdi:

— Tayyor bo'ldi, xon omon bo'lsin, — deya boshini xam qildi.

Buyruq berildi, mug'uz chalindi, olislardan mug'uzlardan javob olingandan so'ng xon a'yonlari bilan doiraning o'rtasiga qarab yurdi. Qarollar ham olg'a yurishib, shovqin solib, o'q otib parrandalarni uchirar, doira kichraya borgan sari qushlar o'rtaga uchib borishardi.

Endi shunqorlar xon va a'yonlarning qo'llarida edi. Ora-sira uchgan kaklik, tustovuqni ko'rganda shunqorlar oyoqbandidan qutulib uchishga intilar, oyoqlaridagi qo'ng'iroqchalarni jiringlatardilar. Voqif keksaligiga qaramay dadil qadamlar tashlab yurardi, ariq va chuqurlardan sakrab o'tardi, ov qilishni sabrsizlik bilan kutardi. Bir mahal oldidan ikki-uchta qirg'ovuq pirr etib uchdi. Voqif fursatni boy bermay shunqorning jilg'isidan[3] tortib

[1] Hozirgi Evlax atrofi.

[2] **Bahla** — qush qo'nadigan maxsus charm qo'lqop.

[3] **Jilg'i** — shunqor bo'yinbog'i.

qo'yib yubordi. Xonning va boshqa ovchilarning shunqorlari ham uchirildi. Shunqorlar o'qday uchib, qirg'ovullarga havoda chang solib, yerga olib tushishdi. Qarollar yugurib borib, bir pasda shunqorlar bilan qirg'ovullarni olib kelishdi. Borgan sari ovqushlari ko'payar, ba'zan gala bo'lib ko'kka ko'tarilardilar. Shunqorlar ov qilishdan charchagandilar, ovchilarning ham shashti pasaygandi.

Voqif:

— Jayron! — deb yubordi. Lekin to'satdan chiqib qolgan bu kiyikni hech kim ota olmadi.

Xon kulganicha Voqifga qarab yurdi:

— Shoir, — dedi, — sen go'zallarni o'xshatganing jayron ko'rdingmi qanday qochib ketdi.

Voqif hayron bo'lmasdan:

— Xon, — dedi, — u ham qarilik tufayli: qaysi jayron bizga imkon berardi!

— Og'zingni bekor og'ritma!

— Yo'q, xon, hukm har narsaga o'tadi, qalbga o'tmaydi! Bu borada mening tajribam sizdan ko'ra ko'proq.

— Qanaqasiga? — deya amrona bir ifoda bilan so'radi xon.

Voqif yarim hazil, yarim jiddiy tovushda:

— Shunqor qirg'ovulga hasrat bilan yonmoqda. Ko'raylik-chi, qirg'ovulda ham shunday hasrat bormikan?

Xonning qoshlari chimirildi, yonidagi xos xizmatchiga qarab, keskin tovushda:

— Quruq gapdan hech narsa chiqmaydi, — dedi, — o'choq qurdir, o't qala, bir qirg'ovul kabobidan yeylik!

Burg'ular gurladi, ov tugadi. So'lim bir go'shada ipak sholchalar to'shala boshladi.

5

— Hoy kishi, nima deyapsan!.. Tangri gunohidan kechsin!

Voqif hali ham olgan xabariga ishona olmasdi. Kiyinaturib o'ylardi: "Eh dunyo, Shohmammad ham o'larkan! Vahimasidan butun dunyo titrardi. Eshikni ochiq qoldirib yot — biror narsang

yo‘qolmas, kechasi boshingda bir tovoq tilla olib yur, undan qo‘rqqanidan hech kim yaqin yo‘lamasdi”.

Voqifning orqasidan yuborilgan xizmatkor devorga suyanib turardi. Voqif eshitganiga ishonmay yana so‘radi:

— Qani, qaytar-chi, qanday qilib rahmatlikni ilon chaqibdi?

Xizmatkor qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib:

— Og‘a, — dedi, — bilasiz–ku Shohmammad og‘aning hovlisida o‘choq bor, o‘sha yerga ko‘plab ilon ziyoratga keladi. O‘sha ilonlarga tegib bo‘lmaydi. O‘zingiz bilasiz, ilon juda kinli bo‘ladi, ulardan birini o‘ldirsangiz o‘ch oladilar... Shohmammad og‘a hovlida nok niholi ekayotgan ekan, belkurak bilan yerni kovlaganda bir ilon chiqibdi, rahmatlik o‘ldirmoqchi bo‘libdi, ilon qayrilib barmog‘idan chaqibdi.

Voqif biroz o‘yladi, bu ishlar unga kulgili tuyuldi.

— Sen bor, men kelaman, — deya Alimammad og‘aning odamini ketkazib, yotoqxona eshigiga yaqinlashdi: — Qizxonim, menga toza dastro‘mol bergin! — deb chaqirdi.

Birozdan keyin Voqif uyidagi oqsoch ayol qo‘lida ro‘molcha bilan dahlizga chiqdi.

Voqif o‘ychan bir holatda ro‘molchani oldi:

— Qizxonim qayerda? — deya so‘radi.

— Xina ivitgandi, boshiga qo‘ymoqchi edi, bu aza xabaridan nima qilishni bilmay qoldi. Endi xina nima bo‘ladi, bekor ketdi...

— Qo‘llarini bulg‘amasin, azaga boramiz, ayb bo‘ladi!

— Yo‘q, og‘a, qo‘lini bo‘yamagan!

Shohmammadning uyi Mehrali bek minorasining yonida edi. Bu minoraning ro‘parasida keng bir maydoncha bor edi, nomini “Beklik eshigi” deyishardi. Shohmammadning uyi shu maydonchaning shimol tomonida edi. Voqif o‘sha yerga borganida “Beklik eshigi” odam bilan to‘lgandi. Otdan tushib, darvozadan ichkari kirdi. Uyga to‘g‘ri olib boruvchi tosh to‘shamani o‘t bosgandi; chap tomon bog‘ edi. Rangli derazalari bog‘ga qaragan uyning oldiga ham ko‘p odam to‘plangandi: bir tomonda kajava qo‘yilgan bo‘lib shol bilan to‘silgandi, ikkinchi tomondagi chodirda o‘likni yuvishayotgandi. Bog‘ning chekkasida o‘tning ustida oq mato tortilib, yetti

tog‘ora qo‘yilgandi. Ularga holva hulush[1] taxlangandi, mozor ustida odamlarga ulashmoqchiydi...

Mirza Alimammad og‘a uzoqdan Voqifni ko‘rib, istiqboliga yugurdi..

Ko‘rishishdi:

— Boshing omon bo‘lsin! Farzandlari o‘rnida poydor bo‘lishgay! Nima ham qila olardik?

— Foniy dunyoning qoidasi shunday!

Mirza Alimammad Voqifni ichkari taklif qildi.

Lekin Voqif marhumning xotini, bola-chaqalari bezovta bo‘lishmasin deb hovlida turishni ma’qul ko‘rdi.

Uyning qarshisiga kelishdi. Ichkaridan yig‘i tovushi eshitilardi. Marsiyachining chiroyli ovozi miskin yig‘isi odamni qayg‘uga solardi:

Yuragimda yara bor,
Unda xol-xol qora bor,
Och yuragim boshini,
Ko‘r, yonmagan hara[2] bor.

Tog‘lar tog‘imdir mening,
Ham o‘tag‘imdir[3] mening,
Lol bo‘libdi bulbulim,
Vayron bog‘imdir mening.

Voqif Mirza Alimammadning ko‘zlaridan oqqan yoshga qarab o‘ylaydi, “Har narsaning oxiri o‘limdir” — desa ham, ishonmasdi. Unga hayot uzun marvarid kabi tuyulardi, undagi har marvarid bir olamdir. Hali bu olamdan qanchasi qolgandi! Har bir olamni zavqi va safosini ko‘rgandan so‘ng marvarid shodasi uzilsa nima bo‘libdi? Har narsa foniy bo‘lsa ham bu foniylikning qalb, shuur va aql kabi go‘zal rahbarlari bor!

Ichkaridan ko‘tarilgan nido Voqifning o‘ylarini tarqatib yubordi. U Mirza Alimammad bek bilan birga ichkari kirdi. Sholga

[1] **Hulush** — yupqa lavashga o‘ralgan holva.

[2] **Hara** — qayeri, joyi.

[3] **O‘tog‘** — uy, xona.

o‘ralgan mayit gilam ustiga qo‘yilgandi. Qo‘shni xonada ayollar “shaxsey-vaxsey!” deya nola chekishardi.

Mayitni bosh va oyoq tomonidan olib, uch marta ko‘tarib yerga qo‘yganlaridan so‘ng, shart ko‘tarib kajavaga olib bordilar.

Janozaga xon tomondan o‘g‘li Mammadhasan og‘a kelgandi. Voqif bilan ko‘rishib, bir joyda janoza namoziga turdi. Keyin yelkalarda olib borilayotgan janozaning orqasidan bir muddat piyoda yurib, suhbatlashib bordilar.

Mammadhasan doim kasal bo‘lgani uchun uyda o‘tirar, hayotini turli o‘yin, ashula bazmlarda o‘tkazardi. Qo‘shni o‘lkalarda yuz berayotgan jarayonlar uni kam qiziqtirardi. Lekin keyingi paytlar Og‘amammad xonning paydo bo‘lishi haqida shu qadar ko‘p gapirilardiki, xonning valiahdi jiddiy bezovta bo‘la boshlagandi. U ovozidan hayajonini sezdirib:

— Oxund, shohdan qanday xabar bor, — deya Voqifning yuziga qaradi.

— Aftidan barcha dushmanlaridan g‘olib keladi, — deya javob berdi Voqif. — Oxir vaqt Tabrizni ham bo‘ysundirdi. U yerda Sulaymon xon degan bir lashkarboshi yuborib atrofdagi xonlarning sho‘rini quritayotir. Sulaymon xonning yigirma ming qo‘shini bor.

Mammadhasan og‘a o‘ylanib qoldi, yana Voqifning yuziga qaradi, ammo Voqifning yuzini ko‘rmasdi, o‘ylar va andishalar uni boshqa bir olamda uchirib yurardi.

Voqif o‘ylaridan qutuldi. Porlab turgan ko‘zlarini Mammadhasanga qadadi, Mammadhasan og‘a yana so‘radi:

— Oxund, Xudo asrasin, bu ishlarning oxiri yaxshi emasga o‘xshaydi. O‘ris ham uzoqlashdi, tag‘in osoyishtalikka erishish uchun u yaxshi edi. Mayli, Og‘amammadning niyati nima ekan?

Voqif:

— Og‘a, ko‘rinib turibdi, — dedi, — Nodir singari yo‘l tutish niyati borga o‘xshaydi. Parchalangan Eron mulklarini birlashtirib, aftidan o‘zini shoh e’lon qilmoq istaydi.

Voqif jim qoldi. Mammadhasan og‘aning rangi oqargandi. Piyoda yurganidan charchagan shekilli. Voqif buni sezib to‘xtadi.

— Og‘a, piyoda yurish sizni charchatib qo‘yadi, ruxsat bering, jilovdor...

Mammadhasan to‘xtab Voqifning gapini bo‘ldi:

— Men ham shuni aytmoqchi edim.

Jilovdorlar otlarni oldinga etaklashdi, Mammadhasan va Voqif ulovga minib, yonma-yon, sekin haydab borishardi. Janoza ilgarida edi. Mulla va talabalarning “Subhon Alloh!” — degan tovushlari qayg‘u tug‘dirardi. Havo sovugan, qalin tuman shaharning bir tomonini burkagandi.

Voqif so‘zida davom etdi:

— Og‘a, shoh taxtga o‘tirganda, Eronning to‘rt voliysi toj kiydirish marosimida ishtirok etish kerak. Odatga ko‘ra, ikki voliy shohning o‘ng tomonida, ikkitasi chap tomonida turadi. Arabiston voliysi qo‘lida jiqqa[1], Gurjiston—qilich, Lo‘riston—xirqa[2], Kurdiston voliysi — javohirli tumor ushlab turadi. Bu odat.

Voqif biroz sukut saqlab jilmaydi:

— Axta xon yangi podsho bo‘lgani uchun bu voliyliklarni qo‘llab-quvvatlashga jiddiy jahd qiladi. Masalaning tashvishli jihati shunda. Xonlik manfaatini o‘ylab bir joyga umid bog‘lashimiz lozim.

Voqif biroz jim qolgach, qat’iy ovozda:

— Men najotimizni Eron tortishuvlaridan kutayotganlardan emasman! — deya so‘zlariga xotima berdi.

Atrofni tuman qoplagandi, ko‘z ko‘zni ko‘rmasdi. Janozaning orqasidan borayotgan odamlar soyaga o‘xshab ko‘rinardi. Voqif jim qolgandi, burnini po‘stinining yoqasiga tiqib nimanidir o‘ylardi. Mammadhasan og‘a ham ayni shunday o‘ylar bilan band edi.

6

Og‘amammad xon Tabrizga yuborgan Sulaymon xon Yerevan va Naxichevan xonlarini Eron himoyasiga chaqirsa-da, muvaffaq bo‘la olmayotgandi. Buni ko‘rgan Og‘amammad bilvosita elchilar yuborib Kavkaz xonlaridan garov uchun odam yuborishni talab qildi. Yerevan, Qorabog‘, Tolish, Avariston va Gurjiston elchilarga

[1] **Jiqqa** — toj.

[2] **Xirqa** — to‘n.

rad javobini berdilar. Shaki, Shirvon, Darband, Boku esa Axta xonning elchilarini hurmat-la qabul qilib, Eron himoyasiga bo'yin egdilar. Ganja taraddud ichida edi. Javad xon bilan Irakliyning orasi ochilgani uchun Irakliy Javad xonni ag'darib, o'rniga Rahim xonni qo'yishni istardi. Javad xon ham shunday bir vaziyatda istar-istamas Eronga tobe bo'lish niyatida edi.

Qorabog' saroyida katta bir talash borardi: ikki-uch yildan beri davom etgan osoyishtalik buzilgan, qayg'u va andisha hammani tashvishga chulg'agandi. Ruslarning Tiflisga kelishi tufayli buzilgan Gurjiston–Qorabog' do'stligi yangidan tiklanib, boshqa xonliklar bilan ittifoq bo'lishar, Shusha darg'asi Og'asi bekka hamyon-hamyon tilla berilib, qal'aning mudofaasi mukammallashtirildi.

Ikki-uch kundan beri Voqif uydan tashqari chiqmay, rasmiy maktublar yozmoqda edi. U yozar, Mirza Jamol esa toza qog'ozlarga ko'chirardi. Shunday mashg'ul edilarki, Mirza Alimammad og'aning ichkariga kirganini ham ko'rmadilar.

— Assalomu alaykum!

Voqif Mirza Alimammad salomiga alik olib, o'rnidan turmoqchi bo'ldi.

Mirza Alimammad jadal kelib, qo'lini Voqif yelkasiga qo'ydi.

— Bezovta bo'lmang! — dedi. — Xayrlashgani keldim!

Voqif hayron bo'lib:

— Shunaqa tezmi? — deya ko'zoynagini yerga qo'ydi. — Axir ertaga ketmoqchiyding-ku?

— Yo'q, — deya Mirza Alimammad javob berdi, — bugun jo'naydigan bo'ldik. Vaqt kutib turmaydi.

— Mayli, — dedi Voqif, — o'zing bilasan.

U Mirza Jamolga murojaat qildi:

— Mirza Jamol, Rum[1] sultoniga yozilgan muhabbatnomani ber-chi, ko'ray!

Jamol o'ralgan sarg'ish nomani qog'ozlar orasidan olib Voqifga berdi. Voqif xatni ochib, boshlanishga qaragandan keyin:

— Marhamat, Mirza Alimammad! — dedi va biroz o'ylanib, ilova qildi: — o'zing gap nimadaligini bilasan. Avvalo, harakat qil,

[1] **Rum** — Turkiya.

Istanbulga tezroq yetib bor. Bu borada Sulaymon posho[1] kerakli yordamni sendan ayamaydi.

Xususan Sulton hazratlariga masalani atroflicha tushuntirasan, arz qilasanki, bizning ikki o‘t orasidan qutqaradigan yagona chora Usmonli himoyasidir. Tezlikda askar yubormasalar, Axta xon bizni halok qiladi va ummati islom qon daryosiga g‘arq bo‘lgusidir.

Voqif jim qoldi, lekin katta hayajon ichida ekani ahvolidan ko‘rinib turardi; iztirobdan qamish qalam qo‘lida titrardi.

Mirza Alimammad maktubni belbog‘iga qistirib, dedi:

— Oxund, xotirjam bo‘l, qo‘li bo‘sh qaytmayman.

Yoqimli bir tabassum Voqifning chehrasini yoritdi:

— “Shoh keldi, shoh keldi” dedilar, oxirda, go‘yo “somon” tushib “zamon” olov oladiganday! — Voqif qahqaha urib kuldi, keyin qat’iy bir ovozda: — Azizim, — dedi, — davlat ishi mana shunaqa — goh pastga, goh tepaga; biroz safo, ikki ko‘p safo. Nima ham qilardik, bo‘shashish yaramaydi; shoir aytganiday:

“Sabr ayla, oqibat may bo‘lur qon deganlari,
Subh visol bo‘lur shabi hijron deganlari!”

Mirza Alimammad og‘a bu she’rdanmi, yoki Voqif kabi do‘stidan ayrilishigami qayg‘urib yig‘lamsiradi. Voqif bilan quchoqlashib xayrlashdi. Voqif uni ayvon zinapoyasigacha kuzatib:

— Lala, hoy lala! — deya chaqirdi.

Lala hozir bo‘ldi.

— Lala, sening qo‘ling yengil, og‘aning orqasidan suv sep, olis safarga ketayapti!

Mirza Alimammad og‘a otga minib, o‘rnidan qo‘zg‘alganda lala bir toza suv keltirib orqasidan septi.

— Tangri oq yo‘l bersin, ishing o‘ngidan kelsin!

Otlar hovli darvozasidan chiqib ketdi. Voqif ko‘zlarini arta-arta orqaga qaytdi. Mirza Jamol qog‘ozni tizzasi ustiga qo‘yib yozardi.

Voqif unga o‘grilib:

— O‘g‘lim, — dedi, — sarboz bosh bilan o‘ynagani kabi bizlar ham mamlakat taqdiri bilan o‘ynaymiz. Qimorga o‘xshay-

[1] Axisxa hokimi nazarda tutilyapti.

di: yo chikka, yo pukka! Har holda biz vazifamizni bajarishimiz kerak. Balki xonlikning rohi najotga erishuviga bir sababi xayr bo'larmiz.

7

Shaharda katta harbiy tayyorgarlik sezilardi, qurolli odamlar tufayli tor ko'chalardan o'tib bo'lmasdi, shimoldan tog' yo'llari orqali keltirilgan to'p-zambaraklar shaharning janub sharq tomonlariga o'rnatildi. Avaristondan yuborilgan lazgi va boshqa millatga mansub yonlanma askarlar mahallalarga taqsimlanardi. Mammad bek ham Kahrizlidan chaqirilib keltirildi. U o'z qo'shini bilan Araz qirg'og'iga yuborilmoqchi edi.

Bahorning so'nggi oyi edi. Nayson yomg'irlari endigina to'xtagan, hamma yoq yashillanib, feruzaga aylangandi. Og'abayim Mammad bekning kelishini eshitib, u bilan uchrashishga bir vosita qidirardi. Yana butun kunni bog'da aylanib, Nozlini gapga solar, ichki bo'ronlardan forig' bo'la olmasdi.

U Asgaranga qaragan minoraning ro'parasida daraxtga suyanib qo'lidagi oq lolani hidlarkan:

— Enaga, — dedi, — kechalari shunday qotib uxlaysizki, sizga hasad qilaman... Eh, enagajon, qanday baxtiyor insonsiz!

Nozli kuldi:

— Bayim, jonim tasadduq, uxlamay nima ham qilardim?!

Og'abayim beka unga hasrat-la boqib:

— Eh, enaga, — dedi, — men ham uxlardim... Ammo endi uyqu ko'zlarimni tark etibdi. Kechalari tonggacha yulduzlar bilan dardlashaman. Bilmayman, bu dard qayoqdan yopishdi menga...

Og'abayim beka yig'lamsiradi: shahlo ko'zlarida yosh yaltiradi.

Nozli tashvishga tushdi: u bekaning dardini tushunmay, o'zi ham dardga cho'mdi.

— Bayim, — dedi, — o'rgilib ketay, senga nima bo'ldi o'zi?! Ko'z tegdimikin?

Nozli bekaning belini quchoqlab, uni erkaladi, pand-nasihat qildi:

— Bayim, — dedi, — odam sal qattiqqo'l bo'ladi, hamma narsani ko'ngliga olavermaydi. Turgan joyingda senga nima bo'lganini bilmayman-ku, axir?.. Balki bexosdan yerga qaynoq suv sepib farishtalar qanotini kuydirgandirsan, seni qarg'ashgandir?

— Yo'q, enaga!.. Unday emas!.. Qalbimda bir malak bor, uning qanoti kuygandi, kecha-yu kunduz uning oh-u zoridan qiynalaman!

Nozli hayrat bilan bekaning yoshli ko'zlariga qarar, qalbidagi malak nima ekanini sira tushuna olmasdi.

— Bayim, — dedi, — qalbda malak bo'lishini eshitmagandim. Aytishlaricha, odamning har yelkasida bitta farishta o'tiradi, uning qilgan xayrli va gunoh ishlarini yozib boradi, qiyomat kuni shunga qarab o'sha odamga ajr beriladi. Qalbda ham malak bo'ladimi? Xo'sh, u nima ish qiladi?

Nozlining bunday sofdil mulohazalari Og'abayimning kulgisini qistatdi:

— Enaga, — dedi, — sizga kulg-u bo'lsa! Yaxshiyamki, o'sha malak sizning qalbingizni vayrona bog'ga aylantirmagan. Eh, enagajon, o'sha go'zal malak menga qanchalar azob berayotganini bilsangiz edi. Yana qanchalar yoqimli va shirin iskanjasi bor uning!..

Nozli jimgina turib, unga begona ko'ringan bu fikrlarni tinglar, hech narsa tushunmasdi. Shu payt orqadan oyoq tovushlari eshitildi. Og'abayim beka shartta orqaga burildi-yu:

— Mammad! — deya qotib qoldi.

Mammad bek Og'abayim bekani ko'rib biroz shoshib qoldi. Gumonsirab qarab turdi-da, suyanib:

— Amakim qizi emasmi? Mosholloh, men ko'rmaganimdan beri ancha katta qiz bo'lib qolibsan-ku! — deya chaqqon qo'lini uzatdi.

Og'abayim beka qizarib ketdi, ko'zlarini ko'tarib qarashga jasorat qilolmasdi. Faqat oq ko'ylakda g'unchalagan ko'kragi hayajon ichida tipirchilardi.

— Qandaysan, yaxshimisan? — deya so'radi Mammad bek.

Bayim ko'zlarini ko'tardi, Mammad bek shahlo qat'iy ko'zlarga duch kelar-kelmas nigohi uning yashil chakmonidan, oq yelka po'shidan sirg'alib tushib, yana yerga qadaldi.

— Yaxshiman!.. Rahmat!.. Ko'rib turganingizday!

Og'abayimning butun vujudi, turish, qarashlari Mammad bekni rom etdi. U qizni yangidan ko'zdan kechirdi, Og'abayim qo'lidagi lola kabi latif va go'zal edi. Qancha hodisalar yuz bergan, odamlarning boshi qotgan; ko'z ochib yumguncha ancha vaqt o'tib ketgandi... Bu bog'da yangi bir lola yetilgan, uni quyosh erkalagan, havo bag'riga bosgan... nozlar, ehtiroslar, zavq-shavqlar unga yo'ldosh bo'lgan... oh, savash, jang-u jadallar, jasurliklar, shuhrat va shon... Koshki hammasi bir chang bo'lib, shu go'zal aylangan yo'llarga sepilsaydi...

Mammad bek ko'ksini changalladi. La'l dudoqlaridan "Ko'rib turganingizday" — deya sachragan so'zlar bir xanjar bo'lib uning ko'ksiga sanchildi:

— Amakim qizi, — dedi, — gina qilishga haqqing bor. Bilsang, umrim behuda o'tib borayapti.

Og'abayim endi ancha jur'atlangandi. U xumor boqish bilan Mammad bekka erkalanib:

— Sababi kim? — deya kulimsiradi va ko'zlarini uning ko'zlariga qadadi.

— Albatta o'zim. Inson boshiga tushganini bilsaydi...

— Kahrizlida nima gap? Huri xonim, Oyisha bayim qandaylar?

Mammad bek Og'abayimning zardasining ma'nosini tushunib, qizargancha: Joningga duo qilishayapti! Qo'llaringni o'pishadi, — dedi.

Nozli iyagiga parda tortib, chetdan bularni tomosha qilar va Bayimninig birdan o'zgarib qolganiga hayron bo'lardi.

Og'abayim unga qarab bir ikki qadam tashladi-da:

— Enaga, — dedi, — bir kosa suv olib keling, judayam chanqadim. Nozli shart burilib saroy tomon yo'naldi.

Og'abayim esa xush bir nozik ado bilan lolaning bargini uzib, lablariga oldi va Mammad bekning yuziga qaramay:

— Mayli, — dedi, — amakimning bir qizi bor, g'arib qush singari erta sahardan to kechagacha shu daraxtlarga sig'inib hasrat chekadi, deb hech o'yladingizmi?

— Hoy Bayim, ko'rmayapsanmi nimalar bo'layotganini: bugun yo ertaga shoh Arazni kechib o'tadi...

Og'abayim Mammad bekning gaplarini yoqimli bir jahl bilan bo'ldi:

— Qurib ketsin, o'sha shoh ham, Araz ham!.. O'zingiz bevafosiz!

Mammad bek kuldi, Bayimning so'zlariga javob topolmadi.

Og'abayim dadillik bilan qo'lini uning xanjariga uzatib tilla yozuvli dastasini ushlarkan, dedi:

— Sizga kulgili tuyulishi mumkin... Ammo men...

Ko'z yoshlari Og'abayimni bo'g'di. Qo'llari bilan ko'zlarini berkitib, ho'ngrab yubordi.

Mammad bek uni dadil quchoqlab o'ziga tortdi. Bayim Mammad bekning keng ko'ksiga sig'inib, yig'lashda davom etdi.

Endi Bayimning ahvoli dahshatli bir to'fonni boshidan o't-kazgan qayiqchining sohilga yetib, langar tashlaganini eslatardi. Sohil qattiq va xatarsiz edi, endi jo'shgan, ko'pirgan to'fonlar ortda qolgandi. Ammo bu sig'inoq sohil edimi, sarob edimi? Saodatning o'z yashirin andishalari bo'ladi. Bu andishalar Og'abayimning ham qalbiga yo'l izlay boshladi, u yosh to'la ko'zlarini ko'tarib, Mammad bekning ko'zlariga qaradi:

— Eshitdim, ertaga ketayotgan ekansiz, shu rostmi?

— Rost!

— Ketmang! Borsangiz boshingizga, tilim kesilsin, bir ish tushgay...

— Bormasam bo'lmaydi, xonning amri shunday...

Og'abayim keskin bir tarzda Mammad bekdan ajralib, daraxtga suyandi. Yana lolaning bargidan uzib lablariga oldi va shuursiz bir ahvolda o't ustiga cho'kdi.

8

Voqif yotog'ida yostiqlarga suyanib o'tirardi. Darg'a Og'asi bek ham bir soatdan beri uning yonida edi. Vaziyatning og'irligi Voqifni rosa toliqtirardi:

Kasalim bo'lmasa, — dedi, — yana turardim. Men yotishni yoqtirmayman.

Og'asi ehtiyotli tovushda:

— Yo'q, oxund, hali turma! — dedi.

Hakim ham shunday dedi: ko‘kat qaynatib suvi ichilgandan keyin ikki kun ko‘rpadan turmaslik kerak. Faqat ishlar yurakni siqadi. Shoh Arazni kechib o‘tsa, qiyin bo‘ladi. Og‘asi bek:

— Oxund, aytganlaring rost, — dedi. Mammad bek Xudofarin ko‘prigini buzdirgandi, endi Axta xon uni yangidan qurdirmoqda.

Qo‘shinni uch yerga ajratibdi: bir qismi Nahichevan tomondan o‘tib, qo‘lga tushgan odamlarni, xotinlari, bola-chaqalari bilan Tabriz tomonga haydatgan, ekinlarga o‘t qo‘yib xarob qilganlar; ikkinchi qismi Sallyanni olib, ayollar, bolalarni asir qilib, erkaklarning boshlarini nayzaga o‘tqazib shohga hadya qilibdilar. Shohning o‘zi Xudofarin ko‘prigidan o‘tib, to‘g‘ri qal’a ustiga yurishni istayotganmish...

Bechora Tolish xoni Mir Mustafo qanday ekan?

Mir Mustafo xonning o‘zi tog‘larga qochib ketibdi, xotin bolalari asir tushibdi.

Voy, bechora! Og‘asi bek, insonning gardishi davrondan hafsalasi pir bo‘larkan. Shunchalik ham zulm bo‘ladimi?! Ellar, uluslar qo‘ldan ketdi!..

Og‘asi bek ko‘ksiga urarkan:

— Hali hammasi emas, — dedi, — xalq ekinlarini tashlab, bosh olib tog‘larga tomon qochayapti.

Obod joylarni tashlab, ovloq chekkalargacha qishloqlar xaroba holda, hamma parokanda bo‘lib tarqalib ketgan... Buning oqibati esa ochlik...

Voqif boshini quyi solib, barmog‘idagi aqiq uzugini aylantirardi. Uning hamisha quvonch sochib turadigan yuzida endi chuqur aza ifodasi aks etardi. Og‘asi bek jimib qolgandi.

Birdan Voqif boshini ko‘tarib, hushsiz bir holda Og‘asi bek tomonga qaradi:

— Xon qayoqqa tomon ketdi? — deb so‘radi.

— Tug‘ tomonga ketibdi. Irakliy xon yuborgan qo‘shin bilan birlashib, Araz sohiliga yetmoqchi. Agar Mammad bek Xudofarinning yangidan qurilishiga qarshilik ko‘rsata olmasa, demak qattiq urush bo‘lishi muqarrar. Qiyini Araz sohilini saqlab qolish. Agar shuni eplay olmasak, Qal’aning tegrasiga chekinishga to‘g‘ri keladi. Boshqa chora yo‘q.

Voqif yana o'yga toldi. Keyin keskin bir tabassum-la:

— Vaziyat mana shunaqa. Qal'aga tishi o'tmaydi, — dedi.

Og'asi bek ham qat'iy:

— Men ham shu fikrdaman, — dedi. — Shahar mustahkam. To'plarimiz ham unikidan kam emas.

Voqif bilan Og'asi bekning suhbati bir soatdan oshiq davom etdi. Nihoyat, Og'asi ketib, Voqif yolg'iz qoldi.

Quyosh g'arb tomon og'gandi. Xona ancha salqinlashgandi. Lekin Voqifning bundan xabari yo'q edi: voqealar va oila hayoti uni shu qadar o'ylantirib qo'ygandiki, kunning qay vaqti ekaniga e'tibor ham bermay qolgandi.

Xotini Qizxonim ertalab bir marta uning yoniga kelib, nomigagina ahvolini so'rab ketgandi. Shu paytgacha Qizxonimning vafosiz harakatlariga ahamiyat bermagan Voqif endi kasal to'shagida ranjiy boshlagandi. U endi ham o'z oilasiga, ham mamlakatga va uni boshqarayotganlarga nisbatan ma'yus bir vaziyatda edi.

Go'yo u dunyoga yangi kelgan butun inson amallarini bir taroziga qo'yib tortgan va uning natijasidan qayg'uga botgandi. Endi ruhiyatining hech qaysi go'shasida nash'a deyilgan narsa qolmagandi. Shu ahvoli-ruhiya bilan u lalani chaqirib, qog'oz va qalamdon so'radi. Zaif qo'li bilan yozdi:

Men jahon mulkida mutloq to'g'ri holat ko'rmadim,
Har na ko'rdim, egri ko'rdim, o'zga bobat[1] ko'rmadim,
Oshnolar ixtilotinda[2] sadoqat ko'rmadim,
Bayot-u — akror-u — imon-u diyonat ko'rmadim.
Bevafodan, lojaram[3], tahsili hojat ko'rmadim.

Qalam tez-tez qalamdondagi dovotga[4] botirilib, qog'oz uzra yugurar, satr ketidan satr paydo bo'lar, g'amgin shoirning yuragini yengillashtirardi.

Nihoyat, so'ngi bandga yetib keldi, avval ko'kragini to'ldirib nafas oldi, keyin diniy tuyg'ularga berilib, tasalli topdi:

---

[1] **Bobat** — qoniqarli.

[2] **Ixtilot** — munosabat.

[3] **Lojaram** — albatta.

[4] **Dovot** — siyohdon.

Bosh oqardi, ro'zig'orim bo'ldi kundan kun siyoh,
Etmadim sad hayfkim bir mohi ruhsori nigoh,
Qadr bilmas hamdam ila ayladim umrni taboh.[1]
Voqifa, yo rabbona, o'z lutfingni ayla panoh,
Sendan o'zga hech kimsada lutfi-inoyat ko'rmadim.

Voqif she'rni tugatib, ko'zoynakni ko'zidan oldi. U endi azobli dardlaridan biroz xalos bo'lgandi. Lekin qalbidagi dardi o'rnini achchiq bir sog'inch egallagandi; bu Madina hasrati edi.

9

Orondan qochib kelgan ko'chmanchilar yo'llarni, shaharning atrofidagi tog' va tepaliklarni to'ldirgandi. To'pxonadan boshlab Datalabgacha har yerda kapalar tiklanib, qo'y-qo'zilar bir-biriga aralashib ketgandi. Otlarning kishnashi, qo'y-qo'zining ma'rashi, sigir va jomish[2]larning bo'kirishi odamlarning qiy-chuviga qo'shilib qo'rqinchli, ayni paytda dardli-baloli g'o'ngillashga aylanar va yer-u ko'kni nolalarga to'ldirardi. Hamma qo'rquv va andisha ichida edi. Qishloq-ovul ahli o'rnidan qo'zg'algan, bug'doy o'rilmagan, oddiy xalqning joni halqumiga kelgandi. Shaharda, o'z uyida yashayotganlar yaxshi bilardilar, ayol, bola-chaqa asir olinadi, boshlar nayzalarga sanchiladi, qon suv bo'lib oqadi. Bunday talato'pda haq-nohaq tan olinarmidi? Hamisha o'rmonga o't ketsa ho'l-u quruq baravar yonardi.

Voqif hali betob edi. Lekin yuz bergan hodisalarni unga xabar berib, maslahat so'rardilar. Choparlarning Shushaga yetkazgan xabarlari uncha ham ko'p bo'lavermasdi: haligacha Araz sohilidan to'g'ri bir xabar kelmagandi; kimdir g'alabadan, kimdir mag'lubiyatdan darak berardi.

Qo'rqqan qochoqlar sal bo'lmasa shohni Ag'damda ko'rgandilar. Ibrohim xonning o'g'li Abulfat og'aning kelishi Voqif uchun ba'zi masalalarni oydinlashtirdi.

Eng avvalo xonning shaharga qaytganini va uning Voqifning ahvolini so'ragani yuborganini bildirdi. Voqif tashakkur bildirib, dedi.

— Og'a, nima gap, qanday xabarlar bor?

---

[1] **Taboh** — xarob.

[2] **Jomish** — buyvol.

Abulfat og'aning yosh va ko'rkam chehrasi tundlashdi:

— Oxund, shoh Arazni kechib o'tgandi, jang ham bo'lgandi. Biznikilar dosh berisha olmadi: to'rt-besh ming qirq ming oldida nima degan gap...

Voqif masalaning juda jiddiy ekanini sezib, boshqa savol berishga jur'at etolmadi. Lekin Abulfat og'a ma'yus bir ovozda so'zida davom etdi:

— Odamga alam qiladigan tomoni unda emas, Axta xon bizga dushman, buni bilamiz. Dard Javad xon dardidir. Bu ma'lun malik Majnunni ham yoniga olib, shohga peshvoz chiqishga borgan. Yana u og'amning qo'shiniga hujum qilgan. Og'amni kuydirayotgan narsa mana shu. Endi og'am shunday g'azablanganki, biror gap uqtirib bo'lmaydi. Tag'in siz, oxund, betob bo'lmaganingizda, kelib biror chora topardingiz?! Uning holini siz yaxshi bilasiz.

Voqif o'ng'aysizlanib:

— Meni mana la'nati kasallik qimirlashga qo'ymayapti...

Xonning nima sababdan g'azablanayotganini Voqif yaxshi bilardi. Shu bois Abulfat og'a ketganidan keyin ham masalani esidan chiqara olmasdi.

Shu payt O'hon kashish boshi g'ovlab kirib keldi.

— E, oxund, sen ham kasal bo'lishga vaqt topganingni qara, shu ishlar menga sira yoqmayapti-da. Bu to'ng'iz Majnunning shohga yon bosganini xonni g'azabga keltirdi. Yana qon to'kiladi, ko'rasan. Biror chora topish kerak.

O'hon jahlidan biror joyda o'tira olmas, xonada aylanar, orasira ikki qo'lini tizzalariga urib, o'z-o'ziga; yetim qiz bo'lsang, g'ujanak bo'lib yot, axir to'ng'iz Majnun, senga urushni kim qo'yibdi! Axir turk juda to'g'ri aytgan: — ot tepkisini ot ko'taradi deb. Bu shoh bilan xon urushi, sen nega o'zingni o'tga urasan?!

O'hon o'z-o'ziga gapirib, oxirida burnini tortib jim bo'ldi. So'ng qo'shib qo'ydi:

— Oxund, sadag'ang bo'lay, qanday maslahat berasan. Axir bilasan-ku, jahli chiqqanda aql qochadi!

Voqif o'ylarini yig'ishtirdi:

— Mirza O'hon, — dedi, — sen kelishingdan oldin men shu haqda o'ylayotgandim. Bilaman, xonning g'azablanib, odamlarni

osib-kesish uning o'ziga foyda bermaydi: dushman eshikda, ichkarida ham bir isyon yuz bersa?.. Bunga turklar: eshakka kuchi yetmagan to'qimni kaltaklaydi deyishadi... Gap xonni tinchitish haqida borar ekan... Bitta choram bor.

O'hon bir narsa kashf etganday shoshib Voqifga yondoshdi.

— Ayt-chi, qani, boshi omon bo'lgur! — deya javobga muntazir joyida to'xtab qoldi.

Voqif jilmaydi:

— Yana bu ishga sharbof Kozim yaxshi.

— Qanaqasiga?

— Soqovning tilini onasi biladi, Kozim xon — beklar bilan ko'p gurunglarda bo'lgan. Biror narsa aytib bersa xonning dili ochiladi.

O'hon shoshib:

— Unda nega o'tiribsan? — dedi.

Lala chaqirilib, Kozimga yuborildi. Lala borib-kelguncha Voqifning hovlisi, odam bilan to'ldi; yana yaqinlari zindonga tashlanganlar iltimos va maslahatga kelishgandi. Tashqaridan kelgan ayol nolasi Voqifning ko'nglini buzdi.

Kozim yetib keldi. Yenglari shimarilgan, qo'llari loy edi. Voqif kulimsirab:

— Hoy, Kozim, — dedi, — yana kam iltifot bo'lib qolibsan, yoki qo'ling kattalar etagiga yetdimi?

Kozim qahqaha urib kuldi:

— Oxund, — dedi, — meni emas, kattalarning qo'li mening etagimga yetishgan. Ollohquli bilan meni izlab xandaq qazdirishadi. Ko'rayapsan-ku, nafis mato o'rniga endi xandaq to'qiyapman.

— Kozim so'zini tugatib, yana qahqaha urdi. Voqif bilan O'hon ham yurakdan kulishdi. Voqifning kulgidan ko'zlari yoshlandi, yostig'i tagidan dastro'molini olib ko'zlarini artdi. Mo'ylov va soqolini silab, vaziyatni Kozimga tushuntirdi. Kozim o'rnidan sapchib turdi.

— Afv etasan, — dedi, — meni ham Xonmammad og'a kuniga solma. Bechoraholman, bolalarim bor!

Voqif uni tinchlantirishga urindi. Xalqning og'ir ahvolda ekanini, gunohsizlar qoni to'kilishini aytib, qat'iy ohangda:

— Qo'rqma, — dedi, — orqangda men turibman. Bolalaring, oilangga men kafilman. Boshingdan bitta ham tuking to'kilishiga yo'l qo'ymayman.

Kozim qo'lini siynasiga qo'yib, uzoq o'ylangandan so'ng rozi bo'ldi:

— Oxund, bolalarim qoni sening omonating! — deb o'pkasini bosib chiqib ketdi.

Kozim Ibrohim xonning saroyini hech ko'rmagandi, saroylar unda qo'rquv tug'dirardi, hamisha u yerdan olis yurardi. Bu safar uni majburiyat yetaklab kelgandi, qo'rquv endi xayolida ham yo'q edi. "Nima bo'lsa bo'lar", — deb tavakkal qilgandi.

Kozim devonxonada tizzada cho'kkalab o'tirgan odamlarni ko'rib o'zini yo'qotdi. To'rda o'tirgan xon va qizil kiyimli jallodlarga ko'zi tushgach, eti jimirlab ketdi. Salom berishni ham esdan chiqardi.

Xonning qahrli ovozi xonani titratdi.

— Salomni kimga yubording? — deya xonning vahimali ko'zlari Kozimga tikildi.

Kozim qo'rquv zanjiridan xalos bo'lib, hushiga kelganday bo'ldi, jilmaygancha xonning yuziga qarab dedi:

— Xon omon bo'lsinlar, ijozat bersangiz, bir ertak aytsam. Bir kuni Bahlul Dononda qamishdan o'ziga ot yasab yo'lda haydab borayotgandi. Yo'lda uchta mullaga duch keldi, salom berib o'tdi. Mullalarning bittasi: — salom menga edi, dedi. Ikkinchisi: — salomni menga berdi, dedi. Yo'q, salomni menga berdi dedi uchinchisi. Oralarida janjal chiqdi. Janjalning nima keragi bor, deyishdi, yuringlar Bahlulning o'zini chaqiraylik, so'raylik-chi, salomni kimga bergan ekan. Bahlulni chaqirishibdi, so'rashibdi.

— Salomni eng ahmog'ingizga berdim, — debdi Bahlul.

Mullalar rozi bo'lishmabdi. Bunisi men ahmoqman, debdi, unisi yo'q men ahmoqman debdi. Bahs Bahlulsiz hal bo'lmabdi. Bahlul sizlar ahmoqligingizni gapirib beringlar, men shunda salomni kimga berganimni aytaman, depti.

Mullaning bittasi gap boshlabdi: — Men maktabda dars berardim, — debdi u, talabalar meni qiynab, rosa charchatgandilar. Na o'lib qutulardim, na kasal bo'lardimki, biroz dam olay. Bir kuni

uyga kelsam, xotinim tokchaga bir taqsimchada kufta[1] qo'ygan ekan. Bittasini lunjimga tiqishtirib, dod-voy qila boshladim.

Xotinim yugurib keldi:

— Nima bo'ldi? — deb so'radi.

Lunjim shishib ketdi, o'laman, — dedim.

Xotinim, qani, ko'ray-chi degandi, chinqirib qo'ymadim. Meni ko'rpa to'shakka yotqizib, jarrohni chaqirtirdi.

Jarroh keldi, nashtarida lunjimni yordi, kuftani maydalab olib tashladi. Chirk bog'lagan ekan, biroz kech qolsaydik, o'larding, — dedi. Xullas, shu amaliyotdan keyin chindan kasal bo'lib, ikki hafta yotdim... Bahlul yuzini ikkinchi mullaga burib:

— Buning ahmoqligini bildik, endi sen o'zingnikini gapir, — dedi.

Ikkinchi mulla boshladi:

— Men ham maktabda dars berardim. Maktabning katta bir suv xumi bor edi. Bir kuni talabalardan bittasiga: — bir qo'lcha[2] suv keltir, ichay, — dedim. Talaba xumga yaqinlashib, boshini ichkari engashtirganida: — Hoy mulla, xum ichida odam bor ekan, — dedi-da qichqirib, orqaga qarab qochdi. Bolalarning har biriga bittadan xivich berdim. Xumchaga yaqinlashdik. Asta boshimni engashtirib qarasam, xumda bitta mulla ko'rindi. "Bolalar, dedim, bu mulla xumga yomon niyat bilan yashiringan bo'lishi kerak. Men xumga kirib yuqori ko'taraman, boshi tashqari chiqishi bilan sizlar xivich bilan savalaysizlar." Xumga tushdim, qarasam hech kim yo'q, demak o'z aksim suvga tushgan ekan. Xumdan chiqmoqchi bo'lib boshimni ko'targan edim, talabalar xivich bilan savalay ketishdi. Oxiri qo'shnilar dodlaganimni eshitib, kelib meni xumdan chiqarib olishdi. Shu voqeadan keyin ikki hafta kasal bo'lib yotdim.

Bahlul uchinchi mullaga o'girildi:

— Qani sen gapir-chi?

Uchinchi mulla gap boshladi:

— Men ham muarris edim. Maktabda shunday bir qoida o'rnatgandik: bittasi aksirganda har kimning qo'lida nima bo'lsa yerga

[1] **Kufta** — teftel.

[2] **Qo'lcha** — finjon, dastali krushka.

tashlab yuborardi. Bir kuni talabalarni yig'ib, shahardan dala qirga sayr qilgani olib borgandim. Havo juda issiq edi.

Talabalar chanqab qolishdi. Suv axtarib topmadik. Oxiri bitta quduqqa duch keldik. Biroq uning na chig'irig'i, na arqoni bor edi. Kamarlarimizni yechib, bir-biriga ulab, bir talabaning beliga bog'lab, quduqqa tushirmoqchi bo'ldik.

Lekin bolalar shunday qo'rqoq edilarki, hech qaysini suv olib chiqish uchun tushishga rozi bo'lmadi. Noiloj, kamarni o'z belimga bog'lab, uchini talabalarga berdim. Meni quduqqa tushirishdi. Quduqning yarmiga tushganda burnimning uchi shunday qichishdi-ki, chiday olmadim, qattiq aksa urib yubordim. Buni eshitgan talabalar kamarni qo'llaridan qo'yib yuborishdi. Gumburlab quduqning tagiga tushdim. O'n kun o'sha yerda och qolib ketdim. Bir kuni o'sha joydan o'tib ketayotgan karvon odamlari quduqqa mesh tushirganda unga yopishib chiqib oldim. Boshko'zim dabdala bo'lgandi, ikki oy yotdim.

Bahlul dedi:

— Mulla, salomni senga bergandim!

Kozim ertakni tugatish bilan Ibrohim xon sharaqlab kuldi. Yig'ilishdagi odamlarning yuziga rang kirdi. Kozimga sovg'a-salom, to'n hadya qilib yo'lga kuzatishdi. Aristonlar ham zindondan bo'shatildi.

10

Og'amammad shohning Xudofarin ko'prigidan o'tganidan Mammad bek bexabar edi. U uch ming askari bilan Arazning yuqorirog'ida shohning yo'lini poylardi. Chopar shoh Qorabog' qishloqlariga o't qo'ymoqda degan xabar olib keldi.

Mammad bek achchiq bilan:

— Qanaqasiga yondiradi? — dedi.

— Og'a Tug' yonayapti. Armanilarning boshlari nayzalarga sanchilgan. Qahrizlida odam tuta olmay, uylarga o't qo'yibdilar. Sizning uyingiz ham kuyib ketibdi.

Mammad bekning boshi guvilladi, g'azabidan titradi:

— Safar, — deya chaqirdi:

— Labbay og'a, xizmat? — dedi.

— Hoziroq uch yuz yaxshi otliqlardan ol! Jo'naymiz, tez bo'l!

Lashkargoh taloto'p bo'lib ketdi. Otlar egarlanar, qilichlar sharaqlardi. Barcha harakatga tushdi. Hammadan burun Mammad bek tayyor bo'ldi. Lochinning belida yo'lga chiqdi. Safar yugurib kelib suvoriylar darhol tayyor bo'lishlarini aytdi.

Mammad bek:

— Safar, — dedi, — otlarning mingashmasiga bir bog'dan quruq o't bog'langlar.

Safar tushunmay so'radi:

— Nima uchun?

— Ishing bo'lmasin, bog'lat, keyin bilasan.

Yo'lga chiqishdi. Kechga yaqin Xindarxin yoniga kelib to'xtashdi.

Shohning lashkargohi keng maydonda edi. Chodir-chodirga taqab tiklangandi. U yer-bu yerda gulxan yoqilib, tutun chiqayotgandi. Otlar, eshaklar, tuyalar o'tlash uchun dalaga qo'yib yuborilgandi: qo'shin ahli chumoliday qaynardi. Olis yo'llardan o't ortilgan suvoriylar lashkargohga qarab kelardilar.

Mammad bek kulimsirab:

— Safar, — dedi, — bilasanmi nima qilamiz? Endi biz ham bamaylixotir lashkargohga kiramiz, bizlarni o'zlaridan deb o'ylashadi, go'yo o't izlab ketganlardan bo'lamiz. O'rtaga yetib olamiz, ungacha qorong'u ham tushib qoladi. O'tlarni yerga tashlab, birdan hujum qilib, sarbozlarni qirib tashlaymiz. Sen bizning otliqlarga tushuntir, mening ovozimni eshitgach boshlashsin. Ungacha u yerga tashlanmay turishsin, tushundingmi?

Safar:

— Xuddi shunday! — deb ketdi.

Yashirin joyda turgan otliqlarga ko'rsatma berganidan keyin har tomon tarqalib, boshqa-boshqa yo'llar bilan lashkargohga qarab yurdi. Borgan sari lashkargohdan ko'tarilgan shovqin ortib borar, odamlar endi aniq ko'rinardi. U yerda xilma-xil kiyimli, turfa basharali, turli tilli xalqlar bor edi. Turklar, forslar, kurdlar, lorilar, arablar... Aralash-quralash bo'lib ketgandi. Keksalar bilan

birga yosh bolalar ham bor edi. Eron tuprog'ida qo'lida qurol ushlay oladiganlarning hammasini shu yerga to'plashgandi.

Mammad bek mo'ylovli bir sarbozning yonidan o'tib ketayotganda otini sekinlatdi. Kigiz jabduqqa suyangan bu sarboz sozni bag'riga bosib, dardli bayotini kuylardi. Atrofiga bir guruh uzun arxaluqli[1] sarboz yig'ilib ezilib yig'lashardi.

Quyosh tepalikning orqasiga berkingan bo'lsa-da, ufq hali qizarib turardi. Lashkargohga begona inson hidi chiqqandi. Chetdan bu yerga kelganning ko'ngli aynirdi. Mammad bek otni to'xtatdi, orqasidagi o'tni pastga tushirdi va atrofga ko'z yugurtirdi.

Otliqlari lashkargohga yoyilib, quloqlarini ding tutardilar.

— Hey-hey!

Mammad bekning ovozi eshitilishi bilan qilichlar yalang'ochlandi. Hushyor sarbozlar hurkitilgan chumchuq polaponlari kabi o'rinlaridan turib bir-birlariga aralashib ketdilar.

Qichqiriq, hayqiriq ko'tarildi, qo'shinning ichida sarosima boshlandi. Sarbozlar qurol ko'tarib bir-birining joniga qasd qilishdi. Mammad bek qilich chopib, olg'a intilar, orqaga qaytar va izini chalg'itish uchun: "Ana u, o'sha yerda, qo'yma ur!" deb sarbozlarni boshqa joyga yo'naltirardi.

Yarim soat davom etgan ana shu jangdan so'ng Mammad bekning guruhi o'n-o'n besh yarador va o'lik qoldirib chekindi. Ikki yuztacha sarboz ularning izidan tushdi. Mammad bek bu yerlarni juda yaxshi bilgani uchun sarbozlarning yo'nalishini daraga burib, odamlar bilan otlardan tushdi. Soylar orasiga sochilib sarbozlarni o'qqa tutdilar...

Orqadan eronliklarga yangi kuchlar kelib qo'shilishdan ehtiyot bo'lib, sarbozlarni qirib tumtaraqay qilganlaridan so'ng otlariga minib qamchi bosdilar. Mammad bekni qon va ter bosgandi. Safar ham jimgina u bilan yonma-yon borardi. Ko'z oldilaridan jang manzarasi ketmasdi. Kechasi salqin tushib, tog'lardan esgan shabada o'ziga keltirdi. Mammad bek:

— Ha, Safar, — dedi, — suv bo'lganida, tushib yuz-qo'limizni yuvardik: bir ablahni chopganimda bo'ynidan qon pishqirib, hamma joyimni rasvo qildi.

[1] **Arxaluq** — yengsiz uzun issiq kiyim.

Bunday savashlardan keyin Safarning hamisha ko'ngli g'ash bo'lardi:

— Qorabog'da suv bo'ladi, — dedi va yana jim qoldi.

Mammad bek qiziqib:

— Ovozing g'alati chiqayapti, — dedi, — nima balo yaralandingmi?

— Yo'q, yaradormasman. Ammo negadir odam o'ldirishdan quvonolmayman. Ularning ham onasi, singlisi, ayoli, bolalari bor, dushman bo'lsa nima qilibdi?

Mammad bek kuldi:

— I-ye, men seni jigarli deb bilardim!

— Jigarliman. Lekin odam o'ldirishga qo'lim bormaydi.

— Unda sen qanaqa qochoq — yo'lto'sar eding?

— U ham noilojlikdan edi.

Mammad bek o'ylanib qoldi.

11

1795-yilning yozida Og'amammad shoh Shushaga qarab harakat boshladi. Oldinda ketayotgan Mustafo xon o'n minglik qo'shin bilan uchragan qishloqlarni buzib, yondirib, aholiga nisbatan ko'z ko'rmagan zulm qilardi. Eronliklar turk bilan armaniga birday yovuzlik qilardilar.

Bunday xatti-harakat turklar bilan armanilarni birlashtirib o'zlarini mudofaa qilishga majbur etdi. Busiz ham asrlardan beri yonma-yon yashagan bu ikki xalqning keng ommasi bir-biri bilan do'st bo'lib yashardi: lekin baliq boshidan sasigani kabi yomonlik hamisha yuqori sinfdan tug'ilardi. Bu safar yuqoridagilar ham birlashib, yelkama-yelka turib Og'amammad shohga qarshi chiqdilar.

Dizoq, Varand, Xachin va Tug' maliklari, Mammad bek, ukasi Asad bek va Safar Qarqar daryosining o'n tomonidagi tog' va dalalardan Og'amammad shohning qo'shiniga qarshi hujum boshladilar.

Qal'a muntazam bir holda turib dushmanni kutardi. O'n besh ming askar shahar ichida va qisman g'arb qismidagi tog'liqlarda joylashgandi. Hammada ruhiy ko'tarinlik his etilardi, chunki

shaharning tabiiy mavqeyi shu qadar qulay ediki, uning olinishini hech kim xayoliga keltirmasdi.

Tong tuman ichida oqarar, quyosh qondog'i misol ufqqa yopishib turardi.

Kozim namozini o'qib bo'lgan, qatiq bilan non yeb, ko'chaga chiqqandi. Xalq bozorga kelayotgandi. Yelkasiga obkash ilgan ayol va qizlar chuchuk quduqlardan suv olib qaytardilar.

Go'yo shahardan olti-yetti yog'och qa'rida jang ketmayotgandi, hayot hamon ko'hna oddiy hayot edi.

Eshik oldida bir tosh supa bor edi. Kozim har oqshom Ollohquli bilan uning ustida o'tirib suhbatlashardi. Hozir ham o'tirib do'stini kutardi. Ko'p o'tmay Ollohquli ko'rindi:

— Usta, bugun muncha erta turibsiz?

— Dedim, chiqib qaray-chi, qanday xabar bor.

— Unda tur o'rningdan!

Do'stlar boshmoqlarining taqalarini taqillata-taqillata tor va tuproq ko'chalar bilan maydonga qarab yo'lga tushishdi. Ular ishi bo'lmagan va ayni yo'lni har kun bosib o'tadigan odamlar singari asta-asta yurib kam gaplashib borardilar. Bular qiyofa e'tibori bilan bir-biridan farq qilmaydigan odamlar edi: boshlarida araqchin[1], egnilarida chit belbog'lik uzun arxalik, oq ishton va tovonlari boshmoqdan chetda qolgan paypoqsiz oyoqlari bor edi. Ikkalasining qo'llari ham bellarining orqasi tomonida chatishib, tasbeh o'girib borishardi.

Maydonga yetib borishdi. Odam ko'pligidan igna tashlasang yerga tushmasdi.

Xaloyiq bir-birini bosib, ilgari suqilar, maydonning o'rtasida nimanidir tomosha qilishga intilardilar.

Kozim oyoqlarining uchiga ko'tarilib bo'ylansa ham hech narsa ko'ra olmadi. Oldida turgan katta telpakli cholga yondoshib so'radi:

— Amaki, nima gap?

Chol kulimsiradi, yagona tishini ko'rsatib dedi:

— Mammad bek bilan tug'lik malik Abbos bir xurjun sarbon qulog'ini yuborishibdi. Xaloyiq kesilgan quloqlarni ko'rmoq istaydi.

---

[1] **Araqchin** — do'ppi.

Boboy gapini tugatib qahqaha tortdi. Lekin yo'tal uning kulgisini yarmida to'xtatdi.

Bozorni qiy-chuv bosib ketgandi, xalq eronliklarga berilgan zarba haqida suyunib gapirardi.

— Bu yigit yomon azamat-da!

— Otasiga tortgan-da: Mehrali bek jasur emasmidi?

— U boshqa, bu boshqa!

— Hoy to'xta, oyog'imni ezding-ku! Ko'rmisan, nima balo!

— O'zing ko'rsan!

Ikki kishi urushib ketishdi. Oraga tushib, ajratishdi. Kozim Ollohquli bilan maydonni aylanib, devonxona tomon yurishdi. Hamma joyda odam gavjum edi. Qishloq shaharga aralashib ketgandi. Rastabozorda qizg'in oldi-sotdi borardi, oluvchilarning aksariyati tarakama[1] edi. Boshlari durrali, yuzi ochiq qishloq qizkelinlari oq chodrali shahar ayollari ichida g'alati manzara kasb etardi.

Bu yerda urush sezilmasdi: xalq shaharga ko'chgan, har qanday yaxshi-yomon bir yerga joylashgan, go'yo xotirjam bo'lgan, yondirilgan yurtini unutganday edi.

Devonxona oldi ham oddiy manzarasida emasdi. Barcha dor yog'ochlari, qiynoq uskunalari yig'ishtirilgan, jallodlar xalqqa aralashib, u yer, bu yerda guruh-guruh bo'lib o'tirib suhbatlashardi.

Bir mahal qal'a darvozasi tomonda qiy-chuv ko'tarildi. Hamma o'rnidan dik etib turib, o'sh yoqqa tomon qo'zg'aldi.

Kozim bilan Ollohquli saroy oldida tepalikka chiqib tomosha qila boshlashdi. Yuzlarcha ot, xachir va ulov olib kelindi. Atrofga yoyilgan xaloyiq bu yilqini quvnoq qichqirib bilan qarshiladi. Bu hayvonlar eronliklardan o'lja olingandi.

12

Shusha atrofidagi janglar uch haftadan beri davom etardi. Og'amammad shoh Qarqar daryosining chap tomoni bilan astasekin Shushaga qarab ilgarilab borardi. Qarqarning o'ng sohi-

[1] **Tarakama** — turkman.

li esa Mammad bekning qo'lida bo'lib eronliklarga katta talofat yetkazardi. Bu yerlar tog'liq bo'lgani uchun maydon jangi qulay emasdi. Qorabog'liklar mayda-mayda guruhlar bilan hujumga o'tib, dushman karvonlarini g'arat aylab, oziq-ovqat va yem-hashak keltirilishiga to'sqinlik qilardilar. Shoh buning oldini olish uchun Davali Mustafo xonni besh ming qo'shini bilan Asgaranga va Pirquli xonni esa Mammad bek ustiga yubordi.

Mammad bek vaziyatni o'rganib, odamlarni Pirquli xon keladigan yo'lning atrofiga yig'di.

Avgustning o'rtasi edi. Havo bulut bo'lsa-da, nihoyatda yoqimli edi. Mammad bek qoya tepasida turib Qorabog'ga to'g'ri keladigan yo'lni kuzatardi. U zirhli sovutda pahlavonga o'xshardi. Qat'iy boqishlari birdan o'zgardi, go'yo burgut o'lja ko'rganday edi. Olisdan ko'tarilgan chang orasidan eron otliqlari ko'rindi.

Mammad bek:

— Safar, sen dastangga buyur, jim o'tirib, kutinglar, — dedi, — men g'aflatan ustlariga tashlanganda, sizlar orqadan yo'llarini to'sasizlar.

Safar pana joylar bilan odamlarining yoniga yugurib ketdi. Mammad bek ham qoyadan tushib, yon daradagi qo'shiniga yetib, otlandi. Yo'lning usti ikki yondan o'ralgandi. Lekin eronliklarning kechikishi hammani toliqtirib yuborgandi. Hammadan ham ko'proq hafsalasi pir bo'lgan Mammad bek edi. Nihoyat u Tarlonni choptirib yo'lga tushdi, o'ttiz-qirq odimlarcha narida ikki otliq gurunglashib kelardi. Asil Eron qo'shini hali uzoqda edi. Otliqlar Mammad bekni ko'rib o'zlarini yo'qotib qo'yishdi. Bittasi ortga qaytmoqchi bo'ldi, ikkinchisi egarga osig'liq nayzani olib, Mammad bekka tashlandi. Bu odamning ovshar ekanligi qiyofasidan ko'rinib turardi. Ovsharlarning nayza otish bilan mashhurligi uchun Mammad bek shartta qilichini sug'urib va nayzadan ko'z uzmay ehtiyotlik bilan olg'a intildi. Nayza ovsharning qo'lidan uchgan zahoti Mammad bekning qilichi uni havoda ikki bo'ldi. Ikkinchi zarba ovsharni otdan ag'dardi. Endi dara va yo'l na'ra ovozi bilan to'lib ketgandi.

Otlar tuyog'idan uchgan tovush havoda jaranglar, chang-to'zon atrofni qoplagandi.

Pirquli xonning qo‘shini hujumni kutmaganidan o‘zini yo‘qotib, gangib qoldi, o‘zini panaga ola boshladi. Safar ham hujumga o‘tgach, eronliklar jon qutqarish uchun orqaga qocha boshladilar. Mammad bek dushmanni shohning lashkargohigacha quvib bordi. Yo‘lda dahshatli manzaraga duch kelishdi. Eronliklar yuztacha Qorabog‘ asirini qo‘l oyog‘i bog‘liq holda yerga yotqizib, xirmon yanchish singari ustlaridan ot haydardilar. Odamlar ingrashidan go‘yo atrof fig‘on chekardi. Mammad bek Pirquli xonni qidirishdan voz chekib, qiynoq guruhining ustiga tashlandi. Qirq-ellikta yog‘iy bir daqiqada qilichdan o‘tkazilib, quloqlari kesilib, xurjunlarga to‘ldirildi.

Mammad bek Qarqarning o‘ng sohilida mustahkam istehkomlar qurib, shoh qo‘shiniga qattiq zarbalar berishiga qaramay, Og‘amammad shoh chap qirg‘oq bilan tog‘ga to‘g‘ri chiqib, Shushani to‘pga tutardi. Tosh va temir parchalari Qal’aning turli joylariga tushib, xalqni hayajonga solardi. Lekin bir necha kundan keyin bu ham odat tusiga kirib, ta’sir qilmay qo‘ygandi.

Shaharliklar guruh-guruh bo‘lib otchopar maydoniga chiqib, u yerdan to‘pxonani titib tashlagan shoh to‘plarining zarbasi izlarini tomosha qilishardi. Ba’zan to‘plarning ovozi o‘chib, ikki tomon ham tinchib qolardi, dam olishar yoki ovqatlanishar edi-da. Bir qarasang to‘p otishmalari boshlanar, borit[1] tutunlari atrofni burkardi. Bu otishmalar, tabiiyki, hech natija bermasdi. To‘pxona bilan shahar orasida chuqur bir uchurim jarlik bor edi, uning tagidan Dasholti daryosi oqardi. U yerdan kechib o‘tish umuman mumkin emasdi. Kechib o‘tilganda ham bunday tik qoyalarni, shahar devorlari va minoralarini olish mumkin emasdi: o‘n besh ming azamat shaharni himoya qilardi.

Qal’a bilan To‘pxonaning orasidagi kechuvning eng tor joyi Xazna qoyasining oldi edi. Og‘amammad shoh bu yerdan bir balo qilib o‘tish niyatida bo‘lsa-da, biror natija chiqmasligini anglab, voz kechdi. Nihoyat u alam qilib, Ibrohim xon huzuriga elchi vositasida bir xat yubordi.

Elchining ko‘zlarini bog‘lab, saroyga olib kelishdi. Nomada shunday yozilgandi.

[1] **Borit** — porox.

"Zi manjanaqe falak sange fitna mibarad tu ablahona qirifti miyani — Shusha qaror[1]"

Xon shohning qahrli maktubidan qoniqmadi. Yonidagi Voqifga yuzlanib:

— Afsus, oxund, bu axta ko'pakka bir yaxshi javob yoz, — dedi.

Voqif xatni olib yana bir bor ko'zdan kechirdi, keyin orqasiga yozdi:

"Gar nigohdore — tan anast ki, tan midonam, Shusharo dar bag'ale sand nigoh midorad[2]"

Voqifning javobi xonga juda ma'qul keldi. Xatni buklab elchiga berishdi va yana ko'zlarini bog'lab, yo'lga chiqarib qo'yishdi.

Bir necha soatdan keyin shahar yangidan to'pga tutildi. Bu shohning javobi ekaniga ishora edi. Ibrohim xon barcha a'yonlari bilan otlanib Jidir maydoniga chiqdi. To'pxona borit tutuniga burkangandi. Birozdan keyin zambarak ovozlari tindi, tutun astasekin uchurumga qarab pasaya boshladi. To'pxona ko'zga tashlandi. Shoh a'yonlari bilan turib Shushani tomosha qilardi. Ibrohim xon Xazna qoyasi ustida g'urur bilan turardi. Shoh uni ko'rgach, qo'pol tovush bilan so'kina boshladi. Ibrohim xon xizmatchilarga o'rgatdi va hamma baravariga:

— Hoy axta xon! Voy axta xon!

Axta so'zidan keyin rosa o'sal bo'lgan shoh qichqirdi. Yangidan otilgan to'plarning tutuni tag'in to'pxonani burkab, shohni ko'zdan yo'qotdi.

13

Og'amammad shoh o'ttiz uch kunlik jangdan so'ng Shushani ololmay Ag'dam tomonga, Qoratepaga chekindi. Kuz boshlanayotgandi. Oziq-ovqat va yem-xashak yo'qligi, jonivorlarning qirilishi shohni juda og'ir ahvolga solgandi. Shoh qo'shindagi yoshlarni alohida, qojor toifasini alohida, ozarbayjon toifasini

[1] Falakning manjanag'i fitna toshini ustingga yog'diradi, sen ham ahmoqlarcha shishaning(Shusha qal'asining) ichida yashiringansan.

[2] Meni himoya qilib saqlagan men taniganim bo'lsa, ishonamanki, u Shushani toshning ichida ham himoya qiladi.

alohida boshqa bir joyga yig'ib, katta kengash o'tkazdi. Vaziyatning og'irligini tushuntirib, qo'shinning rayini bilmoqchi bo'ldi.

Yoshlar: — biz askarmiz, shohning amriga tayyormiz! — deyishdi. Qojor ahli Tehron tomonga chekinishini istadi, ozarbayjonliklar esa Ardabil tomonni xohlashdi.

Shoh: — Tayyor bo'linglar, ertalab yo'lga chiqamiz! — deya buyruq berib, chodiriga kirib ketdi. Ertasi kuni shoh shoshilinch ravishda qo'shinini yig'ishtirib Gurjiston tomon yurdi. Javad xon ham yo'l boshlovchi sifatida uni ergashtirib borardi. Ibrohim xonning josuslari bu xabarni Shushaga yetkazgan zahoti Safarga qo'shin va hamyon-hamyon tilla berib, Irakliy xonga madad yuborildi.

Safar bir oydan keyin olib kelgan qo'shinining ozgina qismi bilan orqaga qayta oldi. U Tiflisning vayron qilinishini guvohi bo'lgandi. Kalisolar ham yondirib yuborilgan, xalq qirib tashlangan va shoh yigirma ming odamni asir olib, Ganjaga, u yerdan esa Mug'onga, qishlash uchun chekingandi. Safar olib kelgan xabar Qorabog'ni motamga aylantirdi. Busiz ham vaziyat og'ir edi. Eronliklardan qo'rqqan aholi tog'dan oronga tusha olmasdi. Qish keldi. Uy hayvonlari sovuqdan qirila boshladi. Xalq ekin ekmagandi. Olgan zaxiralari tugab borar, ochlik odamlarni asta-sekin zaptiga olmoqda edi. Voqifning nash-u na'mosidan asar ham qolmagandi. Uning yoshi yetmishdan oshgan bo'lishiga qaramay, hamisha quvnoq va tetik edi.

Endi bo'lsa atrofdagi hodisalar uni ezar, ruhi va jismini o'ldirardi. Tiflis fojiasi uni shu qadar gangitdiki, necha kun o'rnidan tura olmadi. Nihoyat, ochiqboshga nisbatan asragan tuyg'ularini she'r bilan qog'ozga bitib, orom olganday bo'ldi.

Ibrohim xon ham saroy hovlisini har kuni to'ldirayotgan shikoyatchilardan tang ahvolda edi. Xalq tug'ilib o'sgan joylariga qaytishni istar, ochlar non talashardi. Yagona umid Usmonli Sultonida edi, biroq bu ham ro'yobga chiqmadi: Mirza Alimammad og'a Istanbuldan yaxshi xabar olib kelmagandi. Sulton Og'amammad shoh bilan kelishib, uning Qorabog'ga ruslarga qarshi chiqishini quvvatlagandi. Og'ir bu vaziyatdan chiqish uchun Ibrohim xon kengash chaqirgandi.

Uzoq mulohazalardan so'ng Voqif qisqa qilib:

— Axta xondan qutulish uchun bittagina chora bor: o'ris himoyasi, — dedi.

Ba'zi og'alar e'tiroz bildirsa-da, xon Yekaterinaga noma yuborishni ma'qullab Voqifga topshirdi.

Voqifning bu safargi nomasi oddiy muhabbatnoma emasdi: bu — amaliy takliflardan iborat edi. Rusiyaga qochgan Xoylik Murtuzaquli xonning ishtirokida Astrobodga qo'shin kiritish; Ibrohim xonga o'n ikki ming qo'shin yuborib, Naxichevan yo'li bilan Eronga o'tish; Irakliy xonning Yerevanni qo'lga olish asosiy takliflar edi.

Voqif yozgan xat Kavkaz xududidagi bosh qo'mondon Gudovich vositasi bilan Yekaterinaga yuborildi. 1796-yil yanvarning oxirida bu noma Peterburgga yetdi. Buning natijasi o'laroq Qizlar qal'asiga qo'shin yig'ilishi amr etildi va graf Zubovning qo'mondonligi ostida yangi bir Kavkaz safari boshlandi.

14

Voqif Mirza Alimammad og'a bilan rasmiy ravishda saroyda uchrashgandi.

Bu safar Qizxonim bilan birga uning oilasiga tabriklagani bordi. Mirza Alimammad Voqifni chiroyli bezatilgan shinam xonasida qabul qildi. Xonaning bir tomoniga rang-barang guldastalar terilgandi. Chirmovuqlar shiftga o'ralib go'zal manzara hosil qilgandi. Nihollar orasiga osilgan qafaslar ichidagi turli tuman bulbullar chaxchaxlashardi.

Bahorga oz qolgandi. Tashqarida qalin tuman bo'lganidan derazaning rangli shishalari bo'g'iq ko'rinardi. O'choq bor edi. Voqif do'sti bilan yuzma-yuz o'tirib, suhbatlasha boshladilar. Voqif dedi:

— Sayid, Istanbuldan keltirgan sovg'alaring meni qarzdor qilib qo'ydi. Hozir kecha-yu kunduz shoirlarning devoni bilan vaqt o'tkazayapman. Ammo yaxshigina sayohat qilding.

Mirza Alimammad mamnun holda:

— Oxund, — dedi, — shunday olamlar bor ekan, biz esa butunlay bexabarmiz. Biz ham mana shu tog' boshida o'tirib, ko'p narsa ko'rdik der ekanmiz-da!

Voqif miriqib kuldi:

— Men safardan keyin sen bu yerlarga sig'maysan, deb o'ylagandim.

— Sig'ib bo'ladimi? Juda afsuslandim, qaniydi oxund shu yerda bo'lsaydi, dedim, bir qayiq sayriga chiqib Bo'g'oz ichini aylansaydik. Uni tasvirlashga so'z ojiz. Dengiz feruza, osmon feruza, tevarak minorali masjidlar, saroylar, binolar... Odam qaragan sari qaragisi keladi. Ko'z to'ymaydi.

Oxund, butunlay boshqa dunyo, ulug'vorlik!...

Voqif do'stining yuziga hayron bo'lib qarar, hayajonidan nafasi tiqilardi:

— Podshoning o'zini ko'rdingmi?

— Ko'rdim! Podsho kema sayriga chiqmoqchi bo'lsa, bir kun oldin xalqqa xabar beriladi. Bir kuni bordim. Ajoyib havo edi, hamma yoq odamga to'lgandi. Bo'g'ozda Qiz qal'asi bor, u yerdan to'p otilganda sulton kelayotganini bildik. Daryo bo'yida odam odamni bosadi, hamma sultonni ko'rishni istaydi. Birdan oltita sandal[1] ko'rindi. Ichlarida yuzdan ortiq icho'g'lon[2] bor edi. Bular saroy xizmatchilari — eshkak eshuvchilar edi. Icho'g'lonlar shunday kiyinishgandiki, qaraganda odamning ko'zi qamashadi. Bu olti qayiq yo'l ochish uchun edi. Keyin podsho qayig'i kelardi. Orqasida yana oltita zavraq bor edi.

Podsho[3] — qayig'ida alohida ulug'vorlik ko'rinib turibdi. Nomini "Sariq sandali" deyisharkan. U yerda menga bitta mehmondorni biriktirishgandi, o'sha hammasini tushuntirib berardi. Ularda shunday qoida bor ekan: podshoning singillari latif shol to'qib, bayramlarda podshoga sovg'a qilisharkan. O'sha shol "Sariq sandali"ga to'shalarkan.

Zavraqning to'rt tomoni kumush suyanchiq — to'siqli, ustida to'rtta kumush ustunli ko'shk qurilgan. Hamma tomoniga qizil movut tortilgandi. Naqshlar bilan bezalgan, marvaridlar qadalgandi! Podsho ipak yostiqlarga suyanib o'tirar, sallasining qimmatbaho toshlari ko'z qamashtirardi.

---

[1] **Sandal** — zavraq, katta qayiq, kemacha.

[2] **Icho'g'lon** — saroyning xos xizmatchilari.

[3] **Podsho** — sulton nazarda tutilyapti.

Voqif maroq bilan:

— Xalq bosh egadimi?

— Nega egmasin! Hamma ta'zimda! Bo'g'ozning u tomoni ikki qavat bo'ladi. Hamma qo'rqqanidan dir-dir titraydi. "Sariq sandali"ning orqasidan yana bir zavraq kelayotir. Unda haram og'alari va ularning kattasi — qizlar og'asi zavraqqa chiqadi. Eng qo'rqinchli odam ana shu qizlar og'asi hisoblanadi, deyishdi. Podshoning butun harami unga qaraydi. Og'amammad shoh kabi u ham axta ekan. Shunaqa jahldorki, yuziga qaraganda odamni vahima bosadi. Aytishlaricha saroyda nima xohlasa ayollar vositasida qila oladi. Podsho ham uning qo'lida o'yinchoqdir.

Voqif yana kuldi:

— Sarbon bilan do'st bo'lganning darvozasi keng bo'lishi kerak! Yaxshiyamki sarbon do'stimiz yo'q.

Mirza Alimammad ham kuldi. Lalaning qahva va gazak olib kelishi suhbatni bo'ldi. Gazakning ichida qora xurmo va Izmir anjiri ham bor edi.

Bularni Mirza Alimammad Istanbuldan olib kelgandi.

— Befoyda, shunday narsalar olib kelibsanki, mening tishim o'tmaydi, — deya Voqif taqsimchadan bir anjir oldi. — Yaxshi, Sayid, xo'sh, seni kim qabul qildi?

Mirza Alimammad og'a jiddiy holda:

— Ularning, — dedi, — hukumati o'tirgan joyga "Babi oliy" deydilar. O'sha yerga bordim. Bir ma'mur bilan gaplashdim. Chiqib, boshqa bir xonadagi kim bilandir maslahatlashib keldi va bu masalani hal etib bo'lmasligini bildirdi. Ammo yaxshi ehtirom ko'rsatishdi. Manzil berishdi, hamma joyni aylantirishdi, juma kuni salom-alikka olib borishdi. "Salom-alik" podsho masjidga namozga borishiga aytishadi. Lekin na podsho, na vazir bilan uchrasha oldim. Eron shohi bilan do'stligimiz bor, u bilan oramiz buzilishini istamaymiz deyishdi.

Masala shunday bo'ldi. Bilasan, ular ikki marta Yekaterina bilan urush qilishdi, juda ko'p odam qirildi, xazina bo'shab qolgan. O'ris bilan yana to'qnashishga toqatlari yo'q. Endi shohdan umid qilishaypti. Balki shoh o'rislarning Kavkazga kelishiga yo'l qo'ymas, deyishayapti.

Voqif o'ylardi. Mirza Alimammad ham biroz o'ylab, jimlikni buzdi:

— Shoh Mug'ondan chekinib ketdi. Yana qaytib kelarmikan?

— Keladi! Shubhasiz! Eronda yana bir isyon ko'tarilibdi, uni bostira olsa, o'ldirilmasa, bahorda yana kelishi mumkin.

— Endi xonning tadbiri qanday?

— Javad xonning burnini yerga ishqalash! Irakliy xon qo'shin to'playapti. Ibrohim Xalil xon bilan Umar xon ham tayyorlanishayapti. Shu kunlarda yo'lga chiqishadi. O'ris qo'shini Darbandga yetguncha Ganja olinishi kerak.

Suhbat borgan sari qizib borardi. Birozdan keyin soatlilik Mirza Mammadquli ham keldi. Bu odam Voqifning hamyurti bo'lib, Qorabog'ga ko'chib kelganiga ancha bo'lgandi. Saroyda ma'lum vazifalarni bajarib yurardi. Voqif'uni ko'pdan buyon ko'rmagani uchun juda sevindi:

— Eh, hamyurt, — dedi, — kamnamosan! Saroyda uchrashsak — uchrashdik; uchrashmasak, hech oshiqni ko'rmagandim, bir ko'ray ahvoli qanday ekan demaysan–a...

Mirza Mammadquli uzr so'radi, ancha vaqt qishloqda bo'lganini aytdi:

— Shoh ketgan ekan, biroz ekin-tikinga qarashishimiz kerak, bo'lmasa ishlar chatoq.

Voqif ma'qullovchi bir jilmayish bilan:

— Xudo haqqi, balosan, hamma ishga ulgurasan! Ichlaringda eng nochori o'zimman, uyda o'tirishdan boshqaga yaramayman.

15

Irakliy o'g'li Aleksandr qo'mondonligida Ganjaga qo'shin yuborgandi.

Ganja uch oydan beri qurshovda edi. Lekin gurji qo'shini borgan sari qochib, tarqalib, kamayib borardi. Chunki oziq-ovqat tugar, qo'shin yalang'oyoq qolgandi. Irakliyning xazinasi bo'shab qolgan, qo'shinning hech narsa bilan ta'minlay olmasdi. Zotan, Ganja safaridan maqsadi Javad xonni itoatga keltirib boj olish va moddiy ahvolini tuzatish edi. Ibrohim xon bilan Umar xon qo'shin tortib Ganjaga bostirib kelganda u yerda yuztacha gurji qolgandi.

Qorabog‘ va Avariston askarlari yetib kelishi bilan ahvol o‘zgardi: bog‘larda tirikchilik qilayotgan ganjaliklar qal’a tomon chekina boshladilar.

Ganja baland devor bilan o‘ralgan edi. “Qorabog‘” va “Tiflis” degan ikki darvozasi va g‘arb tomonda minorasi bor edi. Qal’a markazini g‘ishtdan tiklangan xon saroyi, kichik qal’a va masjid tashkil qilardi. Qorabog‘ darvozasiga yaqin joyda bir quduq bo‘lib, saroyni suv bilan ta’minlardi. Ibrohim xon Ganja qal’asini yaxshi bilgani uchun qo‘shini bilan Ganja daryosini kechib o‘tib, to‘plarni tizdirdi.

Bir-ikki to‘p o‘t ochganidan so‘ng qo‘shin hujumga o‘tdi. Devor to‘siqlari zambaraklar zarbida ilma teshik bo‘lgan, yolvorish-u firoq, faryodlar ko‘kka o‘rlardi. Birozdan so‘ng Qorabog‘ darvozasi ustida oq mato ko‘rindi, bu taslim bo‘lish, yarashish alomati edi. Buyruq berildi, hujum to‘xtatildi. Qal’a darvozasi ochildi, qo‘llarida non-tuz oqsoqollar hay’ati ikki qator bo‘lib, Ibrohim xonning huzuriga kelishdi. Qo‘lida Qur’on tutgan bir keksa:

— Xon omon bo‘lsin, — dedi, — musulmon qoni to‘kilishiga aslo rozi bo‘lmagaysiz. Qanday amringiz bo‘lsa, xizmatga tayyormiz.

Ibrohim xon qahrli tovushda:

— Javad xonning o‘zi qani? — dedi.

— Oqsoqollar uzr so‘rashdi, mulzam bo‘lib, tashqari chiqqani uyalayotganini aytsalar ham xon rozi bo‘lmadi. Nihoyat, iloji qolmay, Javad xonning o‘zi kelishga majbur bo‘ldi. Yerga qadar egilib ta’zim qilgach, shohga madad bergani borib katta xato qilganini aytib, gunohini yuvish uchun har qanday jazoga loyiq ekanini tan oldi.

Ibrohim xon Umar xon bilan maslahatlashib chodirga kirdilar. Javad xon ham o‘sha yerga borib muzokara boshlashdi. G‘oliblar katta bojdan boshlab, asta-sekin pasaytirib borishga majbur bo‘ldilar. Javad xon yalinib-yolvordi, bera olmasligini aytdi. Oxiri Ibrohim xonga o‘n besh ming tilla tanga, o‘g‘lini garovga va singlisini haramga berishga majbur bo‘ldi. Qorabog‘ xoni pulni va garovlarni olib jim bo‘ldi. Umar xon ham bir askari uchun qirq tilla tanga olib Ganjani tark etishini bildirdi.

Yarashish haqidagi xabar atrofga yoyilgandi, xalq yig'ilib kelar va chodirni o'rab olardi. Nihoyat bir guruh ajralib Ibrohim xonning yoniga keldi, oyog'iga yiqildi:

— Xon omon bo'lsin, bolalaringiz boshida aylanaylik!

Xon hayrat-la:

— Nima bo'ldi? — dedi.

— Xon, ayollarimiz bir necha oydan beri qal'ada asir, — deyishdi. — Ishlarimiz qolib ketdi, bola-chaqalarimiz yetim bo'lib qolishdi.

Ibrohim xon surishtirib aniqladi. Ma'lum bo'ldiki, Javad xon qishloq ahlining isyon ko'tarishidan qo'rqib, qishloqliklarning ayollarini garov tariqasida qal'aga olib kelgan ekan.

Ibrohim xon ham mustabid edi. Xalqqa ko'p zulm qilardi. Lekin ayollarni garov qilib tortib olishni hayoliga keltirmagandi. G'olibiyat unga bir oliyjanoblik baxsh etgandi, shundan foydalanib, ayollarni bandilikdan bo'shatishni topshirdi: — shunchalik ham zulm bo'ladimi? — dedi.

Javad xon uyaldi. O'sha zahoti odam yuborib, ayollarni bo'shatishdi. Qal'a darvozasidan chiqqan ming besh yuztacha ayol erlariga va bolalarini ko'rib ho'ngrab yuborishdi. Bir qanchalarining yuragi ko'tara olmay, yerga yiqilishdi. Jonni o'rtovchi bu manzaraning guvohi bo'lgan bir necha askarning ko'ngli bo'shab yig'lab yuborishdi.

Yarashish marosimi bitim bilan tugadi. Ibrohim xon Qorabog'ga qaytib ketmoqchi bo'lganda Irakliy xon yangi to'plagan qo'shin bilan uchrashdilar. Ahvolni ko'rib hayratlandi.

— Yarashish bo'ldimi? — deb so'radi.

Ibrohim xon:

— Ha, bo'ldi! — Javad xon garov berib jonini qutqardi. Bundan keyin yana Eronga umid bog'lasa o'g'li jallod qo'liga topshiriladi.

— Ho'sh, men-chi?

Ibrohim xon Irakliyning boj olish umidida ekanini tushundi. Mayin tovushda:

— Bilasan, Irakliy xon, — dedi, — bitta boshga ikki musht jabr bo'ladi. Javad xonning ishlari yaxshi emas. Bu yil omadi yurishmadi. Irakliy g'azabidan titradi:

— Mening shahrim ham xarobaga aylantirildi. Odamlarim qirildi. Yerevan Axta xonda. Qazahni va Shamsiddinni shoh mendan ajratib, Yerevanga yopishtirdi...

Ibrohim xon eshitgisi kelmadi.

Irakliy biroz to'ng'iliadi. Nihoyat:

— Mayli, zarari yo'q! — dedi, — o'ris keladi, hammasi tuzalib ketadi; shunda Qorabog'ni ham sendan olib menga beradi!

Irakliyning zardasi Ibrohim xonni gangitib qo'ydi. Yana eski shubhalari uyg'ondi, ruhini eza boshladi.

Javad xon Irakliyni rozi qilish uchun Og'amammad shohning Ganjada qoldirib ketgan Gurji asirini yig'dirib unga topshirdi. Shunga qaramay Irakliy xon alamzada bir ahvolda Tiflisga qaytdi.

16

Og'abayim beka bugun yotog'idan tashqariga chiqmagandi. Nozli uning yonida o'tirib to'xtatishga urinardi: dekchasini ochib, zeb-u ziynatlarini ko'rsatib, kiyim-kechagining nafisligidan gapirardi, lekin bekani ovuta olmasdi. Bayimning butun fikri-zikri Ganja jangida yaralangan Mammad bekda edi.

— Jarohati, balki yelkasidadir?.. Qo'li shikast yemadimikin?

Nozli qayta-qayta tassalli berib:

— Yo'q, ko'zimning qarog'i! — dedi. — Bekorga xavotirlanayapsan! Hech zarari yo'q; uningdek bahodir yigitga kichkinagina yara nima degan gap!

Og'abayim uyga tolgan bir holda dekchaning qopqog'ini yopdi:

— Sen borganda uni qay ahvolda ko'rding? O'tirganmidi, yoki cho'zilib yotganmidi?

— Bayim, u ko'rpasi ustida o'tirgandi. Qog'ozni berdim. Kulimsirab o'qidi. Katta rahmat, omon bo'lsin, afsuski javob yoza olmayman. Bilasan-ku, Bayim, o'ng qo'li bo'yniga osib qo'yilgan. Jarroh yechgani qo'ymaydi. Yo'g'sa, shukur yaratganga, nima bo'libdi. E-e, tilim qursin, tanglayimga yopishsin, biror narsa bo'lsa o'tira olarmidi?

Og'abayim tinglar, ba'zan jilmayar, lekin qalbini tirnayotgan shubhadan qutula olmasdi. Onasi To'to'bayimning ichkari kirishi uni darddan qutqardi.

— Hoy qiz, yana nima bo'ldi?

— Hech narsa, oyi, kayfiyatim yo'qroq!

To'to'bayim andisha bilan qo'lini qizining peshonasiga qo'ydi, yuziga diqqat bilan qaradi va kulimsirab:

— Noz qilayapsan, hech narsang yo'q! — deb Og'abayimning yonog'idan o'pdi. Og'abayim bu kutilmagan o'pichdan seskanib, qizarib ketdi. Bosh ko'tarib onasining yuziga qaradi. G'amgin ko'zlarida yosh yaltiragan To'to'bayim uni quchoqlab yoniga o'tirdi:

— Eh, qizim, qizim, — dedi ko'ksiga urib: qay biringizning dardingizni tortay, katta opang To'bo'ni uzatdik, yashab ketar dedik... eri borib Ganjadan bittasini yetaklab kelibdi, endi uyda har kuni janjal. O'zi homilador, nimjon, yengiltakligidan rangi ro'yi qochgan. Sen nega yengiltaklik qilayapsan, bilmayman. Eh, hali ona ham bo'larsan, shunda mening ahvolimni tushunarsan!..

Og'abayim onasining bag'rida sig'inib hazin-hazin yig'ladi.

To'to'bayim qizining dardini bilardi, lekin oshkor qilmasdi, chunki Mammad bek yashab ketishiga ishonmasdi:

— Eh, qizim, seni qanday yo'lga solay, bilmayman... Qiz bosh og'rig'ini bilmaydi! Sening og'zingdan hali sut hidi ketgani yo'q, sen erga tekkan yaxshi kun ko'radi deb o'ylaysan... Yo'q, qizim, yanglishasan, qizning dardi bitta bo'lsa, erga tegsa mingta bo'ladi. Eshitmaganmisan:

Qiz edim, sulton edim,
Nikohlandim, xon bo'ldim,
Erga tegdim, qul bo'ldim,
Oyoqlarga chul[1] *bo'ldim.*

Hozir men o'sha chuvrindi matoman, oyoqlar ostiga to'shalganman. Bu dunyoda men bormanmi, yo'qmi, otang bilmaydi, qizim. Bir muddat Hoji Karimning qiziga elakishgandi, endi bo'lsa Ganjadan yangi olib kelgan singlimga ilakishdi... Eh, kechalari to'shagimga cho'g' kiradi, sahargacha yonib chiqaman...

To'to'bayim og'ani qahr bo'g'di.

---

[1] **Chul** — oyoq tagiga to'shaladiga mato, sholcha.

17

Zubov qo'mondonligidagi qo'shin Darbandni olib, Shirvon tuprog'iga o'tgandi. Xonlarning namoyandalari uni tabriklashga shoshilardilar. Shirvon, Shaki, Ganja, Yerevan, Xoy, Qoradog', Naxichevan, Tolish, Tabriz, Shohsevan va Shaqaqi xonlari Ibrohim xonning maslahatiga ko'ra ruslar himoyasiga o'tish orzusida edilar. Lekin Irakliy xonning Ganjadagi g'arazi Ibrohim xonda taraddud va shubha uyg'otgandi. Rus qo'mondonligining Qorabog' xonligini tugatib, u yerda Rusiyaga tobe bir armani muzofati tuzish ehtimoli unga tinchlik bermasdi. Shu masalani oydinlashtirish uchun Mirza Alimammadni Shirvonga yubordi. Mirza Alimammad Shirvonga kelgach, o'sha joyning hukmdori Mustafo xonni tashvish ichida ko'rdi. Mustafo xon Qorabog' vakiliga dedi:

— Masala bizlar o'ylagandek bo'lib chiqmadi. Nasroniy va musulmon dushmanchiligi oshkora ko'rinib turibdi. Qiziloyoq[1] Darbanddan chiqqanidan keyin armani mahrasasi[2] Yusuf keladi.

— Bilasan u butun Rusiya armanilarning bosh yepiskopidir. O'rislar bu yer armanilarini qo'lda ushlab turish uchun unga katta hurmat ko'rsatmoqdalar. Darbanddagi bir hovuch armaning musulmonlar ustiga chiqarish uchun mahrasa Yusuf harakat qilmoqda. O'rtaga yana dushmanchilik tushadi. Musulmonlar general Savelevga shikoyat qilishdi. Darband noibi Xidir bek noiblikdan bo'shashni istayapti. Qizioyoq musulmonlar isyon ko'tarishini sezib turibdi, shunday bo'lgan taqdirda rus qo'shinining ishi xarob bo'ladi. Yusufni yoniga chaqirib, tanbeh beradi, Xidir bekka ham noibligingda tur deb tayinlaydi... Qara-ya, hali masjid qurilmasdan ko'r hassasini suyab qo'ymoqda!

Mirza Alimammad Ibrohim xonning shubhasi bejiz emasligini ko'rdi.

— Endi fikringiz qanday? — dedi. — Ancha vaqtlar oramiz biroz sovugandi. Bu yaxshi ish emas! Xonning fikri ham shuki, do'st bo'laylik. Chunki manfaatimiz shuni taqozo etadi. Men Shakiga borib Salim xon bilan uchrashaman. Ibrohim Xalil xonning qayni

[1] **Qiziloyoq** — Zubovning bir oyog'i qiyshiq bo'lgani uchun xalq orasida unga "Qiziloyoq" deyishardi.

[2] **Mahrasa** — ruhoniy, yepiskop.

bo'la bo'lib biroz sarkashlik qilayapti. Bu ham bo'lmag'ur bir ish. O'rtalikdan ziddiyatni olib tashlash kerak. Ibrohim xon dunyo ko'rgan odam. O'zining ham xonlar orasida hurmati katta.

Uning maslahati hammamiz uchun manfaatdir. Mustafo xon hammadan ko'ra rus qo'shiniga yaqin va bu qo'shinning harakatiga qaram bo'lgani uchun Qorabog' vakilini diqqat bilan tinglab, uning maslahatlarini ma'qulladi. Mirza Alimammad Shaki xoniga ham ayni shunday ta'sir ko'rsatdi. Yangi bog'langan do'stlikning yana mustahkam bo'lishi uchun Salim xonning singlisini ham Ibrohim xonga so'radi. Bitim tuzilganidan so'ng Mirza Alimammad og'a bu masalani yozib Ibrohim xonga ma'lum qildi. Ikki haftadan keyin Safar javob olib keldi. Mirza Alimammad xatni o'qib hayron bo'ldi. Mazmunini Mustafo xonga bildirdi. Salim xonni ham Shamahiga chaqirib kengashdilar.

Mirza Alimammad dedi:

— Endi ko'rib turganingizdek, masala oydinlashdi. Mahrasa Yusuf Uch kalisa mahrasasi bilan til biriktirib armanilar orasiga xitobnoma yuborib, ruslarning Ozarbayjonga kelishining maqsadini tushuntirganlar. Xonlar taxtlaridan olinib, o'rinlariga armanilar taxtga o'tqaziladi... — Mirza Alimammad nafasini rostlab, qo'shimcha qildi: — O'lganimiz yo'q, go'rdan xabar keldi! Din va g'ayrat qo'ldan ketgach, o'lganimiz yaxshimasmi...

Xonlarning rangi o'chdi. Mahrasa Yusufning harakati ularni shunday hayajonga solgandiki, hoziroq jinoyatga qo'l urushga tayyor edilar.

Ko'p gapirishib maslahatlashishdilar, nihoyat, Mirza Alimammadning taklifini qabul qilib, Qiziloyoqni o'ldirishdan boshqa chora yo'qligiga amin bo'ldilar.

— Bu ishni faqat Nurali xon bajara oladi, — dedi Mustafo xon.

Mirza Alimammad so'radi:

— Nurali xon kim o'zi?

— Bu Karim xon Zandning jiyani. Axta shohdan qochib, ruslarga sig'ingan. Ruslar orasida hurmati bor. Darband xoni Shayxali qochganidan so'ng, uning mulki bunga berilgan. Xullas, katta hurmat sohibi.

Yonida yuzta xizmatkori bor, o'zi ham Qiziloyoq lashkargohida

yashaydi. Nurali xonni o‘z tomonimizga tortishimiz kerak. O‘sha lashkargohga boshqa odam bora olmaydi.

Bu taklif ma’qul bo‘ldi. Nurali xon bilan uchrashishga vositalar qidira boshlandi. Nihoyat, Shamahida shuhrat qozongan bir folbin kampirni uning yoniga yuborishga qaror qilindi.

Nurali xon ot choptirish va qilich o‘ynatishni juda yaxshi ko‘rardi. Bir kuni maydonga chiqib, lashkargohdan uzoqlashgandi, bir kampir unga yaqin keldi:

— Hoy yigit, kel, bir fol ochib qo‘yay, — dedi. Oh, sening taqdiringda bir go‘zal bor, bilsang...

Nurali xon otdan tushib, kampirning yoniga keldi.

— Nima gap, hoy kampir, xayr bo‘lsin!

— Albatta xayrli-da, tasadduq, qo‘lingni ber!

Kampir Nuralining qo‘lini qo‘liga olib, so‘zida davom etdi:

— Hoy, yosh xon, sen o‘limga chap bergansan, jafo chekkansan. Endi bo‘lsa, senga bir yog‘iy tish qayrab yuribdi. Hayotingni zabun etmoqchi. Ammo bir xayrli ish undan seni qutqaradi. Qorabog‘ xoni Ibrohim Xalil podshoning qizi go‘zallar go‘zali Og‘abayim beka senga qismat bo‘ladi, yoningda hamyon-hamyon ashrafi bo‘ladi, seni xon qilib ko‘tarishadi... nima niyating bo‘lsa yetajaksan...

Folbin kampirning gaplari Nuralini rosa quvontirdi. U Og‘abayim bekaning go‘zalligini eshitgandi, lekin unga sovchi yuborishga jur’at etmagandi. Endi bo‘lsa folbin uning niyatini ochiq aytayapti va murodiga yetishini ma’lum qilayapti. Nurali xon kampirga bir ashrafi bag‘ishlab dedi:

— Kampir, endi ayt-chi, men nima qilay?

Kampir uning qo‘liga qarab dedi:

— Ertaga xuddi shu payt mana shu joyda bo‘l. Men seni Qorabog‘ vaziri bilan uchrashtiray, u senga yo‘l ko‘rsatadi.

Nurali xon rozi bo‘lib, kampirga yana bir ashrafi hadya qildi.

18

Mahrasa Yusufning xitobnomasi tufayli butun Qorabog‘ga vahima tushgandi. Faqat saroygina emas, aholi ham qayg‘uga tushib qoldi.

Xonlik mahv bo'lsa, hokimiyat tepasiga armani chiqsa, musulmonlarning holi nima kechadi, deya ming bir fikr tug'yon urardi. Pyotr Birinchidan beri avj oldirilayotgan armani — turk ziddiyati hech qachon bunchalik keskinlashmagandi. Mahrasa Yusufning va'dalaridan jo'shgan armani jangarilari u yer-bu yerda turklarga hujum qila boshladilar. Ibrohim xon qayni Jamshidni yoniga chaqirib, armanilar isyon fikridan voz kechmasalar, boshingni jallod qo'liga topshiraman, deb armanilarni tinchlantirdi.

Shu asnoda Mirza Alimammad Shirvondan qaytdi. Ibrohim xon Voqifni ham chaqirib Mirza Alimammad olib kelgan xabarni tinglashdi.

— Xon omon bo'lsin, — dedi Mirza Alimammad og'a, — hamma narsa tayyorlangandi, Nurali xonga uch ming ashrafi berilgandi va Og'abayim bekaga uylanishiga ham va'da qilingandi. Nurali xonning odamlari ham qurol-yarog' bilan ta'minlangandi. Men so'raganday hamma narsa tayyorlangandi. Ammo falokat yuz berdi. Nurali xon chodirdan chiqayotganda qalpog'i boshidan tushib ketibdi, ichida Mustafo xonning xati bor ekan, qalpoqni olib ketishibdi, xatni ko'rmay qolishibdi. Xat o'ris soldatning qo'liga tushibdi. Shunday qilib sir ochildi. Nurali xonni odamlari bilan birga Hojitarxonga[1] surgun qilishibdi. Biz ham o'ris oldida sharmanda bo'ldik.

Voqifning ko'zlari pirpiradi, xonning yuziga qaradi. Xonning ham rangi oqargandi:

— Xon, — dedi Voqif, — endi mahrasa Yusufning tili uzun bo'ladi, biroz chora ko'rish kerak!

Xon g'azab-la:

— Qanday chora? — dedi.

Voqif andisha bilan:

— Abulfat og'a raisligida Qiziloyoq huzuriga bir hay'at yuborish lozim. Bir guruh nomdor bek borsin, yaxshi sovg'a-salomlar olib borishsin. Sadoqat va do'stligimizni bayon qilishsin. Keyin bitta vakil Fatilborkka[2] to'g'ri Yekaterina huzuriga yuborilishi darkor. Ko'proq hadyalar yuborgan ma'qul. Yaxshi bilasiz,

[1] **Hojitarxon** — Astraxan.

[2] **Fatilbork** — Peterburg.

yig'lamagan bolaga sut bermaydilar. Mayli, kuch-qudratimizni bilib qo'yishsin.

Masala ravshan, rus qo'mondonligining rag'batini qozonish, mahrasa Yusufning xatosini kerakli joyga ma'lum qilib, ta'minot so'rash kerak edi.

Voqifning taklifiga ko'ra, Abulfat og'a bir guruh beklar bilan birga Zubov huzuriga, soatlilik Mirza Mammalquli ham hadyalar va xonning nomasi bilan Peterburg saroyiga yuborildi.

Bu paytda yana Og'amammad shohning ovozi eshitila boshladi. Eronda yuz bergan yangi isyonni bostirgandan so'ng, Astrobodga borib, u yerlarni rusga qarshi berkitibdi. Zubovning kelishidan juda g'azablanib, Kavkaz xalqlariga bir da'vatnoma yubordi. Bu da'vatnoma rusning Kavkazga kelishidan maqsadi xristianlarni himoya qilish bo'lgani uchun, musulmonlar ham birlashib rusga qarshi chiqishi kerak, deyilardi. Lekin Eron siyosati tufayli o'lka parchalanib ketgandi. Xalq och va qashshoq bo'lib qolgandi. Shu boisdan bunday davlatlarga ahamiyat beradigan yo'q edi. Xalq osoyishtalikni talab qilar va shu osoyishtalikni kim bera olsa, o'shaning tomoniga o'tishga tayyor edi.

19

Kozim kishi tashqariga chiqib past ovozda:

— Ollohquli, Ollohquli, — deb do'stini chaqirdi.

Birozdan so'ng Ollohquli tebrana-tebrana eshikdan chiqdi. Yelkasida bir bo'sh xalta bor edi.

— Mana mening ahvolim! — dedi. — Tangri bir o'limni ravo ko'rmadi, o'lib qutulsak... Kechadan beri bolalar non deb yig'laydi...

Ochlik bu ikki do'stning ikkalasini ham tanib bo'lmas darajaga keltirgandi. Ko'zlari ich-ichiga kirib ketgan, ovozlari zo'rg'a chiqardi. Bir-biriga boshqa hech narsa demay, bir-biriga suyanib, arang ko'tarilib bosilayotgan qadamlar bilan yurib ketishdi. Ko'chalarda odam kam ko'rinardi. Ochlikdan hamma har yoqqa tarqalib ketgandi. Shaharda qolganlarning ko'pi qo'lsiz, oyoqsizlar edi. U yer-bu yerda tilanchilar qo'l cho'zib turishardi, ochlikdan tinkasi qurib yerga cho'zilganlarga tez-tez duch kelinardi.

Ollohquli bilan Kozim o'rmonga eman yong'og'i va o't-o'lan yig'ishga borishyapti. Xalq erta sahardan o'rmonlarga yoyilib, o't-o'lan terib qornini to'yog'azish ilinjida edi. Shaharda it va mushuklarni ham so'yib yeb bo'lishgandi.

Eronliklar ikki yildan beri Oronni[1] egallab yotishardi. Qishloq ahli tomorqalariga yaqinlasha olmasdi, boshqa joylardan don kelmaganligi uchun ochlik o'lkani qon qaqshatardi.

Bir-ikki mahalla o'tganlarigan so'ng Kozim to'xtadi.

— Ollohquli biroz to'xtagin, yuragim yomon bo'layapti!

Ollohquli to'xtadi, do'stining yuziga qaradi: Kozimni ter bosgandi.

— Biroz yerga yonboshla, dam ol! — deb Kozimni o'tirg'izdi.

Atrofga ko'z yugurtirdi, yeyiladigan biror narsa axtardi. Bu yerdan yaqindagina ot o'tgan ko'rinadi, tezagi yangi edi. Ollohquli sherik chiqmasin deb qo'rqoq odam kabi atrofga qarab o'zini ot tezagi ustiga otdi va ochko'z bir holda uni titib, arpalarini hovuchiga yig'di.

Kozim sevinch ifodalangan ko'zlari bilan do'stini kuzatar va ba'zan unda, "Ollohquli o'zi yeb, menga bermaydi", — deya xudbin shubhalar ham uyg'onardi. Lekin o'rnidan qimirlay olmasdi, qayg'uga g'arq bo'lib jim yotardi. Ollohquli yarim hovuch arpa yig'gandi, u arpa donlarini bir tosh ustiga to'kib, boshqa tosh yordamida maydalab yanchidi-da, keyin Kozim bilan teng bo'lishdi.

Arpaning chaynalishi, og'izlarning shapillashi, keyin tishlarning tagini til bilan izlab so'rilishi bir necha daqiqa davom etdi.

Kozim kulimsirab:

— Ollohquli, — dedi, — og'a otining tezagi ham jonga darmon ekan. Biroz ko'kat bergin yeb turaylik. Aks holda, otning izidan odam tushib, undan ham quruq qolamiz.

Ollohquli toshlar tagidan biroz ko'kat terdi, yeyishdi, keyin yo'llarida davom etishdi. Shaharning Xalfali darvozasiga yaqin bir joyda Safarga duch keldilar. Safar otini yo'rttirib kelardi. To'xtashdi. Safar biror gap aytmasdan xurjunidan bir burda non olib, ikkiga bo'ldi, yarmini Kozimga, yarmini Ollohquliga uzatdi. Ollohquli nonni shartta yulib oldi, Kozim esa sekin tovushda:

[1] **Oron** — tekislik, qishloq yaylov, ekinzor muhiti.

— Safar, men yo'lga ketayapman, ulushimni uyga ber, bolalar och, — dedi. Safar jilmayib:

— Ol, — dedi, — ikkita butuni bor, uyga olib ketayapman.

Kozim nonni oldi.

Endi do'stlarning ikkalasi ham non burdasini hovuchlarida mahkam tutganicha har zamonda bir tishlab, kutilmagan rizq bo'lgan bir ne'mat kabi lazzat bilan chaynardilar.

20

Ibrohim xonning Yekaterina va Zubov huzuriga yuborgan hay'atlar qaytib kelgandilar. Hay'atlar yaxshi qabul qilingan, Ibrohim xonga yordam va himoya va'da berilgandi. Bir qancha hadyalar keltirilgandi. Yekaterina shahsan Voqifga usti qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bir tilla aso yuborgandi.

Bu hodisa saroyda katta umid va sevinch uyg'otgandi. Lekin davom etayotgan ochlik saroyni ham gangitib, sevinchni so'ndirgandi. Xonning qo'shini ham ochlikka bardosh bermay qochib, tarqalib ketgandi. Qal'a kundan-kunga mudofaa quvvatini yo'qotayotgandi. Yekaterinaning va'dadari bilan ish bitmayotgandi. Birozdan keyin Zubovning o'z qo'shini bilan Shirvondan Rusiyaga qaytishi va'dalar tufayli tug'ilgan umidni ham puchga chiqardi. Yekaterina o'lib, o'rniga o'tirgan Pavel Kavkazga qilinayotgan harbiy yurishlarni keraksiz deb topgani ma'lum bo'ldi. Vaziyat o'ta og'ir edi. Endi Og'amammad shohga qarshilik ko'rsatish mumkin emasdi. Yarashish bo'lishi ham qiyin edi. Chunki dushmanlik juda chuqurlashib ketgandi.

Voqif shimoldan umidini uzmasdi, masalani yana oydinlashtirmoqchi bo'ldi:

— Irakliy xon o'risga bizdan ko'ra yaqin, — dedi. — Har holda borib uning fikrini bilish kerak.

Xon bu fikrga rozi bo'ldi.

Tiflisga borishni Voqif bilan mug'onlik Jamilga topshirdi.

— Boringlar-chi, ko'raylik vaziyat qay ahvolda, agar vaqtida madad bo'lmaydigan ersa, biz ham boshimizni omon saqlash chorasini qilaylik.

Kengashdagilar "chora" so'zini eshitib bir-biriga qarashdi.

Oralaridan bittasi:

— Qanday chora, xon? — deb so'radi.

Xon jahl bilan:

— Qanday chora bo'lardi! — dedi. — Axta shoh Mug'onda o'tirib, qal'ani poylayapti, erta-indin ustimizga bostirib keladi... Keyin oziq-ovqat bo'lmasa nima ham qila olardim! Ahli ayolni olib vaqtida Avar xonining yoniga chekinishdan boshqa qanday chora bor?

Majlisga chuqur jimlik cho'kdi. Kengashdagilar hech qachon Ibrohim xonni bunday ojiz ko'rishmagandi. Hatto uning ovozi ham avvalgi hukmdorlik ohangini yo'qotgandi.

Kengash tarqaldi. Har kim o'z taqdirini o'ylab qaytdi. Ertasi kuni Voqif bilan Jamil og'ani Tiflisga kuzatishdi.

Bir kuni ertalab Ibrohim xonning oilasi bilan birga Jarga ko'chgani shaharga yoyildi. Ochlik aholida qiziqishni so'ndirgandi. Ba'zilar bu masalaga ahamiyat bermadi. Har holda biror o'zgarish bo'lar deb ba'zilar umid qila boshladilar. Yana shoh masalasi o'rtaga chiqdi. "Falon keldi, fiston keladi" degan har xil mish-mish kunda och uylarni, bo'm-bo'sh bozorlarni aylanardi.

Nihoyat bu mish-mishlar to'g'ri chiqa boshladi. Og'amammad shoh Ibrohim xonning qochganini eshitar-eshitmas, o'ng ming otliq askar olib Shushaga qarab shoshildi. Ilk chopar shaharga kirib, shohning yo'lda ekanini bildirganda, aholini chuqur bir qo'rquv qopladi.

Mustabid bosqinchini non-tuz bilan qarshilash kerak edi. Har mahalladan oqsoqol saylab bir hay'at tuzildi. Kozim bilan Ollohquli ham bu hay'atga qo'shilgandi.

Bo'g'chadan yangi kiyimini chiqarib qo'yishdi, non-tuz olib, yo'lga chiqishdi. Kozim kulganicha, qo'rquvdan dovdirayotgan do'stiga tasalli berardi:

— E-e, qo'rqma! Kim eshak bo'lsa, biz unga to'qim bo'lamiz. Nima bo'lardi... Endi ko'rasan, shohga qanday ma'qul bo'lishimizni!

Ollohquli jon qayg'usida:

— Eh, birodar, u podsho bo'lsa birdan teskari yoni bilan turib qolsa, boshimizni uzdiradi.

— Obbo, hazilning ham juda vaqtini topting-da! — deya hayratlandi.

Shaharning Yerevan darvozasidan chiqqach hay'at bir necha yuz odamdan iborat edi. Yozning issiq bir kuni edi. Hammani ter bosgandi. Qo'rquv ham bir tomondan xalqni ezardi. Shusha qishlog'i tomon tushishdi. Pastdagi qoyalar orasidan chang ko'tarilardi. Shoh yaqinlashayotgandi. Yuz qadamlik bir masofadan xalq tiz cho'kib patnisdagi usti yopilgan non-tuzni oldinga uzatishdi. Qo'rqqanidan hech kam bosh ko'tara olmasdi. Lekin Kozim qoshlarining ostidan ilgarini kuzatardi. Chang orasidan otliqlarning yaqinlashayotgani ko'rinardi. Oldinda o'n besh yashar bolani eslatuvchi bir odam kelayotgandi. Vujudi ko'rimsiz, ko'sa yuzli, yovuz boqishli bir kimsa edi. Atrofi tirishgan ko'zlari namiqar, bolalarnikiday kichkina qo'llari bilan tez-tez ko'zlarini artib qo'yardi. Ingichka lablarining uchlari negadir Kozimni qo'rqitdi.

U boshini quyi solib, birozdan keyin yana ehtiyot bilan ko'tardi. Go'dak basharali odamning shoh ekanini boshidagi tojdan, kiyimining bo'yniga va ko'ksiga tizilgan qimmatbaho toshlardan angladi. Endi quyosh uning ustiga tushib, yaltirardi. Kozim endi jim edi, unga bu kichkina podshodan odamga hech qanday xatar yetmaydiganday tuyulardi.

Shoh otini to'xtatib, qarshisida tiz cho'kib turgan olomonni g'urur-la tomosha qila boshladi. Mayda ko'zlari sal kulimsiradi. Shu asnoda shohning qo'shinidan bir guruh ajralib, otdan tushishdi va jar sola-sola olomonga yaqinlashishdi:

— Biz keldik va olib keldik bir ajdarho, — deya odamlarni kuzata boshlashdi.

Kozim bu ahvolni ko'rgach, Ollohqulining qo'lidan tortib turg'izdi va shohning odamlariga qarata javob tariqasida kuyladi:

— Quva-quva yo'qotdik biz bir tulkini! — Kozimga qarab olomondan ham bir guruh ajralib, odamlarga qarata kuylay boshladi.

Bu o'yin kulgi va va qo'shiqlar shohga yoqa boshlaganga o'xshardi. U kular va kulgan sari ko'zlaridan yosh oqardi.

Shu tariqa olomon shohni g'azabidan tushirdi, uni "Alloh, Alloh!" deya olqishlar bilan shaharga olib kelishdi.

21

Og'amammad shohni Mammadhasan og'aning saroyiga joylashtirishdi. Saroyning ro'parasidagi maydonda chodirlar tiklashdi. Go'yo hamma masala hal etilganday edi. Shoh Eron tarafdorlariga sovg'alar, to'nlar yubordi, ayni paytda dushmanlarni ham unutmadi. Ibrohim xonning odamlari bittama-bitta ushlanib zindonga tashlandi. Lekin bir hafta qon to'kilmadi, jallodlar ishsizlikdan zerika boshladilar. Aholi bu sukunatning qo'rqinchli bir hodisa bilan yakunlanishiga ishonib, vahima ichida tipirchilardi. Hech kim ertangi kunidan xotirjam emasdi. Kunlar o'tdi. Qorabog' tarixida unutilmas sahifa egallagan juma oqshomi yetib keldi. O'sha kun ziyorat kuni edi. Davlat arboblari hovliga yig'ilib, shohning derazasidan parda orqasidan ko'rinishini kutardilar. Lekin shoh ko'rinmasdi. Shohning g'azablanishi haqidagi xabar og'izdan og'izga o'tib, hammani qo'rquvga solardi. Maxsus xizmat og'asi Safarali bek atrofga ko'z yugurtirib, zinapoyadan jadal tushib, so'ray boshladi:

— Sodiq xon qani? — qiblayi olam so'rayapti.

Shu asnoda sarkarda Sodiq xon darvozadan ichkari kirdi. Safarali bek uning yoniga yugurib borib, qulog'iga nimanidir shivirladi. Sodiq xonning rangi oqardi. U zinapoyaga qarab yugurdi. Shoh saroyning orqa tomonidagi mo'jazgina bir xonaga joylashgandi. Tosh to'shamaning ustiga qimmatbaho gilam yoyilgandi. Devorning tagiga shohning safar taxti o'rnatilgandi. Ustiga atrofi marvarid va toshlar bilan bezatilgan bahmaldan so'zana yopilgandi. Sodiq xon ichkariga kirganda shohni ana shu taxt ustida ko'rdi. U ozg'in sonlarini quchoqlab o'tirgandi. Shohning yig'loqi ko'zlaridan adovat yog'ardi. Yuzining tirishli chiziqlari yanada chuqurlashgan, istehzoli lablari qo'rqinchli edi.

Sodiq xon uzoq muddat shoh bilan safar yo'ldoshi bo'lgan, uning har bir harakatini ipidan ignasigacha bilib olgandi, lekin yuzidagi bugungi ifoda o'ta achchiq va qo'rqinchli edi.

Shoh g'azab bilan dedi:

— Sodiq xon, bu nima degan gap? Sen bir haftadan beri Javonshir Mammad bekning uyida o'tiribsan. Nega Mammad bek qiblayi olamning huzuriga kelmayapti?

Sodiq xon tiz cho'kdi, itoatkor bir ovozda:

— Tasaddug'ing bo'lay, shoh, — dedi. — Mammad bek qal'ada yo'q, izlayapman...

Shoh oyoqlarini taxtdan osiltirib, qo'llarini siltab, ingichka tovush bilan chinqirdi:

— Mal'un ko'ppak, ertaga shunday bir siyosat ishlatayki ibrati — nazaring bo'lsin! Kallalardan bir minora qurdiraman, eng teppasida sening boshing bo'ladi!

Shohning yosh oqayotgan ko'zlari kosasidan chiqqandi. Chiyildoq tovushi g'azabidan bo'g'ilib dedi:

— Mammad bekning singillariga ayt, kechgacha akalari huzurimga kelmasa, ularni sarbozlarga rasvo qilishga beraman!

Sodiq xon qaltiraganicha o'rnidan turdi va dovdiraganicha xonadan chiqib, ipak pardaning orqasida g'oyib bo'ldi.

Bir daqiqada shaharning bu boshidan u boshigacha jarchilar saf tortdi: "Mammad bek hey! Kechgacha qiblayi olamni huzuriga kelmasang, singillaring sarbozlar ixtiyoriga topshiriladi!" — deya ovozlar shaharning har tomoniga yoyildi.

Saroy hovlisidagi kutish davom etardi. A'yonlar va sarkardalar orasida olti nafar qo'li bog'liq mahbus ham bor edi. Mirza Alimammad ham shular orasida edi. Uning hamishagi xotirjam g'ururidan asar ham qolmagandi, rangi oqargan, qimirlashga ham holi yo'q edi. Ko'zlarini yerga qadagancha jim turardi. Shohning vaziri Mirza Shafi asabiy bir tusda ko'zini rangdor shishali derazadan uzmasdi. Birdan deraza pardasi tebrandi. Mirza Shafi o'sha zahoti tuproqqa tiz cho'kdi. Saroyning barcha a'yonlari ham tizzalashdi. Sarparda ko'tarildi. Shohning o'laksa tovushi eshitildi. Mirza Shafi kamarbastalik izhor etib, mahbuslarning kimligini ma'lum qildi: — shoh istehzoli tabassum bilan:

— Beshtasiga qoziq qoqilsin, — dedi. — Mirza Alimammad sayidlardan bo'lgani uchun tanaflansin!

Jallodlar shu zahoti ishga kirishib ketdilar. Mahbuslarning shimlari yechilib, orqalariga qoziq qoqishdi. Mirza Alimammad ham o'tqazilib, bo'yniga sovunlangan tanaf[1] solindi. Chinqiriq, ayuhannos, so'kinish, kufr butun hovlini tutib ketdi. Qo'lida bol-

[1] **Tanaf** — arqon (bo'g'ish jihozi).

g'a tutgan jallodlar tutqunlar orasida aylanib yurib qoziqlarni battar qoqardilar.

Mirza Alimammad so'ngi nafasini olardi, bo'g'ilgan sari rangi qorayar, ko'zlari kosasidan chiqardi:

— Eh, zolim, Alloh bu zulmni yerda qo'ymaydi, o'z boshingga soladi hali! — deya jon berdi. Qoziq qoqilganlarning oh-u zorlari yuraklarga larza solardi. Ular jallodlarga yalinib, tezroq o'ldirishlarini iltijo qilardilar, lekin hech kim quloq solmasdi. Jallodlar qoziqlarga yana bolg'a urib, ularning chinqirig'ini battar kuchaytirardi.

Bu manzarani Eron shohi juda zo'r shavq-zavq bilan tomosha qilib, istehzo bilan tirjayardi. Shu asnoda darvoza ochilib, shahlo ko'z, sariq kalta soqolli, keng ko'krakli, sodda kiyingan bir odam ichkari kirdi. U jasur odimlar bilan deraza oldiga kelib, shohga bosh egdi. Uning tuproqqa tiz cho'kmaganligi hammaning diqqatini jalb qildi. Sodiq xon tiz cho'kib:

— Qiblayi olam, Mammad bek Javonshir mana shu! — deya xonga arz qildi.

— Balli... Zo'r qassob! Mening qo'shinimda bunday mashhur odam yo'q, — shoh Mirza Shafiga yuzlandi, — ko'zlari juda chiroyli, shunday emasmi? — deya qo'shib qo'ydi.

Mirza Shafi shohning ishorasini tushundi, u Mammad bekning ko'zlarini o'ydirishni istayotganini sezib, dedi:

— To'g'ri amr qilayapsiz, tasadduq!

Mammad bek kulimsirab:

— Yaxshi yigitni nomini eshit, yuzini ko'rma! — dedi.

Shoh jiddiy ifoda bilan:

— Og'amning ahvoli haqqi, — dedi, — rost aytayapsan. Sen kabi mashhur jasorat sohibi bo'lgan bitta odamni ko'rganman, u ham Zand Lutfali xon edi. — Shohning birdan aft-angori o'zgardi, qo'rqinchli istehzo lablariga yoyildi va qo'shimcha qildi:

— Ertaga gaplashamiz, Sodiq xon, Mammad bekni senga topshiraman, mahkam asra! Sarparda tushirildi, shoh ko'zdan g'oyib bo'ldi.

— Qiynoqqa solingan odamlardan ba'zilarini yuragi to'xtab yerga yiqilgan, birovlari hali ingrardilar. Quyosh g'arbga yonboshlagandi. Kunduzning issiqligidan keyin namozgarning salqini

qo‘rquv va ochlik ichida ezilgan ommaga tasalliday bo‘ldi. U yerbu yerda qo‘lga olingan xon tarafdorlari yana saroyga olib kelindi. Bularning ichida qo‘llari bog‘liq bir keksa kishi ham bor edi. Sarbozlar saroyga yetganida tutqunlarni darvoza oldida to‘xtatib, ichkariga xabar berishdi. Tashqariga shohning sarkardalaridan Mammadhusayn xon Qojor chiqdi. Qalin mo‘ylovlarini qo‘lining orqasi bilan u yoq-bu yoqqa silab so‘radi:

— Bu chol kim?

— Bu o‘sha Mulla Panoh Voqif bo‘ladi, u haqda eshitgansiz, — deb javob berishdi.

Mammadhusayn xon “Voqif” nomini eshitib, aftini burishtirib so‘ka boshladi:

— Hoy padar suxta! Qari ko‘ppak!

Voqif o‘ziga xos muloyimlik bilan xonning haqoratli so‘zini bo‘ldi:

— Hoy xon — azimushtam! Siz buyuk davlat shaxsi siz, dastgar va giriftorlarga yomon so‘zlar aytish sizning unvoningizga munosib emas...

Mammadhusayn xon Voqifning nazokatiga nisbatan loqayd qolib, haqorat yog‘dirishda davom etdi. Buni ko‘rgan Voqif o‘zini tutolmadi:

— Ey xoni nonasib, man agar do‘stag‘am[1], shoh do‘stag‘iman, sen kim bo‘libsan! Balki shoh meni ertaga ozod qilar va yo falaki kajraftor va taqdiri Parvardigor balki boshqa bir yo‘l ko‘rsatgay. “Shoh abistanas ta ji zayat baruz[2] ”.

Mammadhusayn xon Voqifning so‘zlariga ahamiyat bermay sarbozlarga tomon yurdi:

— Qiblayi olamning buyrug‘iga binoan bu mal’unni zindonga tashlang, ertaga ajriga yetadi.

Sarbozlar Voqifni olib ketishdi.

22

Asta-sekin kech kirdi, hamma yoqni chuqur jimlik qopladi. Faqat minoralardan ninachi ovozi kelar, yana uchurimning tagida

[1] **Do‘stag‘** — tutqin, mahbus.

[2] Tun homiladir, kim biladi ertaga nima tug‘adi.

oqayotgan Dasholti daryosining shovullashi eshitilardi. Tog‘lar va daralardan ufurayotgan yoqimli ifor, salqin havo bilan birga shohning ochiq derazasidan ichkariga kirib uni xayolga toldirardi. Lekin shohning hayoli ham xira bir sham kabi jonni o‘rtardi.

U endigina namozni tugatgandi, endi tasbeh o‘girgancha duo o‘qirdi. Lekin duo unga tasalli bera olardimi? Unig yaxshi hayoti bolaligidanoq so‘ndirilgandi, shu boisdan ham unga xokimlik tuyg‘usi va shu tuyg‘u bilan birga dunyoga va butun maxluqotga qarshi adovat tug‘dirdi.

Uning urush maydonlarida, saltanat atrofida bo‘lgan muvaffaqiyatlari ortgani sari gina-qudurati ham ortar va chuqurlashardi. U saltanatga erishish uchun og‘a-inilaridan birining ko‘zlarini o‘ydirgan, boshqasini o‘ldirtirgandi. Buning ustiga nomardlarcha o‘ldirtirgandi. Ukasi Isfahon hokimi bo‘lishni istagandi, shoh rozi bo‘lmagandi, uning nufuzidan qo‘rqqandi. U ham arazlab Astrobodga chekingandi.

Astrobodda biror ishkal boshlamasin deb chaqirtiradi, kelmaydi. Orqasidan onasini yuboradi. “Menga tegmasligi haqida qasam ichsin”, deydi ukasi. Shoh qasam ichadi. Ukasi Tehronga keladi. Hurmat bilan kutib olinadi. Ikkinchi kun valiahd Bobo xonga qo‘shib jo‘natadi. “Yangi bino qurdirdim, borib ko‘r, senga yoqadimi?” — deydi. Ukasi o‘sha uyga boradi, ichkari kirishi bilan ko‘ksiga xanjar sanchiladi.

Shu tariqa qancha qonlar to‘kildi! Shoh tasbehni o‘girgancha, uning donalari odam kallalari kabi barmoqlariga tegib, uni jo‘shtirar, yana qon to‘kishni, dunyo lazzatlaridan mahrum bo‘lganining o‘chini olishni istardi. Shoyi parda achchiq xayollar va xotiralar ichida aylanardi. Butun borliqqa nisbatan asrab yurgan adovati lablarining istehzoli ifodasida aks etardi.

— Nima gap? — deya baqirdi.

— Tasaddug‘ing ketay, Safarali bek qiblayi olam chaqirayapti, deb aytdi.

— Safarali, — deya chaqirdi.

Xos xizmatchi yetib keldi.

— Sodiq xonni chaqir deb, senga kim aytdi?

— Jonim tasadduq, yarim soat burun o‘zingiz aytdingiz.

Shoh yonidagi yakka og‘iz miltiqni olib, Safaralining ko‘ksiga tiradi:

— Yolg‘on aytayapsan, ko‘ppak!

Safarali qaltiradi, ammo o‘rnidan qo‘zg‘almadi.

— Balki qulog‘imga shunday eshitilgandir!? — dedi.

— Qulog‘ing yomon eshitayotgan bo‘lsa bor kestirib tashla!

Sodiq xon bilan Safarali xonadan chiqib ketishdi. Shoh yana yolg‘iz qolib, ko‘zlarini kumush moychiroqqa tikib achchiq o‘ylarga toldi. Havo yanada salqinlashgandi.

Jimlik hukm surardi. Faqat qo‘shni xonadan hazin bir yig‘i tovushi kelardi. Shoh ko‘rpani tizzalari ustiga tortib, quloq soldi. Yig‘i Safaralining ingrashi edi. Shohning ingichka va g‘azabli tovushi havoni titratdi.

Safarali bek bilan xos xizmatchi Abbos bek ichkari kirishdi. Safaralining bir qulog‘i dastro‘mol bilan bog‘langandi.

Shoh qichqirdi:

— Sen ayol emassan–ku, nega chiyillaysan! Ikkala qulog‘ing kesilmaganiga xursand bo‘lsang–chi! Haliyam o‘ldirmadim! Abbos bek, sen nega qattiq gapirib uyqumni harom qilayapsan? Eh, to‘polonchilar! Ertaga shunday bir siyosat qilayki, tarixlarga bitilsin!

Bir minora qurdirmoqchiman, sizlarning ham boshlaringiz, otamning arvohi haqqi, eng yuqorisidan osiladi! Borib temirchilarga aytinglar, minora uchun ko‘plab mix tayyorlasinlar!

Tun yarmidan oshgandi. Lekin Sodiq xon bilan Mammad bekning ko‘zlariga uyqu kelmasdi, yuzma-yuz o‘tirib, ertaning g‘amini yerdilar. Shu payt xizmatkor ichkari kirib, shoh huzuridan odam kelganini aytdi. Qo‘rquvdan seskanib ketishdi. Tunning shu paytida shohning odam yuborishi nimani bildiradi?

— Kelsin!

Safarali bek ichkari kirdi. Sodiq xon shoshib so‘radi:

— Nima gap?

Safarali gunohkorona hikoya qila boshladi. Shohning g‘azabini, ertaga siyosat ishlatishini, Sodiq xonni, Mammad bekni va boshqalarni o‘ldirmoqchi, kallalardan minora yasamoq ekanini birma-bir gapirib berdi.

Sodiq xon shubha bilan tinglar, biror narsa aytishni istamasdi. Uning gumonicha shoh Safarali vositasida ularning sodiqmi, yo'qmi sinamoqchi shekili. Lekin Mammad bek boshqacha o'ylardi, u Safarali bekning samimiy gapirayotganiga ishonar va ertangi kundan qutulishga chora izlayotganini tushunardi.

— Safarali, — dedi, — bular hammasi rost, lekin choramiz nima? Ochig'ini ayt, qo'rqma!

— Chora yo'lini Abbos bek bilan o'ylagandik. Lekin sizlar bizlarni himoya qilamiz, deb va'da beringlar! Bizni ushlab bermaysizlarmi?

Sodiq xon hali ham shubha ichida edi. Mammad bek qat'iy qilib:

— Sodiq xon, o'ylab o'tirishning o'rni emas. Boshlarimiz jallod qo'lida. Chora ko'rish kerak, siz jur'at qilmasangiz, men o'zim boraman. Dunyo bu zolimning dastidan qutulsin!

Sodiq xon nihoyat tilga kirdi:

— Yo'q, Mammad bek, sen borsang, janjal chiqadi. Bularning borgani ma'qul.

— Qo'y ishlarini bajarishsin!

Mammad bek endi jasur bir ovozda:

— Safarali bek, — dedi, — qo'rqma, o'zim balogardonman. Hizmatkorlarni yig'ib, nima kerak bo'lsa qilaman!

Safarali shoshganicha saroyga yetib bordi. Abbos bek shohning eshigi orqasida turib tinglardi.

— Ular rozi, tez bo'l, vaqt o'tayapti, — dedi Safarali bek.

Safarali bek bilan Abbos bek xanjarlarini olib, eshikni astagina ochishdi. Shoh g'azabkor tovushda to'ng'illadi. Safarali bek qo'rqib orqaga tisarildi.

Orqadan Abbos bek shivirladi:

— Qo'rqma, uxlayapti! Bilmaysanmi, u g'azablanganda uyquda ham alahsirab do'q po'pisa qilaveradi?!

Biroz tinglab turgach, oyoqlari uchida yurib ichkari kirdilar. Moychiroq xonani xira yoritib turardi. Shoh yarador hayvon kabi ingrardi. Bu ingrash odamni dahshatga solardi. Safarali xanjarni shohning gardaniga sanchdi. Shoh sakrab, qo'lini cho'qmorga cho'zdi:

— Xonaxarob, Eronni vayron qildinglar, — deya oldi. To‘lg‘onib gilamning ustiga quladi. Uning boshini kesib oldilar. Keyin qo‘llaridagi tojmoh va “daryoyi nur” nomli qimmatbaho bilakuzuklarni chiqarib, Sodiq xonning huzuriga olib kelishdi.

* * *

Shu asnoda Voqif zindonda o‘tirib raml otardi[1]: u g‘am — qadarning sirlarini o‘rganishni istardi. Shaharning boshqa bir mahallasida temirchilar ter to‘kib mix tayyorlashardi, vaqtida yetkazib bera olishmasa, ularning boshlari ham jallodlar qo‘liga topshirilmoqchiydi. Sodiq xon jarchi qo‘yib Shakkokiy qo‘shinini yig‘di va shohning buyrug‘iga ko‘ra Tehronga borishlari kerakligini aytib, Shushani tark etdi. Mammad bek o‘z askarlari bilan qolgan shoh tarafdorlarini qurshab oldi, ba’zilarini qirib tashladi, boshqalarini qo‘lga oldilar.

Tong oqarganda shohning o‘lgani haqidagi xabar shaharga yoyilgandi. Temirchilarga endi mix kerak emas, shohning janozasi uchun bir necha dona bo‘lsa yetadi, degan xabar keldi.

Bu xabarni eshitgan bosh temirchi peshona terini artarkan:

— Ey temirni mixga aylantirgan qodir Alloh! — deya yuzini ko‘kka qaratdi.

Xabar hali zindonga yetib kelmagandi. Voqif ramldan yaxshi xabar olishini sezib tez-tez zirdonbondan: “Biror yangi xabar yo‘qmi?” — deb so‘rardi. Nihoyat, zindonni ochdi. Voqif suyuna-suyuna chiqdi-yu, Madinaga duch keldi: kechqurundan beri shu yerda kutib o‘tirgan ekan.

23

Og‘amammad shohning o‘ldirilishi oqibatida Qorabog‘ hokimiyati Mammad bekning qo‘liga o‘tdi. U “Botmon qilich” laqabi bilan o‘lkani idora qila boshladi. Lekin Erondagi hodisalar Mammad bekning juda tashvishga solardi. Sodiq xon Tehron taxtini egallay ololmabdi. Og‘amammad shoh ukasining o‘g‘li Bobo xon tomonidan mahv etilgandi. Bobo xon “Fatali shoh” nomi bilan Eron saltanatiga ega bo‘lgandi.

[1] **Raml otmoq** — rom (fol) ochmoq.

Endi Fatali shoh Og'amammad shohning janozasini va uni o'ldirganlarni talab qilayotgandi. Qo'shimcha tarzda Qorabog'ning Eronga itoat qilishini ta'minlash uchun Og'abayim bekani o'z haramiga va Ibrohim xonning o'g'illaridan birini ham garov tariqasida Tehronga yuborilishini istardi. Bu masalalar Mammad bekka bir taraddud tug'dirgandi. U bir tomondan hokimiyatga nisbatan xasislik ko'rsatar, osib-kesardi, boshqa tomondan hokimiyatning boqiy bo'lib, uning qo'lida qolishiga ishonmasdi.

Voqif yana saroyda edi, lekin uning mayli Ibrohim xon tomonida edi. U Qorabog'dagi vaziyatni yashirin ravishda yozib Jarga yuborar va Ibrohim xonning qaytishini istardi. Busiz ham Ibrohim xonning ahvoli Dog'istonda yaxshi emasdi. Javad xonning fitnalari tufayli Ibrohim xonning o'g'li Tolibxon bek u yerda o'ldirilgan va o'zini ham o'ldirtirish uchun tadbirlar ko'rilayotgandi. Bu borada Javad xon Mammad bek bilan muzokaralar olib borardi.

Voqif masalani yangi xatda atroflicha bayon qilib Safarga berdi va shoshilinch Jarga yetkazishni iltimos qildi. Safar xatni chorig'ining ichiga qo'yib, uyiga qaytarkan, uni Mammad bek olisdan ko'rdi. Safarning hadeb chorig'iga qarab-qarab qo'yishidan shubhalandi. O'sha zahoti buyruq berib, Safarni ushlattirdi. Xat choriqdan olindi va Voqifning Mammad bekka nisbatan bayon qilgan fikrlari ayon bo'ldi. Safar zindonga tashlandi. Voqif va o'g'li Qosim ushlanib, Xazna qoyasida uloqtirishga hukm qilindi.

Havo issiq bir kun edi. Voqif bilan Qosim og'ani Jidir maydoniga olib ketishdi.

Keksa shoir qiyalikka ko'tarilgan sari harsillardi. Uning lablari va tomog'i butunlay qurib qolgandi. U biroz to'xtab, nafas oldi, keyin zaif bir ovozda:

— Ozgina suv bo'lsaydi? — deb jallodlar yuziga qaradi.

Jallodlardan biri istehzo bilan:

— Nima farqi bor, — dedi, — qorningda go'rga boradi. Birozdan keyin seni "Xazna" qoyasidan shunday irg'itamanki, hatto ruhing ham ranjiy olmaydi.

Jallodning istehzosi Voqifga ta'sir ham ko'rsatmadi. U boshqa bir alamda edi. Go'yo dunyoga yangidan kelganday edi, hamma narsa unga yangi va jozibali ko'rinardi. Qoyalar ustida bitgan

kako'ti[1] isi shunday yoqimli keldiki, go'yo butun umrida hech ularni ko'rmagan va hidlamaganday.

Olisdan Madinaning uyi ko'rinardi. Oh u bir qarol, nomsiz-nishonsiz bir xizmatkor bo'lsaydi, butun umr Madinaning eshigida xizmat qilsaydi. Oddiy bir qarol...

Voqif yana to'xtadi, yo'tal uni bo'g'ardi. Rangi qochgan o'g'lining yuziga qarab:

— Qosim og'a, bizni qayoqqa olib ketayapti? — dedi.

O'g'li o'tkinchi bir tovushda:

— Og'a, — dedi, — anchagina odamni siz shu yo'l bilan yuborgandingiz. Endi esa bizni yuborishayapti!

Chuqur bir azob Voqifning yuzida aks etdi. U o'zini zo'rlab, tez yura boshladi. Qo'y bitsin, tugasin hech kimga kerak bo'lmagan bu hayot! Biroq Qosim og'aning gunohi ne edi? O'g'il nima uchun otaning oloviga kuyishi kerak?.. U hali yosh, hali yashashi kerak!

Voqif Jidir maydoni — otchoparga chiquvchi bir qiyalikda yiqilib tushdi. Ilgari yurishga boshqa toqati qolmagandi. Jallod bir ikki bor qo'lidan tortsa ham o'rnidan ko'tara olmadi. Voqif zaif, lekin g'ururli bir tovushda dedi:

— Nima qilsanglar shu yerda qilinglar, hech qayerga bormayman!

Jallodlar bir-birining yuziga qarab, nimanidir gaplashishdi. Bittasi xanjarini chiqarib, Qosim og'aga yaqinlashdi. Qosim og'aning soyasigina qolgandi, u har qanday tuyg'udan mahrum bo'lgandi. Voqif o'g'lining qurbonlik qo'yi kabi yerga yotqizilganini ko'rib qichqirdi:

— Rahm qilinglar! Avval meni, keyin uni! Menga farzand dog'ini ko'rsatmanglar!

Jallod quloq solmadi. Voqif o'g'lining xirillashini eshitib, o'zini yo'qotdi. Boshqa o'zining o'ldirishini hech sezmadi — uyqu singari keldi-yu ketdi.

* * *

Kozim hamyurtining o'ldirilganini eshitar-eshitmas o'g'li bilan birga belkurak olib Jidir otchopariga keldi. U yerda Madinani

[1] **Kakuti** — jambil.

uchratdi. Madina mulla olib kelib, chodir qurdirgandi, marhumlarni yuvdirtirdi. Kozim Madina bilan maslahatlashib qabrlarni joylarini tayin qildi. Yonma-yon ikki mozor qazdirib, Voqif bilan o'g'lini tuproqqa topshirishdi.

Hamma fotiha o'qib qaytgandi. Lekin Madina o'sha yerda qolgandi. U aziz qabrni quchoqlab achchiq-achchiq marsiyalar kuylardi.

Qir-chechagi jambil hamon atrofga xushbo'y hid taratardi.

XOTIMA

Ikka oydan keyin Ibrohim xon Dog'istondan qaytdi. Mammad bekning tarafdorlari ushlanib, jallod qo'liga topshirildi. Mammad bekning o'ziga Shushani tark etish ishora qilindi. Mammad bek Voqifning xotini Qizxonimga uylangandi, uni olib, shohning xazinasidan qo'liga tushgan boylikni otlarga ortib, qal'adan chiqdi. Bir muddat Tartarning qirg'og'idagi Kalantarli mulkida yashadi. Keyin Shirvon xoni Mustafo xat yozib, qizini unga berishini va o'zini valiahd tayinlashini unga bildirib, uni Shirvonga olib ketdi. Shirvonda Mammad bekning xazinasi qo'lidan tortib olinib, o'zi zanjirband qilindi.

Mustafo xon otasi Og'asi xonning va og'a inilarining o'chini olish uchun Mammad bekni qiynoqlarga solib o'ldirtirdi. Shoir Valeh Mammad bekni shunday ta'riflaydi:

Mammad bek kabi jallod xun fashon,
Ko'rmagandi hargiz didayi — jahon,
Xayfki boshdan — og'ir so'rmadi davron,
Ketdi yuragida orzumand, qani?

Qizxonim tul qolib sarijalik Husayn bekka erga tegdi. Bir bosqin payti Husayn o'ldirildi. Qizxonim yana tul qoldi. Keyin Mustafo xonga tegdi. Ikkita o'g'il tug'ganidan so'ng Mustafo xon uni qo'yib yubordi. Nihoyat Qorabog'ga qaytib, mayor Abbosquli og'a bilan turmush qurdi.

Ibrohim xon Og'amammad shoh janozasini katta hurmatlar bilan Tehronga yubordi. Eron bilan do'stlikni mustahkamlash

maqsadida qizi Og'abayim beka bilan o'g'li Abulfat og'ani ham Tehronga jo'natib yubordi.

Og'abayim beka Fatali shohga shu qadar yoqib qoldiki, unga hurmat yuzasidan bosh xotin unvonini berib, o'ziga ham boshdan oyoq dur bilan ishlangan xalat hadya qilgandi. Lekin Og'abayim o'z vatanini sog'inib, ko'rish orzusida yashardi:

Men oshiqman Qorabog',
Shaki, Shirvon, Qorabog',
Tehron jannat bo'lsa-da,
Yoddan chiqmas Qorabog'! —

deb yozardi.

Shoh buni eshitib Og'abayimga zulm qiladi.

Men unday yozmagandim, — aslida "Tehron jannatga do'ndi, yoddan chiqmas Qorabog'!" deb yozgandim deydi.

Ibrohim xon Qorabog'ning taqdirini Eron himoyasida tasavvur qilgan holda shimolda ishlar butunlay boshqacha tus olgandi: rus qo'shini bu safar jiddiy tarzda Kavkazni istilo qilishga kirishgandi. Sisyanov Ganjani egallab vayron etgan, Javad xonni o'ldirtirgan va odamlarni nayzagardon qilgandi.

Ibrohim xonni ham rus himoyasiga kirishga da'vat qildi. Mayor Lisanevich Shushaga kelib, gaplashganidan so'ng Ibrohim xon Ganja yonidagi Quroq daryosi bo'yida Sisyanov bilan uchrashib, tuzilgan shartnoma shartlariga ko'ra rus himoyasiga o'tdi (1805-yil 14-may). Shu shartnomaga binoan Qorabog' xoni rus himoyasidan boshqasiga o'tolmas, qo'shni davlatlar bilan rasmiy aloqalarni to'xtatardi. Shushaga keladigan rus qo'shiniga manzil va oziq ovqat tayyorlash; har yili 8 ming tilla boj berishi, Ganja Shusha yo'lini qo'riqlashi va katta o'g'lidan bo'lgan nabirasini Tiflisga garov uchun berishi kerak edi. Buning evaziga rus hukumati Qorabog' xonligiga tegishli yerlarning xon ixtiyorida qolishini va merosi sifatida avlodlarga o'tishini ta'minlab, xonlikka dahldor bo'lgan ishlarga aralashmaydi. Xonlikni mudofaa qilish uchun ham Shushaga besh yuz askar va artilleriya yuboradi.

Qo'shimcha tarzda Ibrohim xonga general-leytenant va valiahdi Mammadhasan og'aga general-mayor martabasi berildi. Ras-

miyat ishlari bitgach, mayor Lisanevich boshchiligidagi Shushaga rus askari keldi. Tabiiyki, Shusha Lisanevichning qo'liga o'tar-o'tmas, shartnoma esdan chiqdi, mayor Lisanevich general-leytenant Ibrohim Xalil xonga buyruqlar yuborib, talablar qo'ya boshladi. Oralari keskin buzildi, buning ustiga Sisyanovning haqorat to'la xatlari Ibrohim xonning nafsoniyatini, obro'sini yerga urdi. Nihoyat, bir kecha Lisanevich yuzta askar bilan Xon bog'ida yashayotgan xon oilasini o'rab olib o'qqa tuttirdi. Xon, xotini, bolalari, xizmatkorlari qirib tashlandi...

Safar ham Voqif o'ldirilishidan avval zindondan qochib, yana qochoqlikni boshlagandi. U, Ibrohim Jardan qaytganidan keyin ham shaharga qaytishni istamadi.

Kozim yana zaruqachi usta bo'lib qolgandi. Do'sti Ollohquli esa Tiflisga qochib, taniqli savdogarga aylangandi, nihoyat maqsadiga yetgandi.

15.XI. 1936 — 19 IV.1937-yil
Boku

MUNDARIJA

Jalil Mammadqulizoda

"Ko'zingizni ochib, menga boqing!.." *(Usmon Qo'chqor)* 4

Qissa va hikoyalar

Usmon Qo'chqor tarjimalari

Donobosh qishlog'i ahvolotlari. *(Qissa)* 14
Pochta qutisi 109
Qurbonalibek 118
Usta Zaynal 140
Eronda hurriyat 153
Muz 173
Qo'zi 180
Pirverdining xo'rozi 186
Baqqol Mashadi Rahim 189
Sibizg'a 192
Kishmish o'yini 200
Xonning tasbehi 211
G'alcha 216
Mulla Fazlali 221
O'g'ri sigir 227
Tush 234
Qassob 237
Soqolli bola 241
To'y 245
Sartarosh 249
Sharq fakulteti 252
G'alla hakimi 256
Hammollar 261
Xavotir 266
Sirka 272
Arzonchilik 276
Ikki olma 278

Yusuf Vazir Chamanzaminli

Millat deya qayg'urgan adib *(Muhiddin Rahim)* 282

Fayzi Shohismoil tarjimasi

Ikki o't orasida. Roman

Birinchi qism 285
Ikkinchi qism 389
Uchinchi qism 474
Xotima 540

215652-80

J 20 Jalil Mamatqulizoda, Yusuf Vazir Chamanzaminli, [Matn]: nasr/ to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Muhiddin Rahim. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. — 544 b.
ISBN 978-9943-8725-9-2

UO'K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

JALIL MAMMADQULIZODA

YUSUF VAZIR CHAMANZAMINLI

62-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^1/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 34,0. Nashriyot-hisob tabog'i 32,06.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 129-1/22. Buyurtma raqami № 22-345.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

JALIL MAMMADQULIZODA

YUSUF VAZIR CHAMANZAMINLI